



Nasimxon RAHMONOV

**O'ZBEK  
ADABIYOTI  
TARIXI**

*(Eng qadimgi davrlardan  
XV asrning birinchi yarmigacha)*

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti**

**Nasimxon RAHMONOV**

# **O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI**

*(Eng qadimgi davrlardan XV asrning  
birinchi yarmigacha)*

**O‘QUV QO‘LLANMASI**

**“Sano-standart” nashriyoti  
TOSHKENT – 2017**

UO‘K 821.512.133(09)(075.8)

KBK 83.3g(50‘)

R-30

**Nasimxon RAHMONOV**

**O‘zbek adabiyoti tarixi** (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O‘quv qo‘llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 556 bet.

## **O‘QUV QO‘LLANMA**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016 yil 22-yanvardagi 26-sonli qaroriga asosan 512100 – Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun o‘quv qo‘llanmasi sifatida tavsiya etilgan

***Mas’ul muharrir:***

**Hamidulla Boltaboyev**

*filologiya fanlari doktori, professor*

***Taqrizchilar:***

**Saidbek Hasanov**, filologiya fanlari doktori, professor

**Dilnavoz Yusupova**, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur qo‘llanma o‘zbek adabiyotining eng qadimgi davrlaridan XV asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan. Qo‘llanmada birinchi marta qadimgi turkiy mif va afsonalar, islomgacha bo‘lgan davr yozma yodgorliklari o‘zbek xalqining adabiy yodgorliklari va yozma manbalari sifatida batafsil yoritilgan. O‘zbek adabiyoti tarixi manbalari yangicha davrlashtirish tamoyillari va adabiy estetik hamda diniy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan, shu paytgacha diniy asar sifatida qaralib, adabiyot tarixidan o‘rin olmagan yozma yodgorliklar ham o‘zbek adabiyoti tarixining nodir yodgorliklari sifatida o‘rganilgan. Mazkur qo‘llanmada, avvalgi qo‘llanmalardan farqli ravishda, har bir ijodkorning va badiiy asarning adabiy-estetik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan.

ISBN 978-9943-4418-2-8

© Sano-standart, 2017

**“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va adabiyot tarixiga munosabat.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, hamma sohalar qatori, ma’naviy jarayonga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ma’naviy jarayon ma’lum bir mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynab kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Mamlakatning ruhan barqaror, sog‘lom fikrli avlodlari ma’naviy jarayon tufayligina o‘z g‘oyalarini, aqidalarini yaratib, avloddan-avlodga o‘tkazib kelgan.

Sharq azaldan ma’naviy jarayon beshigi edi. Qadimgi Shumer, Misr, Xitoy, Hindiston, Turon xalqlari yaratgan moddiy-ma’naviy yodgorliklarni eslab o‘tishning o‘zi kifoya. Ayniqsa, Turonzaminning osori-atiqalari, yozuv madaniyati, arxitektura inshootlari hamon jahon ahlini hayratga solib kelmoqda.

Zotan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da shunday deyiladi: “... sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi”.<sup>1</sup> Dasturda aytilgan bu kamchiliklar o‘zbek mumtoz adabiyotini oliy ta’lim tizimida o‘qitishga ham bevosita va bilvosita aloqadordir. Ayniqsa, dasturda “Xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minlash”<sup>2</sup>ga qaratilgani o‘zbek mumtoz adabiyotini oliy ta’lim tizimida o‘qitishga alohida e’tibor berish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki Dasturda ta’kidlangan “xalqning boy va ma’naviy merosi”ning katta qismini o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari tashkil qiladi. Ikki ming yillik tarixga ega mumtoz adabiyotni izchil o‘rgatadigan qo‘llanmaning yo‘qligi ham “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da qo‘yilgan vaziflarni amalga oshirishni bir oz qiyinlashtirmoqda.

O‘zbek adabiyoti tarixi, umuman, o‘zbek tili va adabiyoti fanlariga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor berilayotgani ham bu fanning oliy ta’lim tizimida, qolaversa, jamiyatimizda katta mavqega ega ekanini ko‘rsatadi. Xususan, 2016-yilning 13 may kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan chiqarilgan “Alisher

---

<sup>1</sup> Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami. – “Istiqlo‘l” nashriyoti sho‘ba korxonasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2004, 10-b.

<sup>2</sup> Yuqoridagi to‘plam. 17-b.



Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida" Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Farmonda ta'kidlanishicha, "Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur" degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi". Shuningdek, Farmonda o'zbek tilining qadimiy ildizga va boy tarixga ega ekani, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgani to'g'risida ham aytilgan. Qo'llanmada, mazkur farmondan kelib chiqilgan holda, har bir davrdagi adabiy tilning adabiy manbalarni shakllantirishdagi roliga ham alohida e'tibor qaratilgan.

"O'zbek adabiyoti tarixi" kursini o'qitish muntazam ravishda adabiyotshunoslik va metodika fanlariga doir so'nggi yutuqlar bilan boyitib borilishi talab etiladi. Aks holda, talabalarning mumtoz adabiyot tarixi haqidagi tasavvurlari adabiyotshunoslik fani taraqqiyotidan ortda qolib ketadi. Shuningdek, bo'lajak filologlar egallagan bilimlarini yosh avlodga o'rgatishning samarali didaktik usullaridan bexabar qolishlari mumkin. Yosh filologlar ertangi kunga yaroqsiz eski adabiy qarashlar tizimi bilan qurollanib qolmasliklari uchun ko'p asrlik tarixga ega o'zbek adabiyotiga tamomila yangicha nuqtai nazardan yondashish zaruriyati paydo bo'ldi. Chunki bizda, shu vaqtga qadar, umuman, adabiyot tarixini, xususan, mumtoz adabiyot tarixini sog'lom ilmiy asoslarda o'rganish tamoyillari ishlab chiqilmagan edi.

Ko'p asrlik o'zbek adabiyoti tarixi o'tmishda alohida mustaqil fan va yaxlit tizimli badiiy-estetik hodisa sifatida emas, balki eng yetuk adabiy siymolarning alohida asarlari ko'proq badiiy mahorat nuqtai nazardan lokal yo'sinda o'rganib kelingan bo'lsa, Sho'ro davrida adabiyotga sinfiy-partiyaviy nuqtai nazar bilan qarash oqibatida bir millatning yagona adabiyotiga bir-biriga zid bo'lgan ikkita adabiyot sifatida qaraldi.

**O'zbek adabiyotini davrlashtirish tamoyillari.** Sho'ro davrida milliy adabiyotni davrlashtirish muammosiga ham sog'lom tafakkur pozitsiyasidan yondashilmay, adabiyotning san'at va estetik hodisa ekanligi hisobga olinmadi. Shuning uchun ham adabiyotning taraqqiyoti to'lig'icha jamiyat tarixidagi davrlarga mos keladigan bosqichlardan iborat deb qaraldi. Adabiy shaxsiyatlarga munosabat, badiiy matnlar tahlili va talqini bobida ham sinfiy-partiyaviy yondashuv ustuvor bo'ldi. Bu

nosog‘lom va g‘ayriilmiy yondashuvlarni bartaraf etish, bo‘lajak filologlarning adabiyotshunoslikdagi eng so‘nggi va sog‘lom ilmiy qarashlardan xabardorligini ta‘minlash uchun ham «O‘zbek adabiyot tarixi» kursini tamomila yangicha ilmiy qarashlar tizimiga tayanilgan, adabiyot tarixiga oldingilarga o‘xshamaydigan nuqtai nazardan yondashilgan yo‘sinda o‘rganish va o‘rgatish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

Nazarimizda, o‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish uchun mezon sifatida ma‘lum bir adabiy- tarixiy jarayonni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Masalan, islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiy jarayon islom davridagi adabiyotdan ham mazmunan, ham paydo bo‘lish jihatidan farq qiladi. Islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiyot shomonlik, buddaviylik, moniylik diniy oqimlarisiz rivojlanishi mumkin emas edi. Qolaversa, islomdan oldingi adabiy yodgorliklarga tom ma‘nodagi yozma adabiyot sifatida qaralmadi. Bu davrdagi adabiy yodgorliklarning o‘ziga xos mezonlari borligi va ana shu mezonlar davrlashtirishning asosi bo‘lishi kerakligi bugungi kunda ma‘lum. Islomgacha bo‘lgan bir necha diniy oqimlar bir hududda faoliyat ko‘rsataverdi. Markaziy Osiyoda birin-ketin zardushtiylik, shomonlik, moniylik, buddaviylik oqimlari o‘ziga xos yozma adabiyotni yuzaga keltirdi. Buddaviylik oqimi “Oltun yorug‘”ni, “Maytri smit”ni va buddaviylik she‘rlarini, moniylik oqimi “Xuastuanift”ni (Moniylarning tavbanomasi)ni va moniylik she‘rlarini, shomonlik qadimgi turkiy afsonalarni yuzaga keltirdi, bu oqim turkiyrun yozma yodgorliklarida ham ta‘sir etdi.

Ana shu fikr-qarashlardan kelib chiqqan holda islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyotni quyidagicha davrlashtirish maqsadga muvofiqdir:

**Shomonlik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.**

**Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot;**

**Buddaviylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.**

Biz ikki jilddan iborat “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari”ni<sup>3</sup> tuzganimizda, o‘zbek adabiyotini davrlashtirish tamoyillarining o‘ziga xos jihatlari, mezonlari, tamoyillari haqida qisqacha so‘z yuritib, o‘zimizning davrlashtirishimizni taqdim qilgan edik. Keyingi izlanishlar natijasida o‘zbek adabiyotini davrlashtirish uchun faqat badiiy asarlarni emas, balki tarixiy-adabiy asarlarni, sof tarixiy asarlar va ularning tar-

---

<sup>3</sup> Qarang: O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, 1 jild (eng qadimgi davrlardan XI-XII asr oxirigacha). Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi filologiya fanlari doktori, professor N. Rahmonov, Toshkent, «Fan», 2005; O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, II jild (XIV-XV asr boshlari), Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi filologiya fanlari doktori, professor N. Rahmon, Toshkent, «Fan», 2007.

kibida istifoda etilgan ma'lum adabiy janrlarni ham jalb etish lozimligi ma'lum bo'ldi.

Ammo o'zbek adabiyotini davrlashtirish uchun faqat turkiy yoki o'zbek tilidagi asarlarning o'zi ham kifoya emas. O'rta Osiyodagi, xususan, Turonzamindagi arab tilidagi adabiyot ham o'zbek adabiyoti tarixida alohida davrni tashkil qilishi haqida biz o'z qarashlarimizni ilgari surgan edik.<sup>4</sup> Bu davr adabiyotini biz «G'aznaviylar davri adabiyoti» degan nom bilan atash maqsadga muvofiqligini va buning sabablarini ham tahlil qildik. G'aznaviylar davlatining o'z qo'li ostidagi davlatlarda olib borgan siyosati ilmiy va madaniy muhitga keskin ta'sir o'tkazdi. G'aznaviylar davlatining ilmiy, madaniy va adabiy muhiti XI asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy merosida namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, G'aznaviylar davlatining butun yutuqlari, ilmdagi, adabiyotdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi omil – Beruniyning asarlaridir. Eng muhimi, G'aznaviylar davlati adabiyotini alohida davr sifatida o'rganishda Beruniyga tayanish mumkin. Soddaroq qilib aytganda, **“G'aznaviylar davri adabiyoti”** degan nom ostida alohida davrni Beruniyning badiiy adabiyotga, adabiy janrlarga bo'lgan munosabati, uning qarashlari belgilaydi. Biz uchun muhimi shu - uning ilmiy faoliyati, G'aznaviylar sulolasida yaratgan adabiyot va adabiyoshunoslikka oid qarashlari alohida adabiy davr haqida so'z yuritish imkonini berganidir. Shu bois, birinchi navbatda, “G'aznaviylar davri adabiyoti”ni alohida adabiy davr sifatida baholar ekanmiz, Beruniyning “Osor ul boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asaridagi adabiy janrlar, adabiyotshunoslikka oid kuzatishlariga, qolaversa, “Hindiston” asarida afsona va rivoyatlarga tayanamiz. Shuningdek, Ibn Sinoning “Tayr”, “Solomon va Ibsol” qissalari ham G'aznaviylar davri adabiyotining bir qismidir.

Savol tug'ilishi mumkin: Beruniy bironta asarini o'zbek tilida yozmagan bo'lsa, qanday qilib uning tarixiy-etnografik asarlarida keltirilgan adabiy janrlar o'zbek adabiyotining mulki deb ayta olamiz? Jahon adabiyotida shu qoida ma'lumki, til muammosi har doim ham masalani hal qilavermagan. Masalan, Bibliyaning Yangi Ahd qismini yahudiy xalqi o'zining mulki, o'zining badiiy asarlari, madaniy merosi sifatida qadrlaydi. Lekin Yangi Ahd asosan yunon tilida yetib kelgan. Ammo yunonlar hech qachon Yangi Ahd muallifligiga da'vo qilgan emaslar. Bunga o'xshash misollarni boshqa xalqlarning qadimgi adabiyotidan namuna sifatida keltirish mumkin. Biz esa faqat bir misol bilan cheklanamiz.

<sup>4</sup> Некоторые вопросы периодизации узбекской литературы. «Алтаистика и тюркология» ж., Астана, 2013, №4.

O'rta Osiyoda arab xalifaligi hukmronligi davrida turkiy yoki o'zbek adabiyoti tanazzulga yuz tutdi. O'rta Osiyoda arab xalifaligi hukmronligi davriga oid turkiy tildagi yozma manbalar yo'q. Darvoqe, Beruniy O'rta Osiyoga, xususan, Moavarounnahrda arablar istilosigt va uning oqibatlarini shunday tasvirlaydi: "Qutayba Ibn Muslim al-Bohiliy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli, ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar".<sup>5</sup>

Mana shu dalilning o'zi ham arab xalifaligi davrida Movarounnahrning madaniy ahvolidan darak beradi. Ammo adabiy jarayon to'xtab qolmadi. Yaqin uch asr davomida turkiy adabiyotning markazi Movarounnahrdan tashqarida Sharqiy Turkistonda, Sibir o'lkalarida yashadi. Bu o'lkalar islom madaniyatidan xoli bo'lgani uchun og'zaki va yozma adabiyot qadimgi turkiy adabiyotning davomi sifatida yashayverdi.

Arab xalifaligidan keyin paydo bo'lgan Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar sulolalarida vaziyat tamomila boshqacha tarzda namoyon bo'ldi. Somoniylar sulolasida fors-tojik adabiyoti gullab-yashnadi, Qoraxoniylar davrida turkiy til, turkiy madaniyatga alohida e'tibor qaratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "G'aznaviylar davri adabiyoti" ham o'zbek adabiyotining bir bo'lagi sifatida o'qitilishi lozim, deb bilamiz. Ammo shuni hisobga olish kerakki, ilk uyg'onish davri vakillari – Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Rudakiy kabi olim va shoirlar ham "G'aznaviylar davri adabiyoti" qismida berildi.

Xullas, sulolalar tarixi davrlashtirishning bir mezoni bo'lishi mumkin ekan. Bunday holda albatta adabiy jarayonda jiddiy o'zgarishlar bo'lishi, yangi, takrorlanmas adabiy muhit yuzaga kelishi shart. Mashhur adabiyotshunos N.Mallayev o'z davrida o'zbek adabiyotini davrlashtirish haqida so'z yuritganda, sovet mafkurasi nuqtai nazaridan adabiyot bilan xonlar, sulolalar tarixi va nomi o'rtasiga qat'iy chegara qo'ygan edi. U o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari va omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatdi: "...adabiyot tarixi xalq tarixining uzviy bir qismi bo'lib, uni davrlashtirishda, bir tomondan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonuniyatlariga, ikkinchi tomondan, adabiyot taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlariga asoslanish lozim".<sup>6</sup> N.Mallayevning davrlashtirish tamoyillari bu o'rinda aniq belgilangan. Darslik muallifi adabiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar, xususan, adabiyotni davrlashtirish

<sup>5</sup> Abu Rayhon Beruniy. O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar, Toshkent, Fan, 1968, 84-b.

<sup>6</sup> Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob (XVII asrgacha) "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 1976. 7-b.

tamoyillarining eskicha usullari bilan o'zining davrlashtirish tamoyillari o'rtasida tamomila farq borligini dalillashga harakat qiladi: "...sovet adabiyotshunosligi o'zbek adabiyoti tarixini o'rganish sohasida yo'l qo'yilgan xatolarga, jumladan, adabiyot tarixi taraqqiyotini sulolalar yoki podsholarning, xonlarning kelib-ketishlari tarixiga qarab davrlashtirish mayllariga uzil-kesil barham berdi".<sup>7</sup> N.Mallayev ma'lum darajada haq, u sulolalar hukmdorlari bilan adabiy jarayon taqdirini belgilash tarafdori emas va adabiyotni davrlashtirishda ham tamomila bu tamoyildan Sovet davrida voz kechilganini ta'kidlaydi. Ammo masala boshqa yoqda – adabiy jarayonning ma'lum bir xonlik davridagi o'ziga xos, takrorlanmas xususiyatlari – adabiy jarayonning yuksalishi yoki tanazzuli, adabiyotga yangicha yondashuv davrlashtirish uchun tamoyil bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi? Shubhasiz, ma'lum bir sulolalar va xonliklarning adabiy jarayonni yangi o'zanga burib yuborgani aniq va bunga misollar ham ko'p. Bu holatni Qoraxoniylar sulolasida ham, Oltin O'rda adabiyotida ham, Temuriylar davri adabiyotida ham ko'rish mumkin. Shu bois biz o'zbek adabiyotida ma'lum sulolalar davrida o'ziga xos mezon, tamoyillar, usul shakllangani uchun, adabiyotni davrlashtirishda sulolalar tarixiga tayanamiz va shu nom bilan ataymiz.

O'zbek adabiyotining ilk mumtoz va o'rta asrlar davridagi bosqichlariga nazar tashlasak, yana bir hodisaning guvohi bo'lamiz. Bu adabiy jarayonning uzluksizligi masalasidir. Adabiy jarayonning uzluksizligini ta'minlaydigan omillar va vositalar ma'lum syujetlar, yoki badiiy tasvir vositalaridir. Aytaylik, qadimgi turkiy adabiyotdan ilk klassik davrga o'tish jarayonida shunday hodisani kuzatish mumkin. Jumladan, qadimgi turkiy-run yozma yodgorliklarini yozma adabiyotning namunasi sifatida tahlil va talqinlar ilk mumtoz adabiyotidan uzilmasdan, obrazlar, badiiy tasviriy vositalarida davom etdi. Masalan, "Qutadg'u bilig" bilan turkiy-run yozuvlari o'rtasidagi aloqalar shundan dalolat beradi. Ikki davr adabiyotining – islomgacha va islomdan keyingi davr adabiyotining o'rtasidagi uzluksizlik davrlashtirishga aslo halaqit bermaydi. Bu holat esa qadimgi turkiy adabiyotni ikki davrga - islomgacha va islom davridagi adabiyot sifatida chegaralab o'rganishga imkon berdi.

Qoraxoniylar sulolasi davridagi turkiy adabiyot islomgacha bo'lgan turkiy adabiyotdan farq qiladi. Garchi bu davrdagi adabiyot qadimgi turkiy tilda davom etgan bo'lsa ham, adabiyotning mazmun-mohiyati, adabiy ta'sir, janrlar, vazn, xullas, adabiy jarayon nuqtai nazaridan alohida davr sifatida ajratilishini taqozo etadi.

---

<sup>7</sup> Mallayev N.M. Yuqoridagi asar, 8-b.

Mo'g'ullar istilosi Markaziy Osiyoning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga jiddiy salbiy ta'sir etdi. Bu haqda aytib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylaymiz. Ammo mo'g'ul istilosining, birinchi navbatda, mo'g'ullarning o'zlari uchun, ikkinchidan, O'rta Osiyo turkiy qavmlari uchun ijobiy tomonlari ham bo'ldi. Mo'g'ullar uchun ijobiy tomoni shunda bo'ldiki, na davlat tizimiga, na davlat boshqaruvi tizimiga, na turmush madaniyatiga ega bo'lgan xalq O'rta Osiyoga kelib, hamma narsani – davlat tuzilishini ham, davlat boshqaruvini ham, turmush madaniyatini, ma'naviy madaniyatni, jumladan, yozuv madaniyatini ham o'rgandi. Ikkinchidan, adabiy jarayon tamomila boshqa o'zanga tushdi. yerli xalqning ehtiyojlarini birinchi navbatda e'tiborda tutgan mo'g'ul xonlari turkiy tildagi adabiyotga e'tibor berdilar. Ayniqsa, Oltin O'rda davlati turkiy tildagi, aniqrog'i, yevropaliklar "chig'atoycha" deb ataydigan eski o'zbek tilidagi adabiyot taraqqiyotiga e'tibor qaratdilar. Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroy shahrida eski o'zbek tilidagi adabiy muhit yuzaga keldi. Qul Ali, Mahmud Ali ibn as-Saroyi, Xorazmiy, Rabg'uziy, Qutb va boshqa qator ijodkorlar Oltin O'rda adabiy muhitini shakllantirdilar. Misr mamluklar davlatidagi (XIII-XVI asrlar) turkiy adabiyot ham bevosita Oltin O'rda adabiyotining davomidir.

Oltin O'rda qulagandan so'ng, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan birga, adabiy, madaniy va ilmiy hayot ham o'zgardi. Adabiy hayotdagi o'zgarishlar Temuriylar davri adabiyotiga zamin bo'ldi.

Temuriylar davri adabiyotiga oid mazkur qo'llanmada tahlil qilingan asarlarni biz yuqorida keltirilgan majmuamizning 2-jildida manbas-hunoslik nuqtai nazaridan qaytadan ko'rib chiqdik. Xususan, munoza-ralar janriga oid asarlarning nashrini fotonusxalariga solishtirib, matn tayyorlash jarayonida yo'l qo'yilgan ko'plab saktaliklarni bartaraf qila oldik. Talabalar matnni o'qish jarayonida lug'atga ehtiyoj sezmasin deb, matnlarni imkon qadar lug'at bilan ta'minlashga harakat qildik; zamon talablari tufayli tushirib qoldirilgan aksariyat mumtoz asarlarning debo-chalarini, masalan, nomalarning hamd, na't qismlarini turli manbalardan topib tiklab, tahlil ob'ekti qilib oldik va talaba asarni to'liq tasavvur qilishiga harakat etdik.

Yuqoridagi qisqacha sharhlardan shu narsa ayon bo'ladiki, adabiy jarayonning o'zgarishi va taraqqiyoti bevosita va bilvosita sulolalar tari-xiga ham, sulolalar o'zgarishi bilan yuzaga kelgan adabiy va madaniy muhitga ham bog'liq ekan. Qolaversa, o'zbek adabiyoti har bir davrda o'ziga xos kategoriyalarga – muallif pozitsiyasiga, mavzuga, g'oyaga,

muammoga, uslubga va h.larga ega bo‘lib, sulolalar tarixi bu kategoriya-larning paydo bo‘lishi va shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Adabiy ja-rayondagi ana shu kategoriyalarni inobatga olgan holda, XV asrgacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti tarixini quyidagicha davrlashtirib o‘rganish maqsadga muvofiq, deb qaraymiz:

### 1. Islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyot:

a) *Buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyot.*

b) *Moniylilik oqimidagi turkiy adabiyot.*

v) *Shomonlik oqimidagi turkiy adabiyot.*

### 2. G‘aznaviylar davri adabiyoti.

### 3. Qoraxoniylar davri turkiy adabiyoti.

### 4. Oltin O‘rda davri o‘zbek adabiyoti.

### 5. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti.

Umuman, adabiy jarayonni davrlashtirishda asar yozilgan davrdagi lisoniy muhit bosh o‘rin tutib qolmasligi lozim. Ijodkor yashagan ijti-moiy muhit, adabiy kategoriyalarning har bir davrda o‘ziga xosliklari va badiiylik tamoyillari asosiy mezon bo‘lishi kerak. Zotan, yuqorida aytib o‘tganimizdek, sulolalar tarixi ayni ana shu mezonlarga zamin yasadi.

Biz o‘zbek adabiyoti tarixini XV asrgacha qaysi omillarga ko‘ra davrlashtirish lozim degan savolga javob tariqasida yuqoridagi fikrlar-ni o‘rtaga tashladik. Abdurauf Fitrat, Ko‘prulizoda, Miyon Buzruk kabi ulug‘ olimlarning o‘zbek adabiyotini davrlashtirish haqidagi qarashlari-ga to‘xtalmadik. Ularning o‘zbek adabiyotini davrlashtirishiga munosa-batimiz boshqa ishimizda o‘z aksini topgan.<sup>8</sup>

\* \* \*

Qadimgi turkiy adabiyotdan boshlab adabiy janrlarda va adabiy shakllarda o‘zgarishlar yuz berdi. Shu bois bular haqida ham qisqa nazariy bilimlar berish nazarda tutildi va qo‘llanmaga “Ilova” berildi. “Ilova”ni Guliston davlat universitetining dotsenti, filologiya fanlari nomzodi **Muzaffar Mamatqulov** yozdi. Bu qismning mas’ul muharriri filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Vahob Rahmonov**.

---

<sup>8</sup> Raxmanov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. –Toshkent: MUMTOZ SO‘Z., 2016.



# ISLOMGACHA BO'LGAN DAVRDAGI QADIMGI TURKIY ADABIYOT

## Qadimgi mif va afsonalar

### Reja:

1. Mif nima?
2. Mif og'zaki adabiyotning shakli sifatida.
3. Mif – ibtidoiy insonning fikrlash darajasini ko'rsatuvchi omil.
4. Kosmogonik mifning qadimgi turkiy yodgorliklarda ko'rinishi.
5. To'fon haqidagi mif va uning qadimgi turkiy yodgorliklarda ko'rinishlari.
6. Tangri kulti va uning mifologik mazmuni.
7. "Oltun yorug'"da Umay kulti.

**Tayanch so'z va iboralar:** *ko'hna badiiy tafakkur, mif, afsona, adabiy jarayon, muqaddas afsonalar, etiologik mif, kosmogonik mif, antropogonik mif, urxun-yenisey yodgorliklari.*

Qadimgi davrdagi adabiy yodgorliklar sifatida qadimgi mif va afsonalarni ham nazarda tutish mumkin.

**Mif nima?** Bu savol har doim ko'ndalang bo'lib turadi. Mif, sodda qilib aytganda, olamning yaratilishi, insoniyatning kelib chiqishi, shuningdek, xudolarning, qahramonlarning paydo bo'lishi, ularning faoliyati haqidagi badiiy, sodda va ko'pincha g'alati ko'hna badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan adabiy parchadir. *Mif* yunoncha so'z bo'lib, "afsona", "rivoyat" ma'nolarini bildiradi. Ammo mifni afsona bilan bir deb qarab bo'lmaydi. Mif badiiy tafakkurning eng kichik, sodda, epik syujetga ega bo'lmagan ilk badiiy shaklidir. Mif adabiy jarayonning birinchi bosqichidir. Yoki quyidagi ta'rif mif bilan afsonani yanada aniqroq farqlashga, ular o'rtasidagi ayirmani yanada tushunarli qilib ko'rsatishga xizmat qiladi: "Miflar - biz hozirda afsona deb ataydigan muqaddas rivoyatlar xarakterini qabul qiladi, Mif bilan afsona o'rtasidagi farq tushunarli: mif – tafakkurning beixtiyor shaklidir, afsona – ongli ijodning mahsulidir".<sup>9</sup> Insoniyat azalda mif yaratishni maqsad qilib qo'ymagan, balki ma'lum kultlar, udumlar, urf-odatlarini bayon qilish va amalda qo'llash natijasida

---

<sup>9</sup> Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. М.: Главная редакция восточной литературы, 1978, с.119.

miflarning turlari kelib chiqqan. Bular ko‘proq totemistik miflarga, kosmogonik miflarga va boshqa qator mif turlariga tegishli.

**Mif og‘zaki adabiyotning shakli sifatida.** Badiiy adabiyotning ilk ko‘rinishi – og‘zaki shakli mifdan boshlangan. Mif qaysidir xalqlarda yozma shaklda saqlanib qolgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Sharqdagi aksariyat yozma manbalar – shumer, misr, bobil, xet kabi qator qadimiy xalqlarning yozma yodgorliklaridan bir qator miflar bizgacha yetib kelgan. Jumladan, yaratilish (ismlarning, udumlarning, buyumlarning paydo bo‘lishi haqidagi *etiologik miflar*, yoki olamning paydo bo‘lishi haqidagi *kosmogonik miflar*; insonning paydo bo‘lishi haqidagi *antropogonik miflar* - bu har uchala mif turi arxaik miflarning asosiy mazmunini tashkil qiladi) haqidagi miflar yuqorida aytib o‘tilgan xalqlarning deyarli hammasida bor. Zotan, miflarni qiyosiy-tarixiy o‘rganish asosida olimlar shunday xulosaga keldilarki, dunyodagi ko‘pchilik xalqlarning miflarida bir qator mavzular va motivlar takrorlanavergan. Masalan, yuqorida aytilgan uchala mif turini madaniy rivojlangan xalqlarning hammasida uchratish mumkin.

Ibtidoiy jamiyatda mif olamni tushunish va anglashning asosiy usuli bo‘lgan edi. Shuning uchun mif ijod qilish insoniyatning madaniy taraqqiyotida muhim hodisa hisoblangan. Bu jarayon hamma mif turiga aloqador. Ayni paytda mif shunchaki qisqa matndan iborat adabiy parcha bo‘lib qolmay, u yaratilgan davrdagi olamni his qilish va olamni anglashni ifodalaydi. Inson ilk yaratilgan davrdan boshlab atrofga munosabatini bildirib qolmasdan, “idrokli inson” sifatida olamni anglab yetishiga zarurat tug‘ilgan. Demak, mif idrokli insonning aqliy faoliyati mahsuli. Mif orqali inson ibtidoiy holda bo‘lsa ham, olamni ilmiy bilishga harakat qilgan.

**Mif - ibtidoiy insonning fikrlash darajasini ko‘rsatuvchi omil.** Ibtidoiy inson o‘zini tabiiy olamdan aniq ajrata bilmagan, shu bois tabiiy ob‘ektlarga o‘z insoniy xususiyatlarini ko‘chiravergan – tabiiy ob‘ektlar inson kabi hayot kechiradi, ularning insoniy his-tuyg‘ulari bor, ongli, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan xo‘jalik faoliyatini yuritadi, deb bilgan. Shuningdek, inson ibtidoiy bosqichda mavhum fikrlashni bilmagan. Mifning barcha turlari manbai ana shu fikrlashda. Fetishizm, animizm va totemizm kabi inonch-e’tiqodlar ham aslida atrof muhitni “insonlashtirish”dan kelib chiqqan. Turkiy miflar ham ayni shu xususiyatlar va jarayonlarni bosib o‘tgan.

## **Kosmogonik mifning qadimgi turkiy yodgorliklarda ko‘rinishi.**

Qadimgi turkiy miflarning manbai urxun-yenisey yozma yodgorliklari va qadimgi xitoy yilnomalarida, ayrim arab, fors va boshqa manbalarda. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan Kultigin bitikoshining birinchi misrasida olamning va insoniyatning paydo bo‘lishi haqidagi mif mavjud: *Uza ko‘k tangri asra yag‘iz yer qilintuqta akin ara kisi o‘g‘li qilinmis. Kisi o‘g‘linta uza achum apam Bo‘min qag‘an, Istami qag‘an o‘lurmis, o‘luripan turk bo‘dunin alin to‘rusin tuta birmis, ita birmis* – Yuqorida ko‘k osmon, ostda qora yer qilinganda, ikkovining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolasi ustidan ota-bobom Bo‘min xoqon, Istami xoqon o‘tirganlar, o‘tirib, turk xalqining davlatini, qonun-qoidalarini ushlab turgan. rioya qilib turgan<sup>10</sup>.

Parchani mif deb qarashimizga quyidagi omillar sababdir: qadimgi turkiylar yerni - ona, osmonni – ona deb tasavvur qilganlar. Inson bolalari (qadimgi turkiylar) osmon va yerning nikohidan paydo bo‘lgan. Kul tigin bitiktoshidan olingan bu parcha kosmogonik mifning namunasi. Bilga xoqon bitiktoshining boshlanmasida ham shu mif aynan takroranadi.

Kul tigin bitikoshining boshlanmasidagi mifga hamohanglik ko‘pchilik turkiy eposlarning boshlanmasida, jumladan, xakaslarning “Altin arig‘”, yoqut xalqining “Er Sogotox” eposlarida ham uchraydi. Jumladan, “Er Sogotox”da “ona yer” iborasi aynan Kul tigin bitiktoshidagi yerni ifoda etadi. Darvoqe, Kultigin bitiktoshi boshlanmasi qadimgi turkiy qavmlarning tarixiy voqealardan oldingi mifologik tasavvurlari va inonch-e‘tiqodlarining manzarasini yaratadi.

Moyun chur bitiktoshining boshlanmasi Kul tigin va Bilga xoqon bitiktoshlariniki singari mif bilan boshlanadi: *Tangrida bo‘lmish, il itimish bilga qag‘an* (1) – Tangridan bo‘lgan, davlatni barpo qilgan dono xoqon.

Kul tigin. Bilgan xoqon va Moyun chur bitiktoshlarining boshlanmasida afsonaviy epik ruhning borligiga sabab shuki, epik zamonning asosini mif tashkil qiladi. Mualliflarning maqsadi ilk davrdagi turkiy qavmlarning tarixini hikoya qilish edi. Tarixiy voqealar va mif bir-birini to‘ldiradi.<sup>11</sup> Mifning tarixiy voqealarni tasdiqlash uchun kiritilishi ayni

<sup>10</sup> Bu haqda yana qarang: Журакузиев Н. Представления древних тюрков о мироздании. - Российская тюркология. №1(6) 2012. РКТ при ОИФН РАН. – Москва-Казань. С. 91-96.

<sup>11</sup> Рахмонов Н. Некоторые особенности зачинов орхонских памятников. - “Ko‘hna turkiy yozma yodgorliklar: yozuv madaniyatining ibtidosi” xalqaro konferensiya materiallari “Информ

ana shu o'rinda o'z ifodasini topadi. Mazkur mif kosmogonik miflarning namunasidir.

Qadimgi turkiylarning kosmogonik mifologiyasida quyosh va oy timsoli ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, tongda chiqayotgan quyosh muqaddas sanalgan. Xoqon qarorgohining darvozasi sharqqa – quyosh chiqadigan tomonga qaratib qurilgan. Xitoy yilnomalarida qadimgi turkiylardagi boshqa muqaddas sanalgan samoviy jismlar qatorida “yetti sayyora” ham eslanadi. Urxun bitiktoshlarida makon sifatidagi yer to'rt tomondan iborat bo'lib, to'rt burchak bilan chegaralangan. Bu holatda yer yuqoridagiday mifologik mazmundan xolidir : *To'rt bulung qo'p yag'i armis* (Ktu 2) – To'rt tomon butunlay dushman ekan. Yoki tomonlar aniqlashtirilganda ham yerning to'rt tomoni geografik chegaralanish ma'nosini iqoda etadi: *O'ngra qitaniya, bariya tabg'achda, quriya qurdanta, yiraya og'uzda, aki uch bing sumuz, kaltachimiz bar mu na?* (To'n., 14) – Sharqda qitaniya, janubda tabg'achga, g'arbda qurdanga, shimolda o'g'uzga ikki uch ming lashkarimiz (bilan) boraylikmi?

**To'fon haqidagi mif va uning qadimgi turkiy yodgorliklarida ko'rinishlari.** Urxun bitiktoshlarida Sharqdagi ko'p xalqlarda tarqalgan To'fon haqidagi mif motiviga ham duch kelamiz. “To'fon haqidagi mif”ning motivi insoniyatni to'fon orqali qirib tashlash haqida xudolarning qaroridir. Xudolarning bu qaroriga sabab – insoniyatning gunohkorligidir. Shumerlarda, bobil xalqida To'fon haqidagi mif deyarli bir. Musoning “Ibtido” kitobida To'fon voqeasi ma'lum. Insoniyatni yer yuzidan qirib tashlash uchun vosita faqat suv emas, boshqa vositalar ham bo'lishi mumkin. Masalan, “Avesto”da qahraton qish Sharq mifologiyasidagi to'fon singari vazifani bajaradi – Xo'rmuzd yaqinlashib kelayotgan qattiq sovuq yer yuzida jamiki tirik jonzotni qirib tashlashi haqida Yimani ogohlantiradi. Haqiqatan, Yima bir uy qurib saqlab qolgan nabotot va hayvonot namunalaridan boshqa jamiki jnzotlarni va o'simliklarni sovuq qirib tashlaydi. “Avesto”da bu qirg'inning sababi nima? Zardusht aytadiki, Yimaning gunohkorligi tufayli insoniyat abadiy yashash huquqidan mahrum bo'ldi, Odam ato va Momo Havoning gunohkorligi tufayli insoniyat abadiy yashash huquqidan mahrum bo'lganiday.

Xuddi shu singari mifning motivini Kul tigin bitikoshida ko'rish mumkin. Bilga xoqon turkiy qavmlarga nasihat qilar ekan, davlatning yo'q bo'lib ketishiga ularning o'zlarini sababchi qilib ko'rsatadi,

shu bilan birga, Tangri (xudo va osmon) ularning qilgan gunohlari – boshboshdoqlik, xoqonlarning yo‘l-yo‘riqlariga itoat qilmaganlari va o‘zboshimchaliklari uchun jazolaganiga ham ishora qiladi: *Turk o‘g‘uz baglari boduni asiding! Uza tangri basmasar, asra yir talinmasar, turk bo‘dun, ilingin, to‘rungen kim artati?* (Ktu 22) – Ey turk o‘g‘uz beklari, xalqi, eshiting! Yuqorida osmon bosmagan bo‘lsa, pastda yer yorilmagan bo‘lsa, ey turki xalqi, davlatingni, qonun-qoidalarini kim yo‘q qildi?

Mazkur mif ham, turkiy qavmlar qilgan gunohlari evaziga xudolar (Tangri, yer) tomonidan jazolangan degan, xulosaga olib keladi. Sharq xalqlaridagi umumiy motiv – insoniyat qilgani gunohlari uchun xudolar tomonidan jazolanishi voqeasi o‘zaro ta‘sir orqali yuz bergan bo‘lishi mumkin.

Irq bitigida kosmogonik mifning bu turdagi ko‘rinishi yaxshi saqlangan: *“Yuqoriga tuman tushdi, pastda chang ko‘tarildi. Qush bolasi yurib yo‘lidan adashdi, kiyik bolasi yugurib yo‘lidan adashdi. Odam bolasi yurib yo‘lidan adashdi. Yana Tangri sharofati bilan uchinchi yilda butunlay eson-omon ko‘rishdilar, juda xursand bo‘lar, sevinar der. Shunday bilinglar: yaxshidir bu”* (Ib.15). Qush bolasining yo‘ldan adashuviga, kiyik bolasining yo‘ldan adashuviga va insonning yo‘ldan adashuviga sabab gunohkorligidir. Bu mif bo‘lgani uchun tafsilotlar bayon qilinmagan. Albatta, Tangri tomonidan jazolanishi aniq. Gunohdan qaytganlari uchun Tangri ularga marhamat qilgan.

**Tangri kulti va uning mifologik mazmuni.** Tangri (xudo) – turkiy mifologiyada keng tarqalgan timsol. U himoyachi, insoniyatni dushman-dan, yovuz kuchlardan saqlovchi timsol. Ko‘proq ruhiy ma‘noga ega bo‘lib, yuqori olamni ifodalaydi. Quyidagi parcha shu ma‘no va vazifani aniq tavsiflaydi: *“...Tabg‘ach qag‘anqa yag‘i bo‘lmis, yag‘i bo‘lip, itinu yaratinu umaduq, yana ichikmis. Buncha isig kuchig birtukgaru saqinmati. “Turk bo‘dun o‘lurayin, urug‘siratayin”, tip armis, yo‘qadu barir armis. Uza turk tangrisi, turk iduq subi yiri ancha timis: “turk bo‘dun yo‘q bo‘lmazun”, tiyin, “bo‘dun bo‘lchun, tiyin”, qangim Iltaris qag‘anig‘, o‘gim Ilbilga qatunig‘ Tangri to‘pasinta tutup yo‘garu ko‘turmis arinch. Qangim qag‘an yiti yigirmi arin tashiqmis, tashra yo‘riyur, tiyin, ku asidip baliqdaqi tag‘iqmis, tag‘daqi inmis, tirilip yatismis ar bo‘lmis. Tangri kuch bartuk uchun qangim qag‘an susi bo‘ri tag armis, yag‘isi qo‘ny tag armis, ilgaru, qurig‘aru sulap tirmish...”* (Ktu 9-12) – ...Tabg‘ach xoqoniga dushman bo‘ldi, dushman bo‘lib, quvilib,

o'zini tiklashga umid qilib, yana taslim bo'libdi. Shuncha mehnatini, kuchini sarf etganini andisha qilmay, Tabg'ach xoqoni "turk xalqini o'ldirayin, urug'ini qoldirmayin", der ekan, uni yo'qotib borayotgan ekan. Yuqorida turk tangrisi, turkning muqaddas suvi yeri shunday degan ekan: "Turk xalqi yo'q bo'lmasin", deb "xalq bo'lsin", deb otam Eltarish xoqonni, onam Ilbilga xotunni Tangri tepada tutib, yuqori ko'targan ekan. Otam xoqon o'n yetti yigiti bilan toqqa chiqib ketgan, tashqarida yuribdi, degan xabarni eshitib, shahardagi toqqa chiqibdi, tog'dagilar pastga tushibdi, yig'ilib, yetmish jangchi bo'libdi. Tangri kuch bergani uchun, otam xoqonning qo'shini bo'riday ekan, dushmani qo'yday ekan, sharqqa, g'arbgga qo'shin tortgan ekan...

Mazkur parchadagi Tangri so'zi "xudo" ma'nosida qo'llangani bois, turk xalqining asirlikdan qutulishi, muvaffaqiyatlari, dushman ustidan g'olib kelgani Tangriga, ya'ni xudoga bog'liq qilib qo'yilgan. Turk xalqini Tangri, shuningdek, yer-suv o'limdan – yer ostidan qutqarib, yuqoriga – uchinchi qavat olamga ko'tardi, Eltarish xoqon o'n yetti yigitni butun boshli lashkarga aylantirgan ekan, bu ham Tangrining himoyasi ostida bo'ldi. Eltarishning qo'shinini bo'riday va dushmanning lashkarini qo'yday qilgan ham Tangridir. "Xudo" ma'nosida qo'llangan Tangri bilan "osmon" ma'nosida qo'llangan tangrini bitikoshlar mualliflari juda yaxshi farqlaganlar – "ko'k" so'zi faqat osmon ma'nosidagi "tangri" so'ziga nisbatan qo'llangan; "xudo" ma'nosidagi Tangri so'zi oldidan "ko'k" so'zi ishlatilmaydi. "Osmon" ma'nosidagi tangrigina qadimgi turkiy mifologiyada ota deb tasavvur qilingan. Muallif Yo'llig' tigin, qolaversa, jamiki turkiy qavmlar "xudo" va "osmon" ma'nosidagi tangrilarini yaxshi farqlaganlar, balki Tangrining xudoga aylangani haqida mif bo'lgan bo'lishi mumkin. Zotan, bu bitiktoshlarda "xudo" ma'nosidagi Tangri ruhiy ma'no ifodalab, u haqdagi mifologik tasavvur saqlangan, xolos. Tangri haqida mifga ishora qiladigan bir dalil bor. Bu – Irq bitigining birinchi hikoyasidagi Tinsi timsolidir. Tinsi – xitoy podshohining unvonidir. Qadimgi turkiy qavmlarning tasavvuriga ko'ra, odam tushida Tinsini ko'rsa, hayotda muvaffaqiyatga erishar ekan.

Tangri (xudo)ning qadimgi turkiy mifologiyada, himoyachi vazifasidan tashqari, yana jazolovchi vazifasi ham bor: *Tangri ancha timis irinch: "qan birtim"*. (*Qaningin*) *qo'dip ichikding, ichikduk uchun tangri "ol" timis, arinch, turk bodun olti, alqinti, yo'q bo'lti* (To'n., 2-3) –

Tangri shunday degan, shekilli: “xon berdim”. (Xoningni) qo‘yib, taslim bo‘lding, taslim bo‘lganing uchun Tangri “o‘l” degan, shekilli, turk xalqi o‘ldi, zaiflashdi, yo‘q bo‘ldi.

O‘z xonidan yuz o‘g‘irgan turkiy qavmlarni Tangri qattiq jazoga yo‘liqtirdi – o‘limga, yo‘qolib ketishga mahkum qildi, ularni shu yo‘l bilan jazoladi.

**Turkiy mifologiyada Umay kulti.** Bitiktoshlarning mifologik tizimida Umay kulti ham bor. Bu kult onalarni va bolalarni himoya qiluvchi iloh. Qadimgi turkiylarda Tangri (xudo)ning umr yo‘ldoshi deb tasavvur qilingan. *Tangri, Umay, iduq yir sub basa barti arinch* (To‘n., 38) – Tangri, Umay, muqaddas yer-suv mag‘lub qilib bergan, shekilli.

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit-turk” asarida Umay haqida to‘xtalib, quyidagicha izohlaydi: “umay – yo‘ldosh; (tuqqan xotinlar qornidan chiqadigan narsa). Uni bolaning qornidagi hamrohi – yo‘ldoshi deyiladi. Shunday maqol ham bor: Umayqa tabinsa, o‘g‘ul bo‘lur – kimki Umayga xizmat qilsa, u o‘g‘il ko‘radi, demakdir. Xotinlar yaxshilik kutadilar”. Mahmud Koshg‘ariyning Umay haqida bergan ma‘lumoti shundan iborat. Qadimgi davrlardan tortib XX asrning boshlariga qadar Umay bolalarni asrovchi iloh sifatida turkiy xalqlar orasida yashayvergan. Ayrim turkiy xalqlar mifologiyasida, masalan, xakas, shor, beltir xalqlarida *Imay* tarzida ham qo‘llanadi. Mahmud Koshg‘ariyning ko‘rsatishicha, tubutlar onani *uma* deb aytar ekanlar, shuningdek, uyga kelgan mehmonni ham *uma* der ekanlar (*Devonu lug‘atit-turk, 1 jild, 118-bet*). *Umay/Imay* kultining ma‘no va vazifalari ko‘p. Shu bois ayrim olimlarning, Umay eron mifologiyasida Xumoydan kelib chiqqan, degan fikrlari o‘zini oqlamaydi. Xumoy qushi soyasini insonga solganda, inson baxtli bo‘lar ekan. Umay kulti Sibir turkiy xalqlarida keng ma‘noda ishlatiladi. Umay bu xalqlarda faqat bolalarni himoya qiluvchigina emas, balki bolalarning jonini oluvchi sifatida ham talqin qilingan.<sup>12</sup>

Turk-budda mifologiyasida Umay kultining turkiy yozma yodgorliklaridan va udumlaridan keskin farq qiladigan jihatlari bor. “Oltin yorug‘”da buning namunasini ko‘ramiz. Buddaviylik aqidasisiga ko‘ra, “qayta tug‘ilgan” jonzotlar, shu jumladan, insonlar ham, bo‘disatvga aylanadilar, ya‘ni komil bo‘ladilar. Jonzotlarning hammasi bu jarayonni bosib o‘tishlari kerak. Zervan jonzot bolalariga quyidagicha uqtira-

<sup>12</sup>Потапов Л.П. Умай – божество древних тюрков. Тюркологический сборник, 1972, Главная редакция восточной литературы, М.: 1972, 275-6.



di: “(Ey)olamni, yeru suvni muhofaza etuvchilar! Sizlar shuni bilinglar: foyda, manfaat keltirgani jamiki jonzotlar bolalariga, el-ulusga boshchilik qilish qonuni bilan so‘ragan bo‘lsangizlar, ijizat bering, uni endi men (sizlarga) aytaim. Diqqat bilan eshitinglar: (jonzotlar) ilgari qilgan yaxshi ishlar tufayli Tangri zaminida tug‘ilganda Tangri xoni bo‘ladilar. Qachonki qayta tug‘ilib, insonlar orasiga tushganda, insonlar xoni bo‘ladilar. Hukmronlik qiluvchi o‘z qudrati, irodasi bilan jamiki jonzotlar(ni) birgalikda muhofaza qiladilar. Shundan keyin xavf-xatarsiz ona qorniga kiradilar. Qachon kirsalar ona qorniga, Umay onaday u yerda ham tangrilar muhofaza qiladilar. Tug‘ilsa, ham insonlar (orasi)da –insoniyat yerida ko‘p izzat-hurmatli bo‘lmoqdan uni Tangri deb aytadilar” (VI 11 28a/20-28b/21).

“Oltin yorug‘”dan keltirilgan bu parchada Umay ona kulti diqqatga sazovor. Garchi “Oltin yorug‘” sanskritchadan xitoychaga va xitoychadan qadimgi turkiyga tarjima qilingan bo‘lsa ham (IX asr oxirida), Umay kulti tarjima jarayonida kiritilganini ta’kidlash darkor. Parchadagi Umay ona kulti buddaviylikning aynan “qayta tug‘ilish” aqidasi moslashtirilgani uchun uning yana bir xususiyati namoyon bo‘lgan. Umay ona “Oltin yorug‘”da “qayta tug‘iladigan”larni muhofaza qiluvchi iloh deb talqin qilingan.

Umuman olganda, qadimgi turkiy miflarning ildizlari juda ko‘hna, ishonchli manbalarda saqlangani bilan diqqatga sazovor. Qolaversa, turkiy miflar o‘zlikni anglashning bitta omili, shu bois bu miflar ajdodlarimizning ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagani shubhasiz.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Mif deb nimaga aytiladi?
2. Miflarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillarni ayting.
3. Afsonaning mifdan farqli jihatlarini ayting.
4. Ibtidoiy jamiyatda mifning xususiyatlari nimadan iborat?
5. Tangri timsolining qadimgi turkiy yodgorliklaridagi vazifasini aytib bering.
6. Turk-budda mifologiyasi haqida qisqacha so‘zlab bering.
7. Umay kulti haqida ayting.
8. Mahmud Koshg‘ariy Umay kultini qanday tahlil qilgan?

## Avesto

### Reja:

1. "Avesto"ning paydo bo'lishi. Avesto yozuvi.
2. "Avesto"ning tiklangan nusxasi.
3. Zardusht shaxsi va zardushtiylik ta'limoti.
4. Sharqqa zardushtiylikning kirib borishi.
5. Zardushtiylikning mohiyati.
6. "Avesto" va "Oltun yorug'"da Xo'rmuzd va Zervon obrazlarining umumiyliigi.
7. "Rigveda" va "Avesto"ning qarindoshligi masalasi.
8. "Avesto" qismlari. Gohlar.
9. "Oltun yorug'" va "Avesto"da Abadiy zamon tushunchasi.
10. Yasna.
11. Jamshid haqidagi afsona.
12. Vandidod. Jamshid haqidagi afsona davomi.
13. Yashtlar. Axura Mazda qasidasi.
14. Visparad.
15. "Kichik Avesto".

**Tayanch soʻz va iboralar:** *Zardusht, zardushtiylik, "Avesto", falsafiy risolalar, sosoniylar sulolasi, "Avesto"ning parokanda qismlari, axloqiy qarashlar, qasida, madhiya.*

**"Avesto"ning paydo bo'lishi. "Avesto" yozuvi.** "Avesto" O'rta Osiyo tarixidagina emas, balki dunyo madaniyati tarixida muhim voqeadir."Avesto" to'g'risida soʻz ketganda, albatta, Zardusht shaxsi to'g'risida soʻz yuritiladi. Zardushtning ta'limoti "Avesto"ni yuzaga keltirdi.

Zardusht "Avesto"ni qanday yaratgani to'g'risida turli rivoyatlar mavjud.<sup>13</sup> Bu rivoyatlardan ma'lum bo'lishicha, "Avesto" dunyo tarixida ilk muqaddas kitob hisoblanadi. Beruniy bu asar to'g'risida shunday deydi: "Zardusht majusiylar "Abisto" (Avesto -N.R.) deb ataydigan kitob bilan yuzaga keldi. Bu kitob barcha xalqlar tillariga muxolif bir tilda yozilgan...va hamma bilishi uchun u tildagi harflar soni hamma tillar

---

<sup>13</sup>Bu haqda qarang: Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Toshkent. "Fan", 1968, 236-237- b.

harflaridan ortiq edi” (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 237-bet*). Beruniy bu o’rinda “Avesto” tilidagi undoshlarni anglatish uchun qo’shimcha belgilarni, shuningdek, qisqa unilarni bildiruvchi belgilarni ham nazarda tutgan.

Beruniy Zardushtning Sharqda mashhur bo’lganiga oid dalillarni keltiradi. U yozadiki, ibroniylar Zardushtni Ilyos payg’ambarning shogirdlaridan biri bo’lganiga da’vo qiladilar. Yana rumliklar, yunonlar ham Zardushtni o’zlariga yaqinlashtirib, turli dalillarni keltirganini ham yozadi.

Beruniy “Avesto”ga oid dalillarni o’rganib, bu asarning asliyati va uning tuzilishi haqida ham dalillarni bayon qiladi. “Podsho Doro ibn Doro xazinasida “Abisto”ning o’n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o’ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o’sha vaqtda beri “Abisto”ning beshdan uchi yo’qolib ketdi. “Abisto” o’ttiz *nask* edi, majusiylar qo’lida o’n ikki *nask* chamasi qoldi. Biz Qur’on bo’laklarini haftiyak deganimizday, *nask* “Abisto” bo’laklaridan har bir bo’lakning nomidir” (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 237-bet*).

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Zardusht qaysi o’lkadan ekani va “Avesto”ni qayerda yozgani haqidagi bahslarga barham bermoqchi bo’ldi. Zotan, Beruniygacha ham Zardusht shaxsi, zardushtiylik va “Avesto”ning yaratilishi haqida turli xalqlar orasida zid fikrlar bo’lgan. Jumladan, ibroniylar, Zardusht Xarrondan bo’lgan, Ilyosdan ta’lim olgan, u o’zining “Tug’ilish kitobi”da bu haqda aytgan, deb da’vo qilgan edilar. Rumliklarning da’vosicha, Zardusht Mosuldan bo’lgan. Yunonliklar esa Zardushtni Siblun (Seylon) dan bo’lgan, “Avesto”ni o’sha yerda yozgan, deb aytadilar.

Beruniy esa “To’g’risi shuki, Zardusht Ozarbayjondan bo’lgan”, deya o’z fikrini quyidagicha davom ettiradi: “Ehtimol, uning tug’ilish haqidagi kitobida zikr qilishicha, u o’z otasi bilan Xarronga borib, hikmatshunos Ilyosga uchragan va undan ilm istifoda etgan...” (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 237-238-betlar*).

“Avesto” Zardusht nomi bilan bog’lansa-da, bu noyob asar bir davrning mahsuli emasligini ham ta’kidlamoq darkor. “Avesto” bir necha asrlar davomida shakllanib, yaxlit asar holiga kelgan. Bu jarayon dunyo madaniyati tarixida sinovlardan o’tgan tajriba bo’lib, “Avesto” ana shu tajribaning mahsullaridan biridir. Sharqda bu jarayonning namunalari

kuzatiladi. Qadimgi Xitoydagi falsafiy risolalar, Bibliya ham shakllan-ganda, ana shu yo‘lni – asrlar yo‘lini bosib o‘tgan.

**“Avesto”ning tiklangan nusxasi.** “Avesto”ni Iskandar kuydirib tashlagan ekan, bugungi kundagi mavjud nusxa qanday paydo bo‘lgan degan savol tug‘iladi. Bu tiklangan nusxa Sosoniylar sulolasi hukmron-ligining ilk yillarida paydo bo‘lgan.

Sosoniylar sulolasining ilk hukmdori Ardasher Bobakon o‘z saroyi-dagi Xirbadan nomli donishmandga “Avesto”ni qayta tiklash vazifasini topshiradi. Xirbadan bir qancha zardushtiy ulamolari bilan birga asarni qayta yozib olib, qaytadan tartib beradi. Shunday qilib, hozirgi mavjud nusxa Sosoniylar sulolasi davrida shakllantirilgan. Shopur II davrida Ozarpod Mehrosin “Avesto”ning parokanda qismlarini to‘plab, asardagi ko‘plab nomlar, atamalarni sharhlab, “Zand Avesto” nomli kitob yarata-di.<sup>14</sup> “Zand Avesto”ni bu ulkan asarning sharhi va “Kichik Avesto” deb aytish mumkin. Bugungi mavjud nusxa 1278-yili ko‘chirilgan.

“Avesto”ning eng qadimiy qatlamiga ko‘ra, shunday xulosa chi-qarish mumkinki, zardushtiylik urug‘chilik jamiyatida – tabaqalashish boshlanganda va hukmron tabaqa o‘z hukmini o‘tkaza boshlaganda ya-ratilgan.

“Avesto” faqat zardushtiylik oqimining muqaddas yodgorligi bo‘lib qolmay, Markaziy Osiyo xalqlarining ijodiy qobiliyati, og‘zaki ijodi, e‘tiqodi va dunyoqarashining mahsuli hamdir.

**Zardusht shaxsi va zardushtiylik ta‘limoti.** Ayrim yevropa-lik olimlarning aytishlaricha, Zardusht o‘z davrida ta‘qibga uchragan. Ammo u buyuk payg‘ambar, insoniyat najotkori deb e‘tirof etilgan. Adabiyotlarda Zardushtning tug‘ilgan yilini aniq ko‘rsatish imkoniya-ti yo‘q. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, Zardusht bronza davridan temir davriga o‘tilayotgan paytda yashagan, bu davr miloddan oldingi 1500–1200-yillarga to‘g‘ri keladi<sup>15</sup>. Zardushtning o‘z davridagi siyosiy vaziyatda muhim rol o‘ynagani uni najotkor sifatida talqin qilishga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Kohinlar xalqqa qarshi yaylovlarni tortib olib, xalq jamoa bo‘lib ishlaydigan ibodatxonalarni vayron qilib, o‘zlarining

---

<sup>14</sup>Homidov H. “Avesto” fayzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 2001, 14-b.

Boys M. Zoroastriytsy. Verovaniya i obychai. –“Sentr Peterburgskogo Vostokovedeniya”, 1994, 2-b.

<sup>15</sup>Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. –“Центр Петербургского Востоковедения”, 1994, 2-6.

siyosatini yurgizari edilar. Buning ustiga, eski kultarga sig'inish oqibati ham koinlar va zodagonlarning manfaati uchun mos edi. Mana shunday tarang vaziyatda Zardusht keng ommaning manfaatlarini himoya qilib, o'troq chorvador qabilalarning vakili sifatida maydonga chiqdi va payg'ambar deb e'tirof etildi. Zardusht ta'qibga uchragani uchun ham ongli ravishda unutilgani aniqroq. Yangilik va yangi g'oyalarning taqdiri har doim oson kechavermagan.

**Sharqqa zardushtiylikning kirib borishi.** Zardushtiylik miloddan oldingi VI asrdan milodiy VII asrgacha uzluksiz ravishda Yaqin va O'rta Sharqning katta qismida faoliyat ko'rsatdi. Fors davlati Sharqdagi bu hududlarni egallab olishi natijasida zardushtiylik ham o'sha o'lkalarga kirib bordi. Iudaizm, masihiylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar zardushtiylikning muhim aqidalarini, jumladan, nur va zulmat haqidagi aqidalarini o'zlashtirdi. Ayrim misollarni keltiraylik. Zardushtiylik rivoyatlariga ko'ra, Zardusht o'ttiz yoshga kirganda, vahiy oldi (Iso Masih o'ttiz yoshida yer yuzida xizmatini boshlagan); Mana shu buyuk hodisa Gohlardan (Yasna 43) eslanadi va pahlaviy tilida yozilgan "Zadspram" asarida qisqacha tavsiflanadi. Bu asarda hikoya qilinishicha, bir kuni Zardusht olomon bilar birga bahor bayramini nishonlashda ishtirok etadi. U tongda xaomi tayyorlash uchun suvga boradi. Zardusht daryoga tushib, daryo oqimining o'rtasidan suv olishga harakat qiladi. U qirg'oqqa qaytganda (udunga ko'ra, u shu lahzada pok bo'ldi) unga vahiy keldi. Qirg'oqda u yaltirab turgan mavjudotni ko'rdi, bu mavjudot Zardushtga "Yaxshi fikr" sifatida zohir bo'ldi (Yangi Ahdning to'rtala Xushxabarida Iso Masihning Yahyo payg'ambar tomonidan Iordan daryosi suvida suvda imonga kiritilishi hikoya qilinadi. Shu lahzada Iso Masihning ustiga kaptar shaklida Muqaddas Ruh Xudo tomonidan yuboriladi). Xo'rmuzd (adabiyotlarda Xo'rmuzd va Axura mazda baravar iishlatilaveradi) o'z ta'limotini yoyish uchun Zardushtni xizmatga da'vat etgani singari, Xudo Iso Masihni xizmatga da'vat etadi. Har ikkalasi – Zardusht va Iso Masih haqiqatni insoniyatga yetkazish va yoyish uchun xizmat qiladi. Har ikkalasi, shuningdek, Budda ham, insoniyatning Najotkori sifatida talqin qilindi. Mana shu analogiyaning o'zi ham zardushtiylikning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hayotida mustahkam o'rin olganini dalillaydi.

**Zardushtiylikning mohiyati.** Xo'sh, Zardusht yaratgan ta'limotning mohiyati nimadan iborat? U qanday shakl va mazmundagi ta'limot edi? Uning ta'limoti – ezgulik va yovuzlik ruhlari o'rtasidagi kurashdan ibo-

rat edi, jamiyatdagi mutanosiblikni buzadigan nomutanosiblikka qarshi kurash edi. Zardushtiylik ta'limoti dastlab yaratilgan paytda diniy emas, balki axloqiy qarashlarning majmui sifatida xalq orasiga kirib bordi.

Zardusht yaratgan islohot shundan iboratki, u yakka xudolilik va dualistik qarashlarning original birikuvini yaratib, dinda o'ziga xos tizimni barpo qildi. Zardushtiylikda eng qiziqarlisi – xohish-iroda erkinligi konsepsiyasi rudiment shaklda tasavvur qilinadi.

Axura Mazda (yoki Xo'rmuzd) oliy Xudo sifatida hamma qarama-qarshi kuchlarning yaratuvchisi hisoblanadi. Ammo uning egizak o'g'illari Spentaman (muqaddaslik Ruhi) va Axriman (yovuzlik Ruhi) haqiqat (*osha*) va yolg'on (*do'st* yoki *durudj*) o'rtasida tanlov qilishlariga to'g'ri keladi. Ular yaxshi yoki yomon fikrlari, so'zlari va ishlarida ana shu haqiqat va yolg'onni namoyon qiladilar.<sup>16</sup>

Axura Mazdada mujassamlashgan ezgulik va yovuzlikni Zardusht ijtimoiy muammo sifatidagina ilgari surib qolmadi, balki bu muammo ijtimoiy-siyosiy jarayondan diniy-falsafiy jarayonga aylandi va ilohiy tus oldi.

**“Avesto” va “Oltun yorug’”da Xo'rmuzd va Zervon obrazlarining umumiyligi.** “Avesto”dagi obrazlar – Xo'rmuzd obrazi “Oltun yorug’”da Budda timsolidan keyin turadigan timsoldir. Bu obraz “Oltun yorug’”da ham bor. Xo'rmuzdning “Oltun yorug’”dagi yana bir ismi Kavsiyadir. Xo'muzd - to'rt maxaranch tangrilarning rahnamosi, to'rt maxaranch tangrilar esa olamning to'rt tomoni qo'riqchilaridir. Xo'rmuzd solihlik, poklik, jamiki jonzotlarning homiysi ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

“Avesto”ning Gohlar qismida Xo'rmuzd insoniyatni bu olamning gunohlaridan poklaydigan kurashchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois Zardusht Xo'rmuzdga tavallo qilib, uning sifatlarini birma-bir bayon qiladi: Xo'rmuzd – bu olamning tanho adolatpeshasi, ilk donishmand, Ezgu Niyatning otasi, Haqiqatning chinakam yaratuvchisi va h.: “Qachonki kimsa oshkor yoki pinhon nimanidir so'rasa, kichik gunohlardan xalos bo'lib, ulkan gunohlardan parhyez qilmoqchi bo'lsa, sen uni o'zingning o'tkir nigohlaring bilan nazorat qil va barchani Ashah – Haqiqat nurlari ostida hidoyatga boshla”.

Xo'rmuzd “Avesto”da qanday vazifa bajarsa, “Oltun yorug’”da ham o'sha vazifani bajaradi. Har ikkala asarda ham Xo'rmuzd obrazi

<sup>16</sup>Элиаде Мирча. Словарь религий, обрядов и верований. Москва-Санкт-Петербург, 1997. 141-6.

kelib chiqishi jihatidan birdir. Yoki Zervonning vazifasi ham “Oltun yorug”da (Azrua deb nomlanadi) “Avesto”dagi Zervon bilan aynidir. Masalan, “Oltun yorug”da Azrua tangrining maskanida jonzotlar qayta tug‘ilishi uchun gunohlaridan pushaymon bo‘lib, iltijo qilib, va tavba-tazarru qilib, pok so‘zlar bilan yomon qilmishlarini, kirlarini, iflosliklarini yuvib, tozalashi kerak (III 9a). Zervon “son –sanoqsiz olamning xoni” (III 19a), Zervon tangri podshohlar, xonlar rioya qiladigan Rachashastir degan qonun bitigini so‘zlagan va bitig holiga keltirgan (VIII 26a). U Buddadan, no‘m g‘ildiragini aylantiray, maxayana mazhabini jonzotlarga beray, deb iltimos qiladi. Shu xatti-harakatlari orqali Zervon yer yuzida solihlikni barpo qilishni, jamiki jonzot bolalarini tinch-omon, shod-xurram qilishni ko‘zlaydi. Umuman, Zervon tangri “Oltun yorug”da komil jonzotlarni yaratadi va ko‘paytiradi.

Mazkur qiyoslardan ma‘lum bo‘ladiki, “Avesto” va “Oltun yorug” o‘rtasidagi muvofiqlik O‘rta Osiyo bilan “Oltun yorug”ning ilk vatani Hindiston o‘rtasidagi tarixiy aloqalarga ishora qiladi. Ko‘p tarqalgan nuqtai nazarga ko‘ra, II ming yillikdan oldin O‘rta Osiyodan, xususan, Amudaryo va Sirdaryo oqimi bo‘ylab joylashgan o‘lkadan tortib, Orol va Kaspiy dengizlarigacha cho‘zilgan yurtga Hindistonga ariylar qabilasi bostirib kirgan (M. Mayrxofer, I.Dyakonov, T. Borrau va boshqa ko‘p sharqshunoslar shu fikrda). Ana shu davrdan boshlab ariylarning alohida qabilalari Sharqqa tomon ko‘cha boshlaganlar. Bu ko‘chish miloddan oldingi II ming yillik o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Ular O‘rta Osiyodan Afg‘onistonga, u yerdan Hindikush tog‘lari orqali Hindistonga – hozirgi Panjob viloyatiga o‘tganlar. Ariy degan nomni Hindistondagi qabilalar qo‘ygan emas, balki O‘rta Osiyodan borgan qavmlar o‘zlari bilan birga olib borganlar. Ariylar “nafaqat harbiy iste‘dodi bilan, balki badiiy so‘z sohasidagi iqtidori bilan ham ajralib turganlar. Bu qabilalarning eng asosiy xazinasi madhiyalar bo‘lib, kelgusida jamlangan Rigvedalarning asosida ana shu madhiyalar yotgan edi”.<sup>17</sup> Ariylarning boshqa o‘lkalardan Hindistonga kirgani to‘g‘risida boshqa fikrlar ham bor, ammo ko‘pchilik rus va yevropa sharqshunoslari ariylar dunyoning ko‘p tomonlariga O‘rta Osiyodan tarqalganini tasdiqlaydilar.

“Avesto” va “Oltun yorug”da Xo‘rmuzd hamda Zervon obrazlarining birligi ularning ijodkorlari bir xalq ekanini ko‘rsatuvchi bitta dalil bo‘lsa, ikkinchisi – Axura Mazda bilan Buddaning, Zardusht bilan

<sup>17</sup>Елизаренкова Т.Я. “Ригведа” – великое начало индийской литературы и культуры. “Ригведа” китобида. Москва, “Наука”, 1989, 496-б..



**tangrilar xoni Xo‘rmuzdning faoliyatidagi o‘xshashliklardir. “Avesto”da Zardusht muhim qonunlar so‘rab, Axura Mazdaga murojaat etadi, Axura Mazda jamiki yer yuziga Zardusht orqali qonunlar beradi. “Oltun yorug’”dan yana bir misol keltirish bilan cheklanamiz: Xo‘rmuzd, maxayana yo‘l- yo‘riqlari bo‘yicha yashamaydigan insonlar o‘zlarining qilgan himmatlaridan xursand bo‘lishga loyiqmi, deb so‘raganda, tangrilar Tangrisi Budda shunday yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi: “Qaysi bir jonzot xoh muqaddas maxayana no‘midagi yo‘l-yo‘riq bo‘yicha yurishga qodir bo‘lsinlar, xoh yana muqaddas maxayana no‘midagi yo‘l-yo‘riq bo‘yicha yurishga qodir bo‘lmasin(lar), qodir bo‘lganlar (va qodir bo‘lmagan) o‘sha aslzodalar o‘g‘li, aslzodalar qizi kechayu kunduz olti zamonda janub tomonga o‘ng yelkalaridagi to‘nlarini ochib, o‘ng tizzalari bilan cho‘kkalab, kaftlarini (bir-biriga) qovushtirib, ko‘p hurmat-ehtirom (bilan) g‘oyat pok sodiq ko‘ngil bilan, bir maqsad, idrok va his-tuyg‘ular bilan o‘ng tomondagi olamlarning jonzotlari qilgan himmatli, ezgu ishlariga, ezgu sa‘y-harakatlariga muvofiq xursand bo‘lib, sevinsa, keyin o‘sha aslzodalar o‘g‘li, aslzodalar qizi hisobsiz, tengi yo‘q himmatli, ezgu ishlarini qiladi” (III 12b- 13a).**

**“Rigveda” va “Avesto”ning qarindoshligi masalasi.** Faqat “Oltun yorug’” bilan “Avesto” o‘rtasida qarindoshlik aloqalari bor bo‘lib qolmay, balki “Rigveda” bilan “Avesto” o‘rtasida ham qarindoshlik aloqalari mavjud. Bu masalani dalillashda olimlar, tarixiy aloqalardan tashqari, lingvistik omillarga ham tayanadilar. Mutaxassislarning fikricha, “Rigveda” bilan “Avesto” tilining bir-biriga yaqinligi (ayniqsa, “Rigveda”dagi mandal va “Avesto”dagi gohlar) shu darajadaki, ba‘zan ikkala yozma manbadagi matn bir arxaik matnning ikki variantiga o‘xshab ko‘rinadi, faqat tovushlar mosligi qoidalarida farq bor, xolos. Ana shu yaqinlik tufayli ham ayrim olimlar o‘tgan asrning boshlarida “Avesto”dagi ayrim she‘riy parchalarni “Rigveda” tiliga tarjima qildilar. Shunda ma‘lum bo‘ldiki, “Avesto” tili bilan vedalar tili o‘rtasida qatta farq bo‘lmagan (*yelizarenkova T.Ya. Yuqoridagi asar, 437-bet*). Vedalar tili qadimgi hind eposlari va mumtoz sanskrit she‘riyati tilidan ko‘ra, “Avesto” tiliga yaqinligi bilan sharqshunoslarni hayratga soldi.

Har ikkala manbaning matnlari o‘rtasidagi yana bir yaqinlik poetik nutqdadir. Ikkalasidagi mifologik meros ham birdir – ikkalasi ham ariylar mifologiyasidan oziqlangan. Diniy tizim esa “Avesto” va “Rigveda”da farqli bo‘lgani uchun har ikkalasida ham bu tizim o‘z yo‘lidan ketib,

rivojlandi. Til va mifologik merosning har ikkala manbada birligi ayrim soʻzlarning maʼno va vazifa jihatidan birligida maʼlum boʻladi: “Rigveda”da – *deva* – “Avesto” da *daeva* sifatida talaffuz qilinib, birinchisida “xudolar” maʼnosini, “Avesto”da “iblislar” maʼnosini bildiradi. “Avesto”da *ahura* soʻzi “Rigveda” va “Oltun yorugʻ”da *asura* \ *asuri* deb aytiladi va birinchisida xudolar (masalan, Mitra, Varuna kabi)ning epiteti vazifasida, “Rigveda” va “Oltun yorugʻ”da iblislar maʼnosida ishlatiladi.

“Rigveda” bilan “Avesto”ning mifologik qahramonlari oʻrtasidagi umumiylik shuni koʻrsatadiki, ismlarning lingvistik jihatdan birligi, qolaversa, har ikkalasida vazifa syujet jihatidan birligi ular oʻrtasidagi qarindoshlik aloqalarini yana bir marta tasdiqlaydi.

“Rigveda”, “Oltun yorugʻ” va “Avesto” turli diniy tizimga mansub, boʻlsa ham, ular uchun umumiy boʻlgan kultlar bor. Jumladan, *olov* kulti “Rigveda” bilan “Avesto”da zaminda qurbonlik kuydirishni, osmondagi quyosh va boshqa samoviy ilohlarga oid hamma xususiyatlarni oʻz ichiga oladi; yoki *muqaddas oʻsimliklar* kulti toʻgʻrisida maʼlumot berilganda, har ikkala manbada ham bu oʻsimliklardan boqiy umr ato qiladigan ichimlik tayyorlanishi toʻgʻrisida soʻz ketadi. Shuningdek, har ikkala manbada madhiya–ibodatlar ham umumiy mazmunga ega.

Har uchala manba – “Rigveda”, “Oltun yorugʻ” va “Avesto”ning obrazlar tizimidagi birlik shuni koʻrsatadiki, ular bir ildizdan paydo boʻlgan. Yuqorida taʼkidlanganiday, miloddan oldingi II ming yillikdan avval Amudaryo va Sirdaryo oraligʻidan koʻchib borgan ariy qabilalarining ogʻzaki ijodi har uchala adabiy yodgorlik yaratilishiga asos boʻlgan edi.

**“Avesto” qismlari. Gohlar.** “Gohlar” (yoki “Gotlar” deb ham yuritiladi) daftari, yuqorida aytganimizday, “Avesto”ning birinchi qismi boʻlib, beshta qoʻshiqdan iborat. Qoʻshiqlarda, asosan, Zardusht Axura Mazdani (yaʼni Xoʻrmuzdni) sharaflab, unga hamdlar aytadi, uning sifatlarini bayon etadi. Zardusht Axura Mazdani Ashah, yaʼni Haqiqat degan nom bilan ataydi<sup>18</sup>. Gohlarda Axura Mazdaga murojaat etish va uni sharflash barobarida, Axura Mazda hamma narsani bilguvchidir, oʻtmishda

<sup>18</sup> *Axura* – qadimgi sanskrit tilidagi *asura* soʻzidan boʻlib, devlar nomini ifodalagan. “Oltun yorugʻ”da ham shu maʼnoda ifodalagan. *Asura* Sharq mifologiyasiga oʻtgach, *Yaratuvchi*, *Xudo* maʼnolarini ifodalaydigan boʻldi. “Avesto”da *Ahura* buyuk, sarvar maʼnolarini ifodalaydi. Sharq xalqlari keyinchalik *Axura* ismiga Mazda soʻzini qoʻshib aytadigan boʻldilar. Maʼnosi – “hushyor”, “dono”, “ogoh” demakdir.

insonlar qanday qabih ishlar qilganini va kelajakda insonlar nimalar qilishlarini Axura Mazda bilib turadi. Shuningdek, Zardusht Axura Mazdani yagona adolatpesha hakam deb talqin qiladi.

Axura Mazdaning kalomi muqaddas. Shu bois u “hushyorlar”ga - **ezgu** niyatli insonlarga qarata shunday murojaat qiladi: “Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz eng ezgu kalomlarni va yorug‘ niyat bilan – xoh er, xoh ayol – har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa ro‘y bermasdan va oimlarimiz so‘nggi manzilga yetmasdan ikki yo‘ldan birini o‘zingizga ixtiyor etingiz-da, bu kalomlarni o‘zgalarga ham yetkazingiz!” (“*Avesto*”. *Asqar Mahkam tarjimasi*, 2000. 13-b; bundan keyingi misollar ham *shu nashrdan olinib, kitobning sahifasi ko‘rsatiladi, xolos.*) Muqaddas kalomlarni boshqalarga yetkazuvchilar – bu ham toza ko‘ngilli insonlardir, deb aytiladi “Avesto”da.

Gohlarda bayon qilinishicha, Axura Mazdadan oldin ham insoniyat nimagadir e‘tiqod qilgan. Ammo bu e‘tiqodning oqibati insoniyatni yaxshilikka emas, balki yovuzlikka undagan, insoniyat o‘sha e‘tiqoddan faqat kazzob va xudbinlikni ortirdi, insoniyat “qabih niyatga qarindosh” bo‘ldi, Insonning bu holatga tushishini Axura Mazda yomon tarbiyachiga bog‘laydi: “Yomon tarbiyachi o‘z ta‘limi bilan ilohiy so‘zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi” (14-b).

Mazda haqiqatan hushyor, donishmand, insoniyatga bergan o‘giti va ta‘limoti bilan jamiyatni o‘zgartirishga undadi. Zardusht uning maqsadlarini amalga oshirishda vositachi. “O‘zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi” (14-bet), deb Axura Mazda o‘zining a‘molini e‘lon qildi.

**“Oltun yorug‘” va “Avesto”da Abadiy zamon tushunchasi.** Abadiy zamon tushunchasi Sharq xalqlarining qadimgi yozma diniy-falsafiy matnlarida tizimli holda mavjud. Bu diniy-falsafiy tizimga ko‘ra, hamma jamiki yaratilgan narsalar, shuningdek, jonzotlar, hayot, xullas, ruhiy, ma‘naviy mavjudotlar ham abadiy borliq sifatida toabad mavjud. Shumerlarning “Gilgamish” dostonida Enkidu insonni o‘lmaydigan, abadiy hayot bag‘ishlaydigan ichimlik suvini izlagani ma‘lum. “Oltun yorug‘” dostonida ham uch zamon – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon hamda bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘lajak yaxshi-yomon ishlar haqida so‘z ketadi (III 7b va boshqa qismlar). “Avesto”ning Gohlari qismidagi abadiy zamon tushunchasi ham ayni yuqoridagi manbalarda istifoda etilganiday manoda qo‘llangan. Zardusht Axura Mazdaga: “Sendan o‘zga hech

kim baxsh etolmaydigan boqiy tiriklikni nasib ayla. Bu armonli tiriklik haqida Olam Shahriyorida bashorat bo'lgandi" (19-bet), deya iltijo qilganda, Axura Mazdaning tanho Xudo kabi qudratini e'tirof ham etyapti. Zardusht buyuk faylasuf sifatida olamning yaratilishi haqida bilim berish, olam haqidagi tasavvur-tushunchalarini kengaytirish uchun Axura Mazdadan madad so'raydi. Borliqning paydo bo'lishi, uni kim yaratgani, Koinotning tuzilishi, shaklu shamoyili ham Zardushtning e'tiboridan chetda emas. Borliqning Yaratuvchisi va Haqiqatning otasi kimligini, zaminni kim yaratganini, tabiat hodisalariga, yomg'iru qorlarning yer yuziga shiddat bilan yog'ilishini, xullas, yaratilish va harakatning paydo bo'lishini Zardusht bilishni istaydi. Bu – Zardushtning ibtidoiy qarashlaridan paydo bo'lgan tasavvurlari emas, balki olamni ilmiy bilishga intilishining mahsuli sifatida qarashni talab etadi.

Gohlarning diqqatga sazovor tomoni shuki, Axura Mazdaning ta'limoti, yo'l-yo'riqlari, o'gitlari orqali Zardusht insoniyatning komil bo'lishlarini istaydi. Mazdu unga, bir-biriga hamqadam bo'lgan inson bolalariga "ilohiy ta'limot gavhari"ni - Axura Mazdaning ta'limotini yetkazishga jahd aylagin, deya topshiriq beradi.

Gohlarda ruh olami ham bor, moddiy olam ham bor. Bu olamning yo'llarida Kavayga (*Kavay yoki Kay – Kayoniy podshohlarining unvoni*) ishonganlar – aqldan ozgan toifadir. Unday zotlar Zardushtni xushnud qila olmaydi, chunki ular bu olamda yashashdan maqsadlarini ruh olamidan, ya'ni ma'naviy olamdan emas, balki moddiy olamning chuqurliklari, so'qmoq va puchmoqlaridan izlaydilar.

Gohlarning nihoyasida Zardusht erkagu ayollarni hushyorlikka, olamning soxtaliklariga uchmaslikka, to'g'ri yashashga chaqiradi. Uning aytishicha, duruj – dev firibgar, aldanchidir. Erkagu ayol devning olg'a yurishiga, ularning ichiga kirib olishlariga yo'l qo'ymasliklari lozim. Dev rostlikni va to'g'rilikni tubanlikka uloqtiradi, insonlarni ham tubanlikka boshlaydi va tiriklik olamini oyoqi osti qiladi. Zardusht inson tabiatiga xos mehr-muhabbatni ulug'laydi, insonlar doimo bir-birlarini qaynoq muhabbat bilan sevisinlar, deya o'git beradi. Devlarning yo'rig'iga yuradiganlar qabihlik, qalloblikka muhtalo bo'ladi, shikast topadilar, deb ogohlantiradi Zardusht. Yolg'onchilik – rostlikning bo'ynidagi o'lim zanjiri chil-chil sinib bitishini istaydi.

**Yasna.** "Yasna" daftari Ashah – Haqiqatga hamdu sano, unga olqishlar bildirish, duolar, olovni qo'riqlaydigan iloh Ozarni, din peshvolarini

va boshqa ilohlarni, borliqni ulug‘lash bilan boshlanadi. “Avesto”ning shiori – *ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal* ham aynan Yasna qismida olqishlanadi. Zardusht ezguliklarning bu uch turini olqishlab: “Barcha yomon fikr, yomon so‘z va yomon amaldan yuz buraman” (34-bet) deb maqsadini bayon qilgan ekan, o‘zining mazdoparast, zardushtiy, devlar dushmani va ahuraviy ekanini o‘rni-o‘rni bilan ta’kidlaydi.

Yasnada zardushtiyilar ilohlarni ulug‘lab, ularga olqishlar aytadilar, insonning kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan yegulik, ichgulik va boshqa narsalarni ham ulug‘laydilar, jumladan, suvlar, giyohlar, yaylovlari o‘tin-cho‘plar, tog‘larga, shuningdek, adolatga, Zardushtning odilligiga azaliy nurga olqish aytadilar. Ular Spiytamon Zardushtga alohida izzat-hurmat bajo keltirib, Yasnaning bir necha o‘rnida “Ashavan Spiytamon Zardusht fravashiysini olqishlaymiz” (46-bet), deb madh qilish bilan birga, unga xushnudlik bo‘lsin deya tilak ham bildiradilar. Bu olqishlar orqali zardushtiyilar kundalik farovon hayotni, mehnatni va o‘zlarining rahnamosi Zardushtni ulug‘laganlar, degan fikrga kelish mumkin. Zotan, Zardusht o‘z ta’limotini yaratib, ijtimoiy-siyosiy hayotda ilk bor chorvadoru dehqonlarning, hunarmandlarning manfaatini himoya qildi. Qo-laversa, zardushtiylik diniy-falsafiy oqim sifatida hayotga yaqin bo‘lib, insoniyatga faqat pand-nasihatchilik bilan cheklanib qolmasdan, kundalik turmushning farovon bo‘lishiga ham yo‘l ko‘rsatdi. Shu bois ham bu diniy-falsafiy oqimlarni targ‘ib qiladigan yozma asarlar uzoq asrlar davomida paydo bo‘ldi, xalqning qarashlari, udumlari, aqidalari bu matnlarning yozma asar sifatida paydo bo‘lishida tayanch vazifani bajardi.

**Jamshid haqidagi afsona.** Yasnada olqish va hamdu sanolardan so‘ng Jamshid haqidagi afsona keladi. Astumand olamida yashovchi insonlar orasidan Yima (Jamshid)ning otasi Vayvanghon havm degan o‘simlikni siqib, undan suvini oladi. Buning evaziga farzandi Yima dunyoga keladi. Yima Jam, Jamshid deb ham yuritiladi. Afsonada aytilishicha, Jamshid yaxshi suruvlar egasi, odamlar orasida eng e’tiborlisi, nihoyatda go‘zal bo‘lib yetiladi. Jamshid hukmronligi davrida odamzod ham, boshqa jonzorlar ham abadiy yashaydigan, o‘t-o‘lanlar, daraxtlar ham qurimaydigan bo‘ldi, inson va hayvonlar uchun yemish mo‘l-ko‘l edi. Jamshid hukmronligi paytida na qish, na jazirama issiq, na keksalik, na o‘lim, na devlar bor edi. Ota va o‘g‘il bir-biriga o‘n besh yashar yigitchaday ko‘rinardi.

Shundan keyin Vayvanghon havm o'simligi suvidan O'tbiyn degan odam ichdi va Faridun o'sha odamdan tug'ildi. Faridun Aji dahokni mag'lub qilgan qahramondir. Uchinchi bo'lib o'sha o'simlik suvini Somxonadonidan Atrat degan odam ichgan edi, undan Gershasp tug'ildi. Gershasp esa shoxli ajdahoni o'ldiradi. Gershasp choshgoh payti temir o'choqda ajdahoning ko'ragida ovqat pishirayotgan edi. Issiqlik ta'siridan ajdaho qattiq qalqib ketadi va o'choqdagi qaynoq suv to'kiladi. Garshasp epchillik bilan o'zini chetga oladi va ajdahoni o'ldiradi. To'rtinchi bo'lib esa bu o'simlik suvidan Purushaspa degan odam ichdi va undan mazdoparastlik dinining asoschisi Zardusht tug'ildi.

O'simlik kulti afsonaviy epik ruhni paydo qildi. Bu shunchaki afsona emas, balki "Avesto"ning badiiy asar sifatida paydo bo'lishi uchun istifoda etilgan detallardan biridir. Vayvanghon o'simligi suvi mifologik mazmunga ega bo'lgani uchun muqaddas tushunchalarni va qarashni ifodalaydi. O'simlik suvi onalik urug'ining ibtidosi vazifasini bajaradi.

Yasnaning diqqatni jalb qiladigan jihatlaridan yana biri shuki, din peshvolari Zardusht singari timsolga ega bo'lib, alqov va hamdu sano ay-tadilar. Jumladan, Yasnada buyuk din arboblardan Zavt timsoli bor. U havm o'simligini ta'rif-tavsif qilar ekan, u ham "Avesto"ning butun mohiyatini tashkil qilgan beshta xususiyat haqida so'zlaydi: "Besh narsaga bog'langanman. Beshnarsadan chekinganman. *Ezgu fikrga bog'langanman*, Yovuz fikrdan chekinganman. *Ezgu kalomga bog'langanman*. Yovuz kalomdan chekinganman. *Ezgu amalga bog'langanman*. Yovuz fikrdan chekinganman. *Bo'yinsunguvchiga bog'langanman*. Bo'yin toblaguvchidan chekinganman. *Ashah – Haqiqatga bog'langanman*. Durujdan chekinganman" (54-bet). Zavt obrazidan tashqari, Rospiy timsoli ham din peshvolari obrazlaridan biri bo'lib, xuddi Zavt singari vazifa bajaradi – o'limni uzoqlashtiradigan havm o'simligini "ildizlaring, tanang va shoxlaring bilan xush bo'l", deya duo qiladi.

Havm o'simligi olqovi va hamdu sanosi Yasna qismida ko'p o'rin egallaydi. Birgina havm o'simligi timsolida "Avesto" inson va tabiat o'rtasidagi qadimiy tasavvurlarni gavdalandiradi. Zardusht havmni olqishlab, uning haqqoniyligini, darmonbaxshligini madh qilish barobari-da, badkirdorlarni yo'q qilish uchun undan madad so'raydi.

Zardusht havmdan quyidagilarni muruvvat bilan ato qilishni so'raydi: birinchisi – havm insoniyatga munavvar jannat ato qilsin, ikkinchisi – Zardushtga salomatlik baxsh etsin, uchinchisi – Zardushtga

uzoq umr ato qilsin, to'rtinchisi – Zardushtning murodi hosil bo'lib, yer yuziga jasorat va shod-xurramlik bilan oyoq qo'ysin, beshinchisi – Zardusht janggu jadallarga, ig'vo, fitnalarga barham bersin, oltinchisi – g'oratgar, yo'lto'sar, qaroqchilar va bo'rilar tajovuzidan har doim ogoh qilsin (52–bet).

Zavt timsolida ham komil insonga xos alomatlarini, yer yuziga faqat shodmonlik va farovonlik olib keladigan zotni ko'ramiz. Zavt bunday maqsadlarni amalga oshirishda mazdoparastlikka tayanadi va uni asosiy qurol qilib oladi. Uning shiori – mazdoparast, zardushtiy bo'lishni istaydi, ezgu niyat bilan fikr qilmoqni, ezgu so'z bilan so'zlamqni, ezgu amal bilan ish qilmoqqa rozi. U jang-jadallarni, urush aslahalarini bartaraf qilib, insonlar o'rtasida qarindoshlik rishtalarini payvand qilmoqqa farmon beradigan mazdoparastlik diniga ishonadi va h. Xullas, “Avesto”ning asosiy shiori bo'lgan fikrda, so'zda va ishda ezgulik ayon bo'lib turadi.

“Yasna”ning bir necha boblarida suvga madhiya aytiladi. Bir o'rinda Zardusht tomonidan suvga madhiya aytilsa, boshqa o'rinlarda suv din arboblari tomonidan olqishlanadi. Jumladan, din arboblaridan Rospiy suvlarga hamdu sano aytar ekan (68–hot), suvga nafaqat moddiy, ayni paytda ruhiy ma'no yuklaydi: “Ey suvlar! Sizlar yaxshilik bilan ravonasiz, xilqatni yuvib, pok etasiz va ikki jahon saodatiga sazovorsiz. Biz sizlarni e'zozlaymiz. Sizlarni, ey yaxshi suvlar, xushnudlik bag'ishlaguvchi Axura Mazda in'om aylagan ismlar bilan olqish etamiz. O'sha nomlar vositasida sizlarni madh etamiz. O'sha ismlar vositasida sizlardan do'stlik orzusidamiz” (98–bet). Bu parchadan ko'rinib turibdiki, suv poklik tirasoli sifatida yaratilgan jamiki narsalarni poklovchi vosita va shu bois ham har qancha olqishlarga sazovordir.

**Vandidod.** “Vandidod” daftari “Devlarni uzoqlashtiruvchi qonun” yoki “Devlarga qarshi nizom” ma'nosini ifodalaydi. “Vandidod” ibtidosida Zardusht Axura Mazdadan, mendan boshqa yana kimlardan hol-ahvol so'radig, Ahura va Zardusht dinini kimga oshkor qilding, deb so'raydi. Axura Mazda Zardushtning savoliga javob berar ekan, quyosh yuzli, go'zal qiyofali Jamdan hol-ahvol so'rab, Zardusht dinini unga oshkor qilganini aytadi.

Jam (Jamshid) – Zardushtdan keyin turadigan ikkinchi shaxs. Zardusht yer yuzida mazdakiylikni yoyuvchi birinchi zot bo'lsa, Jam zamin-ga farovonlik olib kelgan ilk podshoh, yer yuzidagi jamiki insoniyat va jonzotlarning homiysidir.



Axura Mazda bilan Jam o'rtasidagi suhbat "Yasna"dagi Jam haqidagi afsonaning davomidir. Jam – zardushtiylikni targ'ib qiluvchi emas, balki Axura Mazdaning amriga ko'ra, yer yuzining podshohi bo'lishni afzal biladi. U Axura Mazdaga shunday va'da beradi: "Men sening jahoningga kenglik baxsh etaman. Men sening jahoningni ardoqlayman. Jahon ahliga peshvo va asraguvchi bo'laman. Mening saltanatimda na sovuq bod, na issiq bod, na kasallik va na o'lim bo'ladi" (109–bet).

"Yasna"dagi Jam afsonasi bayoni "Vendidod"da uzluksiz, izchil davom etadi. Voqealar davomida yer yuziga hayvonot va parrandalar, insonlar sig'may qolganidan Axura Mazda Jamni ogoh etganda, Jam zaminning janub tomoniga havo purkab, yer yuzini qamchi bilan savaladi. U Axura Mazdadan "shafqat nurlarini zamin uzra yog'dir, kengliklar ato ayla", deya iltijo qiladi. Zamin kengayib, hayvonlar va insonlar maskan qiladigan joylar paydo bo'ladi. Ammo "o'shanda Jam saltanatiga olti yuz zimiston bostirib keldi. yer yuzi suruvlar, tevalar uyuri, odamlar, itlar, parrandayu darrandalar va kuydiruvchi qizil olovlarga to'lib ketdi. Suruvlar, tevalar uyuri va odamlar yer yuziga sig'may qolishdi" (109–bet). Yana yer yuzi torlik qilib qolgach, Axura Mazdaning amri bilan Jam, yana ilgarigiday, zaminni kengaytiraveradi va bu bir necha marta davom etdi.

Ammo yer yuziga o'lat singari qahraton qish kelishi haqida Axura Mazda Jamni ogohlantiradi va yer ostiga bino qurib, qo'ylar, tuyalar, odamlar, itlar, parrandalar va kuydiruvchi qizil olov urug'larini u yerga olib borishni amr etadi. Axura Mazda insonlar, hayvonlar, o'simliklar, mevali daraxtlar yo'q bo'lib ketmasligi uchun juft–juft qilib, o'sha yer osti binosiga olib kirishni buyuradi. Zotan, Axura Mazda – ezgulik, farovonlik, yaxshilik xudosi, yer yuziga ezgulik Axura Mazda orqali kelgan.

Shuningdek, Axura Mazda yaratuvchi iloh sifatida mehnatni, obo-donchilikni kashf qildi. Insonlar quruq tuproqni yumshatganlaridek, Axura Mazda Jamga yerni tovoni bilan ezg'ilab, qo'llari bilan shudgor qilishni o'rgatadi. Axura Mazda nimaiki amr etgan bo'lsa, Jam hammasini bajarib, yer yuzidagi hayotni yer ostida ham barpo qilgan binolarda davom ettiradi.

Shu o'rinda "Avesto"dagi qahraton qish afsonasi Shumer mix-xatlarida saqlanib qolgan To'fon voqeasini, Musoning "Ibtido" va Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" kitoblaridagi To'fon afsonasini yodga solishini ta'kidlashimiz lozim. Nuh payg'ambar ham, To'fon bosh-

lanishidan oldin, xuddi Jam singari, hamma o‘simliklar, hayvonlar va qushlarning juftidan kemaga olib kiradi va To‘fondan so‘ng yer yuzida hayotning davom etishiga sababchi bo‘ladi. Zotan, To‘fon afsonasini ilk bor yozma ravishda saqlab qolgan Bibliyaning Eski va Yangi Ahd kitoblari voqealari bu davrda Markaziy Osiyoning turli hududlariga yoyilgan edi.

Vandidod – insoniyat faqat farovon yashashi uchun yaratilgan zot ekanligidan, yaratilgan hamma narsalar insoniyatning farog‘ati uchun atalgan ekanligidan xabar beradi. Inson baxtiyor yashaydigan baxtiyor o‘lkalarning bir qanchasi haqida Axura Mazda Zardushtga aytadi. Bu o‘lkalarning birinchisi - “qo‘lda pokiza o‘tin, havoncha, yangi sog‘ilgan sut tutgan” zamindir. Ikkinchisi – shunday o‘lkada “sigir galasi yaxshi parvarish qilinadi, xo‘raki tevalar farovon, yaxshi itlarning rizqi serob, uy bekasi baxtiyor, farzand shodmon. Hamisha olov gurillab turadi” (112-ber). Shu tariqa insonning baxtiyor yashashi uchun asos sifatida yana uch turli zamin haqida aytiladi. *Birinchisi*, bug‘doy ekilgan, suv chiqarilgan va daraxt ko‘karib turgan, sug‘oriladigan va shudgor qilingan zamin; *ikkinchisi*, qo‘ylar va tuyalar ko‘p parvarish qilinadigan zamin; *uchinchisi*, sernasl qo‘ylar va tevalar yashaydigan zamindir.

Markaziy Osiyo chorvachiligida transport vositasida foydalaniladigan tuyachilikka alohida e‘tibor berilayotgani o‘sha davrda hududning iqtisodiy hayotini rivojlantirgan omillarni ham ko‘rsatadi. Ana shu besh ta fazilatning aksi - g‘am-g‘ussaga giriftor bo‘lgan besh maskan haqida ham alohida bayon qilinadi. Insoniyatga tamomila befoyda, shu bilan birga, zardushtiyalar e‘tiqodiga tamomila zid bo‘lgan maskanlar quyidagilardir: *birinchisi*, mifologik tog‘ Arzivar - do‘zaxdan chiqqan devlar yig‘iladigan maskan; *ikkinchisi*, odamlar va itlarning jasadlari tuproqqa ko‘miladigan joylar; *uchinchisi*, odamlarning jasadlari qalashtirib ko‘miladigan daxmalar; *to‘rtinchisi*, Axrimandan yaralgan maxluqlar in qurgan makon; *beshtinchisi*, g‘uborli ko‘chada o‘ldirilgan to‘g‘ri odam ortidan xotini va farzandlari ohu fig‘on chekib borayotgan joydir. Zaminni bulg‘agani uchun insonga beriladigan jazo, turmush tarzi haqidagi qonun-qoidalar “Vandidod”ning muhim qismlaridandir.

Axura Mazdaning yaxshi va yomon maskanlarga bergan bu bahosi ostida faqat real hayot hodisalarini ko‘ramiz. Ayrim timsollar mifologik mazmun kasb etsa ham, real voqyelikka va real borliqqa bog‘langan.

O‘z navbatida zaminning baxtiyorligi ma’lum bir insonga, eng muhimi, ongli hayot kechiradigan insonga bog‘liq. Zaminni hamma inson ham baxtiyor qila olmaydi. Mehnatkash, yerga mehr qo‘ygan insongina baxtiyor qila oladi. Zardusht “Zaminni hammadan ko‘p kim baxtiyor qila oladi?” degan savolga Axura Mazda shunday javob beradi:

“U hammadan ko‘p bug‘doy, giyoh va mevali daraxtlar ekkan zotdir. U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zotdir. Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog‘at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko‘rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir. Kimda-kim zaminni chap qo‘li bilan, o‘ng qo‘li va chap qo‘li bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go‘zal va pokiza qizga o‘xshaydi. Bu qiz er xonadoniga kirib borib, o‘z to‘shagida halol yostiqdoshiga farzandlar tug‘ib beradi. Zamin ham mo‘l-ko‘l mevalarini in‘om etadi. Kimda-kim zaminni chap va o‘ng qo‘li bilan, o‘ng va chap qo‘li bilan shudgor qilsa, zamin unga shunday deydi: - Ey mard! Ey meni chap va o‘ng qo‘li bilan shudgor qilgan zot! Odamlar hamisha bu yerga keladilar va non so‘raydilar. Men bu yerda hosilga kiraman, sen uchun har turli xo‘rak va mo‘l-ko‘l bug‘doy yetishtiraman”(114-115-b.).

Nafaqat farovonlik va iqtisodiy rivojlanish, balki eng qadimgi agrotexnika qoidalari ham bu parchada o‘z ifodasini topgan. Bu parchani qadimgi xalq og‘zaki ijodidagi mehnat qo‘shiqlarining bir namunasini deb aytish mumkin. Mehnatga ezgu munosabatning mahsuli ilk xalq qo‘shiqlari namunasini yuzga keltirdi.

Insonning ezgu va yovuz tabiati albatta mehnatga munosabatida ko‘rinadi. Insonning yovuz tabiati, shubhasiz, uni halol mehnatdan uzoqlashtiradi, yerni qarovsiz qoldirishga olib keladi. Shunday kimsalarga qarata zamin shunday deydi: “Sen begonalar eshigi oldida non istovchilar bilan birga bo‘lursen. Ko‘zlaring yo‘l ko‘radi. Ular seni eshigi ostonasidan haydab yuboradilar” (115-bet). Insonning chinakam qiyofasi, hayotiy hodisalar, real voqealar tasviri yuqoridagi har ikki parchada o‘z ifodasini topgan.

**Yashtlar. Axura Mazda qasidasi.** “Yashtlar” to‘rtinchi daftarni tashkil etadi. Bu daftar Axura Mazda qasidasi bilan boshlanadi. Zardusht va Axura Mazda o‘rtasidagi savol-javobdan ayon bo‘lishicha, Axura Mazdaning ko‘p ismlari bor. Bu ismlar albatta, uning ma’lum

bir qirralari bilan bog'langan va uning faoliyatiga mos tarzda tanlangan: **So'rovchi**, **Matlub**, **Qudrat**, **Haqiqat**, **Ezgulik**, **Aql**, **Ta'limot**, **Muallim**, **Avliyo**, **Muqaddas**, **Ahur**, **Qudratli**, va h. **Axura Mazdaning** yana boshqa ismlari mazkur qasidada keltirilgan. Uning mazkur ismlariga izoh tariqasida, uning tanholigini, har narsaga qodirligini ko'rsatish maqsadida keltirilgan ismlarni Zardusht yoyishiga da'vat qiladi. Zotan, **Axura Mazdaning** hammadan yuksakligini, uning najotkor ekanini, g'animlarni va ins-jinslarni mahv aylaydigan ekanini Zardusht biladi. **Axura Mazdaning muqaddas** ismi hamma tabarruk ibodat kalomlaridan ham qudratli va huzurbaxshdir. Shu bois ham uning ismi har qancha hamdu sanoga loyiq. **Zardusht Axura Mazdani** quyidagicha madh qiladi:

Sanolar ayturman asli sanoga,  
Sanolar ayturman duolar haqqi,  
Sanolar ayturman shiddat, qudratga,  
Axura Mazdaga, saxovatkorga (*168-bet*).

Zardushtning bu hamdu sanosi Axura Mazdaga aytilgan jamiki olqishlarning xotimasiday jaranglaydi.

**Ardivisura Anahita qasidasi** ham o'ziga xos bo'lib, suv va hosildorlik ma'budasi Ardivi ("qudratli") va Anahita ("g'uborsiz, pokiza") ismlaridan tashkil topgan. Qasida Axura Mazdaning Zardushtga, **Ardivisura Anahitani** sharaflagin, deb qilgan murojaatidan, uning qudrati tavsifidan, unga keltirilgan qurbonliklar bayonidan, Axura Mazdaning **Ardivisura Anahitaga** bergan ta'rifidan iborat. Bu qasidada **Ardivisura Anahitaning** mubolag'ali tasviri diqqatga sazovor:

Qunduz po'stin kiygandir u,  
Ardivisura Anahita,  
Uch yuz qunduz terisidan  
Tikilgandir qachonlardir.  
Boqqan ko'zni tindiruvchi  
Oltin, kumush tusda porlar uning mo'ynasi.

**Quyosh ma'budi**, **yaylovlar sohibi Mitra** qasidasida adolat va adolatsizlik, sadoqat va xiyonat, e'tiqod va e'tiqodsizlikning bu hayotda sodir bo'lishi va Mitra bu hayotdagi har qanday illatlarga qarshi ayovsiz kurashchi etib tasvirlanadi. "Uni hech kim aldayolmaydi, hech kim yo'ldan chalg'it olmaydi", deyiladi daftarda. Mitraning tamoyili shunday: kazzoblarni, lafzsizlarni, xiyonatkorlarni kechirmaydi. Uning uchun chinakam zotlar bor:

Ul so'zida sobitlarni,  
Lafzi halol kimslarni  
Falokatdan saqlagaydir,  
Halokatdan saqlagaydir (186-bet).

Mitra – jasoratligi, o'z ahdiga sodiqligi bilan ajralib turadi. U devlarning kallasini majaqlashga, e'tiqodsiz, ahdida turmaydiganlarni jazolashga qodir, yolg'onchi, subutsizlarga shafqatsiz, afsungarlarni yo'q qilib tashlaydi. Mitraga sig'inganlarning mamlakati darvozalarini mustahkam qiladi, odamlarning hayoti farovon bo'lishini ta'minlaydi, ularga suruvlar in'om qiladi, u yaxshilarga – yaxshi, yomonlarga – yomon. Kazzoblarni bor narsasidan mahrum qiladi. Uni tan olmaganlarga shunday g'azabini sohadiki, ularning yaylovlari g'azabga to'lib-toshadi. Uni tan olganlarga esa zarracha zarar yetkazmaydi. Mitra yetib borgan mamlakatlarning vodiylari va yaylovlari podaga to'ladi, odamlaru jonivorlar o'sha mamlakatda emin-erkin yashaydi. U cheksiz qudrat sohibi, ulug'vor ilohdir. Shu bois:

Biz Mitrani e'zozlaymiz,  
Biz Mitrani e'zozlaymiz,  
Qachon borar esa ellar, yurtlar sariga,  
Qachon qoim bo'lsa mulku mamolik aro,  
Biz Mitrani e'zozlaymiz.

Urush va G'oliblik ilohi Vartragnaga bag'ishlangan qasida ham bor. Vartragna Zardusht qoshida o'n marta paydo bo'ladi va har safar paydo bo'lganda, boshqa-boshqa qiyofada zohir bo'ladi: shamol qiyofasida, oltin shoxli novvos, oppoq uchqur tulpor, bo'ron singari nortuya, qobon, o'n besh yoshli yigitcha, mifologik Varagni qush, tog' qo'chqori qiyofasida, yovvoyi echki va nihoyat, ajoyib er yigit qiyofasida. Har bir qiyofaga kirganda, u qudratli bo'ladi, uni hech kim o'ldirolmaydi.

Bu daftarda yana saxovatli taqdir va baxt ma'budasi Asha qasidasi, baxt va qudrat sohibi Huvarnoga bag'ishlangan qasida ham bor.

**Visparad.** Vispirad – beshinchi daftar, 24 bobdan iborat. Asosan, jamiki olam peshvolarini madh qiladi. Ayrim o'rinlarda Zavt va Raspiy birgalikda olqish aytsalar, ayrim o'rinlarda yo Zavt yoki Raspiy olam peshvolariga olqish aytadilar. Bu daftarning umumiy mohiyati, butun olam Xudoniki degan ta'limotni ilgari surishdan iborat.

“Kichik Avesto” yoki “Xurda Avesto” oltinchi daftar deb yuritiladi. Bu daftar “Avesto”ning umumiy mundarijasini ifodalaydi va bugungi

**“Avesto”ning bo‘limlaridan biri. “Kichik Avesto” asosan, zardushtiylar-ning kunduzgi toat-ibodatları, duo va alqovlaridan tashkil topgan. Jumladan, dastlabki uch alqov Axura Mazdaning Ashah – Haqiqat ekani, olam Hukmdori ekani, Haqiqat nurlari ostida eng go‘zal amallarni bajaruvchilardan ogoh ekani haqida bo‘lib, darvishlarni asrash uchun Zardushtni tanlaganini aytadi. “Belbog‘ bog‘lamoq duosi” qismida Pozand degan din arboblariidan biri Mazdaga hamdu sano aytadi va gunohlari uchun tavba qiladi. U Axura Mazdaga shod-xurramlik va Axrimanga mag‘lubiyat tilaydi. Axuraning hamma xohishi bajo bo‘lishini istaydi. “Avesto”ning asosiy shioriga ishonishini bayon etadi. Bu shior quyidagilardir:**

**“Men ezgu andisha bilan andisha yuritganga ishonaman. Men ezgu so‘z so‘zlaganga ishonaman. Men ezgu amallining amaliga ishonaman. Men mazdoparastlik diniga ishonaman, zero u qurol ushlaganga chang soladi va uni biryoqlik qiladi; u qon-qardoshlik robitalarini mustahkamlaydi. U shu qadar pok dindirki, hozirgi va keyingi keladigan dinlar orasida eng ulug‘i va eng yaxshisidir. Axuraviy, Zardushtiy din” (298-bet).**

**“Surush boj” duosi har kuni bomdod mahali, uyqudan turgach o‘qiladigan mashhur mazdoparastlik duolaridandir. Duoning mazmuni–Pozand gunohlari uchun tavba qiladi, mazdoparast, zardushtiy va devlar dushmani ekanini ta’kidlaydi, ilohlarga hamdu sano aytadi, Surushni olqishlaydi, g‘animlar adovatidan asrashni Mazda va Zardushtdan so‘raydi va h.**

**Umuman, “Avesto” kitobi Markaziy Osiyo xalqlari hayotining hamma tomonlarini qamrab olgan.**

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Avesto”ning paydo bo‘lishiga oid omillar haqida so‘zlang.
2. “Avesto” haqida Beruniy qanday ma’lumotlarni bergan?
3. Zardushtiylik ta’limotining mohiyati haqida so‘zlab bering.
4. “Oltun yorug‘”dagi va “Avesto”dagi Xo‘rmuzd timsolini qisqacha qiyoslab so‘zlab bering.
5. “Rigveda” va “Avesto” o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari haqida so‘zlang.
6. Gohlarning mohiyati nimalardan iborat?
7. Yasnaning mohiyati haqida so‘zlab bering.
8. Vendidodning mohiyati nimalardan iborat?
9. Yashtlarning mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?

## **Urxun–Yenisey yozuvi yodgorliklari** **Turk xoqonligining tashkil topishi. Turk xoqonligidagi** **ijtimoiy-siyosiy vaziyat**

### **Reja:**

1. Turk xoqonligining tashkil topishi haqida qisqacha ma'lumot.
2. Turk xoqonligi va Eron o'rtasidagi munosabatlar.
3. Turk xoqonligi bilan Sharqiy Rum davlati o'rtasidagi munosabatlar.
4. Urxun-yenisey yodgorliklari – qadimgi turkiy adabiyotning namunasi.
5. Kul tigin bitiktoshi.
6. Kul tigin bitiktoshida xoqonlar obrazi.
7. Bilga xoqon bitiktoshi.
8. To'nyuquq bitiktoshi.
9. Moyun chur va Kuli chur bitikoshlari.
10. Yenisey yozma yodgorliklari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *yodgorliklar, turk xoqonligi, jujanlar, oq xunlar, sasoniylar sulolasi, urxun va yenisey yozuvi, Kul tigin bitiktoshi, Bilga xoqon bitiktoshi, To'nyuquq bitiktoshi, janrlar.*

Urxun-yenisey yozma yodgorliklarining topilish tarixi, bu yodgorliklar yuzasidan XV111-X1X asrlarda bo'lib o'tgan munozaralar, bu yodgorliklarning o'qilish tarixi to'g'risida jahon turkiyshunoslari, jumladan, o'zbek olimlari ham qator ishlarni amalga oshirganlar. Biz bu o'rinda qadimgi turkiy yodgorliklarning yaratilishiga sabab bo'lgan tarixiy sharoit va madaniy muhit to'g'risida qisqacha to'xtalamiz.

Ma'lumki, turk xoqonligi barpo bo'lmasdan oldingi Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy tarixi jujanlar (manqurtlar) tarixi bilan ham bog'liq. Lekin ungacha ham turkiy qavmlar Markaziy Osiyoning turli hududlarida xonliklarga uyushgan, siyosiy jihatdan esa tarqoq holda yasahardilar. Bu qavmlarni jujanlar temir qurollar yasashga, turmushda kerak bo'ladigan ashyolar yasashga majbur qilardilar. Jujan xonlari turkiy qavmlarni "temirchi qullarim" deb haqoratlardilar. Jujanlar asoratidan qutulish uchun 535-yili boshlangan harakat 545-yilga kelib kuchaydi. Turkiy qavmlar g'arbiy To'ba sulolasi bilan hamkorlikda jujanlarga

qarshi kurashga otlandilar. Lekin jujanlar bilan urush boshlash uchun bir bahona kerak edi. Ashin urug'ining yo'lboshchisi Bo'min jujanlar xoni Aynag'ayning qiziga sovchi jo'natdi. Bo'minning xatti-harakati Aynag'ayga haqorat bo'lib tuyuldi va Bo'minning elchilari orqali unga haqoratomuz javob berdi. Bo'minga aynan shu javob kerak edi. Bo'min vaqtini qo'ldan boy bermay, jangga otlandi. Tez orada Bo'min Aynag'ayni tor-mor qildi. Bu voqea 551-yilda yuz bergan edi.

Bo'min jujanlar asoratidan qutulgandan keyin, u Turk xoqonligiga asos soldi. Turk xoqonligi juda katta hududni – Shimoliy Mo'g'ulistondan tortib Amudaryogacha bo'lgan joylarni o'z ichiga olgan edi. Shuncha katta davlatni markazdan turib boshqarish qiyin edi. Shu boisdan Bo'min xoqon Istamini yabg'u unvoni bilan Turk xoqonligining g'arbiy qismini – O'rta Osiyo qismini boshqarish uchun jo'natdi. (*Yabg'u* so'zi harbiy unvonni bildiradi, bu unvon Kushon imperiyasidan davom etib kelgan bo'lib, turkiylar oq xunlar sulolasidan o'zlashtirganlar. *Yabg'u* – g'arbiy Turk xoqonligida oliy unvonning nomi bo'lib, ko'pincha *yabg'u qag'an* tarzida ham qo'llanadi. Bundan ma'lum bo'ladi, *yabg'u* – xoqonga tengdir.) O'zi esa xoqonlikning sharqiy qismini boshqarish uchun Qoraqurum shahrida maskan topdi.

“Turk” degan nom Turk xoqonligi tashkil bo'lmasdan ilgari ham turkiy tilda so'zlashadigan, irqiy va urf-odat jihatidan bir-biriga o'xshash yoki yaqin turkiy hamda turkylashgan (masalan, qitaniylar) qavmlarning siyosiy birlashmasini bildirgan. Turk xoqonligi davrida bu jarayon o'z rasmiy maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, qadimgi turk davrida turkiy qavmlar yagona nom bilan *ko'k turklar* deb yuritiladigan bo'ldi. *Ko'k turk* – ilohiy turk deganidir. Turkiy qavmlar yaratgan mifga ko'ra, ular osmonni – ota, yerni ona deb tasavvur qilganlar. Shu bois o'zlarini har osmon bolalari deb aytardilar va *ko'k turk* degan mifologik nom ularning rasmiy nomiga aylanib qoldi. Garchi turk yoki turkiy degan nom milodiy V asrlardan qo'llana boshlagan bo'lsa ham, hamma qavmlar va xalqlarning kelib chiqishi kabi, etnik jarayonning shu davrdan boshlanganini ko'rsatmaydi, balki turkiy qavmlar qadim zamonlardan beri bor va ularning qavm sifatida mavjudligini ashyoviy dalillar – arxeologik yodgorliklar tasdiqlaydi. O'rta Osiyo, Oltoy, Qozog'iston kabi tarixi qadim o'lkalardan topilgan inson suyaklari, turmushga oid ashyolar, yozuv madaniyati shunday dalillardandir.

Bo'min xoqon 552-yili olamdan o'tdi. Ota vafotidan keyin, qadimgi turk xoqonligi qonunlariga binoan, to'ng'ich o'g'il Qoraxon taxtga



o'tirdi. Lekin oradan bir yo'l o'tar-o'tmas, Qoraxon ham olamdan o'tdi. Uning vafotidan keyin o'rtancha o'g'il Mug'an Turk xoqonligi taxtiga o'tirdi.

Mug'an xoqon o'tgan barcha turk xoqonlari orasida o'zining g'ayratli, aqlli, hushyor va harbiy sohada ham, diplomatiya sohasida ham tadbirli xoqon ekani bilan alohida ajralib turardi. Shu sababli u dunyoga mashhur xoqon bo'lib dong taratdi. Mug'an xoqon taxtda o'tirgan yillar (554-574) Ko'k turk xoqonligi qudratli bir pallaga kirdi.

**Turk xoqonligi va Eron o'rtasidagi munosabatlar.** Mug'an xoqon sharqdagi manchjur, mo'g'ul qavmlarini, quriyalik (koreys) larni bo'ysundirgandan keyin, g'arbdagi oq xunlarni itoat ettirish harakatiga tushdi. U 554-yili Eron Sosoniylar sulolasi shahanshohi Xusrav Anushirvonga elchi jo'natdi. Borgan elchilar Eron bilan Turk xoqonligining oq xunlarga qarshi ittifoqini tuzish to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Bu ittifoqni kafolatlash uchun Istami yabg'u qizi Asna bekani Xusrav Anushirvonga (531-579) nikohlab berdi. Bu paytda Eron Sosoniylar sulolasi oq xunlarga qaram edi. Eron shohi bu qaramlikdan qutulish uchun ham Turk xoqonligi bilan ittifoq tuzishga darrov rozi bo'la qoldi. Ko'k Turk xoqonligidek qudratli ittifoqchiga ega bo'lgan Eron milodning 554-yilidan boshlab har yili oq xunlarga berishi lozim bo'lgan o'lponni to'lashdan bosh tordi. Shu yili Eron oq xunlarga hujum qilib, Afg'onistonni bosib oldi. Shu yili Istami yabg'u ham Mug'an xoqonning ko'rsatmasiga binoan oq xunlarga hujum qilib, ularni Tarim vodiysidan quvib chiqardi. 557-yildan boshlab oq xunlarga qarshi rasman urush boshlandi. Turk qo'shinlari bilan oq xunlar o'rtasidagi urush asosan, hozirgi Afg'oniston hududida yuz berdi. Mug'an xoqon besh yil ichida (557-562) oq xunlar sulolasini yo'q qildi. Mug'an xoqon milodiy 565-yili oq xunlarning qolgan-qutganini uzil-kesil yo'qotish va xoqonlikning g'arbiy chegaralarini yanada mustahkamlash ishlarini Istami yabg'uga topshirib, o'zi Qoraqurumga qaytib ketdi. Istami yabg'u 565-yilgacha oq xunlarning qolgan kuchlarini yo'qotdi va sulolaning hududini Ko'k Turk xoqonligiga qo'shib oldi. Eron ham oq xunlar hududining bir qismini bo'lib oldi. Istami shu uch yil davomida yana oq xunlar hududiga oid masalani Eron bilan bir yoqli qilishga harakat etdi. U Balxash ko'li bilan Orol dengizi bo'ylaridan tortib Qora dengiz bo'ylarigacha bo'lgan juda katta hududda yashab kelayotgan qavmlarni birlashtirishdek tarixiy vazifani ham bajardi.

Oq xunlar hududi Eron bilan Ko'k Turk xoqonligining do'stona munosabatlari buzilishiga sabab bo'ldi. Oxir-oqibat ikki do'st mamlakat bir-biriga ashaddiy dushmanga aylandi. Oq xunlar tor-mor qilingandan keyin ularning hududiga qarashli bo'lgan Shimoliy Hindiston, Tarim vodiysi, O'rta Osiyo Ko'k Turklarning qo'liga o'tgan bo'lsa, Xuroson Eronga qoldi. Istami yabg'u bunday taqsimotga rozi bo'lmadi. Buning ustiga, Eron Sosoniylar sulolasi Xurosonni egallab olish bilan qanoatlanmasdan, oq xunlarning hududidan yana ko'proq joylarni bosib olishga intildi. Boshqa tarafdin esa turklar O'rta yer dengizi bo'ylaridagi davlatlardan O'rta Osiyoga, Hindistonga va Xitoyga boradigan muhim xalqaro savdo yo'lini, Sharqiy Rum bilan kelishgan holda egallab olgan edi. Eron bu masalada ozgina bo'lsa-da, yon berishni istamadi. Bu savdo yo'lining eng muhim nuqtalari Eron hududida edi. Eron bu savdo yo'lidan ko'p foyda olardi. Shuning uchun Eron Turk xoqonligi barpo bo'lishidan oldin G'arb va Sharq orasidagi xalqaro savdo yo'lida hukmronlikni egallab, Sharqiy Rum bilan doimo urishib kelgan edi. Albatta, ko'k turklarning savdo yo'liga egalik qilishlariga Eron hech ham rozi bo'la olmas edi. Eron ham cheksiz daromaddan ayrilishni, ham xalqaro miqyosdagi obro'yiga putur yetishni aslo istamasdi. Turk xoqonligi bilan Eron o'rtasidagi kelishmovchilik bora-bora jiddiylashib, urush xavfini keltirib chiqardi.

Istami Turk xoqonligi bilan Eron o'rtasidagi sovuq munosabatlarga barham berish, oldingiday hamkorlikni va yaxshi qo'shnicilik munosabatlarini davom ettirish umidida Eronga Maniakh boshchiligida yaqin a'yonlarini elchilar qilib jo'natdi. Elchilar Xusrav Anushirvon huzuriga ko'p sovg'a-salomlar – qimmatbaho ipak matolar olib kelishdi. Anushirvon avval vazirlari bilan maslahatlashdi. Vazirlar esa Anushirvonni Turk xoqonligiga qarshi gijgijladilar, Turk xoqoni bilan iliq munosabat o'rnatish xavfli deb, aloqalarni uzishga da'vat qildilar. Anushirvon vazirlarining maslahatlariga quloq solib, Turk xoqonligi elchilari keltirgan sovg'alarni saroy ahli ko'zi oldida o'tga tashlab yondirib yubordi.

Eron hukmdorining qo'pol muomalasidan ranjigan elchilar Istami xoqon huzuriga umidsizlanib qaytib keldilar. Istami yabg'u baribir vazminlik bilan Eronga ikkinchi marta elchilar jo'natdi. Sharqiy Rum tarixchisi Menandrning xabar berishicha, ikkinchi marta Eronga borgan xoqonlik elchilari og'ir baxtsizlikka uchradilar. Xusrav Anushirvon elchilarga ziyofat berdi, oldindan uyushtirilgan suiqasd bo'yicha ularning ovqatla-

riga zahar soldirib o'ldirdi. Elchilardan uch-to'rt kishigina omon qoldi, xolos. Xusrav Anushirvon suiqasdning oshkor bo'lib qolishidan qo'rqib: "Turk xoqonligi elchilari sovuq yurtida tug'ilib o'sganlar, Eronning jazirama issiq havosiga ko'nika olmay, nobud bo'ldilar", deb gap tarqatdi.

**Turk xoqonligi bilan Sharqiy Rum davlati o'rtasidagi munosabatlar.** Ko'k turk xoqonligi elchilari Eronga ikki marta borganlaridan keyin ham, natija bo'lmagach, Istami ibg'u 568-yili Maniakh boshchiligidan Sharqiy Rum imperatori Yustin II (565-578)ning huzuriga – Konstantinopolga elchilar jo'natdi. Turk xoqonligi elchilari Yustin II bilan qilgan suhbatlarida zimmalariga yuklatilgan vazifani bajardilar – ular Turk xoqonligi bilan Sharqiy Rum o'rtasida savdo munosabatlari o'rnatish vazifasini ko'ngildagiday amalga oshirdilar. Turk xoqonligi elchilari Sharqiy Rumdan qaytayotganlarida, Yustin II Zemarx boshchiligidan javob elchilarini xoqonlik elchilari bilan birga Turk xoqonligiga jo'natdi.

Istami yabg'u Sharqiy Rum elchilarini qabul qilib, jiddiy masalalar ustida suhbatlashdilar. Bular – Turk xoqonligi bilan Sharqiy Rum o'rtasidagi ipak savdosi, Eronga qarshi birgalikda kurash olib borish, jujanlarning Qora dengiz bo'ylariga qochib ketgan to'dalarini yo'q qilish kabi masalalar edi. Darvoqe, jujanlar Boyonxon boshchiligidan yevropada xoqonlik barpo qilib, Sharqiy Rum imperiyasiga goh-goh hujum qilib turardi. Sharqiy Rum elchilari Istami bilan qilgan suhbatlarida jujanlar masalasini ko'targanlarida, Istami yabg'u Sharqiy Rum bilan birgalikda jujanlarga qarshi hujumga tayyorligini bildirib: "Agar ular qush bo'lib osmonga uchib chiqsa ham, baliq bo'lib dengiz tubiga yashirinsa ham, mening qilichimdan qutulolmaydi", deb va'da berdi.

Shunday qilib, bu masalalar yuzasidan bitimnoma tuzildi. Bitimda Eronga qarshi harbiy ittifoq asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan vazifa qilib belgilandi. Shundan boshlab uzoqqa cho'zilgan urushlar boshlanib ketdi. Turk xoqonligi Sharqiy Rum bilan ittifoqlashib olgandan keyin Eronga hujum qildi. Istami yabg'u 569-yili Xurosonga bostirib kirib, Eron qo'shinlarini tor-mor qildi. Eron oq xunlardan bosib olgan joylarning hammasini Istami Erondan tortib oldi. Eron turk xoqonligi bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. Sulh shartlariga binoan turklar har yili Erondan qirq ming Rum oltini miqdorida boj olib turdi.

571-yildan boshlab esa Eron bilan Sharqiy Rum orasida uzoqqa cho'zilgan urush boshlanib ketdi. Eron Sosoniylar sulolasi zaiflasha bordi. Turk xoqonligi bu davrda harbiy va iqtisodiy tomondan borgan sari kuchaydi.

572-yili Mug'an xoqon va Istami yabg'u vafot etdilar. Ulardan keyin taxtga o'tirgan Tapar xoqon (572-582), Ishbara xoqon (582-587) lar hukmronligi paytida Turk xoqonligi bilan Eron orasida bir marta urush bo'ldi. Eron sarkardasi Bahrom chubin uch yuz ming kishilik turk qo'shinlarini – Chur bag'a xoqon qo'mondonligidagi lashkarni Hirot bilan Balx orasida tor-mor qildi. O'sha urushda Chur bag'a xoqon halok bo'ldi. Bahrom chubin Buxoro yonidagi Paykent shahriga bostirib kelib, Chur bag'a xoqonning o'g'li Barmudo tiginni asir qilib oldi. Paykent shahrining xazinasidagi boyliklarni bir necha ming tuyaga yuklab, Eron shahanshohi Xo'rmuzd (Istami yabg'uning qizidan tug'ilgan)ga jo'natdi. Bu safargi urushda Eron g'arb tarafdin hujum qilgan Sharqiy Rum qo'shinlarini ham Kavkaz atrofida tor-mor qildi. Turk xoqonligi qo'shinlari bilan Sharqiy Rum lashkari mag'lub bo'lgan esa-da, Eron xalqaro savdo yo'liga bo'lgan hukmronlikni qaytadan qo'lga kiritolmadi.

582-603-yillari Turk xoqonligining g'arbiy (O'rta Osiyo) va sharqiy (Markaziy Osiyo) qismlarga bo'linish jarayoni nihoyasiga yetdi. Ana shu yillar orasida ikkala xoqonlik o'rtasida muttasil urushlar bo'lib turdi.

Albatta, g'arbiy Turk xoqonligining dunyo xaritasidagi o'rni, jahon tarixida egallagan mavqei shu bilan chegaralanmaydi. Ayniqsa, Xitoy bilan bo'lgan munosabatlari Turk xoqonligi tarixida muhim iz qoldirdi. Xususan, qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda Xitoy va Turk xoqonligi munosabatlari to'g'risida ma'lumotlar bor. Zotan, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar faqat turkiy qavmlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti to'g'risida badiiy lavhalar bo'lishi bilan birga, bu qavmlarning dunyoqarashi, tafakkuri, maishiy hayoti manzarasi hamdir.

**Urxun-yenisey yodgorliklari – qadimgi turkiy adabiyotning namunasi.** Urxun-yenisey yozma yodgorliklari qadimgi turkiy adabiyotning alohida bir qatlami va yo'nalishi sifatida turkiyshunoslikda kam o'rganilgan. Bu yodgorliklarni tizimli ravishda o'rganishni rossiyalik olim I.V.Stebleva boshlab berdi.<sup>19</sup> Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni o'zbekchaga tabdil qilish<sup>20</sup>, tadqiqot ishlari olib borishda<sup>21</sup> O'zbekistonda ham ma'lum ishlar amalga oshirilgan.

<sup>19</sup> Стеблева И.В. Поэзия тюрков VI-VIII веков. М.: Главная редакция восточной литературы, 1964, шу муаллиф. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. М.: Главная редакция восточной литературы, 1976.

<sup>20</sup> Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971:

<sup>21</sup> Рахмонов Н. Орхоно-енисейские памятники и тюркские эпосы. докт. диссертацияси, Тошкент, 1991.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar bevosita eposlar zaminida o‘zib chiqqan adabiyot ekani bilan diqqatga sazovor. Shuningdek, tarixiy voqealarning xalq og‘zaki ijodi ruhida bayon qilinishi yozma adabiyotning o‘ziga xos turi yaratilishiga asos bo‘lgan.

**Kul tigin bitiktoshi.** Kul tigin bitiktoshi qadimgi turkiy adabiy muhitni o‘zida to‘liq gavdalan tiradigan, qadimgi turkiy adabiyotning o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan yozma yodgorlikdir. Kul tigin bitiktoshi (731-yili o‘rnatilgan)dagi tarixiy voqealar va eposlarga xos syujetlar, badiiy tasvir vositalari yagona tizimni hosil qilgan. Mazkur bitiktoshdagi ko‘tarinki ruhni o‘z vaqtida V.Tomson, P. Melioranskiy, P.Falyov kabi mashhur turkiyshunos olimlar payqagan edilar. Jumladan, P.Melioranskiy XIX asrning oxirida (1897-yili) yozgan Kul tigin bitiktoshiga bag‘ishlangan magistrlik dissertatsiyasida mazkur yodnomadagi ko‘tarinki ruh eposlarning mahsulidir<sup>22</sup> degan fikrni aytgan edi va bu fikr o‘z isbotini topdi. Shuningdek, yodnomaning o‘ziga xos bayon qilish texnikasi ham ayni turkiy eposlar xususiyatini gavdalan tiradi. Bayonning uch qismi – boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanma bu yodnomadagi hikoyaning izchilligini ta‘minlaydi. Bayonning bu qismlari turkiy xalqlar og‘zaki va yozma adabiyotining eng qadimiy ko‘rinishiga xosdir. Har uch qismning mazkur yodgorlikdagi amal qilish jarayoni haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun Kul tigin yodnomasining dastlabki satrlariga murojaat qilaylik: *Uza kok tangri asra yag‘iz yar qilintuqta akin ara kisi og‘li qilinmis. Kisi og‘linta uza achum apam Bomin qag‘an, Istami qag‘an olurmis. Ohuripan turk bodunin alin torusin tuta birmis, itu birmis* – Yuqorida ko‘k osmon, pastda qora yer yaratilganda, ikkovining o‘rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan Bo‘min xoqon, Istami xoqon o‘tirganlar, o‘tirib, turk xalqining davlatini, qonun-qoidalarni ushlab turgan, rioya qilib turgan.

Shu parchaning o‘zida boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanma ham bor. yeru osmonning hamda insoniyatning yaratilishi – *boshlanma*, Bo‘min va Istami xoqonlarning faoliyati – *mazmun taraqqiyoti*, qonun-qoidalarga rioya qilishlari esa *tugallanma*dir. Bitiktosh matnining boshidan oxirigacha bu uch qismdan iborat parchalar davom etaveradi.

Kul tigin bitiktoshi yaxshi saqlangan yodgorlik sifatida qadimgi turkiy yozma adabiyotning o‘ziga xos namunasini ifoda etar ekan, bitiktosh muallifi Yo‘llig‘ tiginning ijodkor sifatida qahramonlarga, ma‘lum vo-

<sup>22</sup>Мелioresанский П.М. Памятник в честь Кюль-тегина. –СПб., 1897. 56-б.

qoalarga munosabati to'g'risida ham aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bilga xoqonning turk xalqiga qarata aytgan so'zlari Turk xoqonligidagi ijtimoiy, siyosiy vaziyatni to'laqonli baholaydi. Bilga xoqon kichik bitig voqealarini o'zining taxtga o'tirishidan boshlaydi va jamiki qarindosh-urug'lariga, farzandlariga, beku amaldorlarga, to'quz o'g'uz beklariga murojaat qilib, o'zining hukmdorlik faoliyatidan, mamlakat va el-yurt uchun qilgan fidokorligidan ularni xabardor qilib qolmaydi, balki xalqning parokandaligi, beklarning xiyonatidan aziyat chekadi. Mamlakatni birlikka da'vat etadi, Bilga xoqon qudratli Turk xoqonligini barpo qilishda o'zining xizmatlarini bayon qilar ekan: "Shuncha xalqni yig'dim, U endi yovuz emas. Turk xoqoni O'tukan yishda tursa, elda tashvish yo'q", deb o'git beradi. Bu o'gitning ostida xalqning osoyishtaligi, g'am-tashvishsiz yashashining omili O'tukanda – poytaxtda xoqon mustahkam o'rnashuvi va xalq uning atrofiga birlashuvini ifoda etadi. Xalqning parokandaligi, beklarning xiyonati xoqonga ishonchsizlik paydo qildi, oqibatda xalqning o'zi jabr ko'rdi.

Kul tigin bitiktoshi ikki qismdan – kichik bitig va ulug' bitigdan iborat. Kichik bitigni ulug' bitigning debochasi deb aytish mumkin. Yo'llug' tigin bitiktoshda Bilga xoqon tilidan hikoya qilar ekan, turkiy qavmlarning ikki yuz yillik tarixini badiiy yo'sinda ifoda qiladi, turkiy qavmlarning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan goh yuksalishini, goh tanazzulini dardli lavhalarda bayon qiladi. Tabg'ach (xitoy) xalqi turkiy qabilalarning hayotiga, turmushiga doim rahna solib keldi. Birinchi Turk xoqonligi davrida (551-630) mamlakatning parokanda ahvolga tushib qolishiga sababchi, turkiy qabilalarni yo'ldan ozdirgan ham tabg'ach xalqi edi. Bilga xoqon tilidan voqealarni hikoya qilayotgan Yo'llig' tigin tabg'achlar bilan Turk xoqonligi o'rnatgan munosabatni quyidagicha ta'riflaydi: "Bu yerda (O'tukanda – N.R.) o'rnashib, tabg'ach xalqi bilan murosaga keldim". Tabg'ach xalqi makkor, ayyor: "Tabg'ach xalqi so'zi shirin, ipak kiyimi nafis ekan. Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaxshi qo'shni bo'lgandan keyin yovuz ilmni u yerda o'rganar ekan". Makkorlikning keng tarqalgan, ommalashgan usuli shu – avaliga shirin so'zlar bilan yaqinlashtiradilar, keyin qullik, xo'rlash, erkni bo'g'ish boshlanadi. Insoniyat bu ahvolni boshidan ko'p kechirgan. Turkiy qavmlarni tabg'achlar o'zlariga yaqinlashtirib, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yovuzliklarni qildi. Tabg'achlarning yovuz ilmi (*anyig' bilig*)ga mukkasidan ketgan turkiy

qavmlarning ahvoli fojiali bo'ldi: "Ey turk xalqi, o'lding. Ey turk xalqi, ayriming janubga – Chug'ay yishga, To'g', Eltan cho'liga manzil qilay desang, turk xalqining ayrimini u yerda yovuz kishi shunday pishiqlar ekan: yiroq bo'lsa, yomon ipak beradi, yaqin bo'lsa, yaxshi ipak beradi, deb shu xilda pishiqlar ekan. ilmsiz kishi uning (tabg'achlarning – N.R.) so'ziga ishonib, unga yaqinlashib, ko'p kishi o'ldi".

Turk xoqonligining yagona orzusi – tabg'ach davlati asoratidan xalos bo'lib, tinchlik va osoyishtalikka erishish, barqaror va poydor davlat barpo qilish edi. Bu singari davlatni barpo qilish uchun esa, birinchi navbatda, xalqning tafakkurini ozod qilish, sog'lom fikr egasi qilish lozim edi. Buning uchun tabg'achlarning makkorligidan zaharlangan, ma'naviy tubanlashgan turk xalqining ongini, dunyoqarashini tamomila o'zgartirish, o'zligini anglashi uchun to'g'ri yo'lni ko'rsatish kerak edi. Bu vazifani Bilga xoqon bajardi. U turk xoqonligining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini izga soldi, "har yerda qolgan-qutgani o'lib-tirilib yurgan edi", ularni yakdil qildi. Bilga xoqonni "tangri yorlagani uchun, iste'dodi, baxti bor uchun" turkiy qavmlar xoqoni bo'ldi. Bilga xoqonning eng katta xizmati qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg'azdi, qashshoq xalqni boy qildi, oz xalqni ko'paytirdi. Bilga xoqon turkiy qavmlar oldidagi xizmatlarini, mamlakatni oyoqqa turg'azganini aytar ekan, beklarning xiyonatini, manfaatparastligini, xalqning o'zboshimchaligini yana bir marta ta'kidlaydi: "Turk beklari, xalqi, buni eshiting! Turk xalqini to'plab davlat tutishingizni bu yerda toshga o'yib yozdim. Adashib ayrilganing(iz)ni ham bu yerda yozdim. Nimaiki so'zim bo'lsa mangu toshga o'yib yozdim. Unga qarab biling, turkning endigi xalqi, beklari, uy, dunyogagina qaraydigan beklar, sizlar gumrohsizlar. Men mangu toshga hammasini o'yib yozdim". Manfaat bor joyda amaldorlar tuban ketadi, boylikka ruju qo'ygan amaldor o'zidan boshqa hech kimni o'ylamaydi, uning tanlagan yo'li bitta – fojidan foydalanib boylik orttirish. Unga mamlakat va xalq taqdiri tamomila begona – Bilga xoqonning aytmoqchi bo'lgan gaplari shulardan iboratdir.

Kul tigin ulug' bitigi mifologik syujet bilan boshlanadi. Osmon hamda yerning yaratilishi va ikkovining o'rtasida inson bolalarining paydo bo'lishi mazkur mifologik syujetning asosidir. So'ngra mifologik syujet zaminida tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar singdiriladi - Bo'min va Istami xoqonlarning taxtga o'tirishi va davlat boshqaruvi hikoya qilinadi. Bo'min va Istami xoqonlarning katta xizmatlari shuki, ular atrof-

dlagi dushman qabilalarni va xalqlarni tobe qildilar. Har ikkala xoqon fidoyilik va qahramonlik namunalarni ko'rsatib, "boshi borning boshini egib ta'zim qildirdilar, tizzasi borni cho'kka latdilar... Qadirqan yish bilan Temir darvozaning orasida xo'jayinsiz, urug' hokomiyatisiz, cheklanmagan yerga ega bo'lib, asl turk shu tarzda yashayverdi". Bilga va Istami xoqonlarning siyosati va mamlakat mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari turkiy qavmlar hududini shu qadar kengayishiga sabab bo'ldi. Qadirqan yish – Sibirda, Temir darvoza esa hozirgi O'zbekiston hududida bo'lib, Jizzax bilan Samarqand o'rtasida joylashgan.

Yo'llig' tigin Bilga xoqon tilidan bu voqealarni hikoya qilar ekan, tarixiy voqealarni ko'chirib qolmaydi, balki bu voqealar zaminida xuddi ertaklarning boshlanmasidagi "Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan...bir podshoh bor ekan" tarzidagi bayon usulini qo'llayotganday bo'ladi. Yuqorida Kul tigin bitikoshidan keltirilgan parchadagi "asl turk shu tarzda yashar ekan" jumlasini ayni ertak usulini gavdalantiradi.

**Kul tigin bitiktoshida xoqonlar obrazi.** Kul tigin bitiktoshining diqqatga sazovor tomonlaridan biri – xoqonlarning ideallashgan obraziga asos solishdir. Epos qahramonlari odatda, mard, jasur, dono, qahramon va hokazo ijobiy sifatlarga ega bo'ladi. Masalan, Xorazm dostonlari turkumiga kiruvchi "Go'ro'g'lining dunyoga kelishi" dostonida bosh qahramonga dostonchi ta'rif bermasa ham, har bir harakatida mardlik va bahodirlik (Abdulla qalandarning gunohidan o'tishi, yigitlarini Go'ro'g'li talon-taroj qilishdan qaytargani va yigitlari arazlab ketib qolgani), qahramonlik (otasi Odilbekning yigitlaridan Safar mahramning yigitlarini va o'zini yengishi) namoyon bo'lib turadi, dostonchi ta'rif bilan emas, balki tasvir orqali bu kabi lavhalarda qahramonning qiyofasini chizib beradi.

Kul tigin bitiktoshida Bo'min va Istami xoqon quyidagicha ta'riflanadi: *Bilga qag'an armis, alp qag'ar armis, buyruqi yama bilga armis arinch, alp armis arinch, baglari yama, boduni yama tuz armis. Ani uchun ilig ancha tutmis arinch, ilig tutup torug itmis (Ktu 3)* – Dono xoqon ekan, bahodir hoqon ekan, vazirlari ham dono va botir bo'lgan bo'lishi kerak, beklari ham, xalqi ham to'g'ri ekan. Shuning uchun davlatni shu xilda tutib turgan ekanlar, davlatni tutib, qonun-qoidalarini yaratgan.

Kul tigin bitiktoshidan olingan bu parchadan epos qahramonlariga xos ta'rifning paydo bo'lishiga asosiy omil shu ediki, qadimgi turkiylar o'tmishidagi og'zaki ijod manzarasini yaratish va o'z davri bilan



bog'lash, shu asosda Bo'min va Istami xoqonning yozma adabiyotdagi qiyofasini yaratish asosiy maqsad bo'lgan edi. Shuning uchun ham Yo'llig' tigin va Bilga xoqon Turk xoqonligini barpo qilgan ota-bobolari hayotidagi real voqealarni yaratishga intilmadilar, balki ideal qahramon obrazini yaratmoqchi bo'ldilar. Zotan, Bo'min va Istami xoqonning – har ikkalasining obrazi bir xilda ta'riflanishiga sabab ham shudir. Mazkur ta'rif bir xoqondan ikkinchisiga, bir bitiktoshdan boshqasiga ko'chib yuraveradi. Masalan, yuqoridagiday xoqonlarning ta'rifini Eltarish xoqonga ham, xoqonlikni poydor qilish uchun xizmat qilgan boshqa xoqonga ham tatbiq qilish mumkin. Albatta, bu ta'rifni xalq og'zaki ijodidagi afsonaviy xoqonlarga berilgan ta'riflar bilan teng deb qarab bo'lmaydi. Turk xoqonligi tarixidan ma'lumki, Bo'min xoqon vafotidan keyin taxtga o'tirgan Mug'an xoqon (553-572), Taspar xoqon (572-582) davrida xoqonlikning harbiy qudrati mustahkamlandi, xitoy yilnomalarida yozilishicha, "Mug'an xoqon chegara (Buyuk Xitoy devori – N.R.) ortidagi, Sharqdagi Koreys qo'ltig'idan g'arbdagi G'arbiy dengiz (Kaspiy – N.R.)gacha o'n ming li masofadagi, janubdagi Qumli sahro (Olas-han va Gobi – N.R.)dan shimoldagi Shimoliy dengiz (Baykal – N.R.) gacha besh mingdan olt ming li masofagacha bo'lgan joydagi davlatlarni vahimaga soldi".<sup>23</sup> Mug'an xon shimoliy Xitoydagi ikkita qudratli davlatni – Shimoliy Si va Shimoliy Chjouni o'lpon to'lashga majbur qilgan edi. Taspar xoqon hukmronligi davrida ham har ikkala Xitoy davlatining tobeligi davom etdi.

Bilga xoqon ham, Yo'llig' tigin ham Turk xoqonligining o'tmishini yaxshi bilgan edilar, xoqonlar tarixiga alohida e'tibor qaratdilar. Shunga binoan, xoqonlikning parokandaligiga sabab bo'lgan noshud xoqonlarning ham qiyofasini bir xilda chizib berdilar. Quyidagi parchaga e'tibor beraylik: Undan so'ng inisi og'asiday ish tutmagan ekan, o'g'li otasiday ish tutmagan ekan. Taxtga johil xoqon o'tirgan ekan, badfe'l xoqon o'tirgan ekan. Vaziri ham bilimsiz ekan, qo'rroq ekan (Ktu 6).

Bu parchaning ostida ham Turk xoqonligidagi iqtisodiy, siyosiy vaziyat yotadi. Yuqorida aytganimizday, Turk xoqonligi 582-603-yillarda Sharqiy (Markaziy Osiyo) va G'arbiy (O'rta Osiyo) davlatlarga bo'linib ketdi. Har kkkala xoqonlikda bu davrda ichki urush davom etdi. Shibi xoqon hukmronligi davrida (609-619) qisqa muddatda xoqonlik buh-

---

<sup>23</sup> Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.: -Л.: 1950, том 1, 229-б..

rondan chiqdi, xoqonlikning siyosiy mavqei oshdi. Xitoydagi fuqarolar urushi (613-618), Suy sulolasi o'rniga Tan sulolasi (618 -907)ning kelgani Shibi xoqon va uning ukasi El xoqonga (620-630) janubiy chegarada urush olib borishga imkon yaratib berdi. Ammo bu davrga kelib xoqonlikda siyosiy vaziyat tamomila o'zgardi. 620-629-yillarda El xoqon va uning lashkarboshilari chegaralarga 67 marta hujum qildi. Mutasil urushlar katta lashkarni boqish, otlarni urushga doimo shay qilish va boshqa ko'plab xarajatlarni talab qilardi. Oqibatda El xoqon o'lja va o'lponlar bilan qanoatlanmay, o'z xalqiga og'ir soliqlar soldi. Buning ustiga, 627-629-yillari qahatchilik yuz berdi. El xoqon o'zidan oldin o'tgan hukmdorlar yo'lida ketib, davlat boshqaruvida rivojlangan jamiyatga xos hukmronlik shakllari va usullariga o'tdi. Qabilachilik an'analari bilan ma'lum darajada bog'langan eski boshqaruv tizimidan voz kechdi, siyosiy lavozimlarga xitoy va so'g'dlarni tayinladi. Xalq ko'zi oldida hokimiyat begonalar qo'liga o'tdi, oqibatda ijtimoiy va mulkiy tengsizlik kelib chiqdi, vaziyat taranglashdi. Xoqonlikda ichki ziddiyat kuchayib borayotganini chegaradagi Xitoy amaldorlari doim kuzatib turardilar. "Turklarning odatlari oddiy va o'zlari ham samimiydirlar. El xoqonning saroyida Chjao De degan bir xitoy olimi yashar edi, El xoqon uni iste'dodi uchun hurmat qilar, unga to'liq ishonardi. Natijada Chjao De yana ista-sekin davlat ishlariga aralasha boshladi. Bundan tashqari, Eli xoqon so'g'dlarni boshqarishni unga ishonib topshirdi, safdoshlarini o'zidan ajratib qo'ymasdi, ularni xizmatga qo'ymadi. U har yili jangga lashkar yuborardi... oqibatda xalq og'irliklarni ko'tara olmay qoldi... Yildan-yilga qahatchilik kuchayib bordi. Soliqlar va boj chidab bo'lmaydigan darajada og'irlashdi, qabilalarning El xoqonga nafrati kuchayib boraverdi".<sup>24</sup>

Buning oqibati shu bo'ldiki, 629-yili El xoqon Shansida mag'lubiyatga uchradi. O'g'uz qabilasi unga qarshi isyon ko'targan edi. Xitoy lashkari vaziyatdan foydalanib, xoqonlik hududiga bostirib kirdi. El hoqondan hamma yuz o'girdi, u 630-yili asirga tushdi. Birinchi turk xoqonligi shu tariqa barham topdi.

Turk xoqonligini El xoqon jar yoqasiga olib keldi. Xalq jaholat va nodonlik qurboni bo'ldi. Fitna, adovat, makkorlik, firib kabi illatlar nafaqat insonni, balki butun boshli xalqlarni, mamlakatlarni halokatga olib borгани El xoqon misolida yaqqol namoyon bo'ldi. Kultigin bitikoshidagi johil, badfe'l xoqonlar El xoqon singari qudratli davlatning paro-

<sup>24</sup>Bichurin N.Ya. (Iaknif). Yuqoridagi asar, 1 jild, 194-b.

kanda bo'lishiga sabab bo'ldi. Bitiktoshda o'g'it sifatida johil xoqonlarga berilayotgan ta'rif ana shu tarixiy voqealarga asoslangan. Oqibat shu bo'ldiki, turk xalqi "tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasi bilan qul bo'ldi, suluv qiz bolasi bilan cho'ri bo'ldi. Turk beklari turkcha otini tashladi. Tabg'ach beklarining tabg'achcha otini qabul qilib, Tabg'ach xoqoniga qaram bo'ldi"(Ktu 7).

Turkiy qavmlar ellik yil Tabg'ach xoqonligiga qaram bo'lib yashadi. Bu qaramlik bo'libgina qolmay, balki o'zlgini unutish ham edi. Ammo tabg'achlarning zulmidan xalqning sabr kosasi to'ldi: "Davlatli xalq edim, davlatim endi qani? Kimga davlatni egallab beryapman? – der ekan. – Xoqonli xalq edim, xoqonim qani? Qaysi xoqonga mehnatimni, kuchimni sarf qilyapman? – der ekan. Shunday deb tabg'ach xoqoniga qarshi bo'libdi" (Ktu 9). Ammo bu qarshilik bir necha marta Tabg'ach xoqonligi tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgani haqida bitikoshda xabar beriladi.

Qadimgi turkiy qavmlarning inonch-e'tiqodida Tangri (osmon) va yer kultlari muhim rol o'ynagani haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Kul tigin bitikoshida aytilishicha, o'z xoqonligini Tabg'ach xoqonligiga boy bergan turkiy qavmlarga Tangri va yer panoh bo'ldi. Tangri "Turk xalqi yo'q bo'lmasin", deb, "xalq bo'lsin", deb Kul tigin va Bilga xoqonning otasi Eltarish xoqon bilan onasi Elbilga xotunni yubordi. Eltarish xoqon Tabg'ach xoqonligiga qarshi o'n yetti yigiti bilan isyon ko'tardi, ammo butun boshli tabg'ach xoqonligi lashkariga o'n yetti yigit bas kela olmasligi tabiiy edi. Eltarishning tabg'achlarga qarshi qo'zg'alganini eshitgan jamiki turkiy qavmlarning fidoyi farzandlaridan uning atrofiga yetti yuztasi jam bo'ldi. Nihoyat, 679-yilda Tabg'ach xoqonligiga qarshi Eltarish xoqon boshchiligida boshlangan mustaqillik uchun kurash 689-yili Eltarishning g'alabasi bilan tugadi. Shunday qilib, Ikkinchi turk xoqonligiga Eltarish asos soldi. Eltarish – uning unvoni bo'lib, ismi Qutlug'dir.

Kul titin bitiktoshida Eltarish xoqonning faoliyati alohida sahifani tashkil qiladi. Eltarish xoqon turkiy qabilalarni oyoqqa turg'azib, atrof-dagi dushman xalqlarni bo'ysundirdi. Mana, Bilga xoqon otasi Eltarishning jasorati haqida nima deydi: "Otam xoqon...tangri yorlaqagani uchun davlati borni davlatsizlantirgan, xoqoni borni xoqonsizlantirgan, dushmani el qilgan, tizzasi borni cho'kka-latgan, boshi borni egib ta'zim qildirgan"(Ktu 15).

Eltarish xoqon Ikkinchi turk xoqonligini barpo qilgandan keyin uzoq yashamadi. 692-yili u vafot etdi. Uning o'rniga Qapag'an taxtga o'tirdi. Qapag'an xoqon davrida (691-716-yillarda hukmronlik qilgan) Ikkinchi Turk xoqonligining harbiy-siyosiy qudrati nihoyatda yuksaldi. Qapag'an xoqonning layoqatini, davlat boshqaruvidagi mahoratini, Markaziy Osiyodagi siyosiy mavqeini Bilga xoqon quyidagicha tasvirlaydi: "Amakim xoqon xalqni yaxshilab tuzatdi, tarbiyat qildi. Kambag'alni boy qildi. Amakim xoqon bo'lib turganda o'zim tardush xalqi ustidan shad edim". Qapag'anning Markaziy Osiyoning harbiy va siyosiy maydondagi o'rnini haqiqatan ham, katta bo'ldi. Bilga xoqon bu davrda amakisi bilan bir qatorda o'zining xoqonlik hayotidagi roliga ham baho berib boradi. Bilga xoqon bu davrdagi mamlakat va davlat hayotida o'zining roliga alohida urg'u bermaydi, aksincha, xoqonlikning mavqeini mustahkamlashda amakisi Qapag'an bilan birga o'zining olib borgan xizmatlarini bayon qiladi. Bu ham Kul tigin bitikoshidagi voqealarning haqqoniyligini, tarixiy dalillarning xolisligini ko'rsatadi. Turk xoqonligining iqtisodiy turmushi yaxshilanishiga Qapag'an xoqon bilan birga, Bilga xoqon ham astoydil kurashdi. Natijada Qapag'an xoqon hukmronligi davrida "qul qulga ega bo'lgan edi, cho'ri cho'riga ega bo'lgan edi" (Ktu 21).

Bu iqtisodiy yuksalish ham vaqtincha edi. Xalqning beboshligi yana mamlakat parokandaligiga, davlatning tanazzuliga sabab bo'ldi. Yuqoridagiday turkiylarning samimiyligidan foydalangan dushman xalqlar yana xoqonlikni yemirish payiga tushdilar. Xoqonlikning tanazzuliga xalq aybdor, Qapag'an xoqonning qilgan yaxshiligini xalq bilmagani uchun, amakim xoqon o'lib ketdi, deydi Bilga xoqon. Endi turk xalqining taqdiri nihoyatda achinarli, hatto aytish mumkinki, fojiali ahvolga tushib qoldi. Xalqning fojiasi mana bunday oqibatlariga olib keldi: "Qoning suvday oqdi, suyaging tog'day uyulib yotdi, bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, suluv qiz bolang cho'ri bo'ldi" (Ktu 24).

Kul tigin bitiktoshining hikoyachisi Bilga Qapag'an vafotidan keyin (716-yili) qonuniy ravishda taxtga o'tirdi. Bilga xoqonning ismi – Mo'g'uliyon, Bilga uning unvonidir. Bilga xoqon taxtga o'tirganda, mamlakatning iqtisodiy ahvoli nochor edi. Bu vaziyatni Bilga xoqon shunday ta'riflaydi: "Mol, yilqilik xalqqa xoqon bo'lib o'rnamashdim. Ichi oshsiz, tashi kiyimsiz och-yalang'och, yovuz, yomon xalq uza o'rnamashdim. Inim Kul tigin bilan so'zlashdik: otimiz, amakimiz qozongan xalqning oti, dong'i yo'q bo'lmasin deb, turk xalqi uchun tun uxla-

madim, kunduz o‘tirmadim” (Ktu 26-27). Bilga xoqon ilgari tardush xalqining shadi (hokimi) bo‘lib turganda ham, Qapag‘an xoqon bilan birga xoqonlikning ravnaqi uchun kurashdi, u elparvar xoqon sifatida tanildi. Bilga xoqonning taxtga o‘tirganini eshitgan “har yerga ketgan xalq o‘lib-tirilib yayov, yalang‘och”(Ktu 28) qaytib keldi.

Bilga xoqonning faoliyati Kul tiginning jasoratlari, ta‘rif-tavsifi bilan birga tasvirlanadi. Har ikkalasi bitta maqsad uchun – Turk xoqonligini mustahkamlash va kengaytirish uchun kurashdilar.

Kul tiginning jasorati bitikoshda alohida e‘tibor va mehr bilan tasvirlanadi. Kul tiginning qisqa tarjima holi: yetti yoshda ekanida (692-yili) otasi Eltarish xoqon vafot etdi, o‘n yoshida qahramonlik ko‘rsatib elda shuhrat topdi, o‘n olti yoshida Qapag‘an xoqon hokimiyatini mustahkamlash uchun janglar olib bordi...

Bitiktoshda Kul tiginning qahramonligi va u olib borgan janglar ko‘proq o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, u minib jangga kirgan ot tasviriga alohida e‘tibor qaratilgan. “Kul tigin...yigirma bir yoshida Chacha Sangunga urush qildik. Eng avval Tadqan Churning bo‘z otini minib hujum qildi, u ot o‘shanda o‘ldi. Ikkinchi bor Ishbara Yamtarning bo‘z otini minib hujum qildi, u ot o‘shanda o‘ldi. Uchinchi bor Yigan silik bekning to‘riq otini minib hujum qildi, u ot o‘shanda o‘ldi...Kul tigin Bayirquning oq otini minib hujum qildi. Bir erni o‘q bilan urdi, ikki erni ketma-ket qilib sanchdi..” (Ktu 32-33, 36). Bu tasvir bevosita va bilvosita xalq og‘zaki ijodining ta‘siridir, bitiktoshlarning yozma adabiyot sifatida shakllanishida xalq og‘zaki ijodi asos bo‘lganini ko‘rsatuvchi bir dalildir. Turkiy xalqlar ertak va eposlarida oq ot har doim muvaffaqiyat ramzi sifatida qo‘llangan va g‘alaba keltirgan. Kul tigin oq otini minib kirgandagina ot o‘lmadi. Kul tigin epos qahramonlariga xos ko‘tarinki ruhda tasvirlanadi, ya‘ni u birdaniga ikki odamga nayza sanchdi. Boshqa bir o‘rinda Yo‘llic‘ tigin Kul tiginning jasoratini yana bir bor ulug‘lash uchun jang tasviriga e‘tibor qaratadi: u yana oq otini minib jangga kirganda, qahramonlik namunalari ko‘rsatadi va bir necha dushman askarini birdaniga yer tishlatadi: “Kul tigin...Alp Shalchining oq otini minib otilib hujum qildi. Dushmanning ikki jangchisini birin-ketin qilib sanchdi” (Ktu 42); “Kul tigin Azmanning oq otini minib hujum qildi. Olti jangchisini o‘ldirdi. Qo‘shin hujum qilganda, yettinchi jangchini qilich bilan chopdi” (Ktu45); “Kul tigin O‘gsizning oq otini minib, to‘qqiz jangchini o‘ldirdi” (Ktu 49).

Kul tiginning halokati butun Turk xoqonligi uchun katta yo'qotish bo'ldi. Bilga xoqon Kul tigin o'limidan chekkan aziyatini shunchalik ta'sirli qilib tasvirlaganki, go'yo butun Turk xoqonligi emas, balki qo'shni mamlakatlar uchun ham katta yo'qotish bo'lgan. Vatanning taqdiri, xalqning tirikligi faqat Kul tiginga bog'liq qilib qo'yiladiki, bu bejiz emas. Zotan, Kul tiginning jasorati haqida boshqa tarixiy manbalarda ham qayd etilgan. Jumladan, u to'rt yil (711-715) davomida qorluqlar bilan jang qilib, mag'lub qildi va qarluqlar Turk xoqonligiga bo'ysunadigan bo'ldi. Qapag'an xoqon Kul tiginning jasoratiga va xalq orasidagi obro'ygiga hasad qilib, qo'shinga o'zi bosh bo'lib, to'quz o'g'uzlarga qarshi jangga ketdi. Qarorgohda ayollar va bolalar qoldi. Qapag'an xoqon Kul tiginga ayollar va bolalarni qo'riqlashni topshirib ketdi. Bundan xabardor bo'lgan qarluqlar, Kul tigindan qasos oladigan payt keldi, deb qarorgohga hujum qildilar. Qarluqlar, xoqonlik qo'shinlari ikki frontda urush olib bora olmaydilar, deb o'ylagan edilar. Asosiy kuchlarning urushga ketganidan foydalanmoqchi bo'lgan qarluqlarning rejasini Kul tigin barbod qildi – u qarorgohni bir o'zi himoya qildi. Bu voqea Kul tigin bitiktoshida shunday tasvirlanadi: “Onam xotun, keyingi onalarim, opalarim, kelinlarim, xonzodalarim, tirigingiz cho'ri bo'lar edi, o'ligingiz cho'lu biyobonda, yo'lda yotib qolar edingiz!” (Ktu 49). Kul tiginning jasorat haqida xitoy yilnomalarida ham bayon qilingan.<sup>25</sup>

Kul tiginning halokati Bilga xoqon uchun og'ir yo'qotish bo'ldi. Bilga xoqon inisining halokatidan qattiq qayg'uradi, “Kul tigin bo'lmasa, butunlay o'lar edingiz. Inim Kul tigin vafot etdi, vujudim alam chekdi. Ko'rar ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo'ldi, jonim azobda qoldi” (Ktu 50). Bitiktosh so'ngida Kul tiginning azasiga Sharqu G'arbdagi ko'p mamlakatlardan – Tabg'ach xoqonligidan, Tibetdan, So'g'd davlatidan, Buxorodan odamlar kelgani to'g'risida bayon qilinadiki, bu dalillar ham, birinchidan, Turk xoqonligining Bilga xoqon hukmronligi davrida dunyo xaritasida katta mavqe egallaganini, ikkinchidan, Kul tiginning shaxs sifatida ham atrof mamlakatlarda obro'e'tibor qozonganini yana bir marta ko'rsatadi.

**Bilga xoqon bitiktoshi.** Bilga xoqon bitiktoshi mazmunan Kul tigin bitiktoshiga yaqin. Bilga xoqon kichik bitigining birinchi-yettinchi satrlari Kul tigin kichik bitigining birinchi va ikkinchi satrlarining aynan

---

<sup>25</sup> Каранг: Гумилев Л.Н. Древние тюрки. Изд. “Наука”, Главная редакция восточной литературы. Москва, 1967, 313-314-6.

takrori. Bilga xoqon ulug' bitigining 3-23 satrlari Kul tigin ulug' bitigining 1-30 satrlarining aynan takroridir. Bilga xoqon bitikoshning muallifi ham Yo'lig' tigindir. Chamasi, Kul tigin bitiktoshining hikoyachisi Bilga xoqon va voqealarning asosiy qahramoni ham uning o'zi bo'lgani sababli matn aynan takrorlangan. Zotan, Kul tigin bitiktoshida 30 satrgacha asosiy voqealar oqimida Bilga xoqon obrazi bor. Kul tigin obrazi 20 misradan davom etadi.

Bilga xoqon bitiktoshi asrlar davomida qulab, ko'p zararlangani uchun voqealar izchilligi yo'qolgan. Bitikoshda, asosan, Bilga xoqonning taxtga o'tirishi, dushman qabilalarga lashkar tortib, ularni itoat ettirgani hikoya qilinadi. Jumladan, basmil, idiqut xalqi turkiy qavmlardan bo'lib, avval Turk xoqonligi tasarrufida bo'lgan, ammo Turk xoqonligiga "karvon yubormagani" uchun, Bilga xoqon bu qabilalarga hujum qilib, ularni yana itoat ettirgan.

Voqealarni aniqlik bilan bayon qilish Bilga xoqon bitikoshining diqqatga sazovor tomonidir. Voqealar ishtirokchisi ham, hikoyachi ham Bilga xoqon. Shu bois bu bitiktosh Kul tigin bitiktoshidan farqli ravishda tarixiy-qahramonlik dostoniga emas, balki memuar janriga mansub, deb qarash lozim.

Bilga xoqon necha yoshida qaysi xalqni bo'ysundirish uchun hujum qilganini birma-bir bayon etadi:

22 yoshida Tabg'achga hujum qildi, Chacha sangunning sakkiz tumalik (sakson ming) lashkarini mag'lub qildi;

26 yoshida qirg'iz xalqiga hujum qilib, ularni tor-mor qildi, shu yili az xalqini ham taslim qildi;

27 yoshida yana Qirg'iz xoqoniga lashkar tortdi, Ko'gman (Sayan) yishni oshib o'tib, qirg'iz xalqiga kechasi ular uxlab yotganda bostirib bordi, qirg'iz xoqonini o'ldirib, davlatini Turk xoqonligiga qo'shib oldi.

O'sha yili - 27 yoshida turgash xalqiga hujum qilib, Bo'luchu degan joyda jang qildi va xoqonini, shadini o'ldirdi, davlatini oldi.

30 yoshida Beshbaliqqa hujum qilib, ko'p lashkarini o'ldirdi, Beshbaliqni qo'lga kiritish qiyin kechdi – olti marta hujum qildi. Beshbaliqning zodagonlari Bilga xoqon huzuriga keldilar. Bilga xoqon Beshbaliq shahri aholisining gunohida o'tib, shaharni omon qoldirdi.

31 yoshida qarluq xalqiga hujum qildi, chunki qarluqlar Turk xoqonligiga itoat etmay, uzoqlashib ketgan edi. Tamg'idouq bash degan joyda jang qilib, qarluqlarni mag'lub qildi.

34 yoshida o'g'uzlar qochib borib, tabg'ach xoqonligiga qo'shildi va ular lashkar tortib, tvb'g'achlarni mag'lub qildi.

U 19 yil shad bo'lib turdi, 19 yil xoqon bo'ldi.

Bitikoshida Bilga haqdagi xronologiya shundan iborat. Bu sanalar Bilga xoqonning hayotidagi eng muhimlaridir. Uning mamlakat boshqaruvidagi xizmati asosiy o'rin tutadi. Tabiiyki, qahramonning xizmat faoliyatida folklor qahramonlariga xos ta'rif-tavsiflarni ko'rmaymiz va bu bitiktoshning badiiy asar sifatidagi qonuniyatidir. Bitiktoshda faqat ayrim parchalar borki, xalq og'zaki ijodiga xos mubolag'a, voqealarni dalillash va ularga badiiy ruh berish uchun keltirilgan parchalar borki, bu - bitiktosh muallifi Yo'llig' tiginning mahoratidan yana bir bor darak beradi. Yo'llig' tigin Bilga xoqonning jasoratini dalillash, qahramonligini ko'rsatish maqsadida jang manzarasini bir necha so'zda ifoda etadi va Bilga xoqonning qahramonona xatti-harakati kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Sahnani to'liq tasavvur qilish uchun qadimgi turkiyda gi parchaga va o'zbekcha tabdiliga e'tibor beraylik: *(Anta) so'ngushtim, qusin sanchdim, ichikigma ichikdi, bo'dun bo'lti, o'lugma o'lti. Salanga qo'di yo'ripan, qarag'in qisdilata abin barqin anta buzdin (Bx 37) - (O'sha yerda) jang qildim, lashkarini tor-mor qildim, taslim bo'ladigani bo'ysunib, (mening) xalq(im) bo'ldi, o'ladigani o'ldi. Selenga (daryosi) bo'ylab yurib, ularni qattiq qisuvga olib, uyini, bor narsasini o'sha yerda vayron qilib tashladim.*

Bilga xoqon o'zining xoqon sifatidagi faoliyatiga bitiktoshda baho beradi. Bu baho tarixiy asarlarda Bilga xoqon bilan bog'liq voqealarga mos keladi. Avval Bilga xoqon bitiktoshidagi tasvirga e'tibor beraylik: **Tangri** yorlaqagani uchun, men muvaffaqiyat qozonganim uchun Turk xalqi g'alaba qozondi. Men tomondan davlat bunday boshqarilmasa, Turk xalqi o'lajak edi, yo'q bo'lajak edi.

Endi Bilga xoqonga oid Xitoy yilnomalaridagi voqealarga to'xtalamiz. Qapag'an xoqon vafotidan oldin, o'g'li Kuchuk xonni noqonuniy ravishda taxt vorisi qilib e'lon qilgan edi. Aslida qadimgi turkiylar qonuniga ko'ra, Qapag'andan so'ng akasi Eltarishning o'g'li Mo'g'uliyon taxtda o'tirishi kerak edi. Qapag'an xoqon davrida Bilga xoqon tardush xalqi ustidan shad, ya'ni bek edi.

Noqonuniy xatti-harakatga qarshi Kul tigin vaziyatni qo'lga oldi va Qapag'anning safdoshlarini qilichdan o'tkazib, akasi Mo'g'uliyonni Turk xoqonligi taxtiga o'tqazdi. Mo'g'uliyon Bilga (dono) xoqon unvoni



bilan taxtga o'tirdi. Qapag'an xoqonning safdoshlaridan faqat To'nyuquq qoldi, xolos. Bilga xoqon tashqi siyosatda ham, mamlakat ichkarisida ham vaziyatni tamomila o'zgartirdi. Xitoy bilan tinchlik shartnomasi tuzishni taklif qildi, ammo Xitoyning Tan sulolasi nafaqat shartnomaga rozi bo'ldi, aksincha harbiy harakatlarni yanada kuchaytirdi. Xoqonlikning Xitoy imperiyasi bilan chegaradosh hududida turkiy qabilalar yovvoyi hayvonlarni ovlashni Xitoy imperatori ta'qiqlab qo'ydi. Bundan g'azablangan xalq isyon ko'tarib, imperatorning chegaradosh hududdagi noibi Chjan Chji-yunni asirga oldilar. Xitoyliklar uni arang qutqarib oldilar. Mana shu voqea ham Turk xoqonligining takliflarini o'ylab ko'rish uchun xitoylarga turtki bo'ldi.

Bilga xoqon boshchiligidagi davlat boshidanoq xalqning manfaatlarini himoya qildi. Qapag'an xoqon ayrim qabilalarga, jumladan, to'lis xalqiga nihoyatda qattiq zulm o'tkazgan edi. Oqibatda bu xalq Qapag'an bilan bo'lgan jangda mag'lub bo'ldi va to'lis xalqining ko'pchiligi Xitoy imperiyasidan panoz izlab, o'sha yoqqa qochdi. Ular Turk xoqonligida to'ntarish va yangilanish bo'lganini eshitgach, yana o'zlarining yurtiga qaytib keldilar. Bu voqea xitoy yilnomalarida To'nyuquqning ta'siri deb baholanadi.<sup>26</sup> Ammo Bilga xoqonning siyosati ham to'lis xalqini o'z yurtiga qaytib kelishiga sabablardan biri bo'lgan edi. To'lis xalqining qaytib kelishi xoqonlikning harbiy qudratini mustahkamladi. Xitoy imperiyasi o'chayotgan urush alangasini yana alanglatmoqchi bo'ldi. Ammo bunga muvaffaq bo'la olmadi. Xitoy imperiyasiga qarshi Tibet boshlagan urush imperiyani holdan toydirdi. Bilga xoqon vaqtini qo'ldan boy bermay, Tabg'ach xoqoni "yo'ldan ozdirgan va yer-suvini tashlab, tabg'achga qaram bo'lgan" to'quz o'g'uzlarga amakisi Qapag'anning o'chini olmaslikka (Qapag'anni to'quz o'g'uzlar o'ldirgan edilar) va'da berib, ularni Turk xoqonligiga yana qaytardi. Bu xalq ham katta kuch edi.

Xullas, Bilga xoqon insonparvar, uzoqni ko'ra biladigan, shuningdek, mohir siyosatchi sifatida xoqonlikni buhrondan olib chiqdi, iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamladi.

**To'nyuquq bitikoshi.** Bitikosh Turk xoqonligining mashhur sarkardasi, Ikkinchi Turk xoqonligini barpo qilgan Eltarishning, Qapag'an va To'nyuquqning maslahatchisi To'nyuquqqa atab o'rnatilgan. Bitikoshning muallifi - To'nyuquqning o'zidir. Bu bitikosh ham, Bilga xoqon

<sup>26</sup> Грумм-Гржимайло. Западная Монголия. С. 321-322.

bitiktoshi kabi, memuar janriga mansubdir. Bitikosh yaratilgan paytda To'nyuquq hayot va ancha yoshga borib qolgan edi.

Bitiktoshning ibtidosi To'nyuquqning tarixi bilan boshlanadi: "Dono To'nyuquq – men o'zim Tabg'ach davlatida tarbiyalandim, turk xalqi Tabg'ach davlatiga bo'ysunar edi". To'nyuquq hikoya qilayotgan bu voqea Ikkinchi Turk xoqonligi barpo bo'lmasdan oldingi davrga aloqador. Bu paytda To'nyuquq Xitoy imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan, xitoycha tarbiyalangan edi.

To'nyuquq Birinchi Turk xoqonligining barbod bo'lishi va turkiy qavmlarning parokanda bo'lishi voqealarini bayon qiladi. Voqealar siqiq tarzda, oz so'z bilan butun davrning manzarasi yoki ma'lum bir voqealar sahnasi o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandiriladi. Masalan, To'nyuquq Kultigin va Bilga xoqon bitikoshlarida Turk xoqonligining Xitoyga qaram bo'lib qolishi va Birinchi Turk xoqonligining tugashi haqida hikoya qilgan ekan, dard-alam bilan: "Tangri shunday degan shekilli: Xon berdim. Xoningni qo'yib taslim bo'lding. Tabg'achga taslim bo'lgani uchun Tangri, o'l, degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk xalqi yerida bironta ham urug' qolmadi" (To'n., 2-4). Turk xoqonligining fojiasi – To'nyuquqning shaxsiy fojiasiday taassurot qoldiradi. Xalqning taqdirini o'zining taqdiri deb, xalqning muvaffaqiyatlarini o'zining muvaffaqiyatlari deb bilgan To'nyuquq doimo harakatda, doim xalqning, yurtning tashvishida. Dushmanlar xoqonlikka hujum qilishni rejalashtirayotganini To'nyuquq eshitib, Eltarish bilan birga jangga otlanar ekan: "Shunday turar yashaguvchi erk ahli"deya o'ziga hurlikni shior qilib olganini e'lon qiladi. To'nyuquq xoqonning lashkarboshisi va maslahatchisi sifatida mamlakatning mustaqilligini saqlash uchun jonbozlik ko'rsatib kurashadi. Xoqonlikning fojiasini yuqoridagiday ta'sirchan qilib tasvirlash faqat To'nyuquq bitiktoshiga xos bo'lib, bu tasvirdan maqsad xalqni ogohlantirish, doimo hushyorlikka chorlash edi.

Bitiktoshning boshlanishidanoq To'nyuquq ko'pni ko'rgan, tajribali, haqiqiy maslahatchiga xos aqlli ekani ko'zga tashlanadi. U ayni paytda iste'dodli lashkarboshi hamdir. Ikkinchi Turk xoqonligini qayadan barpo qilishda To'nyuquq Eltarish bilan birga o'zining ishtirokini hikoya qilganda, voqealar bayonida bir usulni qo'llaydi – xoqonlik boshidan o'tkazayotgan voqealarni dushman tomonning tilidan hikoya qiladi: "O'shanda o'g'uzdan kuzatuvchi keldi. Kuzatuvchining gaplari shunday: to'quz o'g'uz xalqi ustiga bir xoqon hukmron bo'ldi, deydi.

Tabg'achga Kuni sangunni yuboribdi, Xitoyga To'ngra Semni yuboribdi. Ularga shunday gap yuboribdi: ozgina turk xalqi yurgan emish. Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan. O'sha ikki kishi bor bo'lsa, seni – tabg'achni o'ldirajak deyman” (To'n., 8-10). Bu voqealar Eltarish xoqonning Ikkinchi turk xoqonligini barpo qilish uchun kurash olib borayotgan davr voqealarini o'zida aks ettiradi. Dushman tomonning Eltarish xoqon va uning maslahatchisi To'nyuquqqa bergan bahosi har ikkalasiga berilgan real baho edi. Bu usul shuni ko'rsatadiki, To'nyuquq yuz berayotgan voqea-hodisalarning aniqligini dallilaydi, dushman tomonni yaxshi, sinchiklab kuzatganiga ishora qiladi.

To'nyuquq bitiktoshidagi yoki boshqa bitikoshlardagi voqealar ularga badiiy asar sifatida yondashishni talab qiladimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Buning uchun badiiy asarning muhim elementlaridan syujet va motivning To'nyuquq bitiktoshida kelib chiqishini tahlil qilamiz.

Syujetning uch elementi – *voqea, vaziyat va kolliziyaning mavjudligi* To'nyuquq bitiktoshini badiiy asar sifatida o'rganishga imkon beradi. *Voqea* – Turk xoqonligini markazlashgan davlatga aylantirish uchun olib borilgan sa'y-harakatlar, *vaziyat* – xoqonlik ichidagi va xoqonlikning tashqarisidagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar, *kolliziya* – xoqonlikning dushman qabilalar va sulolalar bilan to'qnashuvi, Turk xoqonligining Tan sulolasi va boshqa qabilalar bilan olib borgan jangu jadallaridir. To'nyuquq o'sha voqealarning markazida turadi, barcha voqealar, vaziyat To'nyuquqqa bog'liq ravishda yuz beradi. Kolliziya esa to'quz o'g'uz xalqi bilan o'g'uz, tabg'ach, xitoy xalqlari o'rtasidagi dushmanlashuv va kurashdir. Syujetning har uchala elementi To'nyuquq bitiktoshida ham, boshqa bitikoshlarda ham takrorlanadi. Zotan, bitikoshlarning asosiy mavzui ham vatanni himoya qilish, jang lavhalari, qahramonlarni sharaflashdan iborat.

Albatta, To'nyuquq bitiktoshining badiiy asarga xos yana bir xususiyati – xalq maqollari va matallarining keltirilganidir. To'nyuquq biron voqea yoki vaziyatni baholaydi, unga munosabatini bildiradi. Masalan, Turk xoqonligi tang vaziyatda qolganda, To'nyuquq Eltarish xoqonga shunday maslahat beradi: “Tabg'ach, o'g'uz, Xitoy – bu uchovi qamal qilsa, qamalda qolajakmiz. Unda vujudning ichi-toshini – molu jonini topshirganday bo'lamiz. Yupqa yig'in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig'in uzishga oson emish. Yupqa qalin bo'lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish. Ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish” (To'n.,

12-13). Vaziyatni baholashda To'nyuquq mazkur hikmatlardan umumli foydalanish orqali bevosita Turk xoqonligining imkoniyatini ko'rsatadi va bu imkoniyatdan o'z vaqtida foydalanishga xoqonni da'vat qiladi.

To'nyuquq - mashhur lashkarboshi bo'lish bilan birga, xoqonlikning mavqeini mustahkamlashda fidoyi inson ekanligini ham ko'rsatadi. To'nyuquq - xoqonning ishonchli lashkarboshisi, u mohirligi tufayli oz sonli lashkari bilan Xitoy, o'g'uz va tabg'achning ko'p sonli lashkarini mag'lub qiladi. Xonini tashlab, Xitoyga qo'shilib ketgan o'g'uzlar yana xoqonlikka qaytib keldilar.

To'nyuquq bitiktoshi, birinchi navbatda, To'nyuquqning ijodi bo'lib, uning bir asarm sifatida uqilishi lozim. Bitiktoshning maqsadi To'nyuquq olib borgan janglarni yoki uning xoqonlikdagi xizmatlarini xronologik tarzda bayon qilishdan iborat emas, balki uning hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni bayon qilishdan iborat edi. To'nyuquq vaziyatni nihoyatda to'g'ri fahmlaydigan, zukko, dushman tomonning rejalaridan yaxshi xabardor, tajribali ko'rug (razvedkachi). U xoqonlik hayotidagi mayda tafsilotlarga berilmaydi. Jumladan, yuqoridagi uch xalqning mag'lubiyati haqidagi voqealardan keyin To'nyuquq Turk xoqonligiga yana dushmanlashgan tabg'ach, o'n o'q, qirg'iz xoqonliklari haqida so'z yuritib, ularning rejalaridan o'quvchini xabardor qiladi:

“Tabg'ach xoqoni dushmanimiz edi, o'n o'q xoqoni ham dushmanimiz edi. Undan boshqa qirg'izning qudratli xoqoni dushmanimiz bo'ldi. O'sha uch xoqon maslahatlashib, Oltin yish ustiga talon solaylik, deпти, shunday maslahat qilishibdi. Sharqqa – Turk xoqoniga lashkar tortaylik, deпти, unga qarshi lashkar tortmasa, qachon g'azablansa, u bizni yo'q qiladi, deпти. Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan, qachon g'azablansa, o'ldiradigan ko'rinadi. Uchovimiz yopirilib hujum qilaylik, uni yo'qotaylik, deпти. Turgash xoqoni shunday deпти: mening xalqim u yerda bo'ladi, turk xalqi yana hayajonda deпти, o'g'uz xalqi yana parokanda deпти. O'sha gapni eshitib, tunlari uyqum kelmas edi, kunduzlari o'tirgim kelmas edi. Shunday o'yladim: tabg'ach, o'n o'q, qirg'iz xoqoniga Ko'gman tog'idan oshib o'tib hujum qilamiz. Shuning uchun avval biz lashkar tortaylik, dedim” (To'n., 19-23).

To'nyuquqning fidoyiligi (tunlari uyqum kelmas edi, kunduzlari o'tirgim kelmas edi), dushmanga kutilmagan tomondan zarba berish

rejasi (Ko'gman tog'idan oshib o'tib hujum qilish haqidagi rejasi) real voqealar oqimining bir ko'rinishidir.

To'nyuquq bitikoshidagi ma'lum bir voqealar munosabati bilan detallar tafsilotiga alohida urg'u berish holatlari, tabiat manzarasi tasviri uchraydi. Muallif To'nyuquq voqealarning aniqligini xalqaa, qolaversa, avlodlarga yetkazish va tarixiylik tamoyilini saqlash uchun ham bunday tafsilotlarga ko'p o'rin bergan. Quyidagi parchaga e'tibor beraylik: "Ko'gman yo'li bitta ekan. Bu yo'l bilan yursa yaramaydi, dedim. yerchi (yer biladigan kishi – N.R.) surishtirdim. Cho'llik az qabilasidan bir yigitni topdim. Az yerini u yaxshi bilar ekan, bir manzili bor ekan. Ani daryosi bilan borilar ekan, o'sha yerda yotib, bir otlig' yo'l yurib boriladi, dedi. O'sha yo'l bilan yursa imkoni bor, deb o'yladim. Xoqonimga buni aytib, qo'shinni yo'lga soldim. "Otlantir!" deb buyruq berdim. Oq tarmal (hozirgi Xua Kem – N.R.) daryosini kechib o'tdik, dam oldik. Keyin qo'shinga otlanishga buyruq berdim. Qorni yorib, yuqoriga otni yetaklab, o'zimiz yayov yurib, daraxtlarga tayanib qo'shinni chiqardim..." (To'n., 23-25). Bundan keyingi voqealar lashkarni To'nyuquq qayerlardan qanday qilib olib o'tgani, yerchi (ya'ni yo'l boshlovchi) yanglishib, o'ldirilgani to'g'risidagi voqealarni hikoya qiladi.

Bitiktoshda To'nyuquqning harbiy mahoratiga ko'proq o'rin berilgan. Janglarda To'nyuquqning zafar qozonishiga sabab "tun uxlamay, kunduz o'tirmay" Eltarish xoqonga, Bo'gu xoqonga va Bilga xoqonga xizmat qilgani bo'ldi.

To'nyuquq bitikoshida diqqatga sazovor jihatlardan biri – qadimgi turk mifologiyasiga oid an'anaviy timsollardan istifoda etilganidir. Bular – *Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog'i, Tangri, Umay, muqaddas yer-suv* va h. Bu mifologik obrazlar boshqa bitikoshlardagi kabi ma'no va vazifasini bu yodgorlikda ham saqlagan.

To'nyuquq xoqonlik oldidagi o'zining xizmatlarini bayon qilar ekan, davlatning va xalqning erkin nafas olishiga, dushman ustidan zafarlarga erishuviga Eltarish xoqon bilan birga, o'zining xizmatlari muhim omil bo'lganini alohida ta'kidlaydi.

Bitiktosh yozilgan paytda To'nyuquq ancha keksayib qolgan ko'rinadi, zotan, bitikosh so'ngida To'nyuquq buni alohida ta'kidlaydi va Bilga xoqon hukmronligi davom etayotganini ham eslatadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, mazkur bitiktosh yozilgan paytda Turk xoqonligi ancha kuchaygan, atrofdagi dushmanlarni mag'lub qilgan edi. To'nyuquq, shuningdek, Eltarishning ikkala o'g'li Mo'g'uliyon (bo'lg'usi Bilga

xoqon) va Kul tigin Turgash xoqonligining Chabish chur boshchiligidagi qolgan-qutgan lashkarini ta'qib qilib, Sirdaryoning ortiga o'tdilar. To'nyuquq bu paytda g'arbiy Turk xoqonligiga yordam berish uchun kelgan edi. Bu paytga kelib Turgash xoqonligini Qapag'an mag'lub qilgan, bu xoqonlik alohida davlat sifatida tanazzulga yuz tutib bo'lgan edi. To'nyuquq bilan Eltarishning ikkala o'g'li Sharqiy Turk xoqonligi So'g'dda paydo bo'lib qoldilar va So'g'd shohi Gurak tomonida turib, arablarga qarshi jang qildilar. To'nyuquq bitikoshida bu voqea eslanadi: "Inal xoqonga arab va tuxor (arablarning ittifoqdoshi) hujum qildi. O'shanda ajraladigan choki bor dubulg'a kiygan so'g'doq xalqi hamma-si keldi" (To'n., 45). Bu voqea 712-713-yillardan keyin bo'lib o'tgan. Ammo Qutayba ibn Muslim tomonidan yengilganlaridan so'ng, 714-yili chekindilar va Oltoydagi isyon ko'targan qabilalarni bostirib, O'tukanga qaytib keldilar.<sup>27</sup> Bu voqealardan ayon bo'ladiki, To'nyuquq bitiktoshi, syrim olimlar ko'rsatganlariday, 712 yoki 716-yili emas, balki 725-yili yozilgan bo'lib chiqadi. Yuqoridagi tarixiy voqealarda To'nyuquqning ishtiroki shundan dalolat beradi.

Bitiktosh so'ngida To'nyuquq Ikkinchi Turk xoqonligi tashkil topgandan boshlab keyingi barcha xoqonlarning xizmatlarini ta'kidlab o'tadi. Bitikoshning so'nggi misrasi xuddi ertaklarning tugallanmasini eslatadi – go'yo podshoh mamlakatni obod qildi yoki yovuz dushman dav bo'ldi, qahramonning o'zi "murod-maqsadi"ga yetdi: "Men bilga To'nyuquq va Eltarish xoqon muvaffaqiyat qozonmasa edi, u bo'lmasa edi, men o'zim dono To'nyuquq muvaffaqiyat qozonmasam edi, men bo'lmasam edi, Qapag'an xoqon boshliq turk sir xalqi yerida urug' ham, xalq ham, kishi ham, turk xalqi yeriga xo'jayin ham bo'lmas edi" (To'n., 59-61).

Umuman, To'nyuquq bitiktoshi qadimgi turkiy adabiyotda alohida, o'ziga xos memuar janri namunasidir.

**Kuli chur bitikoshi.** Bu yodgorlikni 1912-yili Mo'g'ulistonning Ixe-Xushotu degan manzilidan V.L.Kotvich topgan. U mazkur yodgorlikning tarixiy ahamiyatini batafsil bayon qilgan. Kuli chur Beshbaliq shahrida to'rtta jangda kurash olib bordi. Bilga xoqon yodgorligida ham Kuli chur tardush beklarini boshlab Bilga xoqonga 716-yili taslim bo'lib keldi (o'n uchinchi satrda).

<sup>27</sup> Кляшторний С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи Древней Евразии. Санкт-Петербург, Филологический факультет Санкт-Петербургского университета, 103-6.

Kuli chur bitikoshni hajman katta emas: bitiktoshning g‘arb tomoni 12 satrdan, sharq tomoni 13 satrdan va janub tomoni to‘rt satrdan iborat. Bitiktosh ko‘p zararlangan, shu bois voqealarning mantiqiy izchilligi kuzatilmaydi.

Bitiktoshning boshidanoq To‘nyuquq ismi uchraydi. Kuli chur Eltarish xoqon davrida anchagina mashhur bo‘lgan ko‘rinadi. Bitiktoshning g‘arb tomoni uchinchi satrida “(Kuli chur) Eltarish xoqon davlatida kek-sayib, yaxshi mangulik ko‘rdi, ulug‘ Kuli chur sakson yil yashab vafot etdi” degan jumladan shu mazmun anglashiladi.

Kuli chur bitikoshining uzuq-yuluq saqlangan jumllaridan shu narsa ayon bo‘ladiki, u mohir jangchi va lashkarboshi bo‘lgan. U minib jangga kirgan ot, jang kiyimlariga alohida urg‘u berilgan. Janglarda qahramonlik ko‘rsatib, shuhrat taratgan, inson sifatida yaxshi do‘st, fazilat-larga boy inson bo‘lgan. U tardush xalqining hukmdori bo‘lgan. Qorluq xalqi bilan jang qilgan, xuddi Kul tigin minib kirgan otlar qanday tasvirlangan bo‘lsa, Kuli churning jangovar otlari ham shu tarzda tasvirlangan. Bitiktosh muallifi noma‘lum.

**Moyun chur bitiktoshi.** Bu bitikoshni 1909-yili G.I.Ramstedt topgan. Moyun chur - uyg‘ur xoni, 745 yili oxirgi Turk xoqonligi hukmdori O‘zmish teginni mag‘lub qildi. Bitiktosh shunisi bilan diqqatga sazovor-ki, uyg‘ur xoniga uyg‘ur-turk yozuvida emas, balki turkiy-run yozuvida-gi bitiktosh o‘rnatilgan.

Moyun chur bitiktoshi hajm jihatidan Kuli chur bitiktoshidan katta-roq bo‘lib, bitiktoshning shimol tomoni 12 satrdan, sharq tomoni ham 12 satrdan, janub tomoni 15 satrdan, garb tomoni 10 satrdan iborat. Bitiktosh ko‘p zararlangan.

Moyun chur bitikoshni, xuddi To‘nyuquq bitiktoshi kabi, Moyun chur tomonidan hikoya qilinadi. Bitiktosh Turk xoqonligining hududi, mavqei va qudratli davlat bo‘lganini hikoya qilish bilan boshlanadi. Qipchoq qavmining ellik yil hukmronlik qilgani haqida shu bitiktoshda ilk bor so‘z yuritiladi: “turk qipchoq (qavmi) ellik yil o‘tirdi turk xalqi ustidan, yigirma olti yoshimda (xoqon otamga shad unvonini) berdi” (4).

Moyun chur otasi Kul dono xoqon bilan birga turk xoqonligi qo‘shinini itoat ettirganini hikoya qiladi. Qo‘y yili (745-yili) O‘zmish tiginni asir olgani va uning xotinini o‘ziga olganini hikoya qilar ekan, uch qarluq xalqi baribir, Moyun churga itoat etmasdan, g‘arbiy turk xoqonligiga qo‘shilib ketgani haqida xabar beradi.

Moyun chur bitiktoshining qimmatini shundaki, unda Turk xoqonligi tugagandan keyingi turkiy qavmlarning uygʻur xoqonligiga qoʻshilishi, ayrim qabilalarning isyoni, 757-yilgacha boʻlgan turkiy qabilalar bilan Moyun chur lashkari oʻrtasidagi kurash voqealari bayon qilinadi. Bitiktosh koʻp zararlangani uchun izchillik yoʻqolgan.

**Yenisey yozma yodgorliklari.** yenisey bitiktoshlari miqdor jihatdan koʻp. Bu bitiktoshlarda voqealar qisqa boʻlsa ham, marhumning hayotiga oid muhim voqealar – kimligi, oila aʼzolari, jangda koʻrsatgan qahramonliklari loʻnda bayon qilinadi. Bu yodgorliklarda voqealarni epiklashtirish (mifologik obrazlarning olib kirilishi, folklarga xos uslubning asosiy oʻrin tutgani va b.) xususiyatlari bor. yenisey yodgorliklari yigʻi janri namunasidir.

Yenisey bitiktoshlarining hammasida voqealar marhum tilidan hikoya qilinadi. Bu yodgorliklar yigʻi janriga mansubdir. Voqealar birinchi shaxs tilidan hikoya qilinishiga sabab shuki, marhum jismonan oʻlgan boʻlsa ham, uning hayoti, huddi bu olamdagi singari, narigi dunyoda ham davom etadi degan animistik tasavvurlar mavjud edi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Turk xoqonligidagi siyosiy vaziyatda qaysi davlatlar jiddiy rol oʻynadi?
2. Xoqonlikning tashkil topishida qaysi tarixiy shaxslar asosiy rol oʻynadi?
3. Turk xoqonligi va Eron Sosoniylar sulolasi munosabatlari haqida soʻzlab bering.
4. Qadimgi turkiy yodgorliklarning paydo boʻlishiga oid omillar haqida soʻzlang.
5. Kul tigin bitiktoshidan *boshlanma, mazmun taraqqiyoti va tugallanmaga* misol keltiring.
6. Kul tigin bitiktoshidagi mifologik syujet qaysi oʻrinda koʻrinadi?
7. Kul tigin bitiktoshidan eposlarga xos parchalardan misol ayting.
8. Kul tigin bitiktoshida qaysi tarixiy shaxsga bagʻishlangan yigʻi janriga oid parcha bor?
9. Nima uchun Toʻnyuquq bitiktoshini memuar janriga mansub deb qaraymiz?
10. yenisey yozma yodgorliklari qaysi janrga mansub?



## Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot

### Reja:

1. Moniylik oqimi haqida qisqacha ma'lumot.
2. Beruniy Moniy haqida.
3. Moniylik adabiyoti
4. "Xuastuanift" haqida.
5. "Xuastuanift"ning tuzilishi.
6. "Xuastuanift"ning g'oyaviy mazmuni.
7. Moniylik she'rlari.

**Kalit so'z va terminlar:** *moniylik oqimi, g'oya, tizim, ta'limot, sinkretik tizim, moniylik adabiyoti, madhiya, to'rtlik, yozuv, timsol.*

**Moniylik haqida qisqacha ma'lumot.** Moniylik oqimi qadimgi turkiy muhitdagi alohida, o'ziga xos bo'lgan ma'naviy va falsafiy jaryonning mahsulidir. Moniylik oqimining asoschisi – Moniy ibn Fatak'dir. Moniy yoshligida ko'p sayohat qildi: O'rta Osiyoda, Hindistonda uzoq vaqt yashab, bu o'lkalardagi mahalliy dinlar, jumladan, braxmanizm, buddaviylik va nasroniylik oqimlarini chuqur o'rgandi. Ayniqsa, O'rta Osiyo va Eron hududida mustahkam ildiz otgan zardushtiylik Moniyning e'tiborini ko'proq jalb qildi. Shu sababdan o'zi yaratishni maqsad qilib qo'ygan ta'limot uchun zardushtiylikka tayandi. Jumladan, zardushtiylikda ham, moniylikda ham olamning paydo bo'lishi va tuzilishi haqidagi ta'limot bir asosga tayanadi. Bu – Xurmuzdda mujassamlashgan Ezgulik va Nurga, Axriman (moniylikda Shmnu)da mujassamlashgan Zulmat va Yovuzlikdir.

Zardushtiylikda sinovdan o'tgan va insoniyat hayotining asosiy mazmuniga aylangan ikki qarama-qarshi ruhiy kuchlar o'rtasidagi kurash moniylik oqimida yanada ochiqroq namoyon bo'ldi. Moniy tarixda birinchi bo'lib, Markaziy Osiyoda o'zigacha yaratilgan boshqa diniy oqimlardan farqli o'laroq, hayotga yaqin g'oyalarni o'zida mujassamlantirgan, keng qamrovli diniy tizimni yaratishga harakat qildi. Moniyning ta'limoti uning "Barhayot Injil", Shopur ibn Ardashirga bag'ishlab yozgan "Shopuroqon" asarlarida o'z ta'limotini ilgari suradi.

**Beruniy Moniy haqida.** Beruniy Moniy va uning ta'limotini tahlil qilar ekan, Budosaf, Zardusht va Budda qatorida uni ham "payg'ambarlik

da'vo qilgan kishilar" qatoriga qo'shadi. Moniy majusiylar, xristianlar va "sanaviya" (ikkilanuvchilar) mazhablarini yaxshi o'rgangan. Zotan, "Shopuroqon" asarida Moniy shunday deydi: "Hikmat va yaxshi amallar doimo (xudoning) elchilari vaqti-vaqti bilan keltirib turganlarining o'zidir. Bir zamon u (hikmat va yaxshi amallar) Bud (Budda demoqchi – N.R.)isimli elchi orqali Hindiston mamlakatiga, bir zamon Zardusht orqali Eron zaminiga va bir zamon Iso orqali Mag'rib zaminiga yuborilgan. So'ngra bu oxirgi asrda men Moniyga – haqiqiy xudoning elchisiga – shu vahiy tushirilib va shu payg'ambar keltirilib, (men orqali) Bobil zaminiga yuborildi".<sup>28</sup> Moniy haqiqatan ham payg'ambarlik da'vo qilgan. Lekin shunisi ham borki, Budda ham, undan keyin o'tgan Moniy ham "hikmat va yaxshi amallar" haqida gapirmoqda. Bu hikmat va amallar nimani anglatadi? Chamasi, Moniy yuqoridagi uchta mazhab zaminida shakllantirgan o'zining hayotda bajarish mumkin bo'lgan amallari, aqidalari to'g'risida aytmoqda.

Moniy abjad harflari tartibida yigirma ikki harfni joriy qilgan va shu harflar tartibida o'zining Injilini yaratgan. Ana shu Injilida Moniy: "Iso Masih "Furoqlit" asarida men to'g'rimda xabar bergan", deb payg'ambarlar muhri ekanini dalolat qilgan.

Moniyning olam borligi va ko'rinishi haqidagi dalillari Beruniyning qoniqtirmadi va ularni xato deb hisobladi. Moniyning nur odamlariga, qadimgi insonlar va "hayot ruhi"ga ishonishga da'vat etganini Beruniy qoralaydi. Moniy zardushtiylik ta'limotidan olgan nur va zulmat kurashining abadiylikini u ishonchsiz deb qaradi. Moniyning ta'limotidagi muhim qirralarni Beruniy quyidagicha bayon qiladi: "Hayvon so'yishni va unga alam yetkazishni, olov, suv va o'simliklarga ziyon yetkazishni Leng ochiq so'z bilan – harom qildi. Siddiqlar, ya'ni Moniy mazhabidagi gilarining taqvodorlari va zohidlari o'zlariga farz qilgan qonunlar tuzdi. U (qonunlar) bechorachilikni ixtiyor etish, hirs va shahvatni qo'porib tashlash, tarki dunyo qilish va undan yuz o'girish, uzluksiz ro'za tutish, imkoni boricha sadaqa berish, bir kunlik ovqat va bir yillik kiyimdan boshqa qo'r-qutni o'ziga harom qilish, jinsiy aloqani tark etish, xalqni da'vat qilib yo'lga solish uchun doimo dunyoni kezishdan iboratdir" (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 242-b.*).

Moniy ishlab chiqqan va amalga tatbiq etgan yuqoridagi qonunlar Beruniyning befarq qoldirmagan. Bu qonunlarning ba'zilari – faqirlikni o'z

<sup>28</sup> Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I jild. T.: "Fan" nashriyoti, 1968, 241-b.

ixtiyori bilan qabul etish, tarki dunyo qilish, mol-mulkka ruju qo‘ymaslik va ortig‘ini muhtojlarga berish kabi aqidalar islomiy tasavvufda ham keng yoyilganidan Beruniy yaxshi xabardor. U “Mineralogiya” kitobida keltirgan muruvvat va futuvvat qoidalari bunga dalildir. Faqat “xalqni da’vat qilib yo‘lga solish uchun doimo dunyoni kezish” haqidagi Moniy o‘giti Iso Masihning havoriylariga bergan o‘gitidan olingani uchun Beruniy tashvishga solgan.

Beruniy Moniyning axloqsizligi haqidagi har xil mish-mishlar asossizligini ta’kidlaydi, uning “o‘zim voqif bo‘lgan kitoblarda bunday so‘zni uchratmadim, aksincha, uning tutgan yo‘li u haqda hikoya qilinnaning teskarisidan dalolat beradi”, deb xabar qiladi (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 242-b.*).

Moniy ta’limoti va u yaratgan aqidalar yuzaga chiqib, yoyilib bora-vergence, uning izdoshlari ko‘paydi. U o‘zining “Injil”ini, “Tiriklar xazinasini”, “Jabborlar haqida kitob”, “Sirlar kitobi” kabi asarlarini yaratdi. Bu asarlarida Iso Masihning ramzlarini ochib berganini aytdi.

Moniyning ta’limoti Ardasher, uning o‘g‘li Shopur, Shopurning o‘g‘li Xurmuzd hukmronligi davrlarida katta mavqe egalladi. Moniyning payg‘ambarlik da’volari rost yoki soxta ekanligi to‘g‘risida ham Beruniy Shopur hukmronligi davridagi ayrim xabarlarini keltiradi. Beruniyning ta’kidlashicha, islom mamlakatidan tashqarida sharq turklarining, Xitoy, Tibet aholisining aksari, hindlarning ba’zilar Moniy dini va mazhabidardilar. Bular Moniy to‘g‘risida ikki xil so‘zlaydilar: bir guruhi “Moniyda mo‘jiza bo‘lmagan”, deydilar va u to‘g‘rida yana “Iso Masih va uning suhbatdoshlari olamdan o‘tganda, u (yerdan) oyatlar ko‘tariladi”, deb xabar qilgan, deydilar. Boshqa bir guruh aytadiki, Moniyda payg‘ambarlik alomatlarini bo‘lgan, u mo‘jizalar ko‘rsatgan. U shoh Shopurni o‘zi bilan osmonga olib chiqqan, ikkovi osmon bilan yer orasida muallaq qolganlar. Shunda Shopur Moniyning bu mo‘jizasiga ishonib, unga imon keltirgan. Yana bu toifaning ta’kidlashicha, Moniy suhbatdoshlari orasidan ko‘tarilib, bir necha kun osmonda turar, keyin ular oldiga qaytib tushar ekan (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 243-b.*).

Beruniy Moniy tarafdorlarining mazkur xabarlarini sharhlamaydi, munosabat ham bildirmaydi, ulardan eshitganlarini bayon qiladi va hukm chiqarishni kitobxon hukmiga qoldiradi.

Moniy ta’limotining Beruniy tanqidiga uchrashiga birinchi sabab – dualistik qarash (Beruniy ta’biri bilan aytganda, sanaviya, ya’ni ikkila-

nuvchilar mazhabi)ga asoslanganidir; ikkinchi sabab – Moniy yaratgan ta’limot mustaqil bo’lmay, bir necha diniy oqimlar va mazhablarning, xususan, xristianlik, zardushtiylik va buddaviylikning qorishiq holatidan paydo bo’lganidir.

Moniyning hayoti ayanchli bo’ldi. Bahrom uni o’ldirtirib, terisini shildirdi va terisiga somon tiqdirib, Junjishopur shahrining darvozasiga osdirdi.

Moniy ibn Fatakning ta’limoti va hayoti yana darvesh Avgustin, avliyo Efrayim, avliyo yepifaniyoning asarlarida (IV asr), nasroniy-suryoniy yilnomalarida, qator arab va fors manbalarida ham bor. Uning ismi ma’nosi to’g’risida har xil talqinlar yuradi: “telba”, “odamxo’r”, “qimmatbaho tosh”. Moniy izdoshlari esa uning ismini suryoniycha “Moniy ttrik” so’zidan deb talqin qilgan edilar.

Moniy yaratgan ta’limot teosofik sinkretizm (narigi dunyo bilan bevosita muloqot qilish va xudoni bilish haqidagi qarashlarning yaxlitligi) tayanadi. Uning ta’limoti o’z davrida hayotga yaqin bo’ldi, shuning uchun ham ming yilcha yashadi va nafaqat O’rta Osiyo va Eronda, balki yevropadan Xitoygacha bo’lgan hududda yoyildi. VIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo’lgan uyg’ur-turk xoqonligida moniylik oqimi yaqin yuz yilcha rasmiy din sifatida faoliyat ko’rsatgan edi.

Moniy yaratgan sinkretik tizim shundan iboratki, atrofimizdagi olam ikki qarama-qarshi ruhiy kuch – ezgulik bilan yovuzlik, nur bilan zulmat shafqatsiz kurashadigan maydondir. Bu kurashning oqibati, shubhasiz, ijobiy natija bilan tugaydi.

Xo’rmuzd moniylik oqimida olamdagi jamiki mavjudotlarning yaratuvchisi, koinotdagi jismlarga shakl bergan bosh xudodir. Moniylikda ham, zardushtiylikdagi singari, inson tanasi emas, ruhi bosh o’ringa qo’yiladi.

**Moniylik adabiyoti.** Qadimgi turkiy adabiyot ko’p qatlamli, turli mazmundagi manbalarga tayanishi bilan diqqatga sazovordir. Qolaversa, turkiy xalqlar yashagan zamindagi keng ommaga to’liq ma’lum bo’lmagan, yetib bormagan shunday yozma manbalar borki, bu yozma manbalarning turkiy xalqlar adabiyoti tarixida tutgan o’rnini belgilamasdan turib, qadimgi turkiy xalqlarning ma’lum tarixiy bosqichdagi madaniy, ijtimoiy-siyosiy mavqeini to’g’ri belgilab bo’lmaydi. Milodning boshlaridagi davr mafkurasi, jamiyatdagi ma’naviy bo’shliq aynan shu asarlar orqali to’ldirildi. Jamiyatga komil insonni yetkazib berishday

mas'uliyatli vazifani moniylik oqimi va bu oqimdagi adabiyot bajardi. Shu boisdan moniylik oqimining va uning ta'sirida yozma adabiyotning paydo bo'lishi tasodif emas, balki zarurat bo'lgan edi. Moniylik oqimidagi adabiy yodgorlikning bizga yetib kelgan namunasi "Xuastuanift" (Moniylarning tavbanomasi) va bir qator moniylik she'rlaridir.

**"Xuastuanift" haqida.** "Xuastuanift"ning qadimgi turkiyda uchta nusxasi bor. London va Berlin nusxasi – moniy yozuvida, Sankt-Peterburg nusxasi – eski uyg'ur yozuvida bitilgan. To'lig'i – London nusxasi, noto'lig'i – Berlin nusxasidir. Asar yaratilgan davr to'g'risida V.V.Radlov fikr bildirib, milodiy V asr deb aytgan edi, S.ye.Malov esa VII asr deb qaraydi. Moniylik oqimining mavqei hamda til xususiyatlariga asoslanib xulosa chiqariladigan bo'lsa, V.V.Radlovning fikri haqiqatga yaqin bo'lib chiqadi. Sankt-Peterburglik L. Dmitrieva har uchala nusxa asosida 1963-yilda "Xuastuanift"ning yig'ma matnini yaratdi.

**"Xuastuanift"ning tuzilishi.** "Xuastuanift" Moniy jamoasi a'zolarining madhiyasi sifatida yangragan. Ayni paytda bu asar jamoat a'zolarining nizomi hamdir. Bu asarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, asar moniylik oqimini targ'ib qilishdangina iborat emas, balki bu oqimning kelib chiqishi, tub mohiyati, moniylik qonunlarini tahlil qilish va keng ommaga yetkazishdan iborat bo'lgan. Moniylik paydo bo'lmasdan oldin, moniy jamoasiga mansub bo'lgandan keyin gunohlarini anglagan insonning tavba-tazarrulari bu oqimning manzarasini to'liq namoyon qiladi. Asarning L.Dmitrieva tiklagan to'liq varianti o'n besh bo'limdan iborat.

Birinchi bo'lim – Xo'rmuzdning yovuzlik olamiga qarshi otlangani, nur bilan zulmatning qo'shiluvi yomon oqibatlariga olib kelgani va insoniyat Xudoni unutib, og'ir gunoh ichida qolganlari bayonidan iborat. "Kimdir birovni tiriltirsa. Xudoni tiriltirgan bo'ladi, kimdir birovni o'ldirsa, xudoni o'ldirgan bo'ladi" degan aqidani insoniyat bilmagani ana shu eng og'ir gunohlardan bittasidir. Mazkur bo'lim oxirida Raymast degan shoh barcha Moniy jamoasi a'zolari nomidan tavba qiladi. Bu bo'lim moniylik tarixini umumlashtirgan, shu bois qolgan bo'limlarning deboc-hasi deb aytish mumkin.

Ikkinchi bo'lim – Kun va Oy xudolarining faoliyati - nur sochish, ikkalasi ikkita Nur saroyi ichida o'tiradilar, boshqa xudolar ularning saroylari ichida, ammo odamlar Kun va Oy xudolarini ilgari tanimaganlari, ularga ishonmaganlari, ularga uyatli, yomon so'zlar aytganlari uchun

**tavba-tazarru** qiladilar, chinakam xudolar ekanini e'tirof etishga da'vat qilinadilar.

Uchinchi bo'lim – Xo'rmuzning yordamchi xudolari – yengil shabada xudosi, shamol xudosi, nur xudosi, suv xudosi, olov xudosi hamda bu xudolarning faoliyati, mazkur beshta xudoga tobe bo'lgan moddiy va ruhiy olam, bu beshta xudoni tanimaslik og'ir gunoh ekani to'g'risida so'z yuritiladi.

To'rtinchi bo'lim – Buddaning timsoli – burxonlarga, xabarchilar – ruhlarga, lashkarlar – Xo'rmuzdning beshta yordamchi xudolari to'g'risida so'z ketadi. Bu bo'limda turli diniy tizimdan kirib kelgan xudolar va ruhlarning moniylikda yaxlit holga keltirilgani ko'rinadi. Bu bobda tilga olingan yaxshi xulqli pok ruhoniylar, qaysi tiniy tizimdan kirib kelganidan qat'iy nazar, Xudoning elchilaridir. Ammo ular orqali Xudo muqaddas bitiklarni yuborganda, insoniyat qarshilik ko'rsatdi, muqaddas bitiklarni tan olmadi. Shu bois ular gunohkorlardir.

Beshinchi bo'lim – insoniyat ikki oyoqli odamlarga, to'rt oyoqli jonivorlarga, qanotli jonzotlarga, suvda suzuvchi jonivorlarga, yerda bag'ri bilan sudralib yuruvchi jonzotlarga qarshi gunoh qilgan: ularni haqoratlagan, urgan, qo'rqitgan, hurkitgan, azob bergan, o'ldirgan. Endi o'sha qilgan gunohlari uchun tavba qiladi.

Oltinchi bo'lim – inson doim gunoh bilan yurgan, fikrlari, so'zlari bilan gunoh qilgan, qasam ichgan, gunohkor odamlarga guvohlik bergan, begunohlarni ta'qib qilgan, insonlarga ruhan azob bergan, insonlarni, jonzotlarni urgan, o'ldirgan, aldagan, yo'ldan ozdirgan. Kun, Oy xudolariga ma'qul kelmagan ishlarni ko'p qilgan. O'n turli gunohdan xalos qilgin, deb Xo'rmuzdga iltijo qiladi.

Yettinchi bo'lim – soxta qonunlarga, shaytonu arvohlarga sajda qilib, ularni xudoyim deb gunoh qilgan. Xudoning qonunini va'z qilganlarga ishonmasdan, "Men xudoman, men ruhoniyman" deganlarning so'zlariga ishondilar. Iblis va arvohlarga jonivorlarni qurbonlik qildilar, ularga ta'zim etdilar. Soxta yozuvlarga amal qilib, sig'indilar. O'sha yovuz iblis va arvohlardan baxt so'radilar. Ana shu qilgan gunohlari uchun tavba qiladilar.

Sakkizinchi bo'lim – inson haqiqiy Xudoni, pok muqaddas yozuvni, ikki ildizni (ezgulik va yovuzlikni), uch zamonni inson bilmasdan oldin, shuuri to'rtta nurli tamg'ani qalbiga muhrlamagan edi. Bular: *sevgi* – Azrua Xudoning tamg'asi; *imon*, *ishonch* – Kun, Oy xudolarining tamg'asi;

*qo'rquv* – beshta xudoning tamg'asi; *donishmandlik* – burxanlarning tamg'asi. Ana shu tamg'alarni inson bilgandan keyin, yorug' ildizni, Xudoning yerini, qop-qorong'u ildizni, do'zax yerini bilib oldi, yeru osmonni kim yaratganini bildi.

To'qqizinchi bo'lim – moniyalar o'nta nazrni ado qilar edilar. Bu o'nta nazrdan uchasi – og'izniki, uchasi – yurakniki, uchasi – qo'lniki, bittasi – hamma jonzotniki. Ularni tana sevgisi yo'ldan ozdirgan bo'lib, chorvaga, mol-mulkka ruju qo'yib, o'zlarining g'am-tashvishlariga o'ralashib, o'nta nazrni ado eta olmagan edilar.

O'ninchi bo'lim – har kun Azrua xudoga, Kun va Oy xudolariga, burxonlarga aql bilan aytiladigan madhiya bor edi. Ammo insonlar bu xudolar oldidagi qo'rquvni unutib, hissiyotlarini, hamdu sanolarini xudolarga bag'ishlamadilar.

O'n birinchi bo'lim – beshta xudoga va pok, muqaddas yozuvlarga nazr berish qonuni bor edi. Ammo insonlar bu ruhiy mavjudotlarga emas, balki yomon xulqli insonga, yirtqich jonzotlarga, moddiy narsalarga nazr berdilar, nazrlarni isrof qildilar. Osmon nurlarini – Quyosh va Oy nurlarini insonlarga emas, zaminga uloqtirib gunoh qildilar.

O'n ikkinchi bo'lim – moniylik qonun-qoidalari bo'yicha bir yilda ellik kun ro'za tutish lozim. Bu Xudo yo'lida tutiladigan ro'za bo'lib, muqaddas va Xudo yo'lida xizmat qilishning bir ko'rinishi edi. Ammo insonlar, avval uy-ro'zg'orimizni ta'minlaylik, deb chorva, mol-mulk yig'aylik, deb ro'zani unutib qo'ydilar va gunoh qildilar, o'zlariga maf-tun bo'ldilar, oqibatda ro'zani buzdilar yoki qonunda ko'rsatilganiday ro'za tuta olmasdan katta gunoh qildilar.

O'n uchinchi bo'lim – insonning gunohlariyu ayblari uchun Kun tangrisi har kun xudolardan, muqaddas yozuvlardan, pok ruhoniylardan afv so'rar edi. Ammo erinchoq inson mehnatga, tashvishga o'ralashib, gunohdan forig' bo'lishga intilmadi.

O'n to'rtinchi bo'lim – yiliga yetti marta qurbonlik marosimi o'tkazilsin, bir oy davomida nazrlar qilinsin, degan qonun bor edi. Bundan tashqari, qurbonlik marosimi paytida ibodatxonada o'tirib, ro'za tutib, Xudoning elchilariga ishonib, ulardan gunohlari uchun so'rashlari kerak edi. Ammo insonlar bularni ado etmaganlari uchun gunohga botdilar.

O'n beshinchi bo'lim – inson hamma gunohlari uchun tavba qiladi. Ularning gunohlari avvalgi boblarda aytilgan gunohlarini – iblisning

so'ziga kirib, beshta xudo nurini sarson qilganlari, ularning nuriga itoat etmaganlari, besh turli tanani, besh turli maysani, daraxtni tashvishga qo'yganlari, moniylik qonunlariga itoat etmay, nazrlarni ado etmaganlari yoki juda ham kamaytirib tashlaganlarini, qonun voizi bo'lgan ruhoniylarga, muqaddas yozuvlarga ishonmasdan, ko'p gunoh qilganlarini yana bir marta takrorlashdan iboratdir.

**“Xuastuanift”ning g'oyaviy mazmuni.** “Xuastuanift”da Xo'rmuzd olamning ibtidosidir. U ezgulik uchun kurashga boshchilik qiladi. “Xo'rmuzd Xudo beshta xudo bilan birga hamma xudolarning pokligi uchun iblislarga qarshi kurashga o'tlanib, osmondan tushdi”. Asarni Xo'rmuzdning faoliyati bilan boshlashdan maqsad – olamning ibtidosi azalda ezgulikdan iborat edi, olam ezgulik uchun yaratilgan edi, jonzotlar ruhiyatida ezgulik va oliyjanoblik hukmron edi, degan o'gitni bosh o'ringa qo'yishdir.

Shmnu – “Xuastunift”da yovuzlik timsoli, bu xususiyati bilan “Avesto”dagi Axrimanni eslatadi. “Xuastuanift”da olamning ibtidosi tasvirida Xo'rmuzd va Shmnu bir-biriga qarama-qarshi kuch ekani ta'kidlanadi. Shmnu paydo bo'lgach, nur bilan zulmat qo'shib ketdi va ularni ajratib bo'lmay qolgandan keyin, Shmnu va yana beshta iblis bilan jang qilish uchun Xurmuzd osmondan tushdi. Ammo Shmnu o'z ishini qildi – insoniyatning ongini, niyatini iblisning qilmishi tomon burib, ularni ruhsiz qilib qo'ydi. Ruhsizlik – Xudodan uzoqlashishga, faqat tana sevgisi bilan yashashga olib keladi, degan xulosa “Xuastuanift”da bosh o'rin tutadi.

Moniylik qonunlarida ruhiy olam bosh o'ringa qo'yilgani bejjiz emas. Moddiy olam esa yovuzlik va zulmatni uyg'unlashtiradi. “Xuastuanift”ning maqsadi ham bitta – odamzodning ruhiyatidagi nurni, ya'ni ezgulikni moddiy olamdagi zulmatdan qutqarish lozim. Moniy - bu yo'lda najotkor, uning qonunlari ham ezgulik yo'lini ko'rsatuvchi vositadir. Faqat tavba-tazarru va gunohlarni e'tirof etish insoniyatni to'g'ri yo'lga solishi mumkin. Shuning uchun ham “Xuastuanift”ning har bir bo'limi so'ngida Moniy jamoasi a'zolari ilgari qilgan gunohlari uchun tavba qilib, Xo'rmuzddan gunohlarini kechirishini so'raydilar.

Moddiy boyliklarga ruju qo'yish jamiyatda tabaqalanishni yuzaga keltirishi tabiiy edi. Yer yuzida moddiy boyliklarni cheklash va ularni tana lazzati uchun bag'ishlamasdan, Xudoga bag'ishlash, nazr qilish, ehtiyojdan ortig'ini istamasdan, muhtojlarga in'om qilishi kerak, degan



o'git Moniy jamoatining o'zak aqidalaridan edi. Bu aqida esa, masihiylik (xristianlik)dagi zaminiy boyliklarga berilmasdan, Osmon shohligidagi xazinaning payidan bo'lish kerakligi haqidagi o'gitga borib taqaladi (Mark 10-bob, 21-23-oyatlar; Luka 18-bob, 23-25-oyatlar). Ayni shu g'oya moniylik oqimining muhim jihatlaridandir: "Osmonga (olib) boradigan, (yovuzlikdan) xalos qiladigan beshta xudo nurini uyga, boshpanaga bog'lab qo'yib, yomon xulqli insonga, yirtqich jonzotlarga, moddiy narsalarga berdik, to'kib-sochib tashladik" (Xuastuanift 11-bo'lim). Masihiylikda kamol topgan bu umuminsoniy aqida Sharq mamlakatlariga keng tarqalgan edi. Bu aqidaning yorqin ko'rinishi yana Yangi Ahdda uchraydi.

Yangi Ahdning "Matto bayon etgan Xushxabar" kitobida Iso Masih havoriylariga shunday o'git beradi: "Hech kim ikki xo'jayinga xizmat qilolmaydi. U yo birini yomon ko'rib, boshqasini yaxshi ko'radi, yoki biriga bag'ishlanib, boshqasini mensimaydi. Sizlar ham Xudoga, ham boylikka birdek xizmat qila olmaysizlar" (Matto 6-bob, 24-oyat). Iso Masihning boylikka, tana lazzatiga ruju qo'yimaslik haqidagi o'gitlari Yangi Ahdning boshqa kitoblarida ham ko'p marta takrorlanadi.

"Xuastuanift"da ilgari surilgan aqidalardan yana biri – insoniyat aql-idrok bilan kimga nazr berishi lozim, ammo ularni yo'ldan ozdirgan boylik qanday oqibatlariga olib keldi – ana shular to'g'risida bo'lib, bu ham ilk bor masihiylik ta'limotida shakllangan edi.

Yangi g'oyalar hamma davrda osonlikcha qabul qilinavermagan. Ayniqsa, zodagonlar Moniyning boyliklarni teng taqsimlash haqidagi yuqoridagiday aqidalarini qabul qila olmaganlar, bu aqidalar ular uchun nihoyatda xavfli bo'lib tuyulgan. Moniy jamoasi a'zolarining quvg'inga uchrashiga, Moniyga nisbatan bo'htonlar yog'dirib, oxir qatl qilinishiga sabab shudir.

"Xuastuanift"dagi nur va zulmat o'rtasidagi kurash ruhiy va moddiy boyliklar o'rtasidagi kurashning timsolidir. Inson o'z ruhida mavjud bo'lgan nur zarralarini moddiy narsalar tashvishidan xalos qilish kerak.

Ruhan poklanish, ruhiy uyg'oqlik, tanaga lazzat bag'ishlaydigan ko'ngulxushliklardan o'zni tiyib, Xudoga xizmat qilish "Xuastuanift"da bosh o'rin tutgan aqidalardandir. "Xuastuanift" o'z davrining yozma adabiyoti sifatida bu g'oyalarni yoyish va targ'ib qilishda katta xizmat qildi.

**Moniylik she'rlari.** Moniylik oqimi bir qator she'rlarni ham yuzaga keltirdi. Bu she'rlarda Moniyning shaxsiyati va u yaratgan oqimning

aqidalari madh qilinadi. Moniy shaxsi esa deyarli hamma she'rlarda bor. Moniyga buyuk iloh sifatida hamdu sanolar aytiladi.

Moniylik she'rlarining sanasi aniq emas, lekin bir necha yuz yillar davomida bu she'rlar yaratilganini taxmin qilish mumkin. Turk xoqonligi davrida, bu xoqonlik tugab, uning o'rniga turkiy qavmlarning eng katta qabilalaridan uyg'urlar hokimiyat tepasiga kelgan davrda ham moniylik she'rlari yaratildi. Bu tarixiy jarayon VII-IX asrlar boshlariga to'g'ri keladi. Barcha moniylik she'rlarining g'oyasi va maqsadi bir-biriga yaqin bo'lgani uchun u yoki bu timsol she'rdan – she'rga ko'chaveradi. "Xudodan shafqat tilash" yoki "narigi dunyoda huzur-halovatga erishish"ning tashvishigina emas, balki moniylik oqimini barcha ta'sirchan vositalar orqali targ'ib va tashviqi qilish muhim rol o'ynadi.

Insonni gunohlardan qaytarish, to'g'ri yo'lga solish uchun do'zax azoblari bilan qo'rqitish bur turkumdagi she'rlarning asosiy mavzuidir. Moniy jamoasi a'zolarining tasavvuri bo'yicha, olamning tuzilishi uch javatdan iborat. Moniylikdagi bu tasavvur shomonlik oqimidagi olamning tuzilishi to'g'risidagi tasavvurlarga o'xshaydi. "O'lim tasviri" va "Do'zax tasviri" nomli she'rlar bu jihatdan diqqatga sazovor.

"O'lim tasviri" she'rini pandnoma janriga mansub deb qarash mumkin. She'rning asosiy mavzui – to'rtta dono tangrini inkor etish qanday omon oqibatlariga olib kelgani to'g'risida bo'lib, voqealar bayoni orqali bergit beriladi. She'rda aytilishicha, chinakam inson tangrilarning kalomiga itoat etmog'i lozim. To'rtta dono tangriga itoat etsalar, to'rtta azobdan utuladilar. Darvoqe, to'rtta dono tangri kimlar? Ular yer, suv, quyosh va olov xudolaridir. To'rtta og'ir azob ham o'sha xudolarga qarshi qilingan gunohlardan keladigan azoblardir. Bu o'rinda to'rtta azob tushunchasi quyidagilar bo'lib, jismoniy azobga emas, ruhiy azobga ishora qiladi: *to'rtta dono tangrini inkor etish, Tangrining kalomini qadrlamaslik, Almat shaytonlariga topinish, juda ko'p gunoh qilish.*

O'lim haq, deb e'tirof etiladi she'rda. Shu boisdan narigi dunyoda keladigan azoblarni unutmazlik lozim. Agarda inson tangrilarning kalomiga itoat etmasa, unday insonning joyi do'zaxdir, degan qat'iy hukm mazkur she'rning mohiyatini tashkil etadi. She'r quruq pand-nasihatdan iborat emas, balki do'zaxda insonning shaytonlardan ko'radigan azoblari cheksizligidan afsus-nadomatlar ham bor. Shuning uchun she'rda do'zaxda yuz beradigan fojialarning manzarasi beriladi:

Oxiri insonning o‘lmog‘i ham bor,  
Qorong‘u do‘zaxga tushmog‘i ham bor.  
O‘n minglarcha shayton keladi, derlar,  
O‘n minglarcha shayton ish ko‘rar, derlar.

Shaytonning tavsifi va tasviriga bu she‘rda alohida urg‘u beriladi. Ana shu tavsifning o‘zi ham she‘rning originalligini ta‘minlaydi. Shayton odamzod singari emas, balki odamzodga teskari yaratilgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi yovuz kuchlarning tavsifiga oid mubolag‘aviy detallar, xalqning tasavvur-tushunchalari shaytonning tavsifi uchun asos bo‘lgan, deb qarash mumkin. Qari shaytonning butun tanasi yung bilan qoplangan, qoshlari xuddi do‘l yog‘ayotgan paytdagi bulutga, ko‘zlari qonga to‘la tuvakka o‘xshaydi. Ko‘kraklari qoziqqa o‘xshagan beo‘xshov. Buridan qora bulut osmonga o‘rlab turadi, bo‘g‘zidan qop-qora tuman yuk-saladi, bag‘ri ilon bilan to‘la, barmoqlari ham katta.

Shaytonning bunday qiyofasi xalq tasavvuridagi timsollarga asoslangan. Odatda, aksariyat o‘zbek xalq ertak va dostonlarida yalmog‘iz timsoli moniylik she‘rlaridagi shaytonning tavsifiga hamohangdir. Yalmog‘iz bilan shaytonga insonlarning bir xil munosabati shunday hamohanglikka sabab bo‘lgan. Maqsad – do‘zax azoblari bilan qo‘rqitishgina emas, balki moniylik oqimining mohiyatini, uning afzalligini ko‘rsatish, gunohlardan qaytarish, faqat ezgu ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishga undash edi. Shuning uchun ham bu she‘rda “dono inson”ga – Moniyga alohida urg‘u beriladi. Darvoqe, donolik – insonning o‘ta bilimdon bo‘lishidan iborat emas, balki Moniy ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlarni butun vujudiga singdirish, Azrua (Zervan)ni tanib-bilishdan iborat. Azoblardan qutulishning shartlariyu yo‘llari ham aslida shudir.

She‘rda *Tardich* timsoli bor (*Tardichday vujudin tark etar derlar, molu mulk orqada qoladi derlar*). *Tardich* inson tanasidagi ruhdur. Ruh tanani tark etsa, tana jonsizdir. U asl mohiyatini yo‘qotadi. Xuddi shuningdek, mol-mulk aslida dunyoparastlar uchun ruh, ya‘ni jondir. She‘rda shu ikki narsa tenglashtirilmog‘da. Dunyoparastlik va moniylik aslo kelisha olmasligini, ikkalasi ikki qutb ekanini “Xuastuanift” ham tasdiqlaydi. Umuman, moniylikdagi bu g‘oya umumbashariydir. Yassaviyning

Qamug' dunyo yig'ganlarni valloh ko'rdum,  
O'lur vaqtda kularsan deb holin ko'rdum,  
Shayton aydi: imoningg'a changal urdum,  
Jon chiqarda yig'lay, yig'lay ketar, do'stlar

kabi to'rtliklariga hamohang. Moniy jamoasi a'zolarining tutgan yo'li, e'tiqodi mutassaviflarni eslatadi.

Moddiy olamdagi hayot, umr inson taqdirida qanchalik muhim rol o'ynasa, ruhiy olamda ezgulikning qiymati va mavqei muhimdir. Bir bo'z bilan aytganda, she'rda inson ruhiyatiga alohida diqqat qaratiladi.

Ruhiyat – insonni ezgulikka yetaklovchi omil, u insonni shaytoniy hissiyotlardan xalos qiladi, Tangri kalomiga itoat etishga, undan yuz bergimaslikka da'vat qiladi. Ruhiyatning da'vatkor kuchi uni tashviq kurg'ib yoki turli ifodalar orqali tasvirlash orqali emas, balki aksincha jo'l orqali – shaytonning qiyofasi, ya'ni bunga moddiy olamga xos yo'ruzliliklarni ko'rsatish orqali erishiladi.

“Do'zax tasviri” she'rining boshlanishi va oxiri nuqsonli, ayni paytda mazmunan “O'lim tasviri” she'riga o'xshaydi, ikkala she'r bir-birini to'ldiradi. Insonning qilmishlari qanday oqibatlariga olib kelishi, inson yorug' olamdagi gunohlari evaziga narigi dunyoda oladigan jazosi to'g'risidadir. Bir qarashda bu she'r, “O'lim tasviri” she'ri kabi, voiz-arning nutqidan iborat bo'lgan she'rday taassurot qoldiradi. She'ring diqqatga sazovor tomoni shundaki, unda gunohkor inson faqat do'zax zoblari bilan qo'rqitilmaydi, balki do'zaxning manzarasi o'quvchi bo'z o'ngida chizib beriladi. She'r zaminida qadimiy insonning olam to'g'risidagi tasavvurlari yotadi, u narigi olamni qanday idrok qilganini anglab olishimiz mumkin.

Insonning qilgan gunohlari to'g'risida so'z yuritilar ekan, do'zaxda hamma ishlar sarhisob qilinadi, deyiladi she'rda. Insonning hamma gunohlari do'zaxda ochiq-oydin namoyon bo'ladi: oddiy haqiqatning manzarasi yana bir karra uqtiriladi:

Inson qilmishlari aytilar, derlar,  
O'zi qilgan ishlar ko'rilar, derlar,  
Yer-suv quti qochadi, derlar,  
O't-suv quti zorlanar, derlar.

Gunohkorlar qilmishlari uchun oladigan jazo butun tafsiloti bilan beriladi. Shaytonlarning gunohkorlarni jazolash manzarasi she'rdan mantiqan izchil tasvirlanadi. Gunohkorlarni shaytonlar qamchilab jazolaydilar, o'ldirmoqchi bo'ladilaru lekin "o'limni topa olmaydilar". "O'limni topa olmaslik" aqidasi "Oltun yorug'" asaridagi Ku tay afsonasida bor.

Moniylik she'rlari orasida madhiyalar alohida o'rin tutadi. Madhiyalarning tarjimai hamda asl namunalari bizgacha yetib kelgan. Madhiyalar she'riyatning ham shaklan, ham mazmunan olg'a siljiganini dalilaydi. Qadimgi turk davridan bizgacha bir necha madhiya yetib kelgan.

Tong tangrisiga bag'ishlangan madhiya alohida o'rin tutadi. Madhiyaning tuzilishidan shu narsa anglashiladiki, u maxsus kuy uchun yaratilgan. She'ning birinchi bandi naqorotdir.

Kun va Oy tangrilariga murojaat va madhiyaning asosiy mazmuni bu tangrilarni madh qilishdan iborat. She'ning dastlabki bandi tong tangrisining timsolini gavdalantiradi. Tong tangrisi timsoli mifologik mazmun kasb etib, xuddi jonli mavjudotlar xususiyatlariga ega. Tong tangrisini jonli mavjudot sifatida tasavvur qilganlarining o'zi ongli munosabatning mahsulidir. Mifologik fikrlashning eng qadimiy bosqichida xudo va tabiat uyg'un holda tasavvur qilingan. She'ning dastlabki misralaridanoq shu xususiyat ko'zga tashlanadi:

Tong tangrisi keldi,  
Tong tangrisi o'zi keldi,  
Tong tangrisi keldi,  
Tong tangrisi o'zi keldi.

Kun va Oy tangrilari esa tong tangrisining bo'lagi, shu boisdan she'ning davomida Kun va Oy tangrilari tong tangrisining yordamchi xudolari sifatida kuylanadi. Umuman, dunyo xalqlarining aksariyatida Kun to'g'risidagi ko'hna tasavvurlar bir-biriga yaqin: yaratuvchi, qudrat, erkaklik urug'i, Bosh xudoning o'g'li.<sup>29</sup> Oy – farovonlik, ayollik urug'ining boshlanishi (ammo shumerlarda Oy erkaklik urug'iga mansub bo'lib, taqvim va inson taqdiri hukmdori deb tasavvur qilingan), donishmandlik ramzi sifatida tasavvur qilingan.<sup>30</sup> Tong tangrisini boshqa xalqlar qanday madh qilsalar, qadimgi turkiylar Kun va Oy tangrilarini ham shunday madh qiladilar:

<sup>29</sup> Qarang: Джек Трессидер. Словарь символов. Москва, 1999, 348-351-б.

<sup>30</sup> Джек Трессидер. Словарь символов..., 203-207-б.

Ko‘ringan Kun tangri,  
Siz bizlarni qo‘riqlang.  
Ko‘ringan Oy tangri,  
Siz bizlarni qutqaring.

Tong tangrisi Moniy jamoasi a‘zolari orasida, xuddi Xo‘rmuzd singari, bosh xudo, Kun va Oy tangrilari esa uning yordamchilari bo‘lib, najotkorlardir. Tong tangrisi Nur xudosi Xo‘rmuzdning ramzidir.

Odamlar, bizning shaxsiy hayotimiz, tabiat tong tangrisining irodasi orqali boshqariladi, deb tushunganlar. Bunday tasavvur qadimgi turkiy qavmlarda panteistik<sup>31</sup> fikrlashning izlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Tong tangrisini ham ruhan, ham jisman anglash, his qilish ayniqsa quyidagi parchada ochiqroq ayon bo‘ladi:

Tong tangrisi!  
Go‘zal hidli, mushk hidli  
Yaltiragan. Nur sochib turgan  
Tong tangrisi!  
Tong tangrisi!

Boshqa bir she‘rda Tangrining o‘zgacha sifati kuylanadi. Tangri – doimo nurga yo‘g‘rilgan, qudratli, eng donishmand mavjudotdir. Bu o‘rinda Tangri Xo‘rmuzd ekani yaqqolroq anglashiladi:

Yolvorarmiz Tangri – porloq, kuchli donoga,  
O‘tinarmiz Kun, Oy tangriga.

Tangrilarga e‘tiqod qilish – yuksak ma‘naviy olamning, axloqiy munosabatlarning natijasi edi. Agar bu she‘rda Kun va Oy tangrilari faqat fazoviy jismlardir va Moniy jamoasi a‘zolari fazoviy jismlarga e‘tiqod qilganlar, deb talqin qilinsa, bir yoqlama, tor tushunish bo‘lardir. To‘g‘ri, ilk e‘tiqodiy tasavvurlar shunday bo‘lgan edi. Bu she‘rda esa Kun va Oy timsolini ruhiy kuch-qudrat, “nur sochuvchi, yorug‘lik baxsh etuvchi xudo” deb e‘tiqod qilganlari she‘rning asl maqsadini yuzaga chiqar-

---

<sup>31</sup> Panteizm – xudoni tabiat bilan bir, tabiatni xudoning tajassumi deb qarovchi diniy-falsafiy ta‘limot.

radi. Jamiyatdagi muqaddaslik va qabihlik, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik o'rtasidagi kurashni anglab, inson o'ziga homiy axtardi. Natijada Kun va Oy timsolini topdi. She'ring davom shunday fikr yuritishga undaydi:

Qut baxsh eting, ey Tangrim,  
Vujudimizni asrang!  
Ruhimizni ozod qiling!  
Qut iltijo etarmiz nurli tangrilardan,  
Qo'rquvsiz turaylik,  
Sevinch-la yashaylik.

Tangrilar odamning tasavvurida ruhan ozod qiladigan kuchlardir. Ruhan ozod bo'lish – Moniy jamoasining tasavvurida muqaddaslik bilan tengdir. Ruhan ozodlik qo'rquvni yengadi.

Moniylik muhitida yaratilgan mazkur madhiyadan tashqari, Tangriga bag'ishlangan yana bir madhiya bor. Madhiyaning mazmunidan bu madhiya ham Xo'rmuzd tangri ekani anglashiladi. Bu madhiyaning muhim jihatlaridan biri shuki, madhiyaning muallifi qayd etilgan. Uning ismi – Aprinchur tigin. Aprinchur tigin to'g'risida biron manbada ma'lumot yo'q. Mahmud Koshg'ariy qadimgi turkiyda ijod qilgan shoir sifatida Chuchuning nomini qayd etgan edi, xolos. Aprinchur tigin qachon, qayerda yashagan – bunisi bizga noma'lum.

Aprinchur tigin qalamiga mansub madhiya to'rtliklar shaklida yozilgan va 12 misradan iborat. Har uchala banddagi birinchi va ikkinchi misralar takrorlanadi. Bu takror madhiyaning naqorotidir. Tangrini shaflash, uning sifatlarini ko'klarga ko'tarish madhiyaning asosiy maqsadi bo'lgan edi:

Bizim Tangrimizning xo'bligi javhardir, derlar,  
Bizim Tangrimizning xo'bligi javhardir, derlar,  
Javhardan-da ustun mening a'lo tangrim, alpim, pahlavonim,  
Javhardan-da ustun mening a'lo tangrim, alpim, pahlavonim.

She'rda parallelizm vositasida Tangrining boshqa yana bir sifati madh qilinadi:

Olmos uchi qayralgan-chun keskir derlar,  
Olmos uchi qayralgan-chun keskir derlar.  
Olmosdan ham keskir mening donishmandim, aslzodam, nurim,  
Olmosdan ham keskir mening donishmandim, bilimdonim, pahlavonim.

Parallelizmdan maqsad – tangrining qudratini har tomonlama ko‘rsatish va aniqroq, keng qamrovli qilib Moniy jamoasi a‘zolari, qo-laversa, keng omma o‘rtasida namoyon qilishdir. Tabiatning eng no-yob hodisalaridan olmos bilan Tangrining qudrati o‘rtasida tenglik bor. Qadimda buyumlarning nomi o‘z sifatlaridan ajralmaganini, nom va sifat yaxlit tasavvur qilinganini e‘tiborga olsak, olmos bilan tangrini uyg‘unlashtirish tasodif emasligini ko‘ramiz. Quyidagi misralarda ham Tangrining shu xususiyatlari madh qilinadi:

Olmosdan ham keskir mening bilimdonim, donishmandim, pahlavonim,  
Mening quyosh tangri nuri kabi faxrim, donishmandim,  
Mening Quyosh tangri nuri kabi faxrim aqligim.  
Go‘zal asl Tangrim shuhratim, najotkorim,  
Go‘zal asl Tangrim, burxonim, noyobim.

Aprinchur tiginning bundan boshqa yana bir she‘ri bor. Bu she‘r – dunyoviy ishq, hijron azoblari, yorning ta‘rif-tavsifi to‘g‘risida. She‘r yigirma bir misradan iborat bo‘lib, uchliklar shaklida yozilgan. Bunday she‘r shakli qadimgi turkiy adabiyotda noyob hodisa. She‘rning dastlabki uch misrasida o‘chib ketgan joylari bor. Oshiq sevikli yoriga dard-alamlarini so‘ylar ekan, yorini dunyoda tengsiz sevikli deb murojaat etadi. Lekin sevikli yor uzoqda, bu ahvoldan yorning dardu iztiroblari cheksiz. Shunday bo‘lsa-da, oshiq umidsizlanmaydi, yorning visoliga yetishmoqqa umid qiladi:

Uzoqdaligingni bilib hasrat chekaman,  
Hasrat chekkanimcha, qoshi go‘zalim,  
Qovushmoq istayman.

She‘rning davomida qahramonning o‘z istagiga zid o‘laroq harakati she‘rning ta‘sirchanligini kuchaytirgan, qahramonning jismoniy holati-



dan ko‘ra, ruhiy holati yorqinroq yuzaga chiqqan. Yorning oshiq nazaridagi eng go‘zal tasviri ham oshiqning istagi va o‘z istagiga qarshi zid harakatlarining natijasi sifatida yuzaga chiqadi:

Borayin desam, go‘zal sevgilim,  
Bora olmasman.  
Mehribon jonim.  
Kirayin desam, jajjiginam,  
Kira olmasman,  
Anbar mushkli kokilligim.

Oshiqning bu dardlari umidsizlik kayfiyatlari emas, balki har qanday oshiq boshidan o‘tkazadigan kechinmalardir. Oshiqning istaklari bajo bo‘lishi uchun omil yana Kun, Oy tangrilaridir. Oshiq tangrilaridan madad so‘raydi. Oshiq o‘z tilaklarini bajo qiladigan kuch tangrilar ekani-ga ishonadi. Garchi oshiq hali iztirobda, yor visoliga yetishmagan bo‘lsa ham, orzusining amalga oshuvi shubhasizdir:

Mayin fe‘lligim ila  
Qovushib, bir muddat ayrilmaylik.  
Qudratli malaklar quvvat bersin,  
Ko‘z qarashlari ila  
Kulishib o‘tiraylik.

Qadimgi turkiy she‘riyat, xususan, moniylik she‘riyati rang- barang ekani keltirilgan namunalardan ko‘rinib turibdi. Islomgacha yaratilgan she‘riyat mavzu jihatdan turlicha. Yuqoridagilardan tashqari, Moniy muhitida yozilgan “Buyuk iloh” nomli besh yuz misraga yaqin she‘r ham bor bo‘lib, Moniyga atalgan qasida deb atash mumkin. Bu qasidada buddaviylik terminlari ko‘p uchraydi. Moniylik va buddaviylik bir hudud-da bir paytning o‘zida amal qilgani va har ikkalasidagi ezgulik, solihlik to‘g‘risidagi aqidalar bir-birini to‘ldirib kelgani uchun ham bu qasida-ning mazmun va mohiyati ifodasida o‘ziga xoslik bor.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Moniylik oqimining mohiyati nimalarni o'z ichiga oladi?
2. Beruniyning Moniy shaxsi va ta'limoti haqidagi qarashlari haqida so'zlab bering.
3. Moniy yaratgan sinkretik tizim nima?
4. Moniylik oqimidagi adabiyotning o'zak masalalari haqida so'zlang.
5. "Xuastuanift" necha bo'limdan iborat? Dastlabki besh bo'limning mazmunini so'zlab bering.
6. "Xuastuanift"ning oltinchi-o'ninchi bo'limlari mazmunini so'zlab bering.
7. "Xuastuanift"ning o'n birinchi-o'n beshinchi bo'limlari mazmunini so'zlab bering.
8. "Xuastuanift"dagi ruhan poklanish aqidasi nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Moniylik she'rlarida ko'tarilgan masalalar nimalardan iborat?

## Buddaviylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot

### Reja:

1. Buddaviylik haqida qisqacha ma'lumot.
2. Buddaviylikda "to'rt oliy haqiqat".
3. Buddaning va'dalari va ularning hayotiy ahamiyati.
4. "Oltun yorug'"ning yaratilishi. Asarda falsafiy ta'limot.
5. "Oltun yorug'"ning yaratilishida turkiy qavmlarning ishtiroki.
6. Maxayana mazhabi haqida.
7. "Oltun yorug'"da no'm tushunchasi.
8. "Oltun yorug'"da zamon tushunchasi. Darma.
9. "Oltun yorug'"dagi afsonalar. Ku tau afsonasi.
10. "Shahzoda va bars" afsonasi.
11. "Udaqatati tabib va uning o'g'li" afsonasi.
12. "Oltun yorug'" o'g'itlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *maxayana, masihiylik, sanskritcha, moniylik, maxayana, masihiylik, Uchta Yo'l, darma, o'nta va'da, najot, "Xustuanift", ixtiyoriy faqirlik, "Oltun yorug'", chadik.*

**Buddaviylik haqida qisqacha ma'lumot.** Buddaviylik dunyodagi yirik, keng tarqalgan dinlar – islom va masihiylik (xristianlik)dan ham qadimiydir. "Budda" degan nom sanskritcha bo'lib, "ong tiniqlashuvi" ma'nosini bildiradi. Buddaning hayotini tasvirlaydigan hikoyalar "chadik" deb ataladi va mifologik mazmunga yo'g'rilgan bo'lib, "xudoning odami" timsolini gavdalantiradi.

Budda tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Tirik mavjudotlarni azob-uqubatlardan qutqarish Buddaning asosiy maqsadi bo'lgan.

Budda - haqiqat najotkori demakdir. Uning asl nomi – Siddxartxa. Siddxartxaning onasi – shakiylar hukmdori Mayyaning xotini bir kuni tushida yoniga oq filning kirib yotganini ko'rdi. Ma'lum vaqtdan so'ng u o'g'il tug'di. U boshqa ayollar singari tug'may, qo'ltig'idan tug'di. Ayolning ovozi koinotdagi hamma xudolar eshitdi. Borliqdagi uqubatlarining oldini oladigan Zot keldi, deb xursand bo'ldilar. Dono Asita chaqaloqning buyuk qahramonliklar ko'rsatishi haqida karomat qildi. Chaqaloqqa Siddxartxa deb ism qo'yidilar. Bu – "topshiriqni bajaruvchi" deganidir.

Siddxartxaning tug‘ilgan yili mil.ol. 642-448-yillar oralig‘ida deb taxmin qilinadi. Onasi Siddxartxani tuqqandan keyin bir necha kun o‘tgach vafot etdi. Onaga vafotidan oldin, siz g‘ayritabiiy narsani dunyoga keltirdingiz, deb xabar berishga ulgurdilar. Buddaning tug‘ilishi haqidagi rivoyatlarga ko‘ra, u nuqsonsiz homila bo‘lgan va homiladorlik davri ham nuqsonsiz bo‘lib o‘tdi, shu bois Buddani onasi dunyoga keltirgandan keyin ham, u bokira qizligicha qolgan. Buddaning tanasida olamning bo‘lg‘usi hukmdori alomatlari ko‘ringan.

Siddxartxaning otasi o‘g‘li diniy tarbiya olishini istamadi. Ota hayotning salbiy tomonlarini o‘g‘lidan yashirib, dabdabali hayotni muhayyo qildi. O‘g‘liga haqiqiy dunyoviy tarbiya berdi.

Siddxartxa o‘n olti yoshida ikkita malikaga uylanib, otasining saroyida betashvish hayot kechiraverdi. U saroydan uch marta tashqariga chiqib, uchta muqarrar yovuzlikni bilib oldi: bular – *keksalik*, *azob-uqubat* va *o‘lim* edi. To‘rtinchi marta saroydan tashqari chiqib, qashshoq rohibga duch keldi. Rohibning xotirjam va shod ekanini ko‘rib, zaminiy yovuzliklarga qarshi dori-darmonni topdi. Yarim tundan uyg‘onib, yonida yotgan malikalarning horg‘in tanasiga nazar tashladi va yana butun zaminning og‘ir yukini anglab yetdi. O‘sha zohoti Siddaxartxa saroyini tark etib, saroyidan butunlay chiqib ketdi va zohidona hayot kechira boshladi, ismini Gautama deb o‘zgartirdi. Ikki muallim rahbarligida falsafani va yog texnikasini o‘rgandi, beshta shogirdi bilan o‘z tanasini azoblashni mashq qildi. yetti yil davomida u azob-uqubat bilan ter to‘kib, kohin braxmanlarning muqaddas kitoblarini o‘qidi. Ammo maqsadga erishlo-may va bu singari riyozat chekishning behudaligini tushunib yetdi. Endi u guruch bilan oziqlana boshladi. Siddxartxaning zaiflashib borayotganidan xafa bo‘lgan shogirdlari uni tark etdilar. Shundan keyin Shakyamuni (Shakya shohligidan kelgan zohid) anjir daraxti ostiga o‘rmashib oldi va “Menda “ong tiniqlashuvi” yuz bermaguncha joyimdan qimirlamay-man”, deb qaror qildi. U O‘lim va Yovuzlik ilohi Maraning siquvlariga va tazyiqlariga bardosh berdi. Ertasiga tong payti Mara ustidan g‘alaba qilib, Buddaga aylandi va “to‘rt oliyjanob haqiqat”ni anglab yetdi. Shu tariqa u “to‘rt oliy haqiqat”ning sohibi bo‘ldi. Ilgari uni tark etib ketgan beshta shogirdiga Banoras shahrida ana shu haqiqatni va‘z qila boshladi.

**Buddaviylikda “to‘rt oliy haqiqat”.** Birinchi oliy haqiqat shundan iboratki, hamma narsa Azobdir: tug‘ilish – azob, o‘lim – azob, xastalik – azob, jamiki beqaror narsalar – azob. Ikkinchi haqiqat shuki, azob-

ning sababi shahvatdir. Uchinchisi – shahvatdan xalos bo‘lish azoblaridan xalos bo‘lishga olib boradi. To‘rtinchisi – haqiqat azoblardan xalos bo‘lishga olib boradigan sakkizta yo‘l yoki O‘rta Yo‘lni ko‘rsatadi. Bular – Fikrlash, Tafakkur, Kalom, Faoliyat, Hayot tarzi, Tirishqoqlik, Diqqat-E’tibor, Mushohada. To‘rtala haqiqat Buddaning insoniyatga yo‘llagan chinakam maktubini aks ettiradi.

Budda Banoras shahrida birinchi marta va‘z aytgandan keyin, yangi imonga yuz burgan jamoat braxmanlar, shohlar va zohidlar hisobiga to‘lib boraverdi. Ongi tiniqlashganning – Buddaning fikricha, ularning ko‘pchiligi ortiqcha edi, shuning uchun ibodatxonaga ayollar kirishiga ham ijozat berdi. Shu tariqa Buddaning jamoati mukammallashib boraverdi. E’tiqodi chinakam bo‘lmaganlarni nazarda tutib, Qonunning inqirozga yuz tutishi haqida bashorat qildi. Bu *darma* deyiladi.

Budda sakson yoshida vafot etgan. U o‘limi oldidan odamlarga shunday degan ekan: “Ey odamlar! Hamma yaratilgan narsalar buzilishga mahkum qilingan. Kuchingiz boricha o‘sha narsalarni qutqarishga intiling”. Buddaning bu o‘gitidan shu narsa anglashiladiki, buzilishga yoki aynishga mahkum bo‘lgan jonzotlar qayta tug‘ilganlaridan keyin, buzilish yoki aynish ularning avvalgi olamida qolib ketadi.

Buddaning yo‘li – “Men”ning hech narsaga aylanishi yo‘lidir, atrof olam hodisalarining hech narsaga aylanishidir. Budda qilgan va‘zlarida shunday degan ekan: “Olam abadiy va olam abadiy emas, olamning nihoyasi bor va olamning nihoyasi yo‘q, ruh va tana birdir, ruh va tana bir emasdir, arxat (valiy) o‘limdan keyin yashaydi va arxat o‘limdan keyin yashamaydi, u mavjud va mavjud emas...” Rohiblardan biri buni tushuntirib berishni Buddadan so‘raganda, u shunday javob olgan: “Bu quyidagi hodisaga o‘xshaydi: zaharlangan o‘qdan yarador bo‘lgan odamga do‘stlari va qarindosh-urug‘lari tabibni olib kelishga shoshilganda, yarador odam shunday deyayotganday bo‘ladi: “Meni kim yaraladi – *jangchimi, braxmanmi, dehqonmi* yoki *qarolmi*, uning ismi kim, qaysi urug‘dan...baland bo‘ylimi yoki o‘rta bo‘ylimi yo pakanami...uning sochlari qorami yoki sariqmi va h. – shularni bilmagunimcha, tanamdagi o‘qni chiqarib tashlashiga ijozat bermayman”. Tasdiq va inkor Budda falsafasining asosi bo‘lgan. Bu falsafaga ko‘ra, har bir hodisaning yoki narsalarning tub mohiyatini bilish asosiy shart edi.

Budda oddiy mantiq qonunlariga ko‘ra fikr yuritayotgan (agar A yolg‘on bo‘lsa, demak, A-emas haqiqiydir) rohibning parishon bo‘lganini

**ko'rib undan so'radi:** "Sen shu savolimga javob bera olasanmi: so'ngan olov sharqqa ketdimi, g'arbga ketdimi, janubga ketdimi, shimolga ketdimi?" Budda arxant (valiy)ni so'ngan olovga qiyoslashiga suhbatdosh rohib imkon berib, o'z johilligini tan oldi: arxantning mavjudligiga aloqador har bir tasdiqning noto'g'riligini isbotlash mumkin edi.

**Buddaning va'dalari va ularning hayotiy ahamiyati.** Budda jamiki olam jonzotlariga, xususan, insoniyatga o'nta va'dasini e'lon qilgan. Budda bu va'dalarini yomon qilmishlarga barham berish maqsadida qarshi ruhiy kuch sifatida yaratgan. Bu va'dalar quyidagilardir: 1. Jonli mavjudotlarga hech qanday zarar yetkazmaslikka va'da beraman. 2. Agar o'z xohishi bilan bermasa, hech kimdan hech narsa olmayman. 3. Er-xotin o'rtasidagi vafodorlikka rahna solmayman. 4. Yolg'on gapirishdan o'zimni tiyaman. 5. O'z ustimdan nazoratni yo'qotmaslik uchun mast qiluvchi ichimliklardan va giyohvandlikdan saqlanaman. 6. Mechkaylikdan voz kechaman va garchi mumkin bo'lsa ham ko'p taom yemayman. 7. Raqsga tushishdan, musiqa tinglashdan, qo'shiq aytishdan, sahnada o'zimni ko'rsatishdan voz kechaman. 8. Gulchambarlardan foydalanishdan, atir va turli taqinchoqlarni ishlatishdan voz kechaman. 9. Baland o'rindiqlarda o'tirishdan, qalin to'shakda yotishdan voz kechaman. 10. Oltin va kumushdan foydalanmayman.

Buddaviylik hamma davrda, sharoit taqozosiga ko'ra vazifa bajaragan. Bu buddaviylikning ma'lum bir hududdagi maqsad va vazifalari, shu joyning ijtimoiy hayotiga muayyan ta'siri bilan belgilanadi. Ayrim mamlakatlarda milliy-ozodlik harakatiga buddaviylik katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo qanday sharoitda va qayerda bo'lmasin, buddaviylik o'z mohiyatini – insoniyatga najot berish maqsadini saqlab qoldi. Zotan, Budda shunday degan edi: "Okeanning suvi bitta ta'mga – sho'r ta'mga ega bo'lganiday, mening ta'limotim ham bir yo'singa – qutqarishga mo'ljallangan. Odam bajarishi kerak bo'lgan eng muhim vazifa – atrof-muhitni itoatdan qutqarishga erishishdir, qo'rquvning yo'qolishi odamzodni ozod qiladi. U ozod bo'lgandagina o'z ozodligini biladi, qayta tirilishdan qutulganini tushunadi, muqaddaslikka to'la erishilgan bo'ladi, burch bajarilgan bo'ladi, odam bu dunyoga qaytib kelmaydi".

Faqat jasad tirilib qaytib kelmaydi, bordi-yu, tirilib qaytib keladigan bo'lsa, itoatdan qutula olmaydi. Buddaviylikning asosiy maqsadi faqat odamzodning ozod bo'lishiga yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat bo'lib qolmay, balki butun mavjudotni qutqarishga mo'ljallangan. Irodaga ega

bo‘lish va irodani birdan-bir maqsadga bo‘ysundirish buddaviylikning tub maqsadidir.

**“Oltun yorug‘”ning yaratilishi. Asarda falsafiy ta’limot.** Insoniyatni solihlikka yetaklashda dunyoning turli joylarida mushtarak yo‘llar mavjud bo‘lib, bu yo‘llar bir manzilga olib boradi. Manzil – inson, inson ko‘ngli. Hindistonda – buddaviylik, Eronda – moniylik, Yaqin Sharq mamlakatlarida – islom. Aqidalaru e’tiqodlar turlicha bo‘lsa–da, maqsad bir. Ana shu mushtarak yo‘llar bir manzilda – komillik manzilida tutas-hadilar. Bugun biz ko‘p gapirayotgan ma’naviyatning pirovard natijasi ham jamiyatga komil insonni tarbiyalab yetishtirishdan iborat bo‘lgan edi va shunday bo‘lib qoladi.

Komillikka erishgan jonzotlar orasida eng oliysi insondir. Komillik pandu nasihatlariga quloq tutishnigina emas, amaldagi xatti– harakatni, mushohadani talab etadi. Komillikning da’vatkor qudrati adabiyotdadir. Qadimdan shunday bo‘lib kelgan va bugungacha davom etib kelmoqda. Tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turkiyzibon xalqlarning islomiyatgacha bo‘lgan adabiyoti bu jihatdan namunadir. Gap V-IX asrlarda zaminimizda yaratilgan moniylik va buddaviylik oqimidagi adabiyot to‘g‘risida ketyapti. Bu davr turkiy tilli adabiyotida aniq maqsadga – komil insonlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan alohida da’vatu aqidalarni ko‘ramiz. Gap jamiyatning bunga muhtoj bo‘lib qolganida emas, balki sog‘lom jamiyat barpo qilish, ruhan sobit va uyg‘oq nasl yaratishga intilishda bu davrning alohida o‘ziga xosligidadir.

Islomgacha yaratilgan yozma obidalar orasida moniylik oqimidagi she’rlar, “Xuastuanift” (yoki “Moniylarning tavbanomasi”), buddaviylik oqimiga mansub “Maytri smit” dramasi, “Oltun yorug‘” (ya’ni oltin singari nur) sudurlari, moniylik she’rlari hamda ko‘plab buddaviylik va moniylik matnlari parchalari hamma davrda ham Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining ijodiy mahsuli bo‘lib keldi. Mazkur adabiy yodgorliklar orasida “Oltun yorug‘” sudurlari diqqatga sazovor bo‘lib, bir necha asrlar davomida Turonzaminda ma’naviy muhitning barqarorlashuvida katta xizmat qildi.

“Oltun yorug‘” sudurlardan tashkil topgan. Sudur sanskritcha so‘z bo‘lib, “rishta”, “qoida”, “qo‘llanma” ma’nolarini bildiradi. Sudur hind adabiyotining, jumladan, falsafiy adabiyotning alohida janri bo‘lib, biron ta’limotning asoslari bayon qilinadi. “Oltun yorug‘”da ma’lum yaxlitlik-

ni hosil qilgan bir qancha sudur jamlanib, xuddi ipga tizilganday tasavvur qoldiradi, ya'ni sudur janrining talablari bu asarda mujassamlashgan.

Sudur janri afsonalarni, turli muloqot shakllarini, qoidalarni, o'g'itlarni, pand-nasihatlarni o'z ichiga oladi.

Asar buddaviylikka mansub bo'lib, xalqning shuuriy izlanishlari, e'tiqod butunligi orqali paydo bo'ldi. Asar turkiy tilli xalqlar orasida e'tiborga molik asar bo'lgani uchun ham X–XV111 asrlar davomida o'n marta ko'chirilgan va sharqdagi ko'p tillarga tarjima qilingan. "Oltin yorug'"ning Radlov–Malov nusxasi 10 kitobdan (tägzinç) iborat. Asarni 1910-yili rus olimi S.ye. Malov Xitoyning Gansu viloyatiga qarashli Vinshgu qishlog'idagi buddaviylar ibodatxonasidan topgan. Asar qo'lyozmasi 710 sahifadan iborat bo'lib, 1687-yili ko'chirilgan. Hozirda bu nusxa Sankt–Peterburgning Osiyo muzeyida saqlanadi. Bu asarni birinchi marta V.V.Radlov va S.ye. Malov eski uyg'ur–turk alifbosida chop ettirganlar<sup>32</sup>. O'nta kitob 31 bo'limni o'z ichiga oladi.

**"Oltun yorug'"ning yaratilishida turkiy qavmlarning ishtiroki.** Bunga, birinchidan, O'rta Osiyoning qadimiy mifologiyasi va afsonalaridagi qahramonlar ismining mazkur yozma yodgorlikda uchrashi bir dalildir. Jumladan, "Oltun yorug'"ning birinchi kitobida Erlik xon (*Erklig* deb ham aytiladi) timsoli bor. Erlik xon turk–mo'g'ul mifologiyasida keng tarqalgan. "Oltun yorug'"da bu timsol Ku tauni yovuz qilmishlari uchun hukm qilmoqchi bo'ladi, chunki Erlik xon marhumlar shohligi hukmdoridir (*Erkligning* lug'aviy ma'nosi ham qadimgi turkiy tilda "qudratli hukmdor"dir). Afsonalarga ko'ra, Erlik qadimda ruhoni bo'lib, avliyolikning eng yuqori darajasiga erishgan va g'ayritabiiy qudratga ega bo'lgan edi. Uning o'limi haqida ikki rivoyat bor: birinchisi – u o'g'irlikda ayblanib, tuhmatning qurboni bo'lgan, ikkinchisi – talonchilarning jinoyatlariga beixtiyor guvoh bo'lib qolgan. Oqibatda talonchilar tomonidan o'ldirilgan. Shunisi ajablanarliki, Erlikning boshi olingandan keyin ham, uning tanasi tirik qolgan. Erlik kallasi o'rniga ho'kizning boshini o'rnatib olib, qo'rqinchli qiyofaga ega bo'lib qolgan. Xullas, Erlik insonlar tasavvurida halokat keltiruvchi iblis sifatida qolgan. "O'lim g'olibi" Yamandag Erlikni mag'lub qilib, yer osti dunyosiga jo'natib yuborgan. Shunday qilib, Erlik narigi dunyoning hukmdori va hakami bo'lib qolgan. Garchi Erlik bilan Yamandag o'zaro dushman bo'lsa–da,

<sup>32</sup> Радлов В.В., Малов С.Е.. Суварнапрабхаса (Сутра Золотого блеска). – Текст уйгурской редакции. Санкт–Петербург, 1913–1917, XV + 723 с.



ikkovining ham qiyofasi bir–biriga o‘xshatilib butlar yasalavergan (masalan, Mo‘g‘ulistonda).

Inson faqat darma yordamida ibtidosiz sansaradan xalos bo‘lib, nirvonga yetishadi. Nirvon - komillikning eng oliy bosqichi. Boshqa mavjudotlar, jumladan, xudolar va boshqa mifologik personajlar nirvonga yetisha olmaydilar. Ular nirvonga yetishuvlari uchun inson bo‘lib qaytadan tug‘ilishlari lozim. “Oltun yorug‘”ning ibtidosidagi Ku tau afsonasida jonzotlarning nirvonga yetishuviga oid qoidalar hikoya qilingan.

“Oltun yorug‘” asari X-XVIII asrlar oralig‘ida buddaviylikka e‘tiqod qiluvchi qavmlar orasida keng tarqalgan. Bu asar ular e‘tiqod qiladigan buddaviylik qonun-qoidalaridan iboratdir. “Oltun yorug‘” mazmunan va mohiyatan buddaviylikning maxayana mazhabiga oiddir.

Maxayana ta‘limoti O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Ayniqsa, Kushon davlatida shoh Kanishka hukmronligi (uning hukmronligi milodiy 78 yildan boshlangan) davrida maxayana keng tarqalib, rasmiy diniy oqim darajasiga ko‘tarildi. Kanishka buddaviylik tarixida “ikkinchi Ashok” (miloddan oldingi 274\268 – 236\234-yillarda hukmronlik qilgan shoh, u Baqtriyaga, So‘g‘dga missionerlar yuborgan) nomi bilan shuhrat qozondi. Kanishka davrida “Oltun yorug‘”dan boshqa, maxayana mazhabining asosiy qoidalarini targ‘ib qiladigan ko‘plab asarlar yaratildi.

“Oltun yorug‘” asarining qadimgi turkiydagi to‘liq nomi “*Altun onglug, yaruq, yaltiriqligh, qopta k t lms h nom iliki atligh nom bitig – Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, hamma (narsa)dan ustun turadigan no‘m podshohi nomli no‘m bitigi*” deb nomlanib, hozirgacha “Oltun yorug‘” deb nomlanib keladi. Asarning sanskritcha nomi “Suvarnaprabxasa”dir.

“Oltin yorug‘”ning asl matni taxminan milodiy I asrda yaratilgan bo‘lib, sudur (sutra)lardan tashkil topgan. *Sudur* sanskritcha so‘z bo‘lib, “hikmatli so‘z, qisqa yo‘llanma” ma‘nosini bildiradi. Bu terminning boshqa ma‘nolari ham bor.<sup>33</sup> Har bir bo‘limda buddaviylikning muhim jihatlari to‘g‘risida Tangrilar tangrisi burxon bilan Xo‘rmuzd hamda boshqa tangrilar o‘rtasida savol–javob kechadi. Buddaga berilgan savol bilan mavzu boshlanadi. Buddha savolga javob berayotganda, orada hikoyalar ham kiritiladi. Ayniqsa, asardagi ayrim obrazlarning mifologik mazmun kasb etgani aslo bu savol-javoblarga halaqik bermaydi, aksincha, savol-javoblarda tabiiylik aks etadi<sup>34</sup>.

<sup>33</sup> Richendub Budon. Shu asar, o‘sha bet.

<sup>34</sup> Журакузиев Н. Мифы в древнетюркской буддийской и манихейской литературе и их значение. - *T rkoloji  zerine Arařtırmalar. Tюркологические исследования. Journal of Turkology.*

**Maxayana mazhabi haqida.** Bu asar boshdan–oxir maxayana mazhabini targ‘ib qilishga qaratilgan edi. Savol tug‘iladi: nima uchun bu asar aynan maxayana mazhabi asosida yaratildi va Kanishka ham aynan shu ta‘limotni yoyish uchun xizmat qildi? Zotan, maxayana ta‘limotida ichki poklanish, ruhiy, ma‘naviy sog‘lomlik bosh o‘rin tutadi. Maxayananing bu mezonlarini o‘ziga singdirib borayotgan buddaviylar jamiki jonzotlarga yaxshilik qilishni asosiy maqsad qilib olgan edilar. Qolaversa, Markaziy Osiyodagi azaliy ma‘naviy muhit ham maxayana mazhabi bilan uyg‘unlashgan edi.

“Oltin yorug‘”ning asl nusxasi yaratilish davri aynan Kushon imperiyasining kuchayib, Hindistonning katta qismini egallab olgan davrga to‘g‘ri keladi. Bu imperiya davrida buddaviylik O‘rta Osiyoda, xususan, Janubiy O‘zbekiston hududida yoyilib borayotgan edi.

Maxayana “katta g‘ildirak” yoki “najotning katta yo‘li” degan ma‘noni bildirib, buddaviylikda asosiy yo‘nalishlardan biridir. Maxayana mustaqil yo‘nalish sifatida milodgacha 1 asrda ilk buddaviylik maktabi *maxasangxiki* asosida tashkil topdi. Maxayananing to‘liq shakllanishi milodning boshlariga – sutralar alohida guruh sifatida paydo bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Maxayana yo‘nalishini buddaviylik bilan shug‘ullangan Nagarjuna, Ashvaghosha, Shantarakshita, Chandrakirti kabi buyuk faylasuflar rivojlantirdilar.

Maxayananing boshqa buddaviylik yo‘nalishlaridan farqi nimada? Nima uchun uni “katta g‘ildirak” deb ataydilar? Gap shundaki, maxayana tarafdorlarining qarashicha, ongning tiniqlashuvi faqat rohiblarga-gina emas, balki jamiki mavjudotlar uchun joizdir. Maxayananing asosiy farqli xususiyati shundan iborat. Maxayanada, hamma najot topishi mumkin, bu yo‘lda insonga buddalar va bo‘disatvlar yordam beradilar, deb qaraladi. Xinayana yo‘nalishiga mansub *arxant* timsoli o‘rniga, bo‘disatv timsoli shakllantirilgan. Bo‘disatv oliy ruhiy yetuklikka erishib, nirvonga ketmaydi, balki hamma najot topishga erishishi uchun yordam berish maqsadida sansarada qoladi. Aytish mumkinki, xinayana izdoshlariga: “Faqat yakka holatda, uzoq vaqt shaxsan o‘zini o‘zi komil qilish rohiblik orqali najot topa oladi”, deb ta‘lim bersa, maxayana quyidagicha o‘git beradi: “Hamma uchun yo‘l ochiq. Boringlar, sizlarga budda va bo‘disatvlar yordam beradilar. Agar bu yo‘lga kirishga zaif bo‘lsangiz, oddiy odam bo‘lib qolinglar, ammo Buddaning qoidalari va

amrlariga rioya qilinglar, nirvonga yetishish uchun katta qadam shudir”.

Buning ma’nosi shuki, maxayana yo‘liga kirgan insonlar bu yo‘nalishning barcha aqidalarini bajaradilar. Qolaversa, buddalar va bo‘disatvlar xuddi boshqa odamlarning *karma* (inson butunlay qayta tug‘ilish jarayonida yuz beradigan jamiki yaxshi va yomon ishlar yig‘indisi)sini o‘z zimmasiga olayotganday bo‘ladi. Ular o‘z jasoratlari bilan oliyjanob karmani yaratadilar va azob–uqubatlar orqali imonlilarga o‘tkazadilar. Shuning uchun maxayanadagi azob–uqubat oliy donishmandlikka tenglashtiriladi.

Maxayana mazhabining falsafiy asoslariga ko‘ra, moddiy olamning to‘rt ilk elementi yoki “to‘rt maxabutli ilonlar” – yuqoriga intiladigan o‘t va shamol, pastga intiladigan yer va suvning harakatlari aralashib ketganda, ko‘p xastaliklar paydo bo‘ladi. Ko‘ngil bilimiga tayanish, ya’ni faqat o‘zligiga ishonish xastaliklarning boshidir.

Buddaviylik diniy tizimini axloq fani bilan bir doirada qarash mumkin. Yoki najot topish haqidagi aqida ham bir necha diniy tizim bilan maqsad va mohiyat jihatdan bir, faqat ish-amallari, timsollari bilan farq qiladi, xolos. Ammo najot topish, shuningdek, “qayta tug‘ilish” ham ta’limot bo‘lishi bilan birga, diniy tizim hamdir. Masalan, “Oltun yorug‘”dagi har bir sudur insoniyatga najot berish va illatlardan xalos qilishga qaratilgan.

“Oltun yorug‘”da bayon etilishicha, Buddaning insoniyatga ko‘rsatadigan cheksiz inoyati va marhamati ta’rifi yer yuzida mavjud bo‘lgan ta’rifu tavsiflarning hammasini qamrab oladi. Insoniyatni solihlikka yetaklashda insonga imkonsiz narsa Buddha uchun imkonli. Qolaversa, Buddaning o‘nta va’dasi va buddaviylikning tub mohiyati – insoniyatni komilikka yetaklash uchun ularni illatlardan xalos qilib, amaliy natijaga olib keladi. Asarda insonlarni nuqsonlardan tamomila xoli, pok, ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash yo‘l-yo‘riqlari Buddaning sifatlariga mos o‘gitlarining amaliy natijasidir. Ma’naviy pok insonlar, yoki umuman jonzotlar (“Oltun yorug‘”da *tinlighlar*) moddiy jihatdan ham o‘ziga xos tarzda shakllanadilar. Agar o‘sha jonzotlar Buddha xonga (ya’ni burxonga), bo‘disatv (buddaga aylanmoqchi bo‘lgan jonzotlar yoki insonlar)larga ta’zim qilib, ularga hamdu sano aytсалar, natijaga erishadilar. Har uch zamondagi – o‘tgan, hozirgi va kelajak zamondagi burxonlarga hamdu sano aytgan va ta’zim bajo aylagan aslzodalar o‘g‘illari va aslzodalar qizlari (ular jamiyatdagi alohida toifa

emas, balki buddaviylikka e'tiqod qiluvchi, Buddaning aqidalaridan aslo og'ishmaydigan insonlar)ning hayotda erishadiganlari nihoyatda ulkan, ular "yemak-ichmakli, to'nu kiyimli, mol-dunyoli, bilimli, fazilatli, qutli, saodatli (bo'ladi), xastalikka, kulfatga, qarshilikka uchramaydilar, umrlari uzun bo'ladi, qancha-qancha orzulari bo'lsa, unday orzu yo'qki, ko'ngil xohishi bo'yicha qonmaydigan, amalga oshmaydigan (bo'lsin)" (V 8b\22-9a\4).

**"Oltun yorug'"da no'm tushunchasi.** "Oltun yorug'"dagi muhim, asarning boshidan oxirigacha davom etadigan termin - no'm va uning turlari, no'mning buddaviylar hayoti va e'tiqodidagi mavqei, ruhiy ta'siriga e'tibor qarataylik.

No'mning inson hayoti tarzini o'zgartiruvchi boshqa jihatlari ham borki, bu ruhiy-ma'naviy jarayonga tayanadi. Jumladan, insonlar sehr-jodu no'mining duolarini o'qiganlarida, ularning hayotida quyidagicha o'zgarishlar yuz beradi: sehr-jodu no'mi insonlarni yirtqich hayvonlar balosidan, o't-suv balosidan, shaytonu arvohtar balosidan, inson va inson bo'lmagan jonzotlar balosidan, xavf-xatardan xalos qiladi. Sehr-jodu no'mi uch zamonga oid burxonlarning aqli, tafakkuridir. Sehr-jodu no'mlarini ko'p so'zlash bilan burxonlarga izzat-hurmat ko'rsatiladi. Ayni paytda aslzodalar – buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar no'm udumlarini ijro etgach, aslzodaning "baxti, kuch-qudrati ko'payadi, oshib ketadi, nima orzusi bo'lsa, amalga oshadi" (V 9b). Shuningdek, insonlar o'zlariga tasalli topishlari uchun keltirilgan sanskritcha duolar muhim ruhiy omil bo'lib xizmat qiladi.

"Oltin yorug'"da "quruq" yoki "bo'shliq" no'm ham borki, tayanadigan hech narsasi yo'q. No'mning bu turi asarda "moddiyat"ga tayangan uchun "egasiz, bo'm-bo'sh mahallaga o'xshaydi". Bunday holatda hissiy a'zolar – ko'rish, eshitish, hid bilish, til, tana va tafakkur o'z vazifasidan uzoqlashib, o'ziga aloqasi yo'q ishlar bilan mashg'ul bo'lganda, yolg'ondakam bilim paydo bo'ladi. yoki ("o'g'ri") Ko'rinadiki, har bir tushuncha inson va uning ma'naviy olamiga xizmat qildirishga qaratilgan.

**"Oltun yorug'"da zamon tushunchasi. Darma.** "Oltun yorug'"da buddaviylik tizimiga mansub zamon, xususan, uch zamon muhim kategoriyalardan biridir. Uch zamon abadiylik demakdir. Buddaning qiyofasi ham, burxonlar ham uch zamonda talqin etiladi. Shuningdek, uch zamonga tegishli darma (sanskrit. *dharma*) ham uch zamonga mansub

bo‘lib, “Oltun yorug”da ma’no va vazifa jihatdan o‘ziga xos maqomga ega. Darma muhim maqom sifatida “Oltun yorug”ning o‘nta bo‘limi boshlanmasida “*Buddaga ta’zim, Darmaga ta’zim. Sangaga ta’zim*” tarzida qo‘llanadi. Bu o‘rinda darmaning maqomi belgilab berilgan – uning maqomi Buddaning maqomi bilan baravar. Mazkur termin, birinchi navbatda, buddaviylik ta’limoti ma’nosini va bu yo‘lga kirganlarning ma’naviy hayotiga oid hamma tomonlarni qamrab oladi.

Buddaviylik tarixida maxayana mazhabi darmaga tayandi, darma insoniyat hayotining hamma tomonlariga kirib bordi. Darma, insoniyat hayotining mazmuni komillikka erishuvdan, bo‘disatvlarga aylanishdan iborat, deb uqtirdi. Jonzotlar bo‘disatvlarga aylanishlari uchun darmani o‘zida mujassamlantirgan o‘nta ma’no va sifatlarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu ma’no va sifatlari – mavjudlik elementi, yo‘l, nirvonga yetishuv, his qilinmaydigan element, fazilatli hayot, ta’limot, doimiy barqarorlik sifatlari, diniy va’da, dunyoviy qonunlardir. Bir so‘z bilan aytganda, darma – e’tiqod qiluvchilarning butun ongli faoliyatidir deb aytish ham mumkin. Buddaviylar “men darmada panoh topganman”, deb aytar ekanlar. Darma ayni paytda, bilish asosi bo‘lib, shaxs qobiliyatini eng yuksak darajada shakllantiradi. Buddaviylar shunday deb aytar ekanlar: “Qirolning oliyjanob xonimlari va yosh shahzodalar! Bir-biringizga darmaga muvofiq munosabatda bo‘linglar!”

Hamma zamonlarda ham zodagonlarda axloq va tarbiya oliy darajada bo‘lgani va darma ana shu axloq hamda tarbiyaning tajassumi ekani ma’lum.

Darma – hayot va uning mazmuni ham demakdir. Buddaviylarning yana “dunyoviy odamlar dunyoviy darmaga bog‘lanib qolganlar” degan gaplari aynan shu ma’noda istifoda etilgan. Budda darmaga ta’rif berib: “Darma sudur va boshqalardir”, deb aytganda, ta’limotni nazarda tutgan edi.

**“Oltun yorug”dagi afsonalar. Ku tau afsonasi.** Afsonalar “Oltun yorug”ning badiiyatidan dalolat berib, Sharqdagi barcha diniy-falsafiy asarlar singari, keng omma tomonidan badiiy asar sifatida ham qabul qilingan. Asardagi “Ku tau” va “Shahzoda va Bars”, “Udaqatati tabib va uning o‘g‘li” haqidagi bir qator afsonalar, asarning hikoya qilinish usuli, muloqot shakllarining o‘ziga xosligi “Oltun yorug”ni badiiy asar sifatida e’tirof etishga imkon beradi. Bu afsonalar komillik yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, shu yo‘lga da’vat etadi. Zotan, asarning boshidan-oxirigac-

ha ko'tarilgan masalalar, aqidalar, g'oyalar komillikka da'vat etadigan omillardir. Har uchala afsonada ham buddaviylikning ilk bosqichidagi komillikka erishish yo'l-yo'riqlari bayon etilgan. "Ku tau afsonasi" da Ku tau obrazi orqali jamiki insoniyatga manfaat keltiradigan ezgu ish – "Oltun yorug'" asarini ko'chirtirish hatto jismoniy o'lim va xastaliklarning ham oldini oladigan bir omil sifatida talqin qilinadi.

Afsonada hikoya qilinishicha, no'm keng tarqalmagan vaqtda Inchyu nomli shaharda chang qabilasidan Ku tau degan bir odam shahar begi edi. U shahar begi bo'lib turganda, ko'p jonzotlarni qurbon qildi. Vaqti kelib, qizining to'y bo'lganda, sigir, qo'y, to'ng'iz, g'oz, o'rdak, tovuq kabi ko'plab jonzotlarni so'yib, katta ziyofat berdi. Oradan o'n kun o'tmasdan o'sha bek og'ir xastalikka yo'liqib, gap-so'zdan qolib, tutqanoq kasaliga yo'liqdi va olamdan o'tdi. O'lgandan keyin butun a'zolari sovib, faqat yolg'iz yuragi sirtida bir parcha eti sovimay qoldi. Buni ko'rib, xonadonidagi odamlar qattiq yig'i-sig'i qilib murdani ko'mishga olib bormasdan, uch kunni o'tkazdilar. To'rtinchi kun tong saharda ular kuyib-yonib turganlarida, o'sha bek tirilib, o'rnidan turib keldi, yuqoriga o'tirib, ovqat, ichimlik so'radi. Bu ahvoldan bekning qarindosh-urug'lari, bir qancha odamlar vahimaga tushib, nariroq qochdilar. Ularning qochib borayotganini bek ko'rib, ovoz berdi va shunday dedi: "Qaytinglar, yaxshilarim, men tirilganimga sizlar nima uchun darrov qochib ketyapsizlar? Qo'rqmanglar, men endi sizlarga tirilishim sababini aytib berayin, burxanlar no'mining turlichaligini endi eshitinglar". U shunday deya so'zlab berdi: "Kasal bo'lganimda, eng avval menga to'rtta shayton yaqin keldi. Bittasi yo'g'on qamchi tutgan, ikkinchisi arqon tutgan, uchinchisi qop tutgan, to'rtinchisi ko'k to'nli, ot mingan bek ekan. Bu to'rt iblis meni bir uy darvozasiga olib borganlaridan keyin, o'sha ko'k to'nli bek otdan tushib, meni chaqirdi. Men u bekning oldiga borganimda, u qo'ynidan bir bitigni chiqarib, menga o'qitdi. O'qisam, bu bitigda o'sha kungi bizning ziyofatda o'ldirilgan sigir, qo'y, to'ng'iz kabi jonivorlarning so'zi bitilgan ekan. Ularning so'zlari quyidagicha ekan: "Biz, hamma hayvonlar, oldin insoniyat dunyosida qilgan yomon qilmishlarimiz sababidan hayvonot olamida tug'ilgan edik. Qarzimizni to'laydigan, burchimizni o'taydigan yil, oy vaqt miqdorini tugatsak edi, unda qiyofamizni o'zgartirib, insoniyat dunyosida tug'iladigan bo'lar edik. Shunday qilib, hayvonot olamidan ayrilib, qutiladigan vaqtimiz, kunimiz tugamasdan, Inchyu shahridagi chang qabilalik Ku tau degan

bek bizni o'ldirdi. Shuning uchun hammamiz qaytadan yana hayvonot dunyosida tug'iladigan burchdan, azob–uqubatdan shikastlandik. Bunday azob–uqubatdan shikastlangan zamonda bizning bu qayg'ularimizni, azob–uqubatlrimizni ochiqchasiga tushuntirib so'zlab beradigan darajada madorimiz yo'q edi. Qanday qilib yana qarshilik qilishga, bardosh berishga kuchimiz bo'lsin?! Bu qayg'umizni endi yaratgan Tangri o'ngarsin", deb iltijo qildilar. Shuning uchun biz seni olib ketgani keldik. Bu xabar bitigda bor". Bu so'zlarni bitigdan men oxirigacha o'qib bitirdim. Keyin o'sha ko'k to'nli bek: "Ushlanglar uni!" deb baqirgan edi, uchala iblis menga yaqin keldi, bittasi arqon bilan bo'ynimni bo'g'di, bittasi qopga meni soldi, bittasi yo'g'on qamchi bilan boshimga urdi, ikkala qo'limni qayirib, Bopso'qa tog'i tomonga olib bordilar. Yo'l o'rtasiga borganda, o'sha meni olib borayotgan iblislar menga shunday dedilar: "Ey inson, sen shuncha–shuncha hayvonlarni o'ldirding. O'sha sen umrlariga zomin bo'lganlar maktubi sababidan seni olib ketgani keldik. Sen buni bilishing kerak", deb aytdilar. Bu so'zni eshitib, men ularga shunday dedim: "Ey yaxshilarim, tangrilarim! Agar men u paytda insonlarning bu dunyolik ko'zi o'ngida yomon ish qilganimni ko'rib–bilgan bo'lsam, bular Yamaning<sup>35</sup>–boyligidir. O'sha yomon ishlarning hozirgiday og'ir natija va oqibatlarini bilmagan edim. Mendan boshqa qancha–qancha odamlar son–sanoqsiz jonzotlarni o'ldirganlarini ko'rdim. Ammo o'sha kishilarning ochiq–oydin tushiga kirgan narsalarga yaxshi e'tibor bermagan edim. Shuning uchun ikki orada yana hozirgiday tilim bog'lanib, o'lim azobiga duchor bo'ldim. Qanday amal–chorasini qilsam, qaytadan tirik jon bo'la olaman? Bilmasdan yanglishib, xato qilib yovuz qilmishim uchun o'zim pushaymon bo'lyapman, qattiq azob tortyapman. Endi nima qilayin?" deb so'radim. Shu gaplarni aytganimdan keyin o'sha iblislar menga shunday dedilar: "Ey inson! Sen issiq jonini olganlardan o'ttizdan ortig'i – bog'langan, ushlangan jonzotlar qudratli Erklig xonning–qarshisida dushmanlarcha ko'zini chaqchaytirib, o'sha ko'zlarini tikib, seni kutib turibdilar. U yerga borganingda, Erklig xon juda qattiq qiynab o'ldirilganlarning qattiq qonuni bo'yicha hukm qiladi,

---

<sup>35</sup> Yama *sansk.* – murdalar shohligining hukmdori, Yama dastlab o'ladigan deb tasavvur qilingan bo'lishi mumkin. "Rigveda"dagi Yama va uning egizak singlisi Yamiga bag'ishlangan madhiyaga ko'ra, Yama "o'lganlardan birinchisi"dir. Shu tariqa u boshqalarning o'lishi uchun yo'l ochib bergan. Buddaviylikdagi diniy–mifologik tasavvurlarga ko'ra, jonzotlar o'lgandan keyin Yamaning oldida hozir bo'lishlari lozim, o'lgan mavjudotlarning jannatga loyiq yoki noloyiqligini Yama hal qiladi.

u yerdagi og‘ir azoblardan qutulmagaysan”, deya so‘zladilar. Bu so‘zni eshitganidan keyin men yanada qattiq qo‘rqdim, azoblarim ortdi. Ular har tarafga alanglab, meni pastga tushirib, oldinga tortib, keyinga tortib, urib–so‘kib, yana bekning huzuriga qattiq shoshiltirdilar. Shundan keyin men yana ularga yolvorib, shunday dedim: “Ey yaxshilarim, o‘ylab qarasam, azoblarimdan aslo qutulmoqlik yo‘q. Endi sizlardan o‘tinib so‘rayman, yolvoraman: o‘zim o‘ldirganlarning qo‘liga tushgach, ular meni Erklig xon oldiga so‘roqqa olib borganlarida, men nima qilay? Shuni menga aytinglar”, deb so‘ragan edim, ular menga shunday dedilar: “Ey inson! Agar o‘sha o‘zing o‘ldirgan jonzotlar uchun ko‘nglingda o‘kinch paydo bo‘lsa, qanday bo‘lmasin, ko‘nglingni pok qilgin. Dunyoning umid–ishonchi komil, dono Tangri tangrisi burxon qonun qilib bergan “Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, hamma narsadan ustun bo‘lgan no‘m podshohi” nomli no‘m bitigini tugal, to‘liq bitishga xohish uyg‘otishni chin dildan istasang, bu azoblargdan xalos bo‘lar eding”, dedilar. Bu so‘zni eshitishim bilanoq, men birinchilarning birinchisi bo‘lib yetti toza ko‘nglim bilan o‘sha jonzotlarni o‘ldirgan yovuz qilmishim uchun tavba qildim, dadillanib, yovuzlikni tashladim, toza sodiq ko‘ngil bilan turib, so‘ngra “Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, hamma narsadan ustun bo‘lgan no‘m podshohi” nomli no‘m xazinani to‘liq, tugal bitishga ko‘nglimni chog‘ladim.

Buddaviylik paydo bo‘lmasdan ilgarigi braxmanizm e‘tiqodi va udumlariga ko‘ra, xudolarga jonzotlar qurbonlik qilinavergan, bu davrda hali buddaviylik aqidalari yaratilmagan va hayotga tatbiq qilinmagan edi. Ku tay hali buddaviylik aqidalaridan bexabar, braxmanizm aqidalari bo‘yicha hayvonlar va parrandalarni qurbon qilgani uchun, ular braxmanizmdan nirvonga yetisha olmagan. Shundan keyin Erlik xonga shikoyat qilganlar. Ku tay maxayana mazhabiga asoslangan “Oltun yorug‘”ni ko‘chirtirishga va targ‘ib qilishga va‘da berishi bilanoq “o‘likdan tirildi”. Bu degani – Ku tay nirvonga yetishib, “qayta tug‘ildi” demakdir.

**“Shahzoda va bars” afsonasi.** “Oltun yorug‘”ning oxirgi – X bo‘limida “Shahzoda va bars” afsonasi bor. Afsonada dalaga sayrga chiqqan uch shahzodadan eng kichigi endigina yetti bola tuqqan va ochdan o‘layozgan ona yo‘lbarsga va uning bolalariga o‘zini qurbon qilgani hikoya qilinadi. Ona yo‘lbars va uning yetti bolasi shahzoda Mag‘astvining tanasini yeb tirik qoldi. Dunyoviylik nuqtai nazaridan shahzodaning bu ishi telbalikdan boshqa narsa emas, ammo buddaviylik, xususan, “qay-



ta tug‘ilish” aqidasi bo‘yicha shahzoda Mag‘astvi “qayta tug‘ildi”. Quyidagi parchada Mag‘astvi tanasini qurbon qilgach, qayta tug‘ilib, bo‘disatvga aylangan bo‘disatvlar quyidagilardir: “o‘sha urg‘ochi bars *Maxatprasati* bo‘ldi, yettita bolasidan beshtasi besh *panchiki* bo‘ldilar. Bitta bolasi endi bo‘ldi *Mxamodalyatiri* tanasi. (Yana) birisi endi bo‘ldi *Sariputiriya* avliyoning tanasi. Men sizlarga – rohiblarga ko‘rsatib, bildirib va‘z qildim o‘tgan zamonda u boshqalarga foyda keltirmog‘ining sababini. Bunga shu tariqa astoydil harakat qilib bo‘disatvlar hayot tarzi bo‘yicha, burxon baxt-saodati tufayli ish tutdim....O‘sha zamonda men o‘z ko‘nglimda qo‘zg‘atgan edim nihoyatda ulug‘ baxtga erishmoqni. Bu tanam suyagi qolsa bu yerda, kelajak zamonlarga foyda bersin jon-zotlarga deb” (X 22b\23-23a\1-16).

“Shahzoda va bars” afsonasida kenja shahzoda Mag‘astvi och qolgan yo‘lbars va uning yetti bolasiga o‘zini qurbon qilish orqali komillikning ajoyib namunasini ko‘rsatdi. Buddaning “Jonli mavjudotlarga hech qanday zarar yetkazmaslikka va‘da beraman”degan birinchi va‘dasi mana shu afsonada o‘z ifodasini topgan. Mag‘astvi agarda och qolgan yo‘lbarsga o‘zini qurbon qilmaganda edi, Buddaning mana shu va‘dasiga xilof ish tutgan bo‘lardi. U “qayta tug‘ilmagan” bo‘lardi.

**“Udaqatati tabib va uning o‘g‘li” afsonasi (1X 22a-1X 31b).** Bu afsona yuqoridagi ikkala afsonadan farqli ravishda, hayotiy masalalardan saboq beradi. Udaqatati tabibning o‘g‘li Udaqani ishantining fidoyiligi, o‘z yurtining xalqiga rahm-shafqatli ekani hikoya qilinadi.

Yurtga og‘ir xastalik tarqalganda, Udaqani ishanti xalqning ahvolidan qattiq qayg‘uradi. U otasi Udaqatidan xastalikka oid dor-larmonlar kitobini o‘rganib, xalqqa yordam berishga qaror qiladi. U otasining huzuriga borib, maqsadini bayon qiladi. To‘rt faslga oid xastaliklar va qaysi faslda qaysi xastaliklarning paydo bo‘lishi, qaysi xastalikka chalinganda qaysi taomlarni iste‘mol qilish kerak va qaysi taomlardan tiyilish kerakligini, umuman, ovqatlanish tartibi, xastaliklarni davolash usullari to‘g‘risida otasidan ta‘lim oladi. Mana, aslzoda Udaqatati yil fasllari va yilning oylarga taqsimlanishi, fasllarda paydo bo‘ladigan xastaliklar haqida o‘g‘liga bergan ta‘limi:

Uch oy bahor mavsumi deb (ataladi), uch oy yoz mavsumi deb (ataladi), uch oy ataladi kuz mavsumi deb. Uch oy ataladi qishki mavsum deb. Shu tariqa farqlaganda, bir yil miqdori oylarni uch (oy)dan ajratish orqali fasl ajratilib, shakllanadi. Ikki oydan juftlashtirish orqali kesin

hosil bo'ladi. Shundan so'ng hosil bo'ladi bir yilda olti kesin. Birinchi (va) ikkinchi oy nilufar gul (ochilgan) fasldir. Uchinchi oy va to'rtinchi oy issiq fasl paytidir. Beshinchi va oltinchi oy yomg'irli payt deyiladi. yettinchi va sakkizinchi oy kuz faslidir, to'qqizinchi va o'ninchi oy qish fasli deb ataladi. Keyingi ikki oy birgalikda qorli, muzli fasl bo'ladi. Buni shu tariqa farqlab, mavsumlarning ajralishini bilish kerak. Fasllarni aralashtirmay, tartibi bilan bu fasllarga mos holda rioya qilib yemak, ichmakni, ayronni tanovul qilish kerak qoringa singdirib, yetiltirib, vaqtida; shundan keyin jamiki xastalik paydo bo'la olmaydi. Mavsumlarning izchilligi o'zgarishidan mavsumda to'rtta katta o'zgarish, almashuv paydo bo'ladi. Bu fasllarning o'zgarishiga ergashib, faslga muvofiq dori-darmon iste'mol qilmasa, shubhasiz, kasallik paydo bo'ladi... Bu (xastalik)larning to'rt turini farqlash kerak, deydilar. (Bular) quyidagilardir: yel, sariq, balg'am kabi xastalik (va) dardlar, sanipat degan aralash og'ir xastalik bo'ladi to'rtta. (Shuni) bilish kerak: bu(xastalik)lar paydo bo'ladigan, tarqaladigan fasllar (qaysi ekani)ni. Yoz faslida shamollash oqibatidan xastalik kelib chiqadi, kuz faslida qo'zg'aladi isitma-bezgak paydo keltirib chiqaradigan sariq (xastaligi). Qish faslida paydo bo'ladi sanipat degan og'ir xastalik. Bahor faslida ko'plab yumshoq pishirilgan issiq ovqat yeyish kerak. Yozda sho'r, achchiq, issiq yog'li ovqat yeyish kerak. Kuz faslida ko'plab sovuq, yog'li, chuchuk taomni (tanovul qilish kerak). Qishda tanovul qilish kerak nordon, chuchuk, yog'li taomni... mijozga loyiq tanovul qilsa, unday holda kasal bo'lmaydi... tabib o'sha fasllarga qarab dori berib emlasin, yegulik, ichimlikni, dori-darmonni o'z vaqtida berishi kerak".

Aslzoda Udaqatati tabib o'g'liga xastaliklarni aniqlash va davolash usullarini o'rgatgandan keyin, o'g'li Udaqani ishanti xalqni xastaliklardan forig' qildi.

Shu voqeadan keyin Udaqani ishanti ikki o'g'li bilan shaharu qishloqlarni kezib yurganda, suvi qurib qolgan ko'lda baliqlarning nobud bo'lish arafasida turganini ko'rdi. Shunda u ikkala o'g'lini o'zlari yasaydigan shahardagi Divaindarapi degan elik bekning huzuriga zudlik bilan yuborib, yigirmata fil so'radi. Divaindarapi elik bek fillarni berdi. Udaqani ishanti ikkala o'g'li bilan daryodan suv tashib, ko'lga quya-verdi. Nihoyat, baliqlar qirilib ketishidan saqlab qoldi. Keyin u ikkala o'g'liga: "Bobolaringizga – mening otamga aytinglar, bugun cho'rilarga, xizmatkorlarga beradigan oziq-ovqatni bersin, olib kelinglar", deb bu-

yurdi. Ikkala o'g'il borib, otalarining aytganlarini bobolariga yetkazdilar. Cho'rilar va xizmatkorlar iste'mol qiladigan bir kunlik ovqatni olib kelib berdilar. Udaqani ishanti hamma yeguliklarni ko'lga tashladi. Shu tariqa o'n mingdan ortiq baliqdan birontasi ham nobud bo'lmasdan omon qoldi.

Bu voqealar maxayana mazhabining aqidalarini, xususan, ruhiy, ma'naviy sog'lomlik va jonzotlarga ezgulik tilashni targ'ib qilishga qaratilgan edi.

**“Oltun yorug’” o'g'itlari.** “Oltun yorug’”da burxonning e'tirof etishicha, Xo'rmuzd jamiki insonlarni qilmishlari, gunohlari uchun pushaymon qildirib, tavbaga olib keladi. U, insonlarni yovuz qilmishlaridan poklagin, deb burxondan iltimos qiladi (III 2b). Xo'rmuzdning bu ishini Tangrilar tangrisi ma'qullaydi va jamiki insoniyat gunohlaridan poklanishi uchun qanday amallarni bajarishi lozimligi to'g'risida Xo'rmuzdga yo'l–yo'riq ko'rsatadi. Bu amallar – hamma burxonlarga ta'zim qilish, ya'ni ularni izzat–hurmat qilish, zehni ochilganlarga ta'zim qilish, maxayana ta'limotini targ'ib qiluvchilarga ta'zim qilish va hokazolardan iborat. Ammo amallar faqat shulardan iborat emas, balki insonlar qilgan gunohlarini e'tirof etib tavba qilishlari ham lozim. Zotan, insonlar bud-daviylik qonunlari paydo bo'lmasdan ilgari, yovuz, yomon qonunlarga ergashib, hatto do'zaxga ham tazyiq o'tkazgan, g'azabnok bo'lib, nafrat va nodonligi tufayli jonzotlarga zulm qilgan, yaxshi–yomon ishlarni ajrata olmay, tana xohishi bilan ish qilib jonzotlarga jabr qilgan, tiliga erk berib, ko'nglida yomon ishlarni o'ylab, gunoh qilgan, yomon niyat bilan burxonning tanasidan qon chiqargan, to'g'ri, haqiqiy no'mdan nafratlangan, no'mdan nafratlanib, undan yuz o'g'irgan, sof niyatli ruhoniylar orasida ig'vo qo'zg'ab, janjal chiqargan, hatto ota–onasi yo'q qildirgan, gunohu ayblarni faqat o'zi qilib qolmay, boshqalarni ham shunday yaramas ishlarga undagan va o'zi bu qilmishlaridan xursand bo'lgan, pok odamlarga illatu gunohlarni to'nkagan, yomonni yaxshi deb maqtab, yaxshini yomon deb qo'llab–quvvatlab, u nuqsonlidir, u shaytondir, deb hukm chiqargan.

Xullas, dunyoda nimaiki illatlar bo'lsa, insoniyat shularning hammasi ijrochisi. Shunchalik qabohatga botgan insoniyatning gunohlari uchun afv so'rab, Xo'rmuzd burxon oldida vositachi bo'ladi (go'yo Muso payg'ambar barcha Isroil xalqining gunohlari uchun afv so'rab Xudoga iltijo qilganday). Xo'rmuzd katta ijtimoiy vazifa bajaradi – burxon-

dan insoniyat uchun baxt soʻraydi, insoniyatni toʻgʻri yoʻlga solishdan, yaxshilik ildizini mustahkam qilishdan iborat vazifani amalga oshirishni burxondan iltimos qiladi va jamiyatda sogʻlom muhit yaratish uchun kurashadi.

Burxonning bergan oʻgʻitlari, yoʻl–yoʻriqlari hamma boʻdisatvlarning hayoti uchun mezon, ular bu yoʻlni kundalik vazifa singari qabul qilishlari kerak. Inson boʻdisatvga aylangandan keyin, u komillikning eng yuqori nuqtasiga erishadi. Endi u oʻzini emas, boshqalarning rohat-farogʻatini oʻylashi, boshqalarning tashvishi bilan yashashi lozim:

*“Besh olamdagi jonzotlar uchun oʻz tanasining shu tariqa shodligini, xursandchiligini, oziq–ovqatini, qurol–yarogʻini (koʻzda) tutmaydilar, jonlarini, boshlarini fido qilib, hayotini berib, sabr qilib, chidaydilar. Shu tariqa boʻdistavlar bu singari (voqealar) boʻlishini biladilar, oʻzlari tinch, shod boʻladigan sabablar orqali ham eng (qattiq) azoblarni tushunib yetadilar. jonzot bezovtalansa, azoblansa, u tinchlikni, xursandchilikni istamaydi. (Ular) oʻzlarining tanalarini fido qilib, boshqalar (esa bundan) ezgulik, xursandchilik topadigan boʻlsa, tanalarini, hayotlarini ayamaydilar. Shunday qilib, bu taxlitda boʻdisatvlar oʻzlarining tinchligini, shodligini tilamaydilar, tanalarini, hayotlarini ayamaydilar, shu bilan oʻzidan yuqori turadiganlarning qoʻrquv, azoblarini, oʻzidan quyidagilarning xoʻrlklarini, yomon niyatli dushmanlarning azob–uqubatga solishini (va shunga oʻxshash) koʻp (azoblarning) turlariga sabr qiladilar, bardosh beradilar. Shudir oʻzlarining tinchligini, xursandchiligini istamasdan, tanalarini, jonlarini ayamaslikka ishonib, sabr qilmoq fazilatiga erishmoq (degani)” (IV 14a).*

Zervan, Xoʻrmuzd, ularning atrofiga yigʻilgan barcha tangrilar insoniyatning xaloskori, muhofaza etuvchisi boʻlish bilan birga, “oltun nur”ni – buddaviylik aqidalarini yoyuvchilardir. Bu nurga itoat etib, uning yoʻl–yoʻrigʻidan yuradigan yurtning xalqi, podshohi katta manfaat topadi. Ular faqat ruhiy madad olib qolmay, bu olamda insoniyat xotirjamligi uchun zarur boʻlgan koʻp narsalarga erishadilar: “birinchidan, sogʻ–salomat, xavf–xatarsiz boʻladi, ikkinchidan, umri uzun boʻladi, uchinchidan, lashkarining kuch–qudrati oshib koʻpayadi, dushmanlari boʻlmaydi, toʻrtinchidan, el–ulus shod–xurram, toʻgʻri, qonun–qoida boʻyicha yashaydi” (III, 33 a,b).

Bu – va’da emas, balki amalga oshishi mumkin bo‘lgan haqiqatdir. Qolaversa, haqiqat faqat shundan iborat emas. Burxonning o‘g‘itlari, Zervanga, Xo‘rmuzdga va tangrilar orqali bergan o‘g‘iti yurtni, insonlarni ma’naviy tomondan sog‘lom qiladi, molparastlik illatidan xalos qiladi, illatlardan xalos bo‘lishning mahsuli sifatida insonlar bir–birlariga mehr–oqibatli bo‘ladilar. Hukmdorga o‘zining xalqi, atrofdagi dushmanlar ham sovg‘a–salom keltirib, do‘st tutinadigan bo‘ladilar, buning natijasi o‘laroq shon–shuhratga erishadilar, o‘zligini namoyon qiladilar, hammaning izzat–hurmatiga sazovor bo‘ladilar. Podshohdan tortib xalqigacha uzoq umr ko‘radilar, tinch–omon yashaydilar (111 35 a,b – 36 a,b).

Zervan, Xo‘rmuzd va to‘rt maxaranch tangrilari, xuddi ertak, epos qahramonlari singari, insoniyatni baxt–saodatga eltuvchi qudratli kuch bo‘lishlari bilan birga, ularning dushmanlarini, ezgulikka qarshi kuchlarini tumtaraqay qochiradilar. Zotan, azaldan – yaratilish davridan beri Zervan bilan Xo‘rmuzdning vazifasi shunday bo‘lgan edi. “Xuastuanift”ning boshlanishidagi Xo‘rmuzd bilan Zervanga oid voqealar ham buning dalilidir. Ayni paytda ular insoniyat qalbidan joy olib, “bahodirlik, merganlik, fazilat, mahorat, bilimni ularning ko‘ngillariga jo qilish“ uchun burxonga va’da beradilar. Bu fazilatlar faqat ruhiy ma’noda emas, balki jisman inson qalbida jo bo‘lishi lozim. Ellarning hukmdorlaridan tortib xalqigacha jismonan sog‘–salomat yashashining asosiy sharti – burxon bergan to‘g‘ri qonun–qoidalar, qonunlar tarkibidagi yorliqlardir. Insoniyat yo‘lidagi azob–uqubatlarni bartaraf qilish, shuningdek, axloqni jamiyatning sog‘lomligi uchun asosiy shart qilib qo‘yish, donolik, mushohada orqali ruhiy yetuklikka olib borishning pirovard maqsadi – nokomil bu olamni komillikka yetkalashdir. Inson hech qachon azob–uqubatdan, keksayishdan, xastalik va o‘limdan xoli bo‘la olmagan. Buning imkoni ham yo‘q, zotan, hayot shunday qurilgan. “Oltun yorug‘”ning yana bir maqsadi – insoniyat azobni tushunsin, uni bartaraf etish yo‘lni anglasin.

“Oltin yorug‘”da buddaviylik falsafasi, yuqorida ko‘rib o‘tganimizday, axloqiy–ta’limiy qarashlar asosiga qurilgan. Umuman olganda, bu falsafa insoniyatni kamtarlikka, xokisorlikka undaydi, insonlar mol–dunyoning o‘tkinchi, arzimas ekanini his qilishlariga undaydi, jonzotlarga, insonlarga bo‘lgan sevgisi bo‘yicha mol–dunyosini, issiq jonini azobga duchor qilishga da’vat qiladi. Ayniqsa, ustozlarga, ulug‘larga, ota–onaga hurmat asarda alohida o‘rin egallaydi. Bu axlo-

qiy muammolarga “Oltin yorug’”da alohida e’tibor berilishi bejiz emas. Chunki insoniyat har doim gunoh qilishga moyil, “nopok insonlar olami”da insonlarning qilmishlari ko‘p.

Asarda uch qimmatbaho xazina tushunchasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu uch xazina quyidagilardan iborat: *Yovuzlik qilmaslik. Yaxshilik qilish. Aqlni poklash*. Buddaviylikda uch xazina nihoyatda qadrlangan, shuning uchun ham har doim buddaviylikka e’tiqod qiluvchilar bu uch xazinani ko‘z–ko‘z qilib emas, balki o‘z zimmalariga majburiyat sifatida olib, e’tiqodning asosiy tayanchi sifati deb bilganlar.

Bu uch xazina “uch zahar” yoki uch turli yomon qilmish deb ataladigan zararli odat va ko‘nikmalarga – ochko‘zlik yoki shahvoniy istak, nafrat, yo‘ldan ozish yoki nodonlikka qarshi qo‘yiladi.

Insoniyat “uch xazina”ga bog‘lanib, “uch zahar”dan qochishga intilishni maqsad qilib olishi lozim (1V 9b –10a). Darvoqe, odamzodning tabiati doimo dunyoviy lazzatga moyil bo‘lib kelgan. Dunyoviy lazzat – inson uchun boshpana, maskan. Faqat tashqi olam insonning tana istaklarini qondira oladi. Kimdir pul va boylikdan lazzat topib, uni o‘ziga maskan deb biladi, kimdir giyohvand moddalardan, kimdir lazzatli ovqatdan, kimdir dengiz bo‘yida dam olishdan lazzat topib, tashqi olamning huzur–halovatini hayotning asosiy mazmuni deb biladi, o‘zini baxtiyor, hamma narsaga erishgan deb hisoblaydi. Ammo inson umr bo‘yi botiniy ozodlikni – botiniy maskanni izlaydi.

“Oltun yorug’”da ruhiy kamolotga intilish jamiyatning hamma tomonini va hamma qatlamini qamrab olgan. Hammasining ostida insonga muhabbat yotadi. Insonning kamoloti uchun, birinchi navbatda, mamlakatda adolat barqaror bo‘lmog‘i, qonun–qoidalar amal qilmog‘i lozimligi – asardagi muhim aqidalardandir. Qonun–qoidalariga amal qilish – buddaviylik aqidalariga rioya qilishni anglatadi, ya’ni solihlik, poklik har bir odamning shiori bo‘lishi kerak. Jumladan, asarning uchinchi bobida bu haqda shunday deyiladi: “Qaysi bir yurtidagi podshoh, bek, amaldor to‘g‘ri qonun–qoida bo‘yicha yursa, bu kitobdagi farmonlar bo‘yicha yursa, xalqi ham shu kitobdagi qonun bo‘yicha yuradi”.

“Oltun yorug’”ning shu bobida yana aytilishicha, insonning shonshuhrati uning mulkidan iborat emas. ya’ni inson boyligiga tayanib shonshuhratga erishmaydi. “Boylik, – deyiladi bu asarda, – qonunni oyoq osti qilishga olib boradi. Inson boylikdan nafratlansagina, qonun–qoidani hurmat qiladigan bo‘ladi. Inson bu olamdan manfaat izlamagandagina,

shon–shuhratga erishib, ta’magirlikka, faoliyatsizlikka, ruhsizlikka chek qo’yadi”. O’zlikni namoyon qilish, ko’pchilikning izzat–hurmatiga sazovor bo’lish ham manfaat izlamaganda paydo bo’ladi. “Oltun yorug’” asaridagi “haqiqiy bilim”ni – aqidalar, o’g’itlarni yuragiga joylay olgandagina, inson fazilatli qatoriga o’tadi. Haqiqiy bilimni egallagan odam bu dunyoda solih hayot kechirib, jamiki jonzotlarning azob–uqubatlariga sherik bo’ladi. Jonzotlarga najot bag’ishlash, ularning azoblariga sherik bo’lish, jon fido qilib bo’lsa ham yordam berish – “Oltun yorug’”dagi yana bir muhim aqidadir. Ana shu aqidaga amal qilgan odam “tanalarini, tirik jonlarni o’ldirmaydi, birovning mol–dunyosini tortib olmaydi, o’g’irlik qilmaydi, boshqalarning xotiniga bog’lanmaydi, yolg’on gapirmaydi, tuhmat qilmaydi, qo’pol, yoqimsiz so’z so’zlamaydi, tilyog’lamalik qilmaydi, hasad qilmaydi, boshqalarga g’azabini sochmaydi” (1V). Bir so’z bilan aytganda, oddiy hayotiy haqiqatni anglab, unga rioya qilish shudir.

Ochko’zlikka olib keladigan oqibatlardan ham tanani, ham ko’ngilni tiyish yana bir fazilatdir. G’azabni tiyish, ko’ngilni kirlardan ketkazib ruhan poklanish, bilimlilik va aqllilikni paydo qilish kabi qator fazilatlar ham insoniyatning bezagidir, deb uqtiriladi asarda.

Botinan va zohiran komil, ruhan sobit insonni tarbiyalash masalasi islomiyatdan oldin ham jiddiy masala bo’lib ko’tarilgan. “Oltun yorug’”dagi bu singari aqidalar ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda bugun ham katta ahamiyatga ega.

Turkiy budda she’rlarining asosiy mazmuni budda g’oyalarini targ’ib qilishdan iborat bo’lsa-da, bu she’rlarning orasida tabiatning go’zal tasviri madh qilingan, tabiat bilan inson ruhiyati o’rtasidagi botiniy bog’liqlik ko’rsatilgan misralarni ham ko’ramiz. Turk budda she’rlarining asosiy mazmuni ham buddaviylik aqidalarini targ’ib qilishdan iborat.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Buddaviylik tarixi haqida qisqacha ma’lumot bering.
2. “Oltun yorug’” asarining tuzilishi, yuzaga kelish tarixi haqida qisqacha so’zlab bering.
3. Maxayana mazhabining ta’limoti nimalarni o’z ichiga oladi?
4. “Oltun yorug’”da no’mning qanday turlari bor?
5. “Oltun yorug’”da “Ku tau” afsonasida qanday masalalar ko’tarilgan?

6. "Udaqatati tabib va uning o'g'li" afsonasida-chi?
7. "Shahzoda va bars" afsonasida ilgari surilgan aqidani sharhlab bering.
8. "Oltun yorug'" o'g'itlari insoniyatni nimalarga da'vat qiladi?
9. "Oltun yorug'"da "uch qimmatbaho xazina" qaysi ta'limotni qamrab oladi?
10. "Oltun yorug'"da "uch zahar" qanday ta'limotni o'z ichiga oladi?
11. "Oltun yorug'"da qanday axloqiy-ta'limiy masalalar ilgari suriladi?
12. "Oltun yorug'"da komil insonga xos sifatlarga ta'rif bering.



## Maytri smit (Moyto‘ra bilan uchrashuv)

### Reja:

1. “Maytri smit” asari haqida umumiy ma’lumot.
2. Maytri smit”ning bag‘ishlov mundarijasi.
3. “Maytri smit”ning nusxalari va tarjimai haqidagi bahslar.
4. “Maytri smit”ning tarjimoni haqida.
5. “Maytri smit” va xtinayana mazhabi.
6. “Maytri smit”ning “Yukunch” bo‘limi.
7. Bitrinchi pardaning mazmuni.
8. Ikkinchi pardaning mazmuni.
9. Uchinchi pardaning mazmuni.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *turkiy qavmlar, buddaviylik, pesa, drama, adabiy tur, uyg‘ur-turk yozuvi, an’anaviy obraz, turkiy afsonalar, bag‘ishlov.*

**1. “Maytri smit” asari haqida umumiy ma’lumot.** Buddaviylikni turkiy qavmlar orasida targ‘ib qilish, buddaviylik adabiyotini rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri turli janrdagi asarlarni qadimgi turkchaga tarjima qilish edi. Shu maqsadda “Maytri smit” (“Moyto‘ra bilan uchrashuv”) dramatik dostoni o‘z davrida tarjima qilindi. Bu asarning eski uyg‘ur-turk yozuvidagi qo‘lyozmasi 27 pardadan iborat bo‘lib, sahna ijro qilish uchun mo‘ljallangan asardir. Dramaning bosh qahramoni Tangri burxon va uning sodiq hamrohi hamda shogirdi Maytridir.

Maytri obrazi qadimgi turkiy afsonalarda bor. Jumladan, “Olamning paydo bo‘lishi” haqidagi afsonada Moyto‘ra eng faol obrazlardan biridir<sup>36</sup>. “Maytri smit” 37 pardadan tashkil topgan katta hajmli sahna asaridir. Buddaviylik yozma yodgorliklari orasida bu asar turkiy tildagi eng qadimgi yozma yodgorlik deb e’tirof etiladi. Bu dramatik doston shaklan mukammal, badiiy yetuk, obrazlari jonli, tili ravon. Dramada buddaviylik oqimining najoktor shohi – kelajakdagi burxon Maytrining hayot tarzi, faoliyati asosiy o‘rin egallaydi. Umuman, Maytri turkiy qavmlarga begona emasligi, an’anaviy obraz sifatida turkiy afsonalarda yashab kelgani ma’lum bo‘ladi. Shu boisdan bu asarning qadimgi turkchaga tarjima

<sup>36</sup>Qarang: O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Tuzuvchilar filol.f.d. N.Rahmonov, H.Boltaboev. 1-jild, Toshkent, «Fan» nashriyoti, 2003, 13-14-betlar.

qilingani ham tabiiy holatdir.

“Maytri smit” qo‘lyozmasining topilishi tarixi qiziq tasodif bilan bog‘liq. Asarning mazkur qo‘lyozmasi Qumul nusxasi deb yuritiladi. Bu nusxa 1959-yili Xitoy Xalq Respublikasining Uyg‘ur avtonom respublikasi Qumul tumanidan Qorg‘ayliq adiridan topilgan. Qo‘lyozmani Bahyor ismli bir chorvador mol boqib yurib topib olgan. Asarning qo‘lyozmasi kigizga o‘ralib, toshlar orasiga bostirib berkitib qo‘yilgan ekan.

Shu yili Qumul tumani mas‘ullari uyg‘ur avtonom tumanidagi Shinjon tarix muzeyiga bu qimmatli yozma manbani topshirdilar. Hozirda saqlanayotgan mazkur qo‘lyozma jami 293 varaqdan iborat. Varaqlar hajmi 47,5x21,7 santimetr hajmida. Qog‘ozi qoramtir sariq rangli, qalin. Har bir sahifaning ustida va ostida bo‘sh joylar qoldirilgan va ingichka chiziqlar ustiga qora siyoh bilan chipdan o‘nga qarata tik shaklda eski uyg‘urcha xat chiroyli qilib yozilgan. Har bir sahifada 30-31- qator yozuv bor. Ba‘zi bo‘limlarning boshiga voqyelik o‘rnini ko‘rsatuvchi jumlar qizil siyohda berilgan. Har bir varaqning old beti chap tarafiga kichikroq qilib qaysi bo‘limning nechanchi varag‘i ekanligi ham alohida yozilgan. Bundan tashqari, har bir sahifaning 7-qatoridan 10-qatorigacha bo‘lgan oraliq o‘rtasiga diametri 4-6 santimetr keladigan ingichka doira chizilgan va doiraning ichiga kitob haqidagi qisqa ma‘lumot berilgan.

“Maytri smit”ning mazkur nusxasining 193 varag‘i ichida 110 varag‘i yaxshi saqlangan, qolgan varaqlari zararlangan. Buning ustiga, ba‘zi bo‘limlarning boshi va oxiridagi varaqlari, shuningdek, bir qancha bo‘limlarning oraliqdagi varaqlari yo‘q. Yana 26, 27-bo‘limlarning (ya‘ni pardalarning) o‘rni ham yo‘q. Ba‘zi bo‘limlarning bir necha varaqlari qolgan. Shunga qaraganda, bu nusxa tosh ostida uzoq yillar yotib, ayrim varaqlari chirib ketmasidan avvalroq, ba‘zi varaqlari yo‘qolganga o‘xshaydi.

“Maytri smit”ning Qumul nusxasi Kuchu uyg‘ur xonligi (milodiy 9-13 asrlar)ning yuqori lavozimdagi amaldori Chu Tash Yigan tomonidan xonlikning dastlabki yillarida ko‘chirtirilgan.

**“Maytri smit”ning bag‘ishlov mundarijasi.** Asar **“Yukunch bo‘lim”** (Topinish bo‘limi) bilan boshlanib, 14-varaqdan oldingi sahifada quyidagicha mundarija beriladi:

**Yüküng tört yigirmi patar**

Bo‘lim, o‘n to‘rtinchi varaq

1. Yana madhiya (kuylayman) aytishga loyiq Oyga, orzu qilingan Kunga.

2. Tanlangan yaxshi paytga, qutli-xayrli vaqtga.

3. Qutlug' qo'y yili run (kabisa) uchinchi oyining

4. yigirma ikkinchi kunida men uch fazilatli insonlarga – Ayta

5. Qatchanning ukasi Chu Tash Yigan

6. tutuq(qa), ayolim Tuzun va keyin keladigan

7. Maytri burxon bilan uchrashaylik degan (niyatda)

8. bir Maytri haykalini yasatdik.

9. Maytri smit no'mini ham

10. tamomladik.....

21. Eng avval savobni bag'ishlaymiz

22. Tangri(ga), Bo'gu el bilga Arslon tangri

23. uyg'ur tarxonimiz (ya'ni xonimiz – N.R.) (janobi) oliylariga.

(U) madhiyaga loyiq

24. o'n uyg'ur eli, o'ttiz shahzoda o'g'lони, to'qqiz

25. elchi(ning) donosi, mingta sajdago'ylar(ga), tuman

26. (o'rdasi) ichidagilarga (va) ming tuman yilga

27. qadar elni idora qilib, gullatib-yashnatsinlar.

Bu debocha-bag'ishlovdan mazkur asarning kimga bag'ishlangani oydinlashadi. Bu debochada kitobni ko'chirgan kotib "savob" haqida to'xtalgan. Buddizm aqidasi bo'yicha, Buddha no'mlarini ko'chirish va haykallarni bezatish, burxon suratlarini chizdirish, Buddha ibodatxonalarini yasatish kabi ishlar savob ish hisoblangan edi. Bunday savob ish buddaviylikka e'tiqod qiluvchilarning e'tiqodi, dunyoqarashi bilan bog'liqdir.

"Maytri smit"ning 1, 3, 10, 12, 16, 20, 23, 25-sahnalarining saqlanib qolgan oxirgi varaqlaridagi xotimalarda eski uyg'ur-turk yozuvidagi bu asarning qaysi tillardan va kimlar tomonidan tarjima qilingani aniq eslanadi. Jumladan, 3-sahna xotimasini misol qilib keltiramiz:

19. *Borliq kitoblarni (ya'ni bilimlarni –N.R.) puxta o'rgangan va tadqiq qilgan, 20. Voybosh kitoblarni o'rgangan Ochyochantri bo'disatv*  
21. *Ustoz Anatkak (sanskrit) tilidan tuxri tilida 22 yaratgan, Partaraks-hit Qirmovorshiq tuxri 23. tilidan turk tiliga tarjima qilgan Maytri smit*  
24 *no'm bitigida...Aniriti arxantning 25. timsoli nomli uchinchi bo'lim tugadi.*

Bu ma'lumotdan shunday fikr paydo bo'ladiki, sanskrit nusxasi asl nusxadir. Ochyochantri bu asarning sankrit tilidagi nusxasiga asosan, tuxri tilidagi tarjimasini yaratgan. Partarakshit esa tuxri tilidagi nusxasidan qadimgi turkchaga tarjima qilgan.

**“Maytri smit”ning nusxalari tarjimasi haqidagi bahslar.** “Maytri smit”ning eski uyg'ur-turk yozuvidagi boshqa nusxalari ham bor. Germanyalik turkolog A. Fon Gabening ma'lumotlariga qaraganda, yana eski uyg'ur-turk yozuvidagi olti nusxa bor. Bu olti nusxadan ikkitasi Sharqiy Turkistonning Sangim degan qishlog'idan, ikkitasi Murtuq degan qishlog'idan topilgan. Ikkitasining qayerdan topilgan ma'lum emas.

A.fon Gaben 1957-yili Maynz Fanlar akademiyasida saqlanayotgan parcha varaqlarining (114 varaq) Futu nusxasini, 1961-yili u yana Berlin Fanlar akademiyasida saqlanayotgan parchalar va varaqlarning (114 varaq) Futu nusxasini e'lon qildi. Gaben “Maytri smit”ni Kuchu xonligining ilk davrida tarjima qilingan deb qaraydi. Olmon olimi Le Kok asarning Sangim nusxasiga asoslangan holda, VIII-IX asrlarda qadimgi turkchaga tarjima qilingan deb qaraydi. Gaben bu nusxa IX asrda ko'chirilgan, tarjima qilingan davri oldinroq, deb aytadi. Fransuz olimi Xamilton Germaniyada saqlanayotgan nusxaning (Gaben nashr qilgan nusxaning) paleografik xususiyatlariga asoslanib, Dunxuandan topilgan eski uyg'ur-turk yozuvi yodgorliklarining xat uslubini o'zida ifoda etishini aytadi va “Maytri smit” tarjimasi X asrga oid, deb qaraydi. Xitoy olimi Fing Shyo Shing esa Kumul nusxasiga tayangan holda, bu asar X-XI asrda tarjima qilingan, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Turk olimi Shinosi Tekin Qumul nusxasining 219-sahifasidagi nomi tilga olingan Klapratri (sanskritcha so'z bo'lib, “Oq ko'ngilli avliyo” yoki “Oliyjanob donishmand” ma'nosida) ismining qo'llanganini dalil qilib ko'rsatar ekan, bu ism Turfondagi ibodatxona peshtoqiga yozilgan sadaqachi bilan bir odamdir, deb qaraydi. U Qumul nusxasining xati alohidaligini ta'kidlab, VIII-IX asrlarda tarjima qilingan, degan fikrni aytadi. Yana bir xitoy olimi Geng Shiminning bu asar tarjimasi haqidagi qarashi Shinosi Tekinniki bilan bir. Xullas, hanuzgacha bu asarning qachon yaratilgani to'g'risida jahon turkologiyasida yakdil fikr yo'q<sup>37</sup>.

Tadqiq etilayotgan mazkur Qumul nusxasining xat uslubi bir qadar qadimiyroqdir. Bu nusxa Mayli Partonrakshit tarjima qilgan eski uyg'ur-turk yozuvidagi Tunji nusxasidan ko'chirtirilgan. Tarjima nusxaga qara-

<sup>37</sup> Bu haqda qarang: Uyg'urcha «Maytri smit». Shinjong xalq nashriyoti. 1986. 4-b.

ganda Qumul nusxasining vaqt jihatidan keyin ko‘chirilgani tushunarli. Shunga ko‘ra, Qumul nusxasi VIII asr o‘rtalarida tarjima qilingan deb qarash o‘rinli.

**“Maytri smit”ning tarjimoni haqida.** “Maytri smit”ni qadimgi turk tiliga tarjima qilgan Partonrakshit o‘z ona tili – qadimgi turk tilini mukammal bilishi bilan bir qatorda, tuxri tilini ham nihoyatda yaxshi biladi. Asarning tili ravon, go‘zal, badiiy tasvir vositalari xilma-xil, kitobxonni zeriktirmaydi. Tarjimon asarni tarjima qilishda har doim kitobxonni ko‘z oldida tutgani ayon bo‘ladi. Asarni o‘qish jarayonida kitobxon shunga amin bo‘ladiki, tarjimon Partonrakshit qadimgi turkiy tilni yaxshi bilishi bilan birga, ijodkor ekanini ham namoyon qila olgan. Chamasi, u tarjimonlikdan tashqari, badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Ijodiy jarayonda muvaffaqiyat qozongan Partonrakshit tarjimada ham o‘z iqtidorini ko‘rsatgan. U “Oltun yorug‘”ning tarjimoni Seni Seli singari yetuk til ustasi bo‘lgan. Tarjimonning Partonrakshit Qirmorovshiq degan taxallusidan shuni anglash mumkinki, u buddaviylikka qattiq e‘tiqod qo‘ygan va buddaviylik bo‘yicha katta olim bo‘lgan, shu bois o‘zi turkiy qavmdan bo‘lgani holda, sanskritcha taxallusni olgan.

**“Maytri smit” va xinayana mazhabi.** “Maytri smit” buddaviylikning *xinayana* mazhabiga mansub asardir. Xinayana – “kichik g‘ildirak” ma‘nosini bildiradi. Buning ma‘nosi - “kichik yoki quyi yo‘l, zarar yetgan yo‘l” yoki “tor yo‘l” deganidir. Maxayana va xinayana - birbiridan tamomila farq qiladigan mazhablardir. Xinayana mazhabining asosi mavjudlikning ikki holati – zohiriylik va botiniylik haqidagi g‘oya, shuningdek, zohiriylikning *darma* bilan o‘xshashligi haqidagi g‘oyadir. Xinayanada “Men” va olam – darmaning tezlik bilan o‘tib ketadigan kombinatsiyasi ekaniga urg‘u qaratadi. Xinayananing diqqatga sazovor xususiyati shuki, u ruhni mustaqil ruhiy mohiyat sifatida inkor qiladi.

Xinayanada shaxsning kamolotga erishgan ideali – arxat bo‘lib, boshqalarning kamolotga erishuviga unchalik e‘tibor qaratilmaydi, balki komillikka hamma mustaqil ravishda erishadi, deb qaraladi. Xinayanada Buddha – komillik orzusi va ustozlari, taqlid va e‘zozlash ob‘ektidir. Garchi xinayanada Buddani ilohiylashtirish bor bo‘lsa ham, unda biron murakkab kult aslo yo‘q, kultlar monaxlik jamoasidagi hayot bilan almashtirilgan.

Xinayana ta‘limotiga muvofiq, nirvonga faqat budda monaxlari erishadilar. Dunyoviy odamlar, bu ta‘limotga ko‘ra, oliyjanob ishlari

orqali o'z karmasini yaxshi tomonga o'zgartirishlari lozim. Bu mazhab ta'limotiga muvofiq, dunyoviy odamlar o'z hayotlari davomida monax bo'lishlari mumkin.

Tuxricha nusxalardan birida asarning nomi "Diraxmanataka" ("Maytri smit no'm bitigi") deb ko'rsatilgan. Asar muloqot (dialog) asosiga qurilgan. Zotan, badiiy asarning bir turi bo'lgan drama janri qonuniyatlari sanskrit adabiyotshunosligida ishlab chiqilgani shundan ham ma'lum bo'ladi. Shuningdek, asarning adabiy turlardan dramaga mansub ekanini "ko'runch" (ko'rinish) so'zining bir necha marta uchrashi ham dalillab turadi. "No'm bitigi" termini keng ma'noda qo'llangan bo'lib, "hikoya so'zlash" deganidir.

**"Maytri smit"ning "Yukunch" bo'limi.** Endi "Maytri smit"ning "Yukunch" bo'limi (ta'zim, topishi) va 1-2 sahnalari qisqa mazmuni bilan tanishamiz.

**"Yukunch" bo'limi** asarning kirish qismi bo'lib, 14 varaqdan iborat. Garchi bu bo'limda ayrim sahifalar zararlangan bo'lsa ham, obrazlilik, ta'sirchan timsollar orqali Tangri burxon (Shakyamuni)ning ilohiy karomatlari mahorat bilan ifodalangan, xinayana mazhabiga oid terminlar bor tafsiloti bilan sharhlangan. "Yukunch"ning mazmuni sinchkovlik bilan bayon qilingan. Ko'hna Hindistondagi, Ko'chudagi va Sulmu (Qorashahar)dagi mashhur buddaviylik ustozlari hurmat bilan ta'rif va tavsif qilingan. Shuningdek, ko'chiruvchi kotib bu nusxani xon va uning jamoatiga, o'zining ota-onasiga, urug'-aymog'iga, farzandlariga bag'ishlaganini va hammaga yaxshi tilaklarini bayon qilgan.

**Birinchi pardaning mazmuni. Birinchi parda** 32 sahifadan iborat. Ayrim varaqlar yo'qolgan. Saqlangan sahifalarga qarab, mazkur pardadagi voqealarni ikki qismga ajratish mumkin. Pardaning birinchi varag'i shunday jumla bilan boshlanadi: "Endi bu no'mliq so'zni Rachagri shahar davlatida o'qish kerak" degan voqea yuz beradigan joy bayon qilindi. Shundan so'ng uchta sarkardaning muloqoti orqali *birinchi ko'rinish* boshlanadi. Ular osmondagi yo'ldan uchib kelayotib, Shakyamuni burxon baxtini topishga muyassar bo'ladilar, ya'ni buddaviylikka yetishadilar. Ular Posang tog'ida no'm va'z qiladilar, o'zlarining yaqinlarini tashlab, budda rohibi bo'lganlarini, Maytri ham xursand holda, o'z ustozlari Badari braxmon bilan Posang tog'iga Tangri burxon yoniga borib, uning shogirdi bo'lganini, ko'p odamlar Maytri ruhoniylar martabasiga erishganini eshitib, bu marosimni ko'rishga ketayotgani haqida suhbat qiladilar.

Uchala sarkarda ham shu marosimga ketayotganlari to'g'risida o'zaro suhbatlashadilar. Shu bilan birinchi ko'rinish nihoyasiga yetadi.

*Ikkinchi ko'rinish* yettinchi sahifadan boshlanadi. Varaq zararlangan. Voqea o'rmi quyidagicha bayon qilinadi: "Endi bu no'mliq so'zni Dogsanapot...Badari dono braxmon...o'lkasida o'qish kerak". Badari braxmon besh yuz shogirdi qurshovida Maytrining qo'lini ushlagan holda so'zlash bilan bu parda boshlanadi. Bu sahnada, asosan, Tangri burxon Shakyamunini ko'rish uchun tangrining elchisidan Badari braxmonga vahiy kelgani bayon qilinadi. Kunlarning birida kechqurun Tangri elchisi Purnabatri tangri, egnidagi zeb-ziynat buyumlaridan nur chaqnatotgan holda, Badariga zohir bo'ladi. U Shakyamuni buddaga aylanishiga oid ajoyib ishlar to'g'risida so'zlaydi va Badariga, Shakyamunining oldiga bor, deb da'vat qiladi. Badari Shakyamuni huzuriga borishni va uni ko'rishni istasa ham, xasta bo'lib qolgani sababli Tangri burxonni ko'rishga borolmaganidan hasrat chekadi. Purnabatri unga, sog'lig'ingni asra, umidsiz bo'lma, Tangri burxon qutqaradigan jonzotlar, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, sening orzuvingni qondiradi, deya unga tasalli beradi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu paytda asta-sekin tong ota boshlaydi. Shu bilan ikkinchi parda oxiriga yetadi. Parda oxirida "Maytri smit no'm bitigida Badari pratmani nazr qilish" nomli birinchi bo'lim tugadi", degan jumla bilan pardaning oxirlangani uqtiriladi.

**Ikkinchi pardaning mazmuni.** *Ikkinchi parda* 17 varaqdan iborat. Bu parda ham zararlangan va bir necha varaq yo'q. Bu parda birinchi pardaga tabiiy ravishda bog'langan bo'lib, pardaning boshlanishida "Endi bu no'mluq so'zni Badari braxmonning uyidan o'qish kerak" deb voqyelik o'rmi ko'rsatiladi. Bu parda to'rt ko'rinishga ajraladi. *Birinchi ko'rinishda* Maytri o'n olti shogirdini boshlab Badarining uyiga tong saharda keladi. Ular ustozidan hol-ahvol so'rganlaridan keyin, Tangri burxon Shakyamunining huzuriga borib, budda dini rohibi bo'lmoqchimiz, deb Badaridan ijozat so'raydilar. Badari ularga, kechasi Tangri elchisidan menga vahiy keldi, ammo uzoq yo'l bosib Tangri burxon huzuriga borishga sog'lig'im imkon bermaydi, deb uzrini aytadi. Maytri shogirdlariga Tangri burxonning o'ttiz ikki xil baxt-saodatli alomatini birma-bir aytib beradi va ularga quyidagicha uqtiradi: "Shakyamunining huzuriga borganingizda, birinchi navbatda, uning o'ttiz ikki xil alomatiga diqqat bilan qarasangiz, keyin undan murakkab masalalar to'g'risida so'rasangiz bo'ladi. Agar uning o'ttiz ikki alomati mukammal bo'lsa, u

sizlarning savollaringizga to‘liq va to‘g‘ri javob bersa, uning shogirdi bo‘la olasizlar”. Shundan so‘ng ular ustoz Maytridan uzr so‘rab, xayr-lashib chiqib ketadilar. *Ikkinchi ko‘rinishda* Maytri ustoz Badarini qol-dirib ketadi, Tangri burxon yoniga borishga otlanmoqchi bo‘lgan xalqlar turli tomondan yig‘ilib kelib, sizdan ayrilishga ko‘zimiz qiymayapti, deb Maytriga hurmatlarini bajo qiladilar. Xalqlar Maytriga shunday deya xitob qiladilar: “Ey qut Tangri, pok braxmon, Azrua tangri! Ey jamiki jonzotlarning umid-ishonchi! Ey butkul Doksonpot elining iftixori! Siz nega bizni tashlab ketmoqchisiz?” Maytri ularga: “Bu olamning qonuni aslida shunday, uzoq zamonlardan beri jonzotlar shodlikka to‘lib kelgan bo‘lsalar ham, bir kun kelib hamma suyuklilar bir-biridan ayriladilar”, deb mehribon ota singari ularga nasihat qiladi, xalqlarga tasalli beradi va “hasrat chekmasdan umidvor bo‘linglar”, deb da‘vat qiladi. Xalqlar Maytrining so‘zlaridan qattiq ta’sirlanadilar. Ming-minglab odamlar qat’iy qaror qilib, ota-onalarini, mol-mulkini tashlab, Maytriga ergas-hadilar.

*Uchinchi ko‘rinishda* safar manzarasi tasvirlanadi. Maytriga ergash-ganlar safar paytida katta shaharlardan o‘tadilar va shaharlar aholisining hurmatini qozonadilar. Maytrining muxlislari o‘rmonlardan va dalalar-dan o‘tganlarida, arslon, yo‘lbars, fil singari jonzotlar ham xuddi qo‘lga o‘rgatilganday yuvosh bo‘lib qoladilar. Fillar xartumlarida nilufar gul-larni Maytriga olib kelib, unga hurmat bajo qiladilar. Arslon, yo‘lbarslar yer bag‘irlab yotib, Maytrining tovonini yalaydilar va gunohlari uchun tavba qiladilar. Oxirida Maytri singari odamlar birin-ketin qiyinchiliklar-ni, xavf-xatarlarni yengib, uzoq yo‘l bosib, nihoyat, Posang tog‘iga yetib keladilar. Qisqasi, bu ko‘rinishda Maytri kelajakdagi burxon bo‘lishiga oid ilohiy karomat beriladi.

*To‘rtinchi ko‘rinish* Tangrilar tangrisi burxon Posang tog‘ida Tangri jamoati orasida arslon shaklidagi taxt ustida o‘tirib, no‘m va‘z qilayot-gani bilan boshlanadi. Maytri va uning muxlislari, shogirdlari bu yerga yetib kelganlaridan keyin, burxonning o‘ttiz ikki xil alomatiga diqqat qiladilar. Maytrining atrofida gilar burxonga hamdu sano o‘qiydilar. Ularning har biri ko‘ngliga ma‘qul kelgan qiyin masalalar to‘g‘risida so‘raydilar. Tangri burxon ularning savollariga to‘liq va to‘g‘ri javob beradi. Maytri ham burxonga tahsinlar o‘qib, unga ta‘zim bajo qiladi va hurmatini bildiradilar. Shu paytda olam olti xil tebranadi. Butun ko‘k yu-zini tangrilar qoplaydi. Posang tog‘idan kelgan “Tangri burxon no‘mida



oliyjanob Maytri ruhoniylar bo'ldi!" degan sadolar hamma yoqda yangraydi. Jamiki jonzotlar shod bo'ladilar. Bu ko'rinish oxirida Maytri boshchiligidagi qirq tuman yangi ruhoniylarga yorliq keladi va "tana, til va dil bilan yaxshi ish qilinglar, savob ish qilinglar, burxon yorlig'ini bajarishga harakat qilinglar", deb topshiriqlar beradi. Shundan keyin Maytri "Men endi boshqa jonzotlarni qutqargani boraman", deb e'lon qiladi.

Ikkinchi parda "Maytri smit no'm bitigida Maytri bo'disatvning ruhoniylar bo'lishi nomli ikkinchi bo'lim tugadi" degan jumla bilan oxiriga yetadi.

**Uchinchi pardaning mazmuni. Uchinchi pardaning 13 varag'i** saqlanib qolgan. Dastlabki besh varaq yaxshi saqlangan. Bu pardada, asosan, Shakyamuni va uning in'ikosi Mohpirchoponi Govtomi xotuning burxon Shakyamuniga oltin rangli bo'z mato to'qishi voqeasi bayon qilingan. Bu pardani mazmunan ikkiga bo'lish mumkin. Pardaning boshlanishida voqealar o'rni quyidagicha ko'rsatiladi: "Endi bu no'mluq so'zni Koplovastu shahridagi Nigudoram nomli sangram (ibodatxona) dn o'qish kerak".

*Birinchi ko'rinish* Tangri burxon Koplovosti shahriga qachon yetib kelishini so'rash uchun Potni qizi Nigudoram sangramiga kelganini Govtomi xotun hikoya qilishi bilan boshlanadi. Sangramdan bir ayol chiqib, undan, nima ish bilan keldingiz, deb so'raydi. U, Govtomi xotunni xabar olib kel, deb yubordi, u yana shularni aytdi: "Govtomi xotun suyukli o'g'ilga to'n tikib kiydiraman, deb o'z quli bilan birga urug' sochdi, o't terib, paxta titdi, bulardan ip yigirib, oltin rangli bo'z to'qidi, Shakyamuni bu yerga kelganda, unga shu bo'zdan to'qilgan to'nni hadya qilaman deb aytdi". Ikkalasining suhbatidan yana shular ma'lum bo'ladi, Tangri burxonning no'mini anglashga muvassar bo'lolmagan shaki urug'idagi erlar, xotinlarimizning besh xil ayb bor deb kamsitilayotgan ekan. Ammo Tangri burxon ayollarga ham no'm va'z qilib: "Bu ayollarning besh xil fazilati bor", deb maqtangani pesa matnidan ma'lum bo'ladi. Ikkala ayol qizg'in suhbat qilayotganlarida, Borsudaro xotun kirib keladi va "Yosudaro xotun ham bo'z to'qib, Tangri burxonning kelishini kutyapti", deb xabar beradi. Shaki urug'i beklari bu xabarlarni eshitib xursand bo'ladilar. Birinchi ko'rinish shu voqea bilan tugaydi.

*Ikkinchi ko'rinish* Govtami xotun shaki urug'idan besh yuz ayolni atrofiga yig'ib, oltin rangli bo'z to'nni qo'lida ushlab, Yosudaro xotunga so'zlab turgani haqidagi voqea bilan boshlanadi. Ular, hademay Tangri

burxon bilan ko‘rishamiz, unga o‘zimizning sovg‘alarimizni hadya qilamiz, deb hayajon bilan gapiradilar. Ular xursandlik bilan o‘tgan ishlarni esga oladilar. Shu paytda ular Tangri burxon xuddi quyoshday nur taratib, shaki urug‘idagi beklar davrasida to‘rda o‘tirganini ko‘radilar. Govtomi xotun o‘zi tikkan to‘nini Tangri burxonga tutadi. U nihoyatda chiroyli so‘zlar bilan, qo‘limni qaytarmang, deb iltimos qiladi. Tangri burxon esa Govtomi xotunga, bu to‘nni boshqa rohib jamoasiga sadaqa qiling, bu to‘n Maytrining qo‘liga yetib boradi, Maytri esa menga in‘om qiladi, deb sovg‘ani olmaydi. Govtami xotun, sovg‘amni oling, deb qattiq iltimos qiladi. Tangri burxon shirin so‘zlar bilan uning sovg‘asini qabul qilolmasligini tushuntiradi va boshqalarga sadaqa qilib bersangiz, ko‘p foydali bo‘ladi, deb buddaviylik aqidalari bo‘yicha savobning mohiyatini sharhlab tushuntirib beradi. Atrofdagi turganlar Tangri burxonning bu so‘zlaridan qattiq ta‘sir lanib, nihoyatda mamnun bo‘ladilar. Ikkinchi ko‘rinish shu bilan tugaydi.

Xullas, “Maytri smit” pesasi sanskrit adabiyotida buddaviylik aqidalarini yoyish va shu orqali insoniyatni komillikka yetaklashda katta xizmat qilgan asardir. Asarning ikki sahnasidagi voqealar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, butun bir davrlarni va avlodlarni to‘g‘rilik, sobit e‘tiqod ruhida tarbiyalash katta muammolar sifatida qo‘yilgan. Turkiy qavmlar orasida “Maytri smit”, xuddi “Oltun yorug‘” singari, keng tarqalgani hamda badiiy adabiyotning noyob namunasi sifatida shuhrat qozongani ma‘lum bo‘ladi. Shuningdek, sanskrit adabiyotshunosligining, xususan, adabiy turlar va janrlarning qadimgi turkiy adabiyotshunosligiga ta‘siri to‘g‘risida ham so‘z yuritishga mazkur pesa turtki beradi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Maytri smit”ning qadimgi turkiy adabiyotdagi o‘rni haqida qisqacha so‘zlab bering.
2. “Maytri smit”ning bag‘ishlovi mazmuni.
3. Pesaning tarjimalari tarixi haqida qisqacha so‘zlang.
4. Nechanchi asrda tarjima qilingani haqiqatga yaqinroq?
5. Xinayana mazhabining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
6. Birinchi pardada qanday voqealar haqida so‘z ketadi?
7. Ikkinchi pardada-chi?
8. Uchinchi pardaning mazmunini so‘zlab bering.

## “O‘g‘uznoma” dostoni

### Reja:

1. “O‘g‘uznoma”ning o‘rganilishi.
2. “O‘g‘uznoma”da mifologiya.
3. “O‘g‘uznoma”da uch qavatli olam modeli.
4. “O‘g‘uznoma”da tush motivi.
5. “O‘g‘uznoma”da rang va inonch e‘tiqodlar.
6. O‘g‘uz xoqon haqidagi dostonlarning qiyosiy tahlili.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *kitobiy epos, eski uyg‘ur-turk yozuvi, doston, shomonlik mifologiyasi, syujet, kosmogonik mifologiya, uch qavatli olam modeli, obraz, qadimgi turkiy yodgorliklar.*

**“O‘g‘uznoma”ning o‘rganilishi.** “O‘g‘uznoma” dostoni qadimgi turkiy adabiyotning, xususan, kitobiy eposning bir namunasi bo‘lib, turkiy xalqlarning mushtarak merosidir. Bu doston “O‘g‘uz xoqon haqida doston” degan nom bilan ham yuritiladi. “O‘g‘uznoma” dostoni eski uyg‘ur-turk yozuvida ko‘chirib qoldirilgan va hozirda Parij milliy kutubxonasida saqlanadi.

Dostonni o‘rganishni 1815-yili nemis olimi Dits boshlab bergan edi. U asarni nemis tiliga tarjima qilib, chop ettirdi. Dostonni o‘rganishda va turli tillarga tarjima qilishda olmon olimi V.V.Radlov, turk olimi Rizo Nur, fransuz olimi V.Bang, rus olimi A.M.Shcherbak, X. Ko‘rug‘li, o‘zbek olimi N. Rahmonov, qozoq olimi Q. O‘miraliev va boshqalarning xizmatlari katta. “O‘g‘uznoma” dostoni bo‘yicha ish olib borgan olimlarning aksariyati bu obrazning tarixiga e‘tibor qaratadilar. O‘g‘uz xoqon timsoli ostida tarixiy shaxs yotadi, degan olimlarning fikrlari ham bir xil emas: N.Ya.Bichurin - xun hukmdori Mode bilan, V.V.Radlov va Rizo Nur - Buqaxon bilan, I.Markvart, D. Sinor - Chingizxon bilan bog‘laydilar. “O‘g‘uznoma” dastlab og‘zaki aytilgan, XV asrda eski uyg‘ur-turk yozuvida bitilib qoldirilgan. U xalq og‘zaki ijodi mahsuli, ammo tarixiy shaxslar epos qahramonlari sifatida paydo bo‘lishiga misollar ko‘p. Shuningdek, O‘g‘uz xon ham mil.ol. III asrda Xun tangriqutligini qudratli davlatga aylantirgan Botir tangriqutning prototipi deb qaraymiz.

**“O‘g‘uznoma”da mifologiya.** “O‘g‘uznoma” dostonining asosini shomonlik mifologiyasi bilan bog‘liq motivlar, obrazlar tashkil qiladi. Zotan, mifologiya sinkretik xususiyatga ega bo‘lib, ibtidoiy insonning ham ilmiy, ham diniy va ayni paytda, ham badiiy qarashlarini mujassamlashtiradi. Dostonda O‘g‘uzxonning tug‘ilishi shunday tasvirlanadi: “Shunday bo‘lsin dedilar. Uning qiyofasi shundaydir (Shu joyda buqa yoki yirtqichning surati berilgan). Shundan so‘ng sevindilar. Kunlardan bir kun Oy xoqonning ko‘zi yorib bolaladi, o‘g‘il tug‘di”. Mazkur parchadan ko‘rinib turibdiki, O‘g‘uzning tug‘ilishida va uni dunyoga keltirgan Oy xoqon timsolida mifologik mazmun mujassamlashgan. Oy xoqon timsolida akkad va shumerlar tangrilarining onasi Ishtarini ko‘rish mumkin. Bu tangri timsolida onalik urug‘idan otalik urug‘iga o‘tish davri aks etganligini ta’kidlash lozim. Qadimgi turkiylar tasavvuriga ko‘ra, Quyosh – erkaklik ibtidosi, Oy – ayollik ibtidosidir. Yoqut tilida “Oy (Ay)” so‘zi yaratmoq, borliqqa keltirmoq ma’nolarini bildiradi. Shunga muvofiq, Oy hoqonni “yaratuvchi” sifatida talqin qilish ham mumkin.

Dostondagi diqqatga sazovor yana bir mifologik motiv O‘g‘uzning o‘rmonda bahaybat yirtqich bilan kurashuvidir. Bu kurash motivining ildizi Markaziy Osiyodagi qavmlar epik ijodidagi ezgu va yovuz ruhlar o‘rtasidagi kurashga borib taqaladi. Jumladan, “Avesto”dagi yovuzlik timsoli bo‘lgan Axriman bilan ezgulik timsoli Xurmuzdning kurashi bunga misol bo‘la oladi. Zardushtiylikdagi ayni shu aqida moniylik adabiyotida ham bor. “Xuastuanift”ning boshlanmasidagi Xo‘rmuzd bilan Shmnuning kurashi buning bir namunasi.

“O‘g‘uznoma”dagi O‘g‘uzning yirtqich bilan kurashi ertaklardagi kurash motivini yodga soladi. O‘g‘uz yirtqichni qo‘lga tushirish uchun birinchi kuni, bug‘uni, ikkinchi kuni ayiqni daraxtga bog‘lab ketadi. Uchinchi kuni esa O‘g‘uz o‘zi yolg‘iz daraxt tagiga borib o‘tiradi va yirtqichni yengadi. yer yuziga yovuzlik urug‘ini sochgan yovuz timsol – ana shu yirtqich, O‘g‘uz esa ezgulik timsolidir.

O‘g‘uzning tug‘ilishidan yirtqichni o‘ldirgunga qadar bo‘lgan lavha mifologik syujet asosiga qurilgan bo‘lib, bu birinchi qatlamni – mifologik qatlamni hosil qiladi. “Avesto”dagi ezgu va yovuz ruhlar o‘rtasidagi kurash g‘oyasi va ezgulikning g‘alabasini ham, zardushtiylikning ta’sirini ham, ertaklar sxemasini ham ana shu birinchi qatlamda uchratish mumkin.

Ikkinchi qatlam epos xususiyatlariga xos syujetlardan tashkil topgan. O'g'uz xonning uylanishi bilan bog'liq voqealar shundan dalolat beradi. "Kunlardan bir kun O'g'uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorayotgan edi. Qorong'u tushganda, ko'kdan bir ko'k nur tushdi. Quyoshdan yorug', oydan yorqinroq edi. O'g'uz xoqon u tomonga yurdi. Ko'rsaki, o'sha yorug'likning orasida bir qiz bor edi. Boshida otashga o'xshash yorug' bir xoli bor edi. Xuddi oltin qoziq yulduziga o'xshash edi. U qiz shunday chiroyli ediki, kulsa ko'm-ko'k osmon kulardi, yig'lasa, ko'm-ko'k osmon yig'lardi". Qadimgi turkiy kosmogonik mifologiyasiga binoan, Tangri (osmon) yaratuvchidir. Kosmogonik mifologiya ibtidoiy inson olamning qurilishi, koinotning yaralishi, odamning paydo bo'lishi haqida tasavvurlari samarasidir. Shubhasiz, hozir bizga ma'lum bo'lgan va oddiy hol bo'lib ko'ringan hodisalar ular uchun g'ayritabiiy edi. Tangridan, ya'ni osmondan tushgan qizdan O'g'uz xon uch o'g'il ko'rdi va ularning ismlarini ham kosmogoniyaga bog'liq holda Kun, Oy, Yulduz deb qo'ydi.

**"O'g'uznoma"da uch qavatli olam modeli.** O'g'uz xonning ikkinchi ayolga uylanish lavhasi ham kosmogonik mifologiyani o'zida ifodalaydi. Shu bilan birga, bu lavhada uch qavatli olam modeli o'z ifodasini topgan. "Kunlardan bir kun O'g'uz xoqon ovga ketdi. Bir ko'kning o'rtasida, o'z qarshisida bir daraxt ko'rdi. Bu daraxtning ostida bir qiz bor edi, yolg'iz o'tirar edi. Chiroyli bir qiz edi. Uning ko'zlari ko'k edi, uning tishi inju edi. Shunday chiroyli ediki, oh-oh, o'laman, deb sutni qimizga aylantirardi». O'g'uz xoqon bu qizga uylanib, undan ham uch farzand ko'rdi va Ko'k, Tog', Dengiz deya ism qo'ydi.

Bu ismlarda uch qavatli olam modeli o'z ifodasini topgan. Ko'k – yuqori olamni, Tog' – o'rta olamni, Dengiz – quyi olamni ifodalaydi. "O'g'uznoma"dagi uch qavatli olamning ibtidosi daraxt kultidadir. Jahon mifologiyasida "olam daraxti" yoki uning bir varianti bo'lgan "hayot daraxti" *hosildorlik daraxti, markaz daraxti, samoviy daraxt, bilish daraxti, shomonlik daraxti* va h. nomlar bilan yuritiladi. Ma'no hamda vazifa jihatdan esa turlichadir: olam o'qi, olam ustuni, dunyo tog'i, birinchi inson va b. Dunyo mifologiyasida daraxt kultining gorizont va vertikal ma'noda o'ziga xos ma'nolari ham bor<sup>38</sup>.

<sup>38</sup> Древо мировое. – Мифы народов мира. М.: 1991, том 1, с. 399-400; Батафсил маълумот олиш учун яна қаранг: Журкаузиёв Н. *Мировое древо* в литературе и фольклоре тюркских народов. – "Тил ва адабиёт таълими. Преподавания языка и литературы" ж.,. 2015 йил. 6-сон. 61-62-б.

“O‘g‘uznoma”dagi daraxt kulti, xususan, O‘g‘uzxonning ikkinchi xotining daraxt bilan bog‘langani shundan dalolat beradiki, bu kultda nikoh munosabatlarining umumiy modeliga aloqadorligini anglash mumkin. Kengroq ma‘noda olib qaralsa, avlodlarning vorisiylik aloqalari, yoki umuman olganda urug‘larning nasabnomasini ifoda etadi. Daraxt kultidan kelib chiqqan qizdan tug‘ilgan farzandlar - Ko‘k, Tog‘, Dengiz ismlari va ular anglatgan uch qavatli olam modeli nasabnomaning davomiyligi bilan birga, hayot daraxtining gorizontal va vertikal tuzilishini anglatadi. O‘g‘uz xonning har ikkala xotinidan tug‘ilgan o‘g‘illar ismi shunday tuzilish borligiga ishora qiladi. Aslida daraxt kultida uch qavatli olamning asosiy hududlari – yuqori (samoviy shohlik yoki Ko‘k), o‘rta (yer yoki Tog‘), quyi (yer osti shohligi yoki Dengiz) aks etgan deb, qarash maqsadga muvofiqdir. Qadimgi turkiy kosmogonik mifologiyasining mazkur ko‘rinishi qadimgi turkiylarda fazoviy olamni kaos, ya‘ni bo‘shliq olamidan ajratadi. Bundan tashqari, “O‘g‘uznoma”dagi kosmogonik mifologiya sxemasi kosmik olamni tartibga keltiruvchi “mifopoeetik” sonlardan iborat. Bu xususiyat *uch* soni ifodasida aniqroq o‘z ifodasini topgan: O‘g‘uzning *uch* kun davomida yirtqichni poylagani voqeasi, O‘g‘uz xon o‘g‘illarining ismida aks etgan vertikal yo‘nalishdagi *uch* qavatli olam, O‘g‘uz xon tushida *uch* kumush o‘qni ko‘rgani, o‘g‘illari topib olgan oltin yoyni *uchga* bo‘lib o‘g‘illariga bergani, Ko‘k, Tog‘, Dengiz yo‘lda *uchta* kumush o‘q topib olganlari va O‘g‘uz xon o‘qlarni *uchala* o‘g‘illariga bo‘lib bergani.

Mifopoeetik davr uchun olam daraxti yana shunisi bilan diqqatga sazovorki, u koinot (makrokosm) va inson (mikrokosm) o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida yuzaga chiqqan bo‘lib, ularning kesishuv joyi hisoblanadi (*Drevo mirovoe. – Mify narodov mira, tom 1, 405-b.*). “O‘g‘uznoma”da daraxt kultining qizni O‘g‘uz xon eliga keltirish lavhasi ayni shu davrni o‘zida ifoda etadi.

**“O‘g‘uznoma”da tush motivi.** “O‘g‘uznoma”da tush motivi ham doston tuzilishida alohida ahamiyatga ega. Qadimgi turkiylar tushni azaldan kundalik turmush bilan bog‘laganlar. Tush - g‘ayribatli hodisa, Fol kitoblari buning dalilidir. “O‘g‘uznoma”da tush lavhasi quyidagicha ifodalanadi: “Ammo yoddan ko‘tarilmasinki, ma‘lum bo‘lsinki, O‘g‘uz xoqonning yonida oq soqolliq‘, och sochlik, uzun bo‘yli, epchil bir keksa kishi bor edi, uquvli, dono bir odam edi, afsungar edi. Uning oti Ulug‘ Turk edi. Kunlardan bir kun Ulug‘ Turk uyqusida bir oltin yoy ko‘rdi,

yana uch kumush o'q ko'rdi. Bu oltin yoy kun chiqishdan kun botish-gacha tortilgan edi, yana bu uch kumush o'q qorong'ulik tomonga ketar edi. Uyyudan so'ng Ulug' Turk tushida ko'rganini O'g'uz xoqonga bildirdi". Ulug' Turk – shomon, tushni ta'birlash aynan shomonlarga xos. Ulug' Turk tushining ta'birini O'g'uz xoqonga shunday bayon qiladi: "Ey xoqonim, senga uzoq umr ato qilsin. Ey xoqonim, senga davlating buyursin, abadiy ko'k tangri berdi menga tushimda ayon, ezgulik keltirsin, qo'lga kiritilgan yerlarni urug'iga bo'lib bersin, dedi. O'g'uz xoqon Ulug' Turkning so'zini ma'qul ko'rdi".

Tush va uning ta'biri insoniyatning kundalik hayotni va kelajakni bilish haqidagi qarashlari ifodasidir. Ulug' Turkning tushi "O'g'uznoma" dostoni voqealarining yechimini hosil qiladi. O'g'uz xon Ulug' Turkning tushi ta'biriga amal qilgan holda, mamlakatni o'g'illariga bo'lib berdi. Mamlakatni qonun-qoidalar va marosimlarga rioya qilgan holda bo'lib berdi. Zotan, "O'g'uznoma"da mamlakatni o'g'illarga bo'lib berish voqeasi, qadimgi davr an'analarga ko'ra, ma'lum bir udumlarga, urf-odatlar va inonch-e'tiqodlarga tayangan holda amalga oshirildi. Chunki shomon Ulug' Turkning tushi aynan inonch-e'tiqodlarga ishora qiladi.

"O'g'uznoma"ning nihoyasida O'g'uz xoqon udumlar va an'analarga rioya qilgan holda mamlakatni o'g'illariga bo'lib beradi. Yana aytdiki, "Ey mening o'g'illarim, ko'nglim ov qilmoqni istaydi, keksayganim uchun shuhratim yo'qdir. Kun, Oy, Yulduz, tong sariga sizlar boringlar. Ko'k, Tog', Dengiz, tun sariga sizlar boringlar, dedi. Shundan keyin uchovi tong sariga ketdilar, yana uchovi tun sariga ketdilar. Kun, Oy, Yulduz ko'p kiyiklar, ko'p qushlar ovlaganlaridan keyin, yo'lda bir oltin yoyni topdilar, oldilar, otasiga berdilar. O'g'uz xoqon sevindi, kuldi, yana uni uchga bo'ldi. Yana aytdiki, ey inilar, yoy bo'lsin sizlarniki, yoydan o'qlarni ko'kka otinglar, dedi. Shundan keyin Ko'k, Tog', Dengiz ko'p kiyiklar ovlaganlaridan keyin, yo'lda uch kumush o'q topdilar. O'qlarni olib, otasiga keltirib berdilar. O'g'uz xoqon sevindi, kulib yana o'qlarni uchoviga bo'lib berdi. Yana aytdiki, ey inilar, o'qlar bo'lsin sizlarniki. Yoy o'qni otdi. O'qlarday sizlar bo'ling, dedi..."

Oltin yoy – O'g'uz xoqon qo'lga kiritgan davlatlar, uch kumush o'q esa uning kichik xotinidan tug'ilgan uch o'g'li – Ko'k, Tog', Dengiz. Birinchi xotinidan tug'ilgan o'g'illariga - Kun, Oy, Yulduzga yoyni - yer yuzini bo'lib berdi, kichik xotinidan tug'ilgan uch o'g'liga - Ko'k, Tog', Dengizga ishora qilingan tun esa yer osti olamini ifoda etadi. Uchta o'q,

umuman, o'q turkiy mifologiyada buyruqlarni yetkazish uchun foydalanilgan<sup>39</sup>. Bundan kelib chiqadiki, O'g'uz xoqon o'z o'g'illari Ko'k, Tog', Dengizga kumush o'qlarni bo'lib bergan ekan, ularni buyruqchi yoki elchi lavozimiga tayinlagan.

Dunyo mifologiyasida yoy va o'q timsoli keng tarqalgan. Ayniqsa, shomonlik mifologiyasida va shomonlik udumlarida yoy va o'qning muhim roli bor. Masalan, Sibir shomonlari do'mbirasi hali paydo bo'lmagan oldin, marosimlarning asosiy quroli yoy bo'lgan edi. Shomonlar doira chalib o'tkazadigan marosimlar yoy va o'q vositasida o'tkazilgan. Shor, oltoy tillarida shomon "o'qchi", "yoyandoz" ma'nolarini bildiradi.

Mazkur tush motivi dostonidagi o'ziga xos mifologik mazmuni yanada boyitgan. Ulug' Turuk – O'g'uz xon qavmining shomoni bo'lib, ularning alohida vazifasi bor edi. Shomonlar xalqning yoki hukmdorlarning keyingi taqdiridan bashorat qilganlar, ularning maslahatisiz xoqonlar jiddiy ishlarga kirishmaganlar.

**“O'g'uznoma”da rang va inonch-e'tiqodlar.** Eposdagi dastlabki uchraydigan rang O'g'uzning qiyofasiga tegishlidir. O'g'uz tug'ilganda uning rangiga alohida e'tibor beriladi: “Bir kuni Oy xoqonning ko'zi yorib bolaladi. O'sha o'g'ilning yuzi ko'k edi, og'zi otashdan qizil, ko'zlari ayyorona, sochlari, qoshlari qora edi”. Ko'k rang turkiy xalqlarda qadimdan bor bo'lib, ma'lum maqsadni ifodalaydi. Dunyo xalqlari mifologiyasida ko'k rang abadiylik, haqiqat, sadoqat, inonch, donishmandlik kabi ma'nolarni ifoda etadi. Ko'k rangning mazkur ma'nolari O'g'uzning hamma faoliyatida namoyon bo'ladi: abadiylik – yirtqichni o'ldirib, insoniyatga omonlik berishida, haqiqat – yovuzlikni yo'q qilib adolat o'rnatishida, sadoqat – ota-bobolari o'rnatgan an'analarga sodiqligida (mamlakatni o'g'illariga bo'lib berishida), inonch – o'zi barpo qilgan mamlakatni saqlash va mustahkamlash uchun o'z qudratiga ishonib boshqa mamlakatlarga hujum qilib bosib olishida, donishmandlik – boshqa mamlakatlar hukmdorlariga yuborgan maktubi mazmunida o'z ifodasini topgan.

Ko'k rang qadimgi turklar tasavvurida *ilohiy* degan ma'noda qo'llanadi. Ko'k rangning “ilohiy” ma'nosi ildizlari qadimgi turklarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Kul tigin bitikoshidagi Tang-rining *ko'k* rangi O'g'uzning hayotida ham muhim omil bo'lib xizmat

---

<sup>39</sup> Bu haqda qarang: Рахмонов Н.А. Орхоно–енисейские памятники и тюркские эпосы. АДД. Т.: 1991. 35–6.



qiladi. Voqealar bayonida shunday lavha bor: “Kunlardan bir kun O‘g‘uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorayotgan edi. Qorong‘u tushganda, ko‘kdan bir *ko‘k nur* (ta‘kid bizniki –N.R.) tushdi”. Ko‘k rang Tangri (osmon)ning rangi bilan bir. Bu o‘rinda ko‘k nur timsoli qadimgi turklar tasavvuridagi ilohiy nur ma‘nosini anglatadi. Ilohiy nur – yaratuvchi, olamga keltiruvchi ma‘nosidadir.

“O‘g‘uznoma”dagi muhim obrazlardan biri *ko‘k yolli* erkak bo‘ri obrazidir. Ko‘k bo‘ri timsoli qadimgi turkiy yodgorliklardagi ma‘nosini va vazifasini saqlagan. Mazkur bo‘ri ham Tangri (osmon)dan tushgan. Shuning uchun bo‘rining rangi osmon rangi bilan bir xilda. Aslida bo‘ri timsoli bu o‘rinda ahamiyatlidir. Qadimgi xitoy yilnomalarida turkiy qavmlarning bo‘ridan kelib chiqqani haqidagi afsona bor.<sup>40</sup> “O‘g‘uznoma”dagi bo‘ri obrazi Kul tigin bitiktoshidagi bo‘ri timsolining aynan o‘zi – bir ma‘noda va bir vazifada.

Turkiy xalqlar folklorida bo‘ri obrazi an‘anaviy ravishda qadimgi turk davridagi bo‘rini davom ettirgan. Jumladan, boshqird xalq eposlarida ham bo‘ri obrazi qadimgi turk afsonalaridagi xususiyatlarga ega. Jumladan, qadimgi xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, qadimgi turk va mo‘g‘ul xalqlari bayrog‘ida bo‘ri kallasi tasviri tushirilgan. Ona bo‘ridan tug‘ilgan Ashin urug‘i katta iqtidor egasi bo‘lib, davlatni boshqarganlar. Ular qayerga borib o‘mashsalar, o‘sha joyda bo‘rining tasviri tushirilgan bayroqni o‘rnatganlar va bu bilan o‘zlarining kelib chiqishlariga ishora qilganlar. Mo‘g‘ullar ham o‘zlarining ajdodlarini hurmatlab, bayroqlarida bo‘rining oltin kallasini tasvirlaganlar. Mo‘g‘ul afsonalariga ko‘ra, Chingizxon kul rang bo‘ridan kelib chiqqan.<sup>41</sup>

“O‘g‘uznoma” so‘ngida O‘g‘uz xoqon mamlakatni o‘g‘illariga bo‘lib berish marosimini o‘tkazadi. Bu marosim quyidagicha tasvirlanadi: “O‘g‘uz xoqon katta qurultoy chaqirdi, navkarlarini, xalqini chorladi. Hammalari kelib, kengashib o‘tirdilar. O‘g‘uz xoqon katta o‘rdada taxtga o‘tirib, o‘ng yoqda qirq quloch yog‘ochni tikka qildirdi. Yog‘ochning boshiga bir oltin tovuqni qo‘ydi, ostiga bir oq qo‘yni bog‘ladi. Chap tarafga ham qirq quloch yog‘ochni tikka qildirdi. Yog‘ochning uchiga bir kumush tovuqni qo‘ydi. Ostiga bir qora qo‘yni bog‘ladi. O‘ng tarafga buzuklar o‘tirdi, chap tarafga uchuqlar o‘tirdi”.

<sup>40</sup> Qarang: N.Rabon. Turk xoqonligi. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 31-b

<sup>41</sup> Рахмонов Н.А. Орхоно-енисейские памятники и тюркские эпосы. АДД, Ташкент, 1991. 35–6.

*Buzuqlar* – O‘g‘uz xoqonning yoyga egalik qilgan uch o‘g‘li Kun, Oy, Yulduzdan kelib chiqqan qabilalar *buzuq* nomini va laqabini olgan. Buzuqning ma‘nosi – qismlarga bo‘lmoq deganidir. Bu so‘zni shuning uchun ularning laqabi qilib berdiki, yoini bo‘lish imkoni bo‘lsin, zarur bo‘lganda, sindirilsin, dedi va lashkarning o‘ng qanoti ana shu uchala o‘g‘limga va uning nasliga tegishli bo‘lsin, deb tayinladi.

*Uchuqlar* – o‘qlarni olgan uchala o‘g‘ildan kelib chiqqan avloddir. Uchuq – *uch o‘q* deganidir. O‘g‘uz shunday degan edi: “Endilikda ularning nasli men bergan laqabga aloqador bo‘lsin. U lashkarning qaysi qanotidan ekanini hamma bilib qo‘ysin. O‘ng qo‘l yo‘li yuqoridir, shuning uchun men ularga yoini berdim. Ular shoh darajasiga tengdir. Elchi darajasida turadigan o‘qlarni esa chap qanotda turadiganlarga berdim” (*O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, 1 jild, 252–b.*).

**O‘g‘uz xoqon haqidagi dostonlarning qiyosiy tahlili.** O‘g‘uzxon – Sharq adabiyotidagi tarixiy asarlarda ko‘p uchraydigan, ko‘p tilga olinadigan shaxs. Jumladan, Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome‘ ut-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Hofiz Taniş Buxoriyning “Abdullanoma”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida O‘g‘uz hoqon bilan bog‘liq afsonalar o‘z aksini topgan. Mazkur asarlardagi O‘g‘uz xoqon afsonasi va “O‘g‘uznoma” dostoni o‘rtasida bir qancha umumiy va farqli jihatlar mavjud. Yuqorida keltirilgan asarlarning barchasida O‘g‘uz hoqon musulmon sifatida talqin qilinadi. Rashididdin ham, Abulg‘ozi Bahodirxon, Mirzo Ulug‘beklar ham turkiy qavmlarning O‘g‘uzxondan tarqalganini aytib, O‘g‘uz hoqon shajarasini Nuh payg‘ambarga borib taqalishini ko‘rsatadilar.

“O‘g‘uznoma” dostoni bilan sanab o‘tilgan tarixiy asarlardagi O‘g‘uz afsonasi o‘rtasidagi umumiylik va farqlar O‘g‘uzxonning turkiylarga nom berishi bilan bog‘liq voqealarda ham ko‘zga tashlanadi. “Jome‘ ut-tavorix”da ham, “To‘rt ulus tarixi”, “Abdullanoma”, “Shajarai turk”da ham *qipchoq, qorluq, qalach (xalaj), qang* kabi qabilalarning kelib chiqishi haqida rivoyatlar mavjud. Faqat bu rivoyatlar keltirilgan tarixiy asarlarda turlicha bo‘lib, syujetida o‘zgarishlar yuz bergan. Birgina *qang* urug‘ining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarni solishtirib ko‘ramiz. Mazkur rivoyat “O‘g‘uznoma” dostonida quyidagicha berilgan: “... Jangdan so‘ng O‘g‘uz xoqonning qo‘shiniga, navkarlarigayuu xalqiga shunday katta o‘lja keldiki, ularni o‘lib ketishga ot, xachir, ho‘kiz kamlik qildi. O‘g‘uz xoqonning qo‘shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi

odam bor edi. Uning oti Barmaqliq Jusun Bilik edi. Bu chaqqon odam bir qang‘a chopti. Qang‘a ustiga mol-mulklarni yukladi, qang‘a boshig‘a tirik boyliklarni yukladi, jo‘nab ketdilar. Navkarlarning, xalqning hammasi buni ko‘rdilar, shoshdilar. ... O‘g‘uz xoqon qang‘alarni ko‘rdi, kuldi. Yana aytdiki, qang‘a bilan boylikni ezgulik tortib borsin, qang‘alik senga ot bo‘lganligini «qang‘a» so‘zi bildirsin, deb o‘z yo‘liga ketdi.” (*O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, 1 jild, 252–b.*)

Aynan shu etnologik mif Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”da quyidagicha berilgan: “Ammo, qangli aqlilik, farosatlilik ma’nosidadir. Chunonchi, bir jangda O‘g‘uzxon qo‘liga juda ko‘p boylik o‘lja tushgan edi. G‘animdan hushyor o‘lja olib, uning qulfini ocha olmagandi. Lashkarboshlarning to‘g‘ri fikr yurituvchi bir to‘dasi urinib ko‘rishdi. Bartartib qildilar ul o‘ljani osonlikcha olib tashib oldilar. O‘z aqlu farosati bilan dunyo mushkullarini yecha olganliklari sababli ularga qongli deb nom qo‘ydi.”<sup>42</sup>

Qang urug‘ining paydo bo‘lishi, umuman, yuqorida keltirilgan barcha xalqlarning paydo bo‘lishi tarixiga oid ma’lumotlar Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida ham mavjud: «O‘g‘uz va uning ammakivachchalari o‘rtasida nizo kuchayib (ular bir-biri bilan) tig‘ va tili bilan so‘zlashib yurgan vaqtlarida (qangli qavmi) ularning mulkini, xirojini, taxtu tojini talon-taroj qildi va had-hisobdan tashqari qimmatbahoshlari, naqdinalari va turli mato va kiyimlari (qangli) qo‘liga tushdi. Bu (narsalar)ni o‘sha tomondan olib ketish mushkul va qiyin ko‘rindi. (Shu vaqtda bu jamoa nazar va fikrning nozikligi bilan aravalar yasadilar; qo‘laridagi yukning hammasini aravalarga ortirdilar. Va shu maqbul ishlari tufayli «qangli» laqabini olganlar, (qangli) aravaning nomi bo‘lgan. Qanglarning barchalari o‘sha nomning qatralari va o‘sha daryoning tomchilaridir.”<sup>43</sup>

Yuqoridagi parchalardan shu narsa ko‘rinib turibdiki, “O‘g‘uznoma” va tarixiy asarlarda berilgan etnologik miflarda u qadar katta farqlar ko‘zga tashlanmaydi. Faqatgina syujetida bir oz farqlar mavjudligi ko‘rinadi. Biz faqat bir urug‘ nomidagi farqlarni keltirish bilan cheklandik. Rashiddin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome’ ut-tavorix” asarida bayon qilingan O‘g‘uz xon haqidagi afsona syujet jihatdan tamomila eski uyg‘ur-turk yozuvidagi “O‘g‘uznoma”dan farq qiladi (“Jome’ ut-

<sup>42</sup> Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. T.; «Cho‘lpon», 1994, 50-51- b.

<sup>43</sup> Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. T.; 1 jild, 1966, 72-b

tavorix”dagi O‘g‘uz xon afsonasi haqida “Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy” mavzusida to‘xtalamiz).

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “O‘g‘uznoma” dostoni qachon va qaysi yozuvda yozib qoldirilgan?
2. “O‘g‘uznoma”ning asosiy qatlamini qaysi turdagi mifologiya tashkil qiladi?
3. “O‘g‘uznoma”da mifologik syujet qaysi o‘rinda ko‘rinadi?
4. “O‘g‘uznoma”da kosmogonik mifologiya qaysi lavhalarda bor?
5. “O‘g‘uznoma”dagi uch qavatli olam modeliga ta’rif bering.
6. “O‘g‘uznoma”dagi tush motivini sharhlab bering.
7. Ko‘k rang qanday ma’no anglatgan? Kengroq izohlang.
8. “O‘g‘uznoma”dagi ko‘k yolli bo‘ri timsolini sharhlab bering.
9. O‘g‘uz xoqon haqidagi dostonlarning qaysi birida qadimiylilik xususiyati saqlangan?
10. “O‘g‘uznoma”dagi rang va inonch-e’tiqodlar qaysi timsollarda ifodalangan?
11. Dostondagi qorluq qabilasining kelib chiqishiga oid rivoyatni ayting.

### Ilk uyg'onish davridagi ijtimoiy hayot va madaniy muhit

#### Reja:

1. Xorazmiyning ilmiy faoliyati.
2. Ahmad al-Farg'oniyning faoliyati.
3. Forobiyning fanga qo'shgan hissasi.
4. Ibn Sinoning adabiyotga qo'shgan hissasi.
5. "Hayy bin Yaqzon" qissasining qisqacha mazmuni.
6. "Hayy bin Yaqzon"ning jahonshumul ahamiyati.
7. "Qush" va "Salomon va Ibsol" qissalari.
8. "She'r san'ati" asari.
9. Rudakiyning O'rta Osiyo adabiy muhitidagi o'rni.
10. Ismoililar mazhabi
11. Firdavsiyning adabiyotga qo'shgan hissasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** *fors-tojik adabiyoti, ma'naviy-adabiy muhit, tarix, falsafa, mantiq, aniq fanlar, astronomiya ilmi, zij, matematika, geografiya.*

Ilk uyg'onish davrida o'zbek adabiyoti namunalari yo'q.

Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyo, xususan, Movarounnahrning madaniy, adabiy jarayonida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda, ijtimoiy, siyosiy vaziyat o'zgardi, xalifalik yuzaga keldi. Davlat boshqaruvida yangicha tartib va qoidalar joriy qilindi. Xuroson noibi bo'lib turgan Ma'mun otasi Xorun ar-Rashid vafotidan keyin taxt uchun kurashlar jarayonida 813-yili Xuroson va Movarounnahrda katta zamindorlar Tohir ibn Husayn va boshqalar yordami bilan Bag'dodda xalifalik taxtini egalladi. Shundan so'ng Tohir ibn Husayn xalifadan keyingi ikkinchi shaxs bo'lib qoldi. U o'zining bu mavqeidan foydalanib, Xuroson va Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga oldi va o'zini bu yerda mustaqil hokim deb e'lon qildi. Shu yo'sinda Tohiriylar sulolasi (821-873) paydo bo'ldi.

Xuddi shu davrda Movarounnahrda Somon avlodlari hukmronligi ham kuchaydi. Mahalliy hukmdorlar yordamiga suyangan xalifa Ma'mun (813-833) Asad ibn Somonning o'g'illari Nuh ibn Asadni –

Farg'onaga, Yahyo ibn Asadni – Shoshga va Ushrushonaga, Ilyosni esa Hirotga hokim etib tayinladi.

Tohiriylar Movarounnahrda Somoniylar hokimiyatini tan olgach, Somoniylar vassal sifatida taxt so'radi. 841-yili Nuh ibn Asad, ko'p o'tmay Yahyo ham vafot etib, Samarqand va Shosh Ahmad ibn Asad qo'liga o'tdi. U taxtni Farg'onadan Samarqandga ko'chirib, bu shaharni o'z davlatining poytaxti deb e'lon qildi. Ahmad ibn Asad vafotidan keyin esa taxtni uning katta o'g'li Nasr ibn Ahmad egalladi (864-892).<sup>44</sup>

Somoniylar davrida fors- tojik adabiyoti Movarounnahrning adabiy- ma'naviy hayotida muhim o'rin egalladi. Adabiy jarayon ijtimoiy-tarixiy jarayondan ajralmagan holda rivojlana bordi. Ilm-fan rivoj topdi, Buxoro Sharqning yirik madaniy, hunarmanchilik va savdo markaziga aylandi. Bu haqda as-Saolibiyning "Yatimat at-dahr" asarida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

X asr va XI asrning birinchi yarmida badiiy adabiyot rivoj topdi. Bu davr adabiy jarayoni haqida o'z o'rnida so'z yuritiladi. O'rta Osiyo madaniy hayotida arab va fors tillaridagi adabiyot muhim rol o'ynadi. Islomning yoyilishi va O'rta Osiyoda mustahkam qaror topishida arab tili asosiy rolni o'ynadi. "Tarixda favqulodda bo'lgan va biz Uyg'onish deb ataydigan davrni yaratgan kuchlar" (Konrad) xuddi shu davrda yuzaga keldi. Uyg'onish davrining buyuk namoyandalari o'zlarining amaliy faoliyati, tarix, falsafa, mantiq, shuningdek, aniq fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan O'rta Osiyo tarixida chuqur iz qoldirdilar.

Somoniylar, G'aznaviylar va Qoraxoniylar davridagi madaniy, ilmiy muhit, jamiyatning yangi bir o'zanga solinishi natijasida Uyg'onish davri paydo bo'ldi.

Dunyoviy bilimlarga intilish, tabiiy fanlarga diqqat qaratish, insonparvarlik, har tomonlama bilimga ega bo'lish va qomusiylik Sharq Uyg'onish davrining asosiy belgilaridir. Quyida Uyg'onish davriga asos solgan O'rta Osiyo olimlaridan ayrimlarining faoliyati haqida qisqacha to'xtalamiz.

**Xorazmiy (taxminan 783- 850)ning ilmiy faoliyati.** O'rta Osiyoda aniq fanlarning, xususan, matematika ilmining paydo bo'lishi Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Uning jahonshumul olim ekanini butun olam e'tirof etadi. Xorazmiyning ilmiy faoliyati antik davr fanidan Uyg'onish

---

<sup>44</sup>Qarang: Abu Mansur as-Saolibi. Yatimat-ad-dahr. Tadqiq qiluvchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I. Abdullacv. T.: "Fan" nashriyoti, 1976, 3-b.

davridagi fanga ko'prik bo'lib xizmat qildi.<sup>45</sup> Xorazmiy haqidagi dastlabki ma'lumot X asrda Ibn an-Nadim degan olimning "al-Fixrist" ("Ro'yxat") nomli asarida uchraydi. Ma'lumot qisqa bo'lib, quyidagicha: "*Al-Xorazmiy*. Uning ismi – Muhammad ibn Muso, Xorazmdan. U al-Ma'mun davrida "Donolar xazinasi"ni boshqarish uchun tayinlangan, astronomiya ilmining bilimdonlaridan. Odamlar observatoriya kuzatuvlari boshlangunga qadar va keyin ham uning ikki zijinga (astronomik jadvaliga) tayanganlar. Bu zij "as-Sindxind" nomi bilan mashhur. Xorazmiyning quyidagi kitoblari bor: birinchi va ikkinchi tahrirdagi "Zij", Quyosh soatlari haqidagi kitob", "Usturloblar bilan ishlash haqidagi kitob", "Usturlobning tuzilishi haqidagi kitob", "Tarix kitobi" (*Bulgakov P.G. va b. Yuqoridagi asar, 8-b.*). Keyingi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xorazmiy 813 – 833-yillar orasida "Tenglama va qarshilantirish hisobi muxtasari", "Qo'shuv va ayiruv haqida kitob", "Hind raqamlari haqida kitob"larini yozgan. Uning "yerning shakli haqidagi kitob"i geografiya ilmiga bag'ishlangan.

Xorazmiy yozgan kitoblarini hayotiy zaruratga bog'ladi. Xorazmiyning xo'jaligi uchun astronomiya va matematika nihoyatda kerak edi. Xususan, kanallar qurish uchun ularning yo'nalishini to'g'ri belgilash, sug'oriladigan yerlarni o'lchash va hisob-kitoblarini olish, qishloq xo'jaligi taqvimini olib borish va boshqa qator ishlarga aynan astronomiya va matematika fanlarining xizmati kerak edi. Jumladan, algebraga oid risolasining debochasiga shunday yozadi: "Men tenglama va qarshilantirish hisobi haqida kitob yozdim. Bu kitob arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oladi, chunki bu odamlarga meros bo'lishuvda, vasiyatnoma tuzishda, mol-mulkni bo'lishuvda va sud ishlarida, savdo ishlarida, har turli bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, qurilish geometriyasida va boshqa shunga o'xshash qator ishlarda kerakdir".<sup>46</sup>

Al-Xorazmiyning "Tarix kitobi" diqqatga sazovordir. Bu kitobning saqlanib qolgan parchalaridan Abu Rayhon Beruniy ham "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Muhammad s. a.s.ning tug'ilgan yilini keltirganda foydalangan. Shuningdek, Bag'dod shahrining qurilishi tarixi to'g'risida ham juda aniqlik bilan bayon qiladi: "145-yilning pays-

<sup>45</sup> Qarang: Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Ахмедов А.А. Мухаммад ал-Хорезми. Москва. «Наука», 1983, 5-бет.

<sup>46</sup> Ал-Хорезми. Математические трактаты. Пер. Ю.Х.Копелевич, Б.А.Розенфельда, Т.; Фан, 1964, 26-б.

hanbasida greklarning 1073-yil 1-nison oyi [eramizning 762-yil 1-aprel] boshlandi. Shu yili al-Mansur Bag‘dodni qurishni boshladi. U bu shaharni Tinchlik shahri deb atadi...146-yili dushanba kuni greklarning 1074-yili, adar oyining 21chisi [763-yil 21 mart] boshlandi. Al-Mansur Tinchlik shahrini qurishni boshladi va o‘z odamlari bilan u yerga ko‘chib o‘tdi...” Shuningdek, al-Xorazmiy xazarlar tomonidan Tibilisining olinishi, Ma‘mun tarixiga oid qiziqarli voqealarni shu asarida batafsil bayon qiladi. Xullas, al-Xorazmiyning “Tarix kitobi”ning saqlanib qolgan parchalari tarixiy voqealarga, tabiiy fanlarga oid ma‘lumotlarga boydir.

Al-Xorazmiy ”yerning shakli haqidagi kitob”ida butun olamning geografik joylashuvi va ularning o‘rtacha uzunliklari, qaysi gradusda joylashgani, mamlakatlar shaharlari, daryolari va xalqlari haqida batafsil ma‘lumot beradi. Ayni paytda al-Xorazmiy yunon olimi Ptolemeyning (taxminan 100-yilda tug‘ilib 170-yillarda vafot etgan) “Geografiya” asaridan va Sharqda yaratilgan boshqa geografiyaga oid asalardan foydalan-gan. Al-Xorazmiy ularga qaraganda ko‘p aniqliklar kiritgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyo geografiyasiga, jumladan, aholining etnik tarkibi va joy-lashuviga oid uning ma‘lumotlari bugungi kunda diqqatga sazovordir. Masalan, Ptolemey “Geografiya” asarida Kaspiy va Orol dengizini bitta dengiz deb qaraydi va O‘rta Osiyodagi ikki yirik daryo – Oks (Amudar-yo) va Yaksart (Sirdaryo) bu dengizlarga quyiladi, deb ma‘lumot bera-di. Al-Xorazmiy bu ikkala dengizni alohida-alohida deb qaraydi va ayni paytda Orolni ko‘l (batixa) deb talqin qiladi, ikkala daryoning bu ko‘lga quyilishi haqida so‘z yuritadi. Al-Xorazmiy Kaspiy dengizini “Xorazm dengizi, Jurjon, Tabariston va Daylam dengizi” deb atagan edi (*Bulga-kov P.G. va b. Yuqoridagi asar, 204-b*). Olim bu dengizning qirg‘og‘i chegaralarini ham aniqlik bilan hisoblab chiqdi.

Al-Xorazmiy Kaspiy dengizini “Xorazm dengizi” deb atagan ekan, buni shunday tushunish kerak: qadimgi Xorazmning ta’siri va mavqei nafaqat Kaspiy dengizining sharqida va shimolida, balki bu dengizdan g‘arbda ham kuchli bo‘lgan edi.

Shuningdek, al-Xorazmiy O‘rta Osiyoning, xususan, Shosh (hozir-gi Toshkent), Tarband, Isfijob (Sayram), Ushrushona (O‘ratepa yaqini-da, hozirgi Istaravshan) kabi kichik turkiy davlatlari arablar istilosidan keyin ham mustaqilligini saqlab qolganini aytadi. Bu shaharlarning ho-zirgi qaysi hududlarga to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida keyingi tarix asarlariga tayaniladi. Jumladan, Tarband o‘rta asrlardagi O‘trordir. Al-Xorazmiy



davrida Shosh va Tarband hozirgi Toshkent viloyati, Janubiy Qozog‘istonni o‘z ichiga olgan. Xullas, al-Xorazmiyning geografiyaga oid asarida hozirgi O‘zbekiston hududidagi turkiy davlatlar, jumladan, Shosh haqida ham kerakli va ishonchli ma‘lumotlarni topish mumkin.

**Ahmad al-Farg‘oniy (797-865) ning faoliyati.** Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Qatir al-Farg‘oniy – O‘rta Osiyodan yetishib chiqqan matematik va astronom. Farg‘ona vodiysi (hozirgi Quva shahri)da tug‘ilgani uchun “Farg‘oniy” taxallusini olgan. yevropada lotinchalashtirilgan Alfraganus degan nom bilan mashhur bo‘lgan edi. Xalifa al- Ma‘mun asos solgan “Donishmandlar xonadoni” deb atalgan olimlar safida bo‘lgan. Bu ulkan ilmiy markazning boshqa nomi “al-Ma‘mun akademiyasi” dir. Bu akademiyaga Xorazmdan, Farg‘onadan, So‘g‘diyondan, Shoshdan, Forobdan, Xurosondan olimlar taklif qilingan.

Ahmad Farg‘oniyning tarjima holi haqida ma‘lumotlar juda kam. Farg‘oniyning ilmiy ishlari unga olam miqyosida shuhrat keltirdi. Uning usturlobga oid “Al-Komil fi-l-usturlob” (“Hammasi usturlob haqida”) kitobi bor. Shuningdek, Farg‘oniyning asosiy ishlaridan bo‘lgan astronomiyaga oid “Fi san‘at al usturlob” (“Usturlob tayyorlashga oid”) asari ham mashhurdir. Bu asarning yana bir necha nomlari bor: “Javami‘ ilm an-nudjum va-l-xarakat as-samaviya” (“Yulduzlar va samoviy harakatlar haqida bilimlar to‘plami»), “Usul ‘ilm an-nudjum” (“Yulduzlar haqidagi ilm asoslari”), “Al-Mudxal ila ‘ilm xa‘it al-aflak” (“Osmon tarkibi haqidagi fanga kirish”), “Kitab al-fusul attalatin” (“O‘ttiz bo‘lim kitobi”). Farg‘oniyning bu asari astronomiyaga bag‘ishlangan arab tilidagi dastlabki adabiyotdir.

Ma‘mun akademiyasida ikkita observatoriya ochilgan va o‘sha davrning eng yaxshi astronomik asbob-uskunalari bilan jihozlangan edi. Ma‘mun akademiyasining astronomlari yerning atrofini, yer meridianining uzunlik darajasini o‘lchaganlar, yulduzlarni kuzatganlar, Zij (jadval)lar tuzganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Farg‘oniyning bu asari 12-asrda arab tilidan lotin tiliga, 13-asrda yevropaning boshqa tillariga tarjima qilindi va mashhur bo‘ldi. 1493-yili chop etildi. Uning astronomiyaga oid asarlari 700-yil davomida yevropada qomus va darslik sifatida xizmat qildi. Farg‘oniy yerning dumaloq ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yilning eng uzun kuni 22-iyun va eng qisqa kun 23-dekabr ekanini aniqladi. Shuningdek, u Quyoshda dog‘ borligini kashf qildi va

Quyosh tutilishini ham oldindan aytib berdi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, bu o'zbek olimining qimmatli ilmiy merosi uning zamondosh olimlari uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Bu fikrning dalili sifatida shuni aytish mumkin: XII asrda Ahmad Farg'oniyning "Astronomiya asoslari haqida kitob"i lotin va ibroniy tiliga tarjima qilingan.

Ahmad Farg'oniy geografiyaga oid asarlarning ham muallifidir.

Ahmad Farg'oniy umrining oxirgi yillarini Qohirada o'tkazdi. U Qohirada usturlobni qurish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu asbob yulduzlarning joylashuvini aniqlashda va ular orasidagi masofani o'lchashda ishlatilgan. Shuningdek, Ahmad Farg'oniy Nilomer deb atalgan inshoot qurilishiga boshchilik qildi. Bu inshoot 861-yili Nil daryosi suvini o'lchash uchun o'rnatildi. Bu asbob Misr xalqining iqtisodiy hayoti uchun juda muhim bo'lgan edi. Nil suvi ayrim paytlarda ko'tarilib, botqoq hosil bo'lishiga va suv toshqini oqibatida hosilning nobud bo'lishiga olib kelardi. Yunon muarrix Gerodotning xabar berishicha, Nil toshganda nafaqat daryo sohilini, balki atrof hududlarni ham suv bosardi. Buning oqibatida Nil daryosini kechib o'tish uchun ikki kun vaqt ketardi. Ahmad Farg'oniy yaratgan Nilomer Rod orolida joylashgan bo'lib, toshqin haqida ma'lumot olish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu inshoot hozirgacha odamlarning e'tiborida bo'lib keladi. 2007-yili Qohirada Ahmad Farg'oniyning haykali o'rnatildi.

**Forobiy** (872-yili Forob shahrida tug'ilib, 951-yili Damashqda vafot etgan) **ning fanga qo'shgan hissasi**. Sharqda "muallim as-soniy" (ikkinchi muallim) deb nom olgan Abu Nasr Forobiy tabiatshunoslik, metafizika, matematika, mantiq, astronomiya, tibbiyot, axloq, musiqa kabi fanlar bilan shug'ullanib, juda katta boy ilmiy meros qoldirdi. U Aristotel ishlariga sharhlar yozdi va "ikkinchi muallim" degan unvon unga shu tufayli berilgan. Abu Nasrning g'oyalari ibn Sino, ibn Tufayl, ibn Rushd kabi mashhur faylasuflarning hamda o'rta asr G'arbiy yevropa falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. O'tror kutubxonasining tashkil topishi uning nomi bilan bog'lanadi.

Forobiyning tarjima holini yaratish ishlari XI asrdan boshlangan. Jumladan, shu asrda yashagan Abu Said ibn Ahmad o'zigacha, ya'ni XI asrgacha yashagan buyuk donishmandlar haqida qomus tuzgan. Ana shu qomusda Forobiyning tarjimai holi yaratilgani haqida boshqa muarrixlar va biograflar Bayxaqiy, Kiftiy, ibn Abu Usaybiya, ibn Xolliqonlarning asarlarida ma'lumotlar berilgan. Ammo Abu Said ibn Ahmadning qo-

musi topilmagan. Hamma manbalarda ham Forobiyning Forob (hozirgi O'tror) qishlog'ida tug'ilgani va Damashq shahriga borib madrasada muallimlik qilgani haqidagi ma'lumot berilgan. U Samarqandda, Shoshda madrasalarda o'qigani va mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar bor. Buyuk faylasuf ta'lim olish uchun arab xalifaligining poytaxti Bog'dodga ketadi. Yo'l-yo'lakay u Eronning Isfaxon, Hamadon, Roy (Tehron) shaharlarida bo'ladi. Forobiy Bag'dodda xalifa al-Muqtadir (908-932) hukmronligi davrida yashadi. Bu yerda u fanning turli sohalari va tillarni o'rgandi. Ayniqsa, tibbiyotni, mantiqni va yunon tilini puxta egalladi.

Bag'dod o'sha davr ilm ahli uchun go'yo Makka kabi edi. Aynan Bag'dodda tarjimonlar maktabi shakllangan edi. Ular Aflotunning, Aristotelning, Galen va Evklidning asarlarini sharhladilar. Bu bilan baravar ravishda Hindistonning madaniy yutuqlarini o'zlashtirish jarayoni ham kechdi. Bunday ish mustaqil ijodiy faollikni oshirdi. Forobiyning tarjimonlik faoliyatiga Yuhanno ibn Xaylon va antik davr matnlarining arab tiliga mohir tarjimoni Abu Bishr Matto ustozlik qildilar. Abu Bishr Matto mantiqdan Forobiyga ta'lim berdi.

Forobiy 941-yili Damashq shahriga ko'chib o'tdi va umrining qolganini shu yerda o'tkazdi, ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi. U ilgari boshlagan "Fozil odamlar shahri haqida risola" kitobini Damashqda yozib tugatdi. Dastlabki yillari Forobiyning Damashqdagi hayoti oson kechmadi. Adabiyotlarda hikoya qilinishicha, u tirikchilik o'tkazish uchun bog'bon bo'lib ishlagan, ilmiy faoliyat bilan esa tunda mashg'ul bo'ldi. Kunduzi ishlagan mablag'iga sham sotib olardi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Forobiyga Xalab hukmdori Sayfuddin ad-Davla Ali Hamadoniy (943-967) homiylik qila boshladi.

Abu Nasr Forobiyning "ikkinchi muallimi" degan nomiga munosib ishlari orasida "Shoirilar san'ati qonunlari haqida" ("Risola fi qavoniyi sinoat ash-shuaro") alohida o'rin egallaydi.

Aristotelning asarlari haqida fikr-mulohaza bildirish, unga sharhlar yoki undan ta'sirlangan holda asarlar yozish Sharqda katta burch sanalgan. Jumladan, Aristotelning "Poetika"siga Abu Is'hoq al-Kindiy (801-866) degan arab faylasufi ham kichkina bir kitob yozgan. Shu bois al-Kindiydan so'ng Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mashhur allomalar ham Aristotelning "Poetika"siga o'zlarining munosabatlarini bildirganlar.

Forobiyning “She’r san’ati qonunlari haqida” nomli risolasi Aristotelning “Poetika”siga yozilgan sharhdir. Forobiyning yozishicha, Aristotelning “Poetika” asari oxiriga yetmay qolgan. Forobiyning vazifasi mavjud “Poetika”da aytilgan fikr-mulohazalarini isbotlab ko’rsatishdan va uning ma’nolariga ishora qilishdan iborat bo’lgan edi. U she’rdagi so’zning vazifasi, mohiyati va maqsadi haqida fikr bildirib, birinchi navbatda, so’zning tuzilishi va ma’noli qismlarini, jumla takibidagi rolini, nihoyat, poetik vazifasini quyidagicha ochib beradi: “...ma’noni bildiradigan so’zlar sodda va murakkab bo’ladi. Murakkab bo’lgan so’zlar biror mulohazani anglatadi, yo anglatmaydi. Mulohazani anglatadiganlarining qat’iy jazmliligi va jazmsizi bo’ladi. Qat’iyalar yo to’g’ri, yo yolg’on bo’ladi. Yolg’onlarining ba’zilar eshituvchilar zehniga ma’nosi bilan o’rnashib qoladi, boshqalari esa kishi ongida narsalarning o’xshashi – aksi bilan o’rnashib qoladi. Mana shu narsa o’xshatish – she’riy mulohazalar sanaladi”<sup>47</sup>

Forobiy bu asarida she’r vaznlari, adabiy turlar va janrlar, she’rdagi “yolg’on” – ko’chimlar orqali yuzaga keladigan fantaziya kabilarning tabiati va xususiyatlari haqida ta’rif beradi. Ayniqsa, she’riyat va shoir yoki umuman ijod ahli, ularning iste’dodi haqidagi Forobiyning aytgan gaplari bugungi adabiy jarayonda ham o’z dolzarbligini yo’qotgan emas. U yunon she’riyatiga tayangan holda so’z yuritgan bo’lsa ham, uning she’rni she’r qiladigan vositalar, she’riyatga qo’ygan talablari hamma davrdagi barcha xalqlar she’riyatiga tatbiq qilinishi mumkin bo’lgan qarashlardir. Uningcha, shoir ahli uch toifaga bo’linadi.

*Birinchi toifasi* shular: shoirlar chindan ham tug‘ma qobiliyatli va she’r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo’ladi, tashbih va tamsilga layoqatli bo’ladilar. Bir xil shoirlar she’r san’atidan yetarli xabardor bo’lavermaydi, balki tug‘ma qobiliyatining o’tkirliigi bilan qanoat hosil qiladilar. Ular o’zlarining iste’dod darajalariga ko’ra ish tutadilar. Ularda she’r san’atini o’zlashtirib olish uchun kamolot yetishmaydi. Kim o’sha toifadagi odamning yozgan she’rini ko’rib, u qobiliyatli odam ekan, deb o’ylasa, buni shunday tushunish kerakki, uning fe’l-atvorida shoirlarga xos turq-ko’rinish mavjudligi uchun o’sha odam shunday xulosaga kelgan.

*Ikkinchi toifasi* quyidagilar: bu xil odamlar chinakam shoirlik san’atini egallagan bo’lishadi, hatto she’riy ijodga xos xususiyatlardan

---

<sup>47</sup>Forobiy. Shoirlar san’ati qonunlari haqida. – “Aristotel. Poetika” kitobida. Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980, 64-b.

birontasi - u qaysi she'r turiga aloqador bo'lmasin – baribir, bu qonun-qoidalar undan qochib qutulmaydi. Ular she'riyat san'atida qo'llaniladigan tashbih va tamsillarni judayam mahorat bilan ishlatadilar. Bu toifa shoirlar chindan ham qobiliyatli shoirlar deb aytishga sazovordirlar.

*Uchinchi toifasi* quyidagilar: yuqorida aytib o'tilgan ikki toifa shoirlarning fe'l-atvoriga taqlid qiluvchilar bo'ladi. Bu toifaga mansub odamlar ikkala toifa shoirlar yo'lini – ijodini yod oladilar. O'zlarida tug'ma qobiliyati bo'lmagan holda, she'riy san'at qonun-qoidalaridan xabardor bo'ladilar, tashbih, tamsil (metafora)lar ortidan boradilar. Yo'ldan adashadigan shoirlarning ko'pchiligi ana shu tabaqa shoirlar ichidan chiqadi (Yuqoridagi asar, 70-71-b.).

Umuman, Forobiyning mazkur risolasi o'z davrigacha bo'lgan adabiy jarayon qonuniyatlari va yo'l-yo'riqlari, shoirlik iste'dodi va ijod mas'uliyati haqida to'laqonli taassurot qoldiradi.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxtga erishish haqida risola", "Jamiyatni o'rganish haqida risola" kabi qator asarlari ijtimoiy hayot qurilishiga bag'ishlangan. U Aristotel va Aflotunning, shuningdek, boshqa yunon faylasuflarining siyosiy va axloqiy g'oyalariga va qadimgi Sharqning ijtimoiy g'oyalariga tayanib, davlat va jamiyat qurilishining nazariyasini ishlab chiqdi. Uning qarashicha, fazilatli shaharlar tepasida faylasuf hukmdorlar turadilar, ayni paytda ular diniy jamoa rahbarlari hamdir. Fazilatli shaharlarda jamiki aholi uchun chinakam baxtga erishish yo'llari ko'rsatiladi, bu shaharlarda yaxshilik va adolat hukmron bo'ladi, adolatsizlik, yovuzlik qoralanadi. Forobiy fazilatli shaharlarga johil shaharlarni qarama-qarshi qo'yadi. Johil shaharlarning hukmdorlari va aholisining chinakam baxt haqida tasavvurlari mutlaqo yo'q, bunday baxtga ular intilmaydilar. Ular faqat tana sog'lig'iga, tana lazzati va boy-likiga intiladilar.

Sog'lom va benuqson jamiyat hamda mamlakat, xalq va hukmdorlarning o'zaro muvofiqati mamlakatning iqtisodiy, ma'naviy va harbiy qudrati oshib borishiga omil bo'lishi haqidagi qarashlar Sharqdagi ko'p asarlarda aytib o'tilgan. Jumladan, "Oltin yorug'" asarida ham sog'lom mamlakat qanday bo'lishi kerakligi haqidagi o'gitlar, jumladan, xalq hukmdorning yo'l-yo'riqlaridan og'ishmasligi, jamiki jonzotlarga yaxshilik qilish lozimligi kabi o'gitlar bor edi. Yoki "Qutadg'u bilig"dagi ideal hukmdorlar, xalq va mamlakat haqidagi qarashlar bilan Forobiyning bu boradagi g'oyalari o'rtasida shubhasiz bog'lanishlar bor. Zotan,

Forobiy o‘z asarlarida arab, yunon, fors, hind va turkiy madaniyatni bir-biriga yaqinlashtirgan, omuxtalashtirgan olim edi.

Forobiy ayni paytda fanning ilohotchisi bo‘lib ham maydonga chiqdi, U “Fanlar tasnifi haqida so‘z” asarida pedagogika fanining ilohotchisi sifatida ko‘zga tashlanadi. U keng ommaga bilimni tarqatish, ma‘rifatni rivojlantirish orqali odamlarda insoniy fazilatlarini rivoj toptirish g‘oyasini ilgari surdi. U insonlarda axloqiy tarbiyaga alohida urg‘u berdi. Uningcha, jamiyatning yuksak axloqiy qiyofasi uning gulab-yashnashi uchun asosiy omildir. Shuningdek, uning mazkur asarida ustozga qo‘yilgan talablar ham e‘tiborga molik. “Ustoz uchun, - deydi Forobiy, - adolatparvarlik, talabchanlik, e‘tiborlilik, iroda kuchi, sabr-toqat xislatlari muhimdir”. Muallimning xulq-atvori, Forobiyning fikricha, quyidagicha bo‘lishi lozim: u ta‘lim oluvchiga o‘ta qattiqqo‘l ham bo‘lmasligi kerak, uni haddan ortiq erkalatib yubormasligi ham kerak, chunki qattiqqo‘llik ta‘lim oluvchida o‘z ustoziga nisbatan ziddiyatni paydo qiladi, haddan ortiq erkalatish oqibatida esa ustozni hurmat qilmay qo‘yadi.

Forobiy musiqaga, matematikaga va fanning boshqa sohalariga oid ilmiy meros qoldirdi. Fanning barcha sohalariga oid 150 dan ortiq asarlari ma‘lum.

**Ibn Sinoning adabiyotga qo‘shgan hissasi (to‘liq nomi –Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino; 980 Buxoro-1037 Hamadon).** Ibn Sino o‘rta asr Sharq olamida tibbiyot, kimyo, astronomiya, mexanika, falsafa, psixologiya, adabiyot, musiqqa kabi qator fanlarni puxta egallagan va bu fanlarga doim asarlar yaratgan ulkan olimdir. U fanning 29 sohasiga oid 450 ta asar yozgan bo‘lib, shundan 240 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari, asosan, arab tilida. U tug‘ilgan paytda Buxoroda Somoniylar hukmronlik qilardi. Qoraxoniylar saltanati Somoniylar sulolasini yiqitgach, ibn Sino Urganchga Xorazm hukmdorlari saroyiga (1002-yili) xizmatga bordi. Bu yerda u “tabiblar begi” degan nomga musharraf bo‘ldi. Mahmud G‘aznaviy saroyida xizmat qilishni rad etib, Hamadonga ketdi. 1015-1024-yillari Hamadonda yashadi, amir Shamsiddin ad-Davlani shifolagandan keyin, vazir lavozimiga ko‘tarildi. Ibn Sinoning atrofida unga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lganlar bor edi. Ularning chaquvi bilan Shamsiddin ad-Davla Ibn Sinoni o‘z hukmronligi hududidan chiqarib yubordi. U yana qattiq betob bo‘lib qolgach, ibn Sinoni toptirib keldi va yana vazir lavozimiga

tayinladi. Shamsiddin al-Davla vafot etgach, Isfahonda (1023 - 1037) umrining oxirigacha amir Aloud –Davla saroyida yashadi.

Ibn Sino qomusiy olim, noyob xotirasi, fikrining teranligi bilan alohida ajralib turardi. U, birinchi navbatda, dunyo tabobat ilmiga ulkan hissa qo‘shgan olimdir. Ibn Sino jahon tabobat ilmiga qanchalik hissa qo‘shgan bo‘lsa, badiiy ijod sohasida ham o‘z davrida katta meros qoldirdi. U faylasuf olim sifatida tanqidlarga ham uchradi, ayni paytda uning qarashlarini qo‘llab-quvvatlovchi (masalan, Nosiruddin Tusiy) mutafakkirlar ham bo‘ldi. Shuningdek, Umar Xayyom ibn Sinoni falsafa sohasida o‘zining ustozlari deb bilgan.

Ibn Sinoning butun ilmiy faoliyati quyidagi asarlarda jamlangan: 1. “Al Qonun fi-t-tibb” (Tib qonunlari) – o‘z davridagi tibbiyot ilmining nazariy va amaliy masalalarini bir tizimga solgan tibbiy qomus; 2. “Kitob ash-shifo” (Shifolash kitobi) – falsafiy qomus bo‘lib, to‘rt qismdan iborat: mantiq, tabiiy fanlar, matematikaga oid fanlar, metafizika (ya‘ni ilohiyot); 3. “Kitob an-najot” (Najot kitobi) – “Kitob ash-shifo”ning qisqartirilgan shakli; 4. “Donishnoma” (Bilimlar kitobi) – fors tilidagi falsafiy asarlari, asarda nazariy falsafaning, jumladan, mantiqning ko‘plab masalalarini o‘rtaga tashlaydi; 5. “Risola al-iksir” (Eliksir haqida risola) – kimyo faniga bag‘ishlangan bo‘lib, metallarni o‘zgartirishning amaliy usullarini tadqiq etgan; 6. “Al-adviyat al-qalbiya” (Yurak xastaliklari shifosi) – yurak xastaliklariga shifo berishga oid falsafiy-tibbiy asar, shuningdek, muallif ruh haqidagi qarashlari va mulohazalarini ham bu kitobda bayon qiladi; 7 “Solomon va Ibsol”, “Hayy binn Yaqzon” (Uyg‘oq o‘g‘li Tirik) – bu ikki asar adabiy-falsafiy qissalardir; 8. Ibn Sino va Beruniyning fizika (ya‘ni tabiatshunoslik) va falsafaga oid yozishmalari - bu yozishmalarni olimlar “asr yozishmalari” deb ataganlar. Yozishmalarda ibn Sino Aristotel (mil.ol.384 – 322 )ning tabiatshunoslikka oid ayrim qarashlarini Beruniy bilan munozara qildi; bu masalalar – tana va moddalarning tabiiy o‘rni, tananing markazdan qochuvchi kuchi, eng mayda qismlarning bo‘linuvchanligi, olamlarning ko‘pligi, moddalarning o‘zidan o‘zi o‘zgarishi va boshqalar edi.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid asari XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan va XV asrdan beri 40 marta chop etilgan. XVII asrgacha Yevropaning hamma universitetlarida uning “Tib qonunlari” asaridan tibbiyot bo‘yicha darslik sifatida foydalanganlar.

Yevropaning buyuk faylasuf va madaniyat arboblari Rodjer Bekon (XIII asr), Dante (XIII-XIV asr), Leonardo da Vinchi (XV–XVI), Mikelanjelo (XV–XVI), Vezalii (XVI), Gyote (XVIII–XIX) kabilarning falsafiy qarashlariga va nazariyalariga ibn Sinoning ta'siri juda kuchli bo'ldi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari asosan, uning "Tayr", "Solmon va Ibsol", "Hay bin Yaqzon" kabi badiiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Ibn Sino Aristotelning qarashlariga ergashdi. Aristotel "Metafizika" asarida yaratilish haqida shunday g'oyani ilgari suradi: "Shakl buyumga haqiqiy mavjudlikni ato qiladi, materiya esa o'zida buyumning mavjudligi imkoniyatini qamrab oladi. Masalan, haykal haqiqiy buyum, ammo haykal yasalgan materialga shakl berilmasdan oldin, u layoqatga, haykal bo'lish imkoniyatiga ega edi". Ibn Sino olamning Yaratuvchi bilan birga abadiyligini tasdiqlaydi. Ibn Sino bu qarashi bilan oliy muhabbat ob'ekti – Yaratuvchi bilan ashyolar o'rtasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi. Ibn Sinoning bu qarashi Aflotunning "Olam sevgi asosida vujudga keladi va shu qonuniyat bilan harakat qiladi" degan nazariyasiga hamohangdir.

Xullas, ibn Sino o'z falsafiy asarlarida qadimgi yunon falsafasini yangi g'oyalar bilan boyitib, rivojlantirdi. Uning badiiy asarlari ham, shubhasiz, O'rta Osiyo falsafiy tafakkurini rivojlantirishga, axloqiy va ta'limiy g'oyalarni yoyishga katta xizmat qildi. Aytish mumkinki, ibn Sinoning barcha badiiy asarlari O'rta asr O'rta Osiyo adabiyotidagi bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Ibn Sinoning o'z davridan beri ko'pchilikning e'tiborini tortib kelgan asari "Hayyi bin Yaqzon" qissasidir. Qissa Ibn Sino tilidan hikoya qilinadi.

**"Hayy bin Yaqzon" qissasining qisqacha mazmuni.** Bir kuni bir necha do'stlar o'zlari yashayotgan yurtning bir chetiga sayru sayohat qiladilar. Ular o'sha muzofot chetida istarasi issiq bir qariyani uchratadilar. Ko'p yillik mehnat va keksalik uning yuzlarida o'z muhrini qoldirganiga qaramay, qariyaning qiyofasida va vujudida yoshlik kuch-g'ayrati barq urib turardi: uning ulug'vor qad-qomatida keksalik alomatlari aslo ko'rinmas, sochlaridagi oq unga husn bag'ishlab turardi. Sayyoh do'stlar qariya bilan tanishadilar. Do'stlarning "Kimsiz, nima bilan mashg'ulsiz, qanday orzu-niyatlaringiz bor, qayerdانسiz?" degan savollariga u shunday javob beradi: "Meni Uyg'oq o'g'li Tirik deb aytadilar, Men asli Quddusdanman. Qiladigan ishim – olam mamlakatlari bo'ylab kezaman, shu bois hamma mamlakatlar menga ham bo'yiga, ham eniga tanish.



Men otamga yuz burganman, u tirik. Otam meni hamma fanlarning kaliti bilan qurollantirib, qadamlarimni olamning turli burchaklariga olib boradigan so‘qmoqlarga yo‘naltirgan. Men sayohatlarim bilan olam ufqlarini birlashtirmagunimcha yurishda davom etaveraman”.

Biz unga fanlar haqida savollar berib, fanlarda yashiringan sirlar haqida izoh va tushuntirishlar olishga harakat qilardik. Nihoyat, biz farosat faniga yetib keldik. Bu fan sohasida men unda zakovatni ko‘rdim, men nihoyatda hayratlandim. Biz bu fan haqida endi so‘rashga shaylanib turganimizda, u fikrlarini ayta boshladi: «Farosat – shunday fanlardan biridirki, undan keladigan foyda naqddir. Chunki bu fan inson tabiatining xususiyatlarini senga shunday yorqin qilib ko‘rsatadiki, bu xususiyatlarni har kim boshqalardan sir tutishga harakat qiladi. Shunga muvofiq ravishda sen insonlar bilan yo ochiq yoki pinhon munosabatda bo‘lasan. Farosat ilmi sendagi o‘chib ketay degan qirralarni, deyarli yo‘qolib ketay degan, sal-palgina sezilib turadigan sifatlarni yorqinlashtiradi. Agar senga farosatning tuzatadigan qo‘l tegsa, seni komillikka olib boradi, o‘zingni charxlashni boshlagin, yo‘ldan ozdiruvchi – seni sirpanchiq so‘qmoqqa olib chiqadi. Mana, sen o‘zingdan yuz o‘girib ketmaydiganlar qurshovidasan. Axir, ular ahmoq hamrohlardir. Sen ulardan qutula olmaysan. Agar seni qandaydir saxiy homiy saqlamasa, ular seni vasvasaga soladilar.

Sening oldingda turgan do‘sting yolg‘onchi va mahmadona. U faqat safsata sotadi, bo‘hton to‘qiydi. U seni hech qachon yo‘l asbob-anjomlari bo‘lib xizmat qilmaydigan xabarlar bilan ta‘minlaydi, haqiqiy voqea safsata oqibatida loyqalanadi, yolg‘on oqibatida haqiqat panada qoladi. Ammo har qanday holatda ham oldingdagisi senga ayg‘oqchi va nazoratchi bo‘lib xizmat qiladi: senga ko‘rinmaydigan, sen turgan joydan yo‘q qilingan narsalar haqidagi ma‘lumotlar u orqali senga yetib keladi. Unda haqiqiyini nohaqiqiydan ajrataman, uydirmadan haqiqatni izlayman deysan, ammo senga hech narsa qolmaydi; bir to‘da xatolardan haqiqatni topaman, deysan, ammo baribir, buning evini qilolmaysan. Sening qo‘lingdan omad ushlab, sarsonlikdan olib chiqishi mumkin; sarosimalik seni joyingda qotib turish uchun majbur qilishi mumkin; ehtimol, haqiqatga o‘xshab ko‘rinadigan qopqon seni uydirmaga qiziqtirib o‘ziga tortishi mumkin.

Sening o‘ng tomoningda turgan do‘sting – battol: agar u g‘azabga minsa, uni o‘git-nasihatlar bilan bosa olmaysan, erkalash bilan shaxtidan

tushira olmaysan. U quruq o'tin ustidagi olov, tik jarlik qayrilishidagi suv oqimi, bolalaridan ayrilgan ona sher kabidir. Chap tomoningda turgan esa razil ochofat, shahvatparast ayg'ir ot singlaridir: uning qornini chang-to'zon to'ldiradi; faqat tuproq uning nafsini qondiradi. U yalab ichadigan, chapillatib yalaydigan, jig'ildoniga uradigan, makkor axta cho'chqa; uni dorilab o'ldirganlar va keyin go'ngtepaga olib chiqib tashlaganlar.

Ey baxti qaro, sen ularga tobesan, faqat o'zing tug'ilgan o'lkadan bularga o'xshaganlarning birontasi qadami yetmagan yerga qochib ketibgina ulardan qutula olasan. Ammo sen qochib ketishing uchun hali vaqtsoati kelmadi, ulardan qutulishing uchun najot yo'q. Qo'llaring ularning ustidan hukmronlik qilsin, hukmronliging ular ustidan tantana qilsin. Ularga jilovingni berib qo'yishdan yoki jilovingni bo'shashtirishdan saqlangin. Yaxshisi, o'zingni yaxshi xo'jayin qilib ko'rsatib, ulardan ko'ra qo'lingni uzun qilib yurgin. Sening hukming ularning hukmidan ustun kelsin. Agar sen ularga qattiq tursang, ular seni emas, balki sen ularni itoat ettirasan. Ular seni emas, balki sen ularni bo'ysundirasan.

Bu oshnalaringga nisbatan qo'llanadigan ta'sirchan vositalar shundan iboratki, o'sha mechkay esi pastni siltab tashlab, uning hirsini tiyib qo'yish uchun, tiyiqsiz bu bevosh vositasida uni yengish uchun, tilyog'lama, xushomadgo'y esi pastni tinchitasan, o'sha o'jar odamni hushini joyiga keltirib qo'yanasan. Ana shu yolg'onchi mahmadonaga kelsak, u Ollohdan ishonchli kafolatni senga namoyon qilmaguncha, unga moyil bo'lishga urinma. Ollohdan kafolatni namoyon qilgandan keyin unga ishongin, u, garchi gapidan adashib ketsa ham, senga aytadigan xabarlariga quloq solishdan bo'yin tovlamagin. Ana shunda tekshirishga loyiq bo'lgan xabarlar orasidan asosli va ishonchlilarini nazardan chetda qoldirmaysan...".

Qissadan olingan mazkur parcha ibn Sinoning falsafiy qarashlarini ifoda etadi. Asardagi obrazlar majoziy ma'noga tayanadi. Jumladan, *do'stlar* – insonning ichki va tashqi sezgi a'zolari, *o'zlari yashayotgan yurt* – insonning badani, ya'ni tiriklik payti, *qariya* – Aql, *Quddus* – sof aql olami, *farosat ilmi* – mantiq ilmi, *ota* – komillik ramzi, *yo'ldan uzdiruvchi* – hissiyotga berilish, *o'ng tomoningda turgan do'sting* – g'azablanish, *chap tomoningda turgan do'sting* – insondagi istakka berilish kayfiyati va h..

Bu majoziy ma'nolar ibn Sinoning falsafiy ilmlarni chuqur egallaganini dalillash bilan birga, inson mantiq ilmni puxta egallashi lozimligini va buning natijasida hayotda hech qachon yo'ldan adashmasligini uqtiradi. Aqlning kamoloti mantiq ilmiga bog'liq. Zotan, ibn Sino "Hayy bin Yaqzon" qissasi so'ngida chiqargan quyidagi xulosasi asarning asosiy maqsadini ifoda etadi: "Seni uyg'otish maqsadida qilgan bu hikoyam meni unga (ya'ni aqlga – N.R.) yaqinlashtirmaganda edi, men bu hikoya bilan mashg'ul bo'lmasdim, senga bu so'zlarni gapirib o'tirmagan bo'lardim. Istasang, menga ergash, seni unga olib borayin".

Shu o'rinda mazkur asarning janr xususiyati haqida ham aytib o'tish kerak bo'ladi. Ibn Sino asarining so'ngidagi parchada "hikoya" so'zini qo'llaydi. Ammo bu adabiy janrni emas, balki "bayon qilish" ma'nosini ifoda etadi. Ibn Sinoning hamma nasriy asarlariga ("Qush", "Solomon va Ibsol", "Yusuf" qissalari) nisbatan "qissa" termini, she'riy asarlariga nisbatan "doston" termini to'g'ri keladi.

**"Hayy bin Yaqzon"ning jahonshumul ahamiyati.** Ibn Sinoning "Hayy bin Yaqzon" asari keyingi asrlarda Sharq olamiga keng yoyildi. Jumladan, XII asrda yashagan arab olimi ibn Tufayl (1110 -1185)ning ilmiy va adabiy faoliyati bunga misoldir. Ibn Tufayl Almohidlar saroyida vazir, ayni paytda tabib lavozimlarida xizmat qilgan edi.

Ibn Tufaylning qiziqish doirasida falsafa asosiy o'rinni egallaydi. U insonning bilish faoliyati masalalariga e'tibor qaratdi. Sharq falsafasini, jumladan, ibn Sinoning falsafiy qarashlarini chuqur o'rgandi, uning ilmiy va adabiy faoliyati bilan yaxshi tanishdi. Ibn Tufayl o'zining "Hayy bin Yaqzon" qissasi bilan mashhur bo'ldi. Ibn Tufayli shu asarning muqaddimasida ibn Sinoni alohida hurmat bilan tilga oladi va o'z asarining quyidagicha nomlanganini bayon qiladi: "Faylasufflar rahnamosi, imom Abu Ali ibn Sinoning va komil faylasuf, bilimdon Abu Bakr ibn Tufaylning so'zlari mohiyati mag'zidan olingan Sharq donishmandligining sirlariga oid "Hayy bin Yaqzon" risolasi".

Ibn Tufayl mazkur kitobida insonning tabiiy ravishda rivojlanishi va uning tafakkuri haqida hikoya qiladi. Asarda Sharqning buyuk mutasavvufi Abdulhamid G'azzoliy, Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy, Ibn Rushd kabilarning asarlaridan iqtiboslar keltiradi, Haqqa yetishish va inson kamoloti to'g'risidagi qarashlarini ilgari suradi. Ibn Tufayl o'z asarida Ibsol va Solomon bilan bog'liq voqealar haqida ham bayon qiladi va har ikkalasini oliyjanob fazilatlar, ezgu maqsadlar egasi qilib tasvirlaydi.

Ammo bu asarda ibn Sinoniki singari Salomon va Ibsolning ertaknamo saarguzashtlari yo‘q, asosan har ikkalasining komillik sari intilishlari falsafiy yo‘sinda bayon qilingan.

**“Qush” va “Salomon va Ibsol” qissalari.** Har ikkala qissada ham, xuddi “Hayy bin Yaqzon” asaridagi singari, ibn Sinoning falsafiy qarashlari majoziy obrazlar orqali tasvirlanganini ko‘ramiz. Xususan, “Salomon va Ibsol” shakliy tomondan qahramonlik va axloqiy ta‘limiy mazmundagi qissa bo‘lib ko‘rinadi, qissada o‘zbek xalq ertaklarining bayon usuli yetakchilik qiladi. Aslida esa ibn Sinoning bu qissani yaratishdan maqsadi tamomila boshqa: Salomon – bir inson, Ibsol esa insonning ruhiy-ma‘rifiy jihatini ko‘rsatadigan timsol. Salomonning xotini – shahvoniy hirslar timsoli.

Bu qissadagi majoziy ma‘noni ibn Sino “Yusuf” qissasida davom ettiradi: Ya‘qub – Salomon obrazini, Yusuf – Ibsol obrazini, Yusufning xo‘jayini xotini – Salomonning xotini obrazini takomillashtiradi. Har ikkalasi ham sarguzasht qissa janrida yozilgan.

“Solomon va Ibsol” qissasi takrorlanmas asar sifatida mashhurdir. “Yusuf” qissasi esa Musoning “Ibtido” kitobidagi va Qur‘oni Karimdagi Yusuf qissalari bilan mazmunan birdir, ya‘ni mavzu an‘anaviydir. Ibn Sinoning qissasida bir o‘rinda takrorlanmas, avvalgi qissalarda yo‘q lavha bor: Yusufni akalari quduqqa tashlaganlaridan keyin, Misrga ketayotgan karvon odamlari suv olgani quduqqa chelak tashlaganlarida, chelakdan suv o‘rniga chiroyli bola chiqadi.

**“She‘r san‘ati” asari.** Ibn Sinoning adabiyotshunoslik sohasidagi xizmatlari ham diqqatga sazovor. Olim she‘riyat haqida umumiy tushuncha berar ekan, she‘r obrazli so‘zlardan tashkil topishi, she‘rda vazn, ritm va qofiya haqida ma‘lumot beradi. Xususan, she‘r tuzilishida teng va vaznli gaplarning vazifasiga izoh berib, she‘rdagi har bir gap ritmli qismlardan tuzilgan<sup>48</sup>, deb tushuntiradi.

Ibn Sinoning she‘rda qofiya haqidagi qarashlari Sharq mumtoz poetikasidagi, jumladan, o‘zbek adabiyotshunosligidagi qofiya nazariyasiga mos keladi. Uningcha, har bir qofiyadosh so‘zlarning oxiri bir xil harf, ya‘ni bir xil tovushlar bilan tugallanishi kerak. U qofiya elementlari haqida batafsil to‘xtalmaydi, chunki mantiqshunos she‘rda diqqat qilishi kerak bo‘lgan narsa qofiya, aruz yoki boshqa vositalar emas, bal-

---

<sup>48</sup> Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1980, 89-bet.

ki obrazlilikdir. Zotan; “obrazli qilib aytilgan so‘z kishi ruhini o‘ziga bo‘ysundiradigan bir holat kasb etadi”(Yuqoridagi asar, 89-b.). Har qanday obrazlilik badiiylik va ijodiylik bilan uyg‘unlashgandagina, ijtimoiy burch maqsadlarini o‘zida tashiydi. She’rning bosh maqsadi ham shunda.

Ibn Sino she’rdagi taajjub, sun’iylik kabi bir qator usullar she’rning shakliy tomonlari va mazmuni ifodasi uchun qo‘llanishini chuqur tahlil qiladi, yunon she’r janrlari – tragediya, difiramba, komediya, yamb, drama, diaqrama, efiqiy-ritoriqiy, satira, fiyumuta (poema), efijonasuvus, akustika kabilarni alohida-alohida tavsif qiladi, ularning janriy tabiatini yaqqol ifodalab beradi. Masalan, u yambning xususiyatlari haqida so‘z yuritib: “jamiyatning har bir sohasida mashhur bo‘lgan voqealar, elga taniq bo‘lgan masalalar zikr qilinadi. Bu nav she’rlar o‘zida tortishuvli masalalarni ifodalaydi. Unda urush, janjal, g‘azablanish, g‘ijinish kabi kayfiyatlar tasvirlanadi”, deya ta’rif beradi. Yoki bugungi adabiyotdan mustahkam o‘rin olgan dramani shunday ta’riflaydi: “She’r navlaridan yana biri drama deb ataladi. Bu nav ham xuddi yambning o‘zi. Faqat shunisi borki, bu nav – janr vositasida el aro tanilgan bir shaxs yoki ma’lum kishilar haqida hikoya qiladi”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ibn Sinoning nazaridagi drama bugungi adabiyotdagi badiha janriga to‘g‘ri keladi. Yana bir diqqatni jalb qiladigan tomoni shuki, ibn Sino dramani adabiy turga emas, balki janrga taaaluqli deb biladi.

Umuman, ibn Sino she’riy janrlarning alohida, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaganda, janrlarning shakliy tomoniga emas, faqat mazmun tomoniga e’tibor qaratadi.

Ibn Sino tibbiyotga oid asarlarini doston janrida yozdi. Bular quyidagilardir:

1. “Sog‘liqni saqlash – gigienaga oid urjuza”.
2. “To‘rt fasl haqida urjuza”.
3. “Anatomiyaga oid urjuza”.
4. “Gippokrat vasiyatlar haqida urjuza”.
5. “Tajribadan o‘tgan tibbiy narsalar haqida urjuza”.
6. “Tibbiy nasihatlar yozilgan urjuza”.
7. “Mantiqqa oid urjuza”.
8. “Aloqa haqida urjuza”.
9. “Tabobat haqida urjuza”

(Yuqoridagi asar, 11-b.).

Ibn Sino bu asarlarini aruzning rajaz bahrida yozgan. Shuning uchun ham uning she’riy yo‘l bilan yozgan ilmiy asarlari *urjuza* deb atalgan.

**Rudakiyning O‘rta Osiyo adabiy muhitidagi o‘rni (to‘liq ismi Abu Abdulloh Ja‘far Ibn Muhammad)** - fors-tojik she‘riyatining, umuman, fors-tojik adabiyotining asoschisidir. U fors she‘riyatining she‘riy shakllarini, janrlarini, she‘r o‘lchovlarini yaratdi. 858-860-yillar oralig‘ida Panjrud qishlog‘ida tug‘ildi. Yoshligidanoq she‘riy iste‘dodi, rud nomli musiqa asbobini mahorat bilan chalish, qo‘shiq aytish orqali dong taratdi. Uni Somoniylar hukmdorlari saroyga taklif qildilar. Shoirning qirq yil umri saroyda o‘tdi va katta hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘ldi. Uning ham shoirlik, ham xonanda va cholg‘uchi sifatida iqtidori “Xuroson bulbuli” deb nom taratishiga sabab bo‘ldi.

Rudakiyning tug‘ma ko‘zi ojiz ekani to‘g‘risida bahslar bor. Rivo-yatlarga ko‘ra, Rudakiy ismoiliylar (ya‘ni fotimiylar) mazhabiga mansub edi. Ayrim o‘rinlarda Rudakiy fotimiylar (bu xalifalik 909-1171-yillarda hukmronlik qilgan bo‘lib, Muhammad a.s.ning qizi Fotimaning ismidan olingan) tarafdori bo‘lgan deb aytiladi. Fotimiylar ham aslida Ismoiliylar mazhabiga e‘tiqod qilganlar, ularning qarashlari, diniy-fasafiy aqidalari deyarli bir bo‘lgan. Shu bois Rudakiy bir she‘rida fotimiylar (ya‘ni ismoiliylar) bilan hammaslak ekanini, ularni qo‘llab-quvvatlagani haqida aytar ekan, xalqni ham Fotimiylar aqidalariga qo‘shilishga da‘vat qiladi:

Faqat Fotimiylarning bo‘l tarafdori,

Chunki agar qo‘zg‘alsa sichqon chiyillab,

Ilon qo‘rqar, mushukning tugar madori

*(M. Muinzoda tarjiması)*

Bu paytda Rudakiy Amir Nasr saroyida malik ush-shuaro bo‘lib xizmat qilardi. 940-yili ismoiliylarga qarshi qo‘zg‘olon bo‘ldi. Rudakiyga hasad qilib yurgan vazirning qutqusi bilan Amir Nasr shoirning ko‘zini o‘yib olishga va mol-mulkini musodara qilishga buyruq berdi. Shu voqeadan keyin Rudakiy tug‘ilgan qishlog‘iga qaytib keldi va 941-yili vafot etdi.

Shu o‘rinda Ismoiliylar mazhabi haqida qisqacha ma‘lumot berishni o‘rinli deb bilamiz.

**Ismoiliylar mazhabi** 765-yili shiachilik mazhabida bo‘linish natijasida yuz berdi. 760-yili shiachilikda oltinchi imom Jafar as-Sodiq to‘ng‘ich o‘g‘li Ismoilni imomatning qonuniy merosxo‘rligidan mahrum qildi va kichik o‘g‘lini valiahd deb e‘lon qildi. Buning sababi shu edi-ki, Ismoil sunniylarga ashaddiy dushmanlik kayfiyatida edi. Ismoilning hokimiyat tepasiga kelishidan aholining o‘rta va quyi qatlami shialar ja-

moatining ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarish bo'lishiga umid qilardi. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay Ismoil vafot etdi. Ismoil vafot etgan bo'lsa ham, uning tarafdorlari harakati yoyilib boraverdi. Avvaliga u, Ismoil o'ldirilmagan, balki dushmanlardan yashirib yuribdi, ya'ni Ollohning xohishi bilan "g'oyib" bo'ldi, deb gap tarqatdilar. Ma'lum vaqt o'tgach, Ismoilni yettinchi, "yashiringan imom", u kerak paytda paytda Yog' surtilgan-mahdi sifatida paydo bo'ladi, shuning uchun yangi imomlarning kelishiga hojat yo'q, deb e'lon qildilar. Ismoiliylar asta-sekin kuchayib, X asrda Shimoliy Afrikada Fotimiylar xalifaligiga asos soldilar. Aynan Fotimiylar xalifaligi davrida Ismoiliylar Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqaldilar. Fotimiylar xalifaligining markazi Qohira bo'lib qoldi. Musulmon olamining boshqa o'lkalarida, shuningdek, ortodoks shialar yashaydigan o'lkalarda ham Ismoiliylarni ashaddiy mazhab deb hisobladilar va ularni shafqatsiz ta'qib qildilar.

Ismoiliylarning falsafiy-diniy aqidalaridan biri shu ediki, Olloh vaqti-vaqti bilan yer yuziga yuborilgan payg'ambarlar Odam Ato, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad a.s.larning tanalariga o'zining ilohiy mohiyatini joylashtirgan. Ismoiliylar ularni "notiqlar", ya'ni voizlar deb atagan edilar. Har bir yuborilgan payg'ambar voizlarga hamroh qilib "somitlar", ya'ni sukut saqlovchilarni ham yuboradi. Somitlar hech qachon o'zlaridan gapirmaydilar, balki payg'ambar voizning va'zlarini talqin qiladilar. Muso davrida Horun, Iso davrida Butrus, Muhammad a.s. davrida Ali bin Abu Tolib somit edilar. Olloh har bir payg'ambar voizni yuborganda, ular odamlar oldida fazoviy idrokni va ilohiy haqiqatni ochib beradilar. Ismoiliylarning yana bir aqidasi ko'ra, olamga yettita payg'ambar voiz kelishi kerak. Ularning biridan keyin ikkinchisi paydo bo'lishi oraliq'ida olamni yetti imom izchil ravishda boshqaradilar, Olloh ular orqali payg'ambarlarning ta'limotini talqin qilib beradilar. Oxirgi – yettinchi payg'ambar voiz Ismoil o'g'li Muhammad qaytib kelganda, u so'nggi ilohiy timsolni o'zida zohir etadi. Shundan keyin olamda ilohiy idrok hukmron bo'ladi. Ilohiy idrok e'tiqodli musulmonlarga adolatni va rohat-farog'atni olib keladi.

Rudakiyning hayoti va ijodi haqida ishonchli ma'lumotlar as-Somoniylarning "Kitob ul-ansob" (Nasabnoma kitobi), Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob" (Mag'izlarning mag'izi, 1222-yil) va Davlat-

shoh Samarqandiyning “Tazkiratush-shuaro” tazkiralarda bor. Hamma tazkiralarda Rudakiy haqidagi ma’lumotlar bir-birini to’ldiradi: arab va Ajamda unga teng keladigan shoir yo’qligi, xalq uni doimo tantana bilan kutib olgani, Amir Nasr davrida benihoya boyigani, uning she’rlari yuz jilddan (daftardan) iborat bo’lgani haqida mazkur tazkiranavislar yozib qoldirganlar. Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, “ustod Rudakiy advor (musiqqa sohasining bir turi – N.R.) va musiqiy fanida tamom quvvatga ega edi... uning ilmlar va ko’p fanlardan voqifligi bordir. She’riyat turlaridan qasida va masnaviyini (ham) yaxshi aytar erdi. Ustod Rudakiy xosu avom oldida baland martabaga erishgan”. O’rta asr adabiyotida Firdavsiy va Hofiz ijodida, bayozlarda, lug’atlarda Rudakiy nomi tez-tez eslanadi.

Rudakiyning ijodiy merosi 130 ming baytdan iborat. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, bir million uch yuz ming baytdan ham ko’p ekan.

Jumladan, XI asrda yashagan shoir Rashidiy Samarqandiy Rudakiyning adabiy merosi haqida quyidagicha ma’lumot beradi:

Jahon she’riyatiga boshliq kerak bo’lsa gar,  
Shoirlarga bosh bo’lmoq Rudakiyga yarashar.  
She’rini sanab chiqdim o’n uch martaba yuz ming,  
Yaxshiroq sanaganda, ehtimol, ko’proq chiqar.

*(M. Muinzoda tarjimasini)*

Bizgacha uning ming baytdan ortiqroq ijodiy merosi yetib kelgan. Bu meros turli lug’atlardan, bayozlardan va tazkiralardan yig’ib jamlangan.

Rudakiy fors-tojik adabiyotida birinchi bo’lib devon qoldirgan shoiridir. Uning devoni qasida, g’azal, qit’a, ruboiy va boshqa janrlardan iborat bo’lgan. Rudakiyning bizgacha yetib kelgan adabiy merosi orasida “May onasi” (933-yil), “Qarilikdan shikoyat” avtobiografik qasida-si va 40 ta ruboiysi to’liq saqlangan. Qolgan ijodiy merosi – madhiya, ishqiy, falsafiy didaktik mazmundagi asarlar parchalaridan iborat. Rudakiy hind xalqining mashhur dostoni “Kalila va Dimna”ning arab tilidagi nasriy nusxasidan fors-tojik tiliga masnaviyda tarjima qilgan (932-yili).

Shoirning bizga yetib kelgan she’rlaridan ma’lum bo’ladiki, u hayotdan zavq olishni, tabiat go’zalliklaridan bahramand bo’lishni kuy-



laydi, yaratilgan jamiki narsalar, jumladan, tabiatning go‘zalligi ham, insoniyat uchun ekanini alohida ta’kidlaydi. Shoir qo‘llagan tashbehlar, tasvir usuli takrorlanmasdir. Bu vositalar faqat tabiat manzarasi ifodasi bo‘lib qolmay, balki inson qalbi, ruhiy kechinmalarining ifodasi hamdir:

Bahor oyi yetib kelib qish oyini etdi yag‘mo,  
Fazo yuzini qopladi chang, qonga to‘ldi dashtu sahro.  
Ilk bahorning ko‘z yoshidan shoxlar oldi yuziga rang,  
Hamal oyin xush hididan bo‘ldi tuproq anbaroso.

*(M.Muinzoda tarjimasi)*

Quyidagi ruboiy ham, yuqoridagi singari, dunyoviy ishqning madhiyasi bo‘lib jaranglaydi. Shoir psixologik parallelizmdan va o‘xshatish san’atidan foydalanib, chin oshiqning va ma’shuqaning obrazini yaratadi:

Laylo yuzi kabi lola sahro bo‘ylab kulib turar,  
Majnun ko‘zi kabi bulut qon yoshini qilur daryo.  
Oqar suvdan kelmoqdalar har soatda gulob hidi,  
Mening yorim ariq ichra gul yuzini yuvmish go‘yo

*(M.Muinzoda tarjimasi)*

Rudakiyning qit’alari chuqur falsafiy-didaktik mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Uning qit’alaridagi inson bu olamda tom ma’noda mardona harakat qiladigan, boshqalarga kerak bo‘lganda tirgak bo‘ladigan, yordamini ayamaydigan zotdir. Uning qahramoni insonlarga yordam berishni o‘zining burchi deb biladi. Quyidagi qit’aga murojaat etaylik:

O‘z nafsini mag‘lub etolgan marddir,  
G‘iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir,  
Nomard tepib o‘tar yiqilganlarni  
Ojiz kishilar qo‘lin tutolgan marddir.

*(Ergash Ochil tarjimasi)*

Qit’a mohiyatan Pahlavon Mahmud ruboyilaridagi javonmardlarning faoliyatini eslatadi. Zotan, javonmardlar garchi filday kuchli bo‘lsalar ham, o‘zlarini chumoliday ojiz qilib ko‘rsatardilar. Demak, Rudakiyning ijodida javonmardlikning ilk kurtaklari bor deb aytish uchun asoslar bor.

Quyidagi qit’a ham, yuqoridagisi kabi, didaktik mazmun ifodalab, bu hayotda inson umr kechirar ekan, har bir odamning hayotda o‘z o‘rni bor, odam bu olamga kelib, hayot maktabidan samarali saboq olishi kerak, degan o‘g‘itni ilgari suradi. Ayni paytda bu qit’a “hayot - muallimdir” degan oddiy haqiqatni odamlarga yana bir bor eslatadi:

Zamon menga juda qimmat nasihat etdi,  
Agar bilsang, zamon to‘la nasihat erur.  
Dedi: o‘zdan balandroqni ko‘rib g‘am yema,  
Ko‘p kishi bor, sen bo‘lishni orzu qilur.

*(M. Muinzoda tarjimasi)*

“Qarilikdan shikoyat” qasidasida shoirning yoshlikda hayotda topgan quvonchu shodliklari, yoshlik davrining go‘zalliklari va madhi, hayot go‘zalliklaridan quvonish kuylanadi. Shu bilar barobar, qasidaning nomiga binoan, shoir keksaygan chog‘larida duchor bo‘lgan azob-uqubatlarini dardu amlari o‘z ifodasini topgan. Aytish mumkinki, mazkur qasida Rudakiyning tarijmai holidir. “Durri g‘alton” (dumaloq dur), “charog‘i tobon” (yop-yopug‘ chiroq), “durri marjon” (marjon duri), “tongdagi cho‘lpon” bo‘lgan tishning to‘kilishi shoirning hayotda zavqlanib, badastir yashaganining alomatini ifoda etsa, quyidagi baytlar shoirning nafaqat jismonan qarilik azoblariga giriftor bo‘lganini, balki ma‘naviy tomondan ham parokanda bo‘lgan hayotini ifoda etadi:

Yuzim tekisligi atlas kabi zamon o‘tdi,  
Mening sochim u zamonda qaroyu qatron edi.  
Chunonchi shuncha go‘zallik aziz mehmon ekan,  
Qaytmagay yana, besh-olti kunga mehmon edi.

*(G‘afur G‘ulom tarjimasi)*

Rudakiyning she‘rlari hatto hukmdorlarga ham katta ta‘sir o‘tkaza olgani to‘g‘risida rivoyatlar bor. Amir Nasr Hirotga borib, ancha vaqt qolib ketadi. Saroy ahllari, shoh a‘yonlari Buxoroga – o‘z oilalari bag‘riga qaytishni istaydilaru lekin hech kim shohga bu haqda aytishga botina olmaydilar. Ular bu qiyin ishni yetkazishni Rudakiydan iltimos qiladilar. Zotan, Rudakiyning o‘zi ham ona shahri Buxoroni sog‘ingandi. Bir kun amir ertalab ziyofatda o‘tirgan paytda Rudakiy o‘z o‘rniga o‘tiradi-da, qo‘liga sozini olib, quyidagi g‘azalni kuylay boshlaydi:

Muliyonning hidi bu yon keladir,  
Mehribon yor yodi shu on keladir.  
Amuning qum toshi oyoq ostida  
Par misoli rohatijon keladir.  
Qanchalik toshsa-da Amu suvlari  
Otimiz qornidan tubon keladir.  
Ey Buxoro, shod bo‘l, ham shod kul,  
Sen taraf shoh shodu shodmon keladir.

Shoh oydir ham Buxoro osmon,  
Osmonga oy nurafshon keladir.  
Shoh sarvdir ham Buxoro bo'ston,  
Bo'stonga sarvi ravon keladir.

Ona yurt manzarasiga, vatan sog'inchiga yo'g'rilgan bu g'azalni eshitgan amir Nasr irg'ib o'rnidan turadi-da, etik kiyiishni ham unutib, uyda yuradigan kafshi bilan otga minganicha, Buxoroga yo'l oladi.

Sharq adabiyotida Umar Xayyom, Nizomiy, Firdavsiy, Jomiy va Rumi kabi buyuk ijodkorlar Rudakiyni she'riyatdagi ustozlari deb biladilar.

**Firdavsiyning adabiyotga qo'shgan hissasi** (to'liq ismi **Hakim Abulqosim Mansur Hasan Firdavsiy- Tusiy** 935, Tus (Eron) – 1020) mashhur fors shoiri, "Shohnoma" dostonining muallifi. «Yusuf va Zulayho» dostonini yozgan. Firdavsiy shoirning taxallusi bo'lib, «jannat» demakdir. "Hakim" unvoni bilim doirasi nihoyatda kengligi uchun berilgan bo'lib, «donishmand», «olim» ma'nosini bildiradi.

Firdavsiy taxminan 932-936-yillar oralig'ida Xurosonning Tus shahrida shia mazhabining Ismoililar oqimiga mansub oilada tug'ilgan.

Firdavsiyning yoshligi haqida deyarli ma'lumot yo'q. U o'z davrida Eronning asosiy adabiy tillarini - arab va fors tillarini puxta o'rgangan. Eronda fors tiligacha asosiy til bo'lgan pahlaviy tilini ham juda yaxshi o'zlashtirgan degan ma'lumotlar bor. U uzoq vaqt G'azna shahrida yashadi, Mahmud G'aznaviy xizmatida bo'ldi («Shohnoma»ni ham Mahmud G'aznaviyga bag'ishlagan). Ammo dostonida ilgari surilgan «Shohning merosxo'r avlodlarigina hukmronlikka da'vo qilish huquqiga ega» degan g'oya Mahmud G'aznaviyga ma'qul kelmadi. Afsonalarga ko'ra, sulton Mahmud mazkur doston uchun Firdavsiyga va'da qilingan mukofot to'lashni rad qilgan. Shoir bundan qattiq ranjidi va bir satira yozib, sulton Mahmudning qul naslidan ekaniga ta'na qildi. Oqibatda sulton Mahmud g'azablanib, shoirni filning oyog'i ostiga tashlashga amr berdi. Firdavsiy esa mamlakatdan qochib chiqib ketdi va umrining oxirigacha kambag'allikda darbadar kezib yurishga majbur bo'ldi. Mana, o'sha hajviyadan bir necha misra:

Kishvarlar fotih Mahmud podisho,  
Mendan qo'rqmas ersang, Xudo bor, Xudo.  
O'ttiz yil mehnatu zahmatda qoldim,  
Forsiyda Ajamni tiriltiroldim...

Nomamga biror bor tashlamay nigoh,  
Ig'vogarga quloq soldingmi, gumroh?...  
Shundaymidi va'da, shundaymidi did,  
Shundaymidi jahon shohidan umid?  
Mamlakat boshiga xasis chiqmasin,  
Mardlarga xasislik aslo yuqmasin...  
Ajdodlari tojdor bo'lmagan podsho  
Tojdorlar ishini qilolmas aslo...  
Shohlardan bo'lsaydi bu shohga padar,  
Kiygizgan bo'lardi menga toju zar...

*(Sh. Shomuhamedov tarjiması)*

«Shohnoma» oltmish ming baytga yaqin ulkan asar. Bu dostonda ellik podsholikdan iborat to'rt sulolaning – Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar, Sosoniylar sulolalarining to'rt ming yillik tarixi berilgan.

Peshdodiylar sulolasining hukmronligi Qayumarsdan boshlanadi va so'ngra Hushang, Tahmuras, Jamshid, Zahhok, Faridun, Manuchehr, Zol kabi o'n bir hukmdor davom ettiradi. Kayoniylar sulolasi Kaykovus hukmronligidan boshlanadi va Iskandar hukmronligi bilan tugaydi. Bu sulolani o'nta hukmdor boshqargan (ba'zi manbalarda Iskandar Kayoniylarga emas, Ashkoniylar sulolasiga mansub deb qaraladi). Ashkoniylar sulolasi esa Doro hukmronligidan boshlanib, Arduvon binni Yalosh hukmronligigacha davom etadi va, Navoiyning aytishicha, «tarix ahli orasida bu tabaqa dag'i salotin tartibida bag'oyat muxolifat ko'ptur (Tarixchi olimlar orasida bu sulola sultonlari tartibida qarama-qarshi fikrlar ko'p)». Navoiyning tadqiq etishiga qaraganda, Ashkoniylar sulolasi Ashk binni Dorodan boshlangan va davlatni jami o'n beshta hukmdor birin-ketin boshqargan. So'nggi – Sosoniylar sulolasi hukmdorligi Ardasher hukmronligidan boshlanib, Yazdigird hukmronligigacha davom etdi.

Doston muqaddimasi Oллоhga hamd bilan boshlanib, «Aql vasfida bir necha so'z» bobiga o'tadi. Bu bobda Firdavsiy inson aql-zakovatini ulug'laydi, Oллоh ato etgan oliy idrok – bu aql ekani, kishiga aqli rahnamo bo'lishi lozimligi, aks holda inson umrini afsus-nadomat bilan o'tkazishi haqida o'git beradi. Shu bilan birga, insoniyatni aql bilan ish tutishga, donolardan ibrat olishga da'vat etadi:

Hamisha aqlingni rahnamo etgil,  
Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.

Yo'l izla donolar suxani tomon,  
Dono so'zin takror etib, kez jahon

(*Sh.Shomuhamedov tarjimasi*)

Muqaddimadan so'ng dostonni uch qismga bo'lish mumkin. Doston afsonaviy qism, qahramonlik eposi va tarixiy bo'limlardan iborat bo'lib, qadim zamonlardan to arablar istilosiga qadar bo'lgan Eron tarixini qamrab oladi. «Shohnoma»ning asosiy g'oyasi ona Vatanni jondan sevishga da'vat, bosqinchilarga qarshi kurashish uchun mamlakatda birlik va yakdillikni targ'ib qilishdan iboratdir. Bu asar, asosan, Eron va Turon xalqlari o'rtasidagi kurash voqealariga bag'ishlangani bilan emas, balki Qayumars, Hushang, Jamshid, Kovai ohangar, Zahhok kabi bir qator afsonaviy va tarixiy obrazlar orqali yer yuzida yaratilgan barcha narsalar insoniyat uchun ekanini, hukmdorlar o'z qo'l ostidagi insonlarning manfaati uchun mas'ulligini aytmqochi bo'lgan edi. Shuningdek, hukmdorlarning takabburligi, xalqqa o'tkazgan zulmi oxir-oqibat mamlakat vayronagarchiligiga va toj-taxtning qulashiga sabab bo'lishiga ishora qiladi. Jumladan, Qayumars afsonasiga e'tibor beraylik. Qayumars – yer yuzidagi birinchi podshoh, u o'ziga hashamatli saroy qurmadi, balki manzilini tog' ichiga o'rnashtirdi; serhasham, qimmatli liboslar kiyimadi, balki yo'lbars terisini chopon qilib kiyardi. Ayni zamonda:

U boshlab insonni qildi parvarish,  
Yangilandi kiyim-kechak va yemish...

Ne turli jondor bor olamda, bari  
Orom istab kelar Qayumars sari.

Odamlar egilib o'par taxtini,  
Barchasi shu taxtdan topar baxtini...

Keyingi voqealar Qayumarsning o'g'li Siyomak va nabirasi Hushang bilan bog'liq kechadi. Qayumars jamiki insoniyatga orom bergan bo'lsa ham, yer yuzida hali yovuzlik bor edi. Yovuzlik timsoli dev Axriman Siyomakni o'ldiradi. Endi Qayumarsning qo'shini lashakrboshisiz qoldi. O'g'lining o'limidan dunyo ko'ziga tor ko'ringan Qayumars bir yil aza tutdi. Bir yildan so'ng Ollohdan shunday payg'om keladi: «Endi sen dev Axriman to'dasining kulini ko'kka sovur, kimning dilida o'ch olovi bo'lsa, sen suv sepib o'chir». Qayumars ham, yomonlarning boshiga yomonlik yog'ilsin, deb ont ichdi. Qayumars nabirasiga – Siyomakning o'g'li Xushangga lashkarga bosh bo'lib dev Axrimanga qarshi yurish qilishni maslahat berdi. Xushang va bobosi Qayumars jangga lashkarni

ergashtirib, birga jo‘nadilar. Xushang Axrimanni tutib, «tuproqqa uning boshini qordi». Shu voqeadan keyin Qayumarsning umri ham nihoyasiga yetdi. U o‘ttiz yil podshoh bo‘lgan edi.

Abu Rayhon Beruniy Qayumars afsonasini quyidagicha bayon qiladi:

Tangri Axramanning ishi xususida hayron bo‘lib, peshanasi terladi. U terni sidirib tashlagan edi, undan Qayumars paydo bo‘ldi. Tangri uni Axramanga qarshi yubordi, u Axramanni yengib minib oldi va uning ustida olamni aylantirishga tushdi. Nihoyat, Axraman Qayumarsdan eng yomon ko‘radigan va eng qo‘rqinchli narsasini so‘radi. Qayumars unga jahannam darvozasiga yetganda qattiq qo‘rqishini aytdi. Axraman jahannam darvozasiga yetgach, hiyla qilib o‘ynoqlay boshladi, oxiriyo Qayumars uning ustidan yiqilib tushdi. Axraman uning ustiga chiqib oldi va Qayumarsdan: «Qaysi tomoningdan yeyishga boshlay?» deb so‘radi. Qayumars o‘zining aytganiga Axramanning muxolif bo‘lishini bilib: «Oyoq tomonimdan yeyishga boshlagin! Olam husnini bir muddat ko‘rib turay», - dedi. Axraman uni bosh tomonidan yeyishga boshlab, moyagiga va erlik urug‘i idishi turadigan joyga yetganda, undan ikki tomchi erlik suvi yerda tom-di-da, yerdan ikki tup rovoch ko‘karib chiqdi. Rovoqlar o‘rtasidan Misho va Mishona tug‘ildi. Bu ikkisi eronliklar nazdida Odam va Havo o‘rnida bo‘lib, ularni Malhiy va Malhiyona ham deydilar. Xorazm otashparastlari ularni Mard va Mardona deb ataydilar<sup>49</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, Qayumars haqidagi ikki afsona tamomila birbiridan farq qiladi. Zotan, afsonalar turli joylarda har xil mazmun o‘zgarishlariga uchrashi tabiiy. Ammo har ikki afsonada ham Qayumars yer yuziga ezgulikni olib kelgan afsonaviy obrazdir.

«Shohnoma»dagi yorqin obrazlardan biri Jamshiddir. Jamshid yetti yuz yil hukmronlik qildi. Firdavsiy Jamshid qilgan xayrli ishlarni mufassal bayon qilib, barcha yaxshilik amalga oshib, davlat barqaror, xalq baxtiyor, hamma shod-xurram yashar edi, deb tasvirlaydi. Bir kuni Jamshid jamiki odamlarni yig‘ib, ularga shunday dedi:

Jahonda hunar mendan boshlanadi,  
Shohlik taxti mendan nomdorni ko‘rmagan,  
Jahonni men yaxshilik bilan bezadim,

---

<sup>49</sup> Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. —Toshkent, Fan: 1968, 127-128-b.

Men qanday xohlagan bo'lsam, shunday boylik paydo bo'ldi.

Hamma narsani men yaratganman, bilingiz,

Meni dunyoni yaratuvchi deb tanish kerak.

Bu xitobga odamlar bir so'z deya olmadi. Xalq g'ala-g'ovur qilib, har tomonga tarqalib ketdi. Shohning atrofidagi kishilar turli tomonga yoyilib ketdilar. O'zini Xudo deb faraz qilgan podshoh yo'qlikka yuz tutdi. Jamshidning o'zini Xudo deb e'lon qilgani uni manmanligi, o'ziga behad bino qo'yib yuborganligi tufayli kelib chiqqani ko'rsatiladi.<sup>50</sup>

Jamshid haqidagi afsona «Avesto»da ham bor. Tabariy, Beruniy, Navoiylar ham Jamshid to'g'risida mufassal ma'lumot berganlar.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. "Ilk uyg'onish davri" tushunchasi nimani anglatadi?
2. Xorazmiy tabiiy fanlarga oid qanday asarlar yaratdi?
3. Ahmad Farg'oniyning yaratgan ilmiy asarlari haqida so'zlab bering.
4. Forobiyning musiqa va she'r san'atiga oid asarlari haqida so'zlab bering.
5. Ibn Sinoning badiiy adabiyotga oid qanday asarlari bor?
6. Rudakiy O'rta Osiyo adabiyotida qaysi janrlarda ko'p ijod qildi?
7. Rudakiyning ruboyilaridan birini tahlil qiling.
8. Firdavsiy yaratgan adabiy muhit haqida so'zlang.
9. "Shohnoma" asarining mundarijasi haqida qisqacha aytib bering.

---

<sup>50</sup> O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 1 jild. 30-31-b.

## Abu Rayhon Beruniy va uning ilmiy, adabiy faoliyati

### Reja:

1. Beruniy ijodiga umumiy tavsif.
2. Beruniyning hikoyatlari.
3. Beruniyning afsona va rivoyatlari.
4. Beruniy foydalangan tamoyillar va manbalar.
5. Qayumars afsonasi va uning variantlari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *ilmiy va madaniy muhit, badiiy asar, hikoyat, rivoyat, afsona, Gʻaznaviylar davri adabiyoti, anʻanaviy madaniyat, etnograf, tarixchi, adabiyotshunos olim, ishonchli manba, tarixiylik tamoyili.*

**Beruniy ijodiga umumiy tavsif.** Gʻaznaviylar davlatining olib borgan siyosati ilmiy va madaniy muhitga keskin taʼsir oʻtkazdi. Gʻaznaviylar davlatining ilmiy, madaniy va adabiy muhiti XI asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy merosida namoyon boʻladi. Aytish mumkinki, Gʻaznaviylar davlatining butun yutuqlari, ilmdagi, adabiyotdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi omil – Beruniyning asarlaridir. Gʻaznaviylar sulolasida yaratilgan adabiyot alohida adabiy davrni hosil qilgani biz uchun muhim.

Abu Rayhon Beruniy, garchi biron badiiy asar yozmagan boʻlsa ham, u koʻplab tabiiy fanlar qatori, ijtimoiy-gunnitar fanlar, hususan, tarix, etnografiya, falsafa va filologiya sohalarini chuqur egalladi. Uning “Mineralogiya” kitobidagi koʻplab hikoyatlar, “Geodeziya” asarida keltirgan sheʼrlari bu davr adabiy jarayonining xususiyatlarini belgilash bilan birga, Beruniyning shoirlik iqtidorini, adabiyotni nozik did bilan tushunganini ham koʻrsatadi.

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Osor ul-boqiya”) asari Gʻaznaviylar davri adabiyotiga katta hissa boʻlib qoʻshildi. Mazkur asar tarixiy-etnografik asar boʻlgani holda, qadimgi rivoyatlar, afsonalardan ham Beruniy mahorat bilan foydalandi. Asarning yana bir qimmatli tomoni shuki, Oʻrta Osiyoning arablar istilosidan keyingi madaniy muhiti, ilmiy tafakkuri, ijtimoiy, siyosiy tarixi haqida ham maʼlum darajada maʼlumot beradi. Jumladan, Beruniy arablar kelgunga qadar Xorazmning oʻziga xos ilmiy maktabi, yuksak madaniyati borligi-



ni ta'kidlaydi, Arablar istilosi esa Xorazmning an'anaviy madaniyatini yo'q qildi. Beruniy bu asarida mazkur voqeaga quyidagicha sharh beradi: "Qutayba Ibn Muslim al- Bohiliy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar" (*Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, 84-b.*).

Umuman, tarixiy asarlar tarkibiga adabiy parchalarni kiritish bilan Beruniy o'zining adabiyotga munosabatini ko'rsatib qolmadi, balki XI asrgacha Movarounnahrda adabiy muhitning uzluksizligini dalilladi, o'z she'rlari bilan Movarounnahr adabiyotiga katta hissa qo'shdi. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari yevropada "Xronologiya" degan nom bilan ham yuritiladi.

**Beruniyning hikoyatlari.** Beruniy "Mineralogiya" kitobida Xorun ar-Rashid haqidagi hikoyalarni keltirsa, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da rivoyat va afsonalarni ma'lum bir dalil sifatida keltiradi. "Mineralogiya" kitobidagi hikoyalar qimmatbaho mineral toshlar munosabati bilan keltiriladi, ayni paytda Abbosiylar sulolasi hukmdorlaridan Xorun ar-Rashidning fe'l-atvoriga xos ayrim jihatlar, uning saxiy, mazlumlar dodiga yetadigan adolatli hukmdor ekani ochib beriladi. Misol tariqasida bir hikoyatni keltiramiz:

Ma'mun Xurosondan qaytib kelib, Bag'dodga kirganda, Fadl ibn ar-Rabi uzuk uchun zumrad toshni sovg'a qilibdi. Bunaqa toshni haligacha biron odam ko'rmagan ekan. Ma'mun o'sha uzumrad toshni u qo'lidan-bu qo'lga aylantiribdi-da, atrofidagilarga aytibdi: "Bu toshdan chiroylisini ko'rmagan edim". Keyin u shunday hikoya qilib beribdi: Abu Muslim Ziyod ibn Solihni Xitoyga jo'natibdi, u esa Abu Muslimga uzuk uchun qimmatbaho toshni jo'natibdi. Tosh Abu Muslimdan Abul Abbas as-Saffohning qo'lga o'tibdi. As-Saffoh toshni Abdulloh ibn Aliga hadya qilibdi. Undan esa al-Mahdiga, keyin ar-Rashidga hadya qilinibdi. Ar-Rashid qo'ndoqli kamondan o'q otganda, tosh uzukdan tushib qolgan ekan. Bu joyni va butun atrofni titib, qidirib chiqishibdi, ammo toshni topa olmabdilar. Ar-Rashid qattiq xafa bo'libdi. Xazinabon yigirma ming dinorga oldingidan ham qimmatliroq toshni sotib olib, ar-Rashidga jo'natibdi va shu yo'l bilan unga tasalli bermoqchi bo'libdi. Ar-Rashid toshga qarab, shunday debdi: "Mening toshim bilan uning nima ishi bor ekan!"

Shunda Ma'mun aytibdi: "Menga bu toshning hech qanday qimmatini yo'q, uni qadrlashimdan hech qanday ma'no yo'q". Ma'mun zumrad toshni al-Fadlga qaytarib yuborar ekan, uning chopariga shunday debdi: "Unga "Ey Abul Abbos, hokimiyating nihoyasiga yetdi", deb ayt", deya tayinlabdi. Zumrad tosh al-Fadlning qo'liga yetib kelgach, toshga tikiilib qarab tutibdi-da, a'yonlaridan biriga aytibdi: "Bugundan e'tiboran, Ma'mun bir yil ham yashamaydi", debdi. Kech kirmasdanoq, bu gap Ma'munning qulog'iga yetib kelibdi, ammo u bu gapni sir saqlabdi va bir yilgacha hech kimga bu haqda og'iz ochmabdi.

Abbos ibn Musabiyani oxirgi yo'lga kuzatib, otida kelayotgan ekan, Suriya darvozasida al-Fadlning o'g'illaridan biri uning qarshisidan chiqib qolibdi. Ma'mun al-Fadlning o'g'li bilan salomlashibdi va "Yaqinroq kel", deb iltimos qilibdi. Ma'mun egilib, uning qulg'iga shivirlab aytibdi: Abul Abbosga, muddat o'tib ketibdi, deb ayt".

Oллоh nomi bilan qasam ichamanki, Umar ibn Abdulaziz, butun olamni egallagan bo'lsa ham, bu toshlarni va shunga o'xshash buyumlarni, asosan, bu dunyoning narsalarini qimmatli deb qaramas ekan. Uning o'g'li Abdulla uzuk olibdi va uzuk uchun ming dirhamga tosh sotib olibdi. Umar ibn Abdulaziz gapni eshitgan zohoti, o'g'liga shunday deb maktub yozibdi: "Sen uzuk sotib olganing va uzuging uchun ming dirhamga tosh sotib olganing haqidagi gaplar menga yetib keldi. Mening qarorim shuki, sen uzukni sot va puliga mingta och odamni to'ydir; o'zingga kumushdan uzuk va muhr yasattir. Uzukka shunday deb yozdir: "O'llohning qudratini biladigan odamni Uning O'zi kechirsin!" Abdulla xalifa buyurganiday qilibdi.

"Minerologiya" kitobida Horun ar-Rashidning ayrim qirralariga oid keltirilgan boshqa hikoyatlar Abbosiylar saltanatiga ham berilgan baho edi (*O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari, 108-113-b.*).

Tarixiylik tamoyili "Minerologiya"dagi hikoyatlarning asosida yotadi. Hikoyalarning qahramonlari – ma'lum bir tarixiy shaxslar. Jumladan, yuqorida keltirilgan hikoyalarning qahramonlari – Xorun ar-Rashid. Beruniy o'zi yaxshi o'rgangan, bilgan dalillarni keltiradi.

**Beruniyning afsona va rivoyatlari.** Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiyah" asari tarkibidagi afsonalar va rivoyatlar ma'lum bir tarixiy voqeani dalillash yoki rad qilish uchun keltiriladi. Zotan, u bu asarining yozilish sabablarini ko'rsatadi, ammo amalga oshirish niho-

yatda murakkab bo'lganini yozadi. Ayniqsa, qadimgi xalqlar va ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketgani, yolg'on afsonalar va asossiz ma'lumotlarga to'lib-toshib ketganini ta'kidlaydi. Ayni paytda, Beruniy rivoyat va afsonalarning haqiqiyliklarini ajratib, saralab olish uchun imkoni boricha harakat qiladi. Beruniyning bu tamoyili ham tarixiylik va haqqoniylikka asoslanganini sezish qiyin emas. Yolg'on va soxta rivoyatlar qadimgi Sharq xalqlarining hisoblari haqidagi aniq ilmiy xulosalarga xalaqit bergani, ayniqsa, yolg'on xulosalarga olib kelgani haqida alohida ta'kidlaydi. Beruniyning asosiy maqsadi turli xalqlardagi yil hisobiga aniqlik kiritish, ularda ilgari tadqiqotchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatish edi. Beruniy yil hisobi uchun rivoyat va afsonalar nihoyatda muhim dalil ekaniga ishonadi, ularga suyanadi, ishonchsiz, shubhali rivoyatlar va afsonalarni rad qiladi. U rivoyat va afsonalarni tahlil qilishda o'zi tayangan asoslangan usul haqida shunday yozadi: "Men tutgan yo'l va belgilagan usul oson emas, balki uzoq va qiyin yo'l. Xabar va rivoyatlarga ko'plab kirib qolgan yolg'on so'zlarning hammasi ham ravshan emas. Boshqa dalillar bo'lmaganda ba'zilarining yolg'onligini bilib bo'lmadi. Odamlar hozir ham, o'tgan zamonlarda ham shunday tabiiy hodisalarga duch kelgan, agar o'shanday hodisalar uzoq zamonlarda [yuz bergan deb hikoya] qilinsa, albatta biz unga ishonmas edik. Xalqlardan biriga [tegishli] xabarlar[ning hammasi]ni aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydi-yu, hamma millatlar [haqidagi] xabarlarni bilishga qanday kofoya etsin?! Bu mumkin emas!" (*Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, 41-b.*)

Beruniyning rivoyat va afsonalarga bunday yondashuvi orqali o'zining pozitsiyasini aniqlashtiradi: u mazkur asarida nafaqat etnograf tarixchi, balki adabiyotshunos olim sifatida namoyon bo'ladi. U dunyo xalqlari adabiy jarayonidan yaxshi xabardor, o'z davridagi va o'zidan oldingi adabiy jarayonning qonuniyatlarini biladi. Rivoyat va afsonalar xalqqa yaqin adabiy janr bo'lgani uchun ham Beruniyning diqqatini ko'proq tortgan. U o'z davriga yaqin bo'lgan rivoyatlarga murojaat etish tarafdori. Nima uchun u shunday fikrda? Chunki rivoyatlar zamondan uzoqlashgan sari asliyatdan, haqiqiylikidan ham uzoqlashadi. Beruniy bu hodisaning qonuniyat ekanini adabiyotshunos sifatida yaxshi biladi. Beruniyning afsonalarni saralab olish tamoyilini quyidagicha bayon qiladi: "Ish shu yo'ldan boradigan bo'lgach, u rivoyatlarning davrimizga eng yaqin va eng mashhurini, so'ngra yaqinroq va mashhurrog'ini [birin-ke-

tin] olishimiz lozim. Ularning [ba'zilarini] o'z arboblardan qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holicha qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sevuvchining boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishiga yordamchi va bizga muyassar bo'lmagan narsalarga erishish uchun yo'lovchi bo'ladi. Biz Xudoning xohishi va yordami bilan shunday qildik" (*Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, 41-b.*). Ko'ryapmizki, Beruniy rivoyat va afsonalarni tanlash metodlarini ishlab chiqib bizga taqdim qilmoqda.

Abu Rayhon Beruniy rivoyatni haqiqatni qidiruvchi deb ataydi. Beruniy bu gapi bilan rivoyatlarning asardagi o'rniga bahor beradi. Beruniy uchun tarixiylik tamoyili bilan haqiqatni qidiruvchi rivoyat bitta vosita, bu rivoyatlar ma'lum bir voqyelikni yoki detalni isbotlash uchun keltirilgan yagona dalil. Rivoyatlar boshqalar uchun yo'l ko'rsatuvchi ekanini Beruniy ta'kidlar ekan, bundan rivoyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga ham ishora qilganini anglash mumkin. Ayni paytda rivoyatlar ilmiy tafakkur, fikr-qarashlar va xulosalar uchun muhim zamindir. Ammo bunda ham Beruniy tarixiylik tamoyilidan chekinmaydi. Beruniy asarining boshidayoq adabiy jarayonning, xususan, rivoyatlarning ijtimoiy, ma'naviy hayot uchun nihoyatda ishonchli omil ekanini ham dalillaydi.

**Beruniy foydalangan tamoyillar va manbalar.** Beruniy bir voqeadan ikkinchisiga, bir dalildan birdaniga boshqasiga o'tib turadi, bayonda bir xillikdan qochadi. Hatto "Geodeziya", "Qonuni Ma'sudiy", "Mineralogiya" singari ilmiy asarlarida ham shu yo'lni tanlaydi: o'rni-o'rni bilan qiziqarli voqealardan, hikoyatlardan, o'zining she'rlaridan keltiradi. Shuningdek, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da rivoyat va afsonalar ishlatishda ham shunday yo'l tutadi. Beruniy ilmiy asarlar tamoyilidan chekinayotganini biladi. Ammo bu usul kitobxonni asarga olib kirishda, asar mazmuniga va mohiyatiga jalb qilishda muhim vosita ekanini biladi. Bu haqda Beruniyning o'zi shunday deydi: "Garchi biz [bu kitobning] ba'zi joylarida turli fanlarga o'tib, bayonimizga aloqasi uzoq [masalalarga] kirishib ketsak ham, bu gapni cho'zish va ko'paytirish maqsadida emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik uchundir. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. [O'quvchi] fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi «har bir yangi narsada lazzat bor» deyilganidek, ularni [ko'rishga] qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi" (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 105-b.*)

Beruniy shundan so‘ng Odam, uning o‘g‘illari va shajarasi haqidagi rivoyatlarni jadval shaklida keltiradi. Beruniy uchun ishonchli manba – yahudiylar Tavroti. U Tavrotning uch nusxasini qiyoslab, ular o‘rtasidagi ixtiloflarni aniqlaydi. Bular: 1) mualliflar bayonidagi ixtiloflar; 2) diniy kitoblardagi ixtiloflar.

Birinchi inson haqidagi afsonalar dunyo xalqlarining ko‘pida yaratilgan. Odam va Havo, Mard va Mardona, Malhiy va Malhiyona, Misho va Mishona haqidagi afsonalarni Beruniy hikoya qiladi. Birinchi insonni inkor qiluvchilar ham bo‘lgan. Beruniy, shomonlarning qarashi shunday bo‘lgan edi, deb yozadi.

Beruniy rivoyatlarni asariga kiritganda, albatta, *saralash* tamoyiliga ham rioya qiladi. Shu bois rivoyatlarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashadi. O‘zi tanlagan tamoyillar asosida o‘zidan oldin o‘tgan olimlarning tarixiy asarlarini qo‘rqmasdan tanqid qiladi. Uning saralash tamoyili shundan iborat ediki, manbalarni tahlil qilganda, rostday ko‘ringan, lekin isbotsiz rivoyatlarni o‘zi tekshirib ko‘rmaguncha ularga ishonmaydi.

Darvoqe, “isbotsiz rivoyatlar” Beruniyning qarashicha qanday xususiyatlarga ega? Beruniyning zukko va sinchkov adabiyotshunos sifatidagi xizmatlari ana shu o‘rinlarda ayon bo‘ladi. Buning ustiga, Beruniy har bir manbaga, dalilga xolis qaraydi. Uning uchun diniy aqidalar to‘siq emas, uning uchun aqlning va bilimdonlikning o‘zi kifoya emas. Beruniyning o‘z oldiga qo‘ygan vazifasi va amal qilgan tamoyili shuki, u dalillarni *saralab olish* va *qiyoslash* yo‘lidan ketadi va buni quyidagicha izohlaydi: “...mendan so‘ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimi - *qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o‘tmish avlodlar to‘g‘risidagi xabarlarini bilishdir (ta’kid bizniki – N.R.)*, chunki bularning ko‘pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasmu rusum va qoidalaridan iboratdir. Aqliy [narsalardan] dalil keltirish, kuzatilgan [narsalarga] qiyos qilish yo‘li bilan u xabarlarini bilib bo‘lmaydi. Buni faqat “kitob ahllari” (judaizmga va xristianlikka, zardushtiylikka e‘tiqod qiluvchilar – N.R.) va turli din arboblari, shu [e‘tiqodlarga] amal qiluvchi har bir maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan bilinadi. So‘ngra buni ko‘pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko‘rishga imkon bermaydigan omillardan o‘zni tozalagandan keyin, ularning isbot uchun keltirgan so‘z va e‘tiqodlarini bir–biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o‘tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi

yo‘l va bunga dog‘ tushiruvchi shak–shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib zo‘r mashaqqat cheksak ham, o‘shandan boshqa yo‘l bilan maqsadga erisholmaymiz” (Beruniy. Yuqoridagi asar, 40-b.).

Darvoqe, Beruniy aytgan “yomon axloq”, “haqiqatni ko‘rishga imkon bermaydigan” narsalar nimalardan iborat? Bular, shubhasiz, insonning o‘jar xulqi, kaltabinligi, faqat o‘z bilganlariga suyanib qolish, boshqalarning fikr-qarashlari, ayniqsa, ishonchli manbalar<sup>7</sup> mensimaslikdir.

Beruniy suyangan tamoyillardan biri manbadir. Beruniy bu o‘rinda islom manbalari bilan birga, “kitob ahllari”ning, turli din arboblarning so‘zlari, ular keltirgan rivoyatlarning ishonchliligini ta’kidlamogda. Chunki yozma manbalarda saqlangan rivoyatlar, qaysi diniy oqimga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, ishonchli. Jumladan, Beruniy yana bir “kitob ahllari” – zardushtiylar davridan davom etib kelgan Mehrjon va Navro‘z bayramlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, bu bayramlar bilan bog‘liq rivoyatlarning O‘rta Osiyodan tashqarida – arablarda joriy etilishiga oid qiziq rivoyatlarni bayon qiladi. Har ikkala bayramni tarixda podshohlar tomonidan o‘zgartirishga bo‘lgan urinishlarni Beruniy hiko-ya qilar ekan, bu tamoyilni hukmdorlar o‘zgartirishga jur‘at qilmaganlari sababiga dalillar keltiradi. Beruniy hukmdorlar tilidan, azaldan davom etib kelgan odatlarni o‘zgartirish - xalqlarning o‘tmishdagi udumlariga qarshi borishdir, deydi. Bu haqdagi rivoyatlar orqali Beruniy hamma xalqlar yaratgan udumlar, inonchlar muqaddas va ularni hurmat qilish zarur ekanini uqtiradi. Beruniy bu haqdagi rivoyatlarni ishonchli manbalardan keltiradi. Mana, bir misol:

Abu Bakr as-Suliy<sup>51</sup> “Varaqlar kitobi”da bayon etishicha va Hamza ibn al-Hasan al-Isfahoniyni<sup>52</sup> Navro‘z va Mehrgonga (Mehrjon demoqchi – N.R.) tegishli she‘rlar haqidagi risolasida tavsif etilishicha, bu tarixning barpo etilish sababi mana bunday bo‘lgan: Al-Mutavakkil<sup>53</sup> o‘zining saydgohlaridan birini aylanib yurganda, hali yetilmagan va o‘rib olinmagan ekinzorga ko‘zi tushdi va “Ubaydulloh ibn Yahyo<sup>54</sup> xalqdan xiroj yig‘ishni boshlash uchun mendan ruxsat so‘rayapti; ko‘rib turibmanki, [hali] ekinlar ko‘karib yotibdi. Odamlar xirojni qayoqdan

<sup>51</sup> Abu Bakr Muhammad as-Suliy (946-yili vafot etgan) – mashhur arab tarixchisi.

<sup>52</sup> Hamza al-Isfahoniyy – tarixchi va filolog (961 yoki 976-yili vafot etgan).

<sup>53</sup> Al-Mutavakkil – Abbosiylar xalifasi (847-861-yillar).

<sup>54</sup> Ubaydulloh ibn Yahyo ibn Xoqon - al-Mutavakkilning vaziri.

olib beradi?” dedi. Unga: “Bu odamlarga zarar keltirdi, ular [xirojni vaqtdan oldin to‘lash uchun] qarz olmoqdalar, vatanlarini tashlab ketyaptilar, shikoyat va dodu faryodlari ko‘payib ketdi”, deb javob berishdi. Al-Mutavakkil: “Bu narsa mening davrimda paydo bo‘ldimi yoki ilgari-dan shunday bo‘lganmi?” deb so‘ragandi: “Yo‘q, balki Eron podshohlari Navro‘z vaqtida xiroj talab qilishni joriy etib, arab podshohlariga yo‘l ko‘rsatdilar. Ana shunga asoslanib bizda ham talab qilinadi”, deb javob berishdi. Al-Mutavakkil mubadni<sup>55</sup> chaqirib, unga: “Bu to‘g‘rida gap ko‘paydi, men eronliklar rasmu rusumidan nariga o‘tolmayman. Ular ehsonli, xalqparvar bo‘la turib, qanday qilib fuqarodan [bevaqt] xiroj olishga boshladilar? Nima uchun g‘alla va ekinlar yetilmagan shunday vaqtda xiroj talab etishga ruxsat berganlar?” dedi. Shunda mubad: “Ular talabni Navro‘z vaqtida boshlasalar ham, xiroj g‘allalar yetilgan vaqtda kelar edi”, deb javob berdi. Al-Mutavakkil: “Bu qanday bo‘lar edi?” deb so‘radi. Shu vaqt mubad unga eron yillarining holini, miqdorini va qo‘shimchaga ehtiyojini bayon etdi. Keyin voqeani tushuntirib, eronliklar yillariga qo‘shimcha qo‘shar edilar, islom [dini kirib] kelgach, bu bekor qilindi va bu xalqqa zarar keltirdi. Dehqonlar Hishom ibn Abdulmalik zamonida Xolid al-Qasriy<sup>56</sup> huzuriga yig‘ilib, bu voqeani bayon etdilar va undan Navro‘zni bir oy keyinga surishni so‘radilar. Xolid qabul etmadi va bu haqda Hishomga xat yozib, xatida: “Bu ish Xudoyi Taoloning “Nasiy - [keyinga surish] kofirlikni orttirishdir”, degan so‘zidan sanalmasa deb qo‘rqaman”, deb xabar berdi. Ar-Rashid davri kelgach, odamlar Yahyo ibn Xolid ibn Barmaq<sup>57</sup> huzuriga yig‘ilishib, undan Navro‘zni ikki oy keyinga surishni so‘radilar. Yahyo shunday qilmoqchi bo‘ldi, lekin dushmanlari bu haqda gap ko‘tarib: “U majusiylikka yopishyapti”, dedilar. Yahyo o‘z qaroridan qaytdi va ish [eski] holicha qoldi (Beruniy. Yuqoridagi asar, 67-68-b.).

Keltirilgan rivoyat islom dinining O‘rta Osiyoda ilk yoyila boshlagan davriga va hukmdorlar bu o‘lkadagi azaliy bayramlarning mohiyatini anglab olishga intilgan davrlarni aks ettiradi. Bu rivoyatni Beruniy

<sup>55</sup> Mubad – otashparastlar hukmroni, kohin, faylasuf va donishmandi.

<sup>56</sup> Xolid ibn Abdulloh al-Qasriy – ummaviylar xalifasi Hishom (724-743) davrida xalifotning ko‘zga ko‘ringan kishilaridan biri.

<sup>57</sup> Yah‘yo ibn Xolid ibn Barmaq – abbosiy xonadoni vazirlaridan biri. Abu Ja‘far al-Mansurning xalifalik davri va o‘z otasining hayotligida Ozarbayjon hokimi bo‘lib, xalifa al-Mahdiy zamonida vazir bo‘lgan. 187/802-803-yili qamoqxonada vafot etgan.

birlamchi manbadan – milodiy 1X asrga oid tarixiy asardan olgan (asar muallifi Abu Bakr as-Suliy 946-yili vafot etgan). Xo‘sh, bu rivoyatni qaysi davrga oid deb qaraymiz? XI asrga oid rivoyat deb qarash kerak. Chunki Beruniy birlamchi manbadan olgan bo‘lsa ham, XI asrdagi - G‘aznaviyalar davridagi tarixiy voqealarga aniqlik kiritish uchun qadim zamonlarda paydo bo‘lgan rivoyatdan foydalangan.

Beruniy bu kabi tarixiy rivoyatlarni keltirar ekan, hujjatlilik, tarixiy voqealarga urg‘u berish asosiy o‘rin egallaydi. Agar diqqat bilan e‘tibor berilsa, yil hisobi munosabati bilan keltirilgan bu rivoyatlarda ma‘lum bir izchillik ko‘zga tashlanadi. Beruniy rivoyatlarni asariga olib kirishda, ulardan hujjat sifatida foydalanishda shunday yo‘l tutadiki, rivoyatlarining hududi, davri o‘z-o‘zidan guruhlariga bo‘linib qoladi.

**Qayumars afsonasi va uning variantlari.** Beruniy arab, eron, xorazm va boshqa sharq xalqlarining yil hisobini tadqiq etadi. U eronliklarning yil hisobi qanchalik aniqligini dalillash uchun ilk insonning paydo bo‘lishiga oid afsonalarni keltiradi. Jumladan, Qayumars haqidagi afsona bunga misoldir.

Beruniyning yozishicha, eronliklarning yil hisoblari Qayumarsdan boshlab uch qismga bo‘linadi. Qayumarsdan to Iskandar Droni o‘ldirib, Eron podshohligini egallashi va ularning ilm-fan xazinalarini o‘z mamlakatiga olib ketgungacha bo‘lgan davr birinchi qismga kiradi (*qolgan ikki qismning Qayumars afsonasiga aloqasi yo‘qligi uchun to‘xtalmaymiz*). Garchi Beruniy Qayumars haqidagi afsonani eronliklarga nisbat bersa ham, O‘rta Osiyo xalqlarining hammasiga, jumladan, turkiy qavmlarga ham tegishlidir. Zotan, Qayurmas haqidagi afsona “Avesto”ga borib taqaladi.

Beruniy Qayumars afsonasining mazmunini bayon qilganda, uning vazifasi Qayumarsdan boshlab islom dini paydo bo‘lgunga qadar bo‘lgan yil hisobini aniqlashdan iborat edi (Bu afsona “Firdavsiyning adabiyotga qo‘shgan hissasi” mavzuida berilgan).

Beruniy afsonani bayon qilib bo‘lgach, geometriya olimi Abul Hasan Ozarxurdan eshitganini aytadi va *qiyosiy usul*dan foydalanadi. Beruniy Qayumars afsonasining boshqa variantlarini ham keltiradi. Beruniy shoir Muhammad al-Balxiyning “Shohnoma” asariga to‘xtalib, bu asarda Qayumars afsonasining bir qancha variantlari solishtirilgani to‘g‘risida xabar beradi. Muhammad al-Balxiy keltirgan Qayumars afsonasi yuqoridagi variantdan kengroq bayon qilingan. Uning hikoya qi-



lishicha, Qayumars jannatda uch ming yil turgan. Keyin yerga tushib, Axraman tufayli yomonliklar yuz berguncha, uch ming yil omon va tinch turgan... Qayumarsining Girshoh deb atalishiga sabab shuki, “gir” pahlaviycha “tog” demakdir. Qayumars tog’larda istiqomat qilgan va ko’zi tushgan hayvonlar hayron qolib, o’zidan ketar darajada husnli bo’lgan. Axramanning Hazura ismli o’g’li bor edi. U Qayumarsga yomon qasd qilganda, Qayumars uni o’ldirgan. Bu vaqtda Axraman Xudoga Qayumarsdan shikoyat qilgan va Xudo o’zi bilan Axraman o’rtasidagi ahdlarni saqlash maqsadida Qayumarsdan qasos olib bermoqchi bo’lgan. Xudo Qayumarsga avvalo bu dunyo hamda qiyomat oqibatlarini ko’rsatgan Nihoyat, u o’limni orzu qilgan, so’ng Xudo uni o’ldirgan. Bu vaqtda uning pushtidan Istaxrdagi Domdod tog’iga ikki tomchi urug’ tomgan va ulardan ikkita rovoch daraxti ko’karib chiqqan. To’qqizinchi oyning avvalida ikkovida a’zolar ko’ringanda, oyning oxirida tugal bo’lib, ikkovi insonga aylangan, ular Misha va Mishonadirlar. Ular yeb-ichishmagan va hech narsadan aziyat tortmay, farovonchilikda ellik yil yashaganlar. Nihoyat ularga Axraman kekxa kishi suratida ko’rinib, daraxtlardan mevalar yeyishni taklif etgan va [o’zi] yeyishni boshlab bergan, Axramanga yoshligi qaytib kelgan. Shunda ular ham mevalardan yeyishgan va o’sha zohoti ikkovi yomon holatga tushib qolgan. Ularda shahvat uyg’ongan va bir-biri bilan qo’shilgan, ulardan bola tug’ilgan, qo’rqib bolani yeb qo’yishgan. So’ngra Xudo ularning dillariga mehribonlik solgan. Shundan keyin ulardan olti [marta] bola tug’ilgan, ularning ismlari “Avisto” kitobida ko’rsatilgan. yettinchisida Siyomaka va Farovak tug’ilib, bir-biri bilan qo’shilishgan va ulardan Ushanj tug’ilgan (*Beruniy. Yuqoridagi asar, 129-b.*).

Mazkur afsona yuqoridagisidan ayrim jihatlari bilan farq qiladi: *birinchidan*, diniy aqidalar singdirilgan, jumladan, Musoning “Ibtido” kitobidagi Odam Ato va Momo Havoning gunoh qilishi haqidagi rivoyat bu afsonaga ham o’tgan; *ikkinchidan*, ishqiyy-romantik dostonlar xususiyatlari singdirilgan (Musoning “Ibtido” kitobidagi “Yusuf” va Sharq adabiyotidagi boshqa “Yusuf” yoki “Yusuf va Zulayho” qissalaridagi go’zal Yusuf obrazi singari), *uchinchidan*, tarixiylik tamoyili mavjud (qadimiy Istaxr shahri), *to’rtinchidan* totemistik mif hususiyatlari saqlangan (ikkita rovoch daraxti ko’karib chiqqan va ulardan Mesha i Meshona), *beshinchidan*, adabiy manbalardan foydalanilgan («Avesto»dan foydalanilgan, Axrimanning tug’ilishi shundan dalolat beradi) va h.

Umuman, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Mineralogiya” asarlarida keltirilgan afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar XI asrdagi adabiy janrlar va adabiyotshunoslik haqida to‘laqonli tasavvur beradi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Beruniy qaysi sulola hukmronligi davrida yashadi?
2. Beruniyning qaysi asari yer o‘lchash haqidagi fanga oid?
3. “Mineralogiya” asari fanning qaysi sohasiga tegishli?
4. Xorun ar-Rashid haqida hikoyatlar Beruniyning qaysi asarida bor?
5. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida rivoyat va afsonalarni nima maqsadda keltirgan?
6. Beruniyning afsonalarni saralab olish tamoyillari haqida so‘zlang.
7. Beruniy rivoyatga qanday ta’rif beradi?
8. Beruniy eng ishonchli manbalar sifatida qaysi yozma yodgorliklarga tayanadi?

## QORAXONIYLAR DAVRI ADABIYOTI

### Reja:

1. Qoraxoniylar sulolasining paydo bo'lishi. Bu davlatdagi madaniy muhit.
2. "Qutadg'u bilig" yaratilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
3. "Qutadg'u bilig"ning manbalari. Asarning tarqalishi.
4. Asarning nusxalari, o'rganilishi.
5. "Qutadg'u bilig"ning tuzilishi, janr xususiyatlari.
6. Asarda O'zg'urmish obrazi.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Qoraxoniylar sulolasi, elikxon, ramziy obazlar, adolat, davlat, aql, qanoat, nizomnoma, hikmat, qasida, qo'lyozma, uyg'ur-turk yozuvi, arab yozuvi, Qohira nusxasi, Vena nusxasi, Namangan nusxasi, janr, nasriy muqaddima, she'riy muqaddima, hamd, sano, na't, qo'shiq, kantilen.*

**Qoraxoniylar sulolasining paydo bo'lishi. Bu davlatda madaniy muhit.** Qoraxoniylar sulolasining nomi haqida XX asr tarixchilari keng tarqalgan ikki unvon – qora xoqon va elik xon unvonlaridan deb biladilar. Sulolaning paydo bo'lish tarixi bor. Milodiy 840-yili Uyg'ur xoqonligi (davlatning etnik tarkibi chigil qabilasidan edi) qorluqlar yabg'usi, Isfijob hukmdori Bilga kul tomonidan tor mor etilgandan keyin, o'zini hukmdor deb e'lon qildi va xoqon unvonini oldi. Bilga Kulning Qora degan laqabi bor edi. Qoraxoniylar degan sulola nomi shu odamning laqabi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yusuf xos Hojib "Qutadg'u bilig"ni yozib tugatgandan keyin, uni Koshg'ar hukmdori Bug'roxonga olib boradi (Bug'roxonning to'liq ismi *Tabg'ach Bug'ro Qora xoqon Abu Ali Hasan ibn Sulaymon Arslon Qora xoqon*). Shunday qilib, Qoraxoniylar sulolasining birinchi hukmdori Bilga Kuldir.

Qoraxoniylar sulolasini boshlab bergan va to sulola tarqalib ketgunga qadar boshqargan hukmdorlar va ularning nasl-nasabi quyidagicha:

840-893 – Bilga Kul "Qora" xon, uning o'g'illari Qodir Arslon xon (Arslon – chigil qabilasining totemi);

893-920 – Bazir Arslon xon;

893-940 – O'g'ulcha Arslon xon; u hukmronlik qilgan davrda Movarounnahrda bosqinchilikni yana avj oldiradi. Bu davrda Movaroun-

nahrda Somoniylar sulolasi mustahkamlana boshlaydi.

892-907 - Amir Ismoil ibn Ahmad Somoniy amirlikni mustahkamlashga kirishadi. Shu munosabat bilan yettisuvga yurish boshlaydi va Isfijob hamda Taroz shaharlarini bosib oladi. Har ikkala shahar uzoq qamaldan so'ng, taslim bo'ladi va aholi majburiy ravishda islomni qabul qiladi. Chigillar shimolga – Issiq ko'lga tomon, xoqonning poytaxti esa Bolasog'un shahriga ko'chishga majbur bo'ladi. Shu paytda yana qorluqlar qabilasining birlashmasi – yag'mo qabilasi shu hududda joylashib oladi. Yag'mo qabilasini tibetlar o'z hududidan siqib chiqargan edi. Shu paytdan boshlab har ikkala qabilaning o'zaro yaqinlashuvi boshlanadi. Bu birlashuv natijasida har ikki qabila Qoraxoniylar sulolasining asosi bo'lib qoldi. Qoraxoniylarning to'liq hukmronligi X asrning 40-yillarida qaror topdi.

920-955 – Qoraxoniylar sulolasida islomning qabul qilinishida Sotuq Bug'roxonning (Bug'ro – tuya degan ma'noni bildirib, yag'mo qabilasining totemi edi) xizmati katta. U yag'mo qabilasining yabg'usi edi. 932-yili u islomni qabul qiladi va ismini musulmoncha Abdulkarim deb o'zgartiradi. Usmonli muarrixlaridan Munajjim boshining xabar berishicha, Sotuq islomni qabul qilgan birinchi turkiy edi. (940- yildan so'ng Sotuq o'z otasini o'ldirish uchun fatvo oladi. Chamasi, otasi islomni qabul qilishni istamagan.) Otasi o'limidan so'ng Sotuq Koshg'arda taxtga o'tiradi va “xoqon” unvonini oladi, hukmdor sifatida o'z huquqlarini ommaga e'lon qiladi.

956-958 – Sotuq (Abdulkarim) Bug'ro xonning o'g'li hamda vorisi Muso ibn Abdulkarim Bug'roxon hukmronligi davrida hoqonlikda islomlashtirish boshlandi. Hukmdorga *sulton ul-salotin* unvoni berildi. Ammo bu unvon bilan birga *elik* va *tigin* unvonlari ham ishlatilaverdi.

958-970 – Musodan keyin ukasi Sulaymon ibn Abdulkarim taxtga o'tirdi. U Arslonxon unvonini oldi. Sulaymon hukmronligi davrida xoqonlikdagi hamma xalq islomga yuz burdi. Arab tarixchilari ibn Miskavayxu va ibn al-Asirning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 960-yili “200.000 majusiy islomni qabul qildi”. Bu muarrixlar ishlatgan majusiy urklar so'zi ostida Qoraxoniylar tushunilgan bo'lishi mumkin.

970-998 va 970-992 – Sulaymonning o'g'illar Ali va Hasan hukmronligi davrida sulolada ikki hokimiyatchilik hukm surdi. Ali ibn Sulaymon “Arslon xon” unvoni bilan Koshg'arda, uning ukasi Hasan ibn Sulaymon “Bug'roxon” unvoni bilan Bolasog'unda hukmronlik qilardi.

992-yili aka-ukalar qo'shni viloyatlarni, jumladan, Movarounnahrni qo'shib olishga qaror qildilar. Bu davrda Somoniylar hukmdori Abul Qosim Nuh II ibn Mansur (976-977) edi. Somoniylar sulolasi nihoyatda zaiflashgan, tashqaridan bo'ladigan hujumlarga bardosh bera olmas edi. Bu vaziyatdan foydalangan Hasan ibn Sulaymon Bug'roxon 992-yili Somoniylar sulolasiga hujum qildi. Nuh II ni o'zining lashkarboshilari ham, Xuroson noibi Abu Ali Simjuriy ham qo'llab-quvvatlamadilar. Bug'roxonga qarshi yuborilgan turkiylar qo'shini lashkarboshisi Foiq Nuh II ga xiyonat qildi. Somoniylar sulolasi mag'lubiyatga uchradi, Nuh II Omulga qochib ketdi.

Kutilmaganda Hasan ibn Sulaymon Bug'roxon 992-yil vafot etdi. Qoraxoniylar lashkari katta o'lja bilan Farg'onaga qaytdilar.

Nuh II Buxoroga qaytib keldi. U endi o'zining kuchiga ishonmas edi. Shu bois G'azna hukmdori, kelib chiqishi turk bo'lgan Sabuk teginga yordam so'rab murojaat qildi. Sabuk tegin Nuh II ning iltimosini qabul qilib, yigirma ming askarini boshlab Movarounnahrda tomon yo'lga chiqdi. U Amudaryoni kechib o'tdi va avval Keshga, so'n Naxshobga hujum qildi. U yerdan esa Nuh bilan birga Abu Aliga va Foiqqa qarshi o'tlandilar. Bir necha hujumlardan so'ng isyonchilar qo'shini tor-mor qilindi, Abu Ali va Foiq Jurjonga qochdilar.

997-yili Nuh II va Sabuk tegin vafot etdilar. Nuh II ning o'g'li amir Mansur II (997-999) G'aznaviylar hukmdori Abul Qosim Mahmud ibn Sabuk teginning kuchli ta'siri ostida qoldi. (Bu shaxs tarixda Mahmud G'aznaviy nomi bilan mashhurdir.) Ali bilan Hasan Nishopur hukmdori Bektuzun va ilgari Qoraxoniylarga qo'shilgan Foiq Mansur II ga yaqinlashishga qo'rqdilar. Fitna bilan Mansur II ning ko'zlarini ko'r qildirdilar. Tez orada (999-yili) Mansur II ham olamdan o'tdi.

Xullas, 999-yili Qoraxoniylar lashkari Somoniylarni yiqitdi. Ali Arslon hayotligida kichik o'g'li Nasrni taxt vorisi qilib e'lon qilgan edi. Nasr ibn Ali Arslon xoqon (998-1017) Buxoroni egalladi. U Somoniylar sulolasining oxirgi hukmdori Abdulmalik II ni oilasi bilan zindonband qildi.

Shunday qilib, Qoraxoniylar sulolasi tarkibiga Sharqiy Turkiston, Janubiy Qozog'iston, shuningdek, O'rta Osiyoning Amudaryo sharqiy qirg'oqlarigacha bo'lgan hamma yerlari kirdi.

Qoraxoniylar sulolasida boshlangan siyosiy tarqoqlik o'z oqibatlarini ko'rsata boshladi. Amakivachchalar - Musoning o'g'li Ali Arslon xon

bilan Sulaymonning o'g'li Hasan ibn Bug'roxon o'rtasidagi ziddiyatlar kuchli xonliklarning Qoraxoniylarga ta'sir o'tkazishiga yo'l ochib berdi. Shu paytda Markaziy Osiyoni asosan qitaniylar (turk-mo'g'ul urug'laridan bo'lib, 907 – 1125-yillarda Qitaniy davlati hukm surdi) egallab olgan edi. 1017-yili qitaniylar yettisivga bostirib kirib, Bolasog'ungacha yetib bordi. Ammo Qoraxoniylar hukmdori Tug'on xon lashkari qitaniylar qo'shinini tor-mor qildi, qitaniylar sharqqa chekinishga majbur bo'ldilar.

1040-yilga kelganda, Qoraxoniylar sulolasi ikkiga - g'arbiy va sharqiy xonliklarga bo'linib ketdi. Oradan bir yil o'tiboq sharqiy xonlik qoraxitoylarga qaram bo'lib qoldi. Har ikkala xonlik o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar oxir-oqibat taxminan qirq yillardan keyin g'arbiy Qoraxoniylarni ichdan yemirdi va ular Saljuqiylarga qaram bo'lib qoldi. 1210-yilda esa g'arbiy Qoraxoniylar Muhammad Xorazmshoh II ning vassaliga aylandi. Nihoyat, oradan ikki yil o'tgach – 1212-yili Nayman xoni Kuchluk xon O'zgan va Koshg'arda sharqiy Qoraxoniylarni yo'q qildi. O'sha yiliyoq Samarqandda G'arbiy xoqonlikka ham barham berildi.

Qoraxoniylar davridan madaniy yodgorliklar kam saqlanib qolgan. Yozma adabiy yodgorliklar “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'atit-turk”, “Hibatul -haqoyiq”dan tashqari, arxitektura va amaliy san'at namunalari – Buxorodagi Minorai Kalon, Navoiy shahri yaqinidagi Raboti Malik karvonsaroyi, O'zgan shahridagi ayrim maqbaralar Qoraxoniylar davridan yetib kelgan.

### **Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari**

**Asar yaratilgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.** Qoraxoniylar sulolasidagi ijtimoiy, siyosiy hayot davrning ilg'or ziyolilarini parokandalikning oldini olishga, mamlakatda adolatni barqaror o'rnatishga, xalq va hukmdorlar o'rtasida yakdillikni mustahkamlashga, mamlakatni poydor, mustahkam qilishga undadi. Albatta, siyosiy shiorlar yoki hukmdorlarning qattiq siyosati bilan bularni amalga oshirish mumkin emas edi. Shu bois ijodkorlar tarixga murojaat etdilar, tarixdan saboq olishga hukmdorlarni va xalqni da'vat etdilar. Badiiy asarning davlat va mamlakat hayotida qudratli omil ekanini ko'rsata bildilar. “Qutadg'u bilig”

**Qoraxoniylar davlatida aynan shu vazifani bajardi.**

Asar Qoraxoniylar sulolasi ikki qismga – g‘arbiy va sharqiy xonliklarga bo‘linib ketgan va ular o‘rtasida halokatga olib boruvchi kurashlar borayotgan paytda yozilgan. Zotan, “Qutadg‘u bilig”da Yusuf foydalangan ramziy obrazlar ayni ana shu kurashlarga barham berish va mamlakatda adolat, tinchlik o‘rnatishga ishora qiladi. Bu obrazlar bir-biriga bog‘liq, biri ikkinchisini talab qiladi. Adolatni Kuntug‘di, davlatni Oyto‘ldi, aqlni O‘gdulmish, qanoatni O‘zg‘urmish deb ataydi. Yusuf bu obrazlarni keltirar ekan, quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi: mamlakatning tayanchi – adolat. Adolat barqaror bo‘lgan davlatda farovonlik, yakdillik bo‘ladi; mamlakat aql bilan boshqariladi, aql bilan boshqarilgan mamlakatda adolat ham, farovonlik ham, yakdillik ham bo‘ladi; qanoat esa mol-dunyoga ko‘ngil bog‘lamaslikka, nafsga erk bermaslikka, faqat mol-dunyo yig‘ish bilan band bo‘lib qolmaslikka, bu dunyo ishlarini ham unutmazlikka da‘vat qiladi. Aytish mumkinki, “Qutadg‘u bilig” asari mohiyatan o‘z davrining nizomnomasi vazifasini bajargan.

Kitob muallifi Yusufning hayoti, ijodi haqida deyarli ma‘lumot yo‘q. U mazkur asarini hijriy 462 – milodiy 1069-1070-yillarda yozib tugatadi. Muallif asarini o‘n sakkiz oyda yozib tugatgani haqida ma‘lumot beradi. Asarni tugatgan paytda muallif Yusuf 50 yoshlar atrofida bo‘lganligi va uning hijriy 410 (milodiy 1019) yillar atrofida tug‘ilgani haqida so‘z yuritiladi.<sup>58</sup> Zotan, Yusuf asarda o‘z yoshiga qilgan ishora u tug‘ilgan sananing aynan 1019-yili degan xulosaga kelishni anglatmaydi. Bu taxmin muallifning tug‘ilgan yili 1019 dan oldinroq yoki keyinroq ham bo‘lishi mumkinligini bildiradi. Mana, Yusuf o‘z asarini tugatgan payt haqida nima deydi:

Tegurdi manga ilgi ellik yashim,

O‘qir altmish emdi manga kel teyu

(Ellik yoshim menga qo‘lini tekizdi, endi oltmish menga, kel, deb chorlayotir).

**“Qutadg‘u bilig”ning manbalari. Asarning tarqalishi.** “Qutadg‘u bilig”ni yozishda Yusuf Chin mamlakati donishmandlarining hikmatlaridan, asarlaridan, Mochin donishmandlarining ash‘orlaridan foydalandi. Asarda bunga ko‘p ishoralar bor.

<sup>58</sup>Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent, “Fan”nashriyoti, 1972. Nashrga tayyorlovchi filologiya fanlari kandidati Qayum Karimov, 2-nashri, 8-bet (bundan keyingi misollar shu nashrda olindi; nasriy parchalar olinganda, kitob sahifasi, she‘riy misollar olinganda, bayt raqamlari berildi)..

Arabça tajikcha kitoblar öküş

Bizing tilimizça bu yumğı uquş (59-b.)

(Arabcha, tojikcha bunday kitoblar talaydir, bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir).

Yusufning bu bayti qadimgi turkiy adabiyotdagi pandnoma asarlar ko'p yaratilganiga bir ishoradir. Bir misol: O'gdulmish eligga kotib qanday bo'lishi kerakligi haqida o'git berar ekan, qadim turk donishmandlarining o'gitlaridan iqtibos keltiradi. Mana, O'tukan begi o'gitlarining birinchi bayti:

Idı jaqşı ajmış Ötükan begi

Tilin tutsu bermış sanga söz beki (2642-beyt).

(O'tukan begi (bu borada) juda yaxshi aytdi. Senga sir saqlash uchun so'z bergan (kishi) tilini tiysin).

O'tukan begining o'giti Yusufga bir dalil sifatida xizmat qilishi bilan birga, "Qutadg'u bilig" yaratilmasdan oldin bu singari didaktik asarlar qadimgi turkiy tilda ko'p bo'lganini ham anglatadi.

Kitob debochasidan ma'lum bo'lishicha, bu asar o'z davridayoq Sharq mamlakatlariga keng tarqalgan va katta shuhrat tutgan. Yusuf asar debochasida "Mochin olimlari, donishmandlari Mashriq viloyatida, Turkiston ellarida Bug'roxon tilida biror kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq kitob yozmagan"ini ta'kidlaydi. Bu asar qaysi iqlimga yetib borgan bo'lsa, o'sha iqlim olimlari, donishmandlari har xil nom berdilar: chinliklar "Odobul-mulk" deb, Mochin podshohining nadimlari (hamsuhbatlari) "Oyinul-mamlakat" deb atadilar, mashriqliklar "Ziynatul-umaro" deb, eronliklar "Shohnomai turkiy" deb, ba'zilar "Pandnomai muluk" deb, turonliklar "Qutadg'u bilig" deb aytdilar (49-b.).

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" avvalida Tavg'och ulug' Bug'ro Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxon sha'niga qasida bitadi va asarni shu humdorga bag'ishlaydi. Bu davrda Qoraxoniylar Saljuqiylar bilan to'qnashayotgan davr edi.

Abu Rayhon Beruniy Somoniylar sulolasida davlat boshliqlariga nisbatan qo'llangan laqablarga Bug'roxon ham taqlid qilganini yozadi. Bug'roxon Somoniylar davlatiga bostirib kelgandan keyin o'ziga o'zi "Shihob ad-davla" (Davlat osmonining yoritqichi) laqabini olganini ay-



tib o'tadi (*Beruniy. Yuqoridagi asar. 179-b.*).

**Asarning nusxalari, o'rganilishi.** "Qutadg'u bilig" qo'lyozmasining uchta nusxasi bo'lib, fanga birinchi bor eski uyg'ur-turk yozuvidagi nusxasi ma'lum bo'lgan. Bizga ma'lumki, eski uyg'ur-turk yozuvi arab yozuvi bilan baravar ravishda VII asrdan boshlab XVIII asrgacha qo'llangan. Qoraxoniylar davlatida ham, undan keyingi turkiy davlatlar tarixida ham bu yozuvning mavqei katta edi. "Qutadg'u bilig"ning hijriy 843 (milodiy 1439) yili Hirotda eski uyg'ur-turk yozuvida Hasan Qora Sayil Shams tomonidan ko'chirilgan nusxa Turkiyaning Tugot shahriga keltirildi. Bu yerdan esa hijriy 879 (milodiy 1474) yili Fanari o'g'li Kadi Ali Istambulga Abdurazzoq Shayxzoda baxshiga olib keldi. Bu nusxani mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgstall Istambulda sotib olib, Vena saroy kutubxonasiga keltirdi. Shundan so'ng bu asar haqidagi dastlabki ma'lumot va undan ba'zi namunalar 1823-yili fransuz sharqshunosi Jaubert Amedee tomonidan "Journal Asiatique"da nashr etildi. 1870-yili venger olimi Vamberi "Qutadg'u bilig"ning eng muhim qismlarini "Uyg'ur tili obidalari" va "Qutadg'u bilig" nomi bilan nashr qildi va nemis tiliga tarjimasini berdi.

1896-yili "Qutadg'u bilig"ning arab yozuvida ko'chirilgan ikkinchi nusxasini Qohirada V.V.Radlov topdi. V.V, Radlov eski uyg'ur-turk yozuvidagi nusxa bilan Qohira nusxasini qiyosiy o'rganib, 1910-yili "Qutadg'u bilig"ning mukammal transkripsiyasi va nemis tiliga tarjimasini nashr ettirdi.

"Qutadg'u bilig"ning uchinchi nusxasi arab yozuvida ko'chirilgan bo'lib, bu nusxa haqida ilk bor 1914-yili Zaki Validiy xabar berdi. U asarning arab yozuvidagi bir nusxasi namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolaresh ismli odamning shaxsiy kutubxonasida borligi haqida yozgan edi. Abdurauf Fitrat 1924-yili Muhammadhoji Eshon Lolareshdan bu nusxani olishga muvaffaq bo'ldi. Oradan bir yil o'tgach, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida "Qutadg'u bilig"ning Namangan nusxasi haqida Fitratning maqolasi bosilib chiqdi. 1928-yili esa bu asarning ayrim parchalarini izohlar bilan nashr qildi (11-b.).

**"Qutadg'u bilig"ning tuzilishi, janr xususiyatlari. Qo'shiq janri.** Asarning har uchala nusxasini qiyoslash orqali uning tuzilish tartibi quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ladi:

Unvon (basmala)dan so'ng qisqa nasriy muqaddima kelib, bunda Tangriga hamd, yalavoch (payg'ambar)ga va as'hobi nabi (chahor yor-

lar)ga na't aytiladi. So'ngra kitobning qimmati, uning nomi (yuqorida turli mamlakatlarda turlicha nomlari keltirildi), xonga tortiq qilingani, muallifga Xos Hojib unvoni berilgani, asarda to'rt ramziy qahramonga turkcha nom qo'yilgani, kitobda shu to'rt qahramon o'rtasida savol-javob va munozaralar bo'lib o'tgani haqida qisqacha bayon beriladi.

Nasriy muqaddima tugagach, 77 baytdan iborat she'riy muqaddima keladi. So'ngra 73 fasl nomining mundariyasi (fihristi) berilib, undan keyin yana unvonga va mavzuga o'tiladi. 73 ta faslning dastlabki o'n bittasi debochadan iborat bo'lib, an'anaviy hamd, sano, na't, Qoraxonga madh, yetti kavokib va o'n ikki burj, tilning foydasi, kitob egasining uzri, ezgulik, bilim va uquvning foydasi, kitob qahramonlariga nom berilishi va qarilikka o'kinishdan iborat. O'n ikkinchi fasldan bevosita voqealar bayoniga o'tiladi.

“Qutadg‘u bilig”ning tuzilishi o‘ziga xos, takrorlanmas. Yusuf Xos Hojib har bir faslda bir masalani qo‘yadi. Masala batafsil bayon qilinadi. Bayon tugagach, yakunlovchi bir bayt keltiriladi. Yakunlovchi baytdan so‘ng Yusuf shoirning, ya‘ni o‘zining donishmandona bir to‘rtligini keltiradi. Shu tariqa fikr yakuniga yetadi. Shundan keyin yana bir faslda sarlavha sifatida bir masala qo‘yiladi va yuqoridagiday tartibda davom etadi. Yusuf bu asarining tuzilishini she‘riy muqaddima so‘ngida shunday ifodalaydi:

Bu turkcha qoshuqlar tuzattim sanga,  
O‘qirda unutmanga dua qil manga.  
(Senga bu turkcha qo‘shiqlarni tartib berdim,  
O‘qiganingda meni unutmastan (haqimga) duo qilgin.)

*Qo‘shiq* terminini Yusuf “ashula” ma’nosida emas, balki qadimgi turkiy yozma va og‘zaki adabiyotning tuzilishida asosiy qismlar bo‘lgan kantilen ma’nosidagi adabiy termin sifatida qo‘llagan. Bu terminda, yuqorida aytganimizday, “Qutadg‘u bilig”ning tuzilishi o‘z aksini topgan. Har bir fasl va bu fasllarda qo‘yilgan masala yakuniga yetib, har bir faslga nisbatan Yusuf *qo‘shiq* terminini ishlatgan. Asardagi har bir qo‘shiqning tuzilishi va tarkibini aniq tasavvur qilish uchun “Elig xoqon O‘gdulmishga pand berishini aytadi” bobiga murojaat qilaylik.

Mazkur fasl, ya‘ni *qo‘shiq*ning boshlanmasi elig va O‘gdulmishning ilk bor suhbatidan hamda eligning O‘gdulmishga tasallisidan boshlana-

di. Bu bobning boshlanmasidan – eligning O‘gdulmishga bergan nasihatidan keyin voqealar rivoji boshlanadi. Bobdagi voqealar rivoji –otasi Oyto‘ldi vafotidan oldin eligga yozgan nomasini O‘gdulmish eligga bergandan keyin, elig Oyto‘ldini eslaydi, undan minnatdorligini izhor qiladi, uning haqiga duo qiladi, O‘gdulmish elig xizmatiga kiradi, u otasining pand-nasihatlariga rioya qilib, baxtiyor bo‘lib, eligning ishonchini va hurmatini qozona boradi, elig turli savollar bilan O‘gdulmishning bilimini sinab ko‘radi, elig O‘gdulmishga pand berib, odamgarchilik yuksak fazilat va shu fazilatga qat‘iy rioya qil, deb o‘git beradi, beklar o‘zlariga yaqin tutadigan odamning iqboli haqida so‘z ketadi, elig O‘gdulmishga ishonch bildirib, o‘ziga vazir qilib oladi, O‘gdulmish aql-zakovati bilan eligga xizmatga kirishadi va h.

Bu singari pand-nasihatlar bitta *qo‘shiq*da mujassamlashgan. Bu faslda keltirilgan to‘rtlik Yusufning ijodidan bo‘lib, elig va O‘gdulmish o‘rtasidagi suhbatga yakun yasayotganday bo‘ladi. O‘gdulmishni elig o‘z xizmatiga olar ekan, uning otasi Oyto‘ldi va O‘gdulmishning o‘zi kabi zakovatli odamlar nihoyatda kam ekanidan Yusuf afsus chekadi va quyidagi to‘rtligini keltiradi:

Yurig’li kōrurmān yarag’lisi yoq,

Yarag’li bulunsa yurig’lisi yoq.

Qalin bod qarabash yumitti ōkūsh,

Tālimdā tilāsā tosulg’usi yoq.

(Yuruvchilarni (ko‘plab) ko‘raman, yaraydigan yo‘q,

Yaroqlisi topilsa-chi, u yurmaydi (umri qisqa bo‘ladi).

Talay xizmatkor va qullar ko‘plab yig’ildi,

Shu ko‘pchilik ichidan axtarsang, foydalisi yo‘q.)

Fasl so‘ngida O‘gdulmishning aql-zakovati, kechayu kunduz qilgan xizmatlari tufayli elig ko‘p tashvishlardan xoli bo‘lgani, mashaqqatlari arigani, eligning yuklari yengillashib, xalqqa ko‘p manfaat yetkazadigan bo‘lgani bayon qilinadi.

Yusuf *qo‘shiq* janri qoidalariga rioya qilgan holda, o‘zidan oldin o‘tgan donishmandlarning yoki shoirlarning o‘gitlaridan istifoda etadi va faslning umumiy mazmuniga singdirib yuboradi. *Qo‘shiq* janrining talablari ham shunday – shoir faqat bosh qahramonlar elig va O‘gdulmish haqida emas, balki o‘tmishdagi salafklarini, tarixiy yoki afsonaviy qahramonlar haqidagi voqealardan ham biron yo‘sinda foydalanadi. *Qo‘shiq*ni

yakunlash uchun bu singari voqealar muhim vazifa bajaradi.

Mana shu voqealardan so'ng *qo'shiq* bir mustaqil asar singari yakunlanadi. *Qo'shiq* janriga xos bu xususiyat qolgan hamma *qo'shiqlarda* ham o'z ifodasini topadi.

“Qutadg‘u bilig” yo‘nalishi va maqsadiga ko‘ra, didaktik asar. O‘z davrining, turli toifa odamlarning komil, sog‘lom va illatlardan xoli jamiyat bo‘lishi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan pandnoma. Har bir toifaga mansub odam – hukmdordan tortib oddiy fuqarogacha go‘zal xulqli, rostgo‘y bo‘lishi lozim.

Yusuf hamma toifaga bir xil andazada yondashmaydi. Uning turli toifaga qo‘ygan talablari bir-birini takrorlamaydi. U quyidagi toifalarga tavsif berar ekan, har bir toifaning qiyofasini ham, ichki olamini ham kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalandiradi:

*Bek (yoki umuman hukmdor).* Bek davlat va hokimiyatning tayanchi, yurt ravnaqining garovi, adolat rahnamosi, aql-zakovat egasi. Beklik, Yusufning ta‘biricha, ilohiy hodisa bo‘lib, onadan tug‘ilgandayoq beklik uchun tug‘iladilar. Xudo beklik lavozimini beribgina qolmaydi, balki Xudo birontasini bek qilib yaratishni istagan ekan, avvalo, unga qobiliyat, yo‘riq, uquv beradi. Ayni paytda:

Bu beglikka ashnu tub asly kerak,

Атым алп қатығ қurch yana ton kerak.

(Beklik ishi uchun hammadan avval tagi asl odam bo‘lishi lozim,

Mergan, botir, qattiq, chiniqqan hamda qo‘rqmas yurakli bo‘lishi lozim.)

Beklarga faqat mana shunday jismoniy kuch-qudratning o‘zi yetarli emas. Bek davlatni bilim, aql, zakovat bilan boshqaradi. Saxovatpeshalik uning burchi bo‘lishi lozim. Beklar xalqqa bilim bilan boshchilik qiladi. Ammo, deydi Yusuf, bilimli kishining dushmani ko‘p bo‘ladi. Bilimning beklikda ahamiyatini Yusuf ko‘p marta takrorlaydi. Bek xalqini bilim bilan tutib turadi, Bilimi bo‘lmasa ko‘p ishlarga aqli yetmaydi. Buning oqibatida bek yanglishadi, begligi zaiflashadi, uni davolash lozim bo‘ladi. Bu beklik dardining davosi aql va bilimdir, uni zakovat bilan davolamoq lozim.

Yusuf bekka xos sifat va burchlarni birma-bir sanab ko‘rsatar ekan, chinakam komil inson qiyofasini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalandira-

di. Yuqoridagi fazilat va burchga qo‘shimcha ravishda, bek hunarmand ham bo‘lishi lozim. Halol, sof, ko‘ngli va tili to‘g‘ri, fe‘l-atvori yaxshi, xush xulq, ko‘zi to‘q, andishali bekning nomi taraladi, undan ezgu urug‘-avlod taraladi.

Xalqning taqdiri bekning qo‘lida. Shu bois bekning so‘zi bilan ishi bir, tabiatan muloyim, ochiq chehra bo‘lishi darkor. Bekning odamlarni o‘z ortidan ergashtira olish layoqati – uning saxovatpeshaligidandir deb biladi Yusuf va qadimdan qolgan quyidagi baytni dalil sifatida keltiradi:

Kur arslan bolu bersa ытqа bashы,  
Bu ыт barcha arslan bolur oz tushi.

Qaly bolsa arslanqa ыт bashчысы  
Bu arslan bolur barcha ыт saqышы.  
(Ko‘rgin, agar arslon itlarga bosh bo‘lsa,  
Bu itlar barchasi uning tengida arslon bo‘ladi.  
Agar arslonlarga it boshchi bo‘lsa,  
Bu arslonlar barchasi itga teng bo‘ladi.) (2013-2014)

Yusuf bek uchun noma‘qul beshta illatni sanab, bek ana shu illatlardan tamomila uzoq bo‘lishi kerakligini alohida ta‘kidlaydi: birinchisi – shoshqaloqlik, ikkinchisi – ochko‘zlik, uchinchisi – jaholat, to‘rtinchisi – buzuq fe‘llik, beshinchisi – yolg‘onchilik. Bekni baxtsizlikka, xalqning undan yuz o‘girishiga sababchi illatlar mana shulardir.

Yusufning ta‘biricha, beklikka loyiq odamning tashqi qiyofasi ham muhimdir. Uning bergan o‘gitiga ko‘ra, bek bo‘ladigan odamning yuz ko‘rkli, silliq, bo‘yi o‘rtacha bo‘lsin; ovozasini ketgan bo‘lsa yana ham yaxshi.

Ilgari o‘tgan maishatparast hukmdorlarning taqdiri haqida donishmandlarning aytganlaridan Yusuf kitobxonni xabardor etib, bekni mayparastlik illatidan ogoh etadi. Ichkilik – bu yov, deydi Yusuf va buning oqibatlarini, el-yurtga, davlat ishlariga yetkazadigan zararini ko‘rsatib beradi.

*Vazir.* Yusuf vazir haqida so‘z yuritib, bekka madadkor, beklar yu-kini ko‘taradigan, beklikdagi beboshliklarni tartibga soladigan odamdir, deydi. Vazirdan talab etilgan sifatlar ham nihoyatda yuksak. Zehni o‘tkir, bilimi dengiz singari, ziyarak, tadbirkor, to‘g‘ri, ishonchli, fe‘l-

atvori a'lo, zakovatli, bilimli bo'lishi lozim. Vazir ham, xuddi bek singari, ideal shaxs. Vazir lavozimiga tanlanadigan odam yana mulohazali, uyat-andishali, ko'zi to'q, halol, yuzi ko'rkli, tutgan ishlari to'g'rilik, hisob-kitobga usta, ilmi, har turli yozuvlardan xabardor bo'lishi lozim.

Vazirning ichki va tashqi sifatlariga Yusufning bergan bahosi shuni ko'rsatadiki, Qoraxoniylar sulolasidagi aka-ukalarning farzandlari taxt talashuvlarni, nizolarni, bir-biriga xusumatni bas qilishlari lozimligini bek va vazir obrazlari orqali ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bek bilan vazirni Yusuf bir-biriga yaqin sifatlarga, aytish mumkinki, birday sifatlarga ega qilib tasvirlar ekan, Qoraxoniylar sulolasidagi yakdillikka, hamjihatlikka ishora qilgan bo'lishi aniqroq. Zotan, vazirning maqsadi ham yomonlarni o'zidan uzoqlashtirib, bekini rohatga yetkazish, fuqarosini osoyishtalikka erishtirishdir:

Bu yanglyg' bulunsa ey elig vazir,  
Begin inchka tegrur qarasy udyr.

Bulur beg tilaki anymdym tugal,  
Ishi barcha etlur qayu ersa hal.

Bayur otu budny ham etlur eli,  
Xazina kopadur qutadur uylы.

Bolur aty mangu qarymas bolub,  
Bolur orny edgu qaraysa ulub.  
(Ey elig, shu sifatli vazir topilsa,  
Begini rohatga yetkazadi, fuqarosi osoyishta uxlaydi.

Bek undan tilaklarini tugal topadi,  
Qanday ahvolda bo'lmasin ishining barchasi bajariladi.

Binobarin, xalqi boyiydi, eli yashnaydi,  
Xazinası ko'payadi, yillari qutli bo'ladi.

Oti bir umr qarimas bo'lib mangulashadi,  
Qarib chiriganda esa o'mni yaxshi bo'ladi.) (2224-2227)

*Lashkarboshi.* Bu lavozimga tayinlanadigan odam - bekning chap qo‘li.

Bekning va elning xotirjamligi shu lashkarboshiga bog‘liq. Tabiiyki, lashkarboshi chidamli, pishik, ko‘pni ko‘rgan, botir yurakli bo‘lishi lozim. Ziyraklik va hushyorlik, ochiq qo‘l va jasur, mergan va muloyim ko‘ngilli, dasturxonni ochiq – lashkarboshiga xos sifatlardandir. Lashkarboshining yana bir xislati – ochiq qo‘lligi, saxiyligidir. U bola-chaqam, xotininim deb mol-dunyo to‘plamasin. O‘ziga kerakli qurol-aslaha, ot-ulov, kiyim, egar-jabduq bilan kifoyalansa bo‘ldi. Ochiq qo‘lligi va saxiyligidan uning atrofiga sara odamlar jam bo‘ladi. Bahodirlar uning atrofiga yig‘iladi, ular lashkarboshining saxiyligidan bahramand bo‘lib, tog‘u toshlarda yotadi, hatto jonlarini fido qiladi.

Or-nomus lashkarboshi uchun hayot-mamot masalasidir. U kerakli paytda qat‘iyat bilan qaror qabul qiladigan, jang san‘atini yaxshi egalagan, abjir, har bir jangchining oilaviy sharoitigacha xabardor, lozim bo‘lganda yordam qo‘lini cho‘zadigan odam bo‘lishi kerak.

Bulardan tashqari, Yusuf lashkarboshiga bir qancha xislatlar lozimligini aytadi:

Yag‘ida kur arslan yuraki kerak  
Qarishtuqta asri bilaki yoriq.

Tonguz tag tetimlig boriteg kuchi  
Adig‘layu irg‘ar qotuz teg ochi.

Yema alchi bolsa qizil tulki teg  
Tetir bug‘rasi teg kor och sursa keg.

Saqizg‘anda saqrak kerak tutsa oz  
Qayu quzg‘uni teg yiraq tutsa koz.

Ulug‘ tutsa himmat kor arslanlayu  
Ogi teg usuz bolsa tunla sayu.

(Urushda botir, arslon yurakli bo‘lish kerak,  
Jangga kirganda qoplon bilakli bo‘lishi kerak.

To'ng'izdek chovut qiluvchi, bo'ridek kuchli,  
Ayiqdek hiylakor, qo'tosdek qasoskor bo'lishi kerak.

Yana qizil tulki kabi hiylachi bo'lsa,  
Tuya erkadidek uzoq kek saqlasa, ko'r.

O'zini zag'izg'ondan hushyorroq tutishi kerak,  
Qoya quzg'uni kabi uzoq-uzoqlarga ko'z yugurtirishi kerak.

Botir arslon kabi himmatini ulug' tutsa,  
Tunlari xayolchan bedor ona kabi bo'lsa.) (2274-2278)

*Ulug' hojib.* Bekning huzuriga har qanday toifadagi va lavozimda-  
gi odamlar hojib orqali kirgan. Bekning siyosatini, qonun-qoidalarini,  
tartiblarini, nizomlarini hojib bajarardi. Shuningdek, qashshoq, tul, ye-  
timlar arz bilan bek huzuriga kelganda, ularni tinglab, talablarini va eh-  
tijoqlarini bekka bexato yetkazish ham hojibning vazifasi edi. Shu bois  
Yusuf bunday lavozimga birinchi navbatda, ko'zi to'q, uyat-andishali,  
ko'p bilimlardan xabardor, zehnlil odam tayinlanishi lozimligini va tash-  
qi qiyofasi chiroyli, soqolini doim qirib yurgan bo'lishi, mard, ovozasi  
ketgan, andishali, diyonatli bo'lishi darkorligini maslahat beradi. Mana,  
Yusufning hojiblik unvoniga qo'yg'an talabi:

Hajibliqqa ashnu bu on nang kerak,  
Yeti ko'z qulaq saq ko'ngul keng kerak.

Yuzi korki bod til uqush og bilig  
Qilinchil bularqa tugal teng kerak.

Uzun kech yashasuni elig ozi  
Ulug' hajib ul begka korgu kerak.

Toru ham toqu ondi yinchka tapug'  
Ulug' hajib etsa achar yol qapug'.

(Hojibliqqa eng avval ushbu o'n narsa lozim:  
O'tkir ko'z, soq quloq, keng ko'ngil kerak.



Yuz chiroyi, qomati, tili, zehni, aqli va bilimi tugal,  
Qilmishlari bularga to‘la teng bo‘lishi kerak.

Elig o‘zi uzun va uzoq yillar yashasin,  
Ulug‘ hojib bekning ko‘rar ko‘zidir.

Qonun (siyosat) hamda rasm-qoida va nizom ishlari nozik xizmat,  
Ularni ulug‘ hojib bajarsa, mushkul yo‘l va eshiklar ochiladi.)  
(2449-2452)

*Darvozabonlar boshi.* Yusufning ta‘rifi bo‘yicha shuni anglash mumkinki, darvozabonlar boshi ham ideal shaxs obrazi. Inson zotiga xos mehribonlik, tantilik, odamlarning dardiga malham bo‘lish kabi fazilat-larni o‘zida mujassam etgan odam darvozabonlar boshlig‘i lavozimligi-ga munosibligini Yusuf alohida aytib o‘tadi. Ayni paytda Yusuf bu lavo-zimdagi odamning xizmat majburiyatlarini ham ko‘rsatib, har doim qo‘l ostidagi soqchilarning vazifasini nazorat qilib borishiga oid ko‘rsatmalar beradi. Qo‘l ostidagi odamlarga mehribonlik ko‘rsatishi, tanglikda qol-gan soqchilariga yordam qo‘lini cho‘zishi lozim. Shu bilan bir qatorda

Koru alsa yat baz keligli kishig  
Ag‘ir tutsa qoldash qilmish eshig  
(Yot-begona, musofir kishilarni yaxsh kutib olsa,  
Yaqinlik qilgan eshlarni qadrlig tutsa.) (2509)

Yusuf hojibning va darvozabonlar boshlig‘ining mas‘uliyatini mam-lakat, beklikning farovonligi, gullab-yashnashi, bekning nomi ulug‘la-nishi kafolati sifatida qaraydi.

*Yalavoch (elchi).* Qanday odamni elchi qilib yuborish mumkin? Odamlarning sarasi, bilimli va zakovatli, har tomonlama yetuk, tadbirli, so‘zning ma‘nosini teran uqadigan, sadoqatli, ishonchli, qiliqlari to‘g‘ri odamni. Elchilikka munosib ko‘rilgan odamning ichki dunyosini Yusuf chizar ekan, bu lavozimga munosib ko‘riladigan odam bahonasida jami-yatning eng yomon, davlatni ichidan yemiradigan illatni qistirib o‘tadi. Illatlar biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Ko‘zi suq kishi, deydi Yusuf, - irodasiz bo‘ladi. Bu suq odamlar elchilikka noloyiq bo‘ladi.

Suq er umduchi-ul yavuz umduchi  
Kishi umduchisi ati qulg'uchi...

Qayu beg suq ersa chig'ay ul chig'ay  
Qayu qul kozi toq beg ul kongli bay.  
(Suq kishi ta'magir bo'ladi, ta'ma esa yovuzdir,  
Ta'magir kishining oti gadoydir....

Qaysi bek suq bo'lsa, u qashshoqdir, qashshoq,  
Qaysi qul ko'zi to'q bo'lsa, u bek, ko'ngli boydir.)(2574, 2581)

Yusuf elchilikka munosib odamlar tanlashda ularning intellektual qobiliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Elchining intellektual qobiliyati mamlakatning qiyofasini boshqa bir mamlakatda namoyish qiladigan mulkdir. Yusufning turli fanlarning mukammal egasi bo'lgani ana shu o'rinda yana bir marta namoyon bo'ladi. Elchi

Tetiglig bilan bilsa turlug bitig  
Bitig bilsa otru bolur er tetig

Bitisa o'qisa eshitsa sozug  
Anin otru bilga qilur oz ozug

Qamug' turlug ardam bu bilsa tugal  
Bu ardam bila er mengiz al

Kitablar oqir ham bilir ersa soz  
Uqar ersa she'r ham qoshar ersa oz

Nujum bilsa tibb ham yora bilsa tush  
Anin yormishi teg sozi kelsa tush

Bilir esar saqish yema handasa  
'adad jadri qilsa masahat basa

Yana nardu shatranj bilir ersa kad  
Hariflari andin olir ersa kad

Choganga kad ersa atar ersa o‘q  
Yema qushchi avchi ajunda ozuq

Qamug‘ til bilir ersa achsa tilig  
Qamug‘ xatni bilsa bitisa alig  
(Tetiklik bilan turli yozuvlarni (kitoblarni) bilsa, o‘rgansa,  
Yozuv (kitob) o‘rgansa, so‘ng kishi tetik bo‘ladi.

Yozsa, o‘qisa, so‘zlarni eshitsa,  
Shular tufayli o‘zini o‘zi dono qiladi.

Turli xil san‘at, hunarlarni tugal bilsa,  
Shu san‘at hunarlar bilan kishi yuzini yorug‘ qilsa.

Kitoblar o‘qisa hamda so‘zlarni biladigan bo‘lsa,  
She‘rlarni uqadigan bo‘lsa ham o‘zi yozadigan bo‘lsa.

Nujum va tibni bilsa hamda tush ta‘bir qila bilsa,  
U ta‘bir qilganidek so‘zlari to‘g‘ri kelsa.

Saqish hamda handasani bilsa,  
Sondan ildiz chiqarsa, yana chegaralarni aniqlashni bilsa.

Yana nard va shatranjni yaxshi biladigan bo‘lsa,  
Raqiblari undan juda bukilsa (mot qolsa).

Chavgonga mohir bo‘lsa, o‘q otadigan mergan bo‘lsa,  
Yana dunyoda ilg‘or lochindor, ovchi bo‘lsa.

Barcha tillarni bilsa, tilini so‘zga ochadigan bo‘lsa,  
Turli xatlarni bilsa, qo‘li bilan yozsa (ya‘ni qo‘li xatga ravon yur-  
sa).) (2589-2597 )

Bir odam – elchi uchun shuncha bilimu hunarlar nima uchun kerak?  
Yusuf garchi elchi bo‘lib boradigan odamning san‘at, hunarlarni bilishi  
bekning nomini ulug‘lashini ta‘kidlaydi. Lekin faqat shugina emas. El-

chi o‘z mamlakatining boshqa bir mamlakatdagi qiyofasi, xalqning, el-yurtning kimligini ko‘rsatadigan vosita. Elchiga qarab o‘zga mamlakat odamlari shu mamlakat xalqining ma‘naviyatini, axloqini, zakovatini, aql-farosatini, vaziyatni yaxshi tushunishini va murakkab vaziyatlardan chiqish yo‘llarini bilishini, xullas, butun ichqi va tashqi olamini anglaydi, elchiga qarab xulosa chiqaradi. Yusuf elchilikka munosib odamga talablar qo‘yganda, o‘tmishdan saboq oldi, umumlashtirdi. Zotan, bu jiddiy lavozim bekninggina emas, balki mamlakat va davlatning taqdiriga hal qiluvchi ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

*Kotib.* Bek sirini qo‘l ostidagi ikki odamga – kotibga va vazirga ochadi. Bek ichki sirlarini kotibga aytganda, kotib sirlarni saqlay bilishi lozim. U bekning ishonchi. Agar kotib so‘zni qattiq sir tutmasa, og‘zi o‘ra kabidir, og‘zidan chiqqan so‘z urug‘ donachalariday har yoqqa sochiladi, uni terib bo‘lmaydi. Bek kotib tanlashda quyidagi sifatlariga e‘tibor berishi lozimligini Yusuf uqtiradi:

Bitigchi biliglig uqushlug‘ kerak  
Xati uz balag‘at taqi edgurak

Bitigda xat uz bolsa achlur kongul  
Oqig‘u kelir baqsa avnur ko‘ngul

Balag‘at bila xat tengashsa qali  
Edi edgu til bu bitig soz tili

(Kotib bilimli, zakovatli bo‘lishi kerak,  
Xati chiroyli, so‘zga usta, ezgu fol bo‘lishi kerak.

Maktubda xat chiroyli bo‘lsa, ko‘ngil ochiladi,  
Boqsa o‘qigisi keladi, ko‘ngil quvonadi.

Agar fasohat bilan xush xat tenglashsa,  
Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo‘ladi.) (2653-2655)

Ammo kotib tamagir bo‘lsa-chi? Bunday kotib, - deydi Yusuf, - tilni buzadi, chunki u tama niyatida yozadi, oqibatda yozuvni buzadi. Kotib uchun yana bir fazilat – ichkilik ichmasligi, xulq-atvori chiroyli bo‘lishi lozim. Agar kotib ichkilik ichsa, bilimdan yanglishadi va yozuvda xato

qiladi. Buning oqibati – kotib yo o‘z boshini yoki xo‘jayinining boshini yeydi.

*Xazinachi.* Yusuf xazinachiga talab qo‘yganda, birinchi navbatda, uning ma‘naviy-axloqiy tomoniga e‘tibor qaratadi. Xazinachi – ko‘zi to‘q, halol va haromning farqiga boradigan bo‘lsa, Xudodan qo‘rqsa, ko‘p mol-dunyo ko‘rib ko‘zi to‘ygan bo‘lsa, shunday odamning xazinachi lavozimiga tayinlasa bo‘ladi. Xazinachining hushyorligi – beklilik ishning baroridan kelganidir.

Yusuf asarda yana boshqa tabaqalar – osh boshchi (bosh oshpaz), sharobdorlar boshlig‘i kabi mansablarga munosib nomzodlar tanlash haqida ham bir qator o‘g‘itlar beradi.

Yusuf nihoyatda kuzatuvchan. Jamiyatdagi hamma tabaqalarning fe‘l-atvorini, lavozim majburiyatlarini puxta o‘rgangan. Qaysi lavozimdagi odamlarga bilim, zukkolik, halollik kabi sifatlar zaruru qaysi biriga jismoniy baquvvatlik, qaysi biriga mehribonlik, xushmuomalalik kabi xislatlar kerakligi to‘g‘risida aytganda, bu toifalarning va mansabu unvonlarning majburiyatlarini sinchkovlik bilan bayon qiladi.

**Asarda O‘zg‘urmish obrazi.** “Qutadg‘u bilig”da qanoat timsoli bo‘lgan O‘zg‘urmish obrazi asar voqealarida muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida davlat tizimida asosiy tayanch bo‘lgan turli tabaqalar – bek, vazir, lashkarboshi, xazinachi kabi bir qator obrazlar orqali Yusuf axloqiy-ta‘limiy va ijtimoiy-siyosiy masalalarni ilgari surgan edi. Yusuf axloqiy-ta‘limiy g‘oyalari bilan birga, falsafiy qarashlarini asardagi O‘g‘urmish timsoli orqali yetkazadi. Kuntug‘di eligning O‘zg‘urmishga uch marta maktub yozgani va O‘zg‘urmishning javoblarida, O‘gdulmish bilan O‘zg‘urmish o‘rtasidagi suhbat va munozarada, Yusuf o‘rtaga chiqargan bu dunyoning afzalliklari va ayblari, taxt, boylik, odamiylik kabi axloqiy-ta‘limiy masalalar, ayniqsa, falsafiy aqidalar jamiyatning, davlatning barqaror yashashi uchun muhim omil ekanini u biron o‘rinda ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Jamiyatning turli tabaqalariga bo‘lgan munosabat, o‘sha tabaqalarning jamiyatda tutgan o‘rni kabi moddiy, maishiy va ma‘naviy masalalar to‘g‘risida o‘git beradi. Jumladan, beklarga xizmat qilmoq, saroydagi sipohlar bilan suhbat, qora avom bilan aralashib yurish zarurligi, alaviylar, olimlar, tabiblar, azayimxonlar, tush ta‘bir qiluvchilar, yulduzchilar, shoirlar, dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, hunarmandlar singari toifalar bilan qanday munosabatda bo‘lish, uylanish, bola tarbiyasi, xizmatkorlarga ezgu munosabat, mehmonga borish

va mehmon kutish qoidalari to‘g‘risidagi o‘gitlarni yetkazishni Yusuf zarurat deb biladi. Bu suhbatlarda falsafiy masalalar bilan axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar uyg‘unlashtiriladi.

O‘zg‘urmish – zohid, bu dunyodan yuz o‘g‘irgan. U zohidlik davri so‘fiylariga mansub (xuddi Ibrohim Adham, Hasan Basriy singari). O‘zg‘urmish “ko‘ngil sevgan” a‘moli bilan yashaydi. U O‘gdulmishga, dunyo senga o‘zini sevdirib qo‘yibdi, hamma ayblari senga fazilat bo‘lib ko‘rinibdi, deya ta‘na qilib, dunyoning va bu dunyoda boylikka mukkasidan ketgan odamlarning quyidagi ayblarini birma-bir ko‘rsatadi:

- dunyo quti Xudodan uzoqlashtiradi, qut - din ofatidir;
- bu bevafo olam - o‘tkinchi, boylik kibr-havo orttirishiga olib keladi, bu dunyo nima bergan bo‘lsa, tezda yana qaytib oladi;
- dunyo– ko‘lanka, izidan borsang, qochadi, sen qochsang, izingdan boradi;
- bu dunyoning qiliqlari –jafu, qilmishlari – bevafoqlik, begi bilan uch oy ham turmaydi;
- bu dunyoning quyidagi uchta narsadan boshqa narsasi yo‘q: biri – halol, ikkinchisi – shubha, uchinchisi – haromdir;
- bu dunyoda odam – g‘ofildir;
- xotin, o‘g‘il-qiz tashvishini tortmoq mashaqqat bo‘ladi, kishi kuchini uzadi;
- bu dunyoning yovi uch narsadir: halovat bilmaslik, nafsga qul bo‘lish, diyonatga xiyonat qilish;
- bu dunyoning narsasi (ya‘ni boyligi) sho‘r suvga o‘xshaydi, odam qancha ichsa ham qonmaydi, tili namlanmaydi;
- dunyo ishi sarobdir, kishi tutayin deb qo‘l uzatsa, yo‘qotadi.

O‘zg‘urmish O‘gdulmishga bergan bu o‘gitlarini tarixda o‘tgan avliyolar, zohidlarning ishlari bilan isbot etadi: “Avliyolar bu dunyoning narsa va molini badal qiladilar (ayirboshlaydilar), zohidlar boqib, bu dunyo asosini tark etadilar” (3514-bayt). Dunyoni, ya‘ni mol-dunyoni rad qilish bilan Yusuf qashshoq yashash afzal demoqchi emas, balki dunyoga berilish, mukkasidan ketish insonni toat-ibodatdan uzoqlashtiradi, ko‘ngilni bo‘ladi, demoqchi. “Bu dunyo ishiga aralashgan kishi xizmat bilan band bo‘lib, oxirat ishlarini qila olmaydi” (3297-bayt). Uning aytmoqchi bo‘lgan gapi shudir. O‘zg‘urmish – zohidona so‘fiydir. Uning falsafiy qarashlari yo‘q, balki taqvoli va parhyezkorlikni bosh o‘ringa chiqaradi. Ilk bosqichdagi so‘fiylik aqidalari ham O‘zg‘urmishning a‘moli singari edi.

Yusuf O'zg'urmish obrazi orqali ilgari surgan bu aqidalarda oddiy hayotiy detallar – hamma davrlarda insoniyatni haq yo'ldan chalg'itgan, faqat o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xudbin qilib yaratilgan, o'zining dunyoqarashi bilan yashaydigan insonlar toifasining qiyofasini chizib beradi. Yusufning O'zg'urmish tilidan aytgan quyidagi bayti hayotga ochiq ko'z bilan boqishga, odamning hayotdagi tamoyili qanday bo'lishi kerakligini anglashga undaydi:

Tirigka bu nangdin kechish yoq adash,  
Egin buggu ton ham bog'uzqa ham ash

Halal dunya bulsa yesa qazg'anib,  
Chig'ayqa ulasa aningdin alib

Kishi ag'ruqi bolmasa bu bog'uz  
Kishi unmazi ul bu ag'ruq bog'uz  
(Tirikka bu narsalar (oziq-ovqat kiyim)dan kechish mumkin emas,  
ey do'st, egnini butaguvchi kiyim ham, bo'g'izga ovqat ham zarur.  
Halol dunyo topsa, qo'lga kiritib bahramand bo'lsa,  
Undan bir ulush olib kambag'allarga ulashsa.  
Kishining mol va tomoq tashvishi bo'lmasa (qanday yaxshi bo'lardi),  
Mol va tomoq tashvishi kishini ko'kartirmaydi.) (3605-3607)

Bu singari o'gitlar Yusufning asosiy aqidalaridan biri ekan, shu o'rinda Ahmad Yassaviyning quyidagi baytlari Yusufning aqidalariga hamohangligini aytish o'rinlidir:

Harom–xarish yig'mish molg'a quvonmangiz,  
Mollarini qirshi otlig' yilon qilur...

*Bu dunyoga bino qo'ygan Qorun qani!  
Da'vo qilg'on fir'avn bilan Homan qani?*<sup>59</sup>

Dunyo mening degonlar, jahon molin olg'onlar,  
Karkas qushdek bo'lubon ul haromg'a botmishlar (Ahmad Yassaviy. Yuqordagi asar, 196-b.).

---

<sup>59</sup> Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1990, 161–b.

Yusuf so‘fiylarning bir toifasi bo‘lgan malomatiylik maslagini ham O‘zg‘urmish obrazi orqali ilgari suradi. “Kishilarning yukini ko‘tarsa, ularga yuk ko‘tartmasa, unga jafo qilsalar, u og‘iz ochmay vafo qilsa” (3382).

Yusuf O‘zg‘urmish obrazi orqali ilgari surgan tasavvufiy g‘oyalardan Ibn al-Arabiy, Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy kabi mutassaviflarning chuqur falsafiy ta‘limotini qidirish o‘rinsiz. Yusuf komil inson sifatleri bilan Iloh sifatlerini tenglashtirayotgani yo‘q, qolaversa, uning maqsadi bu emas edi. Uning aqidalarida hayotning maishiy tomonlariga qattiq e‘tibor qaratishdan tiyilish kerakligi haqidagi o‘g‘it bor.

O‘zg‘urmish Kuntug‘di elig va O‘gdulmish bilan qilgan suhbatlarida faqirlikni ulug‘laydi. Faqirlik – tariqatda o‘nta maqomotning biri. So‘fiylar nazdida faqirlik ulug‘vor ilohiy mohiyat kasb etish bo‘lib, Xudoga bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikkandan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo‘ldagi tuproq misol nomu nishonsiz bo‘lish, Iloh nazdida o‘zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olamu odam Allohga tegishli, insonning vujudi ham o‘ziniki emas, chunki u ham Yaratganning mulkidir. Faqrni ana shunday mazmunda anglagan odam tasavvuf mohiyatiga ham yetib boradi.<sup>60</sup>

Xullas, O‘zg‘urmish timsolida Yusuf nafsga erk bermaslik, buning o‘rniga toat-ibodat bilan band bo‘lish, halollik, birovning haqini yemaslik, boriga qanoat qilib kun ko‘rish, haromdan hazar qilish kabi kundalik amallarni bajarishni ommaga da‘vat qilishni ilgari suradi.

“Qutadg‘u bilig” da bir yuz saksonga yaqin to‘rtlik bor bo‘lib, Sharq epik she‘riyati uchun qulay va keyinchalik keng tarqalgan masnaviyda yozilgan. 71, 72, 73-boblar qasidadan iboratdir.

“Qutadg‘u bilig” aruzning mutaqoribi musammani solim va undan fa‘riy (hosila) bo‘lgan mutaqoribi musammani mahzuf, mutaqoribi musammani maqsur bahrida yozilgan. Misollar:

Solim bahr

Fa-u-lun fa-u-lun fa - u - lun fa- u- lun

Mahzuf bahr

Fa-u-lun fa-u-lun fa - u - lun fa- ul

---

<sup>60</sup>Qarang: Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent. “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009,26–27–betlar,



Maqsur bahr

Fa-u-lun fa-u-lun fa - u - lun fa- ul

Asarning 71 va 72- fasllari (ikki qasida) va bir to‘rtlik mutaqoribi musammani solim bahrida yozilgan:

E –si - zim, yi- git - lik, e – si – zim, yi- git - lik,

Tu – ta – bil, - ma – dim – man, se – ni – tark, qa – chit – tim,

Qolgan hamma qismlari *mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsur* bahrida yozilgan:

Ku – rars – lan, qa – o‘x – shar, bu – beg – lar, o‘zi,

U – ga – teg, sa – yum –shar, bu – tur – qu, ju – zi.

“Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlar adabiyoti, umuman, madaniyati tarixida alohida bosqich bo‘lib qoladi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Qoraxoniylar sulolasi qachon tashkil topgan?
2. Qoraxoniylar sulolasi qachon va nima uchun ikkiga bo‘linib ketdi?
3. “Qutadg‘u bilig”ning paydo bo‘lish sabablarini so‘zlab bering.
4. “Qutadg‘u bilig”ning qo‘lyozma nusxalari haqida so‘zlab bering.
5. “Qutadg‘u bilig”da bek qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
6. “Qutadg‘u bilig”da vazir qanday sifatlarga ega bo‘lishi lozim?
7. “Qutadg‘u bilig”da lashkarboshi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
8. “Qutadg‘u bilig”da ulug‘ hojib qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
9. Darvozabonlar boshlig‘i va elchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
10. Kotib va xazinachi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?
11. “Qutadg‘u bilig”da falsafiy masalalarni Yusuf qaysi obraz orqali o‘rtaga tashlaydi?

## Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari

### Reja:

1. "Devonu lug'atit-turk"ning yaratilishi.
2. "Devonu lug'atit-turk"dagi she'riy parchalar.
3. "Devonu lug'atit-turk" va "Qutadg'u bilig" uyg'unligi.
4. Alliteratsiyali she'r xususida.
5. "Devonu lug'atit-turk"da xalq maqollari.
6. "Devonu lug'atit-turk"da afsonalar.

**Tayanch so'z va iboralar:** *urug', qabila, turkychunoslik, qomusiy asar, she'riy parchalar, lirik va epik janrlar, to'rtlik, qadimgi folklor, individual she'riyat, adabiy muhit, turkiy she'riyat, alliteratsiya, moniylik she'rlari, qofiya, fors she'riyati.*

**"Devonu lug'atit-turk"ning yaratilishi.** Koshg'ariyning tug'ilgan yili aniq emas. U «Devonu lug'atit-turk» asarini 1068-yili yozib tugatgan. Bu davrda Koshg'ar aholisi turkiy tilning eng "go'zal lahjasi bo'lgan xokoniya turkchasida so'zlashar edilar" (V.V.Bartold); ukrainalik turkiyshunos olim Omelyan Pritsakning aytishicha, Mahmud Koshg'ariy Qoraxoniylar sulolasiga mansub odam bo'lgan. U siyosiy ta'qiblardan qochib, o'n yilcha turkiy qavmlar yashaydigan o'lkalarda u yerdan-bu yerga ko'chib yurgan. Ana shu davrda u turkiy qavmlarning tili, geografiyasi, musulmonlikdan oldingi urf-odatlar va diniy tasavvurlari, adabiyoti haqida ko'p material to'plagan. Oxiri Bag'dodda to'xtagan. Bu davrda Bag'dodni Saljuqiylar egallagan edi. Saljuqiylar ham turkiy-zabon bo'lgani uchun, Mahmud Koshg'ariy o'zi to'plagan materiallar saljuqiylarda qiziqish uyg'otishini bilib, «Devonu lug'atit-turk» asariga tartib bergan.

Koshg'ariy bu asari ustida uzoq yillar ishladi. Yuqori Chindan tortib butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona va Buxoroga qadar cho'zilgan keng hududni kezib chiqdi. Bu hududda yashagan urug'lar, qabilalarning turmush tarzini, kasb korini, turar joylarini aniqladi, tillarini sinchiklab o'rgandi. Koshg'ariyning o'zi bu haqda "Devon"ning muqaddimasida quyidagicha tushuntirish beradi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususi-

yatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa, men tilda ularning yeng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga (tillarga – N.R.) shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”<sup>61</sup>. Koshg'ariy bergan bu izohdan ma'lum bo'ladiki, u tilshunoslik bo'yicha maxsus ta'lim olgan

Koshg'ariyning asosiy maqsadi lug'at tuzish, turkiy qabilalarning lahjalaridagi farqlarni ko'rsatish barobarida bu davr adabiy tilining go'zalliklarini, turkiy qabilalar orasida barqaror va asrlar davomida qo'llanib kelgan til ekanini namoyish qilish bo'lgan edi. Buning isboti sifatida turkiy tilning ijtimoiy hayotdagi o'rniga u bergan quyidagi gap asos bo'la oladi. Koshg'ariy yozadi: “Xudo davlat quyoshini turklar burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko'tardi... Ularning [turklarning] o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar...” (1 jild, 21-b.).

Mahmud Koshg'ariy bu asari orqali ilk bor turkiyshunoslikka asos soldi.

«Devonu lug'atit-turk» - qomusiy asar. Bu asar faqat tilga yoki adabiyotga oid materiallar va dalillargina emas, balki Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qabilalar tarixi to'g'risidagi manba hamdir. Har bir qabilaning o'sha davrdagi mavqei, tarixi to'g'risida ham yetarli ma'lumotlar beradi. Jumladan, o'g'uzlar, qarluqlar kabi yirik qabilalar to'g'risida o'rni-o'rni bilan aytilgan ma'lumotlar bunga dalildir.

**«Devonu lug'atit-turk»dagi she'riy parchalar.** «Devonu lug'atit-turk» adabiy manba sifatida ham qimmatli yodgorlikdir. Asardagi she'riy parchalar XI asrgacha bo'lgan adabiy hayot to'g'risida to'laqonli so'z

<sup>61</sup> Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'atit turk. – uch jildlik. 1- jild, Tarjimon filologiya fanlari kandidati S.Mutallibov. Nashrga tayyorlovchilar O'zRFA akademigi A.Rustamov, filol.f.d. H.Boltaboev “MUMTOZ SO'Z”nashriyoti, Toshkent, 1960, 21-b.

yuritishga imkon beradi. Bu she'riy parchalar ma'lum bir so'zning izohi uchun keltirilgan bo'lsa-da, bu parchalar qadimgi turkiy adabiyotda lirik va epik janrning rivoj topganidan dalolat beradi. Koshg'ariy keltirgan mazkur she'riy parchalar turli mavzuda – mehnat, yorning ta'rif-tavsifi, turk bahodirlarining qahramonliklari, ezgulikka da'vat, vatanparvarlik va h. She'riy parchalarni Mahmud Koshg'ariy xalq og'zidan yozib olgan.

«Devon»dagi she'riy parchalar ko'p turkologlar o'rtasida munozaraga sabab bo'lib kelgan. Ko'pchilik yevropalik turkologlar «Devon»da keltirilgan to'rtliklarni dastlab turkiy xalqlarning qadimgi folkloriga mansub deb qaragan edilar. Jumladan, nemis turkolog olimi K. Brokelman shunday fikrni aytgan edi. Ammo u «Devon»dagi ikkilik va to'rtliklar unutilib ketgan ma'lum bir shoirlar ijodiga mansubligini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Uningcha, bu to'rtlik va ikkiliklar asar yozilgan davrdan ilgari mavjud edi va islom davriga hech qanday aloqasi yo'q.

Ayni paytda «Devonu lug'atit-turk»dagi ba'zi she'riy parchalar ma'lum bir ijodkor qalamiga mansub ekanligini Koshg'ariyning ishorasidan bilish mumkin. Koshg'ariy ko'p o'rinlarda «shoir aytadi» iborasini ishlatadi va bir to'rtlik keltiradi:

Izimni o'karman,  
Bilikni yugarman.  
Ko'ngulni tugarmen,  
Erdam uza turgunur (II, 282)

(Shoir aytadi: Egamni maqtayman, uning madadi bilan ilmni yig'aman. Ko'ngilni shunga bog'layman, ilmu hunar to'plashga ko'nglim berilgandir).

Bundan tashqari, ilm manfaati haqidagi to'rtliklar yoki fardlar ham bevosita yozma adabiyotning mahsulidir, ya'ni ma'lum bir shoir ijodiga mansubdir. Zotan, ilm manfaati haqidagi o'gitlar Qoraxoniylar davri adabiyotining muhim xususiyatlaridandir:

O'gran aning biligin,  
Kunda angar baru.  
Qutqilig'in tapping'il  
Qo'zg'il kuvaz naru (II, 161-162)

(Agar bilimdon odamga yo‘liqsang, har kun unga bor, yaxshi muomala bilan uning ilmu hikmatlarini o‘rgan, takabburlikni tashla).

O‘sha shoirlar xalq orasida mashhur bo‘lganlari uchun ham Koshg‘ariy ularning ismini aytib o‘tirmagan. Ba‘zi shoirlarning (masalan, Cho‘chu) ismini aytib o‘tgan, xolos.

Quyidagi fard ham “Devonu lug‘atit-turk”ka Qoraxoniylar davridan oldingi va o‘sha davrdagi didaktik adabiyotning ta‘sirini ko‘rsatadigan dalillardan biridir:

Qo‘ldash bilan yarashg‘il, qarshib adin urdurma,  
Bek tut yavash taqag‘u suvin yazin adirma (II jild, 18-b.)

(Qo‘ldosh (suhbatdosh)ingni hurmat qil, yaxshi muomalada bo‘l, qarshilik qilib, uni tashlab, boshqa bilan bo‘lma. Uydagi tovuqni boqolmay qochirib yuborib, durrojni boqaman deb ovora bo‘lma).

Quyidagi baytni ham, yuqoridagi fard singari, biron shoir ijodiga mansub deb qarash maqsadga muvofiqdir:

O‘g‘ulum, senga qo‘zurman ardam o‘gut xumaru,  
Bilga erig bo‘lup sen baqqil aning tabaru (III, 445)

(O‘g‘lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. Agar ilmi, aqlli odamlarga yo‘liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan).

Yoki quyidagi baytni ham fard janriga mansub deb qarash mumkin:

Kelsa kishi etma angar o‘rtar kula,  
Baqqil angar ezgulugung ag‘sin qula (1, 149).  
(Senga kular yuzli bir kishi kelsa, sen uning yuziga issiq kul sochma, yaxshilik qil, yoqimli qiliq bilan hurmatla.)

«Devon»dagi she‘riy parchalar misralari teng bo‘g‘inli (yetti bo‘g‘indan o‘n to‘rt bo‘g‘inga) qofiyalangan she‘rlar ekani yuqoridagi parchalardan ayon bo‘lib turadi.

V.V.Bartold «Devonu lug‘atit-turk»dagi she‘riy parchalarga nisbatan siyosiy tomondan yondashgan edi. Uningcha, «Devonu lug‘atit-turk»dagi she‘rlar orasida xuddi «Qutadg‘u bilig»dagi singari, saroy adabiyotiga xos xususiyatga ega bo‘lgan to‘rtliklar ham bor. Buning isboti sifatida V.V.Bartold quyidagi to‘rtlikni keltiradi:

Turkan qatun qutinga,  
Tegur mendin qo‘shug‘,  
Ayg‘il sizing tabug‘chi  
O‘tnur yangi tabug‘ (1, 357).

(Malika (shoh) xotinga mendan maqto‘v, qasida (qo‘shiq) yetkazgin, xodimingiz yangi xizmat bilan yo‘llanadi, deb ayt.)

Mazkur to‘rtlik, garchi shaklan xalq og‘zaki ijodiga xos to‘rtlikni gavdalantirsa ham, aniq bir obraz (Turkon malika)ning mavjudligi, didaktik mazmun ifodalangani bilan individual she‘riyatga mansub deb qaralsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi va V.V.Bartoldning qarashlari o‘rinli ekani o‘z isbotini topadi.

“Devonu lug‘atit-turk” va “Qutadg‘u bilig” uyg‘unligi. Ayni paytda “Devonu lug‘atit-turk”da shakl jihatidagina emas, balki mazmun tomondan «Qutadg‘u bilig»ga monand didaktik mazmundagi parchalar ham borki, bu parchalarda barqaror adabiy muhit, ma‘lum izga tushgan ijtimoiy hayotning in‘ikosini ko‘ramiz. Qolaversa, “Qutadg‘u bilig”da Yusuf uzoq o‘tmishdagi donishmandlarning asarlariga tayanganini aytadi va ularning o‘gitlaridan iqtiboslar keltiradi. Keltirilgan iqtiboslarning deyarli hammasi didaktik mazmunda. Yusuf keltirgan qadim donishmandlarning iqtiboslari xalq orasida maqol va matallar singari tarqalgani shubhasiz. Bunday jarayon adabiyot tarixida ko‘p uchraydi.

Mana shu adabiy qonuniyatga tayanib, Yusuf asarida keltirgan donishmandlarning o‘gitlari, hikmatlari “Qutadg‘u bilig” uchun qanchalik xizmat qilgan bo‘lsa, “Devonu lug‘atit-turk” uchun ham shunchalik jiddiy va ishonchli manba bo‘lgan. Namuna sifatida «Devonu lug‘atit-turk»dagi va “Qutadg‘u bilig”dagi mazmunan o‘xshash bo‘lgan ayrim fardlarni qiyoslaymiz:

“Devonu lug‘atit-turk”da:

Ulug‘luq bo‘lsa sen ezgu qilin,

Bo‘lg‘il kishig beglar qatin yaxshi ulan (1,95).

(Daraja yoki martaba topsang, xulqingni chiroyli qil, amirlar oldida yaxshilik yetkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul qiluvchi bo‘l.)

“Qutadg‘u bilig”da:

Qilinch et, yo‘ruq tuz, o‘zungni tutun,

Ko‘ngul til ko‘ni tut, bishirg‘il so‘zung.

(Xulqingni to‘g‘rila, yo‘riqni tuzat, o‘zingni tut,

Ko‘ngil, tilni to‘g‘ri tut, so‘zingni pishiq qil) [3957]

“Devonu lug‘atit-turk”da:

Bo‘lmish nangig sevarsan, aqrun angar sevingil,

Barmish nengig saqinma, azraq angar o‘kungil (III, 372)\*

(Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (ya‘ni qo‘lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qo‘lingdan ketgan narsa uchun qayg‘urma, unga ozroq sevin. Chunki achinish senga (qo‘lingdan chiqib ketgan narsalarni) qaytarib bermaydi)

“Qutadg‘u bilig”da:

Kuvanma bu qutqa, kelip ham barir,

Inanma bu davlat berur ham alir [680]

(Bu mol-davlatga quvonib g‘ururlanma, u keladi va yana ketadi,

Bu davlatga ishonma, uni beradi va yana oladi)

\*Mazkur she‘riy parcha “Devonu lug‘atit-turk”da to‘rtlik shakli-da berilgan, yuqoridagi fardga shaklan va qofiyalanish tizimi bo‘yicha o‘xshash bo‘lgani uchun, biz ikkilik shaklida berdik.

“Devonu lug‘atit-turk”dagi she‘riy parchalar yuzasidan yevropalik olimlar bildirgan mulohazalar anchayin diqqatga sazovor. Asardagi to‘rtliklar turkiy she‘riyatning qadimgi namunalaridir degan K.Brokkelmaning fikrlari P.Peloning qarashlarini shubha ostiga qo‘ydi. P.Pelo moniylik she‘rlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida, qadimgi

turkiy she'riyat qofiyali emas, balki alliteratsiyali she'r bo'lgan degan xulosaga kelgan edi. Alliteratsiya, uningcha, misralar boshida keladi va she'rni bir tizimga soladi. Pelo "Devonu lug'atit-turk"dagi to'rtliklarning qofiyalanishini fors she'riyati ta'siridir deb qaraydi. "Qutadg'u bilig"ning she'r tuzilishida fors she'riyatidagi qofiya o'z izini qoldirgan va bu haqda yetarli fikrlar aytilgan.<sup>62</sup>

**Alliteratsiyali she'r xususida.** Moniylik oqimidagi she'rlarga e'tibor berilsa, haqiqatan, alliteratsiyaning misralar boshida qo'llanganini kuzatish mumkin. Masalan, «Tong tangrisi» nomli madhiya alliteratsiya izchil qo'llangan she'rning yaqqol namunasidir. She'rni to'liq keltiramiz.

Tang tangri keldi,  
Tang tangri o'zi keldi,  
Tang tangri keldi,  
Tang tangri o'zi keldi.

Turunglar qamug' baglar, qadashlar,  
Tang tangrig ogalim.

Korugma kun tangri,  
Siz bizni kuzating,  
Korunugma ay tangri,  
Siz bizni qurtgaring.

Tang tangri,  
Yidlig', yiparlig',  
Yarug'lug', yashuqlug'  
Tang tangri  
Tang tangri.

Tang tangri,  
Yidlig', yiparlig',  
Yarug'lug', yashuqlug'  
Tang tangri  
Tang tangri.<sup>63</sup>

---

<sup>62</sup> To'xliiev B. Yusuf xos Hojib va turkiy qofiya taraqqiyoti. Toshkent, 1994.

<sup>63</sup> Resid Rahmati Arat. Eski turk siiri: 1991, 8-35-s.



Misralar boshidagi *t, y, k, s* undoshlarining takrori alliteratsiyali she'rni yuzaga keltirgan. Bu she'rda "Devonu lug'atit-turk"dagi singari qofiya qo'llanmagani uchun hijolar tengligi yo'q. Alliteratsiyali she'rda hijolar tengligi bo'lishi shart emas. Ritm va ohang alliteratsiya bilan birga takror orqali ham yuzaga kelaveradi.

Moniylik she'rlari kuzatilganda, alliteratsiya usuli she'riyatning muhim xususiyatlaridan biri bo'lgani ko'rinadi. "Bizing Tangrimiz adgusi radni tiyur", Aprinchur tiginning boshlanishi o'chib ketgan she'ri, "O'lim tasviri", "Moniyga atalgan madhiya" kabi she'rlarda alliteratsiyali she'r qadimgi turkiy she'riyatning tuzilishida asosiy omil ekanini ko'rsatadi.

Ammo moniylik mazmunidagi she'rlarning hammasi qofiyasiz bo'lgan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Qofiya moniylik she'rlarining tayanch nuqtalaridandir. Masalan, "Do'zax tasviri" she'ridagi quyidagi parchalarga e'tibor beraylik:

Tupinta olukma *olmaki* bar,  
Tunarig tamuqa *tushmaki* bar.  
Tumanlig yaklar *kelir* tiyur,  
Tumanlig yaklar *ayar* tiyur  
(Oxiri insonning o'lmog'i ham bor,  
Qorong'u do'zaxga tushmog'i g'am bor.  
O'n minglarcha shayton keladi derlar,  
O'n minglarcha shayton ish ko'rar derlar.)

Bunday misollarni moniylik she'rlaridan ko'plab keltirish mumkin.

"Devon"dagi she'rlar haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asaridagi she'rlar ham xalq og'zaki ijodiga, ham individual she'riyatga mansub.

2. Matnlar islomdan oldingi davrga aloqador.

Urxun yodnomalari bilan "Devonu lug'atit – turk" qiyoslanganda, badiiy fikrlashning eng umumiy tamoyillari urxun yodnomalarida ham, «Devon»da bir ekanligi ayonlashadi.<sup>64</sup>

"Devonu lug'atit-turk" va yenisey yodnomalaridagi jang lavhalarini bir-biriga motiv va syujet jihatidan shunchalik uyg'un keladiki,

<sup>64</sup>Qarang: Rahmonov N. Ko'hna bitiktoshlar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent, 1991, 14-bet.

“Devon”dagi to’rtliklar “islomdan oldingi O’rta Osiyo xalqlarining eposi”ga<sup>65</sup> aloqadorligi ma’lum bo’ladi. Fitratning ko’rsatishicha, “Devon”dagi to’rtliklar milodiy VII-VII asrlarga oid adabiy manbalardir. Qadimgi turkiy adabiyotdagi - urxun-yenisey yodnomalaridagi an’ana Qoraxoniylar davri adabiyotiga uzluksiz o’tgani haqidagi fikrlar shunday parchalarda o’z tasdig’ini topadi. Jumladan, A.Bombachi qadimgi turkiy adabiyot bilan “Qutadg’u bilig” o’rtasidagi aloqani tarixiy sharoit bilan bog’laydi: “Turkiylar uchun islomgacha bo’lgan davrdan islomga o’tish birdaniga bo’lmagan edi. An’ananing uzluksizligi Qoraxoniylar adabiyotida yaqqol kuzatiladi. Til ilgari qanday bo’lsa, shundayligicha qoldi”.<sup>66</sup> Qadimgi turkiy adabiyotning chegarasini aniqlashda til niho-yatda muhim.

Bombachining yuqoridagi fikri uchta manba – urxun- yenisey yodnomalari, “Devonu lug’atit-turk” va “Qutadg’u bilig”ga tegishli. Turko-logiyada “qadimgi turkiy adabiyot” va “qadimgi turkiy til” nomi ostida XI asrgacha bo’lgan turkiy tildagi yodgorliklar nazarda tutiladi va bu o’zini oqlaydi.

Gap “Devonu lug’atit-turk” va urxun- yenisey yodnomalarining ti-lidagi umumiylik va bu manbalardagi tasvirning uyg’unligi haqida ketar ekan, yana Fitratga murojaat etamiz. U yuqoridagi asarida “Devon”dagi bir necha epik asar parchalarini tiklaydi. Ular mazmun, ruh, poetik ji-hatlari, voqealar mazmuni jihatidan xalq eposlariga taalluqli ekanligi yaqqol sezilib turadi. Fitrat “Devon”dagi to’rtliklarni mazmuniga ko’ra o’n besh bo’limga guruhlaydi. Biz bu o’rinda VII (Tangut begining urushi, 53-58- betlar), VIII (Uyg’urlar bilan urush, 58-60-betlar), XII (Bir urush, 74-78-betlar), XIII (Uch urush, 72-74-betlar) bo’limlaridagi to’rtliklarning yodnomalardagi parchalarga nafaqat g’oya va maz-mun tomondan, balki tarixiylik nuqtai nazaridan ham uyg’un kelishini ta’kidlamochimiz. Misol uchun “Tangut begining urushi” deb nomlan-gan bo’lim to’rtliklarida (8 to’rtlik) jang manzarasi tasvirlangan.

Qatun sini jig’iladi,  
Tangut begin yag’iladi,  
Qani ag’ib jag’iladi,  
O’yin suvin qizil sag’di.

<sup>65</sup> O’zbek folklorining epik janrlari. Toshkent, Fan, 1981, 88-bet.

<sup>66</sup> Бомбачи А. Тюрские литературы. Введение в историю стиля. “Зарубежная тюркология” тўплами. М.: 1986, 208-б.

(Qatun sini qabilasi qichqirishib, g'ulg'ula solib, tangut begiga dushman bo'ldi, urush ochdi, (oqibatda) bo'ynidan zil suv sog'ilgan kabi bo'lib, qoni vijillab oqdi.)

Bu to'rtliklardagi tarixiy voqealar turk xoqonligi davrida yuz bergan. Qiyos uchun Bilga xoqon yodnomasidagi tangutlar bilan bo'lgan jang lavhasiga to'xtalaylik.

*Yati yigirmi yashima tangut tapa suladim. Tangut bodunin buzdim, og'lun, yutuzin, yilqisin, barimin anta altim* (Bx, 24) – O'n yetti yoshimda tangutga lashkar tortdim. Tangut xalqini yengdim, o'g'lini, xonumonini, yilqisini, molini o'shanda oldim.

Bu voqea VIII asrning boshlarida – taxminan 702-yilga to'g'ri keladi. Ammo tarixiy voqealarning aynan nusxasini “Devon”dan qidirish o'rinli emas. “Devon”dagi to'rtliklar xalqning ijodi sifatida paydo bo'lgan, ya'ni ular xalq qo'shiqlaridir. Quyidagi parchada ham Bilga xoqon yodnomasidan keltirilgan parchadagi singari jang tasviri va tangutlarning mag'lubiyati tasvirlangan:

Tangut susin ushuqladi,  
Kishi ishin elikladi,  
Aran atin balqiladi,  
Bulun bolup bashni tig'di.

(Tangut qo'shinini sovuqda bosdi. Bu ish bilan erkaklar ishini masxara qildi. Bosqinda barcha er ham otlarni har kimga bo'lakladi (ya'ni hadya qildi). Oxirida o'zi asir bo'lgach, boshi kesildi.)

Tangut xani yubildi,  
O'lum birla tubuldi,  
Qazashlari tabladi,  
O'lum ko'rub yuzi ag'di.

(Tangut xoni uni boshdan aldadi-da, so'ngra o'lim bilan tepaladi, yengdi, qarindoshlari uning bu mag'lubiyatidan orlandilar. Chunki o'limni ko'rgach, uning yuzi oqargan edi.)

Mazkur to'rtliklarda jang tasviri, qahramonlarning xatti-harakatlari, holati batafsil tasvir etilgan. Chunki epik bayon bilan birga, naturalistik tasvir tamoyili folklor uchun, ayniqsa, doston uchun muhim xususiyatdir.

Yoki quyidagi to'rtlik ham motiv va syujet jihatidan To'nyuq, Kul tigin yodnomalaridagi aksariyat jang lavhalarini gavdalandiradi.

Eran alpi o'qushtilar,  
Qing'ir ko'zun baqishtilar,  
Qamug' tutup to'qushtilar,  
Qilich qing'a kuchin siqti.

(Erlar, botirlar bir-birlarini kurashga undadilar. Bir-birlariga yov ko'zi bilan yomon qaradilar. Butun yaroqlari bilan urushga kirishdilar. Qilichlarning qinga kirishi qiyinlashdi.)

“Devon”dagi to'rtliklar qadimgi turk davrida shakllangan va ularga qadimgi turk davridagi tarixiy voqealar zamin bo'lgan ekan, yuqoridagi parchalarni tarixiy qo'shiq janriga mansub deb qarash kerak (N.Rahmonov. yuqoridagi asar, 16-17-b.).

**“Devonu lug'atit-turk”da xalq maqollari.** Mahmud Koshg'ariy nozik didli adabiyotshunos sifatida maqol va she'rni yaxshi farqlaydi va har bir baytni berishda aniqlik kiritadi. Qaysi o'rinda maqol, qaysi o'rinda she'r kelayotganini o'quvchiga uqtirish uchun “maqolda shunday kelgan”, “she'rda shunday kelgan” iboralarini keltiradi.

Koshg'ariy keltirgan maqollar mavzu jihatdan turlicha.

1. Mehnatsevarlik va dangasalik: *Erik erni yag'lig'*, *ermagu bashi qanlig'* – tirishqoqning labi yog'lig', erinchoqning boshi qonlig' (1, 100); *Ermaguga eshik art bo'lur* – yalqovga eshik ostonasi ham tog' bo'lib ko'rinadi (1, 78).

2. Hamjihatlik va noittifoqlik: *Ingan ingrasa, bo'tu bo'zlar* – urg'ochi tuya ingrasa, erkak tuya bo'zlaydi (1, 142); *Bilmish yek bilmazuk kishida(n) yig* – Notanish kishidan tanish shayton yaxshi (111, 175); *ko'zdan yirasa, ko'nguldan yama yirar* – (do'stlar) ko'zdan uzoqlashsa, ko'ngildan ham uzoq bo'ladi (111, 377).

3. Donolik va nodonlik: *Qut belgusi bilik* – baxt belgisi ilmdir (1, 403); *Endik uma evlikni ag'irlar* – befaham mehmon uy egasini hurmatlaydi (1, 130).

4. Mardlik va qo'rqqoqlik: *Alp cherikda, bilga tirikda* – Botir jang alangasida, dono majlisida sinaladi (1, 77); *Qo'rqmish kishiga qo'y bashi qo'sh ko'rinur* – qo'rqqan odamga qo'yning boshi qo'shaloq ko'rinadi (111, 139).

5. Ehtiyotkorlik va tadbirkorlik: *Alplar birla urushma, baglar birla turushma* – Botirlar bilan urushma, amirlar bilan xusumatlashma (1, 192); *Avchi necha al bilsa, azig' ancha yo'l bilir* – ovcha qancha ov hiylalarini bilsa, ayiq ham shuncha qochish yo'llarini biladi (1, 91).

6. Vafodorlik: *Tilin tugmishni tishin yalmaz* – til bilan bog'langan (narsa) tish bilan yechilmas (11, 28).

7. Odoblilik va tarbiyalilik: *O'g'laq iliksiz, o'g'lan biliksiz* – echki bolasida ilik yo'q, yosh bolada aql yo'q (1, 141).

8. Inson qadr-qimmat: *Evdagi buzag'u o'kuz bo'lmaz* – uyda o'sgan buzoq hech vaqt ho'kiz bo'lmaydi (1, 417); *Kizlanchu kelinda* – Yashirin narsa kelinda bo'ladi (111, 261).

9. Yaxshilik va yomonlik: *Suv ichurmasga sut ber* – suv bermagan-ga sut ber (1, 224); *Bir tilku terisin ikila so'ymas* – bir tulki terisi ikki martalab shilinmaydi (111, 262).

10. Halollik, rostgo'ylik va munofiqlik: *Kishi alasi ichtin, yilqi alasi tashtin* – Odamning olasi ichida, yilqiniki sirtida (1, 117); *Mush yaqriqa tegishmas, ayur kishi neni yarashmas* – Mushuk mixga osilgan charv yog'iga yetolmay, “birovning moli yarashmaydi”, deydi (11, 117) va h.

**“Devonu lug'atit-turk”da afsonalar.** “Devon”da Mahmud Koshg'ariy afsonalardan namunalar ham keltirgan. Shu afsonalardan biri - “Oltin qon” afsonasi, ikkinchisi - yil hisobi to'g'risidagi afsonadir. Shuningdek, bulardan tashqari, Xudxur viloyatiga nom qo'yilishi (1, 135-b.), chigil qabilasiga Iskandar Zulqarnayn nom qo'ygani haqidagi kichik afsonalar (1, 374-b.) ham bor.

Yil hisobi to'g'risidagi afsona turkcha o'n ikki muchal yillarining paydo bo'lish tarixiga oiddir. Afsonaning mazmuni shunday:

Turk xoqonlaridan biri o'zidan bir necha yil oldin bo'lib o'tgan urushni o'rganmoqchi bo'lgan, shunda u urush bo'lib o'tgan yilni aniqlashda yanglishgan. Bu masala yuzasidan (xoqon) qavmi bilan kengashdi va aytdi: “Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo'lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo'lgach, biz endi o'n ikki oy va osmondagi o'n ikki burjga asoslanib, o'n ikki yilga ot qo'yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo'lib qolsin”. Ular “aytganingizday bo'lsin”, dedilar.

Xoqon ovga chiqdi va odamlarga vahshiy hayvonlarni Ili daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Odamlar ov qilib, hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar. Shunda o'n ikki hayvon suvdan o'tdi. O'n ikki yilni ana shu o'n ikki hayvon ismi bilan atadilar. Eng oldin suvdan o'tgan hayvon *sichg'an* (sichqon) bo'ldi. Shuning uchun yil boshini uning nomi bilan ataldi, shu so'zga yil qo'shib, *sichg'an yili* – sichqon yili deb atadilar. Undan keyin o'tganlari quyidagi tartibda bo'ldi va ularning har biri bir yil uchun ism bo'lib qoldi: *ud yili* (sigir yili), *bars yili* (yo'lbars yili), *tavishg'an yili* (quyon yili), *nek yili* (timsoh yili), *yilan yili* (ilon yili), *yund yili* (ot yili), *qoy yili* (qo'y yili), *bichin yili* (maymun yili), *taqag'u yili* (tovuq yili), *it yili* (it yili), *tongiz yili* (to'ng'iz yili).

To'ng'izga yetgandan keyin hisob yana sichqondan boshlanadi.

Koshg'ariy afsonani hikoya qilib bo'lgach, qadimgi turkiylarda yil hisobi quyidagi tartib bilan yuritilishini ko'rsatadi: *sichqon yili*, *sigir yili*, *bars yili*, *quyon yili*, *timsoh yili*, *ilon yili*, *ot yili*, *qo'y yili*, *maymun yili*, *tovuq yili*, *it yili*, *to'ng'iz yili* (1, 234).

Bu afsonaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, qadimgi Xitoy afsonalari tarkibida ham mazkur afsona o'rin olgan. Xitoy xalqida bu afsona Budda bilan bog'liq.

Xitoylarda rivoyat qilinishicha, Budda yer yuzini tark etishdan oldin huzuriga hamma hayvonlarni chaqiribdi. U bilan xayrlashgani o'n ikki hayvon kelibdi, xolos. Kelgan hayvonlarni mukofotlash uchun Budda, men chaqirganimda navbat bilan kelganingiz bo'yicha yillarga nom beraman, debdi. Hayvonlar birinchi bo'lib kim kelgani to'g'risida bahslash boshlabdilar. Oxiri, bir to'xtamga kelish uchun musobaqa uyushtirishga qaror qilidilar: daryoning narigi qirg'og'iga birinchi bo'lib o'tgan hayvonning nomi bilan birinchi yil ataladigan bo'libdi. Navbatdagi yillar esa daryoni birin-ketin kechib o'tgan hayvonlar nomi bilan atalishiga qaror qilishibdi. Nihoyat, o'n ikki jonzot qirg'oqqa tizilibdi va baravar suvga o'zlarini tashlabdilar. Kalamush darrov ho'kizning ustiga minib olibdi, ho'kiz esa hech narsani sezmabdi. Ho'kiz boshqa hamma hayvonlardan oldinga ketib, daryoning narigi qirg'og'iga chiqishga tayyorlanibdi. Shu lahzada *kalamush* uning ustidan sakrabdi-da, qirg'oqqa *ho'kizdan* bir necha soniya oldin chiqibdi. Shunday qilib, *kalamush* birinchi bo'lib chiqqan hisoblanibdi. Qolgan hayvonlar quyidagi tartibda

suzib o‘tibdilar: *yo‘lbars, quyon, ajdar, ilon, ot, qo‘y, maymun, xo‘roz, it*. *To‘ng‘iz* nihoyatda sustkash va dangasa ekan, shuning uchun eng oxirida qirg‘oqqa yetib kelibdi.<sup>67</sup>

Mazkur afsona bilan Mahmud Koshg‘ariy keltirgan afsonadagi yil hisobining nomlari va tartibida katta farq yo‘q. Ehtimol, Xitoyga bud-daviylik kirib kelgandan keyin, qadimgi turklar afsonasini o‘zlashtirgan bo‘lishlari mumkin.

Shuningdek, “Devonu lug‘atit-turk”da munozara (Yoz va Qish mu-nozarasi) janri, Alp Er To‘ngaga va yana bir noma‘lum qahramonga bag‘ishlangan marsiya ham bor. Agar Abdurauf Fitrat “Devonu lug‘atit-turk”dagi to‘rtliklar asosida tiklagan dostonlar ham e‘tiborga olinsa, qa-dimgi turkiy adabiyotda janrlar rang-barangligiga guvoh bo‘lish mum-kin.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Devonu lug‘atit-turk” qachon va qayerda yaratilgan?
2. “Devonu lug‘atit-turk”ni yozish uchun material to‘plash maqsa-dida Mahmud Koshg‘ariy qaysi o‘lkalarni kezib chiqdi?
3. “Devonu lug‘atit-turk”da “shoir aytadi” iborasi nimani anglatadi?
4. “Devonu lug‘atit-turk”dagi didaktik she‘riy parchalarga misol keltiring.
5. “Devonu lug‘atit-turk”dagi she‘riy parchalar qaysi davrga te-gishli?
6. “Devonu lug‘atit-turk”dagi she‘riy parchalar bilan qaysi qadim-gi yodgorliklar o‘rtasida uyg‘unlik bor?
7. “Devonu lug‘atit-turk”da qaysi adabiy janrlar uchraydi?
8. “Devonu lug‘atit-turk”dagi maqollar qaysi mavzularda?

---

<sup>67</sup> Тони Энтони. Укрощение тигра, Санкт-Петербург, 2008, 29-б.

## Reja:

1. Adibning tarjima holiga oid kuzatuvlar.
2. Fitrat Ahmad Yugnakiy haqida.
3. Asarning qo‘lyozma nusxalari.
4. “Hibatul-haqoyiq”ning o‘rganilishi.
5. Asarning tuzilishi va boblar tahlili.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Alisher Navoiy, “Nasoyim ul-muhabbat”, talaba, hikmatlar, bayt, naql, tolibi ilm, til, uslub, Dod Spohsolor bek, Sayfi Isfarangiy, Badiuzzamon, Husayn Boyqaro, “Munshaot”, Adib Ahmad, maktub, qo‘lyozma, xattot, bayt, sharq adabiyoti, na‘t, tazod san‘ati.*

**Adibning tarjima holiga oid kuzatuvlar.** Ahmad Yugnakiyning tarjimai holi to‘g‘risida ma‘lumot deyarli saqlanmagan. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Adib Ahmad haqida to‘xtaladi va uning qaysi o‘lkadan ekani, shaxsiyati va jismoniy holati haqida shunday deydi: “Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g‘arib nimalar manquldur (ya‘ni g‘aroyib voqealar ko‘chirib qoldirilgan). Derlarki, ko‘zlari butov (ya‘ni butun) ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir bo‘lub, o‘zga basirlardek andoq emas ermishki, ko‘z bo‘lg‘ay va ko‘rmas bo‘lg‘ay” (*Navoiy. MAT. 17-tom, 426-b.*) Chamasi, Navoiy ham Adib Ahmad haqidagi ma‘lumotlarni biron tarixiy manabadan olgan. Aks holda, uning shaxsiy hayotiga va fazilatlariga oid quyidagi ma‘lumotlarni keltirmagan bo‘lardi: “Ammo bag‘oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy (ya‘ni taqvodor, parhizkor) kishi ermish. Haq s.t. agarchi zohir ko‘zni yopuq yaratqandur, ammo ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur: lo‘byog‘a (ya‘ni o‘yinchoqqa) ilik surtubdur va debdurki, qo‘y bukragiga o‘xshaydur va naxudni barmog‘i bila silab, debdurki, itolgu boshig‘a o‘xshar. Maskani Bag‘doddin necha yig‘och, ba‘zi debdurlar, to‘rt yig‘och yo‘l ekan”.

Navoiy mazkur asarida Adib Ahmadning yoshligida – madrasa talabasi ekanligidayoq zukko, donishmand bo‘lgani va el og‘zida doston bo‘lganiga ishora qiladi. Navoiy davom etib yozadi: “Bir kuni Imom A‘zam q.r. darsig‘a hozir bo‘lur erkandur va bir mas‘ala o‘rganib, bu



yo'lni yayog' borur erkandur. Darsda yeri saffi ni'ol (ya'ni poygak) erkandur. Naqledurki, Hazrat Imomdin so'rubdurlarki, shogirdlaringiz arosida qaysidin andoqki ko'nglunguz tilar, rozisiz? Bovujudi (shunday bo'lsa ham) Imom Muhammad va Imom Abu Yusuf r. va alarning abnoyi jinsi (tengqurlar) va hamsabaqlari. Imom q.s. debdurki, bori yaxshidurlar. Ammo ul ko'r turkki, saffi ni'olda o'lturur va bir mas'alani mazbut qilib (xotirda saqlab), to'rt yig'och yo'l yayog' kelib borur, andoqki kerak ul tahsil qilur."

Shundan so'ng Navoiy Adib Ahmadning chuqur ma'noli hikmatlari turkiy xalqlari orasida nihoyatda mashhur bo'lgani to'g'risida dalillarini keltiradi va garchi "Hibatul-haqoyiq" asarining nomini tilga olmasa ham, ikki bayt keltiradi: "Va aning tili turk alfozi bila mavoizi nasoyihqa (pandu nasihatlar, o'gitlarga) go'yo (gapiruvchi va biyron so'zlovchi) ermish. Xeyli elning muqtadosi (ergashtiruvchisi, imomi) ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuktalari (nozik ma'noli so'z, ma'nosi chuqur so'z) shoe'dur (yoyilgan, tarqalgan, mashhurdir). Nazm tariqi bilan aytur ermish, aning favoididindur (foydaliligidandir):

Ulug'lar ne bersa yemasman dema,  
Ilik so'n, og'iz ur, yemasang yema!

Va ham aningdurkim:

So'ngakka ilikdur, eranga bilik,  
Biliksiz eran ul so'ngaksiz ilik" (Navoiy. MAT, 17-tom, 426-427-b.).

Bu baytlar "Hibat ul-haqoyiq"ning bugungi nashrlarida yo'q.

**Fitrat Ahmad Yugnakiy haqida.** Adib Ahmad haqida Navoiy keltirgan dalillar afsonaomuz mazmuni ifodalaydi. Navoiy keltirgan naqlda Adib Ahmad Imom A'zamning eng yaxshi shogirdlaridan biri, Imom A'zamdin tahsil olgan tolibi ilm sifatida talqin qilingan. Abdurauf Fitrat bunga aniqlik kiritgan. U Imom A'zamning hijriy 150-yili vafot etganini, "Hibat ul-haqoyiq" hijriy ikkinchi asrda ("Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit-turk"dan uch asr burun) yozilganini qabul etishga imkon yo'qligini ta'kidlagan edi. Fitrat uchun eng asosiy dalil – "Hibat ul-haqoyiq"ning til va uslub tomondan "Qutadg'u bilig"ga yaqinligidir.

“Hibat ul-haqoyiq” til va uslubiga ko‘ra, “Qutadg‘u bilig”dan bir-ikki asr keyin yozilgan.<sup>68</sup>

Fitrat asosiy dalil sifatida “Hibat ul-haqoyiq” bag‘ishlangan Dod Spohsolor bekning kimligi va u yashagan davrni asos qilib oladi. Dod Spohsolor bek haqida fors shoirlaridan Sayfi Isfarangiy (581\1185-666\1268) devonida ma’lumot bor. Dod Spohsolor bek Sayfi Isfarangiy zamonida yashagan Farg‘ona hokimidir (Fitrat. Yuqoridagi asar, 49-b.).

Navoiyning “Munshaot” asarida Mirzo Badiuzzamonga yozilgan bir maktub bor. Badiuzzamon otasi Husayn Boyqaroga qarshi isyon ko‘taradi. Navoiy Badiuzzamonga nasihat tariqasida maktub yozar ekan, Adib Ahmadning quyidagi to‘rtligini keltiradi:

Otadin xato kelsa, ko‘rma xato,  
Savob bil xato qilsa dag‘i ota.  
Seni yuz balodin qutqarg‘ay Xudo,  
Otaning xatosin bilgil savob  
(Fitrat. Yuqoridagi asar, 48-b.).

Ammo mazkur ruboiy mavjud nashrlarda uchramaydi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, “Hibatul-haqoyiq”ning bizgacha yetib kelgan nusxalari bir oz chala bo‘lgan ko‘rinadi. Navoiy davrida esa bu asarning mukammal nusxasi bo‘lgan va ulug‘ shoir ana o‘sha mukammal nusxadan foydalangan.

Adib Ahmad “Hibat ul-haqoyiq”da ham o‘zi haqida quyidagicha ma’lumot beradi:

Adib Ahmad otim, adab, pand so‘zim,  
So‘zum munda qolur, borur bu o‘zum.  
Shuningdek, “Hibat ul-haqoyiq”ning muallifi haqidagi ayrim izohlar, tushuntirishlar bu asarni ko‘chirgan kotiblar tomonidan ham kiritilgan. Jumladan, asarning bir qo‘lyozmasida Adib Ahmad haqida quyidagicha ma’lumot berilgan:

Otasi oti Mahmudi Yugnakiy,  
Adib Ahmad o‘g‘li, yo‘q ul hech shaki.

---

<sup>68</sup>Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi filologiya fanlari doktori, professor H.Boltaboev, Ma’naviyat, 2000, 47-b.

Adibning yeri oti Yugnak erur,  
Safoliq ajab yer, ko'ngullar yorur.

Adiblar adibi fozillar boshi,  
Go'hartin so'z aymish, adin so'z boshi.  
Shuningdek, asar qo'lyozmasiga kotib tomonidan yozilgan izohda shunday misra bor:

Tug'a ko'rmas edi adibning ko'zi.

Shoirning ko'zi o'z ekani to'g'risida Navoiy bergan ma'lumot, qolaversa, "Hibat ul-haqoyiq"ni ko'chirgan kotiblar bergan ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki, asarni adib og'zaki aytib turgan va biron kotib yozib olgan.

**Asarning qo'lyozma nusxalari.** «Hibat ul-haqoyiq»ning besh nusxasi mavjud. Nusxalar bir-biridan juz'iy farqlarga ega. Ulardan eng eskisi Samarqandda Zaynul Obidin degan xattot tomonidan 1444-yilda uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bo'lib, turli sabablar bilan Turkiyaga borib qolgan. 1480-yilda Turkistondan Turkiyaga ko'chib borgan Abdurazzoq baxshi degan kishi ushbu kitobning arab yozuvi ustiga eski turk-uyg'ur yozuvida ko'chirgan. Har uch nusxa Istanbulda saqlanadi. So'ngroq yana ikki nusxasi topilgan. Demak, hozirda kitob qo'lyozmasining besh nusxasi mavjud.

Asarda kotib tomonidan kiritilgan misrada Adib Ahmadning tug'ilgan yurti Yugnak degan joy ekani ko'rsatiladi. Yugnakni ko'pchilik olimlar – Samarqand atrofida deb ko'rsatadilar.

**"Hibatul-haqoyiq"ning o'rganilishi.** Turk olimi Najib Osim "Hibat ul-haqoyiq"ni ilk bor topgan va o'rgangan olimdir. U 1906-yili bu asarning Abdurazzoq Baxshi ko'chirgan nusxasidan parcha chop ettirgan edi. Rashid Rahmatiy Arat bu asarning Turkiyadagi nusxalarini o'tgan asrning o'rtalarida nashr qildirgan. U, asarning asliyat eski uyg'ur-turk yozuvida bitilgan, deb aytgan edi.<sup>69</sup> O'zbekistonda ilk bor Abdurauf Fitrat bu asar haqida maqola e'lon qilgan va turkiyalik olimlar asar nashrida yo'l qo'ygan bir qator kamchiliklarga o'z munosabatini bildirgan edi. Marhum o'zbek turkiyshunos olim Qozoqboy Mahmudov bu asarning tanqidiy matnini o'tgan asrning 70-yillarida chop ettirdi va tadqiq etdi.

---

<sup>69</sup>Bu haqda qarang: Xo'janova G. "Hibat ul-haqoyiq" haqiqatlari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001. 32-b.

Qozoq va uyg‘ur olimlarining bu asar yuzasidan olib borgan tadqiqotlari va nashri ham diqqatga sazovor<sup>70</sup>.

**Asarning tuzilishi va boblar tahlili.** “Hibat ul-haqoyiq” 254 baytdan iborat. Adib Ahmad asarning tuzilishi haqida to‘xtalib: “Tuzattim bu o‘n to‘rt bob ichra so‘zum” deb yozadi. Ammo asarni ko‘chirish jarayonida kotiblar ayrim boblarning sarlavhalarini tushirib qoldirganlar. Shu bois asar boblari miqdori kamayib ketgan.

Adib Ahmad asarini yozishda Sharq adabiyoti an‘analarini davom ettiradi. Birinchi bob hamd bilan boshlanadi: Yaratganga hamdu sano, Uning rahmatiga umidvorlik, asarni yozishdan Undan madad tilash, Yaratganning borligini jamiki yaratilgan narsalar ko‘rsatib turgani, o‘likdan tirikni, tirikdan o‘likni yaratishi, qudrat egasi yagona Tangridan boshqasi yo‘qligi haqida aytadi.

Ikkinchi bob na‘tdan - Payg‘ambarning madhi, yaratilgan payg‘ambarlar orasida unga teng keladigan yo‘qligi, uni madh etishdan til lazzatlanishi, tilga shakar va asal bag‘ishlashi kabi ta‘rif-tavsiflardan iborat. Shuningdek, to‘rt xalifa – Sodiq (Hazrati Abu Bakr), Foruq (Hazrati Umar), Zayn nurin (Hazrati Usmon), Ali ham madh qilinadi.

Uchinchi bobda Adib Ahmad Dod Spohsolor bekka hamdlar aytadi: podshoh, ya‘ni Dod Spohsolor bek aql-hushga, yaxshi xislatlarga boy, bilimdon, jamiki fazilatlar unda mujassamlashgan. Bu podshoh Simak yulduzi – Baliq quyrug‘i deb ataluvchi yulduzlardan ham yuksak himmatli, saxvatli, raiyat dardiga darmon shohdir. U xalqqa shafqatli, ammo g‘azablenganda, arslonga o‘xshaydi. Quvvat bobida Umarday navqirondir, saxovat bobida Usmonday yuksak himmatlidir. U shu darajada tetikki, tetikligi fazodan ham baland, insof va adolatda No‘shirvondek odildir. Uning saxovatidan hatto osmondagi bulutlar ham uyaladi, dushmanlari ham uning xislatlariga amindir. Barcha xislat va fazilatlarini muruvvatli, saxovatli ulug‘ Tangri shohga ato qilgan.

Bu hamdu sanolardan so‘ng Adib Ahmad quyidagicha lutf qiladi:

Okush az teb aymas bezizlar tengiz,

Bulut hadya qilsa ushaq qatrani.

[Agar bulut bir zarracha tomchi suv hadya qilsa, dengiz oz demay to‘lqinlana beradi.]

---

<sup>70</sup> Hemit Tomur, Tursun Eyub/ Atebetu I-hekayik. Uygur kilasik adabiyati, Pekin, Milletler pasriyati – 1980; Ахмед Йүгінеки. Ақиқат сыйы. – Алматы, 1985.

Tengiztin karimrak shahim ming qata,

Qabul qilsa tan yoq bu az hadyani

[Dengizdan ming qayta shohim ulug‘roq, bu ozgina arzimas hadyani qabul qilsa ajab emas, deb umid qilaman].

Asarning to‘rtinchi bobida Adib Ahmad Dod Spohsolor bekning nomi olamda mangu qolsin deb bu kitobni yozganini, bu kitobni o‘qiganlar shohning haqiga duo qilishlarini, o‘qimishli, savodli kishilar bu kitobdan foydalanishlarini umid va niyat qilib bayon etadi. Yuqorida aytilganiday, Dod Spohsolor bek Farg‘ona hokimi bo‘lgan edi. Bu bobda Adib Ahmad kitobini Dod Spohsolor bekka bag‘ishlab yozgani haqida xabar beradi va Dod Spohsolor bekni ideal hukmdor sifatida ta‘riflaydi: u es-hush, yaxshi xislatlar makonidir, bilim manbaidir. Simak yulduzidan ham yuqori darajada himmatli, saxovatli. Raiyatga shafqatli, hammaga yaxshi muomala qiladi, ammo g‘azablanganda xuddi arslonga o‘xshaydi. Kuch-qudrat bobida Umardek pahlavon. Saxovat bobida Usmon bilan teng. Insof va adolatda esa No‘shirvondek. U shunchalik saxovatliki, hatto yomg‘irni ayamay, qizg‘anmay beradigan bulutlar ham uning oldida uyaladilar, dushmanlari ham uning fazilatlarini e‘tirof etadilar.

Adib Ahmad Dod Spohsolor bekning sha‘niga hamdu sano o‘qir ekan, Sharq adabiyotidagi hukmdorlarga bag‘ishlangan asarlardagi singari xususiyatni ko‘ramiz. Bu hamdu sanolarda, albatta, bir oz mubolag‘a bor. Bu bobni Dod Spohsolor bekka qasida deb ham atash mumkin. Zotan, bu bobning hajmi 14 baytdan iborat bo‘lib, qasidaning talablariga javob beradi.

“Hibatul-haqoyiq”ning maqsadi beshinchi bobdan boshlanadi. Adib Ahmadning maqsadi – pandnoma adabiyotlariga xos komil insonni tarbiyalashning muhim omili bo‘lgan ilmning manfaati, jaholatning zarariga e‘tibor qaratish va kitobxonga yetkazishdir. Inson saodatining kaliti ilmdadir, deydi Adib Ahmad. Bu o‘gitni “Qutadg‘u bilig” da ham ko‘rib o‘tgan edik. Ilm nafaqat oddiy insonlarning hayotida, balki davlat va jamiyat boshqaruvida ham hukmdorlar uchun asosiy qurol.

Adib Ahmad bilimning ahamiyati haqida so‘zini davom ettirar ekan, shunday bir mantiqli o‘xshatish qiladi va bilimni nihoyatda qimmatbaho buyum kabi inson avaylashi va beqadr narsa inson uchun keraksiz ekanini ta‘kidlaydi:

Bahaliq dinar ul biliklik kishi,

Bu jahil biliksiz bahasiz bishi.

(Bilimli kishi baholik dinordir, ilmsiz johil kishi qimmatsiz yemish kabidir).

Adib Ahmad ilimli odamning ma'nan yuksakligini, ilmsiz odamning esa tubanligini ta'riflab, bu ikki toifa hech qachon teng bo'la olmaydi, deya bu oddiy hayotiy haqiqatni shunday ta'riflaydi:

Biliklik, biliksiz qachan teng bolur,

Biliklik tishi – er, jahil er – tishi.

(Ilimli kishi bilan ilmsiz kishi qachon teng bo'ladi?! Bilimli xotin kishi – er kishidir. Bilimsiz erkak – xotin kishidir).

Adib Ahmad ilmning afzalliklari to'g'risidagi o'g'itlarini davom ettirar ekan, suyakning mazmuni ilik bilan bo'lgani kabi, insonning ko'rki ham aql va tafakkur, ilm ekanini ta'kidlagani holda, ilimli va ilmsiz odamlarning taqdiriga oid hayotiy dalillar keltiradi: ilimli kishilarning oti mashhur bo'ldi, bilimsiz kishilar esa tiriklayin o'ldi, ularning ko'rguligi shu bo'ldi, deb quvonchlarini ham, afsus-nadomatlarini ham bayon etadi.

Adib Ahmad shu tariqa tazod san'atidan foydalangan holda ilmlilikning inson uchun katta fazilat, ilmsizlikning esa og'ir fojia ekani to'g'risidagi qarashlarini davom ettiradi, insonni bilimli bo'lishga da'vat qiladi. Ahmad Yugnakiy ilmlilik va ilmsizlikni faqat ma'lum shaxsiyatlarga xos fazilat va illat sifatida qaramaydi, balki bu ikki narsaning ostida jamiyatning manfaati va fojiasi borligiga ishora qiladi.

Adib Ahmad ilimli va ilmsiz odamlar to'g'risida so'z yuritganda, faqat fanning ma'lum bir sohasiga oid dunyoviy ilmlarnigina nazarda tutmagan. Ilm, ma'rifat tushunchalari hamma davrda ham keng ma'noni ifoda etgan. Ilimli odam – dunyoqarashi keng, mulohazali, diniy bilimlarni ham puxta egallagan va ularga rioya qiladigan, zukko, hayotiy tajribasi katta, jamiyatdagi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni noziklik bilan ilg'ab oladigan va shunga qarab fikr yuritadigan, inson ko'ngliga ozor bermaydigan va hokazo xislatlarga ega zotlardir.

Oltinchi bobda ilm o'rganish haqida alayhissalomning aytganlariga to'xtalar ekan, ilmsiz odamga to'g'ri so'z ham ma'nisiz bo'lib tuyuladi, unday toifaga o'g'it foydasizdir, deb hukm chiqaradi. Johil, nodon kim-

salar ma'rifatning qadrini aslo bilmasliklarini, ular har qancha yuvinsa ham pok bo'lmasligini afsus bilan qayd etadi.

Yettinchi bob oldingi bobning mantiqan davomi bo'lib, Adib Ahmad ilmlilar va ilmsizlarni qiyoslab, o'z xulosalarini bayon qilib qolmaydi. U endi ilm egallashga hammani, shu jumladan, ilmsizlarni ham da'vat qiladi. Ilm nafaqat insonni ko'klarga ko'tarishga xizmat qiladi, balki insonning hayotini tahlikadan saqlaydigan, insonni butun olamga mashhur, olqishlarga sazovor qiladigan muhim quroldir. Hatto o'tmishda insonning ma'naviy tubanlashuviga ham ilmsizlik sabab bo'lganini (odamlar ilmsizlikdan qo'llarini but qilib: "bu Tangrimdir" dedilar) dalil qilib keltiradi.

Sakkizinchi bobda muhim hayotiy masalalar ko'tarilgan. Bular – tilni tiyish va odob-axloq haqida. Mazkur bob targ'ib-tashviq ma'nosida emas, balki insonni har turli balolardan ogoh etadi, insoniyatga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, mulohazali bo'lishga, har bir so'zni o'ylab gapirishga da'vat qiladi.

Tiling bekta tutg'il, tishing sinmasun,

Qali chiqsa bekta, tishingni siyur, -

(Tilingni tiy, tut, tishing sinmasin, agar so'zlab yuborsang, tiling chiqib qolsa, tishingni sindiradi) deb oddiy hayotiy haqiqatni anglashga o'rgatadi. Bu o'gitlar asrlar davomida hayot sinovidan o'tgan. O'ylab so'zlash ham aslida odob hisoblanadi. Mulohazakorlik, o'ylab so'zlash aqlli odamga munosib. "Ko'p vaysagan til ayamaydigan yovdir,.. achchiq, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi" deb kitobxonni balo-ofat tildan kelishi haqida ogohlantiradi, o'tmishda ko'p odamlar tilining das-tidan boshidan judo bo'lganini ta'kidlaydi.

To'qqizinchi bob – aqldan ozish, til jarohati va uni tiyish haqida. Bu bob ham oldingi bobda ko'tarilgan masalalarni davom ettiradi. Aqldan ozish degani - tabiatan telba bo'lib qolish degani emas, balki aqlsizlik, ahmoqlik tufayli tilga erk berib, nodonlarcha so'zlash va buning oqibati fojia deganidir. Adib, tili dastidan o'kinganlar ko'p, deb o'tmishga ishora qiladi, tilni tiyganlar orasida esa bunaqasi bo'lmagan, inson yaxshilikni ham, yomonlikni ham tilidan ko'radi, deb uqtiradi.

Bundan keyingi boblarda dunyoga muhabbat qo'yish eng katta xato ekani, sazovatning samarasiyu baxillikning oqibatlari, tavozelik manfaati, kibrlik va harislikning zarari to'g'risidagi o'gitlardan iborat. Dunyo

bir yolgʻonchi, sarobga oʻxshaydi, yuzini bir koʻrsatib, keyin qochadigan narsa. Bu olamda insondan qoladigan narsa yaxshi nomdir, yaxshi nom qoldirish uchun takabburlikdan, manmanlikdan tamomila uzoq boʻlish, tavozega amal qilish, dunyo moliga ruju qoʻymaslik talab etiladi. Inson mol –dunyosiga ishonib oʻzini kibrli tutadi, ulugʻlikka qoʻl choʻzishining sababi ham mol –dunyosi tufaylidir - Adib Ahmad mana shu illatlardan xalos boʻlishga daʼvat qiladi. Mol –mulk, boylik hech kimga vafo qilmaganini, narigi dunyoga hech narsasiz yalangʻoch ketishi haqidagi azaliy haqiqatni baytlariga singdiradi. Odam ato bilan Momo Havoni misol qilib keltiradi.

Adib Ahmad – kuzatuvchan, tom maʼnoda hayotiy haqiqatni teran anglaydigan donishmand, uning oʻgʻitlari hamma zamonlarda ham jamiyatni sogʻlomlashtirishga xizmat qilib kelgan. U molparastlikni qoralaydi. Mol –dunyoga hirs qoʻyish, odamzodning nafs va ehtiyoji cheksizligi, ikki vodiy toʻla oltini boʻlsa ham, uchinchisini istashi haqida Adib Ahmadning dalillari “Qutadgʻu bilig”da Oʻzgʻurmishning Oʻgdulmishga bergan oʻgʻitlariga hamohangdir. Har ikkala asardagi didaktik ruh bilan bir qatorda, oʻz davridagi faqirlikni ixtiyor qilib yashash haqida keng tarqalgan aqida ikkala asarga birday taʼsir koʻrsatgan. Qolaversa, hadislardagi (darvoqe, “Hibatul -haqoyiq”dagi har bir bob sarlavhalari hadislariga asoslangan) faqirlik haqidagi pandlar asarga mahorat bilan singdirilgan. Qolaversa, har ikkala asarda ham bu olamda mol –dunyo yigʻishdan voz kechish hamma toifadagi insonlarga matlub ekanini taʼkidlaydi, mol –dunyo deb inson oʻzini oʻqqa–choʻqqa urishini qoralaydi. Shu boisdan ham “Hibat ul-haqoyiq”ning keyingi boblarida Muhammad a.s. ning tavozelikni oshirish va kibrlikni tashlash toʻgʻrisida; harislik haqida; insonlarning ikki “vodiy” toʻla oltini boʻlsa ham uchinchisini istashi haqida; Tangrining buyrugʻi va shafqatiga itoat qilish haqida; gʻazabni yengish, Tangrining har narsaga qodirligi, imonga erishish yoʻllari, Uning Rasuliga sadoqat va Ollahning muhabbatiga yetishish toʻgʻrisida; ibodat orqali sevinchni kutish haqida; ming doʻstdan bir dushman koʻp ekani haqida oʻgʻitlari va pand-nasihatlari komil insonni shakllantirish yoʻlidagi katta qadamlar edi.

“Hibat ul-haqoyiq” asari toʻrtliklardan iborat boʻlib, aruzning mutaqoribi musammani maqsur bahrida (*faulun faulun faulun faul*) yozilgan.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. Navoiy Adib Ahmad haqida qaysi asarida qanday ma'lumot beradi?
  2. Navoiy Adib Ahmad haqidagi ma'lumotlarni qayerdan olgan?
  3. Navoiy Adib Ahmadni qanday ta'riflaydi?
  4. Adib Ahmad tarjimai holiga qaysi o'zbek olimi aniqlik kiritgan?
  5. "Hibat ul-haqoyiq"ning nechta qo'lyozmasi bor?
  6. Asar necha bobdan iborat? 1-2-boblarga to'xtaling.
  7. Asarning maqsadi nechanchi bobdan boshlanadi?
  8. Adib Ahmad ilmi va ilmsiz odamlarga qanday ta'rif beradi?
  9. Dunyoga muhabbat qo'yish xatodir degan o'git qaysi bobda?
- Shu bobni chuqurroq sharhlang.

## Ahmad Yassaviy

(Mavzuni yoritishda turk olimi Fuod Ko'purilizodaning "Turk adabiyotida ilk mutasavvuf" (Anqara. Diyonat ishlari mudirligi nashrlari. № 118, turk tilida) kitobiga tayanildi.)

### Reja:

1. Ahmad Yassaviyga qadar turkiy adabiyot.
2. Ahmad Yassaviyning manqabaviy hayoti.
3. Tasavvufda xurmo timsoli.
4. Yassaviyning "Devoni hikmat"i.
5. "Devoni hikmat"ning muallifligi masalasi..
6. Yassaviy ta'sirlari.
7. "Devoni hikmat"ning mavzu ko'lami.

**Tayanch so'z va iboralar:** *tasavvuf, mutasavvuf, madaniy yuksalish, ma'naviy hayot, murid, adabiy parcha, Elxoniyar sulolasi, tarjimai hol, darvesh, manqaba, shoir, tajalli, rivoyat, xurmo timsoli, sahoba, poklanish ramzi, ruhiy uyg'oqlik, aruz, barmoq.*

**Ahmad Yassaviyga qadar turkiy adabiyot.** Qadimiy Eron an'analarini saqlagan Xuroson davlati musulmonlikdan so'ngra tasavvuf jarayonining ilk markazlaridan bir bo'lib maydonga chiqdi. Shu sababdan islomiyatdan so'ngra bu jarayon islomiyat avval ta'qib etgan yo'llardan Turkistonga kirishi tabiiy hol edi. Movarounnahrda ilmiy, diniy va falsafiy tafakkur qadimdan chuqur ildiz otgani bois, tasavvufni qabul qilish ancha oson kechishi tabiiy edi.

Haqiqatan shunday bo'ldi. IX asrda Hirot, Nishopur, Marv mutasavvuf bilan qanchalik to'lib ketgan bo'lsa, X asrda Buxoroda, Farg'onada turkiy qavmlar orasida ham ko'plab mutasavvuf yetishib chiqdilar. Ulug' mutasavvuf Abu Said Abul Xayrning hurmatiga sazovor bo'lgan mashhur mutasavvuf Muhammad Ma'shuq Tusiy va amir Ali Abu turkiy qavmlardan edilar. Mana shunday turli omillar ta'sirida turkiy qavmlar orasida tasavvuf jarayoni asta-sekin kuchayib, mustahkam o'rin ola bordi. Buxoro, Samarqand kabi yirik markaziy shaharlarga tasavvuf yoyildi, bir qancha darveshlar ko'chmanchi turkiylar orasiga tasavvufiy aqidalarni olib kirdilar.

Qoraxoniylar sulolasida boshlangan tub madaniy yuksalish ham ma'naviy hayotning tamomila yangi o'zanga tushib olishiga sabab bo'ldi. Qoraxoniylar sulolasi hukmdorlarining olib borgan adolatli siyosati, sa'y-harakatlari natijasida ko'chmanchi turkiy qavmlar 960-yilgacha islomni qabul qilib bo'ldilar. Ma'naviy hayotdagi mana shu jiddiy o'zgarishlar O'rta Osiyo turkiy qavmlarining hayotini tubdan boshqa o'zanga solib yubordi. Bunga Qoraxoniylar sulolasining asoschilaridan biri Sotiq Bug'roxon – Abdulkarim islomni qabul qilgani ham katta turtki bo'ldi. Shu asnoda islom olamining turli o'lkalarida ko'zga ko'ringan hodisalardan biri – tasavvufning umumiy xususiyat kasb etib yoyila borgan va mutasavvufning ko'pligi edi. Tasavvuf, F. Ko'purilizodaning aytishicha, musulmonlik olamining ilk davrida mavjud bo'lib qolmay, Eron, hind, yunon afkorlarining va qisman isaviylikning ta'sirida tashkil topgan tasavvuf maslagi qisqa fursatda butun musulmon olamiga yoyildi<sup>71</sup>. Ilgari sufiy nomini olgan va Suriyada ilk bor hujrani qurgan kufalik Abu Hoshimdan keyin, Sufiyoni Sarviy (vafoti mil. 784\85), Zunnun Misriy (vafoti 859\860), xurosonlik Boyazid Bistomiy (vafoti 874\875) to'g'risida turli-tuman turli fikrlar yuritgan Xalloyi Mansur (921\22), Junayd Bag'dodiy singari bir qator buyuk mutasavvufilar o'z maslaklarini yoydilar. Abul Karim Abdul –Kushayriy (XI asr) «Risola fi ilm at-tasavvuf» nomli mashhur risolasi orqali tasavvuf maslagining Ahli sunnat mazhabiga mansubligini isbotladi. Undan keyin G'azzoliy (1058-1112) bir qator asarlari bilan bu borada ancha ilgari ketdi. So'ngra "Hikmatul-ishroq" asari muallifi Suhravardi Maqtul, "Avoriful-ma'rif" asarining muallifi Shahobiddin Suxarvardiy, Abdulqodir Giloniy (XI-XII) va "Tabaqatul-so'fiyo" asarlarini to'ldirib borgan bir qator mutasavvufilar asta-sekin o'z maslaklarini xalq orasida yoyib, minglarcha murid hamda xalq orasida buyuk ma'naviy nufuz orttirdilar. Bu mutasavvuf voizlar xalq orasida o'lkama-o'lka yurib, xalqni islomga da'vat qilganlari va ularning bu harakatlari ko'p samaralar bergani haqida ma'lumotlar ko'p<sup>72</sup>

Jumladan, Kushayriy ortodoksal tasavvuf bilan islomni yaqinlashtirishga harakat qilgan, Abdulqodir Giloniy Bog'dodda omma orasida qil-

<sup>71</sup> Qarang: Ko'purilizoda Fuod. Turk adabiyotida ilk mutasavvufilar. Qojatepa-Anqara, oltinchi nashri, 16-bet (keyingi sahifalarda matnda kitobning sahifasi ko'rsatiladi). Ko'purilizodaning bu fikrlariga raddiya shu sahifadagi izohda berilgan.

<sup>72</sup> Qarang: Бартольд В.В. Сочинения. Том V, М.: Главная редакция Восточной литературы, 1968. С. 68.

gan va'zlari natijasida esa juda ko'plab odamlar islomni qabul qildilar, gunohkorlar noma'qul yo'llaridan qaytdilar. Mana shu tariqa musulmon mamlakatlarida tasavvuf yoyila bordi.

Ahmad Yassaviyga qadar bo'lgan turkiy adabiyotning ayrim qirralari haqida biz qo'llanmamizning avvalgi sahifalarida aytib o'tgan edik. Islomgacha bo'lgan turkiy adabiyot musulmonlik davrida tamomila izsiz yo'qolib ketmadi. Ma'lum bir timsollar, g'oyalar musulmonlik kirib kelgan davrdagi adabiyotga o'tdi, musulmonlik davridagi adabiyotga kirib kelgan turli adabiy parchalarda ko'hna aqidalar, timsollar saqlanib qolaverdi, mazmunan va mohiyatan esa musulmonlik aqidalari bilan uyg'unlashdi. Birgina Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning "Jome'ut-tavorix" asarida O'g'uzxon obrazining musulmon aqidalari va udumlariga moslashtirilishini eslashimiz kifoya. Eronda hukm surgan mo'g'ul Elxoniyar sulolasida yaratilgan bu asar, albatta, islomiyatning mo'g'ul xalqi hayotidan mustahkam o'rin olganidan dalolatdir. Zotan, bu davrdan oldinroq – Movarounnahr va uning atrofidagi mamlakatlarda har xil mazhablar, maslaklarnig paydo bo'lgani, ma'naviy hayotda o'z o'rnini topgani ham mo'g'ullarning Markaziy Osiyo hududlarida barpo qilgan davlatlari barqarorlashganidan bir dalolat edi.

Gap Ahmad Yassaviy haqida ketar ekan, u haqdagi dastlabki ma'lumotni Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan topamiz. Navoiyning bu asari buyuk mutasavvufilar haqida lo'nda, aniq ma'lumot beradigan asardir. Navoiy mazkur asarida Ahmad Yassaviy haqida to'xtalib, u haqda quyidagicha ta'rif-tavsiflarni beradi: "Xoja Ahmad Yassaviy q. t. s. – Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti (daraja, bosqich) oliy va mashhur, karomoti mutavoli (cho'zilgan) va nomahsur (chegarasiz) ermish. Muridu as'hobi g'oyatsiz (cheksiz) va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imom Yusuf Hamadoni q.s.ning as'hobidindur. Xoja Abluxoliq G'ijduvoni bil q.s. suhbat tutubtur va Xoja Abdulloh Barrahiy va Xoja Hasan Andoqiy q.r.bilaki, ham Imom Yusuf Hamadoni r.t. muridlaridurlar. Imom qaysi biyik (ulug', buyuk) marotibga yetibdurlar, musohib (hamsuhbat) bo'lubdur va ro'zgor (davr, zamon) mashoyixidin ko'p buzurgvorlar (ulug'vor, hurmatli) aning tarbiyatini topibdurlar va Shayx Raziyyuddin Ali Lolo q.s. Shayxi buzurgvor Shayx Najmiddun Kubro r. xizmatig'a yetardin burun Xoja Ahmad Yassaviy q.r. xizmatida bo'lub erdi va aning xonaqohida aning irshodi (to'g'ri yo'l ko'rsatish) bila suluk (yo'l tutish)

qilibdur va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid (tug‘ilgan joy) va manshaidur (kelib chiqish joyi) voqye bo‘lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidur” (*Navoiy. MAT. 17-jild, 419-b.*).

Alisher Navoiy keltirgan bu ma‘lumot Ahmad Yassaviyning tarjimai holini yaratishda eng ishonchli manba hamdir. Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoni kabi ulug‘ mutsavvufklar uning ustozlari bo‘lganiga ishonchli dalillardir.

Ahmad Yassaviy tug‘ilgan zamonda turkiy olam anchagina uzoq vaqtdan – X asrdan boshlab tasavvufiy aqidalarga yuz burgan edi, mutasavvufklarining manqaba va karomatlari faqat shaharlarda emas, ko‘chmanchi turklar orasida ham ozmi-ko‘pmi yoyilgandi. Mutasavvufklar diniy madhiyalar, she‘rlar o‘qirdilar, xalqqa ezguliklar haqida so‘zlardilar. Xalq, bu darveshlar bizga saodat yo‘llarini ko‘rsatyaptilar, ular azaldan biz – turkiy qavmlarni diniy baxt-saodatdan bahramand qilib kelayotgan shoirlarga o‘xshaydilar, deb ularga e‘tiqod qo‘yib, ularning o‘gitlarini bajonidil qabul qilardilar. Shu taxlitda avvalgi shoirlarning o‘rmini *ota* yoki *bob* unvonli bir qator shoirlar egalladilar: Hazrati Payg‘ambar sahobalaridan bo‘lgan Arslon bob, manqabaga (*manqaba – mashhur kishilarning hayotiga oid hikoyalar, qissalar; qarang: Usmonlixa-turkcha ensiklopedik buyuk lug‘at (turk tilida), Istanbul, 1986 617-b.*) ko‘ra, islom dinini anglamoq maqsadi bilan Turkistondan Jaziratul-Arabga kelgan va Hazrati Abu Bakrga zohir bo‘lib, islomni qabul qilgan shoirlar piri mashhur Qo‘rqut ota, Cho‘pon ota kabilar o‘shalardan davom etib kelgan xotiralarni tiklaydi. Zotan, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Qo‘rqut atoni buyuk karomatgo‘y mutasavvufklardan biri sifatida e‘tirof etib, uni quyidagicha ta‘riflaydi: “Turk ulusi arosida shuhrati andin ortug‘roqdurkim, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mav‘izaomuz (nasihatomuz) so‘zlari aroda bor” (*Navoiy. MAT. 17-jild, 421-b.*).

Xullas, Ahmad Yassaviygacha bo‘lgan ma‘naviy hayot mana shu tariqa gurkiradi. Albatta, bu tarzdagi hayot Yassaviyning va yassaviylikning yuzaga kelishiga zamin yasadi.

**Ahmad Yassaviyning manqabaviy hayoti.** Turkistonda Sayram shahrida Hazrati Ali avlodidan shayx Ibrohim degan bir zot yashagan edi. Shayx vafot etganda, Javhar Shahnoz ismli qizi va Ahmad ismli yetti

yoshli o‘g‘li qoldi. Ahmadga kichik yoshidan boshlaboq turli tajallilar<sup>73</sup> zohir bo‘lib turar, yoshiga mos bo‘lmagan va hammani hayratga soladigan favqulodda hodisalar ko‘rsatardi. Ahmad Yassaviyga nisbat beriladigan “Devoni hikmat” asarida zohir bo‘lgan bu fayzlar (huzur-halovat) ni mutasavvuflarga munosib til bilan, ko‘p narsani anglatadi, deb baholash mumkin. Yassaviyning birinchi hikmatidan bir bandni keltiramiz:

Yetti yoshda Arslonbobga qildim salom,  
“Haq Mustafo omonatin qiling in’om”.  
O’shal holda ming bir zikrni qildim tamom,  
Lomakonning maqomig‘a oshtim mano<sup>74</sup>.

“Lomakonning maqomig‘a osh”moq – faqat Olloh tajallisini o‘zida mujassam etgan ilohiy zotlarga tegishli. Bu misralar yetti yoshli Ahmadga tajalli zohir bo‘lib turgani haqida ishonchli dalildir.

Yetti yoshda otasidan yetim qolgan Ahmad ma’naviy padari Arslon bobodan tarbiya oldi. Shayx Arslon bobo Sayramga kelib, Ahmadni Haq yo‘liga yo‘naltirdi.

Arslon bobo, rivoyatlarga ko‘ra, mashhur zotlardan edi. Yassaviy yana yuqoridagi hikmatida bu haqda shunday aytadi:

Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi,  
Xurmo berib, parda birlan sirrim<sup>75</sup> yopdi.  
Bihamdilloh, ko‘rdum, teyu yuzum o‘bti,  
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim (14-b.).

Bu to‘rtlik Ahmad Yassaviy haqidagi manqabaviy rivoyatlarni tasdiqlovchi muhim dalil sifatida ham qimmatlidir.

Yana o‘z davrida keng tarqalgan rivoyatlarga ko‘ra, yosh Ahmadning ma’naviy padari Arslon bobo to‘rt yuz yil, boshqa bir rivoyatga ko‘ra, yetti yuz yil yashagan. U Turkistonga kelib, Xoja Ahmadni haq yo‘lga amr qilishini va bu vazifani bajarishini bir ma’naviy alomatga

---

<sup>73</sup> Tajalli – ilohiy qudratning zohir bo‘lishi, Haq nurining ta’sir bilan qulning qalbida haqiqatning bilinishi (yuqoridagi turkcha lug‘at, 960-bet).

<sup>74</sup> Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Nashrga tayyorlovchilar filologiya fanlari doktori I. Haqqul, filologiya fanlari nomzodi N. Hasan. “Movarounnahr” nashriyoti, Toshkent, 2006, 10-bet (bundan keyingi misollar shu nashrdan olinib, parchadan keyin sahifasi ko‘rsatildi).

<sup>75</sup> SIRR – eng fazilatli, eng yaxshi

qilingan ishoraga tayanib, o‘z zimmasiga olgan edi: Bir kuni ahli kirom (muhtaram, aziz kishilar) och qolib, Payg‘ambarning huzuriga keldilar va bir oz yegulik iltimos qildilar. Payg‘ambarning duosi bilan Jabroil jannatdan bir tovoq hurmo keltirdi. Xurmolardan bir donasi yerga tushdi. Jabroil dediki: “Bu xurmo sizning ummatingizdan Ahmad Yassaviy otlig‘ birining nasibasidir”. Payg‘ambar sahobalariga, orangizdan biron-tangiz bu vazifani (ya’ni Ahmad Yassaviyga xurmoni saqlash va unga yetkazishni – N.R.) o‘z zimmangizga oling, deb taklif qildi. Sahobalardan hech kim javob bermadi. Faqat Arslon bobo bu vazifani o‘z zimmasiga olajagini so‘yladi.

Mana shu o‘rinda hikmatlar faqat badiiyat namunalari bo‘libgina qolmay, balki tarixiy voqealarni ham o‘z qamroviga singdirgan janr ekaniga guvoh bo‘lamiz. Yuqorida hikmatdan keltirilgan voqealar bayoniga ko‘ra, Arslon bobo xurmoni Ahmadga yetkazish vazifasini o‘z zimmasiga olgandan keyin, Hazrati payg‘ambar o‘sha bir dona xurmoni qo‘li bilan Arslon boboning og‘ziga otdi va muborak tupiklaridan ham ehson etdi. U Arslon boboga sulton Ahmad Yassaviyni qanday topishini ta’rif-tavsif qilib va o‘git berib, uning tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishini amr qildi. Shundan keyin Arslon bobo Sayramga – Yassiga keldi va o‘z zimmasidagi vazifani bajargandan keyin bir yil o‘tgach vafot etdi. Bu voqeani yana Ahmad Yassaviyning birinchi hikmatidan topamiz:

Xurmo berib, boshim silab nazr qildi,  
Bir fursatda uqbo sari safar qildi.  
“Alvido!” deb bu dunyodin guzar qildi,  
Maktab borib, qaynab, to‘lib-toshdim mano.

**Tasavvufda xurmo timsoli.** Darvoqe, mazkur manqabaviy rivoyatdagi xurmo detaliga to‘xtalaylik. Bu detal – muhim bo‘lgani va sirli mazmun kasb etgani uchun ham talqin hamda tahlilga muhtoj.

Yassaviyning hikmatidagi xurmo, shuningdek, hirqa ham, uning zakiyligi va karomatiga qaratilgan bir timsol bo‘lishi mumkin. Xurmo – Payg‘ambar alayhissalomdan meros qolgan ilm-ma’rifatni, din va tasavvuf haqiqatini Arslonbobo Ahmadga o‘rgatganiga bir ishoradir<sup>76</sup>.

Xurmo dastlab O‘rta Osiyo yozma adabiyotida Beruniyning “Mineralogiya” kitobidan o‘rin olgan hikoyatlar tarkibida uchraydi. Hikoyatda

<sup>76</sup>Bu haqda qarang. Hasan Nodirxon. Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni hikmat”. – Toshkent, “Akademnashr”, 2012, 131-bet.

aytilishicha, bir boy odamga boshqalar, sizni falonchi g'iybat qildi, deb o'sha odamning kimligini aytib, xabar yetkazganlarida, o'sha boy uni g'iybat qilgan odamga bir oltin tovoqda xurmo yuboradi. Beruniy bu hikoyatida xurmo timsoli orqali poklanish ramziga ishora qilgan. Fariddin Attor "Tazkirat ul-avliyo" asarida Hazrati shayx Husayn Mansur Xalloy bilan bog'liq bir rivoyatni keltirib, xurmo timsolidan foydalanadi:

Xalloy to'rt yuz so'fiy bilan Barriyaga kirdi och qoldilar.

– Yo Shayx! Bizga bitta pishgan kalla, issiq non bersang, - dedilar.

– O'tiringiz, - dedi. Qo'lini xirqasiga suqib, bitta pishgan kallani issiq nonga o'ralgan holdi olib, oldilariga qo'ydi.

Yangi xurmo so'radilar.

– Keling, meni daraxtdek siltang, - dedi. Siltadilar, yangi xurmolar to'kildi. To'ygunlaricha yedilar<sup>77</sup>.

Mansur Xalloy hayotiga oid keltirilgan hikoyatdagi pishgan kalla, non ham majoziy ma'no ifodalashi bilan bir qatorda, xurmo Yassaviy hikmatidagi xurmoga mazmun va mohiyatan o'xshash, ya'ni so'fiylar Mansur Xalloyni "siltaganlari" va xurmo to'kilgani – savolu muhohasalar orqali zakiy zotning betakror ta'limotini, tasavvuf ilmiga oid ma'ruzalarini so'fiylar ishtiyoq bilan tinglaganlarini bildiradi.

Ammo xurmo timsoli buyuk mutasavvullarning hayoti va ta'limotida ramziy ma'nodagina emas, balki moddiy ma'nosida ham qo'llanganiga oid dalillar bor. Quyida ulug' mutasavvullardan hazrati shayx Malik bin Dinorning hayotida yuz bergan quyidagi rivoyatga e'tibor beraylik:

"Qirq yil Basrada xurmo yemagan Malik nafsining istagidan bezor bo'ldi. Kechqurun tushida yangi xurmo yeyishi bildirildi. Malik nafsiga xitob qilib: - Ey nafs, yangi xurmo yesang oyoq bo'lursan; sabr qilsang, bosh bo'lursan", - dedi (Attor. *Yuqoridagi asar*, 21-b.).

Yassaviy hikmatlarida qo'llangan bu singari ramziy timsollar so'fiyona ma'rifatga yetishish yo'llariga ishora qiladi. Albatta, bu timsollar katta ijtimoiy hodisalardan ham darak beradi.

---

<sup>77</sup> Fariddin Attor. Tazkirat ul-avliyo (Avliyolar kitobi). Mirza Kenjabek tarjimai. Toshkent, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 1997, 134-bet.



**Yassaviyning “Devoni hikmat”i.** Yassaviyning hikmatidan keltirilgan yuqoridagi to‘rtliklar Ahmadning ham, Arslon boboning ham tarjima holini ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi. Faqat shugina emas. Bu hikmat yana shunisi bilan diqqatga sazovorki, Arslon bobo singari ulug‘ zotlarga xizmat qilishday burchga ushbu hikmat da’vat qiladi:

Oqil ersang, eranlarga xizmat qilg‘il,  
Amri ma’ruf qilg‘onlarni izzat qilg‘il.  
Nahy munkar<sup>78</sup> qilg‘onlarni la’nat qilg‘il,  
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim

To‘rtlikning birinchi misrasi diqqatni jalb qiladi. Gap xizmat qilish haqida ketmoqda. Xizmat qilish – shunchaki bironing og‘irini yengil qilish, moddiy ko‘mak berish ma’nosida emas, balki “eranlar”, ya’ni ma’naviy tomondan yetuk bo‘lgan ulug‘ zotlarning, valiylarning irfoniylarini tinglash to‘g‘risida so‘z ketmoqda. Yassaviy hikmatlarining mohiyati va maqsadi faqat shu bilan chegaralanib qolmaydi. Insoniyatni g‘ofillikdan uyg‘otish, ularda ruhiy uyg‘oqlik va e’tiqodda sobitlikni botiniy tuyg‘u bilan tarbiyalash va chin e’tiqodni singdirish Yassaviy hikmatlarining yana bir muhim jihatlaridandir. Quyidagi parchaga e’tibor beraylik:

Shavq sharobin ichgan oshiq nurga botar,  
Nuri bilan yurgan oshiq shavqi ortar.  
Kimki ko‘rsa qo‘lin ushlab so‘zga tortar,  
Donolarning so‘zin izlab keldim mano (37-b.).

Shavq sharobi – muhabbat shavqi, ilohiy fayz, ideal go‘zallik; oshiq – Ollohning jamoli va jaloliga mushtoq qalb. Zotan, bu to‘rtlik ostidagi o‘gitlar va nasihatlariga ergashgan va tobe bo‘lgan odamzodning “insonsevar va ilohsevar qalb nidolari” (N. Komilov) ekaniga yorqin bir dalildir.

“Devoni hikmat” O‘rta Osiyo, Volga bo‘ylarida XVIII-XIX asrlarda keng tarqaldi. Ayniqsa, Yassaviy hikmatlari XIX asrning ikkinchi yarmida chop etilib, toshbosma kitoblar holida keng yoyildi. Yassaviy hikmatlari omma orasiga tobora kengroq kirib borishida darveshlar, qa-

<sup>78</sup>Nahy munkar – yomon ishlardan qaytarish.

landarlar katta rol o'ynadilar. Ko'purilizoda Yassaviyning buyuk mutasavvuf ekanini, uning hayotini va turkiy tasavvuf maslagining yuzaga kelishida katta xizmati borligini chuqur o'rgangan.

**“Devoni hikmat”ning muallifligi masalasi.** Yassaviydan saqlanib qolgan “Devoni hikmat” haqida har xil fikrlar bor. Obro'li olimlar Fuod Ko'purilizoda va Abdurauf Fitrat “Devon” muallifi xususida jiddiy fikrlarni o'rta tashlagan edilar. Ko'purilizoda Yassaviyning “Devoni hikmat”i haqida tamomila boshqa fikrda ekaniga, birinchi navbatda, hikmatlarning tili, ikkinchidan, asarning vazni sabab bo'lgan edi. Ko'purilizoda “Devoni hikmat”ning ayrim manzumalari aruzda, ayrimlar an'anaviy barmoq vaznida yozilganini ta'kidlab, shunday xulosa qiladi: “Yassaviy hikmatlarining barmoqda yozilganlarini VI asr (milodiy XII asr – N.R.) mahsuli o'laroq qabul etmoq imkonsizdir... Qo'limizda “Devoni hikmat”ning hij. VI, VII yoki VIII asrlarda yozilgan qadimiy nusxasi topilmagani uchun, bu xususda qat'iy bir hukm chiqarmoq mumkin emas... “Devoni hikmat”dagi she'rlardan muhim bir qismini – aruzda yozilganlarini unga nisbat bermoqqa majburiyat sezamiz”(Ko'purilizoda. *Yuqoridagi asar*, 123, 124-b.). Ko'purilizoda “Devoni hikmat” bilan “Qutadg'u bilig”ni o'rni-o'rni bilan solishtirib boradi. Bu qiyoslashdan Ko'purilizodaning maqsadi – “Devoni hikmat” badiiy asar sifatida til tomondan “Qutadg'u bilig”ga o'xshash bo'lishi kerakligini talab qilar ekan, “Turkiy adabiyotni vujudga keltirgan asarlar orasida XII asrdan so'ng “Devoni hikmat” “Qutadg'u bilig”dan keyin eng qadimiy asar sifatida numunadir” (Ko'purilizoda. *Yuqoridagi asar*, 119-b.) deya hukm chiqaradi. Abdurauf Fitrat Ko'purilizodaning fikrlarini ma'qullaydi. Bu – masalaning bir tomoni.

Masalaning ikkinchi tomoni shundan iboratki, “Devoni hikmat”ning nusxalari ham Ahmad Yassaviyga, ham XV yoki XVI asrlarda yashagan Ahmad ismli boshqa Yassaviy taxallusli darveshga mansub bo'lib, bora-bora murakkab qorishiq holatga kelgani ehtimoldan xoli emas. “Qul Xoja Ahmad, men daftari sone' aytting”, “Toza-toza daftarlarim sone' daftar” kabi misralar bilan tugagan hikmatlar shunday xulosaga olib keladi. Ko'purilizoda, Yu bu misralar mavjud bo'lgan hikmatlarni “Qul Xoja Ahmad ismli darveshga mansub hikmatlardir”, deb hukm chiqarganda, haqlidir (Ko'purilizoda. *Yuqoridagi asar*, 125-b.). Zotan, “daftari sone” bor ekan, bundan oldin “daftari avval” bo'lishi zaruratga aylanadi; “daf-

tari avval” – Yassaviyning hikmatlari, “daftari sone” – Ko‘purilizoda aytgan Ahmad ismli boshqa darvesh shoirga tegishli hikmatlardir.

O‘zbek yassaviyshunos olimi Ibrohim Haqqul Yassaviy hikmatlarini nashrga tayyorlar ekan, Ko‘purilizodaning ana shu shubhalarini asosli deb topadi va dalillashga harakat qiladi<sup>79</sup>. Qolaversa, Yassaviy hikmatlarining keyingi nashrlarida ham I. Haqqul nuqtai nazarini mahkam tutdi, olimlik pozitsiyasiga sodiq qoldi. Boshqa o‘zbek olimlari Yassaviyning hikmatlarini nashrga tayyorlaganlarida ham, to‘plamga so‘z boshi yozgan I. Haqqul “To‘plamdagi qator to‘rtliklar Yassaviyniki ekanligi shaxsan menda ishtiboh uyg‘otdi”<sup>80</sup>, deya avvalgi qarashlarini ilgari surdi. Darvoqe, Abdurauf Fitrat ham Yassaviy hikmatlarining til xususiyatlarini va bu asarning keyingi asrlarga tegishli qo‘lyozma nusxalari haqida to‘xtaladi: “Yassaviyning hayotiga yaqin zamonlarda yozilgan bir nusxa “Devoni hikmat” topilmaguncha, biz Yassaviy hikmatlarini til tarixi qarashidan tekshira olmaymiz”<sup>81</sup>. Bu jihatdan Ko‘purilizoda, Fitrat va Ibrohim Haqqulning Yassaviy hikmatlari yaratilgan davrga oid qarashlari uyg‘undir. She‘riyat, umuman, badiiy asar tili davrga ham, ijodkor shaxsiyatiga ham mansublikni belgilashda muhim omildir.

**Yassaviy ta’sirlari.** O‘zbek adabiyot tarixida uchta adabiy maktab hukm surgani e’tirof etilgan: Yassaviy maktabi, Navoiy maktabi, Amir Umarxon maktabi. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, Yassaviy adabiy maktabiga ergashgan ko‘plab izdoshlar musulmon o‘lkalarida tarqalgani tabiiy.

Yassaviy hikmatlarining ayrimlari uning ijodiga mansub bo‘lmasa ham, shakl va ruh jihatidan Yassaviyga mansub bo‘lgan hikmatlardan katta farq qilmaydi. Chunki Ahmad Yassaviy izdoshlari haqida so‘z keltarkan, keyingi asrlarda uning hikmatlari kabi shaklda va ohangda, ayni yassaviyona ruhda hikmatlar yozilgani aniq ko‘rinadi. Bunday hikmatlarga nisbatan Yassaviyning ta’siri haqida so‘z yuritish bilan birga, xalqona shaklda va barmoqda yozilgan tasavvuf adabiyotida ayrim o‘zgarishlar asrlar bo‘yi davom etib kelganini ham ta’kidlash darkor. Yana bir sabab shuki, qisman “nazirachilik” an’analari ham ko‘rinadi: ulug‘ pirga iz-

<sup>79</sup>Haqqul I. Ahmad Yassaviy. – «Ahmad Yassaviy. Hikmatlar» kitobiga so‘z boshi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990, 40-bet.

<sup>80</sup>Haqqul I. Ehtiyoj va tajriba. – “Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan namunalari)”. Nashrga tayyorlovchi Nodirxon Hasan. Toshkent, “Movarounnah” nashriyoti, 2004, 7-bet.

<sup>81</sup>Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. I I jild. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: filologiya fanlari doktori, professor H. Boltaboev. Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2000, 28-bet.

doshlar hurmat-e'tibor va muqaddas mohiyat nuqtai nazaridan, Hikmatlardagi shakl va mazmuni saqladilar.

Xoja Ahmad Yassaviydan keyin yassaviylik tariqatiga mansub darveshlar Hikmat yozdilar va bu an'ana uzoq asrlar davom etdi. Yassaviylik darveshlari muqaddas bir vazifani o'z zimmalariga oldilar: jumladan, Sulaymon Boqirg'oniy (X11), ya'ni Hakim atodan boshlab Hikmat yozish an'anasi davom etdi. Shakl va mavuz jihatidan har ikkalasining hikmatlari farq qilmagan. Boqirg'oniyning "Boqirg'on kitobi", "Oxir zamon kitobi", "Bibi Maryam kitobi" kabi asarlari Yassaviy hikmatlari ruhida yozilgan.

O'rta Osiyoda Iqoniy (X11), Sayid Imod Nasimiy (X1V), Qul Sham-siddin (XVI), Xudoydod (XVI), Qul Ubaydiy (XVI), Mashrab (XV11-XV111), Huvaydo (XV111), turk shoiri Yunus Emro (X111) ijodi aynan Yassaviy hikmatlari ta'sirida shakllanib, rivoj topgani ularning ijodida aniq namoyon bo'lib turadi.

**"Devoni hikmat"ning mavzu ko'lami.** "Devoni hikmat" mavzu e'tibori bilan oddiy, qolaversa, mavzu rang-barangligi unchalik ko'zga tashlanmaydi. Darveshlar va darveshlik fazilatlarini haqida ko'plab hamdu sanolar, axloqiy, diniy-falsafiy o'gitlar, Muhammad s.a.s.ning hayoti va mo'jizalariga oid muhim parchalar, dunyo ahvolidan shikoyatlar va qiyomat kunlarining yaqinlashganini insonlarga eslatish maqsadi bilan yaratilgan zohidona shikoyatnomalar, jannat va jahannam, hur va g'ilonlar va boshqalardan bahs etadigan jonli, hayotiy hikmatlardan iborat.

Yassaviyning hikmatlari molparastlikka, bu dunyoning hoyu havaslariga qarshi qaratilgan kuchli g'oya. "Jondin kechgan chin oshiqlar dunyo demas" (52-b.), deydi Yassaviy bir hikmatida. Chin oshiqlar – muttasil ravishda Haq diydorini talab qilganlar. Ular uchun dunyo moli hech narsadir. Dunyo moliga suqlik bilan ko'ngli bog'laganlar oshiq emas. Hatto shunday riyokorlar ham borki, ishq yo'liga qadam qo'yadilar, o'zlarini parvonaday o'qqa-cho'qqa uradilar, ammo yuz ming toat-ibodat qilsalar ham, buning asosi yo'q, riyokorlikdan boshqa narsa emas, hamma harakatlari soxta. Zotan, Junayd Bag'dodiy: "Biz tasavvufni ochlik, uyqusizlik, dunyodan uzilmoq va sevgan narsalarimizdan nari bo'lmoq bilan topdik" (*Attor. Yuqoridagi asar, 90-b.*), deb aytganda, aynan bu yo'lga kirganlarning hayot tarzi, a'moli, e'tiqodini ko'rsatib bergan edi.

"Devoni hikmat"ni o'qir ekanmiz, tasavvufning turli istilohlari, ramziy obrazlariga duch kelaveramiz. Shu bois Yassaviy hikmatlariga

joʻn qarab, tasavvufiy istilohlarni bugungi zamonaviy tushunchalar va qarashlar asosida talqin qilish tamomila xatolikka olib kelgan boʻlardi, Shu bilan birga, chuqur mazmunli diniy-falsafiy tizimlarni Yassaviydan qidirish ham sunʼiy xulosa va qarashlarga sabab boʻlishi tabiiydir. Yassaviy hikmatlarida soddalik, loʻndalik va tabiiylik yarq etib koʻrinib turadi. Xalqona ruh, xalqona til – hikmatlarning keng omma tomonidan qabul qilinishiga birinchi kafolat; ayni paytda omma Hikmatlarning mazmun-mohiyatini, maqsadini qiyinchiliksiz anglay olishlari Yassaviy va uning izdoshlarining diqqat markazida turgan.

Yassaviy hikmatlarini tasavvuf ilmining oʻziga xos manbai deb aytilsa ham boʻladi. Fikrimizning isboti uchun bu ulugʻ zotning quyidagi hikmatlaridan birini olib koʻraylik:

Har kim qilsa tariqatning davosini,  
Avval borib shariatni bilmak kerak.  
Shariatning ishlarini ado qilib,  
Andin soʻngra bu daʼvoni qilmak kerak.

Shariatsiz dam urmaslar tariqatda,  
Tariqatsiz dam urmaslar haqiqatda.  
Ushbu soʻzlar maʼlum boʻlar maʼrifatda,  
Jumlasini shariatdin soʻrmoq kerak (224-b.).

Bu toʻrt ruknga – shariat, tariqat, maʼrifat, haqiqatga buyuk mutasavvufilar oʻz taʼlimotlarida bergan taʼriflari tom maʼnoda chuqur maʼnolidir. Jumladan, Ahmad Yassaviyga nisbat beriladigan “Faqrnoma” asarida har bir ruknning oʻntadan maqomi – jami qirq maqom haqida bayon qilingan. Bu ruknlarni koʻp mutasavvufilar talqin qilganlar. Talqinlar bir-biridan tubdan farq qilmaydi. Jumladan, Najmiddin Kubro... deylilarki: “Baʼzi kishilar “shariatda yuribman” desalar, baʼzilari “tariqatdaman”, yana baʼzilari esa “haqiqat yoʻlidaman”, deydilar. “Shariatda yuribman”, deya daʼvo qiluvchilarni moʻmin va musulmon deyiladi. “Haqiqat yoʻlidaman”, deydiganlarni esa orif, oshiq va muhib kabi ismlar bilan ataladi”. Bu yoʻllarda yurganligini daʼvo qilgan kishilarga maʼni kerak, yaʼni ular maʼnaviy hol egalari boʻlishlari lozim...”<sup>82</sup> Shu

<sup>82</sup>Soʻfiy Muhammad Donishmand. Mirʼot ul-qulub. (Qalb koʻzgusi). – Nashrga tayyorlovchi Nodirxon Hasan. – Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” (yangi topilgan namunalari) asariga

bois Yassaviy “Dunyo qo‘ymay, hol ilmini bilsa bo‘lmas”, degan edi. Darvoqe, ma’naviy hol shuki, solik hol darajasiga yetgach, tasavvuri-  
da va xayolida ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, qalbini zavqu  
shavq qamrab oladi<sup>83</sup>.

Umuman, tasavvuf ruknlariga berilgan ta’rif va talqinlarni Boyazid  
Bistomiy, Hazrati Imom Ahmad Tanbal, Junayd Bag‘dodiy kabi qator  
mashhur mutasavvufilar ta’limotida uchratamiz (*Farididdin Attorning  
yuqoridagi asaridan 33, 36-39, 55, 90, 94, 96-betlariga qarang*).

---

ilova. T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2004, 150-b.

<sup>83</sup>Qarang: Komilov N. Tasvvuf. T.: “Movarounnahr – O‘zbekiston” nashriyoti, 2009, 30-b.

## OLTIN O‘RDA O‘ZBEK ADABIYOTI

### Reja:

1. Oltin O‘rda davlatining tashkil topishi va bu davlatda madaniy hayot.

2 Oltin O‘rdada madaniy hayot.

Oltin O‘rdada turkiy til va turkiy adabiyotga zamin yaratilishi.

Oltin O‘rda adabiy muhitining o‘ziga xosligi.

Mamluklar davlatining qisqacha tarixi. Bu davlatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *madaniy hayot, Oltin O‘rda, manba, “Jome’-ut-tavorix” kitobi, mo‘g‘ul elxonlari, turkiy qavmlar, o‘zbekiyon, arxitektura, Misr mamluklar davlati, lug‘atlar.*

**Oltin O‘rda davlatining tashkil topishi va bu davlatda madaniy hayot.** O‘zbek adabiyoti turli davrlarda ko‘p buhronlarni boshidan kechirdi. Ma‘lum bir zamonda adabiyot tanazzulga yuz tutgan bo‘lsa, boshqa bir davrda taraqqiy etdi, yuksaldi. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy hayot adabiyotga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Chingizxon va uning avlodlari hukmronligi davri bunga yaqqol namuna bo‘la oladi. Binobarin, chingiziylar zamonida o‘zbek adabiyotining taqdirida kutilmaganda keskin o‘zgarishlar paydo bo‘ldi.

Chingizxon istilosidan keyin uning avlodlari Osiyo va yevropaning turli hududlarida o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar. Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘ji – Sirdaryoning shimoliga cho‘zilib ketgan qora xitoylar davlatini mulk qilib olgan edi. Ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoy esa O‘rta Osiyoda, O‘ktoy xon (Ugaday degan nom bilan ham yuritiladi) - Jung‘oriyada, Tuluy - Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qildilar. Mazkur davlatlarning tarixdagi o‘rni to‘g‘risida o‘sha davr muarrixlarining asarlaridan ma‘lumot olish mumkin.

Oltin O‘rda davlati o‘z mavqei va tarixda tutgan o‘rniga ko‘ra, Chingizxonning boshqa o‘g‘illari hukmronlik o‘rnatgan davlatlardan tamomila farq qiladi. Oltin O‘rda Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jining nomi bilan bog‘liq bo‘lsa ham, bu davlatning hududi kengayishida va rivojida uning o‘g‘illari xizmatlari katta bo‘ldi. Jo‘jining ikkinchi o‘g‘li Botu yevropani zabt etib, g‘arbiga tomon o‘z davlati hududini kengaytir-

di. Jo'jining uchinchi o'g'li Tovka Temur Itil daryosining yuqori oqimini - Bulg'oristonni mulk qilib oldi. Jo'jining to'rtinchi o'g'li Shaybon keyinchalik qirg'iz deb nom olgan cho'l hududiga hukmronlik qildi. Beshinchi o'g'li Tuvol bajnoqlar (no'g'aylar nomi ostida mashhur bo'lgan xalq) ustidan hukmronlik qildi.

Oltin O'rda bu davlatlar orasida alohida iz qoldirdi. Oltin O'rdaning davlat tuzumidan ham ko'ra, mamlakatdagi madaniy muhit g'oyat muhimdir. Avvalo, "Oltin O'rda" degan nom va hududi to'g'risida.

"Oltin O'rda" nomi arab va Eron manbalarida deyarli uchramaydi. Rashididdinning "Jome'-ut-tavorix" kitobida shunlay voqea keltiriladi: "To'rtinchi yili – ot yilida Chingizxon o'zining o'rdasida bo'ldi, kuzda esa o'sha yerdan jangga o'tlanib, tangutlarning muhim shaharlaridan birini qo'lga oldi. Bu shaharni Irigay deb ataydilar"<sup>84</sup>. Chamasi, Irrigay Oltin O'rdaga asos bo'lgan bo'lishi mumkin. Zotan, Oltin O'rda tashkil topa boshlaganda, Chingizxon hayot edi.

"Oltin O'rda" degan nom rus tarixiy manbalarida uchraydi, xolos. Sharq manbalarida bu davlat Jo'ji ulusi yoki Ko'k O'rda deb yuritilgan. Rashididdinning uch jildlik yuqoridagi asarida Oltin O'rda to'g'risida umuman ma'lumot yo'q. Chamasi, Rashididdin Chig'atoy ulusida va Eronda hukm surgan mo'g'ul elxonlari tarixinigina yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

**Oltin O'rdada madaniy hayot.** "Oltin O'rda" degan nom dastlab Chingizxon o'rdasiga nisbatan qo'llangan. Chingizxon vafotidan keyin esa "Oltin O'rda" Jo'ji ulusining nomi deb tushunilgan. Jo'ji otasi Chingizxondan oldinroq vafot etdi (Bu haqda "Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asari"da ham ta'sirli rivoyat berilgan). Jo'ji vafotidan keyin uning to'ng'ich o'g'li O'rda taxtga o'tirdi. Bu hududlarni garchi Jo'jining o'g'illari mustaqil boshqarsalar ham, hammalar Botu xonadoniga itoat etar edilar. Botu aka-ukalariga qaraganda kuchli edi. Shu boisdan ham u otasidan qolgan hokimiyatni mustahkamlashga kirishdi. U o'z davlatining poytaxtini Itil daryosi bo'yida barpo qildi. Bu poytaxt shahar Saroy deb nomlandi. Botuning qo'l ostidagi hamma qavmlar Oltin O'rda nomi ostida birlashdi. "Oltin O'rda" nomi Sir O'rda, ya'ni "oltin qarorgoh" ma'nosidadir. Oltin O'rda davlatiga qarashli jamiki aholi asosan turkiy qavmlardan iborat bo'lib, deyarli hamma qabila vakillari istiqomat qilar-

<sup>84</sup> Рашидаддин. Собрание летописей. Том 1, Изд. Академии наук СССР, Москва-Ленинград, 1952, 144-б.



di. Oltin O‘rda barpo bo‘lgunga qadar Itil daryosining quyi oqimida va Itil bo‘ylarida bir necha qipchoq bekliklari bor edi; shimolda bulg‘orlar yashardi; yana Volganing quyirog‘ida va Shimoliy Xorazmda o‘g‘uzlar va qipchoqlar o‘troq hayot kechirardi.

Berka xon davrida islomning qabul qilinishi Oltin O‘rdaning mavqecini anchagina yuksaltirdi. Bu jarayonda albatta, Misr muhim rol o‘ynadi. Endi Urganchdan, Buxorodan, oldingi Bulg‘or davlatidan, Sirdaryo quysisidan hunarmandlar, musavvirlar, olimlar, shoirlar kela boshladilar. O‘zbekxon davrida katta qurilishlar – machitlar, madrasalar, maqbaralar, saroylar qurildi. Oltin O‘rda davlatining Misr bilan madaniy-iqtisodiy aloqalari aynan O‘zbekxon davrida yanada kuchaydi.

O‘zbekxonning hukmronligi yillarida “o‘zbekiyon” degan termin tarixiy asarlarda ilk bor uchraydi. XIV asrda yashagan fors tarixchisi va geografi Xamdulloh Qazviniy Ozarbayjonga yurish qilgan O‘zbek xonning askarlarini ana shu nom bilan ataydi. Bu voqea 1355-56 yillarda bo‘lgan edi. Qazviniy Oltin O‘rdani “mamlakati O‘zbek” deb ataydi. “O‘zbekiyon” degan nom jamiki Oltin O‘rda aholisining umumiy nomiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham Abulg‘ozi Bahodirxon “mamlakati O‘zbek” nomini Oltin O‘rdaning hamma hududiga nisbatan ishlatgan edi<sup>85</sup>.

Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, “o‘zbekiyon” termini bugungi o‘zbek xalqining etnik nomi emas. Bu nom Oltin O‘rdada O‘zbek xon hukmronlik qilgan qavmlarning hammasiga tegishli. Yuqorida biz o‘sha qavmlarning nomlarini aytib o‘tdik. “O‘zbekiyon” termini ostida qipchoqlar ham, o‘g‘uzlar ham, boshqird, qorachoy-bolqor, makedonlar, tatar va chuvashlar ham tushunilgan. “O‘zbekiyon” etnik nom emas, balki qabilalar uyushmasi nomini ifodalagan, aniqrog‘i, hududiy birlikning nomi. O‘zbek xalqining kelib chiqishi haqida taniqli rus olimi akademik A.Yu.Yakubovskiy to‘g‘ri va ishonchli dalilni aytgan. U 1941-yili “O‘zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida” nomli kitobchasi-da “Bironta xalqning vujudga kelishi sharoitini uning nomi tarixidan farq qilish zarur” degan nuqtai nazari o‘zbek xalqining etnik ildizlari “o‘zbekiyon”dan boshlab emas, balki ancha ilgari – xunlar, ulardan keyin qadimgi turkiylarga borib taqalishini isbotlaydi. Qolaversa, bugungi kunda ayrim olimlarning turkiy va so‘g‘diy qabilalar bugungi o‘zbek

---

<sup>85</sup>Наджип Э.Н. Культура и тюркоязычная литература Мамлюкского Египта XIV века. Туркестон, 2004, 44-6.

xalqiga zamin bo'lgani haqidagi qarashlar odamni ajablantiradi. Axir, buguni O'zbekistonning bir necha o'lkalaridan turkiy-run yozuvlarining topilgani o'zbek xalqining etnik jarayonida so'g'dlar emas, turkiy qavmlar asosiy zamin bo'lganini isbotlab turibdi.

Oltin O'rda juda katta hududni – shimoli-sharqda Bulg'or viloyatini, shimolda rus knyazliklari yerlarini o'z ichiga olgan; janubda Qrim va uning dengiz bo'yidagi shaharlarini, Darbandgacha cho'zilib ketgan Kavkaz, hatto Bokugacha bo'lgan joylarni, shuningdek, Shimoliy Xorazmni qamrab olgan. G'arbiy hududi Dnestrdan boshlangan dasht o'lkalar, sharqda – G'arbiy Sibir va Sirdaryo etaklarigacha shu davlatga qaragan.<sup>86</sup> Chingizxon saltanati yiqilgandan keyin Kaspiydan tortib Oltoygacha bo'lgan o'lkalarda Chig'atoy ulusi tashkil topdi. Agar Oltin O'rda davlatining etnik tarkibiga nazar tashlasak, bu davlat hududidagi asosiy aholi turkiy qavmlardan tashkil topganiga amin bo'lamiz. Shu sababdan "Oltin O'rda qandaydir bir xalqning normal rivojlanishi asosida tashkil topgan davlat emas, balki birovlarning yerini zo'ravonlik bilan bosib olish orqasida vujudga kelgan sun'iy bir davlat bo'lgan edi" (*Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Yuqoridagi asar, 11-b.*) degan qarashlarning asossiz ekanligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Oltin O'rda madaniy muhiti o'ziga xos tarzda rivojlanib bordi. Bu davlat hududidagi madaniy hayotda, xususan, yashash tarzida, diniy e'tiqodda, arxitekturada o'troqlashgan turkiy qavmlarning ta'siri katta bo'ldi. O'zbekxon davrida Oltin O'rda jamiyatining yuqori tabaqasi islom dinini rasmiy qabul qildi. Yuqori tabaqaning ko'zga ko'ringan va-killarini islom diniga jalb qilish ishlariga Oltin O'rda xonlaridan Berkaxon birinchi bo'lib asos soldi. Berkaxon tomonidan islom dinining qabul qilinishini XIV asrda yashagan mashhur arab tarixchisi ibn Xaldun quyidagicha tasvirlaydi: "U (Berka) islom dinini Shamsiddin Elbaxarziydan qabul qildi. Elbaxarziy esa Najmiddin Kubroning muxlislaridan bo'lgan shogird edi...Buxoroda istiqomat qilib turgan Elbaxarziy islom dinini qabul qilish to'g'risida Berkaga taklifnoma yubordi. U (Berka) islom dinini qabul qildi va: "Mening qo'l ostimdagi boshqa yerlarda ham diniy targ'ibot ishlarini bimalol olib borishingizga to'la huquq beraman", deb Elbaxarziy nomiga yorliq jo'natdi..."<sup>87</sup>

<sup>86</sup> Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Oltin O'rda va uning qulashi. – T.: 1956, 53-b.

<sup>87</sup> Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Yuqoridagi asar, 139-140-b.

## **Oltin O‘rdada turkiy til va turkiy adabiyotga zamin yaratilishi.**

Oltin O‘rdada diniy madaniyat bilan bir qatorda turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e‘tibor kuchaydi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritilsa xam, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan har bir o‘zbek kitobxoniga Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar bugungi kunda ham juda yaqin. Oltin O‘rda madaniy muhitida eski o‘zbek adabiy tilining z-guruhi adabiy tili amalda ekani va y-guruhi adabiy tiliga o‘tish jarayoni davom etayotgani kuzatiladi. Bu til **o‘g‘uz-qipchoq turkiy adabiy tili** deb yuritiladi.

Shu o‘rinda o‘zbek mumtoz adabiyotini va o‘zbek adabiy tilini davrlashtirish masalasiga e‘tibor qaratish zaruratini aytib o‘tmoqchimiz. “Oltin O‘rda adabiyoti” terminini o‘zbek adabiyotshunosligiga birinchi bo‘lib Miyon Buzruk olib kirgan<sup>88</sup>. Oltin O‘rda davlati o‘zbek adabiyoti rivojida alohida bosqichga zamin yasadi. Bu davr adabiyoti o‘zidan oldingi va keyingi davr adabiyotini aslo takrorlamagan, aksincha, o‘z qiyofasiga, mavqeiga ega bo‘lgan adabiyotdir. Oltin O‘rda davlatidagi ijtimoiy, siyosiy hayot madaniy hayotning tubdan yangilanishiga, o‘ziga xoslik kasb etishiga xizmat qildi. O‘rta Osiyodagi madaniy va adabiy hayot Oltin O‘rdaga ko‘chdi. Bu ko‘chish tarix oqimining tabiiy samarasi bo‘lgan edi. Shu bois “Oltin O‘rda o‘zbek adabiyoti” degan termindan istifoda etish, Oltin O‘rdada va Misr Mamluklar davlatida yaratilgan adabiy jarayonga nisbatan shu termini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

**Oltin O‘rda adabiy muhitining o‘ziga xosligi.** Oltin O‘rda adabiy muhiti shunisi bilan diqqatga sazovorki, *birinchidan*, o‘zbek adabiyotiga musulmon madaniyatini va islom dinini yoyish uchun o‘zbek tilida birinchi marta *agiografik* (payg‘ambarlar tarixiga oid) asarlar yaratildi. Nosiruddin Burxoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” (710\1310-yil), Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul - farodis” (“Jannatlarga ochiq yo‘l”, 761/1361-yil), Xisom Kotibning Jumjuma sulton” (1368\69 yillar; boshqa bir qo‘lyozmada 1375\76 yillar) asarlari buning yorqin namunasidir. “Qisasi Rabg‘uziy” singari “Qisas ul-anbiyo”larning o‘zbek tilidagi ko‘plab nusxalari bugungi kunda Turkiya muzeylarida, kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu asarlarning ko‘p qismi Oltin O‘rda davlati hukm surgan davrda yaratilgan. Mazkur “Qisas ul-anbiyo”larning aksariyati forschadan qilingan tarjimalardir. Turk olimi Ismat Jamilo‘g‘li

---

<sup>88</sup> Miyon Buzruk. O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash. Toshkent, O‘znashr, 1930, 60-62-betlar.

“XIV asrga oid bir “Qisas ul-anbiyo” nusxasi ustida sintaktik tadqiqot” (Anqara, 1994) nomli asarida Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan “Qisas ul-anbiyo” qo‘lyozma nusxalari to‘g‘risida ko‘p ma‘lumotlarni bergan.

*Ikkinchidan*, Oltin O‘rda davlatidagi madaniy-adabiy hayotning takomili natijasida o‘zbek adabiyotiga yangi janr – *noma janri* kirib keldi. Xorazmiyning birinchi marta o‘zbek tilida yaratilgan “Muhabbatnoma” (1353) asari buning dalilidir.

*Uchinchidan*, Oltin O‘rdadagi adabiy muhitning e‘tiborga molik jihatlaridan yana biri tarjimachilikka alohida e‘tibor berilganidir. Turli tillardan o‘zbek tiliga nodir asarlarning tarjima qilingani bevosita va bilvosita Chingizxon hamda uning farzandlari olib borgan siyosat, yerli aholiga bo‘lgan ehtirom samarasidir. Chingiziy hukmdorlar farmonlarini turkiy tilda e‘lon qilganlari, eski uyg‘ur-turkiy yozuv asosida mo‘g‘ul yozuvini yaratib, mo‘g‘ul davlatida yangicha madaniy taraqqiyotga asos solganlari buning yana bir dalilidir.

Chingizxon avlodlarining muruvvatpeshaligi va yerli aholiga xayri-xoh munosabatlarini Oltin O‘rda xonlari davom ettirdilar. Oltin O‘rdada o‘zbek tilida yaratilgan har bir asarning yuzaga kelishida biron hukmdorning ta‘siri bor. Qutbning “Husrav va Shirin”i tarjimasi shahzoda Tinibekka bag‘ishlangan. “Muhabbatnoma” aynan o‘zbek tilida Muhammad Xo‘jabekning homiyligi va taklifi bilan, “Qisasi Rabg‘uziy” Xorazm bekalaridan To‘qbug‘abekning iltimosi bilan yozilgan va h. Bulardan tashqari, til jihatdan “Qisasi Rabg‘uziy”ga yaqin bo‘lgan “Tafsir” va “Siroj ul-qulub” asarlari ham Oltin O‘rdada yaratildi.

Shu o‘rinda bir dalilni ta‘kidlab o‘tish o‘rinlidir. Oltin O‘rda xonlarining shaxsiy fazilatlarini haqida tarixiy asarlarda ma‘lumotlar bor. Jumladan, Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome‘ut-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning “Tarixi Rashidiy” (44-bet) asarlarida berilgan ma‘lumotlar buning bir dalilidir. Jumladan, Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning “Tarixi Rashidiy” (1541-1546-yillarda fos tilida yozilgan; 1837-1838-yillarda Xoja Muhammad Sharif tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan) asarida Jo‘jining yettinchi avlodi Jonibek xon haqida to‘xtalib: “Bisyor hamida xisol neku af‘ol erdilar – ya‘ni ko‘p maqtoqli xislatlari bor, go‘zal fe‘l-atvorli edilar”<sup>89</sup>, deb ta‘rif beradi.

<sup>89</sup> Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2011, 44-b.

Albatta, Oltin O‘rda abadiy davlat bo‘lib qola olmadi. Shahzodalar o‘rtasidagi mulkparastlik, hukmronlikka intilish Oltin O‘rdani ichdan yemira boshladi. Oltin O‘rda, Tovka Temur va Shaybon sulolalari o‘rtasidagi ixtiloflar XIV asrning 60-yillarida kuchaydi. Aslida tanazzul alomatlari Oltin O‘rda ikkiga – Ko‘k O‘rda va Oq O‘rdaga bo‘linib ketgan paytda boshlangan edi. Ayniqsa Jonibek davrida (1340-1357) tanazzul tezlashdi.

Oltin O‘rda davlatining tanazzuliga yana bir sabab – bu davlatdagi iqtisodiy buhronlar, ishlab chiqaruvchi kuchlar izdan chiqib borayotgani, hunarmandlarning va boshqa tabaqa aholining katta qismi qashshoqlashuvi, faqat mahalliy bozorlar bilan chegaralanib qolingani edi. Shubhasiz, iqtisodiy va siyosiy zaiflashuv Oltin O‘rdaning adabiy hayotiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Oltin O‘rda adabiy hayoti iqtisodiy va siyosiy buhronlarga aralashib, tanazzulga yuz tutmasligi uchun vaziyatni ham, makonni ham o‘zgartirishiga to‘g‘ri keldi. Adabiy hayot tamomila o‘zga yurtga – Misrga ko‘chdi. Bu adabiyot ravnaqi uchun Misrda barpo etilgan turkiy qavmlar davlati asos bo‘ldi.

**Mamluklar davlatining qisqacha tarixi. Bu davlatdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.** Tarixda Mamluklar davlati deb nom olgan bu davlat hukmdori Iziddin Oybeg nomi bilan bog‘liq bo‘lib, 1250-yili tashkil topgan.

Mamluk – qul deganidir. Bu davlatning tashkil topishida Misrga sotilgan sobiq qullardan qipchoqlar, cherkaslar, gruzinlar muhim rol o‘ynadi. Misr podshohi as-Solih Ayub vafot etgandan keyin, to uning o‘g‘li Turon shoh taxtga kelgunga qadar podshoh Ayubning askarlari Misrga salib yurishlari qilgan Lyudovik IXning askarlarini tor-mor qilib, uni asirga oldilar. Ayubning lashkarlari mamluklardan iborat edi. Shu tariqa mamluklar Misrda mavqeini mustahkamlar oldilar. Oradan to‘rt hafta o‘tgach, Ayubning o‘rniga taxtga o‘tirgan Turon shoh mamluklar tomonidan o‘ldirildi. Mamluklar davlatiga Ayubning bevasi Shohjar ad-dur o‘tirdi. Oradan bir necha oy o‘tgach, Mamluklar davlati taxtini Iziddin Oybeg egalladi.

Mamluklar davlati 1250-yildan XVI asrning boshlarigacha – 1516-1517-yillargacha Misr va Suriyada hukmronlik qildi. Mamluklarning birinchi hukmdori Iziddin Oybeg ham asli qipchoq qavmidan edi. Qipchoqlarning mavqei Misrda baland bo‘lgani uchun hokimiyatni ular boshqardi. Taxminan 1260-yillargacha Mamluklar davlatida parokanda-

lik bo‘lib turdi. 1260-yili Rukniddin Boybars taxtga o‘tirib, o‘zini Misr sultoni deb e‘lon qildi. U kelib chiqishi bo‘yicha Xorazmdan edi. U taxtga o‘tirgach, Misrning Oltin O‘rda bilan aloqalari jonlandi, tarixiy asarlar yaratish yo‘lga qo‘yildi. Turkiy sulolalar va xalqlari haqida tarixiy-geografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan qomuslar yaratildi. Misrda sulton Boybarsning tarjimai holiga bag‘ishlangan tarixiy asar yozildi. Bu asarni Boybarsning kotibi Abdu Zohir yaratda. Asarda Oltin O‘rda bilan munosabatlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan, Qrimdan Volgaga qadar qisqacha yo‘l ko‘rsatkich berilgan, Qrim aholisi haqida etnografik, ma‘rifiy ma‘lumotlar keltirilgan. Bu paytda Dashti Qipchoqdan kelgan ko‘p aholi yashardi.

Boybars mamluklar davlatini mustahkamladi, har bir shaharda doimiy armiyasini tashkil qildi. Davlat ichida tartib-qoidani mustahkam qildi. Saroydagi o‘zaro nizolarga tamomila barham berdi. Mamluklar davlati shu qadar gullab-yashnadiki, Boybarsgacha ham, undan keyin ham bu darajada rivojlanmagan edi. Mamluklar davlatiga dunyoning hamma tomonidan savdogarlar keladigan bo‘ldi, daryolarga ko‘priklar, har bir shaharda masjidlar barpo qilindi. Boybars Sharqdagi hamma arab yerlarining, Saljuqlar va O‘rta Osiyoning, Armaniston o‘lkalarining hukmdori bo‘lib qoldi. Atrofdagi hamma davlatlar mamluklar bilan hisoblashadigan bo‘ldi.<sup>90</sup>

Boybars sulton bo‘lganda, qipchoq yerlari Oltin O‘rda davlatiga qarar, bu davlatni mo‘g‘ul xonlaridan Berka (1256-1266) boshqarardi. Boybars unga maktub yuborib, do‘stona aloqalar o‘rnatishni taklif qildi. 1262-yili har ikkala davlat o‘rtasida do‘stona aloqalar o‘rnatish maqsadida Boybars o‘z elchisini jo‘natdi. Shundan so‘ng Oltin O‘rda va Mamluklar davlati o‘rtasida harbiy, savdo, madaniy aloqalar mustahkamlandi.

1277-yili Boybarsni o‘zining vaziri, qipchoqlardan bo‘lgan Qolovun zaharlab o‘ldirdi. U Damashqda dafn etildi. Shunday qilib, Boybars sulton mamluklar davlatini qudratli saltanatga aylantirib, Misr va Suriyani salib yurishlaridan, mo‘g‘ullar hujumidan himoya qildi.<sup>91</sup>

Mamluklar davlati bilan Oltin O‘rda o‘rtasida Rukniddin Boybars o‘rnatgan aloqa keyinchalik har ikkala davlat taqdirida muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, Oltin O‘rda madaniy va adabiy muhitining yashab qolishi uchun zamin yaratildi. Boybars ilk bor Oltin O‘rda xoni Berkaga

---

<sup>90</sup> Gumilevica kulichki net/HE2/

<sup>91</sup> tarihi-tulgalar kz/ru/bcibars-sultan.

maktub yuborgan paytda, Oltin O‘rda tanazzulga yuz tuta boshlagan edi. Adabiy muhit asta-sekin Misrga ko‘cha boshladi. Misr Maluklar davlatidagi adabiyot bilan Oltin O‘rdadagi adabiy jarayonni turkiy til birlashtirdi. Misr-turk davlatidagi badiiy asarlarning til xususiyatlari chig‘atoy tili yodgorliklari bilan qiyoslanganda, qipchoq tili elementlari asosiy o‘rin tutgani kuzatiladi. Zotan, Oltin O‘rdada qipchoq tili asosiy til edi. Shu bilan bir qatorda, o‘g‘uz tili elementlari ham ko‘p ekani kuzatiladi. Bu to‘g‘rda mashhur turkiyshunos Amir Najip alohida tadqiqot yaratgan.<sup>92</sup>

Oltin O‘rdada shakllangan turkiy adabiy va ilmiy muhitning Misrda mustahkam qaror topib borganini o‘sha davrda yaratilgan ilmiy asarlar ham tasdiqlaydi. Turkcha-arabcha lug‘atlar (muallifi noma‘lum “Tarjumonni turkiy va ajamiy va mo‘g‘uliy va forsiy” lug‘ati, Abu Xayyonning “Kitob al-idrok li-Lison al-Atrok” nomli leksika va grammatikaga oid asari, muallifi noma‘lum “At-Tuhfat az-Zakiya fil-lug‘atit-turkiya” nomli leksika va grammatikaga oid asar, Jamoliddin Turkiyning “Bulg‘ot” nomli qipchoq tili lug‘ati va h.) buning bir dalilidir.

Umuman, Oltin O‘rda va Misr mamluklar davlati turkiy xalqlar madaniy va adabiy hayotida katta iz qoldirdi.

---

<sup>92</sup>Наджиб А.Н. Еультура и тюркоязычная литература Мамлюкского Египта XIV века. – Туркестан, 2004.

## Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy va uning “Qisasi Rabg‘uziy” asari

### Reja:

1. Asarning yaratilishi, maqsadi va tuzilishi.
2. Rabg‘uziy – manbashunos va tanqidchi.
3. Qissa.
4. Hikoyat.
5. Rivoyat.
6. She‘riy janrlar.
7. Latifa.
8. Hikmat.
9. Boshqa kichik (xabar, foyda, munojot) janrlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *qasida, savol, javob, qissa, rivoyat, xabar, hikmat, ahsan ul-qasas, adabiyotshunos, tanqidchi, hadis, musulmon va yahudiy manbalari, tafsir, hikoyat, g‘azal, latifa, to‘rtlik, muta-savvuf.*

**Asarning yaratilishi, maqsadi va tuzilishi.** Yuqorida aytilganiday, islomni turkiy qavmlar orasiga keng yoyish, payg‘ambarlar hayoti bilan ommani tanishtirish va bu payg‘ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish uchun Berkaxon hukmronligi davridan boshlab Oltin O‘rda hukmdorlari astoydil harakat qildilar. “Qisasi Rabg‘uziy” shunday asarlardan biridir. Payg‘abarlarning avliyolarning hayot yo‘li, faaoliyati, mo‘jizalari va b.qator xususiyatlari haqidagi asarlar agiografik asarlar deb yuritiladi.

Rabg‘uziyning hayoti, ijodi to‘g‘risida biron tarixiy yoki adabiy manbada ma‘lumot saqlanib qolmagan. Bu ijodkor haqidagi qisqa ma‘lumotni “Qisasi Rabg‘uziy”dan topish mumkin.

Asar inson zotini Olloh Taolo yaratgani, avvalo xotinni emas, erkak zotini yaratgani, insonni yovuz yo‘ldan qaytargani va pok yo‘lga solgani haqidagi hamdu sano bilan boshlaydi. Shundan so‘ng Muhammad Mustafa s.a.v.ga bag‘ishlangan bir g‘azalni keltiradi. Chamasi, Rabg‘uziy bu g‘azalni o‘zi yozgan.

Shundan keyin Burhoniddin o‘zining kimligi va “Qisasi Rabg‘uziy”ning yozilish sababini quyidagicha bayon qiladi: “...bu kitobni tuzgan, to‘at yo‘linda tizgan, ma‘siyat yobonin kezgan, oz ozuq-



lug‘, ko‘p yozuqlug‘ Rabot o‘g‘uzining qozisi Burhon o‘g‘li Nosuriddin urug‘i... andog‘ aytur...beklar urug‘i, yigitlar arig‘i, ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu qilqlig‘, islom yorig‘lig‘, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbug‘a sabbatallohu alo dinil-islom va salomuhu”.<sup>93</sup> Bu ta‘rifdan so‘ng To‘qbug‘abekka bag‘ishlangan o‘ttiz uch baytdan iborat qasida keltiriladi. Qasidaning talablari va qonun-qoidalari ko‘ra, To‘qbug‘abekning shaxsiy fazilatlarini madh etiladi: u islomga e‘tiqod qo‘ygan, muttasil Qur‘on o‘qiydi, himmati osmondan ham yuksak, islomga chin dildan e‘tiqod qo‘ygan, xulq-atvori yaxshi, ko‘proq do‘st orttirishga harakat qiladi, ko‘rinishi arslon sifatliq, yoshi kichik bo‘lsa ham ulug‘ sifat, zoti toza va h.

Rabg‘uziy asarning yaratilgan yili (hijriy 150) va To‘qbug‘aning unga qilgan iltimosi to‘g‘risida bayon qiladi. Rabg‘uziy keltirgan ma‘lumotlardan shu narsa anglashiladiki, To‘qbug‘a payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan qissalardan yaxshi xabardor. Shuning uchun To‘qbug‘abek Rabg‘uziyga payg‘ambarlar to‘g‘risida asar yaratishga iltimos qilishdan oldin bu xildagi qissalarning mazmuni va shakli to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Payg‘ambarlar to‘g‘risidagi ba‘zi asarlar to‘g‘ri, ba‘zilari noto‘g‘ri, ayrimlari nuqsonli, ba‘zilarida kamchiligi borligini uqtiradi. Asarga “Qisasi ar-Rabg‘uziy” deb nom qo‘yganini muallifning o‘zi qayd etadi.

Rabg‘uziy asarni yozishda Qur‘ondan, Abu Is‘hoq Nishopuriyning forscha “Qisas ul-anbiyo”sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi “Ka‘b ul-axbor” (mil.728) asaridan foydalangan. Shuningdek, Sharqda yaratilgan va mashhur bo‘lgan “Qisas ul-anbiyo” faqat shulardan iborat emas. Saxi bin Abdulloh at-Tustariy (mil. 896), Muhammad bin Abdulmalik al-Musabbihiy al-Xoroniyy (mil.1029) ham arab tilida “Qisas ul-anbiyo” yozganlar.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari boshqa “Qisas ul-anbiyo”lardan faqat tuzilishi va til jihatidagina emas, balki muallifning biron dalilni tasdiqlash yoki rad qilish uchun sinchkov olim sifatida munosabat bildirgani bilan ham farq qiladi.

**Rabg‘uziy – manbashunos va tanqidchi.** Rabg‘uziy qissalarni hikoya qilar ekan, nozik didli, chuqur bilimli adabiyotshunos sifatida qissalarning mavjud variantlarini o‘rganadi, qaysi rivoyat haqiqat, qaysi

<sup>93</sup> Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. I jild. Toshkent. “Yozuvchi” nashriyoti. 1990, 10-b. (Bundan keyingi misollar shu nashrdan olinib, faqat asar jildi va sahifasi ko‘rsatiladi.)

biri uydirma ekanini tahlil qiladi. U qiyosiy usuldan foydalangan holda, o‘z qarashlarini ilgari suradi. U manbahunos va tanqidchi sifatida qarashlarini tasdiqlash yoki noto‘g‘ri dalillarni rad qilish uchun rivo-yat hamda xabar janrlaridan foydalanadi. Bu jihatdan Rabg‘uziyning rivoyat janridan foydalanish usuli Beruniynikiga o‘xshaydi. Rabg‘uziy deyarli har bir qissa tarkibida “savol” va “javob” keltiradi. Bu “savol” va “javob”lar voqealarga aniqlik kiritish, ularga kitobxonni ishon-tirish maqsadida keltiriladi. Buning uchun dalillarning bir nechtasini kitobxon hukmiga havola qiladi. Bir misol keltiraylik:

Oллоh Taolo o‘tdan yaratgan Jonn ismli xalq to‘g‘risida uch dalilni Rabg‘uziy bayon qiladi. Biri – Kalbiyning rivoyati, ikkinchisi – Abdul-la ibn Abbosning rivoyatidir. Uchinchi dalil sifatida boshqa bir xabarni keltiradi. Har uchalasida keltirilgan dalillar bir-biridan tamomila farqli, bir-birini to‘ldirmaydi, aksincha, bir-biriga ziddir. Rabg‘uziy aslo, mana bu dalil yoki rivoyat ishonchlidir, deb aytmaydi, balki ishonchli dalilni oxirida keltirib, boshqa dalillarga nisbatan batafsil bayon qiladi. Uning ishonchli rivoyat yoki ishonchli xabar janriga qo‘ygan talabi shudir. Yu-qoridagi Kalbiy rivoyatida o‘tdan yaratilgan Jonn ismli xalq dunyoni yetmish ming yil boshqardi. Abdulloh ibn Abbos rivoyatiga ko‘ra esa, o‘n sakkiz ming yil boshqardi, degan ma‘lumotni keltiradi. Har ikkala rivoyat ham Rabg‘uziyda to‘laqonli ishonch hosil qilmaydi va uchinc-hi dalilni – xabarni keltiradi. Xabarning Rabg‘uziy uchun ishonchliligi shundan iborat: Mavlo Taolo dunyoni yaratganda, yerni qushlarga mulk qilib berdi, yetti ming yil qushlar boshqardi. Undan so‘ng Jin ibn al-Jonnga berdi, yetti ming yil uning xalqi boshqardi. U xalq ko‘p gunoh ishlar qildi, qon to‘kkanlari uchun, yerni ulardan olib, farishtalarga berdi. yetti ming yildan keyin farishtalardan olib, yer yuzida xalifa yaraturman, deb xitob qildi.

So‘nggi xabarni Rabg‘uziy ishonchli deb topgani uchun batafsil hi-koya qiladi. Shu xabardan keyin keltirilgan “savol” va “javob” aynan xabarda keltirilgan voqealarni yana bir marta tasdiqlash uchun keltiril-gan (14-15-bet).

Rabg‘uziy qissa, rivoyat, xabar va boshqa janrlar tarkibiga olib kir-gan “savol” va “javob” “Qisasi Rabg‘uziy” tarkibida muhim qism ekani-ga e‘tibor qaratish lozim. Rabg‘uziy barcha “savol”ga hikmat, ya‘ni sir, sabab yuklaydi, “javob” ana shu sirlarni, sabablarni ochadi.

Ba‘zan qissa tarkibidagi “savol” bitta bo‘lgani holda, javoblarning

bir necha variantlari keltiriladi. Masalan, “Yusuf” qissasi boshlanishida “ahsan ul-qasas” – “qissalarning eng go‘zali” deb ta’rif beriladi. So‘ngra Rabg‘uziy “Yusuf” qissasining mohiyatiga va qissaning haqiqatan go‘zal qissa ekaniga e’tiborni qaratadi: “SAVOL: “Ahsan” demakda hikmat ne erdi?” Rabg‘uziy bu savolga to‘qqizta javob ilova qiladi. Javoblar so‘ngida “Yusuf” surasi o‘n turli qayg‘udan xalos qiladigan sura ekanini ta’kidlaydi (100-b.) Umuman, savol va javoblar qissalarning asosiy mazmuniga urg‘u qaratishga, qissalarni to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi.

Rabg‘uziy o‘z davrining yetuk adabiyotshunos olimidir. U dalillarning ishonchli ekanini tasdiqlash usullarini topadi. “Qissai Ismoil alayhissalom” va “Qissai zabihi Ismoil alayhissalom”da Rabg‘uziy ishonchli manbaga tayanish uchun qiyosiy usuldan foydalanadi. Bu usul Rabg‘uziyning nuktadon adabiyotshunos sifatidagi qirrasini ko‘rsatadi. Jumladan, Ismoil Hojardan tug‘ilgani voqeasini hikoya qilganda, ikki rivoyatni qiyoslaydi. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra, deydi Rabg‘uziy, Ismoil Hojardan shu yerda (ya’ni o‘zlari yashab turgan Kan’on yurti – N.R.) tug‘ildi, ayrim rivoyatlarga qaraganda, Hojarning oy-kuni yaqinlashganda, Sora sabr qilmay, Hojarni o‘zlari yashab turgan joydan Ibrohim bilan birga jo‘natib yubordi. Ikkinchi rivoyatni Rabg‘uziy ishonchli deb topgani uchun, shu variantini hikoya qiladi.

Ba’zi rivoyatlarda kelmish, Ismoil Hojardin mundag‘uq tug‘di. Yana **azin rivoyatda** andog‘ kelurkim, qachon Hojarning oy-kuni yovushdi ersa, Sora azin sabr qilumadi. Ibrohimqa aydi: “Hojarni mundin ketargil, men ko‘rmayin”, tedi. Jabroil keldi. “Ketargil”, tedi. Ibrohim ikki teva kelturdi. Biringa Hojarni mindurdi, birina o‘zi mundi. Tebradilar. Sora Ibrohimg‘a andog‘ aydi: “Maning kabinim ul turur, uch ish qilg‘il. Bir ulkim, Hojarni el yo‘q, kishi yo‘q yerda qo‘zg‘il, ikkinchi, tevadin inmag‘il. Uchunchi, kecha qo‘nmag‘il”. Bu uch ishga ont berdi. Ibrohim ont ichdi. Muqaddasa yerindin chiqdi. Muqaddasadin Makkag‘a tegi bir oylig‘ yer turur. Mavlo taolo yerning tamurin tortturdi. Bir kunda yetdilar. Kishisiz, o‘t, suvsiz yerda qo‘zdi... (1-jild, 74. 75-b.)

Yoki “Qissai zabihi Ismoil alayhissalom” qissasi avvalida ulamolar orasida ixtilof borligini aytadi. Ixtilof shundan iboratki, “zabih (bo‘g‘izlanadigan, qurbonlik qilinadigan) Ismoilmu yo Is‘hoqmu?” Rabg‘uziy bu ixtilofni bayon qilar ekan, bu borada arablar - Ismoil, yahudiylar - Is‘hoq, boshqa ayrim ulamolar esa har ikkisi ham zabih bo‘lgani

to‘g‘risidagi munozaraga to‘xtaladi. Shundan so‘ng munozaralarga barham berish maqsadida ishonchli manbaga – Payg‘ambar a.s.ning quyidagi hadisiga murojaat etadi: *“Ikki bo‘g‘uzlanmishning o‘g‘liman”*. Rabg‘uziy ana shu hadisga tayanadi va voqeani shu hadisga bog‘lab davom ettiradi, hadisning qanchalik ishonchli ekanini ochish maqsadida hadisga oid voqeani bayon etadi.

Rabg‘uziy manbalarga tayanib, xulosa chiqaradi, kitobxonda savolga o‘rin qoldirmaslikka harakat qiladi. Kitobxonda savol tug‘ilishi mumkinligini doim nazarda tutadi. Masalan, Rabg‘uziy yuqoridagi hadisni ishonchli manba va dalil sifatida keltirar ekan, buning ortida yana bir savol tug‘ilishi mumkinligini e‘tiborga oladi. Shu o‘rinda Rabg‘uziy tug‘ilishi muqarrar bo‘lgan savolni va savolga javobni tadqiq etadi:

“SAVOL: Mustaf o alayhissalom Ismoil din turur, Is‘hoq din ermaz... Ikki bo‘g‘uzlanmishning o‘g‘liman demak ne bo‘lur?”

Mana, kitobxonni o‘ylantiradigan muammo. Rabg‘uziy bu muammoni etnograf sifatida hal qiladi:

“Arabning odati bor. Ammani ota deyurlar. Ulamolardan birisi aytur: agar Ismoil zabih erdi deb uch taloq ont ichsa, evlugi taloq bo‘lmag‘ay, aning uchunkim, Oll o h Taolo Qur‘on ichinda Ismoil qurbon qilinmish qissasin tamom qilinmishda xabar berur, yorliqar: *Va bashsharnahu bi Isxaka nabiiyyan min as-solihina*. Ammo durustrak qavl ul tururkim, *inni ibnu zabihayn* (Iki bo‘g‘uzlanmishning o‘g‘liman) dan murod biri Ismoil turur, yana biri otasi Abdulloh turur”.

Demak, Ismoilning qatorida turguvchi Is‘hoq, ya‘ni Tavrotdagi Is‘hoq emas. Shu javob ortidagi voqeani kitobxonga Rabg‘uziy sharhlaydi, voqeani islomning ilk shakllanish davridagi xabarlariga asoslangan holda batafsil keltiradi.

Xabarda keltirilishicha, Mustaf o alayhissalomning katta otasi Abdul Mutallib davrida Zamzam qudug‘i qurib qoladi. Abdul Mutallib: ““Oll o h Taolo suv bersa, bir o‘g‘limni qurbon qilaman”, deb ont ichadi. Abdul Mutallibning bir xotinidan to‘qqizta o‘g‘li bor edi. O‘sha kunlari boshqa xotini o‘g‘il tug‘di. Bu o‘g‘lini Abdul Mutallib boshqa o‘g‘illariga qaraganda ortiq sevar edi. Abdul Mutallib Oll o hga bergan va‘dasiga ko‘ra, qur‘a tashlab, o‘g‘ilaridan birini qurbon qilmoqchi bo‘ldi. Qur‘a Abdul-

lohga chiqdi. Abdul Mutallib pichoq olib, o'g'lini qurbon qilishga shaylandi. Makkada Abdullohning Temur maxzum degan onasi tomondan qarindoshi bor edi. U Makkada ancha obro'li odam edi. Temur maxzum, Shom viloyatida mashhur folchiga bor, odam yuboringlar, folbin qanday hukm qilsa, bajarlinglar, dedi. Borgan odamlar folbindan so'ragan edilar, folbin shunday deb buyurdi: "Abdullohni va o'nta tuyani yonma-yon qo'yib, qur'a tashlanglar. Qur'a tuyaga chiqsa, tuyani qurbon qilinglar, Abdulloh qolsin. Abdulloh otiga chiqsa, yana o'nta tuya qo'shinglar va qur'a tashlanglar". Qur'a tuyaga chiqquncha shunday qildilar. Tuyalar miqdori yuztaga yetganda, qur'a tuyaga tushdi deya tuyalarni qurbon qildilar. Abdulloh qoldi.

Bu voqeani Rabg'uziy "Bu kun shariatda er bahosi yuz tuyadan qoldi", deb izohlaydi va Payg'ambar a.s.ning "Ikki bo'g'uzlanmishning o'g'liman", deb aytgan hadisi ma'nosini shu tariqa to'liq ochib beradi.

Rabg'uziy asarni yozish jarayonida o'zining zimmasida katta mas'uliyat yotganini har doim his qilib turadi. Shu bois ham manbalarni chuqur va diqqat bilan o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Uning uchun musulmon manbalari ham, yahudiy manbalari ham birdir. U uchun eng muhimi – manbalarning ishonchliligidir. Jumladan, Rabg'uziy o'zigacha yaratilgan tafsirlarni sinchiklab o'rganib, boshqa tarixiy, adabiy manbalar bilan solishtirib chiqqan, ixtilof bor o'rinlarda manbalarga aniq ishora qilgan. Masalan, Rabg'uziy keltirgan rivoyatlarga ko'ra, Yusufga zarar yetkazgan akalari payg'ambar urug'idan ekan. Ammo Imom Abulhasan Shofi'iyning "Usmat ul-anbiyo" asarida Yusufning qarindoshlari unga zarar yetkazgan paytda yalavoch emas edilar, degan ma'lumotni keltiradi (106-b.).

"Qisasi Rabg'uziy" – badiiy asar. Asar 72 qissadan tashkil topgan. Har bir qissa tarkibida hikoyat, g'azal, latifa, rivoyat, to'rtlik (118-b.), savol va javob, hikmat, hadis kabi janrlar va shakllar bor. Ayniqsa, Yasaviy hikmatlariga mazmun va shakl tomondan hamohang hikmatlarning uchragani diqqatga sazovor. Bu hikmatlar har bir qissada har bir payg'ambarga bag'ishlab yozilgan.

"Qisasi Rabg'uziy" turkiy tilda so'zlashuvchi kitobxonlarga payg'ambarlar haqida to'laqonli, dalillarga asoslangan, ishonchli ma'lumotlarni yetkazish, shu bilan birga, Shayx Shibliy (23-b.), Umar Xattob raziyallohu (34-b.), Imom Shayx Jo'yboriy (34-b.), Shayx Basriy

(107-b.) kabi qator ulug‘ mutasavvufilar hayoti va ta’limotiga oid lavhalar bilan tanishtirishdan iborat. Quyida “Qisasi Rabg‘uziy”dagi har bir janrni ko‘rib chiqamiz.

**Qissa.** Rabg‘uziy qissa janrini bugungi singari adabiy termin ma’nosida – bir butun asar ma’nosida ishlatadi. Zotan, har bir qissa tarkibining tuzilishi, voqealar bayoni, kompozitsiyasi shundan dalolat beradi. Har bir qissa mustaqil badiiy asar singari tuzilgan. Namuna sifatida “Qissai Odam safiy alayhissalom” qissasini olib ko‘raylik.

Qissa Odam alayhissalomning ta’rif-tavsifi bilan boshlanadi: uning tuproqdan yaratilgani va Iblisning vasvasasiga ilinib, qorong‘u olamga tushgani, karomat tufayli yana mukarram bo‘lgani bayon qilingandan so‘ng, o‘n to‘rt misralik she‘r keladi:

Haq yaratdi tangsuq Odamni tafiz yer ko‘rkidin,  
O‘zga surat tuzdi andog‘ ajun ichra ilkidin.  
Taxtini ko‘turub farishta ujmoh ichra kivurub,  
Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin (1, 15-b.).

“Qisai Rabg‘uziy” voqealari izchil xronologiyaga asoslangan, har bir qissa ma’lum maqsadga bo‘ysundirilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” – inson qalbi va ko‘ngliga murojaat etib, uni ma’naviy kamolotga yo‘llovchi asardir. Qissalardan ibratli xulosa chiqarish, qissalarda ko‘tarilgan qonun-qoidalar, axloq-odob, o‘g‘itlarni kitobxonga singdirish ham qissalarning asosiy maqsadlaridandir.

Insonni nima yo‘ldan ozdiradi, nima tubanlashtiradi degan savol har bir qissada ko‘ndalang bo‘lib turadi. Rabg‘uziy insoniyatga o‘g‘it bermaydi yoki nasihat qilmaydi, balki hikoyatlar, payg‘ambarlar hayotidan rivoyatlarni keltirib, kitobxonning hukmiga havola qiladi. Bu olamning boyliklariga ko‘ngil bog‘lash insoniyatni yo‘ldan ozdiradigan illat ekani asarning ko‘p o‘rinlarida ma’lum rivoyatlar vositasida bayon qilinadi. Bu e’tiqodning yorqin namunasi Odam alayhissalom qissasida bayon qilingan:

Oллоhdan yer yuziga yorlig‘ kelib, jamiki insoniyatga qarata, dunyoni ko‘rib keling, dedi. Odamlar kelib, dunyoni ko‘rdilaru u yerda qoldilar, ozgina qismi qaytib keldi. “Xitob keldi: “o‘zgingarigiz qani?”” teb. Aydilar: “Dunyoni ko‘rdilar, ko‘ngillari dunyoni tiladi, anda qol-

dilar”. Yorlig‘ keldi: “Ujmoxta bo‘ring, ujmoxta nima ko‘rung”. Bordilar, ujmoxta ko‘rdilar, ularningma ukushraki ujmoxta qoldilar. Yorlig‘ keldi: “Azinlaringiz qani?” Aytdilar: “Ilohiy, ularma ujmoxta tiladilar, anda qoldilar”. Aymishlar, dunyoda qolganlar kofirlar edilar, ujmoxta qolganlar mo‘minlarning omilari erdilar. Ujmoxta unamadin hazratga kelganlari xos qullar erdi. Yorlig‘ keldi: “Dunyoga ko‘ngil bermadingiz, ujmoxta unamadingiz, emdi ne tilayursiz?” Aytdilar: Ilohiy, bizga dunyo kerakmaz, uqbo kerakmaz. Bizga sen keraksen”. Yorlig‘ keldi: “Kim meni tiladi ersa maning xazinam ichinda qayu balo ulug‘roq ersa ul baloni anga berurman”. Aytdilar: “Ula balo bermishda san bizning bila bo‘lg‘aymusen?” Aydi: “Bo‘lurmen”. Aytdilar: “Ilohiy, balo tegmishda sen bizning birla bo‘lsang, ul oncha baloni bizga havola qilsang, qabul qilg‘aymiz”, tedilar (23- b.).

Mazkur rivoyatning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, insonlar uchun Olloh ravo ko‘radigan balo – malomatdir. Malomat ham jismoniy, ham ruhiy azobu mashaqqatdir. Ollohnin yo‘lida xizmat qilish uchun insonlarga bu dunyo ham, jannat ham kerak emas, balki Olloh ravo ko‘rgan mashaqqatlarni ular xursandchilik bilan qabul qiladilar. Malomatiylarning asosiy aqidalari shundan iboratdir. Aksariyat payg‘ambarlarning hayoti va e‘tiqodi ana shu maslakka asoslangan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da bir qator payg‘ambarlar – Shis alayhissalom, Idris va Nuh, Hud va Solih, Ibrohim va Ismoil, Is‘hoq va Lut, Yoqub va Yusuf, Muso va Iso alayhissalomga oid voqealar hamda ularning har biriga xos fazilatlar hikoya qilinadi. Bu qissalarda Rabg‘uziy asosiy e‘tibor qaratgan nuqtalar – mazkur payg‘ambarlarning hunari va a‘moli, payg‘ambarning hayoti, fe‘l-atvori bilan bog‘liq diqqatga sazovor voqealardir. Jumladan, Shis alayhissalom qissasida hikoya qilinishicha, unga bo‘zchilik hunari ato qilingan. Shundan so‘ng mutasavvuf Shaqiq Balxiy bilan bir bo‘zchi hikoyasi berilgan bo‘lib, Shaqiq Balxiy bu bo‘zchini tasavvuf yo‘lini davom ettirishga da‘vat qiladi.

Yoki Idris alayhissalom qissasida voqealar bayoni quyidagicha: uning ismi Axnux, ko‘p saboq olgani uchun Idris deb nom olgan. Dastlab libos kiygan ham u, tanasiga igna sanchganlarida ham tasbih aytgan ham u edi. Jamiki insoniyatning toat ibodati qancha bo‘lsa, Idrisning toati hamma insonlarniki bilan teng edi.

Idrisga oid bu ta‘rifdan so‘ng farishtaning Idrisni sinoviga oid voqea

keltiriladi. Faqat Idrisga Mavlo abadiy yashash huquqini bergan.

Rabg‘uziyning barcha payg‘ambarlar to‘g‘risidagi qissalari hajman va tuzilish jihatidan bir xil emas. Aytaylik, Nuh payg‘ambar qissasida hikoya qilingan voqealar yahudiy va islom manbalarida keng tarqalgan an‘anaviy To‘fon afsonasidan keskin farq qilmaydi. Yoki Shis, Solih alayhissalom qissalari to‘g‘risida ham shu gapni aytish mumkin – voqealar qisqa, mazkur payg‘ambarlarning hayotidan bir-ikki lavhani hikoya qilish bilan cheklanilgan. Ibrohim va Yusuf qissalari esa voqealar qamrovining kengligi bilan alohida ajralib turadi. Zotan, bu qissalarda Rabg‘uziyning mahorati ham, mafkurasi ham, falsafiy qarashlari ham aniq yuzaga chiqadi. Bu qissalar bir necha janrlar kesishuvida yaratilgan deb aytish mumkin. Jumladan, Ibrohim qissasi faqat Ibrohim va Soraga oid voqealardan iborat emas, balki ishonchli manbalardan tashqari, xalq orasidagi rivoyatlarni va afsonalarni, boshqa payg‘ambarlar hayoti bilan bog‘liq voqealarni ham bu qissaga olib kiradi. Qissaning eng diqqatga sazovor jihati - Ibrohimning tug‘ilishi lavhasidir. Muso va Iso tug‘ilganda, hukmdorlar tush ko‘rib, yoki bashoratchilarning so‘zlariga ishonib, mamlakatda chaqaloqlarni qirg‘in qilgan edilar. Xuddi shu voqea “Qissasi Rabg‘uziy”da Ibrohimning tug‘ilish lavhasiga ko‘chirilgan. Bu voqealar va majusiy Namrud va Ibrohim o‘rtasidagi bahs-munozaralar, butparastlik oqibatida Namrudning halokati shuni ko‘rsatadiki, Rabg‘uziy qissa janriga falsafiy, axloqiy-ma‘naviy qarashlarini singdirdi.

Qissaning syujeti ham o‘ziga xos. Namrudning halokati bilan qissa syujeti nihoyasiga yetganday taassurot qoldiradi. Ammo qissaning keyingi voqealari rivoji Ibrohim obrazining to‘laqonli chiqishiga imkon bergan. Zotan, Ismoil, Is‘hoqning onasi Sora, Is‘hoqning xotini Ruq‘a va ularning farzandlari Iyaz va Yoqub, Ibrohim va Soraning vafoti voqealari bu qissani bir necha syujet chiziqlari orqali yaratishga asos bo‘ldi.

“Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom” (soddaroq shaklda Yusuf qissasi ham deyiladi) xuddi Ibrohim alayhissalom haqidagi qissa singari ko‘p syujet chiziqlariga ega. Yuqorida Yusuf qissasi eng go‘zal qissa ekanini to‘g‘risida aytgan edik. Qissaning tuzilishida, voqealar rivojida ham o‘ziga xoslik bor. Bu o‘ziga xoslik, birinchi navbatda, mazkur qissaning hajman kattaligi bo‘lsa, ikkinchidan, qissa tarkibida bir qator janrlar – g‘azal, latifa, hikoyat va to‘rtlik shakli bor. Har bir janr Yusufning biron qirrasini – odamiylik sifatlarini, e‘tiqodini, tengsiz va takrorlanmas ishq egasi ekanini ochadi. Qolaversa, Rabg‘uziy o‘zining shoirlilik mahoratini



ham shu qissa orqali namoyon qildi.

“Qisasi Rabg‘uziy”dagi Yusuf qissasi – o‘zbek adabiyotida alohida hodisa. Qissa janri talablarini to‘liq ifoda etadi. Qissa tarkibida bir qator janrlardan istifoda etishdan Rabg‘uziyning maqsadi bor. Maqsad shundan iboratki, Rabg‘uziy epik asar qahramonining – Yusufning to‘laqonli, mukammal obrazini yaratish va qissaning barcha janrlarida bayon qilingan voqealarni Yusuf obraziga bo‘ysundirishdir. Shu bois Rabg‘uziy Yusufning tarjimai holini xronologiya bo‘yicha hikoya qilmaydi, qaysi voqea yoki detal Yusufning biron qirrasini ochadigan bo‘lsa, o‘sha voqeani keltiradi. Masalan, qissaning avvalida Yusufning keyingi hayotiga oid voqealar - uning go‘zalligi, xushxulqligi, otasining suyukli farzand ekani, tushlarni ta‘birlash qobiliyati borligi, o‘gay akalari unga hasad qilib, sotib yuborganlari va nihoyat, Misr yurtida hokimi bo‘lgani bayon qilingan she‘r (g‘azal) keltiriladi. Bu she‘rni Yusuf qissasining epigrafi deb aytish mumkin. Ayni paytda Sharqdagi barcha “Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” qissalarining asosi bo‘lgan mana shu syujet “poetik o‘zlashtirish”ning mahsulidir. Ana shu o‘zak syujet orqali kitobxonda Yusuf qissasining an’anaviy syujeti haqida tasavvur hosil bo‘ladi. Yusufning izchil hayoti bilan bog‘liq voqealar shu she‘rdan keyin boshlanadi.

O‘zbek qissalarining, xususan, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissalarining yuzaga kelishida Sharqning diniy adabiyotidagi, xususan, Qur‘on syujetlarining ta‘sir etgani ayon haqiqat. Ayni paytda Sharq adabiyotiga boshqa manbalar – xalq og‘zaki ijodi ham ta‘sir etdi. Masalan, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi Yusuf qissasi va ko‘plab “Yusuf va Zulayho” dostonlaridagi begunoh yigit va yomon xotin haqidagi syujetlarning ildizi Ramzes davrida shakllangan Misr adabiyotida bor edi. Bu ertak janriga mansub bo‘lib, “To‘g‘rilik va egrilik haqida ertak” deb nomlanadi. Ertakda hikoya qilinishicha, yomon xotin yosh yigitni yo‘ldan urmoqchi bo‘ladi. Ammo adolat g‘alaba qiladi va yigitning begunohligi o‘z isbotini topadi.

Asardagi qissa janrining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, biron voqea-hodisa haqidagi hikoya yoki rivoyatni ham Rabg‘uziy “qissa” deb ataydi. Masalan, “Qissai binoi Ka‘ba”, “Chugurtka qissasi”, “Tavrot qissasi” kabilar shular jumlasidandir. Bu qissalarda voqealarni bayon qilish usuli payg‘ambarlar haqidagi qissalarga monandir: voqealar keng qamrovli, eng muhim voqealar bayon qilinadi va ularga urg‘u qaratiladi.

**Hikoyat.** Bu janr qissalarning tarkibida berilgan. Rabg‘uziy qissa-

ning qahramoni – biron payg‘ambar yoki boshqa shaxsning hayotidagi biron voqeani tasdiqlash, kitobxonning diqqatini jalb qilish uchun o‘sha voqea mazmuniga hamohang hikoyat keltiradi.

“Qissasi Rabg‘uziy”da qissalardan ko‘ra hikoyatlar ko‘p. Hikoyatlarning ba‘zilari biron payg‘ambarning sifati va mo‘jizaviy qudratini tasdiqlash uchun keltirilgan. Masalan, Iso alayhissalom qissasida Isoning xastalarga shifo berish, o‘liklarni tiriltirish qudratini tasdiqlash maqsadida Rabg‘uziy bir hikoyat keltiradi.

Iso bir xumdan suv ichgan edi, suv achchiq ekan, to‘kib tashladi. So‘ng ariq suvidan ichgan edi, suv chuchuk ekan. Hayron bo‘lib so‘radi: “Ariq suvi chuchuk, xumning suvi achchiq. Buning hikmati nimada ekan?” Shu lahzada: “Xumdan so‘ra”, degan nido keldi. Olloh Taolo xumga til ato qildi va Iso boyagi savolini berdi. Xum shunday javob berdi: “Men inson edim, o‘ldim. Ko‘p yillar o‘tdi. Etim, tanam, suyaklarim chiridi, tuproqqa aylandi. O‘sha tuproqdan xum yasadilar. Suvning achchig‘i jonning achchig‘idir”. Ayishlaricha, Isoga bir xilda turish ravo emas edi. U yurganda, xastalar manfaat topar edilar. Iso qachon harakatda bo‘lib, yurganda, xaloyiq ozor topar edi.

Yoki Iso haqidagi boshqa bir hikoyatda uning faqirlikni ixtiyor qilgani bayon etiladi. Insonlar mol-dunyo tashvishida umrini behudaga o‘tkazishlari aqldan emas degan o‘gitni ilgari suradi, faqirlik ulug‘lanadi.

Bir kuni Iso cho‘lga chiqdi. Inidan chiqayotgan bir tulkini ko‘rdi. Iso aytdi: “Tulkining uyi bor, Isoniki yo‘q”. Odamlar bu gapni eshitib: “Biz senga bir uy qurib beraylik”, dedilar. “Molim yo‘q”, dedi Iso. Odamlar mol yig‘dilar, so‘radilar: “Qayerda quraylik?” Iso dengiz qirg‘og‘iga bordi va “Qumning ustiga quringlar”, dedi. Odamlar aytdilar: “Qum ustida uy turadimi?” “Oqil odam bu dunyoda uy qiladimi?!” deb javob berdi Iso.

Rabg‘uziy bu hikoyatni keltirish orqali uy qurishni emas, balki hashamatlilikni qoralaydi, inson hashamat bilan yashar ekan, buning oqibatida inson ko‘p narsadan – e‘tiqod, maqsad, ko‘pchilikka manfaat keltirish, ruhiy sobitlik, ma‘naviy uyg‘oqlikdan mahrum bo‘ladi, deb aytmoqda. Iso ana shu fazilatlarini o‘zida mujassam etgan solih zot eka-

nini ta'kidlamoqda.

Ayrim hikoyatlarning tuzilishi, bayon usuli esa ertaklarnikiga o'xshaydi. "Qissai valodati Muhammad Rasulullohi Sallallohu alayhi va sallam"da Muhammad a.s.ning dunyoga kelishiga oid hikoyat bor. Bu hikoyatni uch qismga bo'lish mumkin. Hikoyatning birinchi qismi xuddi ertaklarning boshlanmasi singari ma'kon tasviri bilan boshlanadi: "Shom viloyatidagi i malikning bir Fotima otlig' qizi bor erdi". Hikoyadagi bundan keyingi voqealar safar (Fotimaning qullari va xizmatkorlari bilan molu boyluklarini tuyalarga yuklab, Makkaga kelishi) motivini eslatadi. Voqealar rivojida g'ayritabiiy detal – Abdullohning qo'lidagi nur alohida tasvirlanadi, Fotima o'sha nur ilinjida Abdullohga, menga uylangin, deb taklif qiladi, ammo nur Abdullohdan o'z zavjasi Aminaga o'tib qoladi va Amina yukli bo'ladi. Shu orada Abdulloh vafot etadi. Abdulloh vafotidan keyin Amina o'g'il tug'adi. O'g'ilning tug'ilish lavhasi g'aroyib tarzda beriladi: jamiki farishtalar o'g'il tug'ilishi arafasida havoda yig'ilib turadilar. Farishtalar olamning faxri ana shu tug'ilajak chaqaloq ekanini bashorat qiladilar. Chaqaloq o'g'il tug'ilganda, bir parcha oq bulut tushib, uni osmonga olib chiqib ketadi.

Xuddi shu voqeadan so'ng Rabg'uziy voqeani tamomila boshqa tomonga buradi. Bu voqeani kiritma hikoya deb atasak to'g'ri bo'ladi. Bir parcha oq bulut tushib kelib, chaqaloq Muhammadni osmonga olib chiqib ketgandan keyin Muhammadning sifatlari Tavrotda, Zaburda, Injilda bayon qilingani, oq bulut doimo Rasulga umri davomida hamroh bo'lgani, Rasulning onasi Amina ammasi Otikaga yuz bergan voqealarni – o'g'li bilan bog'liq mo'jizalarni hikoya qilib bergani va Rasulning keyingi hayotiga oid ko'p voqealar hikoya qilinadi (2-jild, 104-105). Gunohkor bandalar ming yil kofir bo'lganda ham, bir soat Muhammadga ergashsa, gunohlari yuvilib ketishi haqidagi voqea bilan Rabg'uziy kiritma hikoyani nihoyasiga yetkazadi.

Ana shu o'rinda Rabg'uziy hikoyachilikdagi mahoratini namoyon qiladi. U mazkur hikoyani qolgan joyidan – oq bulut chaqaloqni osmonga olib chiqib ketgan joyidan "*kelduk bayoqi so'zg'a*" deya davom ettirib ketadi: "Ul zamonkim, Muhammadni bulut kelturdi. Amina o'g'long'a emukin berayin tedi ersa, olmadi". Hikoyada bayon qilinishicha, chaqaloq onasini yigirma besh kun davomida emmagandan keyin, Amina qayg'urib olamdan o'tdi. O'g'ilni doyaga berdilar.

Ma'lum bo'ladiki, Rabg'uziy shu birgina hikoyaga bir necha voqe-

alarni, ko'p detallarni olib kiradi. Barcha voqealar va detallar hikoyatni ertak janriga yaqinlashtiradi. Ertaklarda ko'p uchraydigan bayon usuli ("endi so'zni falon podshohdan eshiting" yoki "endi gapni falonchidan eshiting" kabi) orqali Rabg'uziy mazkur hikoyatni bir necha syujet chiziqi qilib yaratishga erishgan.

Rabg'uziy qissalar tarkibiga hikoyatlarni olib kirar ekan, hikoyalar syujetiga afsonaviy ruh va mazmun singdiradi, hikoyalarning didaktik mohiyatiga alohida urg'u qaratadi. Bu bilan Rabg'uziy o'z asaridagi hikoyalarning rang-barangligini ta'minlagan, badiiy asarning muhim adabiy kategoriyalarini – muallif pozitsiyasini, his-tuyg'ularni, mavzuni, ya'ni axloqiy, falsafiy muammolarni, g'oyani shakllantirgan. Ayniqsa, e'tiqod va badiiy asar butunligini ta'minlashga erishgan. Nuh alayhissalom qissasida bayon qilingan quyidagi hikoyat ayni shu maqsadlarni gavdalandiradi:

Nuhning bir qizi bor edi. Biri qiziga sovchilikka keldi. Bersammikan, deb o'yladi. Yana bir keldi, bunga bersammikan, dedi. Xullas, to'rt sovchi keldi va hammasiga berishni ixtiyor qildi. Hammalar qizni olib ketgani keldilar. Nuh alayhissalom qayg'uga botdi. Uyiga kirdi. Uyida bir qiz iti va bir mocha eshagi bor edi. Xudoning qudrati bilan ikkalasi ham qiz edi. Xudo jannatdan bir hurni berdi. To'rtala qizni Nuh to'rtta kuyovga berdi. Qizlarning hammasi bir-biriga juda o'xshar edi. O'zining qizini taniy olmadi. Bir necha kundan keyin sovg'alar olib, qizlarini ko'rgani keldi. Bir kuyovidan so'radi: "Jufting bilan munosabating qanday?" "Yaxshiman, ammo u yemaydiyam, ichmaydiyam". Nuh bildiki, u hur ekan. Ikkinchi kuyovidan so'radi: "Jufting bilan munosabating qanday?" Kuyovi: "Qanjig' ekan", dedi. Nuh bildiki, it ekan. Uchinchi kuyovidan so'radi: "Jufting bilan munosabating qanday?" Kuyovi: "yeydi, ichadi. Eshakday yotaveradi". Nuh bildiki, u mocha eshak ekan. To'rtinchi kuyovidan so'radi: "Jufting bilan munosabating qanday?" Kuyovi dedi: "Men undan mamnunman, payg'ambarlar urug'idan ekan". Nuh alayhissalom bildiki, bunisi o'zining qizi ekan. Olib kelgan sovg'asini unga berdi.

**Rivoyat.** Qissalar tarkibida qo'llanadigan sermahsul janrlardandir. Rabg'uziy keltirgan rivoyatlar mavzu jihatidan turlicha bo'lib, asosan, hajm jihatidan hikoyatga nisbatan kattaroq, rivoyat qahramonining

mo'jizalarini, uning hayotiga oid voqealarni bayon qiladi. Rivoyatda ma'lum darajada tarixiylik tamoyili bo'ladi. Shuningdek, afsonaviy-epik ruh rivoyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi. Solih yalavoch qissasidagi rivoyat aynan shundan darak beradi. Rabg'uziy Solih yalavochni va uning faoliyatini hikoya qilar ekan, u odamlarning qo'ylarini va yilqilarini hurkitib, hadeb bezovta qilaveradigan tuyani kim o'ldirishini bashorat qiladi. Qissaning tarkibidagi rivoyat ayni shundan boshlanadi. Rivoyatning boshlanishida Solih yalavoch bashorat qilgan "qizil yuzli, sariq sochli, chaqir ko'zli" odam tuyani o'ldiradi deb qilgan bashorati oqibatida odamlar shu rang va qiyofada tug'ilgan bolani o'ldiraveradilar. Oxiri Solih yalavoch bilan tuyani o'ldirgan odamlar o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi va odamlar Solihni o'ldirish payiga tushadilar. Rivoyat bayoni davomida Solihning mo'jizalari, uning aziz mukarram yalavoch ekani dalillar bilan ko'rsatiladi.

"Qisasi Rabg'uziy"dagi rivoyatlarning bir turi borki, aqidalar va udumlar rivoyatga asos bo'lgan. Rivoyatda voqealarning bayonidan ko'ra, ma'lum udumlarning paydo bo'lish sabablari va omillari asosiy o'rin egallaydi. Masalan, Odam alayhissalom qissasida qurbonlik udumlarining paydo bo'lish sabablariga oid rivoyat shundan dalolat beradi (1, 28-b.).

Rabg'uziy ayrim rivoyatlarga aynan tarixiy dalillarni yuklaydi. Masalan, Nuh alayhissalom qissasida insoniyatning paydo bo'lish tarixiga oid rivoyatni keltirar ekan, bu rivoyatni Rabg'uziy Ka'bning asaridan olib keltiradi. Rivoyat epik syujetga ega bo'lmay, faqat Ka'bning xulosalaridan iboratdir (1,46-b.). Rabg'uziy Ka'bning asarida keltirilgan ma'lumotlar rivoyat xulosasi uchun kifoya deb bilgani sababli voqealarni bayon qilishni lozim deb bilmagan.

Rabg'uziy rivoyat janriga alohida urg'u berib, bu janrga didaktik mazmun yuklaydi. Ayni paytda rivoyatning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bir tomondan, rivoyatni turli ishonchli manbalardan keltiradi, ikkinchi tomondan, qissada bayon qilinayotgan voqealarga aniqlik kiritish maqsadini rivoyat namoyon etadi. Yusuf qissasida keltirilgan rivoyat bunga yaqqol dalildir. Rivoyatni Rabg'uziy ikki qismga bo'lib bergan: rivoyatning birinchi qismini Abdulloh ibn Abbosdan keltiradi. Uning asaridan keltirilgan rivoyat Yusufning va Ibn Yaminning taqdiri haqida ko'p asarlarda bayon etilgan an'anaviy syujetni to'ldiradi, sharhlaydi: Yoqubning Yusuf va Ibn Yamin taqdiri haqida Azroilga

bergan savollari, Azroilning Yoqubga Yusuf va Ibn Yamin begunoh va aybsiz ekanlari haqida bergan xabari, bir kun Yoqub ikkala o'g'li bilan ko'rishuvi muqarrar ekani to'g'risidagi voqealardan iborat. Rivoyatning bu qismi tugallanmasida Rabg'uziy quyidagi o'gitni beradi: "Odam bolalari nasibasi kelishini biladilar, ammo qachon kelishini bilmaydilar, qo'rquvlari shundandir" (153-b). Bu rivoyatdan keyingi – qissaning tarkibiga kirgan voqealar Yusufning Misrdagi mavqei, Yoqub o'g'illarini Misrga don olib kelish uchun yuborishi, Yusuf saroyining tasviri, Yoqub o'g'illari Ibn Yaminni qaytarib berishni so'rab Yusufga qilgan iltijolaridan iboratdir. Qissa voqealari bilan keyin keltirilgan rivoyat uzluksiz davom etgan.

Rabg'uziy "rivoyat" deb alohida ta'kidlashiga sabab shuki, bu rivoyatning manbai bor. Manba - Abdulloh Horis Ibn Navfal asaridan keltirilgan voqealardir. Rivoyatda bayon qilinishicha, Yusufning Ibn Yaminni so'rab qilgan iltijolari behuda ketdi. Akalar Yusufdan Ibn Yaminning taqdirini so'raganda, shunday javob berdi: "Uni sotdim, bitik oldim, mana o'sha bitik, u ibroniy tilida, biz ibroniychani bilmaymiz, ibroniycha – sizlarning tilingiz, o'qinglar, biz ham eshitaylik". Aka-ukalar bitikni bir-birlariga uzatdilar, birontasi o'qimadi, "Biz o'qishni bilmaymiz", deb javob berdilar. Yusuf ularga: "Nega o'z tilingizni bilmaysizlar?" deb e'tiroz bildirdi. Oxiri Yahudo o'qigan edi, hamma sarguzashtlar ma'lum bo'ldi. Bitigda Yusufni molik Za'rga sotganlari haqida yozilgan edi. Yusuf: "Hozirgacha bo'ri yegan der edingiz, u sizlarning tug'ishganingiz ekan; qarindoshni sotmoq ravo bo'lurmi?" deb hammalarini tutishga amr berdi. Yusuf ularni azoblab o'ldiringlar, toki boshqalarga saboq bo'lsin, deya farmon qildi. Yusuf akalarining so'nggi iltimosini – bug'doy berajagini va qolgan ishlarini ertaga amalga oshiruvini aytdi.

Bu voqea boshqa mualliflarning "Yusuf" qissalarida uchramaydi. Rabg'uziy mazkur rivoyatni keltirishidan maqsad – insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashdir. Shu bois ham rivoyat so'ngida mazkur rivoyatning xulosasi sifatida quyidagi o'git keltiriladi: "Shu tariqa qiyomat kuni Mavlo Taolo hamma bandalarni do'zax o'ti bilan qo'rqitadi, bandalar azobni ko'radilar. Shundan keyin o'z fazilatlarini bilan jannatga kiradilar" (1, 157-b.).

Keltirgan rivoyatlar, garchi afsonalar mazmuniga monand bo'lsa ham, deyarli hammasi biron manbadan olingani uchun Rabg'uziy rivoyat janriga mansub deb qaraydi va albatta, rivoyat terminini ishlatadi.

Ko'proq rivoyatlarni u Vahb ibn Munabbihdan keltirgan. Buning sababi shuki, "Qisasi Rabg'uziy"ning yaratilishida asosiy manbalardan biri Vahb ibn Munabbihning asari bo'ldi. Qolaversa, Vahb ibn Munabbihning "Ka'b ul-axbor" asari Sharq adabiyotidagi payg'ambarlar tarixini, xususan, Bibliyaning Eski Ahd qismidagi payg'ambarlar tarixini yaxshi bilgan, manbalardan yaxshi xabardor bo'lgan.

**She'riy janrlar.** "Qisasi Rabg'uziy"dagi bu janrlar har bir qisada bor. Qissalar, odatda, she'r bilan boshlangan. Asardagi barcha she'rlarning muallifi Rabg'uziyning o'zidir. Rabg'uziy qissalar debochasida payg'ambarlarning hammasiga she'r bilan ta'rif beradi. Har bir payg'ambarga xos fazilat, layoqat, Xudo in'om qilgan qobiliyatlarni bayon qiladi. So'ngra ana shu she'rda payg'ambarga berilgan ta'rif-tavsiflarni qissa davomida sharhlaydi. Qissalarda biron payg'ambarga oid voqealar bilan she'rda keltirilgan voqealar, ta'rifu tavsiflar hamohangdir. Jumladan, "Sulaymon ibn Dovud alayhissalom qissasi"dagi she'rga murojaat etaylik:

Dovud o'g'li ul Sulaymon Tengrimizning sovchisi,  
Yer ulog'liq shoh ediyu ham uchar qush elchisi.  
Odamiy, uchqan, yugurgan, dev, pari, ham yel, bulut,  
Og'ulug' bo'lsun ozig'lig' barcha aning ishchisi.  
Ko'zi to'rt yuz qangli erdi kunda qushlug' oshig'a,  
Borg'usida kur arslon, bo'ri, qoplon qo'ychisi.  
Tupuchoq otning urug'i qoldi andin dunyoda,  
Tilda hujjat, tanda xidmat, qo'lda mulkat qamchisi.  
O'zi "nima'l abdu" atandi ham yalavoch ham malik,  
Yo'ldin ozg'anlarg'a erdi o'zi ujmox yo'lchisi.

Rabg'uziy she'riy janrlarni farqlaydi va har birini o'z nomi bilan ataydi. Keltirilgan she'r qofiyalanishiga ko'ra g'azalni eslatadi. Ammo Rabg'uziy mazkur she'rga nisbatan g'azal terminidan istifoda etmaydi, balki *she'r* deb ataydi. Yoki "Qissai Nuh nabiy alayhissalom"da qissaning butun mazmunini o'zida mujassam etgan she'r bor. Bu she'r ham shaklan - qofiyalanishi jihatdan va mazmunan xuddi yuqoridagi she'rning aynan o'zi. Rabg'uziy bu qissada ham *she'r* terminini ishlatadi. Shu turkumdagi ayrim she'rlar maqtaida Rabg'uziy taxallus keltiradi. Quyidagi Rabg'uziy Nosir tayanma tunla kunduz ingranib,

Sayrag'il, suchuk tilingdin so'z chiqar so'zlar sog'i (2, 197-b.)

g'azal maqtai bunga bir misoldir. Rabg'uziy nima uchun bu turkumdagi – aynan qissalar boshlanmasidagi she'rlarga g'azal terminini qo'llamaydi-yu aynan g'azal terminini ostida berilgan baytlar uningcha g'azal hisoblanadi? Rabg'uziyning she'riy janrlarga qarashi mavjud an'anaviy usullardan kelib chiqqan. G'azal maqtaida taxallus qo'llamasdan mazkur janr talablariga rioya qilingan she'rlar o'zbek adabiyotida bor.

Rabg'uziy g'azal terminini aynan mazkur janr talablariga javob beradigan she'rga nisbatan qo'llaydi. Yusuf qissasida g'azal terminini ostida keltirilgan janr buning yorqin misolidir. Bu g'azalni Zulayho Yusufning firoqida o'rtanganda aytgan.

### **G'azal**

Jilva birla solnu chiqg'an ol yangoqlig' yoni qor,  
Ko'zlari yulduz, yuzi kun, olini ko'kning oyidin.

Ko'rsayurman ko'rkingizni ko'rgu bo'lmas ko'zginam,  
Ko'rk zakotin berki vojib qilsa ko'rkning boyidin.

Qosh otib ko'nglumni olg'an jon qo'larsiz berayin,  
Ul netak oshiq bo'lurkim, qaytsa ma'shuq ra'yidin.

Nogahon bir qubla qo'lsam o'fqa birla hoyqirar,  
Jon berib o'lgay telim ul jumla qilg'on hoyidin.

Rabg'uziy qul Nosiruddin ta'bi turluk so'z tuzar,  
Gulchirab usruk o'lay ko'z boqsa quymoch qoshidin (1. 126-b.).

Mazkur g'azal maqtaida Rabg'uziy taxallusini keltiryapti. Ammo e'tibor bersak, g'azal janri qoidalariga xilof qoidani ko'ramiz. Bu – g'azalning matlai qofiyalanmaganidir, ya'ni g'azalning qofiyalanish tizimi *a-a*, *b-a*, *v-a* shaklida bo'lishi lozim edi. Matlasi qofiyalanmagan she'ri Idris alayhissalom qissasida ham uchratamiz. Ehtimol, g'azalning matlai qo'lyozmani ko'chirish jarayonida tushib qolgan bo'lishi ham mumkin.

Chamasi, g'azal terminini ostida Rabg'uziy mazkur janrga oid hamma



she'rlarni jamlamagan. Jumladan, yana Yusuf qissasida "she'r" termini ostida mulamma' san'atining namunasi sifatida g'azal berilgan. She'r maqtai

Rabg'uziy Nosir ko'rursa yuz o'vurmas ishqdin,

Bek necha bushub so'karsa qul qachon ko'nglin kesar (1, 116-b.).

misrasi bilan tugaydi.

Rabg'uziy o'z asarida istifoda etgan she'rlarga turli terminlarni ishlatgan. Jumladan, u bayt termini ostida asosan to'rtliklarni keltiradi. Mazkur to'rtliklar to'rt yoki sakkiz misradan iborat, qofiyalanish tizimi *a-a-b-a* yoki *a-a-a-a* shaklida. "Qissai zabihi Ismoil alayhissalom"da keltirilgan ikki to'rtlik (1,78,79-b.), "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"da berilgan sakkiz misradan iborat to'rtlik (1,101-b.) shuni tasdiqlaydi. Ayrim hollarda ikki misraga nisbatan bayt terminini qo'llaydi (Alisher Navoiy ham ikki misraga nisbatan bayt terminidan istifoda etgan o'rinlar bor). Bu bayt fard mazmunini o'zida ifoda etadi. Masalan, "Qissai zabihi Ismoil alayhissalom"da quyidagi bayt fard xususiyatiga ega bo'lib, taqdirida bo'lmasa, biron o'zgarish bo'lmaydi degan ma'noni ifoda etadi:

Suvda turg'an ot bolasi necha bo'lsa ul kichik,

Keng dengizning suvi ani eltu-mas (1, 78-b.).

Rabg'uziyning ijodida eng muhim o'rin egallagan she'riy janrlardan biri – bahoriyotdir. Rabg'uziy "Qissai Yusuf siddiq alayhissalom"da "bahoriyot" degan nom bilan Navro'z bayramiga bag'ishlangan g'azalni keltiradi. Rabg'uziyning bu g'azalida tabiat, butun yer yuzi uyg'ongan va bezangan, dillarga xushnudlik baxsh etadigan fasl ekani, bahor faslining jamiki ko'rk-tarovati tasvirlanadi. Shu boisdan ham Rabg'uziy "bahoriyot" deb nom bergan.

Xullas, Rabg'uziy bu asarida keltirgan she'riy janrlarning ko'pchiligi g'azal janridan, so'ngra to'rtliklardan iborat.

**Latifa.** Bu janr asarda asosan, "Qissai Yusuf siddiq alayhissalom"da keltirilgan. (1, 117,127-b.) "Latifa" termini ostida hikoya qilingan voqealarning hozirgi latifa, ya'ni yumorga yo'g'rilgan, kulgili voqealarga aloqasi yo'q. Aksincha, latifalarda mo'jizaviy voqealar hikoya qilinadi. Buning ustiga, mo'jizaviy voqea muhim xulosalarga, o'git va hikmatlar kelib chiqishiga omil bo'ladi. Mazkur janrning asosiy belgisi shulardan iboratdir.

Birinchi latifa Yusufning duosi tufayli bir qator mo'jizalar yuz ber-

gani hikoya qilinadi. Hikoya qilinishicha, Molik Za'r Yusufga arz holini bayon qildi:

“Ey Yusuf, senga bir hojatim bor...Molim ko'p, ammo amolim yo'q. Quruq yig'ochman, butog'im yo'q. Sendan duo, haqdin umanchim bor”. Yusuf Molik Za'ring iltijosini eshitib, qo'llarini ko'tarib duo qildi: “Ey davlat tojin boshing'a urug'li, ey mazallat javonin egnig'a kizukli, quzi tushganlarni yuqoru ko'turgan, ura qo'pg'anlarni yumurg'an, berga san, olg'an san. Bu abushqag'a o'g'ullar karomat qilg'il”.

Yusufning duosi ijobat bo'lib, Malik Za'r o'n ikki cho'risidan bir kunda egizak o'g'il – yigirma to'rt o'g'il ko'rdi. Latifa so'ngida cho'rilarning Malik Za'rga qilgan iltifotlarini Rabg'uziy quyidagi hikmat orqali yakunlaydi:

“Qamug' to'nlar yigna birla tikilur, azinlarni o'rtar, ammo o'zi yanglang qolur, yo kendu chirog' mengizlik o'zi yonar, o'zgalarga yoruqluq berur” (I, 119-b.).

Rabg'uziy bu hikmatni cho'rilar orqali Molik Za'ring iltijosi va orzusi ushalib farzandli bo'lgani, cho'rilarning o'zlari esa igna singari yolg'iz qolganiga yoki chiroq singari o'zlari yonib, Molik Za'ring hayotini shod-xurram qilganiga ishora etmoqda.

Ikkinchi latifa Yusuf va Zulayho o'rtasidagi mojaro haqida hikoya qiladi. Yusufning ishqida yongan Zulayho eri Azizi Misrga Yusuf ustidan tuhmat qildi. Latifadagi voqealar bayonida kim haq va kim nohaqligini Zulayho cho'risining to'rt oylik beshikda yotgan o'g'li, “Zulayho – nohaq, Yusuf esa haq”deya ishorat bilan guvohlik beradi. Latifa so'ngida Rabg'uziy to'rt oylik chaqaloqning ishorat orqali guvohlik bergani niho-yatda maqbul ish bo'lganini foydali maslahat sifatida keltiradi. So'ngra kimdir o'z gunohini boshqa birovga yuklamog'i bandalarga ham, Yaratganga ham xush kelmasligini aytish bilan bir qatorda, gunohni boshqalarning oldida oshkora aytmog' ham insoniylikning alomati emasligini, gunohkor va begunohni ajrim qilishda aql bilan ish ko'rish lozimligini Rabg'uziy shunday xulosalaydi:

“Ey mo'min, o'z yozuqingni o'zgalarga yuklamagil, yukla-

ding ersa Mavlo o'g'lon tek aning arig'liqin bilgurtgay, seni rasvo qilg'ay...O'ngingda kimarsaning aybini ochmag'il. Yusufga zarurat bo'lmaguncha, "Sizlarning makr va hiylalaringiz ulug'dir", demadi. Yana o'g'lon tanuqluq berdi ersa, ravshan aytmadi, o'rtukluk aydi. Azizi Misr o'zi angladi" (1, 128-b.).

Har ikkala latifa o'zbek adabiyotidagina emas, balki turkiy adabiyotda mazkur janrning mazmunan tamomila yangi namunasi bo'lib, didaktik adabiyotning uzluksiz davom etganini ko'rsatadigan dalildir.

**Hikmat.** "Qisasi Rabg'uziy"da hikmat shakl tomondan rivoyat, hikoyat janrlaridan farq qilmaydi. "Qisasi Rabg'uziy"dagi hikmat "bilimdonlik", "donishmandlik" ma'nosidan tashqari, "sir" ma'nosida ham ishlatilgan, shu bois Rabg'uziy hikmatlarida falsafiy mazmun yetakchilik qiladi.

Rabg'uziy hikmatga o'z asarida alohida urg'u beradi va hikmatni qissa janrining kaliti sifatida talqin qiladi – qissadagi ma'lum bir voqeaning sabab va natijasini ochish, uning mohiyatini kitobxonga yetkazish uchun hikmat keltiradi. Asosiy gap – hikmatning maqsadida, "sir"ni o'quvchiga yetkazishda. Bu hikmatlarda javonmardlik va faqirlikni ulug'lash o'z ifodasini topgan. Ilk hikmat "Qissai Odam safiy alayhissalom"da bor. Rabg'uziy bu qissada Odam alayhissalomning jannatga kirish siri nimada edi, degan savolga javob berar ekan, "*mo'minlarning tanini, molini sotg'in olib, ujmox (jannat)bergusini, ko'rumagan narsani bay' (savdo) qilmoq shariatda ravo bo'lmaz teb ujmoxga kivur (kirit)*"ganlarini (1, 22-b.) asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Bu masalada ulamolar o'rtasida ixtilof borligi haqida ham xabar berib o'tadi.

Rabg'uziy o'z hikmatlari "sir"ini faqat savol va javoblarda kashf qiladi. Hikmatlarning janriy belgilari savol va javoblardadir (1; 24, 25-b.).

Ayrim hikmatlarda biron toifaning alomatlari bilan tarixiy voqea va tarixiy shaxslarning sifatleri uyg'unlashtiriladi. Luqmoni hakim valiy-larning alomati haqida so'z yuritgan hikmatda ayni shuni ko'rish mumkin. Luqmoni hakim quyidagi uchta alomatni valiy-larga xos deb aytadi: birinchisi - javonmardlik, ikkinchisi - yomon xulqdan, hasad va kindan xalos ekani, uchinchisi - ulamo va fuzalolar bilan do'stligi. Ayni paytda bu uch alomatni Muhammad a.s.hayotiga bog'laydi:

Bilgilkim, Abu Bakr Siddiq va Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhumo Rasul alayhissalomning qayin otalari erdilar. Oysha va Hafsa yo'lindin. Yana Usmon va Ali raziyallohu anhumo kuyavlari erdilar.

Usmon raziyallohu anhu Ruqayya sababidan. Ul vafot bo'ldi ersa yana Ummi Kulsumni berdi. Aning uchun Zunnurayn atandi. Yana Ali raziyallohu anhu Fotima yo'lindin kuyav erdi teb aymishlar.

Bu hikmat savol va javob asosiga qurilmagan. Garchi shunday bo'lsa-da, Muhammad a.s.ning sifatleri valiylarda bor ekaniga ishora qilgani hikmatlarni birlashtiradi.

**Boshqa kichik janrlar. Xabar.** Xabar janrini ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, asardagi biron payg'ambarga oid qissada aytilmagan kichik voqealar bayon qilinadi yoki xabar beriladi, shu tariqa qahramonlarning biron muhim qirrasini ochiladi. G'ayritabiyy voqealar, mo'jizalar ham ayrim xabarlarda bayon qilinadi va shu orqali qissa qahramonlari – payg'ambarlarning to'liq qiyofasi yaratiladi. Masalan, Nuh payg'ambar haqidagi qissada odamlar solih bo'lmaganlari uchun ularga qirq yil davomida yomg'ir ham berilmadi, farzandlar tug'ilmadi, odamlar, yilqilar qirilib ketdi. Rabg'uziy shu voqeadan so'ng "Xabarda andog' kelur" deya xabar keltiradi:

"Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmadi. Aning uchunkim, dayyor jumlasindin ermas erdi. Dayyor – evluk – barqilig' temak bo'lur. Avjning barqi yo'q erdi, tengizlar atog'inda turur erdi. To'fon suyi tizinga oshmadi".

Xabar janriga oid voqea shundan iborat. Hali to'fon voqearasini Rabg'uziy hikoya qilmagan bo'lsa ham, yuqoridagi voqeadan – jamiki insonlar, jonzotlar qirilib ketgandan so'ng Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmagani va buning sababini uning xoksorligi – jamiki insoniyatdan farqi boshpanasi yo'qligidan deb izohlaydi. Bu o'rinda Rabg'uziy insoniyatni halokatga eltuvchi yo'l – molparastlik deb uqtirmoqchi bo'ladi. Yoki "Qissai Qorun alayhilla'na"da bayon qilingan voqealarning ishonchli, dalillarga asoslanganini ta'kidlash, qolaversa, Qorunning ochko'zligini, Musoning sabrliligini ko'rsatish maqsadida quyidagi xabarni keltiradi: Muso yalavoch har kuni bani Isroilni yig'ib, minbarga chiqib, majlis qilar, xalqqa nasihat qilar edi. Qorun esa qo'lida oltin piyola, Musoning ro'parasida cholg'uchilar hozir qilar, xizmatkorlari oldida sharobxo'rlik qilardi. Muso esa faqat sabr qilardi.

Bu xabar ham hajm jihatidan qisqa bo'lishiga qaramay, Qorun haqi-

dagi asosiy voqealar oqimiga – Qorunning badnafsligi va molparastligiga, Musoning sabrli ekaniga aniqlik kiritish uchun muhim dalil bo‘lgan (2, 12-b.).

**Foyda.** Bu janr “Qisasi Rabg‘uziy”da, asosan, didaktik janrdagi kichik hajmdagi voqealarni hikoya qilishdan iborat. Foyda o‘z nomi bilan insoniyatning zohiran va botinan solih, to‘g‘ri bo‘lishga undashdir. Masalan, “Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom”da ikkita foyda janriga mansub parcha bor (1, 128-b.). Birinchi foydada odam o‘z gunohini boshqalarga yuklamasligi, aks holda Yaratuvchi ayblanuvchining gunohini bilishi va tuhmatchiga shunga yarasha jazo berishi haqida bo‘lib, Azizi Misrning xotini Zulayho Yusufga tuhmat qilganda, to‘rt oylik chaqaloq Yusufning pokligi haqida guvohlik beradi. Yusuf va Zulayho mojarosi hamda shundan xulosa sifatida Rabg‘uziy “foйда” termini ostida o‘g‘itni beradi.

Bu – Rabg‘uziyning odamlar bir-birlariga yomonlik qilmasliklari haqidagi o‘g‘itidir. Azizi Misr Yusufning to‘ni orqasidan yirtilganini ko‘radi va bundan xulosa chiqarib, Zulayhoga qarata: “Bu – siz ayollarning hiylasidir. O‘zingizni pok deb, gunohingizni boshqalarga yuklaysiz. Ayollarning hiyla-makri ko‘pdir” deb aytadi. Mana shu hikmatomuz gap foydaning janriy belgisini tashkil qiladi (1, 128-b.).

Yana bir foyda “Qissai me’roj an-nabiy sallallohu alayhi va sallam” qissasida bo‘lib, bunda ham hikmatomuz o‘g‘itning mazmuni beriladi. Foydaning mazmuni shundan iborat: Tangri jannat hurlarini yaratgandan beri, hurlar o‘zlariga oro berar ekanlar, hech bezanishdan tinmas ekanlar. Qiyomat kuni kelganda, ularning ko‘rki-tarovati ham yo‘q bo‘lar ekanu ammo ularning xoli bo‘lmagani uchun chiroydandan hech asar qolmas ekan. Qiyomat kuni kelganda, Tangri Bilol habashiyning qora rangidan jamiki jannat hurlariga nuqta-nuqta ulashib berar ekan. Hammasiga bittan xol tegar ekan. Shu xol bilan hurlarning chiroyi nihoyasiga yetar ekan (2, 157-b.).

Bu voqeadada ham ma’lum bir vaziyatga mos o‘g‘it, xulosa bor. Bu janr hikmatlarga yaqin turadi.

**Munojot.** Bu janr, asosan, islom payg‘ambarlari va xalifalari bayonida bor bo‘lib, Ollohning marhamatiga noil bo‘lganlari, endi yo‘ldan adashmasliklari uchun Undan marhamat so‘raganlari bayon qilingan (2; 112, 128. 136).

Xullas, “Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek adabiyoti tarixidagina emas, bal-

**ki** turkiy adabiyot tarixida ham o'ziga xos, takrorlanmas nasr namunasi-  
**dir**. Asarda istifoda etilgan janrlar XIV asr o'zbek adabiyotining rivoji-  
**dan** darak beradi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. "Qisasi Rabg'uziy"da Rabg'uziy o'zi haqida qanday ma'lumotlar keltirgan?
2. Rabg'uziy o'z asarini yozishda qanday manbalardan foydalangan?
3. Asarda Rabg'uziyning manbashunos va tanqidchi sifatidagi faoliyatini so'zlang.
4. "Qisasi Rabg'uziy"da qissa janri qanday shaklda va mazmunda ifodalangan?
5. Asarda hikoyat janri qanday shaklda va mazmunda ifodalangan?
6. Asardagi rivoyat janri haqida so'zlang.
7. "Qisasi Rabg'uziy"da she'riy janrlarga xos belgilar to'g'risida so'zlang.
8. Asardagi latifa janri haqida so'zlang.
9. Asardagi boshqa janrlar haqida so'zlang.
10. Sharq afsonalarida "Qisasi Rabg'uziy"dagi qissalarga hamohang syujetlar haqida so'zlang.

**Mahmud ibn Ali as-Saroyi (XIV asr).**  
**“Nahju-l-farodis” (“Jannatlarning ochiq eshiklari”) asari**

**Reja:**

1. Asarning yozilishi va muallifi masalasiga doir.
2. “Nahjul-farodis”ning tuzilishi.
3. “Nahjul-farodis”ning janr xususiyati.
4. “Nahj ul-farodis”da xalifa Usmon bilan bog‘liq hikoyatlar.
5. Abu Zar G‘afforiyga oid hikoyat.
6. “Nahj ul-farodis”da xalifa Usmonga oid hikoyatlar.
7. “Nahj ul-farodis”da xalifa Aliga oid hikoyatlar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *“Nahjul-farodis” asari, “Tazkirat ush-shuaro” asari, mulamma, qit‘a, diniy-axloqiy asar, shoir. “Turk adabiyoti” kitobi, tazkira, agiografik asarlar, voqeyiy hikoya.*

**Asarning yozilishi va muallifi masalasiga doir.** Mazkur asarning muallifi masalasida ko‘p bahslar bor. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirilar bo‘stoni”) asarining Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qismida quyidagi “mulamma” (qit‘a)ni keltiradi:

Turkiysin ko‘rub qilurlar erdi tarku tavba ham,  
Gar tirik bo‘lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy,  
Bovujudi forsi dar junbi she‘ri komilash,  
Chist ash‘ori Zahiru kist bori Anvariyy?<sup>94</sup>

Bu mulammadagi “Kardariy” taxallusli shoir hozirgacha bir qancha munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. Maqsud Shayxzoda “Tazkirachilik tarixidan” maqolasida quyidagicha fikrni aytgan edi: “Mazkur qit‘ada zikr etilgan Kardariy Xorazm o‘lkasining Kardar qishlog‘ida hijriy 761\ milodiy 1359-1360-yilda vafot etgan Mahmud ibn Ali degan shaxs, “Nahjul-farodis” nomli diniy-axloqiy asar muallifidir. Umrining bir qismini Oltin O‘rda poytaxti Saroy shahrida o‘tkazgan. Asarning bir necha nusxalari saqlanib qolgan. Bu asarning Kardariy tirik vaqtida xorazmlik

---

<sup>94</sup> Davlatshoh Samarqandiy. Shoirilar bo‘stoni. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1981, 189-b.

**ko'tib ko'chirgan nusxasi Xorazm shevasi va adabiy lahjasining tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Har holda Davlatshoh turkiy nazm ustasi deb ko'rsatgan Kardariy degan shoir ana shu Mahmud ibn Alidan boshqasi emas**"<sup>95</sup>. Nemis olimi N.Xofman ham Kardariy shaxsi haqida o'zining olti jildlik "Turk adabiyoti" kitobida ham ma'lumot bergan. Uning fikricha, "bu shoir...mashhur turkigo'y shoir Mahmud ibn Ali to-Saroyi Bulg'oriy Kardariydir. Kardar Xorazmdan bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"sidagi qit'asida uni tilga olgan. Tarixda Kardariy taxallusli shoirlar bir emas, bir necha bo'lgan. Lekin uning turkiy tilda yozilgan "Nahjul-farodis" asari bizga ma'lumdir".<sup>96</sup>

Saroyi to'g'risida shulardan boshqa ma'lumotlar hozircha ma'lum emas. Davlatshoh Samarqandiy bergan ma'lumot Kardariyning Lutfiy darajasidagi shoir ekanini ko'rsatadi. Ammo boshqa tazkiralarda Kardariy to'g'risida hozircha ma'lumotlarni uchratmadik. Ehtimol, Oltin O'rda adabiy muhitida yashab ijod qilgan aksariyat shoirlar tazkiraga kirmagan, ular to'g'risidagi ma'lumotlar uzuq-yuluq, Temuriylar sulolasi bilan Oltin O'rdadagi ijtimoiy va siyosiy munosabatlar adabiy jarayonga, xususan, Kardariy singari mashhur shoirlarning tazkiralardan o'rin olishiga monelik qilgan bo'lishi mumkin. "Nahjul – farodis"da uning biron bayt she'ri ham uchramaydi.

"Nahjul-farodis" asari hijriy 761 (milodiy 1360) yili yozilgan. Bu to'g'rida asarning nihoyasida aytilgan. Shuningdek, kitob muallifi oradan ikki kun o'tgach, "drulfanodan dorulbaqoga rixlat qilgani"ni, bu kitobdan ko'p allomalar foydalangani bayon qilingan. Kitob kotibining bu ma'lumotidan asar anchagina mashhur bo'lgani ko'rinadi.

**"Nahjul-farodis"ning tuzilishi.** Asar to'rt bobdan va har bir bob o'nta fasldan – jami qirq fasldan iborat. Bu asar "qirq hadis" (chihi hadis) ni sharhlagan va har bir hadisga oid hikoyatlar bilan bezalgan asardir. Bu asar "Qisas ul-anbiyo"lar turkumiga, ya'ni agiografik asarlar turkumiga mansub bo'lsa ham, payg'ambarlar tarixi bayonida afsonalar emas, balki tarixiy voqealar, rivoyatlar asosiy o'rin egallaydi. Qolaversa, "Nahjul-farodis"ni yozishda muallif turli ishonchli manbalarga tayangani uchun ham asarga ko'p allomalar murojaat etganlar.

"Nahjul-farodis"da eng diqqatga sazovor dalil – bu hadislaridir. Birinchi bobning birinchi faslidagi hadisga e'tibor qarataylik.

<sup>95</sup> Navoiyga armug'on. Toshkent, 1968, 37-b.

<sup>96</sup> Turk adabiyoti. 1969, 103-109-b.



*“Imom Bag‘oviy rahmhi “Mashobih” otlig‘ kitobinda bu hadisni keltirmish: Payg‘ambarimiz as. aydi: Tangri tvl. Ismoil payg‘ambar a.s. o‘g‘lanlarindin Quraysh qabilasini odurdi. Yana Quraysh qabilasindin Xoshim atlig‘ kishining o‘g‘lanlarini odurdi. Yana Xashim atlig‘ kishining o‘g‘lanlarindin meni o‘durdi, chiqardi. Bu ma‘nidin otru Payg‘ambar a.s.ga Mustafa at berildi. Mustafa arab tilincha odrulmish temak bolur (“Mazmuni: Imom Bag‘oviy rahmatullohi “Mashobih” degan kitobida quyidagi hadisni keltirgan. Payg‘ambarimiz as. shunday aytgan ekan: Tangri taolo Ismoil payg‘ambar o‘g‘illaridan Quraysh qabilasini tanlab oldi. Yana Quraysh qabilasidan Hoshim degan odamning o‘g‘illarini tanlab oldi. Yana o‘sha Hoshim degan odamning o‘g‘illari orasidan meni tanlab olib, o‘rtaga chiqardi. Shu sababdan Payg‘ambar a.s.ga Mustafo ismi berildi. Mustafo - arab tilida tanlab olgan ma‘nosini bildiradi”).<sup>97</sup> Hadisning manbai (Bag‘oviyning “Mashobih” asari) ishonchli ekani ko‘rinib turibdi.*

“Nahjul-farodis”ning birinchi bobida Muhammad alayhissalomda payg‘ambarlik sifatlarining zohir bo‘lishi va uning dini islom yo‘lidagi faoliyati bayon qilingan. Bobda hadislardan, Bag‘aviyning “Mashobih” asaridan tashqari, shayx Imom Is‘hoq Quloboziyning “Ta‘rif” kitobidan, Imom Sog‘oniyning “Mashoriq ul-Anvor” asaridan, Imom Abul Muhammad Ispijobiyning “Tafsir”idan, Imom Abul Alayh Ushiyning “Nishobul-Axbor” kitobidan, Shayx Abu Yazid Bustomiy, Abdulloh ibn Ma’sud kabilarning so‘zlaridan foydalangan. Barcha ulamo va fuzalolarining Muhammad a.s.ga tug‘ilgan paytidanoq payg‘ambarlik sifatleri va fazilatleri ato qilinganini bayon qiladilar.

**“Nahjul-farodis”ning janr xususiyati.** “Nahjul-farodis” tarixiy asar emas, payg‘ambar va xalifalar tarixi boshdan-oxirigacha bayon qilinmagan. “Nahjul-farodis” - agiografik asar, muallif payg‘ambar va xalifalar hayotining eng muhim nuqtalariga e‘tibor qaratgan. Jumladan, Olloh Taolo Muhammad a.s.ga payg‘ambarlik sifatini topshirishi, musulmonlikni ilk bor qabul qilgan Xadicha, Ali, Abu Bakr va Zayd to‘g‘risidagi qiziqarli voqealar, payg‘ambar a.s.ning Makkadan Madinaga borishi, uning mo‘jizalari va boshqa ko‘p voqealar “Nahjul-farodis”ni qiziqarli badiiy asar sifatida yaratishga asos bo‘lgan. Jumladan, mazkur asarning birinchi bobi, to‘rtinchi faslidan “Payg‘ambar a.s.ning Mak-

---

<sup>97</sup>Neheul-feradis, II, metin, Turk dil kurumi yayinlari: 518, s. 2 (Bundan keyingi misollar shu nashrdan olinadi. Shu bois asarning sahifasi matn ichida ko‘rsatiladi, xolos).

kadan Madinaga chiqmoq bayoni ichinda turur” nomli voqeaga e’tibor qarataylik. Bu voqea imom Abul Alayi Ushiyning “Nishob ul-axbor” kitobidan bir hadisni keltirish bilan boshlanadi. Hadis ma’nosi quyidagicha: “Qaysi bir mo’min va muvahhid g’ariblikda o’lar bo’lsa, Haq Taolo o’sha qulga shahidlar savobi ro’zi qilur, yana qabr azoblaridan saqlaydur”. Shundan so’ng quyidagi voqea keltiriladi:

Kunlarning birida Abu Jahl qurayshlarni yig’di. Bir uy bor edi. O’sha uyni dor ul-nadvo (saxiylik eshigi) der edilar. Qachon biron maslahat qilishga to’g’ri kelib qolsa, o’sha uyga yig’ilishar edilar. Shu orada Iblis o’zini bir qari chol suratiga o’xshatib, ularning orasiga kirdi. Qurayshlar so’radi: “Ey chol, sen kimsan?” Iblis javob berdi: “Men shayx Najdiyman, Najd elidan bir cholman. Eshitdimki, sizlarning bir mashvartingiz bor deb. Men ham ular orasida bo’layin, ularning so’zlarini eshitayin, bilayin, deb keldim”. Abu Jahl xursand bo’ldi. Shundan so’ng Abu Jahl gap boshladi: “Ey quraysh qabilasi, Muhammadning ishi kundan-kunga ziyoda bo’lib bormoqda. Qo’rqamanki, buning natijasida ko’p odamlar yig’ilishib, bizlarga zaxmat yetkazadilar deb. Endi bundan so’ng ishni bir yoqli qilsak”. Jumla xalq bu gapni ma’qul ko’rdi. Shundan so’ng Abu Jahl Xashshom degan kofirga aytdi: “Yo Xashshom, sening ra’ying qanday agar bu Muhammadni o’ldirsak?” Xashshom aytdi: “Mening ra’yim shuki, bu Muhammadni tutsak, bir quturgan tuyaga bog’lasak, sahroning bu boshidan —u boshigacha sahroda kezsak, o’shanda u halok bo’ladi”. Shayx Najdiy aytdi: “Bu ra’y behuda”. So’radilar: “Nega behuda?” Shayx Najdiy aytdi: “Uning do’stlari bor, qabilasi bor. Bu ishdan ular xabar topadilar, borib, Muhammadni xalos qiladilar”. Ma’qul ko’rdilar. Shundan keyin bir kofir aytdi: “Mening ra’yim shuki, o’sha Muhammadni bir uyga qamab, o’sha uyning tuynugini, eshigini berkitsak, Muhammad o’sha uyda ochlikdan o’ladi”. Shunda shayx Najdiy aytdi: “Bu ish ham yaramaydi, shuning uchunkim, do’stlari bilib qoladilar va eshikni ochib, chiqarib oladilar”. Abu Jahl so’zladi: “Mening ra’yim shuki, har bir qabiladan bittadan yigit chiqsa, ular kechasi yotgan yerga borsalar, qilich bilan hammasini chopib tashlasalar..”. Shayx Najdiy aytdi: “Valloh, bu ra’y nihoyatda to’g’ri”. Har bir qabiladan bir yigitni oldilar. O’tkir qilich bilan kelib, o’ldirmoqqa kelishib oldilar. Jabroil a.s. kelib, aytdi: “Yo Muhammad, kofirlar bu kecha kelib, seni o’ldirmoqchi bo’ldilar. Senga ishorat shu bo’ladiki, bu kecha chiqsang, Madina tarafga borsang,

u yerda kofirlarni u yerda islomga da'vat qilsang". Payg'ambar a.s. bu ahvolni Abu Bakrga aytdi. Abu Bakr shunday javob berdi: "Yo Rasululloh, nega siz yolg'iz borar ekansiz?! Men ham siz bilan birga borayin". Payg'ambar a.s. xursand bo'ldi.

O'sha kecha Payg'ambar a.s. va Abu Bakr tunda chiqib, ertalabgacha yo'l yurdilar. Tong otdi, kofirlar qarasalarki, Muhammad bilan Abu Bakr yo'q. Bildilarki, ular qochib ketibdilar. Abu Bakr nido qildi: "Kimki Muhammad bilan Abu Bakrni tutib keltirsa, yuzta tuyani suyunchi qilib beraman". Uch kungacha sahrani kezib chiqdilar, ammo topmadilar. O'sha kecha Abu Bakr bir soat Payg'ambar a.s.ning o'ng tomonida yurdi, keyin bir soat chap tomonida yurdi, bir soat oldida yurdi, bir soat orqasida yurdi. Payg'ambar a.s. aytdi: "Yo Abu Bakr, to'rt tomonimda yuribsan. Nimaga bir tomonimda yurmaysan?" Abu Bakr aytdi: "Yo Rasululloh, dushmanlardan qo'rqaman. Nogahon dushmanlar o'qi o'ng tomondan kelib qolsa, avval dushman o'qi menga tegsin, sizga tegmasin. Chap tomonga o'tib yuribman, buning ma'nisi shuki, agar dushmanning o'qi chap tomondan kelsa, menga tegsin, sizga tegmasin". Payg'ambar a.s. aytdi: "Yo Abu Bakr, hech qo'rqmaginki, Tangri Taolo biz bilan birgadir". Shu lahzada Tangri Taolo Abu Bakrning ko'nglida xotirjamlik paydo qildi. Shundan so'ng Payg'ambar a.s. ko'rsaki, bir otliq ko'rindi. Qachon o'sha otlik yaqin kelganda, ularga tomon kelayotganini bildilar. Payg'ambar a.s. aytdi: "Ey Rabbii, uni ushla!" Shunday deb aytgan zohoti, otning to'rt oyog'i yerga botib ketdi. Otliq chaqirdi: "Ey Muhammad! Meni qo'yib yubor! Men ruju qilayin, senga zaxmat yetkazmayman!" Payg'ambar a.s. aytdi: "Yo Rabbii! Agar rost aytayotgan bo'lsa, Sen ijozat bergin", degan edi, o'sha zohoti otning oyoqlari yerdan chiqdi, o'sha otliq qaytib ketdi. Shundan keyin ikkovi ancha yurdilar. Payg'ambar a.s.ning muborak oyoqlari xastalandi, yura olmay qoldi. Abu Bakr Payg'ambarni orqasiga ko'tardi. Ertalabgacha yurdilar. Tong otdi. Ko'rsalarki, Yuz degan tog' etagiga yetib kelibdilar. O'sha tog'ning etagida bir g'or bor edi. O'sha g'orga kirmoqchi bo'ldilar. Abu Bakr aytdi: "Yo Rasululloh, men oldin kirayin, ko'rayin, odamzodga ozor beradigan jonivorlar bo'lmasin, tag'in". Abu Bakr kirdi, qaradi. Undan keyin Payg'ambar a.s. kirdi. Abu Bakr qarasaki, bir teshik bor ekan. Oyog'ini o'sha teshikka qo'ydi, toki o'sha teshikdan ilon kirib, Payg'ambar a.s.ga zaxmat yetkazmasin deb. Bir ilon keldi, o'sha teshikdan chiqmoqqa qasd qildi, Abu Bakrning oyog'iga kallasini tegizdi. Abu Bakr yo'l berma-

gan edi, Abu Bakrning oyog‘ini chaqdi. Zahri qattiq ta’sir qildi. Abu Bakr oyog‘ini olmadi, toki Payg‘ambar a.s.ga zarar keltirmasin deb. Payg‘ambar: “U ilon Payg‘ambar a.s.ga salom bermoq uchun chiqayotgan edi”, dedi. Qarasaki, Abu Bakrning ko‘zidan shashqator yosh oqardi. Payg‘ambar a.s. aytdi: “Yo Abu Bakr, oyog‘ingni ko‘tar, ilondan yo chayondan qo‘rqmagin, Haq Taologa tavakkul qilgin, Haq Taolo biz bilan birgadir”.

Shundan keyin kofirlar Payg‘ambar a.s.ning izidan ketdilar, g‘or og‘ziga yetib keldilar. Haq Taoloning amri bilan o‘rgimchak g‘or og‘ziga to‘rini to‘qidi. Kofirlar aytdilar: “Agar bu g‘orga Muhammad kirganda edi, bu o‘rgimchak uyi buzilgan bo‘lardi. Bu yerda yo‘q”, deb ortlariga qaytayotganlarida, Abu Jahl aytdi: “Xotiringa shunday kelurki, Muhammad shu yaqin orada turibdi. Bizga sehr-jodu qilyapti, shu bois ko‘rmayapmiz”. U bir kofirga aytdi: “Tush, bu g‘orga kirgin”. Umayya ibn Xalaf aytdi: “Muhammad tug‘ilmasdan oldin o‘rgimchak bu inini to‘qigan. Muhammad bu yerga kirganda edi, bu o‘rgimchak ini buzilmasmidi?!” Shunday qilib, Abu Jahl va uning do‘stlari qaytib ketdilar.

Payg‘ambar a.s. va Abu Bakr o‘sha g‘orda uch kun turdilar. Uch kundan keyin chiqib. Madina tarafga yo‘l oldilar. Oziqlar tugadi. Undan so‘ng bir arab qabilasiga keldilar va aytdilarki: “Sizlarda sotgani go‘sht yoki xurmo bormi? Sotib olardik”. Chodirdan bir ayol chiqdi, oti Ummi Muid edi. Aytdi: “Yaxshi mehmon ekansizlar. Sizlarni mehmon qilar edim, lekin qahatchilik yili bo‘ldi, uyimda hech narsa yo‘q. Erim Abu Muid qo‘ylarni o‘tlatgani olib ketgan. Qo‘ylarimiz bu yerda bo‘lsa edi, sizlarga sut bergan bo‘lardim”. Payg‘ambar a.s. aytdi: “Yo Ummi Muid! Chodir yonida yotgan qanday qo‘y?” Ummi Muid aytdi: “Bu qo‘y juda oriq qo‘y, hech suti yo‘q. Qo‘ylar bilan bora olmasdan, bu yerda yotibdi”. Payg‘ambar a.s. aytdi: “Yo Ummi Muid, ijozat berarmisan uni sog‘moqqa?” Ummi Muid aytdi: “Ijozat beraman, agar sut chiqsa sog‘ing”. Payg‘ambar a.s.: “Qo‘yni menga olib kelinglar!” deb buyurgan edi, olib keldilar. Payg‘ambar a.s. “Bismillahi-r-Rahmanir-Rahim” deb muborak qo‘lini qo‘yning yeliniga tegizdi. Darrov o‘sha qo‘yning yelini kattalashib, qo‘y semirdi. Shundan keyin Payg‘ambar a.s. aytdi: “Yo Ummi Muid! Uyda karson bor bo‘lsa, olib kel”. Ummi Muid bir karson keltirdi. Payg‘ambar a.s. muborak qo‘li bilan sog‘di, karson to‘ldi. Payg‘ambar a.s. ikki qo‘li bilan u karsonni ko‘tardi va Ummi Muidga ichirdi. Ancha ichgach, to‘ydi. Keyin Abu Bakrga ichirdi. Undan ke-

yin o'zi ichdi. Payg'ambar a.s. ikkinchi marta sog'di. Karsonni to'ldirdi, Ummi Muid uyida qoldirdi, ketdilar.

Kechqurun Abu Muid keldi. Qarasa, uyda bir karson sut turibdi. Taajjublandi, aytdi: "Yo Ummi Muid! Bu qanday hodisa? Qo'ylar uzoqda edi, uyda sog'iladigan qo'y yo'q edi. Bu sut qaydan keldi?" Ummi Muid javob berdi: "Biznikiga bir mehmon keldi, nihoyatda muborak mehmon, ko'rkam yuzli, shirin so'zli, o'rta bo'yli kishi ekan. Bu oriq qo'yga muborak qo'lini tekizgan edi, qo'y shunchalik semirdiki, ko'rsang, yelini katta bo'lib ketdi. O'z qo'li bilan sog'di, bir karson to'ldi. Uni hammaga o'z qo'li bilan ichirdi, keyin o'zi ichdi. Ikkinchi marta sog'di, bir karson to'ldi, unisini uyga qoldirib ketdi". Abu Muid aytdi: "Men eshtdimki, Makkada bir payg'ambar chiqibdi deb, Muhammad der ekanlar. Xaloyiqni Haq yo'liga undar deb ayturlar. Bu aytganing o'sha bo'lsa kerak. Bunday mo'jiza payg'ambarlardan o'zgasida bo'lmas. Agar Tangri umr bersa, boraman". Yana Ummi Muidga aytdi: "Menga u odamning sifatini yaxshilab aytib ber. Agar borsam, yanglishib qolmay. Yaxshilab bilib olayin. Yigit kishimi yoki qarimi?" Ummi Muid aytdi: "Yigit kishi. Mo'ylovi qora, ochiq yuzli, qiyofasi haybatli, juda uzun bo'yli ham emas, kalta bo'yli ham emas, o'rta bo'ylidir. Qoshlari ochiq, juda semiz ham emas, oriq ham emas, o'rtachadir. Vazmin odam, serharakat emas. Tishlari tekis, yuzi to'lin oyday porlagan. So'zlaganda, ochiq, dona-dona gapiradi, pala-partish so'zlamaydi. Kafti katta, ko'zlari pastga ko'proq boqadi, yerga qaraydi. Bir oz boshini orqaga tashlab, ko'kka boqar. Soqoli o'rtacha, uzun ham emas, ko'sa ham emas. Qattiq yurmas ekan, yurganda, ohista yurar ekan".

Payg'ambar a.s. Makkadan chiqqanda Abu Bakrga, Madinaga qanday borish kerak. deb maslahat solgan edi. Abu Bakr aytdi: "Ikki-ta tuya sotib oldim. sakkiz yuz yarmoqqa. Biriga siz minasiz, bittasiga men minaman, ketaveramiz". Payg'ambar a.s. aytdi: "Bizga bir qulovuz (yo'l boshlovchi) kerak". Abu Bakr aytdi: "Abdulloh otlig' odam bor, u Madina yo'llarini yaxshi biladi". O'sha Abdullohni darrov olib keldilar. Yana Abu Bakrning bir ozodi bor edi, Amir degan. Abu Bakr unga aytdi: "Sen ikki tuya bilan Abdullohni olib, Savr otli tog' etagida g'or bor, biz chiqqandan so'ng uch kun o'tgach, o'sha yerga kelasan". Ular uch kundan keyin keldilar. Abu Bakr bilan Payg'ambar a.s. bir tuyaga mindilar, ular ikkalasi bitta tuyaga mindilar. Ular ketib, Madinaga yaqinlashdilar. Bir yahudiy Payg'ambarning yo'lini to'sdi. Keyin borib,

Madina xalqiga xabar berdi. Madinada ko‘p sahobalar bor edi, ba‘zisi Madinadan, ba‘zisi Makkadan. Umar *razhu* Madinada edi. Hamma sahobalar sevindilar. Payg‘ambar a.s. Madinaga kelganidan bir-birlariga xabar berdilar. Hammalari qurollandilar, urushga borayotganday kofirlarni qo‘rqitish uchun. Payg‘ambar a.s.ning istiqboliga chiqdilar. Payg‘ambar a.s. sahroda bir yig‘och narida manzil qilib turar edi. Madinadan chiqqanlar u yerda Payg‘ambar a.s.ga duch keldilar, u bilan ko‘rishdilar. Hamma sahobalar sevindilar. Shundan keyin Payg‘ambar a.s.ga Enshor qabilasi aytdiki: “Yo Rasululloh, biznikiga manzil qilsangiz bo‘ladimi? Bog‘chalarimiz, yerlarimiz keng”, dedilar. Payg‘ambar a.s. aytdi: “Manovi Qashva otlig‘ tuyaga minayin, hech kimsa zaxmat tortmasin. Qaysi eshik oldida bu tuya cho‘ksa, men o‘sha uya tushaman”. Hamma sahobalar rozi bo‘ldilar.

Juma kuni edi. Payg‘ambar a.s. Qashva otlig‘ tuyasiga mindi. Hamma sahobalar otlandilar. Ko‘pchilik yayov chiqib turgan edilar. Madina shahrida Payg‘ambar a.s.ning jamoliga mushtoq bo‘lganlar ko‘p edi. Payg‘ambar a.s.ni ko‘rmasdan, sahobalar oldida imon keltirib turar edilar. Jamiki xaloyiq Madinaga yuzlandilar. Qaysi qabiladan Payg‘ambar a.s. o‘tar bo‘lsa, o‘sha qabilaning ulug‘i chiqib, Payg‘ambar a.s.dan iltimos qilsa, Payg‘ambar a.s. ularga xayr va barakot bilan duo qilur edi va yana aytar edi: “Mana shu Qashva otlig‘ tuyam qaysi eshikda cho‘ksa, men o‘sha xonadonda mehmon bo‘laman”. Madinaning jamiki ulug‘lari, mo‘minlari orzu qilar edilarkim, Payg‘ambar a.s.ning tuyasi bizning eshigimiz oldida cho‘karmikan, shunday bo‘larmikan, deb. Tuya hech cho‘kmas edi, o‘tib ketaverar edi. Anchaga qadar bordi, Ayyub Ansoriy eshigiga cho‘kdi. Payg‘ambar a.s. ham tuyadan tushdi, masjidga kirdi. Hamma sahobalar ham kirdilar, juma namozini ado etish uchun. Payg‘ambar a.s. minbarga chiqib, xutba o‘qidi. Minbardan tushib, imomatlik qildi. Hamma sahobalar iqtido qildilar. Namozdan chiqib, Payg‘ambar a.s. Ayyub Ansoriy uyiga kirdi. Ayyub Ansoriy shod bo‘ldi.

Hamma sahobalar uylariga borib, kuchlari yetgancha Payg‘ambar a.s.ga hadya tayyorladilar. Zayd ibn Sobit aytur: “Men olti yashar edim. Onam bir idishga non to‘g‘radi, non ustiga sarig‘ yog‘ qo‘shdi, yana ozgina sut qo‘shdi, keyin idish ustini yopdi. Keyin menga aytdiki, o‘g‘lim, bor, Ayyub Ansoriyning uyiga kirgin, Payg‘ambar a.s.ga salom ber, aytginki, Onam sizga taomni hadya qilib berdi, deb. Men onam aytganiday qildim, Payg‘ambar a.s. menga aytdi: Tangri Taolo senga barakot bersin, dedi. Hamma sahobalar yig‘ildilar, u hadyani tanovul qildilar”.

Ayyub Ansoriyning onasiga zaifalar kelib so‘rardilar: “Payg‘ambar a.s. qaysi taomni yoqtiradi? Biz o‘sha taomni tayyorlab olib kelaylik”. Ayyub Ansoriyning validasi shunday deb aytar edi: “Payg‘ambar a.s. bizga hech buyurmaganlarki, falon taomni pishiring, deb. Oldiga qanday taom kelsa, hech ayb topmasdi. Agar kerak bo‘lsa tanovul qilardi, agar keraksiz bo‘lsa, totib ko‘rar va yoronlariga ayturkim: Sizlar tanovul qilinglar, deb. Bir kun taom pishirdik, hech tatib ko‘rmadi. Men va o‘g‘lim nihoyatda qayg‘urdik. Men aytdim: Yo Rasululloh, hamisha taom pishirsak, tanovul qilar edingiz, doim qolgan taomni sizning muborak qo‘lingiz tegdi, deb tabarruk qilib yeyar edik. Bu kun nima bo‘ldiki, bu taomni yemadingiz, deb so‘ragan edim, menga shunday dedi: Ey Ayyubning onasi, bu taomda sarimsoq hidi burnimga keldi, men Haq Taologa munojot qilaman. Og‘zim sassig‘i bilan qanday qilib munojot qilayin?! Bu taomni o‘g‘ling Ayyub bilan tanovul qilinglar, deb aytdi”.

Shundan keyin Madina ichida qancha musulmonlar, mo‘minlar bor bo‘lsa, hammasi Payg‘ambar a.s.ga kelib, salom qilib, bayot berdilar. Payg‘ambar a.s. qo‘li bilan o‘sha bayot berganning qo‘lidan ushlab, aytar edi: “Haq Taolo farmonidan chiqmagaysan, Haq Taoloning rasuli Muhammad Rasululloh farmonidan chiqmagaysan. Qaysi ishga amr etsa, qilgaysan, qaysi ishdan qaytarsa, qaytgaysan...”, deb aytsa, o‘sha bayot berganlar “Qabul qildik”, deb aytar edilar. Shundan keyin xotinlar yig‘ildilar, oqshom Ayyubning onasi oldiga keldilar va aytdilar: “Payg‘ambar a.s.dan izn so‘ragin, bizlar ham Payg‘ambar a.s.ning muborak jamolini ko‘raylik, juftlarimiz bayot berganlari kabi, bizlar ham bayot beraylik”, dedilar. Ayyub onasi Payg‘ambar a.s. hazratlari oldiga kirdi. Ijzat so‘ragan edi, Payg‘ambar a.s. ijzat berdi. Ayyubning onasi bu xotinlarni boshlab kirdi. Avval Ummi Sa‘d otlig‘ ayol Payg‘ambar a.s.ga salom berdi, Payg‘ambar a.s. alik oldi. Shundan keyin so‘radi: “Ey zaifa, isming kim?” Ayol javob berdi: “Yo Rasululloh, ismim Ummi Sa‘d”. Payg‘ambar a.s. so‘radi: “Otangning ismi kim?” Ayol javob berdi: “Otamning ismi Ra‘fdir”. Payg‘ambar a.s. so‘radi: “Menda qanday hojating bor?” Ummi Sa‘d aytdi: “Yo Rasululloh, Tangri Taoloni Biru bor deb imon keltirdik, sizni Haq Taoloning rasuli deb bildik. Endi juftlarimiz sizga bayot berdilar, bizlar ham keldik sizga bayot bermoqqa”, dedi. Payg‘ambar a.s. aytdi: “Shukrkim o‘sha Tangrigakim, sizlarni Islomga ko‘ndirdi”. Shundan keyin aytdi: “Ey zaifalar, hammangiz kelinglar, oldimda o‘tiring”, degan edi, hammalari Payg‘ambar a.s. oldida o‘tirdilar.

Payg‘ambar a.s. oldiga bir piyola bilan suv qo‘ydi, muborak qo‘lini suvga botirdi, zaifalarga aytdi: “Erkaklardan bayot olsam, qo‘llarini tutib bayot olurman, ammo siz – zaifalarning qo‘llarini tutmoq bo‘lmas. Qachon men qo‘limni bu piyoladan chiqarsam, sizlar qo‘llaringizni botirgaysiz”, dedi. Shundan keyin Payg‘ambar a.s. aytdi: “Ey zaifalar, Tangri Taoloni bilgandan keyin, Tangriga o‘rtoq bo‘lib qo‘shilmagaysiz” degan edi, ular “Qabul qildik”, deb javob berdilar. Yana Payg‘ambar a.s. aytdi: “Ey zaifalar, erlaringizning mollaridan o‘g‘irlamagaysiz, zino qilmagaysiz, o‘g‘illaringizni o‘ldirmaysiz, boshqadan tug‘ilgan o‘g‘lonni erlaringizga: “Buni men tug‘dim”, deb aytmysiz, o‘lim-yitimda far-yod qilib yig‘lamaysiz, to‘ningizni yirtmagaysiz, sochlaringizni yulmagaysiz, yuzlaringizni yulmagaysiz, begona erkaklar bilan xilvat yerda so‘zlashmagaysiz”, deb aytgan edi, zaifalar: “Hammasini qabul qildik”, dedilar. Payg‘ambar a.s. piyoladan qo‘lini chiqardi. Bu zaifalar qo‘llarini o‘sha piyolaga botirib, qo‘llarini yuzlariga surtar edilar. Shundan keyin Payg‘ambar a.s. ijozat berdi, zaifalar chiqdilar.

Shundan keyin Makkadan ko‘p sahobalar kela boshladilar. Payg‘ambar a.s. Madina xalqiga aytdi: “Makkadan kelganlarni qadrlanglar, yerini, yurtini tashlab, bizning suhbatimizda bo‘lmoq uchun g‘ariblikni ixtiyor qilib keldilar. Ularni lutfu karam bilan qarshi olsalaringiz”, dedi. Madinada turganlarni Makkadan kelganlar bilan qarindosh qildi. Makkadan hijrat qilib kelganlarga muhojir deyilur, Madina xalqi Makkadan kelganlarga yordam berdilar, qarshi oldilar, lutfu karam ko‘rsatdilar, ularga ansoriy deyilur.

Mazkur faslni to‘liq keltirishdan maqsad shuki, “Nahjul-farodis”da Muhammad a.s. hayotida yuz bergan voqealar, bir tomondan, voqeyiy hikoyaga mansubligi ko‘rsatish, ikkinchi tomondan, axloqiy-ta’limiy aqidalar, mo‘jizaviy voqealar bu asarni didaktik asar sifatida shakllantirishga xizmat qilganini dalillash edi. Shuningdek, sarguzasht janrining xususiyatlari ham mazkur hikoyatda o‘z aksini topgan. Hikoyatda o‘rgimchakning qisqa muddatda g‘or og‘iga to‘r to‘qishi, tuyaning hech qayerda tiz cho‘kmay, Ayyub Ansoriy eshigi oldida tiz cho‘kkani va Payg‘ambar a.s. uning uyida mehmon bo‘lgani kabi voqealar “Nahj ul-farodis” hikoyat va rivoyatlarida sarguzasht janrining ayrim qirralarini paydo qilgan.



Darvoqe, “Nahjul-farodis”ni janr nuqtai nazaridan belgilash talab etilsa, bu asar bir necha janrlarni – tarixiy voqealar hikoyat, rivoyatlar zaminida berilganini inobatga olgan holda, didaktik janrga mansub deb qarash maqsadga muvofiq. Zotan, hadislarni keng sharhlash asosida yuzaga kelgan hikoyat va rivoyatlarning har biri ma’lum bir g’oyani – to’g’riqlik, halollik, rahm-shafqat kabi fazilatlarni shaklantirishga xizmat qiladi. Insoniyatni ma’rifatga chorlash, komillik sari da’vat qilish kabi fazilatlarni Mahmud Ali har bir bobda ilgari suradi.

Mahmud Ali bu bobda Muhammad a.s.ning vafotiga qadar bo’lgan voqealarni bayon qilar ekan, doimo ma’lum bir voqeani biron manbadan keltirilgan iqtibos yoki hadis orqali tasdiqlab boradi.

“Nahjul-farodis”ning ikkinchi bobida xalifa Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va to’rtala imom – Imomi A’zam, Imom Shofe’, Imom Malik, imom Ahmad va “ahli bayt” Fotima, Hasan va Husaynga oid voqealar bayon qilingan. Bobning har bir fasli bir xalifaga – birinchi fasl Abu Bakr (Siddiq)ga, ikkinchi fasl – xalifa Umarga, uchinchi fasl - xalifa Usmonga, to’rtinchi fasl – xalifa Aliga bag’ishlangan. Qolgan fasllar Fotima, Hasan va Husayn, Imom A’zam, Abu Xanifa, Imom Shofe’, Imom Malik, Imom Ahmad Xanbalga oid voqealarni o’z ichiga oladi.

Asarda Abu Bakr Payg’ambarning eng yaqin do’sti, shijoatli sahobasi ekanligi Imom Sog’oniyning “Mashoriq ul-anvor” nomli kitobidan keltirilgan hadis orqali dalillanadi. Masjidga istagan darvozadan kirish uchun imtiyoz faqat Abu Bakrga berilgani to’g’risidagi hikoyat yoki Abu Bakr yettita zaif qulni sotib olib, ularning jonini saqlab qolish uchun uyiga olib kelib, mehribonlik ko’rsatgani to’g’risidagi hikoya ibratli; asarda islom endigina hayotga kirib kelayotgan paytda islom fidoyilari-ning jonbozliklarini hayotiy voqealar orqali dalillaydi.

**“Nahj ul-farodis”da xalifa Usmon bilan bog’liq hikoyatlar.** Mahmud Ali xalifa Usmon to’g’risidagi bobda uning hayotiga oid yettita voqeani tanlab oladi. Har bir hikoya takrorlanmas, xalifa Usmonning biron qiyofasini, ayni paytda uning atrofidagi boshqa tarixiy shaxslarning hamda o’z davridagi insoniyatning ichki olamini ochib berishga xizmat qiladi. Ayni paytda hikoyatlar bir-birini to’ldirib boradi. Usmon Payg’ambar alayhissalomning hurmatiga benihoya sazovor bo’lgani, Payg’ambar hatto uni Abu Bakr va Umardan ham ortiq izzat qilgani to’g’risidagi hikoyatdan boshlanib, Usmonning qarg’ishi bir kechada bir nokasni qo’lsiz, oyoqsiz, ko’zsiz qilib qo’ygani to’g’risidagi hikoya bilan tugaydi.

Mahmud Ali hikoyatlarni turli manbalardan olgan, ammo voqealar bayonida shunchalik izchillikni saqlaganki, xalifa Usmon – xalifa va amir ul-mo‘minin hamda Payg‘ambarning eng yaqin, suyuqli safdoshi ekani kitobxonda unga nisbatan chuqur hurmat uyg‘otadi, voqealar bir-biriga bog‘lanib, yaxlitlik kasb etadi. Xalifa Usmonning shijoati, adolati shu o‘rinlarda yanada aniq ko‘rinadi. Quyidagi voqeaga diqqat qilaylik: xalifa Umar vafotidan keyin, Usmon xalifalik taxtiga o‘tirdi. Xalifa Umar davrida Damashq begi bo‘lib tayinlangan Muoviya oldingiday beklik qilaverdi. Bu yerda Abu Zar G‘afforiy degan ulug‘ yoshli, Payg‘ambar xizmatida bo‘lgan sahobaga ko‘p odamlar xizmat qilardi. U parhyezkorlik bilan umr kechirar, Umardan ko‘rsatma olib, shoyad shahidlik nasib qilib qolsa deb, Shomga g‘azot uchun lashkarga bosh bo‘lgan edi. Ammo unga shahidlik nasib bo‘lmagach, Damashqda qoldi. Damashq begi Muoviya bu yerda katta saroylar qurdirdi. Abu Zar kelib, Muoviya: “Sen Payg‘ambar *a.s.*ni ko‘rgansan, uylarini ham ko‘rgansan, ammo Payg‘ambardan o‘rnak olmaysan. Payg‘ambar *a.s.* qachon bunday saroylarda o‘tiribdiki, sen o‘tiribsan?! ” deb ta‘na qildi. Muoviya esa amirul-mo‘minin Usmonga maktub yozdi. Maktubida Abu Zardan shikoyat qilib, u meni hurmat qilmaydi, xizmatimni qilmaydi, yoningizga olib ketsangiz, deb iltimos qiladi. Usmon Abu Zarni Damashqdan Madinaga olib keldi va unga nasihatlar qildi. Kunlarning birida Usmonning huzurida Ka‘bul-axbor o‘tirgan ekan. Abu Zar G‘afforiy amirul-mo‘minin Usmonga, boylarga buyuring, darveshlar, miskinlar zakot berishlari kerakligini uqtirsinlar, deb aytdi. Shunda Ka‘b ul-axbor, zakot berish farz, zakotdan boshqa narsa berish farz emas, deb uqtiradi. Shunda Abu Zar: “Ey yahudiy bolasi! Sen nega amirul-mo‘minin Usmon hazratlari huzurida menga shakkoklik qilib o‘rgatyapsan?” deb qo‘lidagi hasa bilan Ka‘bul-axborning boshiga urib yordi. Amirul-mo‘minin Usmon Abu Zarga, sen tilingni, qo‘lingni musulmonlardan yig‘ib tur, Ka‘b ul-axborning bu so‘zlari uchun urmoq yoki so‘kmoq shariatda yo‘q, bu qilganing yaxshi emas, deb tanbeh beradi. Shundan so‘ng amirul-mo‘minin Usmon Abu Zarga shunday maslahat berdi: “Ey Abu Zar, sen mana shu odamlardan uzoq tursang, odamlarning yomon ishlarini ko‘rmasang, Haq Taologa ibodat qilsang, tunu kun Haq bilan birga bo‘lsang”. Abu Zar rozi bo‘ldi. Usmon undan, Zabda degan joyga borasanmi, deb so‘ragan edi, Abu Zar o‘sha joyga borishga rozi bo‘ldi. Amirul-mo‘minin Abu Zarni xotini bilan kimsasiz Zabdaga jo‘natdi. Er-xotin u yerda uzoq yas-

hadilar. Bir kun Abu Zar kasal bo'lib qoldi. Xotini, agar o'lib qolsangiz, na yuvadigan bir odam, na kafan, na janoza o'qiydigan odam bor, deb yig'ladi. Shunda Abu Zar xotiniga, tepalikka chiqib, yo'lga qara, kimsa kelyaptimikan, dedi. Xotini karvon kelayotgani haqida eriga aytdi. Xotin karvonni chaqirdi. Odamlar kelib, ahvolni bildi. Odamlar Abu Zarni tanidilar. Abu Zar ularga Payg'ambar as.ning bashoratini aytib berdi. Payg'ambar hayotligida sahobalariga shunday degan ekan: "Orangizda bir odam bor, u sahroda vafot etadi. Uning oldida hech kim bo'lmaydi. Haq Taolo bir to'da odamni yuboradi. O'sha odamlar uni yuvadilar, kafanlaydilar, namoz o'qiydilar va dafn qiladilar. Payg'ambar as. bu so'zni men haqimda aytgan ekan. Haq Taolo sizlarni yuboribdi. Endi mening kafanim yo'q, menga kafan topsalaringiz. Ammo meni shunday odam kafanlashi kerakki, u umrida beklilik qilmagan bo'lsin, elchi bo'lmagan bo'lsin, hatto mahallada ham bosh bo'lmagan bo'lsin." Shu payt odamlar orasidan bir yigit chiqib, o'sha aytganingiz menman, deb javob berdi. U yigit yuklari orasidan kafanlik olib keldi. Abu Zar vafot etgach, uni yuvdilar, namoz qildilar va dafn etdilar. Karvonboshi Ibn Mas'ud Abu Zarning xotinini Madinaga olib keldi.

Mahmud Alining nasr ustasi ekani ana shunday o'rinlarda yanada aniq ko'rinadi. Voqealar nihoyatda ta'sirchan, dramatik lavhalarga boy. Xalifa Usmonning ulug'larga bo'lgan izzat-ikromi, e'tiqod va insoniylik yo'lida har qanday gunohlarni kechirishi, Abu Zarning ulug' mutasavvuf sifatida e'tirof etilishi voqealari, Abu Zarning o'z e'tiqodi yo'lidagi qat'iyati bu lavhalarni tom ma'nodagi hikoyat deb qarashga imkon beradi. Abu Zar e'tiqodiga mos ravishda kimsasiz sahroda yashash uchun amirul-mo'minin Usmonning taklifini bajonidil qabul qildi. Zotan, Abu Zar uchun eng maqbul joy sahrodir. Bu yerda u gunohkor insonlarning kirdikorlarini, munofiqliklarini ko'rmaydi, ruhan azob chekmaydi. Shu tariqa Mahmud Ali Muoviyaning ham, Abu Zarning ham, Usmon va Ka'b ul-axborning ham fe'l-atvorini yaxshi ochib beradi, har birining hayotidagi biron diqqatga sazovor voqeadan hikoya janrini shakllantirib, adabiyotni boyitdi.

**"Nahj ul-farodis" da xalifa Usmonga oid hikoyatlar.** Asarda xalifa Usmonning o'limi lavhasi ham nihoyatda ta'sirli.

"Abu Qalaba aytur: Shomdin Madinaga keldim. Usmon raznu shahid bo'lmishdin so'ng Madina ichida yurar erkan, bir mahallada ko'rar

man xalayıqlar yig'ilib tururlar. Bu xalayıq ichida bir kimarsa chaqirur. Men taqi keldim, baqar man bir kimarsa yotur, yekki ko'zi, elgi tirsagidin yo'q taqi yekki adag'i tizidin yo'q taqi ham qulaqi sag'ir. Bu kimarsa faryod qilur kim: Men dunyaning badbaxti bo'ldum taqi axiratning ham badbaxti bo'ldum taqi abadiy tamuqlug' bo'ldum tep chaqirur. Men aytim: "Sen kim bo'lur san?" tedim ersa, o'l kimarsa aytdikim: Men O'smanni o'lturganlar chiqmishdin so'ng yevinga kirdim. Baqar men O'sman qanqa bulg'aship yatur erdi, valekin hanuz jani bar erdi; taqi xatuni Naila O'sman uzaringa baqip turur erdi. Ani bir urdum ersa, o'l yig'ladi, O'sman taqi yig'ladi taqi manga qarg'adi taqi aydi: Haq Taala ekki ko'zungni alsun taqi ekki qulaqingni alsun taqi ekki elgingni alsun taqi ekki adaqingni alsun taqi seni abadiy tamug'lug' qilsun tep qarg'adi. Evumka bardim taqi kecha yattim. Tushumda bir kimarsa keldi taqi ekki ko'zumni chiqardi taqi ekki qulaqimni chiqardi taqi ekki elgimni kesdi taqi ekki adag'imni kesti ersa qoptum, baqarman, ekki ko'zum taqi ekki qulaqim yo'q taqi ekki elgim yo'q taqi ekki adaqim yo'q. O'smanning qarg'ishi manga jumlası yetti. Emdi tamug' o'ti qalip turur, har ayna ol taqi kelgusi turur, aning qarg'ishi bo'lg'usi turur, tep chaqiru yatur. Men aydim: Halakatlik bo'lsun sanga mundin artuqraq kerak, aning teg xalifani, Payg'ambarning kudagusini o'lturdung, tedim taqi aning qatindın yıraq kettim, tedi" (96-bet).

Amir ul-mo'minin Usmondan so'ng xalifalik taxtiga o'tirgan Ali obrazi va u bilan bog'liq muhim voqealarga Mahmud Ali to'xtalar ekan, u bilan bog'liq voqealarnı Imom Muslim Nishoburiyning "Sahih" nomli kitobidan hadis keltirish bilan boshlaydi. Hadisda Muhammad a.s. o'zini Muso payg'ambar bilan, Alini Horun bilan qiyoslaydi, ya'ni Xorun Musoning vaziri bo'lgani kabi, Alini o'zining vaziri deb e'tirof etadi. Bu e'tirofni dalillash uchun Mahmud Ali Enas ibn Malikning quyidagi hikoyasini keltiradi.

Bir kuni Payg'ambar a.s. xizmatida edim, Payg'ambar alayhissalomga bir qush etini keltirdilar. Payg'ambar a.s. aytdi: "Ey Bor Xudoyo, xaloyiq orasida shunday bir zot borki, u Sening huzuringda to'g'ri, suyuqli bo'lsa, o'sha zotni mening huzurimda hozir qilginki, men mana shu qush etini o'sha zoti bilan birga tanovul qilayin". Payg'ambar a.s. duosini tugatishi bilan oq bir zot eshikka kelib, kirish uchun izn so'radi. Men

o‘rnimdan turib, eshikni ochdim. Ne ko‘z bilan ko‘rayinki, Ali ibn Abu Tolib eshik oldida turardi. U uyga kirib, qush etini Payg‘ambar a.s. bilan birga tanovul qildi.

Bu hikoyatda xalifa Ali, hadisda aytilganday, Payg‘ambarning eng yaxshi ko‘rgan hamrohi ekani bayon qilinsa, Suxayl ibn Saidning hikoyasida Ali qudratli pahlavonlar singari jasoratli, qo‘rqmas, bahodir lashkarboshi sifatida hech kim ololmagan Xaybar qal‘asini bir hamla bilan olgani hikoya qilinadi, xalifa Alining xatti-harakatlari xuddi xalq og‘zaki ijodidagi yakka qahramonlik motivlarini eslatadi, Ali epos qahramonlari singari qahramon kitobxon ko‘zi oldida gavdalanadi: “Bir hamla qildi taqi quvvat qildi erdi, hisor qapug‘ini yiqti taqi jumla cherig hisor iching kirdilar taqi juhudlarni halok qildilar taqi Haybar elini oldilar” (98-bet). Alining yuqoridagiday eposlardagi yakka qahramonga xos sifatleri Abu Rafining hikoyasi orqali ham dalillanadi.

Xalifa Ali - jasoratli, dushmanlarga ayovsiz, farzandlariga esa mehribon ota. U hatto vafotidan keyin ham birinchi naavbatda, inson sifatida, qolaversa, shijoatli va qahramon amirul-mo‘minin sifatida ulug‘lanadi. Alining vafotidan keyin ham ulug‘langaniga oid ikki rivoyatni Mahmud Ali keltirar ekan, o‘z davridan keyin ham xalq orasida ulug‘ bir zot sifatida e‘tirof etilishga loyiq inson sifatida talqin qilinganini ko‘rsatadi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Ali o‘g‘illari Hasan bilan Husaynga shunday vasiyat qiladi: “Mening dushmanlarim ko‘p. Men kofirlarning va dushmanlarimning o‘n ming bahodirini o‘ldirdim, ularning avlodlari ham menga dushmandirlar. Agar meni oshkora dafn qilsangizlar, dushmanlar meni qidiradilar. Men vafot etganimdan keyin, tun yarmida hamma haloyiq uyquga ketgandan so‘ng, bir tuyaga yuklab, Kufadan olib chiqinglar. Ikki yig‘och yo‘l yursangizlar, sahroda Izzi degan bir tepalik bor, o‘sha tepani qazsangizlar, u yerda bir tosh lavha chiqadi. Lavha yuzasiga bu yerda Odam alayhissalom va Nuh payg‘ambar yotgan yerlaridir, deb yozilgan. Men o‘sha ikki payg‘ambar yoniga dafn qilsangizlar”, deb vasiyat qiladi. Hasan bilan Husayn otalari vasiyatini bajo qildilar, hech kimsaga o‘sha joyni aytmadilar. Oradan ancha vaqt o‘tgach, Ja‘far Sodiq xizmatkori bilan u yerga borib ziyorat qilganda, xizmatkori so‘radi: “Ey payg‘ambarzoda, bu kimning ziyoratgohiki, siz uzoq joydan kelib, bu joyni ziyorat qilgani keldingiz?” Jafar Sodiq aytdi: “Ey xizmatkor! Bilgin, ogoh bo‘lginki, bu joy amr ul-mo‘minin Ali ibn Abu Tolibning

qabridir. Dushmanlardan qo‘rqib, shu paytgacha hech kimga aytmagan edik. Endi dushmanlarning biron-tasi qolmadi. Endi istagimiz shuki, Haq Taoloning amri bilan bu qabrni ziyorat qilishni mo‘minlar orasida oshkora qilsak”.

Xalifa Ali obrazining bu tarzda talqin qilinishi shubhasiz, xalq orasida ham uning to‘g‘risida rivoyatlar keng tarqalganiga bir ishoradir. Odatda, inson o‘zi bilmagan, ammo bilishga qiziqqan narsalar to‘g‘risida ko‘p mulohazalar qiladi, rivoyatlar paydo bo‘ladi va h. Xalifa Ali to‘g‘risida turli manbalarda qoldirilgan rivoyatlar shundan dalolat beradi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Mahmud Ali as-Saroyi haqida Davlatshoh Samarqandiy qanday ma’lumotlar bergan?

2. “Nahjul-farodis” qachon yozilgan? Asar necha bobdan iborat?

3. “Nahjul-farodis”ning birinchi bobi kimga bag‘ishlangan? Shu bobdan biron hikoyatni ayting.

4. “Nahjul-farodis”ning ikkinchi bobi kimga bag‘ishlangan? Shu bobdan biron hikoyatni ayting.

5. “Nahjul-farodis”ning uchinchi bobi kimga bag‘ishlangan? Shu bobdan biron hikoyatni ayting.

6. “Nahjul-farodis”ning to‘rtinchi bobi kimga bag‘ishlangan? Shu bobdan biron hikoyatni ayting.

## Sayfi Saroyining hayoti va ijodi

### Reja:

1. Sayfi Saroyi yashagan muhit, uning ijodi.
2. Sayfi Saroyi – iste’dodli tanqidchi.
3. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari. Asarning yuzaga kelishi.
4. “Gulistoni bit-turkiy” tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari.
5. “Gulistoni bit-turkiy” asarida obrazlar tizimi.
6. “Gulistoni bit-turkiy” da janrlar rang-barangligi.
7. Sayfi Saroyining zamondosh shoirlariga she’riy javoblari.
8. “Suxayl va Guldursun” dostoni.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *epik janr, taxallus, Oltin O‘rda davlati, dardli baytlar, tarjimai hol, zamondosh shoirlarga she’riy javoblar, qasida, qit‘a, ruboiylar, “Suhayl va Guldursun” dostoni, erkin tarjima, ijod ahli, asliyat, debocha.*

**Sayfi Saroyi yashagan muhit, uning ijodi.** Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod etgan va epik janr taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan ijodkordir. U 1321-yili Qamishli qishlog‘ida tug‘ilib, 1396-yili Misrda vafot etgan deb taxmin qilinadi.

Shoirning taxallusidan ma’lum bo‘ladiki, u Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ijod qilgan. Vatan sevgisi, yurt qayg‘usi uning ijodida dardli baytlarni paydo qildi. Shoirning “Yodgornoma” asari muqaddimasida ana shu baytlar bor. “Yodgornoma” – o‘tgan asrning 60-yillar o‘rtalarida Qo‘qon shahri yaqinidan topilgan. Bu asar “Suxayl va Guldursun” nomi bilan Sayfi Saroyi ijodidan o‘rin olgan. U Oltin O‘rdadagi urushlar, nizolar oqibatida vatanni tark etishga majbur bo‘lganini “Yodgornoma”ning muqaddimasida shunday misralar orqali bayon qilgan edi:

O‘sub tufrog‘im uzra nayzalar, ban evdin ayrildim,  
Vatandin benishon o‘ldim-da, o‘zga yurtga evrildim.  
Nechuk falak jav(i)r ayladi, qanday(in) gunohim bor?!  
Ilohim, o‘yla kim javring, ban elga sodiq ul erdim<sup>98</sup>.

<sup>98</sup>Mashhur tatar olimi X.Yu.Minnegulov Sayfi Saroyi ijodi bilan izchil shug‘ullangan bo‘lib,

Shuningdek, Sayfi Saroyi Movarounnahrda va ma'lum vaqt Turkiyada ham istiqomat qilgan. Sayfi Saroyining quyidagi she'ri uning tarjimai holiga oid ba'zi tomonlarni yoritishga yordam beradi:

Ilohi, bu qari miskin qulingni  
Bag'ishla ko'rguzub to'g'ri yo'lingni.  
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,  
Qarisa qullarni ozod qilmoq.

Sayfi Saroyi bu she'rini Misrda – Mamluklar davlatida yashayotgan paytda yozgan bo'lib, hayotining so'nggi yillarini o'sha yerda o'tkazgan. Yuqorida aytganimizdek, Oltin O'rda tanazzulga yuz tuta boshlagan paytda Sayfi Saroyi Misrga ketgan. U mazkur she'ri orqali hukmdordan o'z yurtiga qaytish uchun ijozat so'ragan. Bundan shunday xulosa kelish mumkinki, Sayfi Saroyi shoh saroyidagi e'tiborli shaxslardan bo'lgan. Zamondosh shoirlarga she'riy javoblaridan ham Sayfi Saroyining o'z davridagi baland mavqei haqida xulosa chiqarish mumkin. Sayfi Saroyi vafot etgan yillari Misr Mamluklar davlatida Zohir Sayfiddin Barquq ikkinchi marta (birinchi marta 1382 y.) taxtga o'tirgan edi.

Misr turk davlatida o'zbek adabiyoti tarixidagi yirik hodisa sifatida Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari adabiy merosini keltirish mumkin.

Taxminimizcha, Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g'azallari, qasida, qit'a, ruboiylari (uchta forscha ruboiysi ham), "Suhayl va Guldursun" dostoni va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" (1258-yili yozib tugallagan) asarining o'zbek tiliga qilgan erkin tarjimasi yetib kelgan.

**Sayfi Saroyi – iste'dodli tanqidchi.** Sayfi Saroyi adabiyotga halol, e'tiqod bilan munosabatda bo'lish tarafdori edi. Uningcha, adabiyot, jumladan she'riyat – bir bog'. Boqqa bulbul ham, zog' ham kelib qo'naveradi. Ijod ahlining she'riyat bog'idagi o'rni alohida. Ijodda o'rmini topgan shoirlar "bulbul", shunchaki adabiyot atrofida o'ralashib yurganlar "zog"lardir. Quyidagi she'r ana shular haqida ma'lumot beradi:

---

yangi topilgan asarni "Yodgornoma" deb ataydi. Zotan, bu asar qo'lyozmasi debochasidan "Suxayl va Guldursun" dostonidan tashqari, Tug'li Xoja va Mavlono Is'hoq Xorazmiylarning bittadan g'azali, Mavlono Ahmad Urganjiyning uchta she'riy parchasi, qolaversa, Sayfi Saroyining tarjimai holiga aloqador mazkur baytlari o'rin olgan (Tatar adabiyoti tarixi, tatar tilida. Olti jildlik, birinchi jild, Qozon, Tatariston kitob nashriyoti, 1984, 247-b.). Shularga ko'ra, "Suxayl va Guldursun" degan nomdan ko'ra, "Yodgornoma" deb atash to'g'riroq ekani ma'lum bo'ladi.



Jahon shoirlari, ey, gulshani bog‘,  
Kimi bulbul durur so‘zda, kimi zog‘.  
Kimi to‘ti bikin chaynar shakarni,  
Kimi lafzi bila o‘rtar durarni.  
Kimning so‘zlari mavzunu shirin,  
Kimining loyiqi tashrifu tahsin,  
Kimi o‘zganing ash‘orin menim der,  
Kimi halvo kibi shalg‘om cho‘bin yer,  
Kimi ma‘ni qo‘yub, lafzin tuzotur,  
Kimi vaznni buzub, san‘at kuzotur.  
Alarning ush biri Sayfi Saroyi,  
Jahon oriflarining xoki poyi.  
Ani sen jumla shoir kamtari bil,  
Qamar yuzga hamisha mushtari bil.

Qarshilantirish usulida yozilgan bu she‘r Sayfi Saroyining katta adabiyotshunos olim, o‘z davrining tanqidchisi ekanini ko‘rsatadigan bir dalil. Uning she‘riyatga halol munosabatda bo‘lish kerakligi haqidagi qarashlaridan shu narsa anglashiladiki, u o‘z davri she‘riyatidan, adabiy jarayonidan doimo xabardor bo‘lib turgan, ijodkorlardan she‘riyatga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lish tarafdori. Shoir ahliga bunchalik talabchan ijodkor hukmdor saroyida katta mavqega ega bo‘lishi tabiiy hol edi. Qolaversa, she‘riyatga halollik bilan munosabatda bo‘lish haqida she‘r yozgan shoirning devoni bo‘lmasligi mumkin emas. Bunday she‘rni shoir ahli orasida e‘tibor qozongan va e‘tirof etilgan shoir yozishi mumkin. Ammo uning devoni hali noma‘lum.

Quyidagi parcha Sayfi Saroyining tarjimai holiga aniqlik kiritish bilan bir qatorda, adabiyotda o‘z o‘rniga ega shoir bo‘lib tanilganini va e‘tirof etilganini dalillaydi:

Qamishli yurt manim tuvg‘on elimdi,  
Bilik g‘urbatg‘a kelturg‘on bilimdi.  
Kelib o‘ldim Saroyda she‘r fidoyi,  
Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Shoir birinchi misrada o‘zi tug‘ilgan yurt Qamishli haqida xabar bermoqda. Nasrullo Davron “Gulistoni bit-turkiy”ni nashrga tayyorlab,

o‘zbek kitobxonlariga taqdim etar ekan, bu joyni Xorazm viloyatidagi Sariqamish qishlog‘i deb taxmin qiladi. N.M.Mallayev ham shu fikrda bo‘lgan edi.

Ikkinchi baytda, ayrim adabiyotshunoslar aytganlariday, shoir ijtimoiy ahvoli – g‘urbatda yashagani haqida emas, balki bilim olish, o‘rganish mashaqqatli ekaniga ishora qilmoqda. Uchinchi va to‘rtinchi misrada *saroy* so‘zlarida so‘z o‘yini (tajnis) bor. Uchinchi misradagi *Saroy* so‘zi – Oltin O‘rda davlatining poytaxti *Saroy* shahriga ishora qilsa, to‘rtinchi misradagi *saroy* – hukmdorlar saroyini bildiradi, ya‘ni Saroy shahrida she‘rga halollik bilan yondoshgan va saroyda e‘tiborli shoir bo‘lgan edi. Yana shuni ta‘kidlash kerakki, *elning gadoyi* iborasi orqali Sayfi Saroyi xalqqa yaqinligini bildiryapti, ijod xalq uchun ekaniga ishora qilyapti, aslo qashshoq toifaga mansub tilanchi ma‘nosini emas.

**Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari. Asarning yuzaga kelishi.** Sayfi Saroyi ijodida “Gulistoni bit-turkiy” alohida o‘rin tutadi. Zotan, bu asar Sayfi Saroyi ijodida katta hajmdagi asar bo‘lish bilan birga, asarga olib kirgan o‘z ijod namunalari XIV asr o‘zbek nasrini va she‘riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi.

Sayfi Saroyi Shayx Sa‘diyning “Guliston” asarini tarjima qilgandan keyin, bu asariga “Gulistoni bit-turkiy”, ya‘ni “Turkiy guliston” deb nom qo‘ydi. Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari ilm ahliga birinchi marta 1915-yili ma‘lum bo‘lgan. Qolaversa, Sayfi Saroyining butun ijodining, jumladan, “Gulistoni bit-turkiy” asarining tarjimasini va qo‘lyozmasining tarixi bor. Endi o‘sha tarix bilan qisqacha tanishamiz.

1915-yili Turkiyada nashr qilinadigan “Milliy tatabbular majmuasi” jurnalida venger olimi Tori Yozef Sa‘diy “Guliston”ning turkiy tilga eski bir tajmasi Gollandiyadan topilgani to‘g‘risida xabar beradi. 1950-yili Amsterdamda tibbiyot tarixiga oid Xalqaro anjumanda ishtirok etgan professor Faridun Nafiz Uzluk Leyden universiteti kutubxonasida mazkur qo‘lyozma bilan tanishib, fotonusxasini oladi va 1954-yili Anqarada kichik kirish so‘z bilan qo‘lyozmaning faksimilesini nashr ettiradi. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan, ammo xatolari ko‘p. Faridun Nafiz Uzlukning aytishicha, qo‘lyozma Sayfi Saroyining dastxatidir. Qo‘lyozmaning birinchi sahifasida forscha va turkiycha yettita she‘r bor. She‘rlarning mualliflari ham, dastxatlari ham har xil. Birinchi to‘rtlik Mahmud Gulistoniy degan shoirniki bo‘lib, Iroqdan mag‘lubiyatga uchrab qochib kelgan shahzoda Ahmadga bag‘ishlangan. Qo‘lyozmaning uchinchi sahifa-

sida mazkur tarjimani Saroy shahridan Sayfi otlig' kishi amir Tayxasga bag'ishlagani to'g'risida aytiladi. To'rtinchi sahifadan Sa'diy "Guliston"ning tarjimasi boshlanadi. So'ng Sayfi Saroyi tarjimani to'xtatib, o'z she'rlarini qo'lyozmaga kiritadi. Keyin mazkur asarni tarjima qilish sabablarini bayon etadi. Qo'lyozmaning 11-14-sahifalarida Sayfi Saroyi 87 baytdan iborat she'rini keltiradi.

Qo'lyozmaning oxirgi sahifasida Sayfi Saroyining 13 baytdan iborat she'ri keltirilgan bo'lib, tarjima tugallangan sana ko'rsatilgan. Bu she'rdan ma'lum bo'lishicha, "Guliston" tarjimasi tamomlangan paytda (hijriy 793-yilning shavval oyi – milodiy 1391-yilning avgust oyi) Sayfi Saroyi 70 yoshda bo'lgan.

"Guliston"ning tarjimasi to'g'risida 1955-yili yana bir turk olimi Abdulla Battol Taymas jiddiy maqola e'lon qildi va bu maqolasida asarning til xususiyatlarini tadqiq etdi. Maqola muallifining yozishicha, "Gulistoni bit-turkiy"ning tili qipchoq tilidir. Arab-fors so'zlariga imkon qadar kam o'rin berilgan, turkiy so'zlar ko'p ishlatilgan. Ba'zi so'zlar turli fonetik variantda beriladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Misr turk davlatida turkiy qabila-urug'lar ko'p bo'lgan, ammo adabiy til mezonlari ishlab chiqilmagan, shu bois ma'lum so'zlarning talaffuzida beqarorlik hukm surgan.

Asar Oltin O'rdadagi tarjima adabiyotlarining Misrdagi an'anaviy davomidir.

Sayfi Saroyi "Gulistoni bit-turkiy"ni tarjima qilar ekan, birinchi navbatda, turkiy tilda so'zlashuvchi keng kitobxonlar ommasini nazarda tutdi. Shu bois asar tarjimasida arabcha va forscha so'zlar o'rniga ko'proq xalqona iboralardan foydalandi, eski o'zbekcha va qadimgi turkiycha so'zlardan istifoda etdi; xullas, tarjimani xalqqa yaqin tilda yaratdi. Ikkinchidan, Oltin O'rdadagi adabiy muhit ancha yuksalgan, Oltin O'rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy tilga e'tibor kuchaygan edi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritilsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar til jihatdan har bir o'zbek kitobxoniga juda yaqin. Aynan "Gulistoni bit-turkiy"ning tili buni to'liq tasdiqlaydi. Qolaversa, Oltin O'rdada amal qilgan til ham chig'atoy tiliga juda yaqin, aniqroq qilib aytganda, O'rta Osiyo chig'atoy tilidan unumli oziqlangan edi<sup>99</sup>.

<sup>99</sup>To'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. – Toshkent, "MUMTOZ SO'Z" nashriyoti, 2016, 74-75-b.

Sa'diyning "Guliston"i keyingi asrlarda ham bir necha marta qator ijodkorlar tomonidan, jumladan, Ogahiy, mulla Murodxo'ja (1909) tarjima qilgan.

"Gulistoni bit-turkiy"ning tuzilishi Shayx Sa'diyning "Guliston" asaridan farq qilmaydi. Har ikkalasida ham asar sakkiz bobdan iborat. Sa'diyning "Guliston"idagi boblar nomlari "Gulistoni bit-turkiy"ga solishtirilganda, nisbatan asliyatga yaqinlik kuzatiladi. Sayfi Saroyi boblar nomlarini deyarli o'zgartirishsiz tarjima qilgan:

*Sa'diyda: Sayfi Saroyida:*

1-bob. Dar siyrati podshohon Salotin siyrati ichinda turur

2-bob. Dar axloqi darveshon Fuqaro axloqi ichinda turur

3-bob. [Dar fazilati qanoat] Qanoat fazilati ichinda turur

4-bob. [Dar favoyidi xomushi] Sukut foydasi ichinda turur

5-bob. Dar ishq va javoni Ishq dag'i yigitlik sifati ichinda turur

6-bob. Dar zaif va piri Qariliq dag'i zaifliq sifati ichinda turur

7-bob. Dar ta'siri tarbiya Tarbiyat ta'siri ichinda turur

8-bob. Dar odobi suhbat Suhbat adablari ichinda turur

Sayfi Saroyi o'z asari debochasida Sa'diyning "Guliston"ini nima sababdan tarjima qilganini quyidagicha bayon etadi: "Iliq yoz kunlarinda bir kun bo'ston ichinda, gullar orasinda bir necha zarif (nozikfahm) olimlar bilan o'turub, insho ilminding bahs qilib, abyoti g'arib (ajoyib) va ash'ori ajib (qiziq) o'qudum esa, ul olimlarning ulusi aruz ilminding bir mushkul baytning taqattu'in savol etti. Filhol (darrov, tezda) javobin eshitib aytti: "Ey adibi g'arib, senga bir muvofiq nasihatim bor, qabul qilsang, xayr bo'lg'ay". Ayttim: "Buyuring". Aytti: "Shayx Sa'diy "Guliston" in turkiy tilga tarjima qilsang, bir sohib davlat er otina, misroi yodgoring jahonda qolsun deb".

Ul azizning muborak nafasini qabul etib ayttim: "...ammo quvvatim zaif turur aning qaviy (kuchli, quvvatli) ma'nilarina".

Men dag'i Tangrig'a tavakkul qilib (o'zimni topshirib), himmat belin rag'bat eli bilan bog'lab, boshladim, tamom bo'lg'ay deb. Ammo bu kitob oti ul sababdin "Guliston" bo'ldikim, ajoyib hikoyot va g'aroyib nasoih va anvo'i latoif bilan murattab va muzayyan bo'lub turur"<sup>100</sup>

<sup>100</sup> Sayfi Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Nashrga tayyorlovchi filologiya fanlari kandidati Nasrullo Davron. – "Uch bulbul gulshani" to'plamida. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, 170-b; Bundan keyingi sahifalarda parchalar ana shu nashrdan olinib, parchadan

. Bu voqea milodiy 1390-91 yillarda yuz bergan edi.

Parchadan anglashiladiki, Sayfi Saroyi adabiyot ilmida ham ancha mashhur bo‘lib, olimlarning peshqadami bo‘lgan. Shu bilan birga, u iste’dodli ijodkor bo‘lishi bilan bir qatorda, yuksak didli tarjimon ham bo‘lgani mazkur parchadan anglashilib turibdi. Haqiqatan, “Gulistoni bit-turkiy”ni ham Sayfi Saroyi, xuddi Sa’diyning “Guliston”i singari, ajoyib hikoyatlar, qit’alar, fardlar bilan bezadi.

**“Gulistoni bit-turkiy”tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari.** Sa’diyning “Guliston”i bilan Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asari solishtirilganda, ular o‘rtasidagi ayrim farqlar darrov ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Sa’diy “Guliston”ining “Muqaddima”si Oллоhga hamd, Sheroz hukmdori “Muzaffariddin ibn Zangi ibn Sa’d ibn Abu Bakr” madhi, “Guliston” kitobining sababi ta’lifi bayoni” tarkibiga kirgan amiri kabir Abu Bakr bin Abu Nasr vasfi, “xizmati vazirda voqye’ bo‘lg‘on qusurning uzri va ixtiyori uzlatning sababi bayoni”ni qamrab oladi.

Sayfi Saroyi kitobxonni, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonini, Oltin O‘rda davlatidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni nazarda tutadi va asari debochasida o‘zgarishlar qiladi. Jumladan, u asar debochasida yuqorida biz keltirgan Sa’diy “Guliston”ining tarjima qilinishiga oid taklifni qabul qilgani haqida parchadan keyin oltmish misradan iborat masnaviyini keltiradi. Bu masnaviy mazmunan qasidaga o‘xshaydi. Sayfi Saroyi bu she’rida “Guliston” asarining jamiki fazilatlarini bayon qiladi: bu asarda g‘aroyibotlar mavjudligi, bunday g‘aroyibotlar hatto “Xusrav va Shirin”da ham yo‘q ekani (chamasi, u Qutbning “Xusrav va Shirin” asarini nazarda tutgan), asarning “latoif bog‘i”, “ma’ni gulistoni” sifatlarga boy ekanini ta’riflaydi. Shundan keyin o‘tmishdagi nomdor hukmdorlarning avlodlar osha abadiy qolganiga sabab ularning himmatliliklaridir, degan o‘g‘itni beradi:

Xayr etib bo‘lgan maliklar nomdor,  
Ketti qo‘yub har biri bir yodgor.  
Eygu oti qolsa erning yaxshiroq,  
So‘ngra qolg‘uncha to‘li oltun ravoq...  
Bu sifatli er bukun xayri kasir,  
Misr ichinda bor bir orif amir.

Mana shu misralardan keyin o'sha amirning – Mamluklar sultoni-ning hojbul-hujjobi (eshik og'asi) Tayxosbekning tengsiz zakovati, el-parvarligi, saxiylikda Hotam Toy, lutf, axloq va karamning koni ekanini ta'rif-tavsif qiladi. Sayfi Saroyi masnaviy nihoyasida o'z "Guliston"ini ana shu amirga bag'ishlaganini aytadi va tarjima Sa'diy "Guliston"idan ayrim farqli jihatlariga egaligini ta'kidlaydi:

Ul hadiya bu kitob erur mufid,

Jumla alfozi to'lu ma'niy jadid

(Bu kitob foydali in'omdir, kitob yangi ma'nolarga to'ladir).

Mana shu misralar ham Sayfi Saroyining tarjima ustida ko'p mehnat qilganidan, Sa'diyning maqsadini keng kitobxonlar ommasiga o'zbek tilida go'zal tilda yetkazib berganidan va o'z ijodiy qobiliyatini namoyon qilganidan dalolatdir. Tarjima-dagi "ma'niy jadid" ko'proq Sayfi Saroyi-ning tarjima tarkibidagi she'r-lariga tegishli bo'lsa kerak.

Darvoqe, Sa'diy "Guliston"i boshqa o'lkalarda tarjima qilingan-da o'sha o'lkaning hukmorlariga yoki yuqori mansabdagi amaldoriga bag'ishlangan. Jumladan, "Guliston"ning Qoziy tomonidan 1430-yili turk tiliga qilingan tarjimasi Turkiya sultoni Murod II ga bag'ishlangan.

Sayfi Saroyi asar ustida ishlash jarayonida ijodiy pozitsiyasini – asarni aynan tarjima qilmay, o'zining adabiy-estetik qarashlarini ham singdirganini, eski o'zbek tilining boyligini namoyish qilganini, ijodkorlik mahoratini ko'rsata borganini boblardagi hikoyatlarda ham ko'ramiz. Misollarga murojaat qilaylik.

"Avvalg'i bob"ning birinchi hikoyati vazirning ezgu fe'lligi va oqilligi natijasida sulton bir asirni o'limdan ozod qilgani haqida. Hikoyatning Sa'diydagi variantida sultonning "Bu asir nima dedi?" deya bergan savoliga oqil vazir Qur'oni Karimdan quyidagi oyatni aytadi: "**Jan-nat g'azabni yutguchilarnikidir va mardumlarning gunohlaridan o'tguchilarnikidir**" (Oli Imron surasi, 134-oyat)<sup>101</sup>. Aslida asir sultonni qattiq haqoratlagan edi. Oqil vazir qon to'kilishining oldini olish va bir odamning hayotini saqlab qolish maqsadida shohga qaratilgan haqoratni Sayfi Saroyi o'z tarjimasida "Sulton yoshi uzun bo'lsun!" degan jumla

<sup>101</sup> Bu oyat Sa'diy Sheroziyning "Guliston" (Mullo Murodxo'ja tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi, mas'ul muharrir va taqdim so'z boshi muallifi Sayfiddin Sayfulloh, so'zboshi muallifi Rahmatulla Barakaev, Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2005, 31-b.) asaridan olindi. Bundan keyingi sahifalarda qiyoslash uchun parchalar ana shu nashrdan olinib, parchadan keyin mazkur kitob sahifasi ko'rsatildi.

bilan almashtirgan, Qur'on oyati ham tushirilgan. Nima uchun? Buning sababi Oltin O'rdadagi ijtimoiy hayotga bog'lanadi. Oltin O'rda tasarrufidagi turkiy xalqlar yashaydigan hamma o'lkalarda – shaharlarda, dashtli o'lkalarda, Sibirdagi turkiy xalqlar orasida bu asarning mazmun-mohiyati to'liq yetib borishi kerak edi. Shu boisdan ham surani berishni Sayfi Saroyi maqsadga muvofiq deb bilmagan. "Sulton yoshi uzun bo'lsin!" degan yuqoridagi sodda, hamma tushunadigan jumla asirning haqoratini ham, oyatning ham mazmun-mohiyatini qamrab olgan.

Sayfi Saroyi mohir tarjimon va iste'dodli shoir hamda hikoyanavis ekanini har bir bobda, har bir hikoyatda ko'rsata boradi. Uchinchi – "Qanoat fazilati ichinda turur" bobidagi bir hikoyatga e'tibor beraylik. Sa'diyda ham, Sayfi Saroyida ham bu hikoyatning mazmuni bir xil: Muso alayhissalomning iltijosi bilan egnida hatto kiyimi yo'qligidan doimo qumga ko'milib yotadigan bir faqirga Tangri molu davlat beradi. Ammo o'sha faqir boy bo'lgandan keyin sharob ichib, odamlar bilan yoqalashadi, oxiri, odam o'ldiradi.

Hikoyatdan keyin Sa'diy baytlar (biz qit'a deb ataymiz) quyidagicha tarjimada keltiradi:

Pishakni bo'lsa gar erdi qanoti,  
Jahonda qolmag'ay chumchuqni oti.

Kishi oldig'a bormas erdi bo'lsa,  
Ho'kuzdek shoxlik eshakning zoti.

Gadoyi notavon topsa edi zo'r,  
Qilur boshqa gadolar ko'zini ko'r.

Shu baytlardan keyin Sa'diy Sho'ro surasining 27-oyatini keltiradi: **"Va agar Oллоh taolo qullariga rizqni vasi' aylasa, ular yer yuzida fasod etarlar erdi."** (143-b.)

Endi hikoyat tugagandan keyin Sayfi Saroyi keltirgan quyidagi she'riy parchalarga e'tibor beraylik:

Bo'lur ojiz topub qudrat alinkim,  
Burar bo'lsa tutub ojiz qo'luni.  
Hakimu hayyu boqiy molikul-mulk,  
Tutar hikmat bilan har bir qo'lini.

Shu qit'adan keyin Sayfi Saroyi Qur'oni Karim surasi o'rniga quyidagi xulosasini keltiradi va Sa'diyning shu hikoyatida yo'q bo'lgan qit'a bilan yakunlaydi: "Muso alayhissalom jahonni yo'qdan bor qilg'an hakimning hikmatina iqror kelturub, o'z tajosurina (jasorat) mu'tarif (nuqsonlarini e'tirof etuvchi) bo'ldi:

Kelur mufsid kishidan ko'b yomon ish,

Alinda bir necha dinor bo'lsa.

Ne ishlar qilg'ay erdi odamiyg'a,

Qarinchaning qanoti bor bo'lsa.

Saodat ko'rmagan topsa nazorat,

Urub er o'lturub o'ynor bo'lsa.

Ketar boshi aning bir kun bu yo'lda,

Necha ko'b molu mulk asror bo'lsa.

Yumar ko'z bu jahonning ziynatindin,

Kima sabru qanoat yor bo'lsa (241-b.).

Bu she'riy parcha – qit'a. Hajmidan qat'iy nazar, qofiyalanish tizimi (a-b, v-b, g-b, d-b, ye-b) va shoirning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy qarashlari mujassam bo'lgani uchun bu she'riy parchani qit'a deb atashi o'rinli. Sayfi Saroyi o'zbek adabiyoti tarixida ham shaklan, ham mazmunan qit'a janrini boyitgan shoir sifatida ham e'tiborga molikdir.

Tarjima nazariyasi va amaliyotiga binoan, tarjimon tarjima tilini ham, asliyat tilini ham mukammal bilishi talab etiladi. Sayfi Saroyi ana shu talablarga tom ma'noda javob bergan tarjimon bo'lgan edi. Uning shoirlik iqtidori bilan tarjimonlik mahorati uyg'unlashib, hikoyatlar tarkibida qit'a janrining juda go'zal namunalarini yaratgan.

Sayfi Saroyi asarni tarjima qilishda qanday yo'l tutgan? "Guliston"ning Sa'diy qo'li bilan yozilgan nusxasi yo'q. R. Aliev tuzgan tanqidiy matn hozirga vaqtda "Guliston"ning eng ishonchli nusxasi hisoblanadi. Chunki bu tanqidiy matn asarning eng qadimiy va obro'li nusxalariga asoslangan. Tarar olimi X. Minnegulov "Gulistoni bit-turkiy"ni ana shu tanqidiy matn bilan solishtirib, quyidagilarga aniqladi: "Gulistoni bit-turkiy"ga yaqin matn – 1385-yilda ko'chirilgan forsiy nusxa. Uning kuzatuvlariga qaraganda, Sa'diy "Guliston"ining I – VII boblarida 182 ta hikoyat bor. Shulardan 178 tasi Sayfi Saroyi tarjimasida mavjud. III bobda tanqidiy matnda yo'q bir hikoyat bor. Shu tariqa 1391-yilgi tarjimada hikoyatlarning 98 foizi o'rin olgan. Hikoyatlarning o'rinlashish tartibi



bo'yicha ham farqlar juda oz. VIII bobda tarjimaning va forscha asliyatning o'rtasida farqlar mavjud. Bu farqlar "Guliston"ning turli davrda ko'chirilgan qo'lyozma nusxalaridagi turlichalik bilan bog'liqdir<sup>102</sup>.

**"Gulistoni bit-turkiy" asarining obrazlar tizimi.** Asardagi obrazlar bevosita va bilvosita ijodkorning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga – hikoyatlarni o'zbekzabon (umuman turkiyzabon) kitobxonga Sa'diy nazarda tutgan mazmun-mohiyatni tushunarli tilda yetkazib berishga qaratilgan. Hikoyatlarda turli toifa obrazlarni – adolatparvar va qonxo'r sultonlarni ham, oqil va fitnachi vazirlarni ham, ochko'z va saxiy insonlarni ham, oqil va kaltafahm davlatmandlarni ham, xullas, har turli toifadagi qahramonlarni uchratamiz.

Sultonlar haqidagi hikoyatlar "Guliston" va "Gulistoni bit-turkiy"ning boshida o'rin olgani bejiz emas. Hamma zamonlarda ham insoniyat hukmdorlardan yo namuna olganlar yoki hukmdorlarning adolatsizligidan saboq chiqarganlar yoki ularga o'z nafratini ifoda etganlar. Jamiyat, mamlakat va davlatning mustahkamligi yoki tanazzuli hukmdorlarning xalq bilan bo'lgan adolatli yoki adolatsiz munosabatlariga bog'liq bo'lgan. Bu bobdagi hikoyatlarga qo'yilgan talab nafaqat adabiy-estetik tomondan, balki ijtimoiy-siyosiy tomondan ham muhimdir. Ayniqsa, tarixda o'tgan hukmdorlarga oid hikoyatlar bu jihatdan alohida diqqatga sazovor. Sayfi Saroyi bu singari hikoyatlarda tarixiy haqiqatni buzmagani holda hukmdorlarning esda qoladigan obrazlarini yaratadi. Sulton Mahmud G'aznaviy otasi Sabukteginni tushida ko'rganiga oid hikoya (173-b.), Horun ar-Rashidga oid hikoya (202-b.) shular jumlasidandir. Hikoyalarning birinchisida G'aznaviylar saltanatining asoschisi Sabuktegin va uning o'g'li, G'aznaviylar davlatini o'ttiz yildan ortiq boshqargan Sulton Mahmud obrazlari orqali jamiki hukmdorlarning qiyofasini yaratish bilan bir qatorda, ularning urushlar, bosqinchiliklar oqibatida to'plagan mol-mulki oxiri qolib ketadi, narigi dunyoga bo'sh qo'l bilan ketadi, degan bir o'gitni berdi. Shu bois Sulton Mahmudning tushini ta'bir qilib bergan kambag'al odam tilidan Saroyi aytadiki, bu olam qancha-qancha beklaru sultonlarni yeb bitirgan, shuning uchun, ey xoja, agar nomim yer yuzida qolsin desang, xayr qilgin, deya hukmdorlarni saxvatpesha bo'lishga da'vat qiladi.

Xorun ar-Rashidga bag'ishlangan hikoyatda esa bu hukmdorning har bir muammoni oqillik bilan hal etishini rivoyat qiladi. Xorun ar-

<sup>102</sup> Tatar adabiyoti tarixi., 253-b.

**Rashid Abbosiylar sulolasini birin-ketin boshqargan bircha hukmdorlar orasida aqlli va donishmand hukmdor sifatida tarixdan ma'lum. Hikoyatda donishmand Xorun ar-Rashidning tadbir bilan ish tutishi, nizolarning oldini olishi va zulm qilmaslik haqida hikoya qilinadi:**

Horun ar-Rashid o'g'lonlarindin biri g'azablanib, otasi qotina kelib aytti: "Falon voliying o'g'li onama so'kti". Horun ar-Rashid vazirlarina aytti: "Ul kishikim munung kabi yaramas so'z so'zlagay, aning jazosi ne turur?" Biri aytti: "Ani o'iturmak kerak". Dag'i biri aytti: "Aning tilin kesmak kerak". Dag'i biri aytti: "Ani musodara qilmoq kerak". Dag'i biri aytti: "Ani ta'zir qilmoq kerak". Dag'i biri aytti: "Ani ixroj qilmoq kerak".

Horun ar-Rashid aytti: "Ey o'g'lum, muruvvat va karam ul tururkim, andin kechkaysan. Agar afv eta bilmasang, sen dag'i aning onasini so'kkul. Eylakim, intiqom haddan kechmagay. Agar kechar bo'lsa, zulm bizim tarafimizda bo'lg'ay" (202-b.).

Tarbiya haqidagi hikoyatlar "Gulistoni bit-turkiy"da muhim o'rin tutadi. Bu turkumdagi hikoyatlarning qahramonlari – ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra turli toifadagi odamlar, aql-tafakkuri, dunyoqarashi va hayotiy masalalarni anglash darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ahli odamzod. Bu turkum hikoyatlar hahramonlarining har biri takrorlanmas, saviya va dunyoqarash nuqtai nazaridan kitobxonda goh kulgi uyg'otsa, gohida saboq beradi. Hikoyatlar – Sharq donishmandligining mezonini sifatida taassurot qoldiradi, hikoyatlardan kitobxon o'z-o'zidan saboq chiqaradi. Bu turkum hikoyatlarning asosida aksariyat hollarda ustoz va shogird munosabatlari yotadi. Hikoyatlar quruq va'zxonlik yoki nasihat ruhida emas, balki kitobxon saboq chiqarib olishiga qaratilgan. Saboq – asar qahramonlarining didi va farosatini belgilovchi omil hamdir. Farzandlar uchun har qancha oltin kumushdan ko'ra, odob va fazilatlar afzal. Bu omillar orqali boylik, martabalarga erishishi mumkin ekanligi haqida otaning o'g'illariga qilgan o'g'itlari (286-b.), qattiqqo'l va o'zi halim, ko'ngli salim ustozlar, tarbiya yo'llari va turli qobiliyatga ega bo'lgan o'g'illar (290-b.), safarda nihoyatda pahlavonligini, o'q-yoy otishda mahoratini yo'lma-yo'l namoyish qilib, ikki qaroqchi hujumi oldida esa titrab-qaqshab, bor budini qaroqchilarga topshirib salomat qolgan yigit (295-296-b.) obrazlarida tarjimonning g'oyaviy-estetik ta-

fakkurini, lirik nutqini va obrazli tilini ko‘ramiz. Shubhasiz, Sayfi Saroyining hikoya qilish usuli bu adabiy kategoriyalar doirasida o‘ziga xoslik bag‘ishlagan. Misol tariqasida quyidagi hikoyatni olib ko‘raylik:

Bir olimi fozil bir malik o‘g‘lina ta’lim berur edi. Hadsiz javr va hisobsiz jafo qilib, bir kun bu o‘g‘lon otasi xizmatina kelib, shikoyat ali bilan nomus yoqasin yirtti dag‘i holini arz etti. Sulton ustodini indab yig‘rib aytti: “O‘zganing o‘g‘lonlaridan javrung mening o‘g‘lum uza ortuqroq turur, sabab ne?” Ustodi aytti: “Avval kishi kerakkim, ne so‘zlasa, sag‘ish qilib, aslini bilib so‘zlagay dag‘i ne harakatkim qilsa, mavzun bo‘lg‘ay. Bu barcha xalq o‘g‘lonlarina kerak, xossa malik o‘g‘lonlari ne so‘zlasalar dag‘i ne ishlasalar, el tilina tushar, ammo avomning qavlina dag‘i fe‘lina ul qadar e’tibor yo‘q turur”.

She’r

Jurm etsa qachon faqir andan,  
Kimdur so‘rub eshitkan xatoni.  
Sulton ming ishinda bir yanilsa,  
Eldin uyla yetkururlar oni.

Albatta malik o‘g‘lonlarining tazhibi (ziynatlash) axloqina ijti-hod (kuch boricha tirishish) ortuqraq kerak, andankim, avom o‘g‘lonlarina bo‘lg‘ay. Bu malik ul olimning husni taqrirni (qarorning go‘zalligini) eshitib, tarbiyani bekandi dag‘i xil’at (hashamatli sarpo) va ne’mat berib, johu (mansab) martabasin ziyodat qildi... (287-b).

Hikoyatda hukmdor o‘g‘lining tarbiyasi bir oz oqsoqligini hamda ustozning donishmandona qiyofasini yorqinroq chizish uchun Sayfi Saroyi obrazli tildan unumli foydalangan. Hikoyatga lirik nutq, obrazlilik bag‘ishlagan “shikoyat ali bilan nomus yoqasin yirtti”, “tazhibi axloq”, “husni taqrir” jumalari va iboralari hikoyat qahramonlari obrazini kitobxon ko‘z o‘ngida yorqinroq gavalantirishga, qahramonlarni so‘zlatish orqali ularning ichki olamini ham namoyon etishga xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, nutq qahramonning kimligini namoyon qilib turadi.

**“Gulistoni bit-turkiy”da janrlar rang-barangligi.** Sayfi Saroyi hikoyatlarida eng ko‘p qo‘llangan janrlardan biri – qit’adir. Yuqorida shoirning o‘n bayt qit’asi haqida so‘z yuritgan edik.

Sayfi Saroyi – she’riy hikoyatlar ustasi. Uning she’riy hikoyatlar ham. nasriy hikoyatlari singari, didaktik mazmunda bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi ahdu vafo, sadoqatni madh qiladi. U bir necha she’riy hikoyatlar ijodkori. “Gulistoni bit-turkiy” tarkibida ham u o‘z she’riy hikoyatlarining ba’zilaridan, jumladan, “Qari bo‘ldung, yigitlikdan aling yuv” she’riy hikoyatidan parcha keltirgan va hikoyatning didaktik mazmuniga alohida urg‘u qaratgan. Hikoyat “teng tengi bilan” naqliga amal qilish lozimligi, yoshi o‘tgan odam yigitning xatti-harakatlarini qilishga bel bog‘lasa, sharmanda bo‘lishi muqarraligi haqida o‘git beradi.

Sayfi Saroyining she’riy hikoyachilikdagi mahoratini ko‘rsatadigan “Hikoyati manzuma” nomli kichik bir asari diqqatga sazovor. Hikoyat o‘n bir baytdan iborat. Hikoyatning mazmuni shundan iborat: bir yigit bir qiz bilan ahd-paymon qildilar. Bir kun ular kemaga o‘tirib, sayrga chiqdilar. Birdan kema talofotga uchrab, parchalanib ketdi va ikkovi ham suvga g‘arq bo‘la boshladilar. Shunda bir odam darrov yetib kelib:

Alarning birina aytti: “Aling sun,  
Yana aysh qilmoq tilasang aysh har kun”.  
Ul aytti: “Ey kalomi jonima qut,  
Men qo‘y, borip ul yorim alin tut”<sup>103</sup>.

Shu voqeani hikoya qilib bo‘lgach, Sayfi Saroyi oshiqlikning qisimatini shunday ifoda etadi:

Haqiqat oshiq erning mazhabi ul,  
Tilasang, bo‘lmag‘a oshiq, alay bo‘l.

Yoqarlar ul kishini o‘tqa, yorin  
Qo‘yub mehnat ichinda ketar yorin.

Hikoyat, haqiqiy sof muhabbat yo‘lida oshiq jonini fido qilishga tayyor bo‘lishi kerak, degan hayotiy haqiqatga asoslangan.

Sayfi Saroyi o‘zbek adabiyoti tarixida g‘azalchilikni yangi pog‘onaga ko‘tardi, Mamluklar adabiy muhitida bu janrda o‘z iste’dodini namoyish qila oldi. Uning zamondosh shoirlariga bir xil vaznda va bir xil qofiyada aytgan g‘azallari shundan dalolat beradi.

---

<sup>103</sup> Nadjip E.N. Yuqoridagi asar, 213-b.

**Sayfi Saroyining zamondosh shoirlariga she'riy javoblari.** Sayfi Saroyi o'z zamondoshlaridan Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Is'hoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xoja as-Saroyi, Abdul Majid, To'g'li Xoja, Hasan o'g'li, Xorazmiy kabi shoirlarning she'rlariga bir vaznda va bir xil qofiyada javob aytgan. Sayfi Saroyining va o'sha shoirlarning g'azallari shundan dalolat beradiki, Misrdagi turkiy xalqlar adabiyotida g'azal janri Xuroson va Movarounnahr shoirlarining g'azalchiligi darajasida yuqori saviyada yozilgan. Bu shoirlarning aksariyati taxallusidan ham ma'lumki, ular Oltin O'rdadan, O'rta Osiyodan borib, o'sha yerda o'rnashib qolganlar va Oltin O'rdadagi adabiy an'anani, xususan, g'azalchilikni davom ettirganlar. Ayniqsa, Sayfi Saroyining g'azallarida so'z o'yinidan foydalanish mahorati bunga bir dalildir. Namuna sifatida Ahmad Xoja as-Saroyining g'azalini va Sayfi Saroyining javob g'azalini keltirish kifoya:

### **Ahmad Xoja as-Saroyi aytur: rahmat ul-Allohu**

Dilbarimning ul sadaf tek og'zida dur bor erur,  
La'lining shavqinda tun-kun diydalar dur bor erur.

Zulfi sunbultek, bo'yi sarv yenglari gulzor erur,  
Bo'yini ko'rmaga bir dam bulbulu gul zor erur.

Jon olib husnun sotar bu ne ajab bozor erur,  
Yo magar oshiqларig'a noz etib bezor erur.

Ravza yanglig' xus bog'inda yonog'i nor erur,  
Hajru ishqi ko'ngullarni yoqarg'a nor erur.

Banda Ahmadni bek tabg'inda xush asror erur  
Kim, aning she'ri so'zlari asror erur.

### **Ul vazn va ul qofiyada Sayfi Saroyi aytur**

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,  
Bo'yina oshuq sanavbar, yuzina gul zor erur.

Og'zi fistuq, ko'rki tangsuq, o'zi mushfiq yor erur,  
Husnining chovi Xitovu Chin ichinda bor erur.

Asli alchin, so'zlari chin, ko'zlari totor erur,  
Ming yashar har kim, dudog'i sharbatin totor erur.

Ishqining elchisina ko'nglim munaqqish dor erur,  
Zulfina tushkan ko'ngullarning maqomi dor erur.

Nechakim ishqi o'ti bu jon ichinda bor erur,  
Qahrabo uzra ko'zumdin dambadam dur bor erur.

Shahd so'zi, orif o'zi, voqifi asror erur,  
Vasl bo'stonida xush oshiqlerin asror erur.

Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash'or erur,  
Andin o'zga birla oshiqqa yemak osh or erur  
(*Najib E.N. Yuqoridagi asar...*, 237-238-b.).

Har ikkala g'azal o'zbek adabiyoti tarixida kam uchraydigan qofiyalanish tizimiga ega. Qofiyalanish tizimi bo'yicha bu she'r g'azali zebqofiya deb yuritiladi. G'azalning hamma baytlari, xuddi g'azalning matla'i kabi, ya'ni *a-a, a-a, a-a* tarzida qofiyalanadi. Mazkur g'azallardagi *durbor-dur bor, gulzor-gul zor, totor-totor* va h. qofiya tajnis asosiga qurilgan. Bunday qofiyalanish tizimi o'zbek she'riyatida kam uchraydi. Hozircha faqat ikkala shoir ijodida uchradi, xolos.

Sayfi Saroyining katta ijodkor, Oltin O'rda va Mamluklar davlatida e'tiborga loyiq shoir bo'lgani uning javob g'azaallaridan ham anglashilib turadi. Yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlarning she'rlariga Sayfi Saroyi bir xil vaznda va qofiyada javob she'r bitar ekan, Xorazmiy taxallusli shoirning

Soldi niqob chehradin ul turki xovariy,  
Bo'ldi yana jahon yuzi oinatek ari.

matla'i bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azaliga uning javob she'ri diqqatga sazovor. Uning she'riga Sayfi Saroyi 24 baytdan iborat qasidasi bilan javob beradi. Qasidaning matla'i quyidagicha:

Oltun qanotin ochti esa subh shunqari,  
Ko‘k ko‘lga botti jumla kavokib kabutari.

Qasida Iskandariya shahzodasi Tayxosbekka bag‘ishlanganini quyidagi baytlar tasdiqlayotganday bo‘ladi:

Aydi ravon qasidai g‘arro qilib bu kun,  
Eltkil aning qatinakim, ul dahr maxfari.

Iskandariyaning maliki bo‘zlar ahli jud  
Kim, Hotimi zamona kerak bo‘lsa chokari..

Hamza yurakli erdam eri Rustami zamon,  
Bu asr ichinda o‘zlarining yo‘q barobari.

Bundan tashqari, “Gulistoni bit-turkiy” debochasida keltirilgan masnaviyda Tayxosbekning sifatlaridan biri – saxiylikda Hotami Toy singari ekanini ta’riflaydi. Masnaviyda Tayxosbekka qarata aytilgan “Jud ichinda Hotimi Toyi zamon (Saxiylikda zamonning Hotami Toyidir)” iborasi mazmunan yuqorida keltirilgan baytda ham bor. Shu bois qasida Tayxosbekka bag‘ishlangani yana bir karra ayon bo‘ladi.

Sayfi Saroyining she‘rlari orasida ikki variantdagi bitta xalq qo‘shig‘i bor. Qo‘shiqni shartli ravishda “Farang qizi” deb nomlash mumkin. Ammo har ikkala qo‘shiq o‘g‘uz guruhidagi turkiy qavmlardan biri ijodiga mansub. Qo‘shiqning birinchi variantidan bir parcha keltiramiz:

Qizil olma dugulmudur, farang qizi,  
Shu kelan yor dugulmidir, yondurmag‘il.  
Hoy beklar, yondim,  
Beklar, yondim.  
Beklar, dedim.  
Toza guldur,  
Yondurmag‘il.

*(Bu xalq qo‘shig‘i parchasi Sayfi Saroyining E.Fozilov nashrga tayyorlagan (T.:1968, 47-b.) kitobidan olindi)*

Ikkinchi varianti ham, ba’zi so‘zlar o‘zgarishi bilan ijro etilganini hisobga olmaganda, yuqoridagi parcha bilan bir. Ammo bu xalq qo‘shig‘i

Sayfi Saroyi qo‘lyozmasi tarkibiga qanday kirib qolgani noma‘lum. Qolaversa, Sayfi Saroyining qo‘lyozmasi tarkibida, yuqorida aytilganiday, bir necha dastxatlar bor. Ehtimol, ana shu dastxatlardan biri bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, Sayfi Saroyi qo‘lyozmasining debochasida mazkur xalq qo‘shiqlari haqida biron ma‘lumot yoki ishora ham yo‘q. Sayfi Saroyining qo‘lyozmasiga turk xalq qo‘shiqlariga mansub bu xalq qo‘shig‘i kirib qolgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois bu haqda hozircha so‘z yuritish ortiqcha, deb bilamiz.

Sayfi Saroyining bizgacha yetib kelgan lirik she‘rlari miqdor jihatidan oz bo‘lsa-da, mavzu qamrovi keng: goh odamiylik va inson qadr-qimmatini, goh samimiy ishq-muhabbat, goh oliyjanob insoniy tuyg‘ular shoir she‘rlarining asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

**“Suxayl va Guldursun” dostoni.** Yuqorida biz bu asar “Yodgor-noma” nomi bilan tanilgani haqida aytgan edik. Sayfi Saroyi “Suxayl va Guldursun” dostonida dunyoviy ishq, sevgida vafodorlik, mardlikni kuylaydi. Doston afsona emas, balki tarixiy haqiqat asosida yaratilganini Sayfi Saroyi alohida ta’kidlab:

Emas afsona, chin ushbu bitilmish,

Bu chin, afsonadek ishqda yetilmish

misralari bilan boshlaydi. Dostonning mazmuni quyidagicha:

Amir Temur bilan Oltin O‘rda xoni To‘xtamish o‘rtasida bo‘lgan jangda To‘xtamish xon tomonidan ko‘p odam asirga olinadi. Bo‘lib o‘tgan jangda qonlar daryo bo‘lib oqdi. Asirlar orasida To‘xtamishning o‘g‘li Suxayl ham bor edi. Suxaylni zindonga tashladilar. Suxayl xuddi Yusuf singari go‘zal yigit, fazilatlarini bir talay, so‘zlari shirin yigit edi. Suxaylni zindonga tashlaganlaridan keyin, u uxlab qoladi va tush ko‘radi. Tushida bir parivash qiz bog‘da yurgan emish, Suxayl esa bog‘da qizga atab gullar terib yurgan emish. Qiz Suxaylning ko‘ngliga otash tashlab qochib ketibdi. Qizning ortidan yuguribdi-yu ammo bir chuqurga yiqilib tushibdi. Suxayl uyg‘onib ketib, bu tush ekanini anglabdi. Shohning qizi Guldursun kanizlari bilan sayr qilib yurib, zindondagi Suxaylni ko‘rib qoladi. Guldursun – o‘zini gul, Suxaylni bulbul deb bildi. Kechasi zindonbon oldiga keldi va zindonga tushib behol yotgan Suxaylning yuziga yuzini qo‘ygan edi, Suxayl o‘ziga keldi. Guldursun Suxaylga: “Men sizning fidoyingizman” deb, Suxayl Guldursunga: “Men sening gadoying bo‘ldim”, deya ahdu paymon qildilar va ikkovi chohdan chiqib, qoch-



dilar. Ikkovi do‘zaxday qizib ketgan sahroda yuravordilar. Ammo Guldursun ochlikdan, suvsizlikdan yerga yiqilib, jon berdi. Chorasiz qolgan Suxayl ham “menga yaxshidir yor birla o‘lmak”, deya o‘ziga tig‘ urib, Guldursunning yonida jon beradi. Suhaylning ohu nolasidan sahroda bo‘ron ko‘tarilib, ikkoviga qum qabr bo‘ldi.

Sayfi Saroyi Layli va Majnun voqeasini ham doston nihoyasida tilga oladi. Bundan shuni anglash mumkinki, “Layli va Majnun” dostonlari, xususan, Nizomiyning mazkur nomdagi dostonidagi Layli va Majnun o‘rtasidagi ishq timsoli “Suxayl va Guldursun” dostoniga asos bo‘lgan.

Dostonning yozilgan sanasini Sayfi Saroyi quyidagicha ko‘rsatadi:

Yedi yuz to‘qson olti navro‘z oyi,  
Xatm etti buni sayfi Saroyi.

796 – milodiy 1393\94-yillarga to‘g‘ri keladi.

“Suxayl va Guldursun” o‘rta asar yozma adabiyoti singari xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida yaratilgan. Doston aruzning hazaji musaddasi maqsur vaznida (mafoiylun, mafoiylun, mafo‘iyl) bitilgan.\

Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er,  
Har og‘ir ish da ham doyim seni der.  
V - - - V - - - V - -

Sayfi Saroyi va uning ijodkor zamondoshlari ona Vatandan uzoqda bo‘lsalar ham, XIV asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyot saviyasini yuqori darajaga ko‘tarib, jamiki turkiy xalqlar o‘lkalaridagi aholining ona tilida ijod qildilar. XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asrda Misr madaniy-adabiy muhitini mamluklar tamomila o‘zgartirib yubordilar. XV asrda yashagan arab muarrixlari ham qipchoq tilida, ham arab tilida ijod qilgan ko‘plab olimlar, yozuvchilar va shoirlarning nomlarini keltiradilar. Ular Misrdagi madrasalarda turli fanlardan dars berdilar. Oltin O‘rdadagi o‘zaro jangu jadallar oqibatida XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab madaniyat arboblari Misrga ko‘chib borib, yangi-yangi turkiy madaniy markazlarni paydo qildilar. Bu davrda qipchoq-o‘g‘uz tilida turli mazmundagi va janrdagi adabiyot shakllandi. Arab va fors tillaridan bu tilga tarjima qilingan bar qator asarlar turkiy adabiyotni miqdor va sifat jihatdan boyitdi. Umuman turkiy madaniy muhit, tur-

kiycha an'ana va ruh o'zbek adabiyotining bu o'lkada rivojiga imkoniyat yaratib berdi.

“Shohnoma”ning tarjimasi ham ana shu madaniy muhitning mahsulidir. Mashhur venger turkiyshunosi Von Lekok shunday yozgan edi: “Misrning madaniyati va san'atining muttasil ravishda rivoji va gullab-yashnashi hokimiyat arablardan turkiy hukmdorlar qo'liga o'tgan davr bilan bog'liq”. Misrda nafaqat adabiyot turkiy tilda edi, balki turkiy qavmlar o'zlarining azaliy udum va qadriyatlarini ham saqlab qoldilar.

## **Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyy va uning “Jome’ ut-tavorix” asari**

### **Reja:**

1. “Jome’ ut-tavorix” asari haqida.
2. “Jome’ ut-tavorix”da O’g’uz xon haqidagi rivoyatlar.
3. O’g’uz xon haqidagi rivoyatlarda shomon obrazi.
4. “Jome’ ut-tavorix”da hikoyatlar.
5. “Jome’ ut-tavorix” asarining tili haqida.
6. Rashididdin – shoir.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *tarix fani, muarrix, adabiy janrlar, afsona va rivoyat janrlari, an’anaviy obraz, turkiy qavmlar tarixi, qadimgi turkiy mifologiya, afsonaviy epik ruh, shomon obrazi, hikoyat, og‘zaki hamda yozma hikoyatlar.*

**“Jome’ ut-tavorix” asari haqida.** Sharq badiiy tafakkuri adabiyot va tarix fanlarini doimo yonma-yon yurishiga, bir-birini to‘ldirib borishiga erishgan. Bunga sabab shuki, o‘tmishdagi muarrixlar adabiyotga alohida mehr bilan munosabatda bo‘lganlar, tarixni adabiyotsiz tasavvur qila olmaganlar. Ayni paytda tarix asarlaridagi rivoyatlar, hikoyatlar, she‘rlar va boshqa adabiy janrlar muarrixlarning ijodiy qobiliyatidan darak beradi, ular o‘z davrining adabiy jarayonidan yaxshi xabardorligini namoyon qiladi. Tarix asarlarining yana bir muhim jihati shundaki, muarrixda badiiy ijodga layoqat bo‘lsa, tarix asarini ham badiiyatning yuksak namunasiga aylantira oladi. O‘tmishdagi muarrixlarning faoliyati bunga yorqin misoldir. Ular iqtidorli ijodkorlar sifatida ham faoliyat ko‘rsatganlar. Shu bois ularning tarix asarlari badiiy asar sifatida uqilgan. Sharq tarixiga nazar tashlasak, buning jonli namunalarini ko‘ramiz. Qadimgi Xitoy yilnomalari yoki O‘rta Osiyo muarrixlarining har bir asari ana shunday xususiyatga ega. Muarrixlar xalq og‘zaki ijodi janrlaridan, ayniqsa, afsona, rivoyat janrlaridan unumli foydalanganlar va o‘zlarining tarix asarlariga bu janrlarni olib kirganlar.

Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyyning “Jome’ ut-tavorix” asari bu jihatdan alohida namunadir. Asar milodiy 1310/ 11 yillarda yozilgan. Asar turk-mo‘g‘ul qabilalarining kelib chiqishini, Chingizxon va uning avlodlari tarixini izchil bayon qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu

asar uch jilddan iborat bo'lib<sup>104</sup>, birinchi jildni bevosita Rashididdinning o'zi yozdi. Ikkinchi va uchinchi jildni muarrixlar Rashididdinning nazorati ostida yozgan, deb taxmin qilinadi. Birinchi jilddan turk-mo'g'ul xalqlarining Chingizxongacha bo'lgan tarixi o'rin oldi. Rashididdin bu jildni yozishda yozma manbalardan –Mahmud Koshg'ariyning arab tilida yozilgan “Devonu lug'atit-turk” (mil. 1068/69 y.), Juvayniyning fors tilida yozilgan “Tarixi jahonkushoy” (“Olamni bo'ysundiruvchilar tarixi”, mil. 1260 y.), Chingizxonning, uning ota-bobolarining rasmiy tarixini yoritgan “Oltin daftar” kitobidan foydalandi. “Oltin daftar” mo'g'ul tilida yozilgan bo'lib, Elxoniyalar saroyi xazinasida saqlanardi.

Yana shunisi e'tiborga sazovorki, birinchi jildda turkiy qabilalar tarixi va bu qabilalarning paydo bo'lishi haqida rivoyatlar berilgan. Bu rivoyatlar “O'g'uznoma” kitobiy eposida bayon qilingan turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar bilan deyarli bir. Shuning uchun, Rashididdin birinchi jildni yozishda “O'g'uznoma”dan ham foydalangan, deb aytish mumkin. Garchi “O'g'uznoma” XV asrda eski uyg'ur-turk yozuvida ko'chirilib, kitobat qilingan bo'lsa ham, ungacha og'zaki shaklda turkiy xalqlar orasida ijro etilib kelgan. Rashididdin ana shu og'zaki variantdan foydalangan bo'lishi mumkin.

Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy turkiy qavmlar tarixini va bu qavmlar O'g'uz xondan tarqalganini ilk bor ilmiy asosda yoritib bergan olimdir. Yuqorida biz aytib o'tgan Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi” (XI V), Abdulg'ozzi Bahodirxonning “Shajarai turk” (XVI 1) asarlariga ham “Jome' ut-tavorix” muhim va ishonchli manbalardan biri bo'lgan edi.

“Jome' ut-tavorix” fors tilida yozilgan bo'lib, olim o'z asari orqali mo'g'ullarning hamma qabilasi turkiy qavmlardan tarqalganligini asoslab berdi. Bu qabilalarning hammasi O'g'uzxonga, O'g'uzxonning shajarasi Nuh ibn Yofasga (yoki Abut-turkka) borib taqalishini ko'rsatdi.

**“Jome' ut-tavorix”da O'g'uz xon haqidagi rivoyatlar.** Turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlangan asarlarning deyarli hammasida uchraydigan bir an'anaviy obraz bor. Bu – O'g'uz xon obrazidir. Turk-mo'g'ul yoki turkiy qavmlar tarixi bilan mashg'ul bo'lgan muarrixlar, albatta, O'g'uz xon shaxsiga murojaat etganlar. Rashididdin Fazlulloh Hama-

<sup>104</sup> Asarning fors tilidan rus tiliga qilingan tarjimalari haqida qarang: Рашидиддин. Сборник летописей. Том 1., перевод с персидского А.А.Хетагурова, М.:Л.: 1952; Том 2, перевод с персидского Ю.П. Верховского, М.:Л.: 1960; Том 3, перевод с персидского А.К.Арендса, М.:Л.: 1946.

donyning “Jome’ ut-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida O‘g‘uz xon voqeasi batafsil hikoya qilingan. Shuningdek, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (XV1) va b. ayrim tarixiy asarlarda O‘g‘uz xon bilan bog‘liq voqealar bayon qilingan. Bu asarlarning hammasida O‘g‘uzxonga oid rivoyatlar, ayrim juz‘iy o‘zgarishlarni hisobga olmaganda, deyarli bir xildir. Bu holat, birinchidan, O‘g‘uz xon shaxsining muarrixlar tomonidan ko‘p va izchil o‘rganilganidan hamda biri ikkinchisidan foydalaniganidan, ikkinchidan, O‘g‘uz xon tarixiy shaxs sifatida o‘sha muarrixlar tomonidan e‘tirof etilganidan yuzaga kelgan.

O‘g‘uz shaxsi yoritilgan tarixiy asarlar yana ayrim jihati bilan biridan farqlanadi. Bu farq – O‘g‘uzxon tarixiga oid lavhalarining keng yoki tor bayon qilinganida ko‘rinadi. Rashiddinning “Jome’ ut-tavorix” asari O‘g‘uz xon obrazi batafsil yoritilgan manbalardan biridir.

“Jome’ ut-tavorix”ning O‘g‘uz shaxsini yoritishdagi ahamiyatli jihati shundaki, asarda O‘g‘uzxon musulmonlikka e‘tiqod qiluvchi qahramon sifatida talqin qilingan bo‘lsa ham, qadimgi turkiy mifologiyaning ba‘zi izlari saqlangan. Bu jihat “Jome’ ut-tavorix”dagi O‘g‘uz xon rivoyatiga qadimiy “O‘g‘uznoma” kitobiy eposi kuchli ta‘sir etganidan dalolat beradi. Endi “Jome’ ut-tavorix” asaridagi O‘g‘uzxon haqidagi rivoyatga e‘tibor beraylik:

Musulmon tarixida aytib o‘tilganiday va yahudiy xalqining “Tavrot”ida yozilganiday, Nuh payg‘ambar – joyi jannatda bo‘lsin – yer yuzini shimoldan janubga uch qismga bo‘ldi. Birinchi qismini o‘g‘illaridan biri Xomga berdi. Xom qora tanlilarning urug‘boshisi bo‘ldi. Ikkinchi qismini Somga berdi. Som arab va forslarning urug‘boshisi bo‘ldi. Uchinchi qismini Yofasga berdi. Yofas turklarning urug‘boshisi bo‘ldi. Nuh Yofasni Sharqqa jo‘natdi. Mo‘g‘ullar va turklar ham shu voqeani aytadilar. Turklar Yofasni Bulja xon (Abuljaxon – N.R.) deb ataganlar va hozir ham shunday deb ataydilar. Lekin Bulja xon haqiqatan ham Nuhning o‘g‘li yoki nabirasi bo‘lganini aniq bilmaydilar. Bulja xon Nuhning naslidan va uning zamoniga yaqin bo‘lgani haqiqatga to‘g‘ri keladi. Hamma mo‘g‘ullar, turk qavmlari va barcha ko‘chmanchilar Bulja xonning naslidan kelib chiqqan. Buning batafsil tafsilotini quyidagicha bayon qiladilar:

Bulja xon ko‘chmanchi edi. Uning yozgi qarorgohi O‘rtaq va Qaztog‘da joylashgan edi. Bu joyda baland tog‘lab bo‘lib, Inonj degan

**shahar** ham bor edi. Bulja xonning qishki qarorgohi ham shu atroflarda – Bursun, Ko‘kyon va Qorqurum degan joylarda edi. Qorqurumni Qorqurum deb ham ataydilar. Shu joylar yaqinida Talas va Qari Sayram shaharlari bor edi.

Qari Sayram – qadimiy va g‘oyat katta shahar. Ko‘rganlarning aytishicha, shaharning bu boshidan narigi chetigacha bir kunlik yo‘l, qirqta darvozasi bor. Hozirgi paytda bu shaharda musulmon turklar istiqomat qiladilar. Shahar Qayduning qo‘li ostida bo‘lib, Kunju ulusidan sanaladi. Uning nasllari o‘sha joy yaqinida. Bulja xon Dib Yaquy deganning o‘g‘li edi. “Dib” – munozara yoki lavozim joyi degan ma‘noni bildiradi. “Yaquy” esa butun qabilalar ustidan hukmronlik qiladigan odam deganidir. Bu o‘g‘il kuchli bo‘lgani uchun otasidan ustun kelib, shoh bo‘lishga loyiqligini isbotladi. Uning to‘rtta o‘g‘li bor edi. O‘g‘illarining ismi Qoraxon, O‘rxon, Ko‘zxon va Go‘rxon edi. Ularning hammasi dinsiz edi. Qoraxon otasining o‘rniga taxtga o‘tirdi. Qoraxon o‘g‘il ko‘rdi, o‘g‘il uch kungacha onasini emmadi. Onasi esa yig‘lab iltijo qilardi. Har kuni kechasi ona tush ko‘rar, tushida o‘g‘li go‘yo unga shunday deyayotganday bo‘lardi: “Ey ona! Agar sen haqiqiy Xudoga ibodat qilib, muhabbat qo‘ysang, men sening sutingni emaman”.

Eri Qoraxon va butun xalq hali tanho Xudoni bilmagani uchun, ayol: “Agar tanho Xudoga sajda qilayotganimni bilib qolsalar, bolam bilan birga meni o‘ldiradilar”, deb qo‘rqardi. Ayol yashirincha haqiqiy Xudoga imon keltirib, tavba qildi va komil ishonch bilan qodir Xudoning haqiqatini sevguchi bo‘ldi – u shuhrat topib, hammadan ustun bo‘lsin! – Shundan keyin go‘dak onasining ko‘kragini ema boshladi. Bir yoshga yetganda, favqulodda pokiza va chiroyli bola bo‘ldi, manglayida yekuk aqlning va haqiqiy imon yo‘lida rahnamolikning alomatlari yaltirab turardi. Shunda otasi Qoraxon o‘g‘lidagi bu alomatlarni ko‘rib, aytdi: ‘Xalq orasida bunaqa qiyofadagi, bunday husndor bola hali tug‘ilmagan edi. Mening o‘g‘lim o‘z tengdoshlari va o‘ziga o‘xshaganlar orasida ilug‘, hurmatga sazovor bo‘ladi, shubhasiz, komillik darajasiga yetadi”.

Bolaga nom qo‘yish munosabati bilan otasi qarindosh-urug‘larini naslahatga yig‘di. Bir yoshli bola tilga kirib: “Meni O‘g‘uz deb aytinglar”, dedi. Shu yerda hozir bo‘lganlar bu ahvoldan haddan tashqari hayratga tushdilar. Ular, chaqaloq aytganlari bo‘yicha, bolani O‘g‘uz deb atadilar. Uning bu so‘zi qodir Xudoning haqiqatiga amal qilishning jihat’iy alomati edi.

O'g'uz voyaga yetgach, otasi Qoraxon o'g'lini jiyanlaridan biriga – Ko'zxoning qiziga unashtirib qo'ydi. Qiz nihoyatda chiroyli va aqlli edi. O'g'uz hech kimga bildirmay qizga aytdi: “Agar sen haqiqiy Xudoga itoat etib, ilohiy haqiqatga chin do'st bo'lsang, men ham senga ko'ngil qo'yib, bir yostiqqa bosh qo'yaman”. Qiz bu taklifni o'zi uchun imkonsiz deb bildi va O'g'uzning maslahatiga quloq solmasdan dedi: “Bu gapingni otangga aytaman, toki u seni yo'q qilsin”. Oqibatda O'g'uz qizga e'tibor qilmadi, moyillik ham bildirmadi. Otasi ko'rdiki, O'g'uz bu qizni sevmas ekan, ikkinchi ukasi Go'rxonning qiziga unashtirdi. Qizni O'g'uzga unashtirganlaridan keyin, O'g'uz bu qizga ham o'sha gaplarini aytdi. Lekin qiz uning taklifini rad etib, haqiqiy dinni qabul qilmadi. O'g'uz bu qizga ham ko'ngil qo'ymadi va qizga yaqinlashmadi. Qoraxon ko'rdiki, O'g'uz bu qizga ham ko'ngil qo'ymayapti. Ikkala xotinidan birontasiga ham yaqinlashmayapti. Qoraxon o'g'lining xohishi bilan uchinchi ukasi – O'rxonning qiziga unashtirdi. Hali qizni uylariga olib kelmagan edilar, bir kuni O'g'uz ovdan qaytayotib, daryo bo'yicha O'rxonning qizini ko'rib qoldi. Qiz kiyimlar yuvayotgan cho'rilarini nazorat qilib turgan edi. O'g'uz qizga yaqin kelib, unga dedi: “Bilasan-ki, men ikkala amakimning qizlariga uylangan edim, lekin men ularni sevmayman, ular bilan aloqa qilmayman. Sababi shuki, ular samoviy Xudoga imon keltirsinlar, unga e'tiqod qo'ysinlar, deb istagan edim. Lekin ikkalasi ham mening gapimga kirmadilar, so'zimni rad qildilar. Endi esa meni senga unashtirdilar. Agar sen tanho Xudoni e'tirof etsang, Unga imon keltirsang, senga uylanaman, senga ko'ngil qo'yaman”. Qiz shunday javob berdi: “Men haqiqiy Xudoni bilmayman, aslo xabarim yo'q. Lekin bironta so'zingni, buyrug'ingni yerda qoldirmayman, sening amringga itoat etib, quloq solaman”. O'g'uz dedi: “Yurakdan istaganim shudir, sen ilohiy haqiqatga imon keltirgin, ilohiy haqiqatni sevgin, deb amr qilaman”. “Sening aytganlaringga roziman”, deb javob berdi qiz. Shunday qilib, qiz haqiqiy dinni qabul qildi va ilohiy haqiqatni sevdi.

Shundan keyin O'g'uz qizni oldi, unga ko'ngil qo'ydi, har doim unga yaqinlashdi, boshqa xotinlariga esa yaqinlashmadi. O'g'uz haqiqiy Xudoni tanib, solih bo'lgani uchun otasi va amakilari bilan gaplashishni istamas edi. Chunki ular imonsiz edilar. Shuning uchun doimo ulardan uzoq turishni istar, ulardan qochardi. Bir o'zi ovga borar, har doim arab tilida “O'lloh” deb Xudoning ismini aytardi. Bu so'zning ma'nosini hech kim bilmasdi. U har doim ajoyib ovoz bilan “O'lloh!” deb xitob qilardi.

Qarindosh-urug‘lari “O‘g‘uz bu so‘zni eshitalishi yoqimli bo‘lgani uchun, vaqtini chog‘ qilish, ermak uchun aytyapti, bu so‘z unga odat bo‘lib qolgan”, deb o‘ylardilar.

Bir kuni Qoraxon kelinlarigi ziyofat uyushtirdi, ularga mehribonlik ko‘rsatib, so‘radi: “Ikkala katta kelinim kichigiga qaraganda chiroyli-roq. Lekin o‘g‘lim kattalariga qaraganda kichigini sevadi. Nega u har doim kichigiga boradi, u bilan muomala qiladi, katta xotinlariga esa aslo e‘tibor qilmaydi?” Ikkala kelin eridan norozi bo‘lib, uni juda ham rash qilardilar. Qulay fursat topib, erlariga qarshi chiqib, Qoraxonga dedilar: “U boshqa dinni qabul qilgan – yeru osmonni yaratgan Xudoga imon keltirgan. U bizni ham shunga ko‘ndirmoqchi bo‘ldi, lekin uning taklifini rad qildik. Uning gaplariga e‘tibor bermadik. Shu sababdan u bizga yomon niyatda bo‘lyapti. Narigi kelingiz esa o‘g‘lingizga o‘xshab, o‘sha Xudoga imon keltirdi, u bilan maslakdosh bo‘ldi. Tabiiyki, eri uni yaxshi ko‘radi, bizni esa ko‘rarga ko‘zi yo‘q”.

Bu paytda O‘g‘uz o‘z navkarlari va do‘stlari bilan birga ovda edi. Qoraxon ukalarini, jiyanlarini, qarindosh-urug‘larini, amirlarini to‘plab, shunday dedi: “O‘g‘lim O‘g‘uz bolaligida taqdir taqozosi bilan erka o‘sgan, ammo qobiliyatli bola bo‘ldi. Men ham unga butun qalbim bilan bog‘langandim. Lekin u endi yomon ish qilibdi, bizning dinimizdan qaytibdi. Shuning uchun uni tirik qoldirib bo‘lmaydi”. Yig‘ilganlarning hammasi g‘azabga keldi, hamma bir ovozdand O‘g‘uzni o‘ldirishga qaror qildi.

O‘g‘uzning imonli xotini bu voqeani eshitgach, o‘sha zohoti ishonchli qo‘shni ayolni uning oldiga jo‘natdi va voqeadan xabardor qildi. O‘g‘uz jangga tayyorlandi. Hamma navkarlarini va do‘stlarini chorlab, voqeadan xabardor qildi. Ular ov qilayotgan joylaridayoq bir-birlari bilan yakdil bo‘ldilar. Otasi, amakilari, qarindosh-urug‘lari O‘g‘uzni o‘ldirish uchun birlashdilar. Ikkala tomon qo‘shinni jangga shay qilib, urush boshladilar. Bu jangda qarshi tomonning o‘qi Qoraxonga tegib, yaralandi va halok bo‘ldi. Amakilari va O‘g‘uzning qabilasidan ko‘pchilik Qoraxonga qo‘shilganlari uchun, ular bir-birlari bilan yetmish besh yil urishdilar, uluslar va jangchilar o‘zaro tortishib o‘tdilar.

Oxir-oqibat O‘g‘uz g‘alaba qilib, Talas va Sayramdan tortib Buxorogacha bo‘lgan o‘lkalarni bosib oldi. Bu o‘lkalar O‘g‘uzga so‘zsiz itoat etadigan bo‘ldi. O‘g‘uzga qo‘shilmagan ba‘zi amakilari, aka-ukalari va jiyanlari undan sharq tomonda joylashdilar. Ular, hamma mo‘g‘ullar



bizning urug‘dan tarqalgan, deb hisoblaydigan bo‘ldilar. Bu davrda mo‘g‘ullar hali imonga kelmagan edilar. Vaqtlar o‘tib, ular ham Chingizxon nasli bilan birga tanho Xudoga e‘tiqod qiladigan bo‘ldilar... (1 jild, 81-83-b.)

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kitobida ham yuqoridagi rivoyat aynan beriladi<sup>105</sup>. Rivoyatda afsonaviy epik ruh hukmron bo‘lib, O‘g‘uzni ideallashtirishning sabablari bor. Tarixga nazar tashlasak, buning sababini topamiz.

Xitoy yilnomalariga ko‘ra, miloddan oldingi III asrda Markaziy Osiyoda markazlashgan qudratli davlat barpo qilgan Botir tangriqutning obrazi ana shu rivoyatda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘sha tarixiy voqeada diniy muammo emas, balki ijtimoiy-siyosiy muammo o‘rtaga chiqqan edi. Botir yemirilib borayotgan davlatni saqlab qolish uchun otasi Tuman tangriqutni, taxtga da‘vogar bo‘lgan o‘gay aka-ukalarini o‘ldiradi va taxtni egallaydi<sup>106</sup>. Tarixiy voqea O‘g‘uz xon haqidagi rivoyatning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan edi. Shu tariqa O‘g‘uz xon tarixiy obraz sifatida yuzaga keldi. O‘g‘uz xon haqidagi rivoyat mo‘g‘ullarning islomga kirib kelishiga oid voqealarga bog‘langan bo‘lsa ham, tub tarixiy voqeaning – miloddan oldingi III asrda bo‘lib o‘tgan voqealarning qadimiy qatlami saqlangan. Zotan, mo‘g‘ullarning islomga kirib kelishi Oltin O‘rda davlati tashkil topayotganda yuz berdi.

**O‘g‘uz xon haqidagi rivoyatlarda shomon obrazi.** Mazkur rivoyatda bir detal diqqatni tortadi. Rashiddin o‘rni-o‘rni bilan turkiy qavmlarga notanish urug‘ va shaxs nomlarining kelib chiqishi haqida qisqa izoh berib boradi. Buning sababi shuki, mazkur rivoyat mazmuniga kitobxon befarq bo‘lib qolmasligi kerak edi. Tushunarsiz so‘zlar albatta rivoyat mazmuniga halaqit berishi tabiiy. Turkiy mifologiya saqlangan o‘rinlarda ana shuunday izohlar berilgan.

Ma‘lumki, eski turk diniy oqimi – shomoniylikda payg‘ambarlar va muqaddas kitoblar bo‘lmagani sababli qomlar, ya‘ni shomonlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. “Shomonlar istiqbolning yaxshi va yomon hodisalaridan ularni (ya‘ni ko‘k turklarni – N.R.) voqif aylaydilar. Qomlarning tavsiyalarisiz qo‘shin to‘plab urushga kirishilmas edi”<sup>107</sup>. “O‘g‘uznoma”

<sup>105</sup> Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Toshkent, “Cho‘lpon” nashriyoti, 1994, 42-46-b.

<sup>106</sup> Batafsil ma‘lumot olish uchun qarang: Turg‘un Olmos. Xunlarning qisqacha tarixi (uyg‘ur tilida). – Qashg‘ar uyg‘ur nashriyoti, 1986, 19-47-b.

<sup>107</sup> Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi.T.; Cho‘lpon, 1995, 56-b.

kitobiy eposidagi Ulug' Turk, "Dada Qo'rqut kitobi"dagi Qo'rqut ota obrazlari qadimgi turkiylar e'tiqod qilgan shomonlar obraziga misol bo'la oladi. "Jome' ut-tavorix" asarida ham bu shomonlar obrazlariga monand obraz bor. Irqil Xoja shunday obrazdir. U O'g'uz xon hukmronligi davrida ham, uning vafotidan keyin Kun xon hukmronlik qilgan davrda ham noib bo'lgan edi. Irqil Xoja aslida "O'g'uznoma" kitobiy eposidagi Ulug' Turk obrazidir. Irqil Xoja ham, Ulug' Turk singari, O'g'uz xon avlodlarining har biriga laqab, nom, tamg'a va belgi tayinlaydi. Xullas, Irqil Xoja va Ulug' Turk obrazlari O'g'uz xon haqidagi rivoyatlarda, kitobiy eposda o'z mohiyatini saqlagan.

"Jome' ut-tavorix" asarida O'g'uz shaxsini yoritish borasida yana bir diqqatga sazovor ma'lumot mavjud. Bizga ma'lumki, Xitoy solnomalari qadimgi turklar tarixi va rivoyat hamda afsonalari uchun eng qadimiy, ishonchli manbadir. Rashiddin "Jome' ut-tavorix" asarini yozishga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda – 1286-yili Eronga Xitoydan amir Po'lod Chjen Sin degan bir tarixchi keladi. Bu odam Xitoy solnomalari, mo'g'ul rivoyatlari bo'yicha chuqur bilimga ega edi. Rashiddin Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix" asari yuzaga kelishini, O'g'uz xon obrazining o'ziga xoslik kasb etishini, ya'ni O'g'uz xon haqidagi kitobiy eposdan farq qilishini ana shu Xitoy muarrixining ma'ruzalaridan ham qidirish lozim.

Rashiddinning mazkur asarida O'g'uz xon haqidagi rivoyatdan tashqari, turkiy qavmlarning – qipchoq, qarluq, qalach, saqlab, qangli kabi qabilalarning yuzaga kelish tarixiga oid rivoyatlar ham bor. Bu rivoyatlar "Jome' ut-tavorix"ning birinchi jildidan o'rin olgan. Bu rivoyatlarga alohida urg'u berishdan Rashiddinning maqsadi shu edi-ki, mo'g'ul qavmlari turkiy qavmlardan kelib chiqqanini va har ikkala qavmning bobosi O'g'uz xon ekanini ko'rsatish edi. Rashiddin ana shu rivoyatlardan ishonchli ilmiy dalil sifatida ham foydalandi.

**"Jome' ut-tavorix"da hikoyatlar.** Bu asarda Chingizxon o'g'illarining hayotiga oid ko'plab hikoyatlar ham bor. Ayniqsa, Ugadayxonga oid hikoyatlar ko'p bo'lib, bu hukmdorning ko'p qirralari – yerli aholiga xayrixoh munosabati, ayni paytda yolg'onchi, xushomadgo'y, o'g'ri va talonchilarga shafqatsizligi shu hikoyatlardan o'rin olgan. Rashiddin hikoyatlarga alohida urg'u berar ekan, asosan, Ugadayxonning shaxsiy fazilatlariga diqqat qaratadi. Mana, bitta hikoyat:

Xoqon Qoraqurum shahrini qurgandan keyin, bir kuni xazinaga kirdi va u yerda taxminan ikki tuman balish (pul birligi – N.R.) ko‘rdi. U shunday dedi: “Bu balishlarni yig‘ishdan nima ma‘ni bor?! Bularni doimo qo‘riqlash kerak bo‘ladi-ku! Hammaga e‘lon qilinsin: balish olishni istaganlar kelib, olib ketaversin”. Shahar aholisi – zodagonlar ham, oddiy xalq ham, boylar ham. kambag‘allar ham – hamma xazinaga kelib, katta miqdorda balish olib ketdilar.

Hikoyat, bir tomondan, Ugadayxonning saxiyligini ko‘rsatadi, ikkinchidan, har qanday boylik insonlarning manfaatiga xizmat qilishi kerak degan uning qarashiga ishora qiladi. Endi quyidagi hikoyatga murojaat qilaylik:

Bir odam xonga forslarning bosh kiyimini olib kelibdi. Xon shirakayf ekan, uni ikki yuz balish pul bilan mukofotlabdi. Xon a‘yonlari yorliq qog‘ozini o‘sha odamga beribdilar, ammo muhr qo‘yishni orqaga suraveribdilar. Ular: “Ehtimol, xon janobi oliylari sarxushlikda farmon berib yuborgan bo‘lishlari mumkin”, deb xavotirlanayotgan ekanlar. Xon ertasi kuni o‘sha odamni saroyda yurganini ko‘rib qolibdi. Xon a‘yonlari o‘sha odamga beriladigan yorliq qog‘ozi haqida so‘zlabdilar. Xon, uch yuz balishga yorliq beringlar, deb buyuribdi. Ammo xazinadan pul berishni yana orqaga suraveribdilar. To pul miqdori olti yuz balishga yetmaguncha, xon har kuni yuz balishdan qo‘shaveribdi. Oxiri, xon amirlarini va bitikchilarini chaqirib, ularga quyidagi savolni beribdi: “Bu olamda biron narsa abadiy qoladimi yoki yo‘qmi?” Hammalari bir ovozdan “Yo‘q!” deb javob beribdilar. Shunda xon sohib Yalavochga yuz burib, aytibdi: “Bu – xato, dong‘i ketgan nom va yaxshi xotira abadiy qoladi”. Kotiblarga qarab, aytibdi: “Mening ashaddiy dushmanlarim sizlarsiz, chunki sizlar mendan yaxshi nom va yaxshi xotira qolishini istamaysizlar. Sizlar o‘yladilaringizki, xon sarxush bo‘lgani uchun shuncha pulni berib yuboryapti deb. Sizlar esa bu qilig‘ingiz bilan (men bilan xalq o‘rtasida) g‘ov yaratdingiz, muhtoj odamni ushlab o‘tiraverdingiz. Endi boshqalarga namuna bo‘lsin deb, biringiz boshqangizdan qilmishlaringiz uchun qasos olmas ekansiz, foydasi yo‘q”.

Ugaday xon saxiy, ayni paytda har bir ishni ezgulik yo‘lida qilib, yaxshi nom qoldirish jamiki boyliklar oldida hech narsa ekanligini uq-

tiryapti, xonning atrofidagi odamlar xonga muvofiq bo‘lishi lozimligini ko‘rsatyapti. Rashididdin ayni paytda hukmdorning el orasidagi sha‘ni obro‘sizlanishi oqibati qanday fojia bilan nihoyasiga yetishi muqarraligini ta‘kidlayapti. Hukmdorning amri hech qanday mulohaza va muhokamalarsiz vojib bo‘lishi muqarrarligini muarrix ham bu hikoyat ommaga yetkaziyapti.

Ugadayxonni go‘zal axloq, oliyanob fazilatlar egasi sifatida tasvir- lar ekanlar, Rashididdin va kitobni yozishda ishtirok etgan muarrixlar manfaat ko‘zlamagan, balki turli tarixiy manbalardan, og‘zaki xabarlar- dan bu hukmdor haqidagi ma‘lumotlarni to‘plab, hikoyatga aylantirgan. Rashididdining ijodkorlik mahorati ana shunday hikoyatlarda yorqin o‘z ifodasini topadi. Qolaversa, Rashididdin “Jome’ ut-tavorix”ni yoz- gan paytda (milodiy 1310\11 yillari) Ugaday xon allaqachonlar olamdan o‘tib ketgan edi (1241-yilda). Rashididdin Chingizxonning avlodlari ha- qida yaxlit va xolis tarixni, ular haqida yaratilgan og‘zaki hamda yozma hikoyatlarni bir joyga jamlash, kitobxonlarga ishonchli tarixni va xolis adabiyotni taqdim qilish edi. U maqsadiga erishdi.

Boshqa mo‘g‘ul hukmdorlari, jumladan, Chig‘atoy haqida yaratil- gan hikoyatlar bu fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi. U ham akasi Ugaday vafot etgan yili – 1241-yili G‘uljuda olamdan o‘tgan edi.

Rashididdin Chig‘atoyning shaxsiy fazilatlarini ukasi Ugaday xon bilan aloqadorlikda yuzaga chiqaradi. Chig‘atoy Ugaday xonga hurmat va izzat-ikrom bilan munosabatda bo‘lar edi. Ugaday xon bo‘lajak taxt vorisi bo‘lgani uchungina emas, balki otasi, Ugaday taxt vorisidir, deb e‘lon qilgani bois, uning vasiyatini bajo qilish Chig‘atoy uchun amri vojib edi. Ota vasiyati qonun bilan barobar edi. Lavozimning ikir-chi- kirlariga ham hurmatli munosabatda bo‘lishni Chig‘atoy Ugaday xon- ga bo‘lgan munosabatida namoyon qiladi. Qolaversa, mo‘g‘ullar turkiy davlatchilik qoidalarini juda yaxshi o‘zlashtirib olgan edilar. Rashidid- din bir voqea orqali Chig‘atoyni nihoyatda tarbiyali, ota vasiyatiga va qonunga sadoqatli ekanini ko‘rsatib beradi.

Bir kuni Chig‘atoy va Ugaday xoqon sarxush holda chopqir otlari- da ketayotgan ekanlar. Chig‘atoy zavqlanib, Ugaday xoqonga aytibdi: “Qani, kim o‘zarga garov bog‘lab, otlarni qo‘yib yuboraylik”. Ular ga- rov bog‘lashganlaridan keyin, otlarni choptirib ketibdilar. Chig‘atoyning oti yelib ketibdi va Ugadayning otidan salgina o‘zibdi. Chig‘atoy ke-

chasi bu voqeani eslab, o‘ylab qolibdi: “Men, otim xoqonning otidan o‘zib ketsin deb, u bilan garov boylashdim-a! Qanday qilib bunga yo‘l qo‘ydim?! Bunday xatti-harakatim katta xato. Boshqalar ham bu voqeani ko‘rib, dag‘allashib ketadilar. Bu esa yomon oqibatlariga olib keladi”. Ertasiga ertalab Chig‘atoy o‘z amirlarini chaqirib, shunday debdi: “Kecha men gunoh qilib qo‘ydim, shunday-shunday ish qildim. Hozir xoqon janobi oliylarining huzuriga boramiz, toki u menga ayb qo‘ysin va lozim bo‘lgan jazoni bersin”. U bir to‘da amirlarini ergashtirib, odatdagi vaqtdan oldinroq saroyga kelibdi. Soqchilar, Chig‘atoy xon bir qancha odamlari bilan kelibdi, deb Ugaday xoqonga xabar beribdilar. Ugaday xoqon bu xabarga to‘liq ishonmasa ham, nima sababdan keldi ekan, deb xavotirlanibdi. Odamlarini, chiqib bilinglar-chi, nimaga kelibdi ekan, deb tashqariga chiqaribdi. Chig‘atoy shunday javob beribdi: “Biz, hamma tug‘ishganlar, qurultoyda o‘zaro kelishib, quyidagicha qasamyod qilgan edik: Ugaday xoqon bo‘ladi, hammamiz unga itoat etamiz, buyruqlarini so‘zsiz bajaramiz, uning bironta so‘ziga qarshi bormaymiz, u bilan aslo tortishmaymiz. Kecha men u bilan garov boylashdim, otimni kim o‘zarga qo‘yib berdim. Xoqon bilan garov boylashimiz nahotki bizga munosib bo‘lsa?! Shuning uchun men aybdorman, aybimni anglab, bu yerga keldim. Bu qilig‘im uchun jazoga mustahiqman. Ugaday xoqon meni o‘ldiradimi, kaltaklatadimi – u hukm qiladi”. Ugaday xoqon o‘z shubhalaridan xijolat tortibdi, Chig‘atoyga muhabbati va mehri yanada ortibdi, unga bo‘lgan diqqat-e‘tiborini namoyon qilish uchun, shu gaplarimni yetkazinglar, deb buyuribdi: “Bunday gaplarni qo‘ysangiz-chi! Axir, siz mening akamsiz! Bunday mayda-chuyda narsalar e‘tibor berishingizga arzimaydi”. Ammo Chig‘atoy bu gaplarga rozi bo‘lmabdi. Oxiri, xoqon: “Sizni kechirdim”, deb aytgandan keyin, Chig‘atoy rozi bo‘libdi. Chig‘atoy esa xoqonga sodiq tobc‘ ekanini bildirish uchun to‘qqizta ot in‘om qilibdi. Shundan keyin Ugaday xoqonning mirzasi e‘lon qilibdi: “Hamma eshitib olsin, bilib qo‘ysin: xoqon Chig‘atoyni afv etdi, u esa aybi kechirilgani munosabati bilan “tikshimishi”<sup>108</sup> qilyapti”. Chig‘atoy shundan so‘ng qarorgohiga borib, o‘ziga xos notiqlik bilan jamiki odamlariga bu haqda hikoya qilib beribdi. Shu voqea munosabati bilan Chig‘atoy va Ugaday o‘rtasida ittifoq va muvofiqat yanada mustahkamlanibdi. Boshqa hamma qarindosh-urug‘lar faqat itoatkorlik yo‘lini tanlab, doimo Ugaday xoqonning farmoniga bo‘ysunadigan bo‘libdilar (2-jild, 95-96-b.).

<sup>108</sup> Bu so‘z “Jome’ ut-tavorix”da yuqori lavozimdagi shaxslarga qilingan in‘omni bildiradi.

Rashididdin Chigʻatoyning bu xatti-harakatini, bir tomondan, la-ganbardorlik emas, balki yozilmagan qonun sifatida baholagan boʻlsa, ikkinchidan, sharqona odob oʻgit sifatida keltiradi. Qolaversa, Chigʻatoy shohlik qonun (yasa)-qoidalariga rioya qilish borasida tarixda hamma-ning eʼtirofiga sazovor boʻlgan edi. Hikoyatda Chigʻatoyning ana shu qirralariga ham eʼtibor berilgan boʻlib, uning tengsiz salohiyatga ega shaxs ekani ayon boʻlib turadi.

**“Jomeʼ ut-tavorix” asarining tili haqida.** Tarix asarlari ijodkor-larining badiiy ijodga aloqadorligini belgilaydigan yana bir omil badiiy tildan foydalanish mahoratidir. Rashididdinning “Jomeʼ ut-tavorix” asari mumtoz fors tilida yozilgan. Rashididdin bu asaridan oldin “Kitob ul-ixyo va-l-asar” qomusiy asarini va “Miftoh ul-tafsir” nomli Qurʼonga sharhini yozdi. Har ikkala asaridan ham koʻra, “Jomeʼ ut-tavorix” Ras-hididdinga shuhrat keltirdi. Mazkur asar turk-moʻgʻul xalqlari tarixini xolis va ilmiy asosda yoritgani bilan bir qatorda, asarning yozilish uslubi ham Rashididdinning nasr ustasi ekanidan dalolat berardi. “Jomeʼ ut-tavorix”ni u sodda, chiroyli, ayni paytda obrazli til bilan yozdi. Rashi-diddinning bu asari badiiy nasr namunasi sifatida koʻplab zamondosh muarrixlarga namuna boʻldi. Zotan, muarrixlar oʻz asarlariga ortiqcha jilo berishga urinib, metaforalar, mubolagʻalar, sheʼriy topishmoqlar va boshqa qator timsollardan foydalanishar, buning oqibatida asarni oddiy kitobxon tushunishga qiynalardi. Rashididdin esa oʻz asarini keng om-mani nazarda tutgan holda yaratdi, soddalik va oddiylikni asar tilining bosh mezon deb bildi.

**Rashididdin – shoir.** Rashididdinning ijodkor sifatidagi iqtidori sheʼriyatida ham koʻrinadi. U maʼlum bir voqea yoki shaxsiyatlar muno-sabati bilan sheʼrlar yoki sheʼriy parchalar keltiradi. Bu sheʼrlarning ay-ri-ri Rashididdinning oʻziga tegishli ekani maʼlum boʻlib turadi. Ma-salan, jang maydonida otdan yiqilib, dushmanning otliq askariga yerdan turib hujum qilgan va bir necha chaqirimgacha otliq dushmanni quvgan qahramonning jasoratidan hayratlanib quyidagi misrani bitdi:

Jang qilishga qodir bunday piyoda sipohni koʻrmagan edim,  
U itoatsizlarning kallasini qoʻlga kiritdi (*1-jild, 174-b.*).

Yoki Xalokuxonning Bagʻdod xalifasi Mustasimga chopar orqali yuborgan tahdidli xabarini quyidagicha sheʼrga soldi:

Osmon gumbazidan seni uloqtiraman,  
Sherday o‘kirib, oyog‘ingni osmondan qilaman.  
Shohligingda tirik jonni qoldirmayman,  
Shaharu qishloqlaringni olovga yem qilaman (3-jild, 35-b.).

Rashididdin Firdavsiyning “Shohnoma”sidan, Sa‘diy Sheroziydan, Nasiriddin Tusiydan baytlar keltiradi, qit‘a, fard kabi janrlardan unumli foydalanadi. Uning adabiy janrlarga munosabatidan badiiy ijodga yanada yaqin bo‘lganini anglash mumkin.

Umuman, “Jome’ ut-tavorix” – badiiy ijod mahsuli bo‘lib, uning muallifi Rashididdin katta ijodkor sifatida adabiyot tarixidan o‘rin olishga loyiqdir.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Jome’ ut-tavorix” qachon yozilgan?
2. O‘g‘uz xon haqidagi rivoyatning qisqa mazmunini so‘zlab bering.
3. Rashididdin bu asarini yozishda qaysi manbalardan foydalangan?
4. Bu rivoyatda shomon qaysi obrazda o‘z ifodasini topgan?
5. Ugaday xon haqidagi rivoyatning mohiyati nimalardan iborat?
6. Chingizxon nima uchun a‘yonlari bilan Ugaday xonning huzuriga bordi?
7. Ugaday xon Chig‘atoy xonga qanday munosabatda bo‘ldi?
8. Rashididdinning shoirlik mahoratiga misollar keltiring.

## Qutb va uning “Xusrav va Shirin” dostoni

### Reja:

1. Qutbning “Xusrav va Shirin”i tarjima asari sifatida.
2. Qutbning tarjimai holiga oid ma’lumotlar.
3. Tarjimadagi farqlar.
4. Dostonda Tinibek madhi.
5. Dostonda ishq timsoli.
6. “Xusrav va Shirin”ning qisqacha mazmuni.
7. Qutb – shoir.
8. Qutbning “Xusrav va Shirin”ida folklor obrazlari va motivlari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *erkin tarjima, badiiy mahorat, asliyat, adabiy muhit, turkiy doston muallifi, bayt, an’ana, boblar.*

**Qutbning “Xusrav va Shirin”i tarjima asari sifatida.** Oltin Oʻrda adabiy muhitida yaratilgan yana bir doston “Xusrav va Shirin”dir. Bu doston mashhur ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy qalamiga mansub shu nomli dostonning eski oʻzbek tilidagi erkin sheʼriy tarjimasidir. Asar tarjimoni xorazmlik Qutbdir. Bu ijodkorning bizgacha yetib kelgan birdan- bir asari “Xusrav va Shirin”dir. Zotan, Qutb oʻz asarini Nizomiyning shu nomdagi dostoni tarjimasini ekani toʻgʻrisida shunday deya xabar beradi:

Qozonteg qaynab ush savdo bishurdum,  
Nizomiy bolidan halvo bishurdum.

Xonim otingʻa ushbu forsi tilni  
Chevurdum tuzdum ush nazm uzra qilni.

Chiqardim xush yidigʻligʻ suv bu koʻldin,  
Koʻngullar qonsu teb bu sofi suvdin (32-b.)<sup>109</sup>.

Garchi Qutb kamtarlik bilan oʻz tarjimasini “Nizomiy bolidan pis-hirilgan holva” deb aytsa ham, tarjima nihoyatda katta mehnat samarasi

<sup>109</sup> Parcha quyidagi nashrdan olindi: Зайнатовский А., *HESRAV U SIRIN KUTBA*. Tekst WARSZAWA, 1958; bundan keyin mazkur kitob sahifasi koʻrsatiladi, xolos



va buyuk iste'dodning zuhuri deb ayta olamiz. Badiiy tarjima tarjimonga katta mas'uliyat yuklashi bilan birga, ijod hamdir.

**Qutbning tarjimai holiga oid ma'lumotlar.** Qutbning tarjimai holiga oid ba'zi ma'lumotlarni “Xusrav va Shirin”dagi “Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur” bobidan anglash mumkin. Qutbning tug'ilgan, yashagan yillari va joyi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Shu bobda Qutb “Xusrav va Shirin” dostonini Oq O'rda poytaxti Sig'naqqa (Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan shahar, hozirgi Qozog'iston hududida) olib borgani haqida aytib o'tadi. U o'z dostonini aslida 1339-yili tamomlagan. Qutb asarini Tinibekka bag'ishladi. Tinibek – Oltin O'rda tanazzulga yuz tutish arafasida hukmronlik qilgan xon O'zbek xonning (hukmronlik davri 1312- 1340-yillar) o'g'li. Tinibek (hukmronlik davri juda qisqa – 1340-yil) Oltin O'rda tarixida juda katta iz qoldirmagan bo'lsa ham, Qutb “Xusrav va Shirin” dostonida bu hukmdorga bergan ta'rifidan shuni anglash mumkinki, Tinibek yosh, aqlli va jasur hukmdor edi. Qutb Oq O'rdada yoki Sharqiy Qipchoqning poytaxti Sig'noq shahrida yashagan deb taxmin qilsa bo'ladi<sup>110</sup>. Aslida Oltin O'rdaning asosiy xonlari Ko'k O'rdada o'tirib, 1224-1359-yillarda Qipchoqning g'arbiy qismini boshqargan.

“Malika marhuma xon Malik madhi” bobida esa Oq O'rda haqida so'z ketadi:

Jamila xon Malik ul baxt o'rki,  
Oq O'rdu davlati, ul taxt ko'rki (30-b.).

Bu baytdan Tinibek Oq O'rdada yashagani ma'lum bo'lib turibdi. Qutb “Xusrav va Shirin” dostonini Tinibekka va xon Malik – hukmdorning xotiniga bag'ishlashni niyat qilganini, Nizomiy nazmi singari kitob yaratib, o'zini xonga tanitishni maqsad qilganini alohida ta'kidlaydi. Xon Malik – Oltin O'rda hukmdorlarining xotinlariga berilgan unvondir.

Italiyalik sayyoh Plano Karpini Oltin O'rdaga qilgan sayohatida (1245-yil) malikalar ham hukmdor erlari bilan taxtda o'tirib, davlat ish-

---

<sup>110</sup> Ingliz olimi Stenli Len-Pul bergan ma'lumotga ko'ra, Tinibek Ko'k O'rda (G'arbiy Qipchoq) da 1340-yili bir necha oy davomida hukmronlik qilgan. Undan keyingi hukmdor Jonibekning taxtga o'tirgan yili ham 1340 deb ko'rsatilgan. Qarang: Абуль-Гази Баходур-хан. Родословное древо тюрков. Стэнли Лен-Пуль. Мусульманские династии. Москва-Ташкент-Бишкек. 1996, 452-б. Stenli-Pul Oq O'rda va Ko'k O'rda xonlari haqida bergan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladi, Tinibekning, qolaversa, Qutbning tarjimai holiga oid kuzatishlar aniqlik kiritishni talab etadi.

larini boshqarishda ishtirok etganlarini yozgan edi. Shuningdek, arab sayyohi Ibn Batutta bu an'ana O'zbek xon vaqtida ham borligi haqida ma'lumot beradi<sup>111</sup>.

“Xusrav va Shirin”da Qutbning tarjimai holiga aloqador yana bir bayt – Misr Mamluklar davlatiga ishora qilinganidir. “Shahzoda Tinibek xon madhi” bobining nihoyasida Qutb Tinibekning qudrati va oliyjanob sifatlarini, uning jahonshumul mavqeini madh qilar ekan, quyidagi misralarni bitadi:

Yurusun Misru Shomda yorlig'ingiz,  
Tabug'da irg'asun ko'b yorlig'ingiz (29-b.)

Bu baytdan anglashilishicha, 1340-yildan keyin Oltin O'rdaning tanazzuli boshlandi va Oltin O'rdadagi ba'zi adabiyot va san'at namoyandalari Misr mamluklar davlatiga yo'l oldilar. Qutb ham Mamluklar davlatiga ketishga taraddud ko'rayotgani chtimoldan xoli emasligiga mazkur bayt ishora qiladi.

**Tarjima dagi farqlar.** Har ikkala asarning ayrim o'rinlari solishtirilganda, Qutbning tarjima jarayonida qilgan qo'shimchalari, ayni zamonada uning mahorati ma'lum bo'ladi. Jumladan:

1. Qutb o'z tarjimasida Nizomiy dostonining ayrim boblarini qoldirdi va bularning o'rniga o'z ijodidan ayrim namunalarini kiritdi. L.A.Xetagurov tayyorlagan matn asosga olinganda, turkiy doston muallifi Qutb qiyoslash jarayonida Nizomiy dostonidan 15 bobni qoldirib, buning o'rniga 4 bobni yangidan qo'shgan. Bu o'zgarishlar “Muqaddima” boblarga, ya'ni “mamduh”lar tabiiy ravishda almashgan boblarga aloqador: an'anaga ko'ra, har ikkala asar boshqa-boshqa hukmdorlarga bag'ishlangani bois, bu boblarning matni ham almashgan. Jumladan, Qutbda Muhammad a.s.dan keyin xalifalikni boshqargan to'rt xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alining madhi tamomila yangidir<sup>112</sup>. Qutbning “Xusrav va Shirin”ida o'n yetti baytdan iborat “Rasul alayhissalomning to'rt yori o'dgusi” nomli parcha ana shu to'rt xalifaga bag'ishlangan. Nizomiyning “Xusrav va Shirin”ida esa bu parcha yo'q.

2. Nizomiyning “Xusrav va Shirin”ida “Kitob tuzish vasfida” bobi yer yuzida shohlikning joriy bo'lgani, Jamshid, Fag'fur kabi shohlar bi-

<sup>111</sup> Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Tatar adabiyoti tarixi (tatar tilida).., 176-b,

<sup>112</sup> Ганиханов М.А. Сравнительный анализ poem «Хусрав и Ширин» Низами и Кутба. Nomzodlik dis.avtoreferati, T.:1994, 6-b.

rin-ketin taxtga o'tirgani va ularning biri so'z bilan, boshqasi qilich bilan mamlakatlarni boshqargani va Nizomiyning so'z borasidagi xizmatlari, shohanshoh Eldigiz Muhammad Atobakining lutfu karamiga tahsin o'qigan baytlardan iborat. Qutbning "Xusrav va Shirin"ida esa "Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur" nomli parcha bor. Parchada mazkur asar tarjimasini shahzoda Tinibekka va "Malika marhuma xon Malik otiga" bag'ishlangani, "Nizomiy bolidin halvo" pishirgani va ishq vasfi bayoni berilgan.

3. Qutb yana Xusrav bilan Shirinning suhbatida ikki bobni, Borbad bilan Nigiso o'rtasidagi suhbatda ikki bobni tushirib qoldirgan. Nizomiy dostonida "Nizomiyning donoligi va o'gitlari" bobi mavjud. Bu bobda Buzurg Ummid "Kalila va Dimna"dan Xusravga qirqta masal hikoya qilib beradi. Bu bobni ham Qutb tarjimada tushirib qoldirgan.

4. Yana Qutb Borbadning qo'shiqlari tavsifini (29 baytni), Xusrav payg'ambarini tushida ko'rgani voqeasi (60 bayt)ni ham asariga kiritmagan.

5. Shu qatorda ozarbayjon shoirining bu olam bebaqoligi, hasadgo'ylar, insonlarning noshukrligi kabi falsafiy-axloqiy qarashlarini turkiy doston muallifi qisqartirib olgan.

6. "Xusrav va Shirin" tarjima asari bo'lgani holda, Qutb katta ijodkor sifatida voqealar tasvirida ancha erkin yo'l tutgan. Ayni choqda Qutbning asarida asl matndan qisqartirilgan o'rinlar, o'zgartirilgan geografik nomlar ham mavjud. Masalan, Qutb o'quvchiga qulaylik tug'dirish maqsadida Nizomiy dostonidagi Sosoniylar sulolasini Eron davlati deb ataydi. Forscha matndagi mamlakatlar, davlatlar nomlarini Qutb o'zbek kitobxoniga yaxshi tanish bo'lgan mamlakatlar nomlari bilan almashtiradi. Jumladan, Xusravning suhbatida Xuroson beklari ishtirok etadilar. Yoki Nizomiydagi Mehinbonu saroyi tasviri Qutbda yo'q. Nizomiy dostonida Madoyindan Xurmuzd tazyiqidan qochib kelgan Xusravni Mehinbonu o'z saroyida kutib oladi. Qutb esa bu lavhani yaylovga ko'chirgan va h.<sup>113</sup>

7. Nizomiy dostonining nihoyasidagi "Xusravning qabri ustida Shirinning o'limi" bobida 134 baytdan Qutb 59 baytni olgan, xolos.

8. "Xotimat ul-kitob" qismi Nizomiyda 112 baytdan iborat bo'lib, Nizomiyning o'z ijodidir. Turkiy dostonida esa bu bob "Necha so'z xo-

<sup>113</sup> Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Qayta ishlangan uchinchi nashri. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1976, 250-b.

timati kitobida aytur ustod” deb nomlanib, 51 baytdan iborat. Mazkur baytlar Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonini ko‘chirgan kotib Berka Faqih Qipchoqiy ijodiga mansubdir. Berka Faqih shoirilik iste’dodini ana shu baytlarda namoyon qilgan.

Shu o‘rinda Berka Faqih haqida qisqa aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Dostonning bizga ma‘lum bo‘lgan yagona nusxasini Qutb vafotidan ko‘p o‘tmay 1383-1384-yillarda Misrda Faqih ibni Berka Qipchoqiy ko‘chirgan. Bundan tashqari, Faqih ibni Berka Qipchoqiy anchagina mashhur olim va tarjimon bo‘lgan ko‘rinadi. U o‘zi ko‘chirgan nusxani Iskandariya hokimi Altunbo‘g‘aga bag‘ishlagan. Shuningdek, Faqih ibni Berka 1387-yili Altunbo‘g‘aga bag‘ishlab yozilgan “Irshod ul-muluk vas-salotin” (Sultonlar davlatiga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish) nomli asarni qipchoq tiliga tarjima qilgan. Bu asar musulmonlik huquqiga bag‘ishlangan bo‘lib, qo‘lyozmasi Istambuldagi Ayo Sofiya kutubxonasiga saqlanadi.

Faqih ibni Berkaning shoirlik iqtidori ham bo‘lganini Qutb “Xusrav va Shirin” dostoni nihoyasidagi “Necha so‘z xotimati kitobida aytur ustod” bobi ham ko‘rsatadi. Uning she‘ri “Qutadg‘u bilig” vaznida. Shu bois “Qutadg‘u bilig”ning Qohira nusxasini Misrga Faqih ibni Berka olib borgan degan fikrlar ham bor<sup>14</sup>.

Shunday qilib, ayrim boblarning va lavhalarning qisqartirilishi natijasida turkiy doston matni forscha matnga nisbatan ming baytdan ortiqroq qisqargan. Garchi shunday qisqartirishlar bo‘lsa ham, Nizomiy dostonining tuzilishiga, voqealar rivojiga, alohida lavhalarga Qutb tarjimasida zarar yetmagan. Bu singari qisqartirishlar albatta, kitobxonni nazarda tutgan holda, turkiy adabiyotga juda ham zarur deb hisoblanmagan o‘rinlarda yuz bergan, xolos.

Nizomiy va Qutbning “Xusrav va Shirin”idagi farqlar shuni ko‘rsatadiki, Qutbning asarida ijodiy yondashuv bor, tarjima uning ijod mahsuli ekanini ko‘rsatadi. Asarning hamma boblarida Qutb tarjimaga ijodiy yondashgani ma‘lum bo‘lib turadi. Masalan, dostonning asosiy qahramonni Xusrav, ikkinchi darajali qahramonlari Farhod, Shovur obrazlari tavsifida o‘zgarishlar Nizomiy dostoni bilan qiyoslanganda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nizomiyda Xusravning yoshlikdagi ta’rif-tavsifiga oid lavhalar bilan Qutbdagi ta’rif-tavsiflar o‘rtasidagi farqlarni keltirish o‘rinli bo‘lar edi. Xusravning jismonan ulg‘ayishi emas, balki ma’naviy tomondan kamol topishiga oid lavhalar Qutbda birmuncha mubolag‘ali

<sup>14</sup> Tatar adabiyoti tarixi, 1 jild., 175-b.

va xalqona tilda bayon qilinadi. Misol sifatida Nizomiy bilan Qutb dostonlarida Xusravning o'n to'rt yoshda qanday fazilatlariga erishganini solishtirish kifoya:

Nizomiyda:

Yetib o'n to'rtta yoshi topdi iqbol,  
Chiqordi murg'i donishi paru bol (39-b.).

Qutbda:

Tamomkim umri o'n to'rt yoshqa yetti,  
Bilig simurg'u tan Qofini tutti (35-b.)

Qutb Xusrav obrazini yangicha talqin qilmoqchi emas, ammo turkono obraz – xalq og'zaki ijodiga xos mubolag'ali tasvir yaratish Qutbning asosiy maqsadi edi. Garchi Qutbning o'zi bu haqda aytmasa ham, Xusravning ta'rif-tavsifidan shu maqsad anglashiladi.

**Dostonda Tinibek madhi.** “Xusrav va Shirin”ning muqaddimasi-dagi ma'lumotlarga ko'ra, Qutb XIV asr o'rtalarida yashab ijod etgan. Bu davrda Xorazm Oltin O'rda davlatiga tobe edi. Yuqorida aytganimizday, doston 1340-yili yozilib, Oltin O'rda xonlaridan O'zbekxonning (1312-1340-yillarda hukmronlik qilgan) o'g'li Tinibek va uning rafiqasiga bag'ishlangan. Asarda shahzoda Tinibekka o'ttiz to'qqiz baytdan iborat qasida bor. Qasidada Qutb Tinibekni olamda tengsiz xon, bilimdon, aqlli, jasur lashkarboshi, siyosatda nihoyatda dono va boshqa qator sifatlarga ega qilib tasvirlaydi:

Xonimiz Tinibek shohi juvon baxt,  
Kim o'sh andin quvanur toj ham taxt.

Yeti iqlim ichra xoli bu zamonda  
Tenging yo'q shaksiz ul barcha jihonda.

Bu kun xonliq bo'dung'a kertu xonsan,  
O'sh andin o'tru kim jonu jihonsan.

Bilig qamchisini elga olib o'sh,  
Yana davlat otingg'a otlanib xo'sh.

Aql tizginini kim berk tuttung,  
Azun maydoninda to‘b o‘ynab uttung...(28-b.)

Qutb Tinibekni o‘z davridagina emas, balki o‘tmishdagi mashhur podshohlardan ham buyuk hukmdor ekanini tasvirlar ekan, mubolag‘ali detallarga suyanadi, ammo bu detallar tarixiy voqeyelikka qanchalik mos keladi – bunisi noma‘lum. Bu tasvirlarni Qutbning ijodi mahsuli deb qarash kerak, xolos. Shu yo‘sinda Tinibek faqat Oltin O‘rda davlatining hukmdori bo‘lib qolmay, o‘tmishdagi bilimdon, jahonshumul hukmdorlardan ham ustun jahongir ekani kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Bu tasvir orqali Qutb, shubhasiz, Oltin O‘rdaning qudrati bilan birga, hukmdorlarning shaxsiyatiga ham urg‘u beradi:

Aningteg kim bag‘ishladi idi jud (сахийлик),  
Yer o‘bgay erdi tirik bo‘lsaydi Mahmud.<sup>115</sup>

Iki azunni Haq bir xong‘a bermish,  
Bu husnu xulq kim san jong‘a bermish.

Yana xulqung‘a loyiq tabi’ mavzun,  
Sochar har bir so‘zung ming durri maknun.

Zahi xulqu zahi fahmu zahi ilm,  
Zahi aqlu zahi tab‘u zahi hilm.

Zahi xonliq, zahi shafqat, zahi dod,  
Duo bor haqqingda yo‘q ush faryod.

Ne Xusravkim bu kun ham Xusravi Chin,  
Kerak o‘gransa podshohliqni sendin (28-29-b.).

Xalq og‘zaki ijodidagi ideal podshoh - ideal jamiyatning asoschisi ekani haqidagi g‘oyalardan Qutb Tinibek madhida unumli foydalangan ko‘rinadi. Bu asarning yagona qo‘lyozma nusxasi Parijda saqlanadi.

**Dostonda ishq timsoli.** “Xusrav va Shirin”dagi “Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur” bobida kitobning yozilishiga sabab sifatida

<sup>115</sup> Mahmud G‘aznaviyga ishora.

Qutb *ishq* timsolini ko'rsatadi. Insonning joni *ishq* bilan tirik, *ishqsiz* odam murda bilan barobardir, deya *ishqning* qudratiga quyidagicha ta'rif berishda davom etadi:

Kishining kim ko'ngulda *ishqi* bo'lsa,  
Ne tong bulbul mengizlik ul zori qilsa,

Falak mehrobi *ishq* ermish, xush angla,  
Oshiqning so'zini *ishq* birla tingla.

Kishi kim oshiq ermas joni yo'q, bil,  
O'lugni bormu ter ochunda oqil.

Agar it ko'nglinga Haq *ishqi* kirsas,  
Kelur ul tilga, ketmaz ursas, sursas (33-b.)

*Ishqning* suratini bu qadar teran va kitobxon ko'zi o'ngida yorqin aks ettirish iste'dodi Qutbning ulkan shoir ekaniga yana bir dalil. Uningcha, *ishq* timsoli keng tushuncha. Osmou zamin, dengizlar, jamiki borliq *ishq* bilan tirikdir. Shuningdek, *ishq* bo'lmasa, odam zoti ham dunyoga kelmagan bo'lardi. Bu degani – odamzod ham ilohiy *ishq* bilan barhayot, *ishq* tiriklik manbai deganidir.

Nizomiyning "Xusrav va Shirin"idan ayni shu parchalarga e'tibor bersak, *ishq* timsoli Qutb tarjimasida to'liq saqlanganini, hatto obrazlilik, *ishq* timsolining ilohiy *ishq* darajasiga ko'tarilganiga guvoh bo'lamiz. Qiyos uchun Nizomiyning "Xusrav va Shirin"idan ayrim parchalarga e'tibor beraylik:

Agar *ishqsiz* bo'lsa joni olam,  
Tirik qolgaymi bir davroni olam?...

Eshakdek yeb-ichishdan bo'lma xursand,  
Mushukdir gar anga ko'nglungni et band.

Mushuk *ishqida* gar dilgir erursan,  
Ki andin yaxshiroqdir sher erursan...

Odamzod tuxmi o'lgay donayi ishq,  
Berur har kimga baxt koshonayi ishq<sup>116</sup>.  
(32-b.)

Ishq timsolining tasvirida ma'lum farqlar bo'lsa-da, mohiyat har ikkala ijodkorda ham bir-biridan keskin farq qilmaydi. Zotan Qutb Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni syujetini, qahramonlar obrazini saqlagan.

Nizomiyning yuqoridagi baytlaridagi ishq timsoli tasviri Qutbning "Xusrav va Shirin"ida quyidagicha madh qilinadi:

Kishikim oshiq ermaz, joni yo'q bil,  
O'lukni bormu ter ojunda oqil?!

Agar it ko'nglina haqi ishqi kirsu,  
Kelur ul tilga ketmaz ursu, sursu.

Agar bo'lmasu oshiq charxi bazrom,  
Ne sargardon yurir, qilg'a(y) erdi orom.

Oshiq bo'lmasu ushbu yetti qat yer,  
Nedin muncha xaloyiq zaxmini yer?!...(33-b)

**"Xusrav va Shirin"ning qisqacha mazmuni.** Doston Eron shohi Xusrav Parviz bilan Armaniston (Qutbda Ko'histon) podshohining jiyani Shirin orasidagi muhabbat mojarolari to'g'risida hikoya qiladi. Doston xuddi turkiy xalqlar dostonlaridagi singari, farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Qutb dostonining qisqa mazmuni quyidagicha:

No'shirvon vafotidan keyin uning o'g'li Xo'rmuz otasining taxtiga o'tirib, mamlakatni adolat bilan, otasi o'rnatgan qonun-qoidalar bo'yicha boshqaradi. U farzandsiz edi. Xo'rmuzd ko'p qurbonliklar va ijtijolar qilib, O'g'ondan bir o'g'il so'radi. Nihoyat, Xo'rmuzdning xotini o'g'il tug'adi. Bola shunday chiroyli ediki, yuzlari quyosh kabi porlar, uning yuziga boqqan odamlarning ko'ngli ravshan tortardi. Shu bois bolaga

---

<sup>116</sup> Parcha quyidagi nashrdan olindi: Nizomiy Ganjaviy. Xusrav va Shirin. Doston. Forsiydan Olimjon Bo'riev tarjimai, Tehron, "Al-Xudo" xalqaro nashriyoti. 2005y. Bundan keyin mazkur nashrning sahifasi ko'rsatiladi. xolos.



Xusrav Parviz deb ism qo‘ydi. Bola o‘n to‘rt yoshga yetganda, harbiy hunarlarni, barcha bilimlarni egallab bo‘ladi, odamlarni ham yaxshi, yomon deb ajratadigan bo‘ladi.

Kunlarning birida Shovur ismli bir jahongashta odam Xusravga Shirin hamda uning ammasi haqida hikoyatini aytib beradi. Mehinbonuning qudratli hukmdor ekanini hikoya qiladi. Shirinning esa tengi yo‘q go‘zalligini Shovur ta‘rif-tavsif qilgandan keyin Xusrav Shovurni Ko‘histonga borishga undaydi. Shovur Ko‘histonga borgach, chiroyli gulzorda Xusravning suratini chizib, osib qo‘yadi. Bu go‘zal maskanga Shirin kanizlari bilan sayr qilgani chiqqan edi. Shovur Xusravning suratini ko‘zga ko‘rinadigan joyga qo‘ygandan keyin, o‘zi yashirinib oladi. Shirin Xusravning suratini ko‘rib unga shunchalik oshiq bo‘lib qoladiki, Shirinning ko‘zlaridan yosh o‘rmiga qon oqa boshlaydi. Shirin bog‘da yashirinib yurgan Shovurni sezib qoladi va kanizaklaridan birini uni chaqirib kelishga yuboradi. Shovur bilan Shirin bog‘da yolg‘iz qoladilar. Shovur Shiringa Xusravning kimligini, ta‘rifini qilib beradi. Xusrav ham Shiringa oshiq bo‘lib qolganini, Xusravning chiroyini Shovur hikoya qilib beradi. Shovur gapini tugatgandan keyin Shiringa Xusravning uzugini beradi va Xusravning saroyiga – Madoyinga borishni maslahat beradi. Shirin saroyga borib, Mehinbonudan ertasiga oti Shabdizni minib ovga chiqishga ijozat so‘raydi. Mehinbonu ijozat beradi. Shirin Xusravning huzuriga borish, unga yetishish uchun ammasi Mehinbonuni aldagan edi. Ertasiga Shirin saroydan g‘oyib bo‘lgani haqidagi xabarni kanizaklar Mehinbonuga yetkazadilar. Mehinbonu dod-faryod qiladi. Shunda bir qari pir ko‘rgan tushini aytadi:

Bu yanglig‘ tong ajoyib tush ko‘rdim,

Tushum ta‘birin ushbu ishga yo‘ydim, – deya uchib ketgan qushning – Shirinning ortidan quvish yaxshilik alomati emasligini, uchib ketgan qush bir kun qaytib kelishin bashorat qiladi.

Shirin Xusravning saroyiga yetib keladi. Ammo bu paytda shoh Xo‘rmuzd taxtni o‘g‘li tortib olib qo‘yishidan qo‘rqib, uni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Xusravga Buzurg Ummid “Otang sening joningga qasd qilgan, yaxshisi, bir necha kun otangning ko‘ziga ko‘rinma, bu yerdan uzoqlarga ket”, deb maslahat beradi. Xusrav Arman mamlakatiga yo‘l oladi. Yo‘lda bir gulzorda Xusrav bilan Shirin uchrashib qoladilar. Shirin Xusrav bilan birga Arman mamlakatiga ketadi.

Xusrav Mehinbonu saroyiga kelib, shu yerda yashab yurgan edi. Shu orada Xusravga otasi vafot etgani haqida xabar keladi. Xusrav otasi

vafotini eshitgach, Mehinobonu saroyidan ketadi va borib, otasi o'rniga taxtga o'tiradi. Xuddi bobosi No'shiron singari mamlakatni adolatli boshqara boshlaydi.

Shovur Shirinni Madoyinga Mehinbonu saroyiga qaytarib olib keladi. Ammo bu paytda Xusravning taqdiri tahlika ostida qolgan edi. Bahrom cho'bin Xusravga qarshi o'tlanadi. Bahrom: "Bu padarkush Xusrav podshoh bo'lishga nomunosibdir", deya xalqni qo'zg'aydi. Oqibatda Xusrav mag'lub bo'ladi va Eronga qochadi. Eronga qochib borayotganda, Shiringa duch kelib qoladi. Mehinbonuga shoh Xusrav kelgani va hushyor bo'lib turish haqida xabar keladi. Xusrav bilan Shirin esa bir-birlarining visoliga to'yamay, zavqlanish bilan band edilar. Mehinbonu bu ahvolni ko'rib, Shirinni Xusravdan sovutish uchun quyidagicha gaplarni o'ylab topadi:

Ko'rarmankim, ko'ngul bermish sanga shoh,

Yog'an tushmush saning ovungqa nogoh.

O'shul xud hech tiya bilmaz o'zini,

Vale san ham eshitursan so'zini.

Kerakmazkim suchuk so'z birla aldab,

Ey Shirin, shakkaringni qilsa jullob (98-99-b.)

Shirin Mehinbonuning bu qutqulariga ishonib, Xusravdan o'zini olib qochadi. Ammo ertasi kuni ikkalovi yana ko'rishadilar, vaqtni poyga, sayr bilan o'tkazadilar. Xullas, yoz mavsumi Xusrav bilan Shiringa baxtiyorlik lahzalarini olib keladi. Xusrav bilan Shiringa o'nta qiz navbatma-navbat afsonalar aytib beradilar. Xusrav Shiringa, Shirin Xusravga ahdu vafoda sodiqliklarini aytib, ont ichadilar.

Shundan keyin Xusrav lashkarini otlantirib, Rum mamlakatiga qarab ketadi. Rum qaysari Xusravni ko'rgach, uning tolei baland ekanini anglaydi. Qaysar o'z qizi Maryamni Xusravga nikohlab beradi. Bir necha kun Xusrav u yerda bo'lgach, Rum qaysaridan lashkar so'raydi. Qaysar Xusravga ko'p lashkar beradi va uni yo'lga kuzatib qo'yadi.

Xusrav o'z yurtiga yetib kelib, Bahrom chubin bilan jang qiladi. Bahrom chubinni Xusrav mag'lub qiladi, Bahrom qochib ketadi. Xusrav otasidan qolgan taxtga o'tirib, yana mamlakatni adolat bilan boshqara boshlaydi. Xayolini doimo Rum qaysariga bergan va'dalari, Maryam band qiladi. Shirin esa bu paytda Xusravning firoqida o'rtanadi. Shu orada Mehinbonu xastalanib, vafot etadi va taxtga Shirin o'tiradi. Xusrav Shovurni Shirinning huzuriga yo'llaydi. Shovur Shirinning saroyiga

borib, uni Xusravning huzuriga borishga ko'ndirmoqchi bo'ladi. Ammo Shirin qahr bilan Shovurning da'vatini rad qiladi:

Suchuk til birla meni aldayursan,  
O'zoqitekmu aldangay teyursan.  
Vafo qildim, jafolar qildi qarg'u,  
Jafo yutmoqqamu ul yerga borg'u?..  
Qayu ko'nglum bila anda borayin,  
Aning yoninda Maryamni ko'rayin? (149, 151-b.)

deya Xusravning bevafoqligini, subutsizligini, vafoga xiyonatkorligini ochib tashlaydi.

Shirinning yemak-ichmagi faqat sut edi. Sut keltiriladigan joy saroydan ancha uzoq edi. Shu bois xizmatkorlar sut olib kelishda ancha yo'l bosib, mashaqqat chekar edilar. Shirinning orzusini ro'yobga chiqarish uchun Shovur Farhodni uning huzuriga olib keladi. Farhod Shirinning ovozini eshitgandayoq oshiq bo'lib qoladi. Shirin ham Farhodni ko'rgan zahoti unga bo'lgan sevgisi alanganadi. Farhodning Shiringa bo'lgan sevgisi shunchalik kuchli ediki, u tog'ning toshlariga Shirinning suratini o'yadi. Unga doim iltijo qiladi. Ishq Farhodga shunchalik kuch bag'ishlaydiki, qisqa fursatda Farhod Shirin saroyigacha ariq qaziydi va bir hovuz ham yasaydi. Sut ariqdan oqib kelib, hovuzga to'planardi. Shunday qilib, Shirinning orzusi amalga oshganini xizmatkorlar unga yetkazadilar. Shirin kelib, ariqni va hovuzni ko'rdi, qulog'idagi qimmatbaho sirg'ani chiqarib, Farhodga berdi.

Farhod Shiringa oshiq bo'lganini Xusrav eshitadi. Xusrav Farhodni o'z saroyiga oldirib kelib, Shiringa bo'lgan sevgisidan qaytarish uchun oltinu javohirlar taklif qiladi. Farhod esa, bu ish oltinlar bilan bitmaydi, deya rad javobini beradi. Bu bilan ish bitmagach, Xusrav Farhodni sinash maqsadida, Shirinning hurmati uchun Besitun tog'ini tesha bilan kesib, yo'l ochib bersang, bu ish sendan boshqa hech kimning qo'lidan kelmaydi, deb undaydi. Farhod Besitun tog'ini qazishga kirishadi. Farhod tog' qaziyotganini Shirin eshitib, u yerga keladi. Shirin olib kelgan sutni Farhodga beradi. Farhod Shirinni ko'rganda, kuchiga kuch qo'shilib, sutni oladi va:

Ayitti: - Soqi sensan bu erur xush,  
Sut ermaz, og'u bo'lsa qilg'aman no'sh" (180-b.)

deya Shiringa bo‘lgan sadoqatini va muhabbatini yana bir bor izhor qiladi.

Farhod juda osonlik bilan tog‘ni kesib, yo‘l ochayotganini va hech qanday mashaqqatlarga duch kelmayotganini Xusrav ko‘rib, Farhodni yo‘q qilish payiga tushadi. Xusravning josuslari, birontasi Farhodning oldiga borib, Shirin o‘ldi deya xabar bersin, shunda Farhodning qudrati o‘z-o‘zidan so‘nadi, deb o‘rgatadilar. Farhodga shunday yolg‘on xabarni yetkazadilar. Farhod o‘zini tog‘ tepasidan pastga tashlab, jon beradi. Farhod o‘limidan keyin Xusrav Shiringa ta‘ziya bildirib maktub yozadi. Shirin esa Maryam vafoti munosabati bilan Xusravga ta‘ziya nomasini yuboradi. Darvoqe, shu paytda Maryam vafot etgan edi. Xusrav yana Shiringa yetishish umidida uni o‘z yurtiga chorlaydi. Ammo Shirin Xusravning so‘zini pisand qilmaydi. Xusrav esa ovga otlanib, Shirin qoshiga boradi. Ikalasining o‘rtasida uzoq suhbat bo‘lib o‘tadi.

Xusrav Shovurga Shirindan shikoyat qiladi, Shovur Xusravga tassalli berib, go‘zallarning nozu firoqi oldida tog‘dek mustahkam turmoq lozim, deya nasihat qiladi. Ammo Xusrav qaytib ketadi. Shirin o‘z qilmishidan pushaymon bo‘ladi. Nihoyat, Shirin chodirini tark etib, Xusravning oldiga keladi. Xusrav Buzurg Umidga olam va uning ibtidosi, insoniyatning bu olamga kelishidan maqsadi va boshqa ko‘plab hayotiy, falsafiy masalalar bobida savollar beradi hamda to‘laqonli javob oladi.

Xusravning Maryamdan tug‘ilgan Sheruya ismli o‘g‘li bor edi. Sheruya Shiringa oshiq bo‘lib qoladi va unga yetishishi maqsadida Xusravni o‘ldiradi. Shirin Xusravning qabri ustiga kelib, Xusravning jasadi ustida o‘ziga xanjar sanchib, jon beradi.

Qutbning “Xusrav va Shirin” dostoni chin oshiqlikni, dunyoviy muhabbatni kuylagan asardir.

Qutbning “Xusrav va Shirin” asari tarjima qilingan davr Oltin O‘rda tarixida birmuncha murakkabligi bilan diqqatni jalb qiladi. Oltin O‘rda davlatining etnik jarayoni, bu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, albatta, badiiy adabiyotga ta‘sir etmay qolmadi. Shu bois “Xusrav va Shirin”ning matnini ilk bor tayyorlagan polyak olimi A.Zayonchkovskiy dostonida goh zardushtiylikning ta‘sirini topsa<sup>117</sup>, goh xristianlikning izlarini ham ko‘radi (Zayonchkovskiy A. Yuqoridagi asar, 49-b.). Ammo

---

<sup>117</sup> Зайончковский А. Старейшая тюркская версия поэмы «Хосров и Ширин» Кутба. Варшава, 1958. 3С4-6.

shuni ta'kidlash kerakki, har ikkala oqimga oid timsollardan istifoda etish – mazkur diniy oqimlar asarda yetakchilik qiladi degan emas. Jumladan, A.Zayonchkovskiyning fikrlariga dalil bo'lib xizmat qilgan baytga e'tibor beraylik:

Tushub dayr ichra kirdi ul tutub fol,  
O'shul yoq birlakim yurur ko'b abdol (49-b.)

A.Zayonchkovskiyning qarashlariga *fol* so'zi asos bo'lgan, ya'ni uningcha, xristian monaxlari qo'llarida fol kitobini olib yurganlar. Muh-taram olim *fol* ni *fol kitobi* deb tushungan. Aslida bu baytda fol kitobi yoki fol ochish haqida so'z ketmayapti, balki Shovur taxminlab yurgan, shu bois ko'p tentirab yurgani haqida so'z ketmoqda. Baytning mazmuni quyidagicha: Shovur butxonaga taxminlab kirdi, shu bois u ko'p tentirab yurdi (*abdol* – tentirab yurdi, ahmoq bo'ldi deganidir).

Dostonning mazmunidan ayon bo'ladiki, Qutb bu asarni erkin tarji-ma qilishdan tashqari, zardushtiylikka oid ba'zi timsollarni ham olib kirdi.

**Qutb – shoir.** Har bir bob so'ngida Qutb o'ziga murojaat etib, dun-yoning bevafoqligi haqida qisqa xulosa qiladi va keyingi hikoyaga o'tadi. Dostonning kirish qismidagi bag'ishlov odatdagi qasidalarni eslatga-nidek, boblar xotimasidagi lirik chekinishlar doston syujeti davomida Qutb nafis she'rlar ham yaratganidan dalolat beradi. Jumladan, Shovur Ko'histonga borib, hiyla qilgani to'g'risidagi bob so'ngida Qutb nafa-qat voqealar bayonida, balki badiiy tasvir vositalaridan istifoda etishda, so'zlarni o'rnida qo'llashda, so'z o'yinlaridan foydalanishda ham mahor-at ko'rsatadi:

Yana so'z ayg'uchi andog' ayur kim,  
Bu Shabdiz aning urg'u teyu bildim.

O'sh emdi ul dayrni izdar ersang,  
Yel elt(t)i sang'asin o'rnuni ko'rsang.

Chechak rangin olig'li oncha yoshlar,  
Qora to'n kidmish aning yoshi yoshlar.

Idining muncha tangsuq ishlari bor,  
Ko'rub ibrat qiyomatqa qil iqror.

Qutb, sen bu hikoyatlarqa qolma,  
Vafosi yo‘q azunqa takya qilma.

So‘zung boshla, bu yerda qolmag‘il kech,  
Ishitmazlar bu so‘zni bilgalar hech (49-50-b.)

Baytdagi *yoshlar-yoshlar* so‘zlari orqali tajnis san‘ati hosil qilingan. Birinchi misradagi *yoshlar* – yasharmoq ma‘nosida, ikkinchisidagi *yoshlar* – yashirin ma‘nosidadir. Ayni paytda parchada xristianlikka oid *dayr* so‘zi qo‘llangani ham Qutbning bu oqimdan yaxshi xabardorligini va undan o‘z o‘rmiida foydalanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, parchada qofiyadagi saktalik (*kim-bildim*) haqida ham aytib o‘tish kerak.

Ijodkor boshqalardan ajralib qolganda, madaniy yoki adabiy an‘ana yo o‘zaro ta‘sir haqida so‘z yuritish imkoniyatiga o‘rin qolmaydi. Ijodkor shaxsi an‘anada asosiy o‘rin tutadi. An‘ana faqat obrazlar va syujetlarning umumiyliigi bilan belgilanmaydi, balki ijodkorning boy ruhiy-ma‘naviy olami tarjima asarida o‘z aksini topadi. XX asr tarjimashunoslarining, tarjima xuddi asarning asliiyati singari o‘qilishi kerak, degan qarashlarini Qutb o‘z davridayoq bilganday, an‘anaviylikdan originallikka qarab inildidi, tarjima uslubini emas, ulkan shoir Qutb uslubini yaratdi. Shirinning ta‘rif-tavsifida bu xususiyatni aniqroq ko‘rish mumkin.

Dostonning “Shovur Xusravqa Shirin hikoyatin qilg‘on surati” bo-bida Qutb go‘zal tashbehlar, mubolag‘alar, timsollar, iboralar orqali Shirinning takrorlanmas obrazini yaratdi. Shirin obrazi tavsifida an‘anaviy o‘shatishlar – qoshni yoyga, kiprikni o‘qqa, tishni durga, yuzni oyga qiyoslash bilan bir qatorda, shunday tasvirlar yaratdiki, Shirinning qiyofasi kitobxon ko‘z o‘ngida muhrlanib qoladi, shoir Qutb so‘z qo‘llash mahoratini, portret yaratish san‘atini puxta egallaganini namoyon qiladi:

Sabo xirqa kiyib ul zulfu qoshdin  
Sotar qunduz bila kish ul qumoshdin (44-b.)

(yel Shirinning sochi va qoshlaridan hirqa qiyadi, go‘yo to‘qilgan matodan qunduz mo‘ynasini va qora po‘stinni sotganday.)

Ayni paytda bu singari tasviriy vositalar Qutbning mazkur tarjima asari individualligini belgilab beradi. Qutbning ichki kechinmalari, hissiyoti (sentimentallik) yangi qahramonni yuzaga keltirdi, muallif uslubini

aniq yuzaga chiqardi, doston janrida yangilanishni paydo qildi. Bunday o'ziga xos baytlar Qutb dostonida ko'p uchraydi.

Qutb o'ziga xos hikmatli so'zlar ham yaratdi. Quyidagi baytlar buning namunasidir:

Sabr birla tilakga tegsa bo'lur,  
Temurni aqrun-aqrun egsa bo'lur.

Ivaklik birla oqil ishi bitmaz,  
Yugurmak birla ichku yog' tutmaz.

### **Qutbning "Xusrav va Shirin"ida folklor obrazlari va motivlari.**

Qutbning yana bir mahoratini xalq og'zaki ijodi obrazlaridan, motivlaridan foydalanganda ham ko'rish mumkin. Qutb, ayniqsa, ot obraziga alohida e'tibor berganini ta'kidlash lozim. Qutb, asosan, Xusravning oti Shabdiz obraziga dostonida ko'p to'xtaladi.

Shirindan ko'z ketarmaz erdi Parviz,  
Ham ul Gulgundin adrilmaz bu Shabdiz (96-b.)

Gah ul Shirin o'tar, gah shohi Parviz,  
Gah ul Gulgun o'zar, gah chobsa Shabdiz (101-b.)

Nizomiy ham Shabdiz ta'rifiga yigirma uch baytni bag'ishlaydi.

Turkiy xalqlar dostonlarida ot – qahramonning sodiq yo'ldoshi, ot bilan qahramon o'rtasida parallelizm bor. Qahramonning sifatleri uning otiga ham aloqador.

Qutbning yana bir diqqatga sazovor qirrasini – Sharq og'zaki va yozma adabiyotining kompozitsiyasi va motivlarini "Xusrav va Shirin" dostoniga singdirganidir. O'nta kanizak navbatma-navbat Xusrav bilan Shirin qoshida afsona aytadilar. Bu bob Qutb dostonida "Xusrav va Shirin qatinda o'n qiz o'lturub, afsona aymishin bayon qilur", "Ul o'n qiz o'lturub afsona qilmishlari" deb nomlanadi. Ammo qizlarning afsonalarini Qutb batafsil bayon qilmaydi. Faqat har bir qizning afsonasini to'rt-besh baytda bayon qilib, asosiy voqeaning qisqa sharhi bilan cheklanadi. Sharq adabiyotidagi aynan ana shu kompozitsiya asosiga qurilgan ertak va masallar ham bir xil hajmda emas: qaysi birida qisqa, qaysi birida

voqealar bayoni uzundan-uzoq hikoya qilinadi. Shunga ko'ra, Nizomiy ham, Qutb ham o'nta qiz afsona aytgan lavhalarni yozishda Sharq adabiyotidagi an'anaviy motivga asoslanganlar.

Qadimgi Sharq adabiyotida shunday qoliplovchi qissalar yoki qissa ichida hikoya borki, bu qissalar ertak, masal janridagi asarlarni o'z ichiga oladi. Qoliplovchi qissalarning kompozitsiyasi tuzilishi deyarli bir-biridan farq qilmaydi – hammasida ham bir yoki bir necha personajlar ko'ngilochar yoki nasihat mazmunidagi ertak (asosan, sehrli ertaklar) va masallarni hikoya qilib beradilar. Bu singari qissalar Sharq adabiyotida alohida janr bo'lib, bu janrning ildizlari sanskrit adabiyotiga borib taqaladi. O'rta asr fors va arab adabiyotida bu janrning yaqqol namunasi sanskrit adabiyotidagi "Panchatatra"ning "Kalila va Dimna" nomi bilan arab adabiyotiga qilingan tarjimasidir. Bu – qoliplovchi qissadir. "Panchatatra"ni arab tiliga "Kalila va Dimna" nomi bilan VIII asrda Ibn al-Mukaffa tarjima qilgan. Bu asarning forscha tarjimasini XII asrning birinchi yarmida Nizomiddin Abul-Maliy Nasrulloh amalga oshirgan. Har ikkala tarjimaga ham sanskritcha qoliplovchi qissa asos bo'lgan. Natijada fors adabiyotida bu janrda "Sindbodnoma", "Baxtiyornoma yoki o'nta vazir haqida hikoya" kabi original asarlar paydo bo'ldi. Shubhasiz, "Xusrav va Shirin" dostonidagi o'nta qiz aytgan afsonaning kompozitsiyasi bilan bu davrga yaqin bo'lgan "Baxtiyornoma yoki o'nta vazir haqida hikoya" qissasi kompozitsiyasida umumiylik mavjud.

Yuqoridagi qoliplovchi qissalarning manbai xalq og'zaki ijodidir. Voqealarning bayon uslubi, qissalarning tuzilishi shundan dalolat beradi. Madaniy an'ana Sharq adabiyotining, jumladan, "Xusrav va Shirin"ning kompozitsiyasi va motivlarida ham an'anaviylikni davom ettirish uchun sabab bo'lgan.

"Xusrav va Shirin" "Qutadg'u bilig"dan keyin turkiy tilda masnaviyda yozilgan nodir asarlardandir. "Xusrav va Shirin" dostonining ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Sharq xalqlari adabiyotida bu qissa keng tarqalib, ancha shuhrat qozongan. Bir qator "Jangnoma" (Firdavsiy "Shohnoma"sidagi Xusrav hikoyati), "Ishqnoma" (Nizomiyning "Xusrav va Shirin", Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav" dostoni)larning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Nizomiyning, xususan, "Xusrav va Shirin"ning turkiy adabiyotga ta'siri faqat Qutb bilan chegaralanib qolgan emas. Nizomiyning "Xamsa"si tarkibidagi "Maxzan ul-asror" ta'sirida Mir Haydar (Haydar



Xorazmiy) milodiy 1409 – 1414-yillarda “Maxzan ul-asror” dostonini yozdi. Jumladan, u o‘z asari Nizomiydan ilhomlanib yozilganiga quyi-dagi bayti orqali ishora qiladi:

Manki bishurdim bu laziz oshni,  
Shayx Nizomiydin olib choshni<sup>118</sup>.

Qutb doston muqaddimasida Nizomiyni katta hurmat bilan tilga oladi. Butun doston davomida ulug‘ ustozini ko‘p marta eslaydi. Shu bilan birga, Nizomiy tomonidan yaratilgan bu asarning erkin tarjimasini jarayonida Qutb o‘z davrini kuzatish asosida paydo bo‘lgan qarashlarini ham ifodalaydi. Qutb Nizomiy obrazlarini saqlab qolgan holda, asar tarjimasiga ijodiy yondoshdi. Natijada Nizomiy obrazlarining xarakteri o‘zgardi. Ana shu holatlar Qutbning ma‘lum darajada mustaqil yo‘l tutganini ko‘rsatadi. Buning ustiga, asarda Qutb tomonidan qo‘shilgan, xalq og‘zaki ijodiyoti va urf-odatlarini singdirilgan o‘rinlar ham bor.

“Xusrav va Shirin” – umumturkiy adabiy yodgorlik. Doston Oltin O‘rda davlati tarkibiga kirgan barcha turkiy xalqlar – o‘zbeklar, tatarlar, boshqirdlar, turkman va qozoqlar, qoraqalpoqlarning mushtarak yodgorligidir.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Xusrav va Shirin” dostoni qachon qaysi tildan tarjima qilingan?
2. Doston kimga bag‘ishlangan?
3. Tarjimadagi ayrim farqlarni aytib bering.
4. Qutb o‘z tarjimasida qaysi boblarni yoki lavhalarni tushirib qoldirdi?
5. Tinibekni Qutb qanday so‘zlar bilan ta’riflaydi?
6. Qutb ishqqa qanday ta’rif beradi?
7. “Xusrav va Shirin”ning qisqa mazmunini so‘zlab bering.
8. Qutb doston tarjimasida zardushtiylikka oid qaysi so‘zdan foydalandi?
9. Qutb tarjimada qaysi she’riy san’atdan foydalandi?
10. Sanskritcha qoliplovchi hikoyani dostonning qaysi o‘rinlarida ko‘rish mumkin?

---

<sup>118</sup> Tatar adabiyot tarixi, I jild..., 172-b.

## Oltin O‘rda adabiy muhitida noma janrining yuzaga kelishi Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari

### Reja:

1. Noma haqida ma’lumot.
2. Fors adabiyoti tarixida noma janri.
3. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari haqida.
4. “Muhabbatnoma”ning nusxalari.
5. “Muhabbatnoma”ning nusxalari o‘rtasidagi farqlar.
6. «Muhabbatnoma»da tasavvufiy timsollar.
7. «Muhabbatnoma» - dunyoviy ishqni kuylagan asar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *noma janri, doston, g‘azal, qit‘a, fard, maktub, fors adabiyoti tarixi, o‘rta asr xalq romani, hikoya, adabiy muhit, tasavvufiy timsollar, eski uyg‘ur-turk yozuvidagi nusxa.*

**Noma haqida ma’lumot.** Noma janri uzor tarixga ega. *Noma* so‘zi xat, maktub ma’nolarini bildiradi. Nomaning ilk ko‘rinishlari O‘rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo‘lmasdan ilgari buyumlar vositasida ham ifodalangan. Bunga misol sifatida skiflar shohi Idanfrisning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlari – kamon o‘qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o‘ziga xos «maktub»ini eslash kifoya. Bu singari maktublarning tarixi juda qadimiydir.

Nomaning ildizlarini yana xalq og‘zaki ijodida ko‘ramiz. «Alpomish» dostonida nomaning ilk namunasi bor. Qalmoqlar yurtida qolgan Barchin o‘zining nochor ahvolini bayon etib, Hakimbekdan yordam so‘rab, unga noma yozadi va bu nomasini o‘nta navkar orqali yuboradi.

Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘atit-turk» asarida *irqish* so‘zini izohlar ekan, «maktub, noma ma’nosida ham qo‘llanadi» (1 jild, 17-b.) deb izoh beradi. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy *qo‘shug‘* so‘ziga izoh berganda ham, lirik qahramon Turkon xotunga noma yo‘llab, «xodimi xizmatga tayyor» ekanini bildiradi (1 jild, 357-b.). «Qutadg‘u bilig»da Kuntug‘di elig tog‘dagi g‘orda zohidona hayot kechirayotgan O‘zg‘urmishga maktub yuborib, u bilan uchrashib, suhbatlashishni ixtiyor qilganini yozadi. Kuntug‘dining bu xati ham noma janrining bir ko‘rinishidir. Umuman, noma janri Markaziy Osiyo xalqlarining maishiy, ma’naviy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan.

Noma janridan ma'lum tarixiy va ijtimoiy-siyosiy voqealar jarayonida ham istifoda etilgan. Miloddan oldingi III asrda Markaziy Osiyoda hukmdorlik qilgan Botir tangriqutning Xitoy malikasiga yozgan maktublari va malikaning Botir tangriqutga yozga javoblari ma'lum.

Noma eski o'zbek tilida ***bildirguluk*** so'zi bilan ham ifodalangan. "O'g'uznoma" dostonida O'g'uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirguluk, ya'ni noma yuborib, bo'ysunishni va o'lpon to'lashni talab etadi. Shu tariqa ma'lum ehtiyojlar tufayli paydo bo'lgan xabarni ifodalash shakllari ham nomaning shakllanishiga asos bo'lgani aniqroq.

**Fors adabiyoti tarixida noma janri.** Ikkinchi tomondan, fors-tojik adabiyotidagi noma janri ham o'zbek adabiyotidagi noma janriining shakllanishiga ta'sir etgani shubhasizdir. Fors adabiyotida ham noma janri uzoq tarixga ega. XI asrda yashagan Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostonida noma janriining mukammalroq namunasini ko'ramiz. Shu o'rinda "Shohnoma"ning ishqiyy-romantik parchalari fors adabiyotiga ta'sir etganini aytib o'tish maqsadga muvofiq. Ye.E.Bertelsning ta'kidlashicha, fors adabiyotida yangi janr – romantik eposning paydo bo'lishiga aynan "Shohnoma" ta'sir etgan bo'lib, bu janr ijodkorining ilk vakili Faxriddin Asad Gurgoniydir. 1048-yili u "Vis va Romin" dostonini yozadi, dostonda shahzoda Rominning sevgilisi Visga bo'lgan muhabbati va bu muhabbatning fojiali tugaganini hikoya qilar ekan, bu orqali qadimgi Eronning ma'naviy hayoti manzarasini tasvirlab berdi. Bu romantik epos g'arb adabiyotidagi Tristan va Izolda haqidagi o'rta asr xalq romanini eslatadi.<sup>119</sup>

"Vis va Romin" dostonida ma'shuqa Vis Rominga yuborgan o'nta noma keltiriladi. Bu nomalar sevgi va hijron azoblariga to'la maktublardir. Bu o'nta nomani Faxriddin Gurgoniy "Dahnoma" sarlavhasi ostida beradi.<sup>120</sup>

Keyinchalik Avhadiy (1274-1338)ning tugal noma janri sifatida yaratgan "Dahnoma"si yuzaga keldi. Bu asar qaysi manbalar asosida yaratilganini Avhadiy ko'rsatmagan.<sup>121</sup> Avhadiydan keyin "Dahnoma" yozish an'anaga aylangan. Xoja Imodiddin Faqih Kirmoniy "Muhabbatnomai sohibdilon" yoki "Dahnoma" asarini yozdi. Bu asar ham o'nta nomadan iborat bo'lib, nomalarda muallif sevgi iztiroblarini sakkizta

<sup>119</sup> Бертельс Е.Э. Очерк истории персидской литературы. Л.: 1928, 36-б.

<sup>120</sup> Qarag: Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. T.: "Fan" nashriyoti, 1992, 4-b.

<sup>121</sup> Qarag: Микаэл Рафили. Азербайджанская литература (с древнейших времен до XVI века). Баку, 1962, 388-б.

ishqiy-romantik dostonlar orqali izohlaydi (*Jamolova S.Ko'rsatilgan asar, 4-b.*). Bular – “Varqa bilan Gulshoh”, “Vis va Romin”, “Vomiq va Uzro”, “Xusrav va Shirin”, “Rubob va Daf” “Bishr va Hind”, “Yusuf va Zulayho”lardir. Mazkur dostonlar Sharq adabiyotida, bir tomondan, ma'lum va mashhur afsonalar asosiga qurilgan, ikkinchi tomondan, majoziy obrazlar ham ishtirok etgan. Bu dostonlar noma janri yaratilishiga ham asos bo'lgan.

Xullas, nomachilik fors adabiyotida qadim ildizlarga ega. Ayni paytda Markaziy Osiyoning qadimiy udumlari, yuqorida ko'rib o'tganimizday, ijtimoiy, siyosiy va harbiy hayoti ham noma janriga o'z ta'sirini o'tkazgan. Yana shuni aytib o'tish kerakki, o'zbek adabiyotida noma janrini boshlab bergan va rivojlantirgan ijodkorlar Oltin O'rda adabiy muhitida forscha nomalardan yaxshi xabardor bo'lganlar. Muhammad Xo'jabekning Xorazmiyga qarata “Ochunda porsiy daftarlaring bor” degan gapi ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. Xorazmiy singari yetuk ijodkorlar ham, qolaversa, keng xalq ommasi ham fors tilidagi nomalardan yaxshi xabardor edi.

**Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari haqida.** Xorazmiyning shaxsi to'g'risida biron jiddiy ma'lumot yo'q. Shoirning ismi faqat «Tazkirayi Qayyumiy»da beriladi, xolos. P.D. Qayyumov “Tazkirayi Qayyumiy”sida bu shoir to'g'risida quyidagicha ma'lumot beriladi: “Bu kishini Nozim Xorazmiy deb yuritiladurki, o'zining “Muhabbatnoma” nomli yirik asari bilan 14-asrning buyuk klassik yodgori bilan tanilmishdur. Shoirning tarjimai holigina emas, hattoki nomi ham zamonamizda ma'lum bo'lmadi. Lekin asari mo'tabar kitobdur. Bu asar ham Oltin (O'rda) hukmdorlari davrida yozulmish qadimgi asardur. O'zi Xorazmli bo'lgan va Oltin O'rdada yurgan o'zbek shoiridir”. Shundan keyin “Muhabbatnoma”dagi Xo'jabek shaxsi to'g'risida P.D.Qayumovning mulohazalari hamda asardan parcha berilgan (*Po'lotjon Domullo Qayyumov. Tazkirayi Qayyumiy. Toshkent. 1998, 22–b.*).

“Muhabbatnoma”ning bir necha o'rinda “Xorazmiy” taxallusi uchraydi. Masalan:

Siza teb keldi, Xorazmiyni asrang,  
Kim asrarlar qamuq shahlar gadoyi.  
yoki:  
Azalda qildi Xorazmiyni muhtoj,  
Tag'i manzurini sulton yarotti.

Shoirning hayoti va ijodi to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni asarining o'zidan topish mumkin. Adabiyotshunos olim N. Mallayev «Muhabbatnoma»ning so'ngida keltirilgan forscha hikoyani Xorazmiyning tarjimai holi sifatida talqin qilgan edi.

“Muhabbatnoma”dan ma'lum bo'lishicha, Xorazmiy bu asarini Oltin O'rda xoni Jonibekning (1342-1357) qo'l ostidagi hukmdorlaridan bo'lgan Muhammad Xo'jabekning taklifi bilan 754 (milodiy 1353) yili yozgan. Muhammad Xo'jabekning Xorazmiyga qilgan iltimos quyidagicha edi:

Tabassum qildi, aydi: «Ey faloni,  
Keturgil bizga loyiq armug'oni.

Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,  
Ochunda porsi daftarlaring bor.

Muhabbat nardini ko'plardan uttung,  
Shakartek til bila olamni tuttung.

Tilarmenkim bizing til birla paydo,  
Kitobi aylasang bu qish qotimdo».

Muhammad Xo'jabekning «bizing til»i turkiy tildir. Muhammad Xo'jabekni Xorazmiy faqat «Muhabbatnoma»ning yozilishiga turtki va maslahat bergan hukmdor sifatidagina emas, balki millatparvar, ma'rifatli inson sifatidagi qirralariga ham e'tibor beradi. Ayni paytda mazkur baytlardan Xorazmiyning o'z davrida mashhur shoir sifatida e'tirof etilgani ham anglashiladi.

Kim ush yelteq kechar ayyomi foniy,  
Jahonda qolsa bizdin armug'oni.

Navoiyning «Majolis un-nafois» asarining birinchi majlisida ikki Xorazmiy taxallusli shoirlar to'g'risida ma'lumot beriladi (*Navoiy. MAT. 13-jild, 13-b.*). Ammo bu shiorlarning Oltin O'rda adabiy muhitida ijod qilgan va «Muhabbatnoma»ning muallifi Xorazmiyga aloqasi yo'q. Navoiyning bu asaridan Oltin O'rdada ijod qilgan shoirlardan birontasi o'rin olmagan. Zotan, Navoiy faqat Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan shoirlar to'g'risida ma'lumot beradi. Qolaversa, Oltin

Oʻrdaning Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitidan uzilib qolgan va Oltin Oʻrda tanazzulga yuz tutib, Mamluklar davlatiga koʻchgandan keyin ham, Movarounnahr va Xuroson davlatlari bilan madaniy-adabiy aloqalarning yoʻqligi sabab boʻlishi mumkin.

Mamluklar davlatida Sayfi Saroyi bilan hamnafas va hamfikir boʻlgan shoirlardan biri Xorazmiy taxallusli shoir boʻlib, uning “Soldi niqob chehradin ul turki hovariy” misrasi bilan boshlanadigan gʻazali bor. Sayfi Saroyi bu gʻazalga Xorazmiy vaznida va qofiyasida gʻazal bitgan. Ana shu gʻazal muallifi Xorazmiy “Muhabbatnoma”ning ham ijodkoridir, degan fikrlar ham bor.

**“Muhabbatnoma”ning nusxalari.** “Muhabbatnoma”ning ikki nusxasi – arab yozuvidagi va eski uygʻur-turk yozuvidagi nusxalari bor. Asarning eski uygʻur-turk yozuvidagi nusxasi hijriy 835 (mil. 1432) yili Yazd shahrida Mir Jaloliddinning buyrugʻi bilan koʻchirilgan. Asar 14 varaqqa joylashtirilgan. Asarning asl nusxasi 7914 raqami ostida Britaniya muzeyida saqlanadi. Asarning fotonusxasi esa Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining kutubxonasida 15 raqami ostida va Sankt-Peterburgdagi Tilshunoslik institutida N-777 raqami ostida saqlanadi. Ingliz olimi Ch. Ryo bu qoʻlyozmani birinchi bor tavsif qilganda (. Ch. Rieu. Catalogue of the Turkish manuscripts in the British Museum, p.288a.), Muhammad Xoʻjabekni Andxud, Shivirgʻon va Balx shaharlarining hokimi Muhammad Xoʻjabekning aynan oʻzidir, deb aytgan edi. Ammo V.V.Bartold. bu shaharlar hech qachon Oltin Oʻrda davlatiga kirmagan, deb aytadi. (*V.V.Bartold. Otchet o komandirovke v London. – Izvestiya Rossiyskoy Akademii nauk, 1914, ser. VI, vyp. 13, SPb., 881-b.*). Qolaversa, asarning arab yozuvidagi nusxasida Muhammad Xoʻjabek Jonibek xonning tayanchi deb koʻrsatiladi:

Oʻza jonsiz tan erdi mulk sensiz,  
Shahanshoh Jonibekxonga yetgansiz.

Eski uygʻur-turk yozuvidagi nusxada esa shu bayt boshqacharoq:

Oʻza jonsiz tan erdi mulk sensiz,  
Shahanshoh Jonibekxon mulkin yegansiz.  
(yaʼni siz Jonibekxonning qaramogʻida cdingiz degan maʼnoda).

Shubhasiz, bu o‘rinda O‘zbekxonning o‘g‘li Jonibek to‘g‘risida so‘z ketmayapti. V.V.Bartoldning fikrlari haqiqatga yaqin.

Eski uyg‘ur-turk yozuvidagi qo‘lyozmaning qimmati shundaki, asarning bu nusxasi arab yozuvidagi ikkinchi nusxadan oldin – asliyat yozilgandan so‘ng 79 yil o‘tgach ko‘chirilgan.

“Muhabbatnoma”ning arab yozuvidagi ikkinchi nusxasi XVI asr boshlarida (1508–1509-yillarda) ko‘chirilgan. Asar 24 varaqqa joylashtirilgan. Bu nusxa ham Britaniya muzeyida 7914 raqami ostida saqlanadi. Mazkur nusxaning eski uyg‘ur-turk yozuvidagi nusxadan farqi shundaki, birinchidan, bu nusxaga forscha matnlar ham joylashtirilgan. Ayrim o‘rinlarda baytlar va she‘rlarning tartibi o‘zgartirilgan, ba‘zi grammatik shakllar, so‘zlardagi farqlar ham ko‘zga tashlanadi.

“Muhabbatnoma”ning uchinchi qo‘lyozma nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasida (2753 raqami ostida) saqlanadi, degan fikrlar bor edi. Ammo A.M.Shcherbakning tekshirishicha, bu nusxaning nomigina mos keladi, xolos. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”siga aslo aloqasi yo‘q. Asarning to‘rtinchi qo‘lyozma nusxasi to‘g‘risida K.G.Zaleman, Rossiya FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanayotgan bo‘lishi kerak, deb xabar bergan edi. (K.G. Zaleman. *Musulmanskie rukopisi, vnov postupivshie v Aziatskiy muzey v 1909–1910 gg. – Izvestiya Imp. Akademii nauk, SPb., 1911, ser. VI, 4, str. 260., №128*). Ammo bu qo‘lyozma nusxasi hali topilmagan. Shuning uchun hozirgi paytda faqat ikkala nusxa to‘g‘risida gapirish va shu nusxalarga tayanish maqsadga muvofiq.

Arab yozuvidagi nusxa forscha matnlarning mavjudligi bilan farqlanar ekan, bir savol paydo bo‘ladi: mazkur forscha she‘rlar asliyatga tegishlimi yoki keyinchalik qo‘lyozmani ko‘chirish paytida kiritilganmi? (Gap“Muhabbatnoma”dagi forscha hikoya to‘g‘risida ketmoqda.) Afsuski, ikkala nusxani solishtirish bir xulosaga kelish uchun asos bo‘la olmaydi. Shunday taxmin qilish mumkinki, Xorazmiy qandaydir forscha asl nusxadan foydalangan va o‘z asarini yozishda o‘sha forscha “Muhabbatnoma”ga taqlid qilgan bo‘lishi mumkin.

**“Muhabbatnoma”ning nusxalari o‘rtasidagi farqlar.** “Muhabbatnoma”ning eski uyg‘ur-turk va arab yozuvidagi nusxasi solishtirilganda, nafaqat so‘z va misralarda, balki asarning mundarijasida ham farqlar ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, uyg‘ur-turk yozuvidagi nusxa nomalarga bo‘linmagan, balki “nona” o‘rnida “so‘z boshi” ishlatil-

gan. Ikkinchidan, eski uyg'ur-turk yozuvi nusxasida dastlabki forscha g'azaldan to'rt bayt beriladi, xolos, qolgan forscha nomalar, g'azallar va forscha she'riy hikoyat bu nusxada berilmagan. Uchinchidan, eski uyg'ur-turk yozuvi nusxasi tarkibida janrlar (jumladan, qit'a, g'azal, fard kabi) ajratilgan holda berilmagan, balki matn uzluksiz berilavergan. Qo-laversa, arab yozuvidagi nusxa chop etilganda, hamd qismi tushirib qol-dirilgan. Eski-uyg'ur turk yozuvida esa berilgan. Biz har ikkala nusxani qiyoslab, arab yozuvida tushirib qoldirilgan parchalarni, ayrim baytlarni to'ldirgan holda chop ettirganmiz (*O'zbek mumtoz adabiyoti namunala-ri. II jild. Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi filol.f.d., prof. N.Rahmon. T.: "Fan" nashriyoti, 2007.*).

Shu o'rinda bir dalilni aytib o'tish lozim. Navoiy garchi noma janrini o'zbek adabiyotida boshlab bergan Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"sini biron asarida tilga olmasa ham, boshqa asarlar or-qali bilgan bo'lishi kerak. Navoiy Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si bi-lan tanish bo'lgan, hech bo'lmaganda bu shoir haqida eshitgan. Dalil si-fatida quyidagilarni aytishga to'g'ri keladi: Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Atoiy haqida ma'lumot beradi va uning turkiycha she'rlari xalq orasida ko'p mashhur bo'lganini yozadi (*Navoiy. MAT. 13-jild, 63-b.*). Atoiy esa, o'z navbatida, Xo'jandiyning "Latofatnoma"sidan yaxshi xa-bardorligini va uning bu nomasi mashhurligini quyidagi baytida aytadi:

Atoiy she'rining lutfini bilsa,  
"Latofatnoma"dan kechgay Xo'jandiy.

Xo'jandiy ham o'zining "Latofatnoma"sini "Muhabbatnoma"ga ja-vob tariqasida yozganini ta'kidlaydi:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,  
"Muhabbatnoma"ga aysang javobe.

O'zbek mumtoz adabiyotida noma janri haqidagi ana shu ma'lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, Navoiy Oltin O'rda adabiyotining ayrim namunalaridan bilvosita va bevosita xabardor bo'lgan.

«Muhabbatnoma» asari nafaqat o'zbek, balki rus, tatar, turkman olimlari tomonidan o'rganilgan. Bu haqda «Tatar adabiyoti tarixi» kito-bida batafsil ma'lumot berilgan (198-b.).



«Muhabbatnoma»ning yozilgan joyi to‘g‘risida so‘z ketganda, Sirdaryo bo‘yidagi Sig‘noq shahri aytiladi. Bunga asos sifatida asardagi:

«Muhabbatnoma» so‘zin munda aytdim,  
Qamug‘in Sir yaqosinda bitidim

degan misralariga asoslaniladi. Biz avval Sig‘noq shahri Oq O‘rdaning poytaxti bo‘lgani to‘g‘risida aytgan edik. Xorazmiyning bergan xabariga qaraganda, asar boshqa shaharda tugatilgan bo‘lishi mumkin. Birinchi nomadagi quyidagi bayt asarning Oltin O‘rda poytaxti Saroy shahrida tugatilganidan darak beradi:

Saroydin bordi Chin-Moching‘a choving,  
Qiy boqsang, bo‘lur arslonlar oving.

Mazkur bayt yana shunisi bilan qimmatliki, unda Xorazmiy Oltin O‘rda adabiy muhitidan tashqarida – Misrda tashkil topgan Mamluklar davlatida ham shuhrat qozonganiga ishora qiladi. Xorazmiy Saroy shahriga borib, o‘sha yerda «Muhabbatnoma»ni tugatgandan keyin, Misrga ketgan va Mamluklar davlatida yashab qolgan bo‘lishi mumkin.

**«Muhabbatnoma»da tasavvufiy timsollar.**

«Muhabbatnoma»dan anglashilishicha, Xorazmiy tasavvuf yo‘lini tutgan shoir. Zotan, asarning debochasidagi ayrim baytlar shundan dalolat beradi. Masalan:

Muhammaddin muhabbat bo‘ldi paydo,  
Meni mundoq muhabbat qildi shaydo...  
Shuningdek, quyidagi baytlarda tasavvuf ilmida keng tarqalgan ramz – may ramzi alohida ahamiyatga ega:

Kel, ey soqiy, keturgil bodayi nob,  
Kula o‘ynayu ichsunlar bu as‘hob...

Kel ey soqiy, keturgil jomi Jamni,  
Kishining ko‘nglidin may yur g‘amni...

Kel ey gulchehra soqiy, may keturgil,  
Meni hayrat maqomig‘a yeturgil.

Habibim naqshidin ma'ni bo'loyin,  
Tahayyurda o'zimdindin qurtuloyin...

Birinchi va ikkinchi baytlarda may yoki boda timsoli muhim mohiyat kasb etadi. May timsoli tasavvuf adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, «ilohiy ishq – ma'rifat, donish ishtiyoqining avji qiyomi, Yor jamoli mushohadasidan oshiq dilida paydo bo'lgan kuchli zavq – ilhomning, behad xursandlik, sururning ramziy ifodasi sifatida tilga olingan» (*Komilov N. Yuqoridagi asar. 150-b.*). Soqiy so'zi ham bu yerda ramziy ma'noga ega, ya'ni mutlaq fayziyot, ma'rifat bulog'i demakdir (*Komilov N. Yuqoridagi asar. 155-b.*).

Keltirilgan uchinchi va to'rtinchi baytlarda mutasavvuf fano maqomi yoki Fano vodiysiga yetib borishi uchun bosib o'tishi shart bo'lgan Hayrat maqomi to'g'risida so'z ketadi. Hayrat maqomi - Fano maqomidan oldingi bosqich. Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonida bu bosqichlar tasviri bor. Tahayyur – hayratlanish demakdir, ya'ni «tahayyurdan qutulish» - Fano bosqichiga o'tish ma'nosiga ishora qiladi. Qolaversa, asar so'ngida keltirilgan «qit'a» ham Xorazmiyning yo'lini va maslagini yaqqol ko'rsatib turadi:

Tama' domina qolur qush emas men,  
Telim ayvon uza uchqon Xumomen.

Qilichtek til bila tuttum jahonni,  
Qanoat mulki ichra podshomen.

Xarobot ichra masjidida yerim bor,  
Kim ush ham rindmen, ham podshomen.

Necha hashmatli sulton bo'lsa bo'lsun,  
Aytimon mol uchun madhu sano men...

Baytlardagi *xumo*, *qanoat mulki*, *xarobot* (faqr yo'liga kirib, hayvoniy nafslardan poklab, xokisor bo'lish), *rind* kabi timsollar Xorazmiyning e'tiqodi va maslagini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xorazmiy «Muhabbatnoma»ni yozgunga qadar ham yetuk shoir sifatida e'tirof etilganini asarning o'zidan anglash mumkin. Xususan,

hukmdor Muhammad Xo'jabek o'zbek adabiyoti uchun tamomila yangi janrdagi asarni yaratishni Xorazmiyga topshirgani ham fikrimizga dalildir. Xorazmiy o'zbek va fors tillarida mahorat bilan baravar ijod qilganini «Muhabatnoma» takibidagi masnaviy, g'azal, qit'a, fard kabi janrlar ko'rsatib turadi.

**«Muhabatnoma» - dunyoviy ishqni kuylagan asar.** «Muhabatnoma» tasavvuf adabiyotiga mansub, ilohiy ishqni kuylovchi asar, dunyoviy ishqdan begona asar ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Birinchi navbatda, oshiq va ma'shuqaning o'rtasidagi nomalar, g'azallar dunyoviy ishqni kuylagani bilan diqqatga sazovor. «Muhabatnoma»dagi birinchi g'azalda ma'shuqaning ta'rifiga bag'ishlangan baytlarga e'tibor beraylik. G'azalning birinchi bayti quyidagicha:

Yuzungni ko'rdum, ey jon, bayram oyin,  
Munung shukronasi qurbon bo'loyin...

Shakartek til bila to'ti tilingiz,  
Necha ko'p sayd etar jonlar xumoyin.

Yorning yuzi gulgun, shod-xurramlikdan bayram misoli ochilib ketganini shoir madh qilar ekan, shunday go'zallikka jonini qurbon qilishga tayyor. Yorning to'ti tili singari shirin so'zlari qancha-qancha afsonaviy qushlarni ham maftun qilgan. Shoir bu baytlarida nafaqat samimiy oshiq qiyofasini gavdalantiradi, balki dunyoviy ishqning haqiqiy manzarasini chizadi. Yor go'zalligining yangi-yangi qirralarini, tashbehlarini hayotdan izlaydi, hayot, tabiat va insondagi mavjud narsalar yorning go'zalligi oldida hech narsa. Quyidagi baytlarga e'tibor beraylik:

Ochilsa la'lingiz, shakkar sochilur,  
Ko'rub gulg'unchaning og'zi ochilur.

Bo'yungtek sarv yo'q bo'ston ichinda,  
Yuzung nuridin oy nuqson ichinda.

Tabassum qilsangiz, shakkar uyolur,  
Tishing injusidin gavhar uyolur.

Yorning labi so'zga ochilganda, g'uncha hayratda qoladi; uning qomati shunchalik go'zalki, bo'stondagi sarvlar orasidan ham uning

bo'yiga monandini topib bo'lmaydi. Hatto yorning birgina tabassumi oldida shakar, tishining oqligi oldida gavhar xijolatga tushadi. Go'zallikni bu qadar qiyoslash va o'xshatish asosida ta'riflashning «xorazmiycha» usuli keyingi nomalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Asardagi g'azallarda hamda nomalarda dunyoviy muhabbat asosiy o'rin egallaydi. Zotan, asarning «Muhabbatnoma» deb nomlanishiga ham dunyoviy ishq sababdir.

Xorazmiyning Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan «Muhabbatnoma»si o'zbek adabiyotida nomachilikning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'ldi.

«Muhabbatnoma» hazaji musaddasi maqsur – *mafoilun mafoilun mafoil* vaznida yozilgan.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. «Muhabbatnoma»ning yaratilishiga asos bo'lgan omillar nimalardan iborat baldi?
2. Noma janrining ilk ko'rinishlari haqida qisqacha so'zlab bering.
3. Asarning qanday nusxalari bor?
4. Asarning nusxalari o'rtasida qanday farqlar bor?
5. Asardagi tasavvufiy timsollarga izoh bering.
6. «Muhabbatnoma»da dunyoviy ishqning ta'rifiga misollar keltirib, sharhlang.

## TEMURIYLAR DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI

Amir Temurning To‘xtamishga qarshi olib borgan kurashidan so‘ng, Oltin O‘rda davlati tanazzulga yuz tuta boshladi va taxminan XIV asrning 80-yillarida quladi. Avval aytib o‘tganimizdek, Oltin O‘rda madaniy va adabiy muhiti Misrdagi Mamluklar davlatiga ko‘chgan edi. Movaronnuhr va Xurosondagi madaniy markaz Amir Temur asos solgan davlatda qaror topdi. Amir Temur o‘zi tashkil qilgan saltanatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqarorlashtirdi, uning xizmati natijasida madaniy hayot yangicha mazmun kasb etib, rivojlana bordi.

Ma‘lumki, XIV asr boshlarida Chig‘atoy xonlari butun Movarounnahrda o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar. Bu bejiz emas edi, albatta. Movarounnahr uchun Chig‘atoyning hukmronlik davri muhim. Zotan, Chig‘atoy o‘z hukmronligi davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Chingizxon farzandlaridagi iqtidorning ma‘lum bir qirralarini juda yaxshi bilgani holda ularga shunday ta‘rif beradi: “Kimning ko‘nglida ezgu istaklari bo‘lsa... Jo‘jiga ergashsin; shohlikning himoyasi sifatida yasani, qonun-qoidani, bilikni<sup>122</sup> bilishni istasa, Chig‘atoyga borsin; kimda bag‘rikenglikka, saxiylikka moyillik bo‘lsa, kim boylik va farovonlik istasa, O‘ktoyga borsin; kim shon-shuhratga, jangda qahramonlik ko‘rsatishga, shohliklarni egallab, olamni itoat ettirishga intilsa, Tuluyning xizmatiga borsin” (*Rashididdin. Yuqoridagi asar, 8-b.*). Tarixiy manbalarda, xususan, Rashididdinning “Jome’-ut-tavorix”ida va Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”da Chig‘atoyning aqlli, qobiliyatli, o‘ziga hurmatni talab qiladigan hukmdor bo‘lgani ta‘kidlanadi.

Temuriylar saltanatining vujudga kelishida Movarounnahrda tarixiy-siyosiy sharoit muhim rol o‘ynadi. XIV asrning birinchi yarmida musulmon madaniyatining Movarounnahrda mustahkam qaror topishida Kepak xon (1318-1326)ning xizmatlari katta bo‘ldi. Hozirgi Qashqadaryo viloyati Chig‘atoy xonlarining qarorgohi bo‘lib qoldi. Kepakxon o‘zi uchun bir saroy qurdirdi. Bu saroy “qarshi” (o‘zbekchada “saroy” demakdir) deb nomlandi. O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan mo‘g‘ul

---

<sup>122</sup> Bilik –mo‘g‘ullar xitoylardan bir odadni o‘zlashtirgan edilar: xitoyliklarning odatlariga ko‘ra, xonlarning gap–so‘zlari yozib olinib, ularning o‘limidan keyin chop etilgan; xonning nutqi saji‘li nasrda yozilgan. Bu nutq turkiycha “bilik” deb atalgan. Chingizxonning biliklari ta‘lim predmeti bo‘lgan edi. Xitoyda bir marta taxtga merosxo‘rlik bilikni juda yaxshi bilgan da‘vogarning foydasiga hal bo‘lgan. Chingizxonning ayrim biliklarini Rashididdin kitobning oxirida keltirgan.

hukmdorlaridan Kepak xon birinchi bo‘lib butun davlat miqyosida o‘zi nomi bilan qo‘yilgan tangalarni joriy qildi. Bu pulning nomi Amir Temur davrida ham “kepak” nomi bilan yuritilaverdi. Kepakxon musulmon madaniyatining rivoj topishida katta xizmat qilgan bo‘lsa ham, o‘zi majburiylik qildi. Uning ukasi Tarmashirin (1326-1334) musulmonlikni qabul qildi. Tarmashirin akasining yo‘lini davom ettirib, ko‘chmanchilik an‘analariga jiddiy zarba bera boshladi. Oqibatda Tarmashirin o‘ldirildi. Shundan so‘ng Chig‘atoy xonlarining saroyi bir necha yilga Ili daryosi bo‘ylariga ko‘chirildi.

Yangicha ma‘muriy bo‘linish – *tumanlar* ham ayni shu davrda paydo bo‘ldi. Samarqand, Buxoro, Eron tumanlarga bo‘lingan edi. Bunday ma‘muriy bo‘linish, shubhasiz, davlat qurilishi va takomillashuvida jiddiy rol o‘ynadi. Jumladan, birgina Samarqand viloyati Chig‘atoylar davrida shuningdek, Amir Temur davrida va XV111 asrgacha yetti tumanga bo‘lingan edi (*Bartold. Sochineniya. V jild, 33-b.*).

XIV asrning 40-yillarida Movarounnahrda, aynan, hozirgi Qashqadaryo hududida yana chig‘atoylardan Qozonxon o‘z hokimiyatini o‘rnatdi, Qozonxon Qarshining g‘arb tomonida Zanjirsaroyini barpo qildi. Qozonxon mamlakatda mustahkam hokimiyat o‘rnatishga qaror qildi. Buning natijasida Qozonxon bilan orlot, jaloyir, qovchin va barlos urug‘boshilari o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ldi. Barlos urug‘idan bo‘lgan Qozog‘on qo‘zg‘olon ko‘tarib, mo‘g‘ul shahzodalaridan birini xon deb e‘lon qildi. O‘rtada bir necha yil urush bo‘ldi va nihoyat, 1346–1347-yillarda Qozonxon mag‘lub bo‘lib, o‘ldirildi. Hokimiyat Qozog‘on xon qo‘liga o‘tdi. Ammo Qozog‘on xonga faqat Movarounnahr hukmronligi tegdi. Chig‘atoy davlatining qolgan qismiga dug‘lat urug‘boshisi hukmronlik qiladigan bo‘ldi. Fors manbalarida bu boshliqlar *amir* deb atalgan bo‘lsa, turkiy qavmlar *bek* yoki mo‘g‘ulcha *no‘yon* deb ataladigan bo‘ldilar. Movarounnahr amirlari ham, dug‘lat amirlari ham bir qonuniyatga amal qildilar: ikkalasi ham Chingizxon avlodlaridan xon tayinlashni o‘zlarining hokimiyati uchun qonuniy deb bildilar.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, ikkala davlatning harbiy tuzilishi deyarli bir xil bo‘lgan edi. Chig‘atoy termini aholining ko‘chmanchi va ko‘chmanchilik an‘analarini bildirish uchun Movarounnahrda saqlanib qoldi. Ammo u yerda Chig‘atoy naslidan xonlar qolmagan bo‘lsam ham, bu nom temuriylar saltanatining oxirgi nasllarida, xususan, Bobur avlodlarida saqlanib qoldi. Chig‘atoyning ko‘chmanchi avlodi o‘zlarini

mo'g'ullar deb ataydigan bo'ldilar. Mo'g'uliston degan geografik nom ana shundan qolgan. Umuman, etnik nom aslidan uzoqlashib, tamomila boshqa nom va laqablarni oldi (*Bartold. Sochineniya. V jild, 33-b.*).

Amir Qozog'on o'n ikki yil hukmronlik qildi. 1358-yili Qozog'on xon o'zining kuyovi tomonidan o'ldirildi. Qozog'on hukmronligi davri shunisi bilan diqqatga sazovor bo'ldiki, ichki nizolar, chig'atoy ulusi bilan mungullar o'rtasida yuz bermadi. Qozog'onning o'limidan keyin hokimiyat uning o'g'li Abdullaning qo'liga o'tdi. Abdulla otasi hayotligida Samarqandda yashardi. (Qozog'on esa ko'chmanchilar yo'l boshchisi bo'lib hayot kechirar, ishni Amudaryo bo'yidagi Soli Saroy qishlog'ida, yozni Munka shahrida – hozirgi Baljuvon yonida o'tkazardi.) Abdulla poytaxtni o'zi yashab turgan joyga ko'chirmoqchi bo'lgan edi, lekin boshqa amirlar bunga qarshi chiqdilar, bu nizolar oqibatida urush kelib chiqdi, urushda Abdulla halok bo'ldi. Keyingi yillar Movarounnahrda doimiy isyonlar, fitnalar, mo'g'ul xonlari bilan muttasil kurashlar davri bo'ldi. Xullas, bu davrda yuz bergan asosiy voqealar quyidagilardan iborat:

Mo'g'ul xoni Tug'luq Temur 1360-1361-yillarda Movarounnahrda yurish qildi, shu paytda xon tomonidan Shahrisabz va Qarshi begi qilib tayinlangan Temur ilk bor jang qildi;

Temur Qozog'onning nabirasi Husayn bilan ittifoq tuzib, mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Lekin Husayn bilan Temur Chirchiqda (1365-yili) mo'g'ullarga qarshi kurashda mag'lubiyatga uchradilar;

XV asrda mashhur shoir sifatida e'tirof etilgan Qobulshoh xon deb e'lon qilindi. Qobulshohning ota-bobolari bu dunyodan yuz o'girib, darveshlikni ixtiyor qilgan edilar. Amir Husayn bilan Sohibqiron, Qobulshohni taxtga o'tqazsak, mamlakatning muammolari barham topadi, deb o'yladilar va uni "Turk podshohlarining rasm-qoidasi birla"<sup>123</sup> taxtga o'tqazdilar. Lekin ko'p o'tmay u taxtdan tushirildi va Odil Sulton xon bo'lib taxtga o'tirdi;

Husayn Balxda 1368-yili o'ziga atab qal'a qurdirmoqchi bo'ldi, Temur esa uni bu niyatidan qaytarishga urindi va amakisi Abdullaning taqdirini misol qilib keltirdi;

---

<sup>123</sup> Qarang: Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. –T.: "O'O'BeKISTON". 2011, 82-b..

Husayn va Temur o'rtasida kurash ketdi. Temur Husaynning turk amirlari, ayniqsa, musulmon ruhoniylari orasidagi dushmanlari bilan ittifoq tuzdi;

Husayn asirga olib o'ldirildi;

Balxdagi qal'a yo'q qilindi, poytaxt Samarqandga ko'chirildi, u yerda harbiy inshootlar, shahar devori qurdirildi (1370-yil).

Shunday qilib, Temur o'n yil davomida butun Movarounnahri egalladi.

Albatta, Amir Temur shaxsiyati madaniy hayot rivoji uchun muhim omillardan biri bo'lgan edi. Amir Temur shaxsiyati to'g'risida ishonchli ma'lumot Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida bor. U Amir Temurga quyidagicha ta'rif beradi: "Temur Ko'ragon – anorallohi burhonahi, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqeda o'qibdurlarkim, aningtek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor".

Navoiyning "Majolis un-nafois" idagi Amir Temurga oid e'tirofini – sohibqironning g'oyat nozik ta'b bo'lgani, she'rni yaxshi tushungani haqida "Temur tuzuklari" da keltirilgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Buning boisi yana uning shaxsiyatiga borib taqaladi. "Temur tuzuklari" da aytilishicha, u ilm ahliga, din bilimdonlariga, qissaxonlarga alohida e'tibor berib, o'ziga yaqinlashtirgan va bundan ko'p manfaatdor bo'lgan.

Amir Temurdan so'ng u tashkil qilgan davlat ikkiga bo'linib, Xurosonda Amir Temurning o'g'li Shohruh (1409-1447-yillar), Movarounnahrda nabirasi Ulug'bek (1409-1449-yillar) hukmronlik qildilar. Yirik mamlakat ikkiga bo'linib ketgan bo'lsa ham, madaniy hayotda aslo uzilish bo'lmadi. Aksincha, adabiy-madaniy aloqalar rivoj topib boraverdi. Amir Temurdagi ma'rifatparvarlik fazilati temuriy shahzodalarga namuna bo'lgani bois, ular adabiy-madaniy jarayon rivojlanishiga alohida e'tibor berdilar. Navoiy "Majolis-un-nafois" da temuriylar avlodidan yetishib chiqqan yigirma ikki ijodkorning ismi-sharifini zikr etadi. Bu shoirlar orasida Xalil Sulton, Ulug'bek Sulton, Boysung'ur Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Shoh G'arib Mirzo va boshqalar bor. Ayniqsa, Boysung'ur Mirzo adabiyotga homiylik qilibgina qolmay, o'zi ham she'rlar yozdi. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun -ul-balog'a" (1436-1437-yillarda yozgan) asarida Boysung'ur Mirzoning bir o'zbekcha qit'asi ham berilgan. Mana o'sha qit'a:



Furqatingda sorig' o'ldi olmangiz,  
Ey musulmonlar, yaroqon o'lmasun.  
O'lmakimdan fikrim oncha yo'q turur,  
Qo'rqaram o'lsam, yaroqon o'lmasun.

Shubhasiz, temuriylar hukmronligi davrida turkiy tilli adabiyotga alohida e'tibor qaratildi. Akademik V.V.Bartold keltirgan dalillar bu jihatdan ancha diqqatga sazovor. Jumladan, uning ta'kidlashicha, temuriylar davri madaniy hayotida Qobulshoh (1366-yili xon deb e'lon qilingan va ko'p o'tmay taxtdan tushirilgan)ning ma'lum darajada roli bo'lgan. Qobulshoh turkiy tilda she'rlar yozgan. XV asrda ham bu shoir ancha shuhrat qozongan. Amir Temurning safdoshlaridan amir Sayfidin barlos fors va o'zbek tillarida she'rlar ijod qilgan edi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Movarounnahr bu jihatdan ko'p muvaffaqiyatlarga erishgani ma'lum. Shaxsan Ulug'bekning fanga qo'shgan hissasi beqiyosdir. U bobosi Temur kabi olimlar bilan suhbat qurib, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish bilan cheklanib qolmadi, balki Sharq tarixida kam uchraydigan hodisani – hokimiyat boshqaruvi bilan ilmni birga qo'shib olib bordi. Zamondoshlari Ulug'bekni bu fazilatlarini tufayli Arastuning shogirdi Iskandar bilan tenglashtiradilar. Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida aytadi:

Shahyekim, ilm nurin topti zoti,  
Aning to hashr\* qoldi yaxshi oti. (\*xashr–1. to'planish, katta  
yig'in. 2. qiyomat kuni)

Sikandar topti chun ilmu hunarni,  
Ne yanlig' oldi ko'rgil bahru barni (\*bahru bar – dengiz va quruqlik)

Aningtek saltanat ahli ko'p erdi,  
Qayu birga ne nav' ish dast berdi?

Iki ming yil o'tub yuz ming xiradmand\*, (\*xiradmand-- aqlli, dono).  
Bo'tub hikmatlari birla barumand \* (\*barumand – 1 bahramand,  
foydalanuvchi. 2. hosildor mo'l.)

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek  
Ki, olam ko'rmadi sulton aningtek...

XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda adabiyot yuksalish bosqichiga ko'tarildi. Bu haqda Shayx Ahmad Taroziyning yuqorida biz aytib o'tgan "Funun-ul-balog'a" asarida ko'plab shoirlarning nomlari keltirilganki, mavjud ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida xizmat qiladi, ayni paytda ba'zi ma'lumotlarga aniqlik kiritadi. Shayx Ahmad she'rshunoslik, xususan, sharq mumtoz poetikasi munosabati bilan nomlari bizga noma'lum bo'lib kelgan ko'plab turkiy va forsiyzabon shoirlarning nomlarini adabiyot tarixiga olib kirdi. Imon Ziyovuddin Forsiy, Jalol Samarqandiy, Umid Kamoliy, Mavlono Sayfiddin, Muhammad Ganjaviy kabi bir qator shoirlar Temuriylar davri adabiyotida ma'lum mavqe egallaganini anglash mumkin. Ayni paytda Shayx Ahmad Taroziyning o'zi ham zamonasining iste'dodli shoiri bo'lganini mazkur asarida keltirgan g'azallaridan bilamiz.

Mustahkam poydor davlat, hukmdorlarning adabiyotga muhabbati va e'tibori Xuroson va Movarounnahrda adabiy jarayonga, ilm-fan ravnaqiga katta ta'sir o'tkazgani haqiqat. Bu davrda o'zbek va fors adabiyoti yonma-yon kamol topib bordi. O'zbek adabiyoti, bir tomondan, o'z an'analari negizida, ikkinchi tomondan, fors adabiyoti tajribalari ta'sirida tobora rivoj topdi. O'zbek adabiyotida yangi janrlarning paydo bo'lishi va mavjudlarining takomili ham buni tasdiqlaydi. O'zbek nasri va she'riyatida o'ziga xos Xuroson usuli paydo bo'ldi. Bu adabiy usulning muhim xususiyatlaridan biri shuki, badiiy va ilmiy asarlar ifodasida fors, arabiy so'z hamda iboralardan, atamalardan, forsiy tilga xos jumla tuzish qoidalaridan keng foydalanilgan. Bu holat o'lkadagi etnik sharoit ta'sirida yuzaga kelgan edi.

Umuman, Temuriylar davri yangicha tafakkur mahsuli bo'lgan adabiyotni paydo qildi. Keyingi davrlarda – Temuriylar saltanati parchalanib, uch xonlik barpo bo'lgandan keyin ham, Temuriylar davri adabiyoti an'analari davom etdi. Hindistonda Boburiylar saltanati natijasida yuzaga kelgan o'zbek adabiyoti ham bevosita va bilvosita Temuriylar davri adabiyotining mahsulidir.

### Reja:

1. “To‘rt ulus tarixi”ning yaratilishi.
2. “To‘rt ulus tarixi” va Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” asaridagi uyg‘unliklar.
3. Alonquvodan kelib chiqqan nasllar.
4. Mirzo Ulug‘bek turk lashkarlarining tuzilishi haqida.
5. Mo‘g‘ul Elxoniyalar sulolasi.
5. Mahmud Torobiy haqidagi hikoyat.
6. Jo‘ji haqidagi hikoyat.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *adabiy va ilmiy muhit, muqaddima, mo‘g‘ul hukmdorlari, turk qavmlari va podshohlari, Dashti Qipchoq, ilm-fan ahli, doston, hikoya, turkiycha jir.*

**“To‘rt ulus tarixi”ning yaratilishi.** Mirzo Ulug‘bek Xurosondagi adabiy va ilmiy muhitdan farqli o‘laroq, turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixi bilan qiziqdi. Chingizxon va mo‘g‘ul sulolalari tarixining Temuriylar davrida davom etgani qiziqarli va diqqatga sazovor. Zotan, turk-mo‘g‘ul qavmlarining qondoshlik jihatdan birligi haqidagi tarix bu davrda ma’lum edi. Shu chin tarixni keng ommaga yetkazish uchun zarurat bor edi.

“To‘rt ulus tarixi” Mirzo Ulug‘bekning rahbarligi ostida va shaxsan ishtirokida yaratilgan. Asar 1425-yili yozib tamomlangan.

Asar “Ulus- a- arba’a – yi Chingiziy” (“Chingiziylarning to‘rt ulusi”) va “Tarixi arbaa ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) nomlari bilan mashhur. Asar *muqaddima* va *yetti bobdan* iborat.

*Muqaddima* qismida o‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar an‘anasiga ko‘ra, *Tangri taolo, uning elchisi Muhammad s.a.v. va uning avlodlari sha’niga maqtoV, Odam ato, payg‘ambarlar, Nuh alayhissalom, uning farzandlari tarixi bayon* qilinadi. Shuningdek, *Odam atoning o‘g‘li Shis va uning o‘g‘li Anush hamda Anushning o‘g‘li, nevara-chevaralari Kaynon, Mahloyil, Axnush va b. qator payg‘ambarlarning faoliyati hikoya* qilinadi.

**“To‘rt ulus tarixi” va Rashididdinning “Jome’ ut-tavorix” asaridagi uyg‘unliklar.** Ma’lumki, Nuh o‘g‘li Yofas turkiy qavmlar tarixida tayanch nuqtadir. U Abut-turk degan nom bilan turkiy xalqlar tarixida

mashhur. Mazkur asarning *birinchi bobida* Yofas va uning Turkiston elida hukmronlik qilgan avlodlari – Abuljaxon, Dabkuyxon, Kuyukxon va boshqa mo‘g‘ul hukmdorlari, shuningdek, turk qavmlari va podshohlari – Mo‘g‘ulxon, Qoraxon, O‘g‘uzxon tarixi bayon qilingan. Shunisi diqqatga sazovorki, asarda keltirilgan turk-mo‘g‘ul urug‘lari tarixi va etnik tarkibi Rashididdinning “Jome ut-tavorix” asarining birinchi jildida keltirilgan ma‘lumotlardan keskin farq qilmaydi. Aynan O‘g‘uzxon haqidagi voqealar ham Rashididdin asaridagi O‘g‘uzxon voqealari bilan deyarli bir. Bu hol Rashididdin foydalangan va turk-mo‘g‘ul xalqlariga oid boshqa manbalarni Mirzo Ulug‘bek ham sinchiklab o‘rganganini dalillaydi.

**Alonquodan kelib chiqqan nasllar.** Turk-mo‘g‘ul xalqlarining afsonaviy onasi Alonquvaning ta‘rif-tavsifi va “To‘rt ulus tarixi”ning alohida voqeasi – *ikkinchi bob* bo‘lib, Alonquvaning kelib chiqishi va undan tarqalgan avlodlar tarixi hikoya qilinadi. Alonquvadan kelib chiqqan nasllar Buzunjor xon, Buqo xon, Dutumin xon, Qobulxon, Boysung‘ur xon, Yasugay bahodir va boshqalardir. Bu nasllarning har biri podshohligi zikriga Mirzo Ulug‘bek alohida-alohida to‘xtalgan.

**Mirzo Ulug‘bek turk lashkarlarining tuzilishi haqida.** Jahongir Chingizxon tarixi bu asarda *uchinchi bobni* tashkil qiladi. Bu bobda eng diqqatga sazovor o‘rinlar – Chingizxonning bir qator xonlarni mag‘lub qilgani, uning nasl-nasabi, farzandlari, el-ulusga joriy qilgan yasoqlari (qonunlari) zikri va u o‘rnatgan qonunlar tufayli o‘g‘irlikka barham berilgani, lashkar tuzilishiga oid voqealar bayonidir. Jumladan, lashkar tuzilishi to‘g‘risida Mirzo Ulug‘bek quyidagicha yozadi: “Lashkar tartibi shunday tuzilganki, Odam ato zamonidan bugungi kungacha biror podshohning sipohi turknikidek muyassar bo‘lmagan. Sabru bardosh shiddatida va ma‘lum muddatgacha shokirlikda yashirin va oshkora o‘z hokimlariga jonu dildan mahkumlik va mute‘lik qilurlar” (113-b.). Sulton Muhammad Xorazmshoh va uning o‘g‘li Jaloliddin bilan olib borgan jangu jadallari ham shu bobda qiziqarli tarzda bayon etiladi.

Chingizxon o‘z farzandlariga va Qorachor no‘yonga davlat ishlari borasida vasiyat etishi voqealari bilan *to‘rtinchi bob* boshlanadi. O‘ktoyning taxtga o‘tirgani va uning Ulug‘ yurtidagi podshohligi, O‘ktoy, Chig‘atoy va Tulixonning Xitoyga lashkar tortgani, u mamlakatni egallab qaytayotganlarida Tulixonning vafot etgani, O‘ktoyxondan keyin taxtga o‘tirgan Kuyukxon hukmronligi davridagi voqealar, niho-

yat, Oʻrdoyxon ibn Arigʻ Temurxon hukmronligigicha boʻlgan hodisalar ham shu bobda hikoya qilinadi. Oʻktoydan boshlab Oʻrdoyxongacha yigirma bir hukmdor tarixi qisqa bayon qilingan.

Chinigzxonning toʻngʻich oʻgʻli Joʻji xon Markaziy Osiyo tarixida katta mavqe egallagan edi. Joʻji naslidan boʻlgan oʻttiz uch xon haqida asarda hikoya qilinadi va *beshinchi bobni* tashkil qiladi. Joʻji avlodlari Dashti Qipchoq (hozirgi Qozogʻiston, Gʻarbiy Sibir, Volga boʻyi yerlari) ni egallagan edilar. Voqealar qisqa, Oltin Oʻrta poytaxti Saroy shahrini qurgan Botuxon (Joʻjining oʻgʻli), Barakaxon, Oʻzbek xon, Jonibek kabi hukmdorlar tarixi shu bobdan oʻrin olgan. Temur Malikni va uning sodiq odamlarini moʻgʻul lashkarlari qanday taʼqib qilganlari toʻgʻrisidagi qiziqarli voqea ham shu bobda hikoya qilingan. “Temur Malik bir guruh barqaror odamlari bilan shoshilmay, dushman yoʻlini toʻsdi. Yonidagilar ham nobud boʻlgandan keyin uning qurol-yarogʻi qolmadi. Faqat uchta oʻqi qolgandi. Ularning ham biri singan va paykonsiz edi. Uch moʻgʻul nekomish bilan yelib kelardi. Temur Malik haligi siniq paykonsiz oʻq bilan bir moʻgʻulning koʻzini chogʻlab otdi. U koʻr boʻlib qoldi, qolgan ikkisiga dedi: “Bu ikki oʻq bilan sizlarga javob bera olurman desam boʻladi; qaytinglarki, sizning taqdiringiz shu oʻqlarda”. Ul ikki moʻgʻul...qaytib ketdi. Temur Malik sogʻ-salomat qoldi va Xorazmga joʻnadi” (146-b.).

**Moʻgʻul Elxoniyalar sulolasi.** Eronda moʻgʻul qavmining Elxoniyalar sulolasi oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. Elxoniyalar saltanatining asoschisi Tulixonning oʻgʻli Halokuxon boʻlib, u Elxon laqabini olgan edi. Xalokuxondan boshlab oʻn ikki hukmdor sulolani boshqardi. Halokuxon tarixiga kitobda kengroq oʻrin berilgan. U Eronda oʻz saltanatini barpo qilish uchun kurashadi, muruvvatpesha hukmdor sifatida shuhrat qozonadi, mamlakat obodonchiligi yoʻlida koʻp ishlar olib boradi. Shu bobdan ayon boʻlishicha, Halokuxon ilm-fan ahliga koʻp ragʻbat koʻrsatgan. Jumladan, Halokuxon farmoni bilan Nasriddin Tusiy Tabrizda (moʻgʻul elxonlarining poytaxti) qurgan rasadxona Halokuxondan qolgan yodgorlikdir. Shu rasadxonada tuzilgan zij “elxoniy” nomi bilan mashhurdir. Bu voqealar “Toʻrt ulus tarixi”ning *oltinchi bobini* tashkil qiladi.

**Mahmud Torobiy haqidagi hikoyat.** *yettinchi-* oxirgi bobda Chigʻatoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227-yil) Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370-yil) gacha boʻlgan voqealar hikoya qilinadi. Bu bobda ham diqqatga sazovor voqealar koʻp. Shunday voqeala-

lardan biri Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo'zg'olonidir. Mirzo Ulug'bek bu voqeaning boshidanoq Mahmud Torobiyning kimligini va asl qiyofasini chizib beradi:

“Soxta sher ko'k so'fi kiyib yurardi, ikkiyuzlamachiligu ayyorlikning asoslarini irg'itdi.

Firib bilan tutun tarqatdi olchoq, ularning salomi salovotu ro'zadan iborat”.

Torobiyning el orasida obro' orttirish usulini Mirzo Ulug'bek hiko-ya qiladiyu Mahmud, birinchi navbatda, erkaklarni atrofiga yig'ib, “Mening amrimdan chiqmaysizlar”, deb buyurdi. Torobiyning tabobatdan xabardorigi sabab ayrim xasta odamlar unga kelib, “tasodif bo'lib, birikki kasalga Tangri taolo shifo ham berdi”. Shu bois omma unga ixlos qo'ydi va uning atrofiga yig'ildi. Hikoyada Mahmud Torobiyning xalqni qanday qilib o'ziga og'dirib olish usullari, avomni notavonligidan foydalanib, o'zini sohibkaromat qilib ko'rsatish usullarini bayon qiladi. Buxoro shahri tashqarisida mo'g'ullar va Mahmud Torobiy o'rtasida bo'lib o'tgan jangda mo'g'ul askarlaridan birining kamondan otgan o'qi Mahmud Torobiyga tegdi va u jon berdi. Ammo uning o'limidan hech kim voqif bo'lmadi, shu paytda qattiq chang-to'zon ko'tarilib, odamlar birbirlarini ko'ra olmay qoldilar. Mo'g'ul lashkari bu tabiiy hodisani ham Torobiyning karomatiga yo'ydilar va jang qilishdan to'xtadilar. Shayx Torobiyning odamlari talon-tarojga bcrildilar, Talon-tarojni bas qilganlarida, shayxning yo'qligi ma'lum bo'lib qoldi va “shayximiz g'oyib bo'libdi” deb uning ukasi Muhammad Alini shayx qilib ko'tardilar. Mo'g'ul lashkari bilan Muhammad Ali tomonida turib jang qilgan Buxoro xalqi o'rtasidagi jangda har ikki tomondan yigirma ming odam o'ldi. Mo'g'ul lashkarining qo'li baland keldi va Qorachor no'yonning amri bilan Buxoroni g'orat qilishdan lashkar o'zini tiydi.

Mahmud Torobiy bilan bog'liq voqealarni Mirzo Ulug'bek keltirishidan shu narsa ma'lum bo'ladi, tarixda bu shaxs boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni zolimlarga qarshi kurash yo'lidagi kurash emas, balki u avom xalqni aldov bilan o'ziga og'dirib olgani va aldovga laqqa tushgan xalq uni Buxoro amiri qilib ko'targanini hikoya qilgan. Mahmud Torobiy o'zini avomga qanday qilib sohibi karomat qilib ko'rsatgani quyidagi parchada yanada aniqroq ayon bo'ladi: “...Keyingi juma kuni Shayx

Mahmud Torobiy nomiga xutba o'qitdilar. Imomlar va Buxoro akobirlarining barchasi shunda hozir qilindi. Ularning ba'zilarini o'ldirdi, ba'zilarini sazoyi qildi. Rind va avboshlarning barchasini katta ehtirom bilan qabul qildi. Ularga dedi: "Sizlar uchun g'oyibdan qurol-yarog' topishga muyassar bo'ldim!" O'sha kunlarda Sheroz tomondan bir karvon kelgan va to'rt xarvor shamshir olib kelgan edi. Bu ham odamlar sonining ko'payishi va e'tiqodiga sabab bo'ldi". Xalq bundan tashqari, boylarning uyiga kirib, molini talon-taroj qildilar, Mahmud Torobiy o'ljalarni avboshlarga taqsimlab berdi.

Mirzo Ulug'bek Mahmud Torobiyning ichki dunyosi bilan tashqi harakatlari bir-biriga nihoyatda mos ekanini ko'rsatib bergan. Uning nutqi orqali soxtaligini, riyokorligini ochgan. Mahmud Torobiy voqeasini Mirzo Ulug'bek alohida hikoya tarzida o'z asariga olib kirgan.

Shuningdek, mazkur bobda Chig'atoy ulusi bilan Elxoniylar davlati o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, Chig'atoy ulusining ijtimoiy-siyosiy hayotida barlos amirlarining roli, Balx va Andijonning qaytadan tiklanishi, ma'muriy va ma'naviy islohotlar singari voqealar ham o'rin olgan.

Har bir bobda biron xon yoki muayyan tarix hikoya qilinar ekan, albatta, Mirzo Ulug'bek oddiy bayonchilikdan qochadi, kitobxonni jalb qilish maqsadida, avvalo, asar uslubiga badiiy jilo beradi; ikkinchidan, ma'lum tarixiy voqealar yoki qahramonlarga ta'rif berish maqsadida she'riy parchalar keltiradi. Umuman, Mirzo Ulug'bek bu asarini yaratish bilan ijodkorlik mahoratini namoyon qilgan. O'tmishdagi tarixiy asarlar ayni paytda badiiy asarlar kabi kitobxonning estetik ehtiyojini qondirish uchun ham xizmat qilganini Mirzo Ulug'bekning mana shu asari misolida yanada aniqroq ko'rish mumkin.

Mirzo Ulug'bek o'z asarida "doston" terminini qo'llaydi. Bu bejiz emas. Jumladan, "O'tror muhosarasi dostonining tugashi", "Jand voqeari dostonining oxiri", "Jo'jixon, Chig'atoyxon va O'ktoyxon dostonining oxiri" va h. tarixiy voqealarning bayoni, ayniqsa, O'tror shahzodalari-ning fojiali o'limi, aholining ayanchli hayoti tasviri, O'tror hukmdori G'oyirxon bilan shahar ahlining qal'aga kirib, bir oy davomida o'limga tik boqib, mo'g'ul lashkarlari bilan ayovsiz jang qilgani shu darajada mahorat bilan tasvirlanganki, chinakam doston kabi o'qiladi. Mirzo Ulug'bek "doston" terminini adabiy termin sifatida emas, balki "voqea", "bayon" ma'nosida qo'llagan.

Ayniqsa, Jo'jixonning vafoti bilan bog'liq voqea (turkiycha *jir*) "To'rt ulus tarixi"dagi eng ta'sirli lavhalardandir.

Ma'lumki, Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixon Dashti Qipchoqda hukmronlik qilardi. Jo'jixonning vafoti haqidagi xabar O'rdaga yetib kelganda, bu xabarni Chingizxonga yetkazishga hech kim jur'at qila olmaydi. Oxiri barcha amirlar ulug' jirchidan, Chingizxon yaxshi kayfiyatda turganda bu shum xabarni yetkazzsangiz, deb iltimos qiladilar. Ulug' jirchi fursati yetganda Chingizxonga quyidagi turkiycha jirni aytadi:

Tengiz boshdan bulg'ondi, kim tinduroro, xonim?

Terak tubtun jig'ildi, kim turg'uzoro, xonim?

(Daryo boshidan loyqalandi, uni kim tozalaydi, ey shohim? Terak ildizidan quladi, uni kim turg'izadi, ey shohim?)

Chingizxon Jarchining savoliga shunday javob beradi:

Tengiz boshdan bulg'onsa, tindurur ulum Jo'jidir,

Terak tubdin jig'ilsa, turg'uzur ulum Jo'jidir

(Agar daryo boshidan loyqalangan bo'lsa, uni tindiruvchi mening o'g'lim Jo'jidir. Agar terak yog'ochi ildizidan qulagan bo'lsa, uni turg'izuvchi o'g'lim Jo'jidir).

Jarchining ko'zlaridan shashqator yoshlar oqadi. Chingizxon fojiani anglaydi va quyidagi baytni aytadi:

Ko'zing yoshli chungur turlu liq-liq to'ldi bo'lg'aymu?

Jiring ko'ngul o'rkutur Jo'chi o'ldi bo'lg'aymu?

(Ko'zlaring o'z yoshlarini dumalatmoqda, nahotki ko'ngling to'lib ketgan bo'lsa? So'zlaring yuraklarni o'rtadi. Nahotki Jo'ji o'lgan bo'lsa?)

Jarchi Chingizxonning bu baytiga quyidagicha javob beradi:

So'ylamakka erkim yo'q, sen so'ylading, o xonim,

O'z yarlig'lig' ozarg'a javobdi o'ylading, o xonim!

(Bu haqda gapirishga qudratim va ixtiyorim yo'q, o'zing shunday buyurgansan, ey shohim! O'z hukming o'zing uchun bo'lsin, to'g'ri fikr qilding, ey shohim!)



Chingizxon Jo'jini boshqa o'g'illaridan ham ko'ra nihoyatda yaxshi ko'rar edi. Chingizxon: "Kimki Jo'ji xonning o'limini talga olsa, mening siyosatimga (jazoimga) duchor bo'ladi", deb ogohlantirgan edi. Jarchining javobidan taqdirga tan bergan Chingizxon shunday deydi:

Qulon olg'on quvlandi, qulunimdan ayrildim,  
Ayrilishqon anqudi er ulumdan ayrildim!

(Ov qilish uchun ov maydonida quvlanayotgan qulonga o'xshayman, qulon o'zi qochadi. Ammo bolasi qoladi, men ham xuddi qulon kabi bolamdan judo bo'ldim!)

Bu voqea, shubhasiz, kitobxonni larzaga solmasdan qo'ymaydi.

### ***Savol va topshiriqlar***

Temuriylar saltanatining barpo bo'lishining ilk davrlari haqida so'zlab bering.

2. Movarounnahrda davlat qurgan ilk mo'g'ul xonlari Chig'atoy, Tarmashirin, Qozonxon va Qozog'on va b.larning faoliyati haqida qisqacha so'zlang.

3. Temur saltanatining ilk qurilish arafasidagi holatini so'zlab bering.

4. Navoiy Temurga qanday ta'rif beradi?

5. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Movarounnahrning maaniy holati haqida qisqacha so'zlab bering.

6. Birinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

7. Ikkinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

8. Uchinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

9. To'rtinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

10. Beshinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

11. Oltinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

12. yettinchi bobda qimlar va qanday voqealar haqida hikoya qilindi?

## Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asari

### Reja:

1. Shayx Ahmad Taroziy va uning “Fununu-l-balog‘a” asari haqida ma’lumot.
2. “Fununu-l-balog‘a” va Sharq poetikasi.
3. Asarning tuzilishi.
4. “Fununu-l-balog‘a”ning birinchi bobida qo‘yilgan masalalar.
5. Shayx Ahmad janrlar haqida.
6. Shayx Ahmad qasida haqida.
7. Shayx Ahmad g‘azal haqida.
8. Shayx Ahmad qit‘a haqida.
9. Shayx Ahmad ruboiy haqida.
10. Shayx Ahmad qofiya haqida.
11. Shayx Ahmad badiiy san’atlar haqida.
12. Shayx Ahmad vaznlr haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *“Fununu-l-balog‘a”, balog‘at ilmi, qo‘lyozma, poetika, adabiy hayot ehtiyoji, she‘riyatning asosiy janrlari.*

**Shayx Ahmad Taroziy va uning “Fununu-l-balog‘a” asari haqida ma’lumot.** Temuriylar sulolasi adabiyot bilan bir qatorda, ilm-fanga ham e‘tibor qaratganlariga ko‘p misollar bor. Jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” (“Balog‘at ilmlari”) deb nomlangan asari buning bitta namunasi. Asar 1436-1437-yilda yozilgan. Asar muallifi Shayx Ahmad Mirzo Ulug‘bek davrida yashagan yirik adabiyotshunos olim va shoirdir. Bizga “Fununu-l-balog‘a”ning 1581-yili Buxoroda Mir Kulunki al-Hoji degan kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxasi yetib kelgan. Bu nusxaning oxirgi qismlari yo‘q.

Asarning qo‘lyozmasi Angliyada saqlanadi. Shayx Ahmad mashhur o‘zbek va forsiy zabon shoirlar bilan bir qatorda, o‘ziga zamondosh shoirlarning she‘rlarini ham tahlil ob’ekti qilib oladi. Buning natijasida nomlari hozirgacha noma’lum bo‘lib kelgan shoirlar adabiyot tarixidan o‘rin olishlari uchun zamin paydo bo‘ldi.

Shayx Ahmad Taroziy haqida biron manbada ma’lumot saqlanib qolmagan. Muallif va uning mazkur asari haqida dastlabki ma’lumotlarni taniqli olimlar – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xiz-

mat ko'rsatgan fan arbobi Abduqodir Hayitmetov va filologiya fanlari doktori Ergash Umarov ilk bor O'zbekiston adabiyotshunoslariga ma'lum qildilar. Ustoz Abduqodir Hayitmetov bu asarni nashrga tayyorladi va 1996-yili "Xazina" nashriyotida chop ettirdi.

**"Fununu-l-balog'a" va Sharq mumtoz poetikasi.** "Fununu-l-balog'a"ning muhim tomoni shundaki, u o'zbek tilida yozilgan. Asar – o'zbek tilida adabiyotshunoslikka, ya'ni poetikaga oid birinchi marta yozilgan asar ekani o'z-o'zidan ma'lum. Fors tilida poetikaga oid asarlar ko'p bo'lib, "Fununu-l-balog'a"dan ancha oldin yozilgan. Jumladan, Rodiyoniyning "Tarjumon ul-balog'a" (X1-X11), Rashididdin Votvotning "Hadoyiq us-sehr" (X11), Shamsiddin Qays Roziyning "Al-Mu'jam" (X111), Nosiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (X111), Toj ul-Xalaviyning "Daqoyiq ush-she'r" (X1V) kabi qator asarlarni keltirish mumkin.

"Fununu-l-balog'a" muallifi Shayx Ahmad fors-tojik tilini mukammal bilgani asarda turli janrlardan keltirilgan parchalardan ma'lum bo'lib turadi. U o'z asariga tahlil sifatida keltirgan fors-tojik shoirlarining bugun fanga ma'lum bo'lganlari ham, ma'lum bo'lmaganlari ham bor. Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asari o'z davridagi adabiy hayot ehtiyoji va talablari asosida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Chunki forsiy tilda she'r yozadigan iste'dod egalari, xususan, yoshlar uchun she'r qoidalari – aruz vazni, qofiya, she'riy san'atlar, she'rlarning janr xususiyatlari haqida kitoblar, turli qo'llanmalar ko'p edi. O'zbek tilida esa she'r yoki boshqa badiiy asar yozishga qiziqqan iste'dodli kishilar uchun bunday ilmiy qo'llanma, risolalar bo'lmagan. O'zbek tilida asar yozishga, o'zbek adabiyotini boyitishga, uni rivojlantirishga bel bog'lagan qobiliyat egalari esa Ulug'bek davrida tobora ko'payib borayotgan edi. Umuman, Taroziyning bu asari o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan edi<sup>124</sup>.

Shayx Ahmadning "Taroziy" taxallusidan ko'rinib turibdiki, u Taroz shahrida tug'ilgan. Uning tarjimai holi haqida boshqa biron ma'lumot yo'q. Shayx Ahmad bu asarini Mirzo Ulug'bekka bag'ishlagan. Zotan, u asarning deobochasida Mirzo Ulug'bekka quyidagicha ta'rif beradi: "... saltanat daryosining gavhari va ma'dalat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mulkining shohi, shohanshohi a'zam, shahriyori a'lam, sohibus-sayful-

<sup>124</sup> Hayitmetov A. Turkiy tilda adabiyotdan ilk nazariy qo'llanma. – «Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a" asari nashriga so'z boshi. T.: Xazina. 1996, 7-bet. Bundan keyingi misollar shu nashrdan olinib, faqat sahifasi ko'rsatiladi, xolos.

kalam, ma'dani lutfu karam, moliki raqobi umam, farmondehi turk, arab va ajam, mag'isiddin val-davron Amir Ulug'bek Ko'ragon..." (31-b.).

**Asarning tuzilishi.** "Fununu-l-balog'a" asari muqaddima va besh qismdan iborat.

1. Muqaddimada Oллоh taolo insoniyatga so'z va nutq ato qilgani hamda ularni tartibga solganini, shu tariqa nazm va nasr paydo bo'lgani haqida yozar ekan, Oллоh balog'at haqida shirin suhbat olib borish uchun turli san'atlar va badiiyat bilan ziynat berganini yozadi. So'ngra Muhammad s.a.s.ga na't keltiradi.

2. **"Fununu-l-balog'a"ning birinchi bobida qo'yilgan masalalar.** Birinchi bobni Shayx Ahmad **"Avvalg'i fanda she'rning aqsomin va anvoin sharh qilur** (Birinchi ilmda she'rning qismlari va turlari sharh qilinadi)" deb nomlaydi.

Shayx Ahmad o'z asarida keltirgan mundarijadan ko'rinib turibdiki, Abduqodir Hayitmetov aytganlaridek, u tom ma'noda qo'llanma yozishni maqsad qilib qo'ygan. O'zidan oldin yaratilgan poetikaga oid asarlarni puxta o'rganib chiqqan. Shu bois o'z qarashlarini dalillash uchun umumiy ravishda o'z salafllari asaralarini o'rganganiga ishora qiladi.

**Shayx Ahmad janrlar haqida.** Bu bobda Shayx Ahmad she'rning "aqsomi" o'nta nav', ya'ni janrdan iborat ekanini aytadi. Bular: *qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard.* Muallif mazkur janrlarni she'riyatning asosiy janrlari sifatida qaraydi. Bu she'riy janrlarning tarkibida uchraydigan qismlari ham borki, bularning har birini Shayx Ahmad batafsil tushuntirib beradi. Uningcha, agar bu she'rlar tarkibida Tangri azza va jallaga hamd aytsalar, o'sha qismi *tavhid* deyiladi. Muhammad Mustafо s.a.s.ni vashf qilsalar, *na't* deyiladi. Tavba-tazarru qilib, tangriga yolvorsalar, *munojot* deyiladi. Xulafoyi roshidinni ta'riflasalar, *manoqib* va *manqabat* va *tamadduh* deyiladi. Agarda vafot etgan odamni yod olib, she'r yozsalar, *marsiya* deb aytiladi. Agar kimdandir nafratlanib, bayt tizsalar, *hajv* va *mazammat* derlar. Agar hazil qilsalar, *mutoyiba* derlar (32-b.)

Bu terminlar ostidagi she'riy parchalar yoki she'rlarni Shayx Ahmad janr deb hisoblamaydi. Bu qismlar asosan yuqoridagi o'nta janr tarkibiga kiradigan qismlardir. Bu she'riy qismlarni u she'rning mazmuniga, ayrim hollarda shakliga (masalan, *marsiya*) aloqador deb bilgan bo'lishi mumkin.

**Shayx Ahmad qasida haqida.** Shayx Ahmad qasida janrining asosiy xususiyatlari haqida to'xtalganda, bu janr yigirma yetti bayt yoki undan kamroq ham bo'lishini yozadi va uning tarkibiy qismlari husni matla' bilan boshlanib, undan keyin madh, maqsud va maqta'dan iborat bo'lishini aytadi (32-34-b.). Qasida janrining quyidagi turi haqida so'z yuritar ekan, janrning o'ziga xos xususiyati ana shundan iborat ekani haqida to'liq tasavvurga ega bo'lamiz: "Va qasidaning yana bir nav'i uldurkim, bu to'rt vajhni (tartibni – N.R.) tamomin rioya qilmaslar. So'zni madh birla ibtido qilurlar" (34-b.). Bundan ma'lum bo'ladiki, qasidaning bu turi husni ibtido san'ati bilan boshlanadi va bu san'at husni matla' o'rnida keladi, bayt mamduhni ulug'lashga qaratilgan bo'ladi<sup>125</sup>. Shu ta'rifdan keyin shayx Ahmad bir qator forsiyzabon shoirlar qatorida, Lutfiydan quyidagi baytni keltiradi:

Ey jafobobinda tasnif etkuchi yuz makru fan,  
Muttasil husnung so'zidur qayda bo'lsa anjuman (36-b.).

Sakkokiydan keltirgan quyidagi bayt ham husni ibtidoga misoldir:

Ey soching shaydo ko'ngullarning savodi a'zami,  
Halqa-halqa ruhning sarmanzilidur har xami (36-b.).

Husni ibtido yoki husni matla' bilan boshlangan qasidalar nasibsiz va gurizgohsiz bo'ladi, to'g'ridan-to'g'ri madh bilan boshlanadi.

**Shayx Ahmad g'azal haqida.** Shayx Ahmad Taroziy g'azal janriga to'xtalib, bu janrning aksariyati yigirma bayt, kami besh bayt bo'lishini aytadi. Ammo "magar qofiya tabilmasa, to'rt bayt qilurlar" (38-b.), deb istisnoli holatni ham ta'kidlaydi va buning qoida tusiga kirmaganini, balki "ul ham zarurat hukmidan joyizdur", deb izoh beradi. Shayx Ahmad fors-tojik va o'zbek adabiyotida eng ko'p tarqalgan g'azal janrini kuza-tib, shu xulosaga kelgan. Shayx Ahmad g'azal janriga bergan shu tus-huntirish va izohlardan keyin, "Taroziy aytur" deya quyidagi besh baytli g'azalni keltiradi:

Gar sabo ul oy yuzidin olsa har soat niqob,  
Tobi ayb tutqonidin bo'lg'ay pushaymon oftob.

<sup>125</sup> Husayniy Atoullloh. Badoyi'u-s-sanoyi'. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981, 255-b.

Qomatu raftorini ko'rdi magar sarvu tazarv\*, (*tazarv* – *tustovuq*, *qirg'ovul*.)

Rashk o'tidin sarv kuydiyu tazarv o'ldi kabob.  
Ko'zlarim uzra xayoling bir guzar qilg'aymu deb,  
Har zamon kipriklarim jorub urub, separ gulob.  
Furqatingdin yig'lamoqdin bo'ldum oningdek zaif,  
Kim sinamoqdin adaq qo'ydim, buzulmodi hubob.  
El arosinda Taroziy bo'lg'usi Isonafas,  
Gar labing yodinda may o'rnig'a ichsa zahri nob (38-b.).

“Fununu-l-balog'a”ni nashrga tayyorlagan ustoz Abduqodir Hayitmetov Taroziy taxallusli she'rlar ham, taxallusi keltirilmagan she'rlar ham asar muallifi Shayx Ahmadga tegishli ekanini yozgan edi. Yuqoridagi g'azaldan Shayx Ahmad Taroziy o'z davrining yetuk shoiri ekanini anglash mumkin.

**Shayx Ahmad qit'a haqida.** Shayx Ahmad qit'a janri haqida to'xtalib, uning asosiy belgisi kamida ikki baytdan iborat bo'lishini, misralar qofiyalanishi shart emasligini aytadi. “Ammo, - deydi shayx Ahmad, - qofiya topsalar aytaveradilar”. Shundan keyin Taroziy o'zining bir qit'asidan va Lutfiyning bir qit'asidan namuna keltiradi. Har ikkalisining qit'asi ham qofiyasiz. So'ngra Mavlono Hoji Aqcha Kindiyning quyidagi qit'asini keltiradi:

Mushkdur ul zulf yo umri daroz,  
Yo bo'luptur anbari tar tor-tor.  
Qildin ar qilsa qalam naqqoshi Chin,  
Ul qachon og'zing bikin bar tor-tor (40-b.).

Bu qit'aning muallifi Kindiy o'zbek adabiyoti tarixiga ilk bor kirib kelgani bilan birga, qit'aning qofiyalanib kelgani (*tar-bar*) ham diqqatga sazovor.

Biz Sayfi Saroyi ijodida uch, hatto besh baytli qit'alar borligini, o'sha qit'alarda qofiya borligini avval ko'rib o'tgan edik.

**Shayx Ahmad ruboiy haqida.** Shayx Ahmadning ruboiy haqidagi qarashlarida ham o'ziga xos yangiliklar mavjud. U to'rtala misrasi qofiyalangan ruboiy *ruboiyi musarra'*, ya'ni ikkala misrasi qofiyalangan ruboiy (*mufrad ruboiyning ziddi*) deb nomlanishini aytadi va o'zining bir ruboiysini keltiradi:

Husnunguz sha`nina jon parvonadur,  
Zulfingizga aqlu dil devonadur.  
Chunki jodu ko`zlarining mastonadur,  
Ul sababtin manzilim g`amxonadur (40-b.).

O`zbek adabiyoti tarixida uchinchi misrasi qofiyalanmaydigan ruboiylar ko`p uchraydi. Shayx Ahmad bu ruboiy turini *ruboiyi hissiy* deb nomlaydi. Bu ruboiy turiga o`zining bir ruboiysini va Sakkokiyning bir ruboiysini, Sa`diyning bitta forscha ruboiysini misol qilib keltiradi.

Shayx Ahmad “ruboiy” mavzusi ichida tuyuq haqida ham to`xtaladi. U tuyuqni alohida janr sifatida qaramaydi. Ruboiyning qofiyasi o`rnida tajnis qo`llangani uchun, bu ruboiy turini *mujannas* deb ataydi. Shayx Ahmadning quyidagi mujannasi nihoyatda mahorat va yuksak badiiy did bilan yozilgan mujannasdir:

To ko`ngulda ishq o`ti tobandadur (*rosa tobidadir*),  
G`am maishat panjasin tobandadur (*u yerda topadi*)  
Kiprik o`qin qismat etib otsangiz,  
Hech kishiga tegmas ul-tobandadur (41-b.) (*u tomondadir*)

Shunisi qiziqki, Shayx Ahmad ruboiyning ham, tuyuqning ham vazni haqida biron so`z aytmaydi. Faqat qofiyalanish tizimini mazkur janrning asosiy belgisi qilib oladilar.

Shayx Ahmad tuyuqni “Turk shoirlarining ixtiroidur, muni turklar tuyuq derlar”, deb o`z davridagi mavjud nazariy tushunchani tasdiqlab o`tadi. Navoiy esa tuyuqqa quyidagicha ta`rif bergan edi: “...ikki baytqa muqarrardur va sa`y qilurlarkim, tajnis aytilg`ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundog`kim:

Yo rab, ul shahdu shakar yo lab mudur?  
Yo magar shahdu shakar yolabmuudur?  
*Foilotun foilotun foilon* “. (MAT. 16-tom, 91-b.)

**3. Shayx Ahmad qofiya haqida.** Ikkinchi bobni “**Ikkinchi fanda qofiya va radifning qavoidin bayon qilur** (Ikkinchi ilmda qofiya va radif qoidalari bayon qilinadi)” deb nomlaydi. Shayx Ahmad ulamolalar va fuzalolar orasidan ahli ta`b (shoirlar va san`at ahllari) qofiya ilmini

bilmaklari muhimligini uqtiradi. Shayx Ahmad “she’ming asli qofiya va qofiyasiz she’r mumkin ermas” (61-b.), deb qat’iy hukm chiqaradi. Shuningdek, u *harora* degan she’r ham borki, bu nav she’rda qofiya bo’lmas, deb aytadi. Shu o’rinda Shayx Ahmad baytni chodirga, qofiyani ustunga o’xshatadi. Chodir ustunsiz bo’lmaganiday, qofiyasiz ham she’r bo’lmaydi.

Olimning fikricha, raviy – qofiyaning asosi. Ammo qofiyaning boshqa elementlari ham takrorlanishi lozim. Masalan, u Mavlono Haydarning

Xoja so’zini qilibon e’timod,  
Kesti ajuz o’z nimasidin umid, -

baytida ridf takrori kerak (75-b.), deb aytadi. Bu baytning *e’timod* va *umid* qofiyadosh so’zlarida undosh raviy *d* dan oldingi *o* va *i* unililari o’rinli qo’llanmaganini ta’kidlaydi. Raviy bilan ta’sis orasida keladigan daxilning takrorlanishi shart emasligini ham misollar orqali aytib o’tadi. Masalan, *olam* va *Odam* qofiyadosh so’zlaridagi *o* ta’sis, *l* va *d* daxil, *m* raviydir.

Xullas, Shayx Ahmad qofiya ilmini sodda, tushunarli yo’sinda bayon etadi, qofiya elementlarini arab harflari vositasida (biz kirill yoki lotin alifbosidagi harflarga tayanib fikr yuritganimiz singari) tahlil etadi.

4. **Shayx Ahmad badiiy san’atlar haqida.** Uchinchi bobni “Uchinchi fanda so’zning badoe’in va sano’ein zikr etar (Uchinchi ilmda so’zning badiiy usul va yo’sinlari va (badiiy) san’atlar zikr etiladi)” deb nomlaydi. Bobga kirishda Shayx Ahmad qisqa debocha qilib, har bir she’riy san’atga turkiy so’zlardan misol keltirganini, oldin o’tgan shoirlarning arabcha va forsha she’rlaridan va nasridan namunalar, shuningdek, Qur’oni Karimdan va Rasul alayhissalom hadislaridan misollar keltirganini bayon qiladi. Ma’lum bo’ladiki, Shayx Ahmad badiiy san’atlarni tadqiq etishda manbalarni ko’p jalb qilgan.

So’ngra Shayx Ahmad balog’at ahli ko’p e’tibor qiladigan yuzta san’atni birma-bir keltiradi. Bu san’atlar – *tarsi’*, *tajnis* va *uning turlari*, *saj’* va *uning turlari*, *mulamma’* singari **lafziy san’atlar**; *iyhom*, *lug’z*, *muammo*, *ibdo’*, *tashbeh* singari **ma’noviy san’atlar**; *husni taxallus*, *husni maqta’*, *muroatu-n-nazir* singari **lafziy-ma’noviy san’atlarni** qamrab oladi.

Shayx Ahmad badiiy san’atlarni lafziy, ma’noviy va lafziy-ma’noviy san’atlarga bo’lib tasnif qilmaydi. Har bir san’atning paydo bo’lish qo-



nuniyatini izchil bayon qiladi. Jumladan, *tashbeh* san'atining yetti turdan iborat ekanini bayon qilib bo'lgandan keyin, bu terminning lug'aviy ("o'xshatmoq") ma'nosini beradi: "...o'xshaturlar "tashbeh" derlar. Ul narsakim, anga o'xshaturlar, "mushabbah" o'qurlar" (93-b.). Mushabbah – o'xshatilgan, tashbeh qilingan narsa. Tashbehning *tashbeh-ul-kinoyat* turiga keltirgan she'riy namunalar orasida to'y kechasi (Shayx Ahmad termini bo'yicha *zihof*) tasviriga bag'ishlangan quyidagi parcha diqqatga sazovor:

Kumush inju qilib gul yaprog'ini resh,  
Asal ustinda ori tashladi nesh...  
Tong otquncha ayoq tutmoq, bosh urmoq,  
Uzuk o'ynamoqu bormoq yoshurmoq,  
Boliq bo'g'zindin oqti durri g'alton,  
Sadaf qursog'idin sachradi marjon.

Bu parcha Mavlono Haydarning "Gul va Navro'z" dostonidan. Parcha boshdan-oxirigacha tashbeh asosiga qurilgan. Tashbehning *tashbeh-ul-kinoyat* turida vositalar (*go'yo, xuddi, -dek*) ochiq bayon qilinmagani uchun to'y tasviri go'zal chiqqan.

Shayx Ahmad yuzta san'atning hammasini birma-bir tushuntirib, izohlaganda, oddiy kitobxonni nazarda tutgani ayon bo'ladi.

5. **Shayx Ahmad vaznlar haqida.** To'rtinchi bobni "To'rtinchi fanda she'rning taqte' va avzonin taqrir etar (To'rtinchi ilmda she'rning taqte'sini va vaznlari haqida so'z yuritiladi)" deb nomlaydi. Bu bob debochasida Shayx Ahmad arablarda o'n olti bahr bo'lganini, Ajam (Eron) olimlari yigirma to'rt bahr qilganlarini yozar ekan, o'z maqsadini kamtarlik bilan ayon qiladi: "...bu zaif tiladikim, ul azizlarning paydo qilg'on bahrlarini qalamg'a keltursa va turkiy iborat birla bayon aylab, har vazng'a turkiy bayttin misol keltursa" (146-b.).

Shayx Ahmad bu asarini yozish uchun Mahmud Zamaxshariyning "Aruzi Qistos", "Aruzi Undulusiy" (A. Hayitmetov bergan izohga ko'ra, aruz haqida ispaniyalik olimlar yaratgan ilmiy asar nomi; muallifning nomi noma'lum) va Nosiruddin Tusiy (1201-1274)ning "Me'yor ul-ash'or" asarlarini hamda shular singari aruzga doir kitoblarni sinchiklab o'rgangani haqida xabar beradi.

Aruz nazariyasini sodda qilib tushuntirish bu bobning asosiy maqsadi bo'lgan edi. Shayx Ahmad asosan turkiy she'riyatdan misollar keltira-

di, bahrlarning nomlarini va vaznini bayon qiladi. U bahrlar sonini qirqtaga yetkazadi. Shayx Ahmadning sinchkovligi, bilimdonligi va Sharq poetikasini yaxshi o'rgangani, hamma boblar qatori, aruzga doir bobda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo aruzga bag'ishlangan bob chala bo'lib qolgan. Shayx Ahmad bu asarini nihoyasiga yetkazganini asarning debochasida aytadi. Ammo A. Hayitmetov aytganlaridek, qo'lyozma o'z davrida zararlangan va to'rtinchi bobning oxirgi varaqlaridan va muammo janriga bag'ishlangan beshinchi bobdan bir sahifa ham qolmagan. Badiiy san'atlarga bag'ishlangan bobda muammo san'ati haqida o'z o'rnida to'xtalishini Shayx Ahmad qayd qiladi. Demak, u asarini oxiriga yetkazgan. "Fununu-l-balog'a"ni ko'chirgan kotib ham shu holicha ko'chirgan, ya'ni unga qo'lyozma zararlangan holda yetib kelgan.

Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asaridan va bu asarda keltirilgan o'z she'rlaridan ma'lum bo'ladiki, XV asrning birinchi yarmigacha o'zbek tilida ijod qilgan, hanuzgacha bizga noma'lum bo'lib kelgan qator shoirlarning nomlarini va ijodidan namunalarni bizga yetkazdi. Shayx Ahmad Taroziyning o'zi ham Lutfiy, Sakkokiy, Otoy kabi shoirlar qatoridadan o'rin olishga loyiq iste'dodli ijodkor, ayni paytda olim ekanini mazkur asari va unda keltirgan baytlarida namoyon qila oldi. U chig'atoy adabiy tili rivojiga katta hissa qo'shdi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Shayx Ahmadning "Fununu-l-balog'a" asari qachon yozilgan va qaysi hukmdorga bag'ishlangan?
2. Shayx Ahmad Mirzo Ulug'bekka qanday ta'rif beradi?
3. Asar muqaddimasida nima haqda so'z yuritiladi?
4. Shayx Ahmad mumtoz adabiyotda qaysi janrlar borligini aytadi?
5. U qasidaning hajmi va qismlari haqida qanday so'z yuritadi?
6. Shayx Ahmad g'azal janrini qanday sharhlaydi?
7. Shayx Ahmadning fikricha, qit'ada qofiya bo'lishi shartmi yoki shart emasmi?
8. Shayx Ahmad ruboiyni qanday tasnif qiladi?
9. Shayx Ahmad qofiyaga qanday talablar qo'yadi?
10. Shayx Ahmad nechta badiiy san'atni bayon qiladi va san'atlarni necha turga bo'ladi?

## Temuriylar davri o‘zbek adabiyotida noma janri taraqqiyoti

### Reja:

1. Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asari haqida ma’lumot.
2. “Latofatnoma”ning tuzilishi va mazmuni.
3. Sulton Mahmud madhi.
4. Xo‘jandiyning badiiy mahorati.
5. Sayyid Ahmadning “Taashshuqnomasi” asari.
6. “Taashshuqnoma”ning tuzilishi.
7. Asar qo‘lyozmasining o‘rganilishi.
8. “Taashshuqnoma”da hayotga muhabbat ifodasi.
9. “Dahnoma”ning tuzilishi.
10. Asarda Boysung‘ur Mirzo madhi.
11. “Dahnomada hikoyat.
12. “Dahnoma”da ilohiy ishq tavsifi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *noma janri, g‘azal, fard, qit‘a va munajat janrlari, madh, na‘t, shariat bog‘ining bulbuli, mubolag‘ali tasvirlar, badiiy mahorat, tajnisli qofiya, masnaviy, epik syujet.*

O‘zbek adabiyoti tarixida noma janrining ildizlari, “Muhabbatnoma” bu janrdagi yuksak saviyada yozilgan asar ekani to‘g‘risida avval ma’lumotlar berilgan. “Muhabbatnoma” Temuriylar davri adabiyotida noma janrining rivojiga muhim tayanchlardan biri bo‘ldi. Temuriylar davriga kelib, noma janri ga alohida e‘tibor berilib, rivoj topdi. Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asari shu yo‘ldagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

**Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asari haqida ma’lumot.** Xo‘jandiy XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning birinchi choragida yashab ijod etgan. Uning “Latofatnoma” asari yetib kelgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotida noma janrining rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Shoirning tarjima holi to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Taxallusidan Xo‘janddan ekani ma’lum bo‘ladi.

“Latofatnoma” XV asr adabiyotida shuhrat tutgan ko‘rinadi. Jumladan, O‘toyi ham bu asardan yaxti xabardor bo‘lgan. U bir g‘azalida shunday yozadi:

Otoy she'rining lutfini bilsa,  
«Latofatnoma»dan kechgay Xo'jandiy.

Xo'jandiyning "Latofatnoma"si XV asr boshlarida (1411-yillarda) yozilgan bo'lib, Amir Temurning avlodlaridan biri, Xorazmda hukmronlik qilgan Sulton Mahmudga bag'ishlangani to'g'risida ko'p adabiyotlarda aytiladi.

"Latofatnoma"ning "Muhabbatnoma"dan tuzilish jihatidan farqi bor. Farq shundan iboratki, bu nomada har bir nomadan so'ng g'azal keltirilmaydi, fard, qit'a va munojot kabi janrlar ham alohida ajratilmaydi. Ammo Xo'jandiy bu asarini "Muhabbatnoma"ga javob tariqasida yozganini aytadi:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,  
"Muhabbatnoma"ga aytsang javobe.

**"Latofatnoma"ning tuzilishi va mazmuni.** Asar Yaratganga hamd bilan boshlanadi. Yaratganning cheksiz qudrati, hamma narsani – insonu jonzotlarni, to'qqiz qavat falakni, yetti qavat yerni, osmondagi qushlarni, yer yuzidagi boyliklarni va jamiki narsalarni U bu olamga keltirgan. Yoqubni ham Yusufning firoqiga duchor qilgan, Yusufning dardida Yoqubning ko'zlarini ojiz qilgan, Sulaymonga shamolni itoat ettirgan, Dovudga sovut yasash iqtidorini ato qilgan ham Yaratganning O'zidir.

Xo'jandiy asarining hamd bobida o'z maslagi va e'tiqodini bayon qiladi. Ilohiy ishq – Xo'jandiyning a'molu e'tiqodi, uning butun vujudi ishq o'tiga itoat ettirilgan. Yaratuvchi oshiqlarga jafoda beradi, bu jafokashlarning sarvari Muhammad Mustafodir. Xo'jandiy Yaratganga iltijo qilib, bu ishqdan meni ayirmagin, deya so'raydi:

Xudoyo, ko'nglum ichra ishq o'ting yoq,  
Xo'jandiy xastaga lutfung bila boq.  
Muhabbat jomidin sahbo (*qizil may*) ichirgil,  
Xato ishlar telim qildim, kechgay.

Xo'jandiy Yaratganga madhdan so'ng, payg'ambarga na't (maq-tov) keltiradi. Muhammad Mustafoni so'qir ko'ngillarning tabibi, shariat bog'ining bulbuli, deb ta'riflaydi. Shuningdek, Muhammad Mustafoni

payg‘ambarlarning sarvari, avliyolarning rahnamosi ekanini, Xudoning hukmi bilan mo‘jizalar ko‘rsatganini va boshqa ko‘p sifatlarini, fazilatlarini bayon qiladi.

Xo‘jandiy bu asarini, boshqa nomalar qatori, o‘nta nomadan iborat qilib yaratgani to‘g‘risida yozadi:

Tilimda so‘z, elimda xoma bo‘ldi,  
“Latofatnoma” ham o‘n noma bo‘ldi.

“Latofatnoma” – ishqsiz ko‘ngillarga oshiqlik dardini soladigan asardir. “Kimning ishq bo‘lmasa, uning biron maqsadi bo‘larmidi, bir jononni sevmasa, undan nima murod bo‘lardi”, deydi shoir Xo‘jandiy. U bu fikrini davom ettirib: “Kimki biron jononni sevmasa, bilingki, uning tanasida jon yo‘qdir”, deb xulosa chiqaradi. Ana shundan keyin Xo‘jandiy asosiy maqsadga ko‘chadi:

Ne bilsun tekma nodon ishqbozi,  
Haqiqat bo‘lmasa bori majozi,  
(Har qanday nodon oshiqlikni qaydan bilsin, agarda unda haqiqiy  
ishq bo‘lmasayu majoziy ishq bo‘lsa)  
deya oshiqlik va bu ishqning chinakam qiyofasini chizib beradi. Bu baytni fard janriga mansub deb qarash mumkin.

**Sulton Mahmud madhi.** Xo‘jandiy “Latofatnoma”ning yozilish sabablariga to‘xtalib, dastlab asarning yozishga Sulton Mahmud undagani to‘g‘risida aytadi, so‘ngra Sulton Mahmudni tengi yo‘q hukmdor sifatida ta’riflaydi:

Ayo faxri salotin shohi davron,  
Zamona mafxari Mahmud tarxon.

Ajun faxri shahonshohi zamona,  
Sifoti savlating to‘ldi jahona.

Zihi sohibqiron arslon yuraklik,  
Maoni majlisi ichra ko‘rukluk.

Saxovat bobida chun Hotami toy,  
Shijoat mulkida chun Qovusu Kay.

Qiliching haybatidin Rustami Zol,  
Qilibdur dunyoda go‘r ichra inzol\*. (\*inzol – tushish, voqif bo‘lish.)

Jahon tindi sening adling kuchindin,  
Yoshin yashnar qilichingning kuchindin.

Saxovat mulkida sohib adamsen,  
Latofat ma‘dani koni karamsen.

Begim, adling qamug‘ olamg‘a to‘ldi,  
Quyosh yanglig‘ sifoting jilva bo‘ldi.

Jamoling aksidin xurshed olur nur,  
Oting bo‘ldi qamug‘ olamda mashhur.

Bulut ichra yoshundi oy yuzungdin,  
Shakar sizdi qamish ichra so‘zungdin.

Quyosh yuzung ko‘rub yerga yiqildi,  
Adog‘ing tufrog‘ini surma qildi.

Falak boshi birla evrulsa ming yil,  
Seningtek qilmag‘ay dunyoda hosil.

Xirad shatranjini uttung jahondin,  
Sening lutfung bila to‘ldi jahondin.

Maoni ichra, shohim, qil yorarsen,  
Ajunda hyer ne qilsang, qil, yararsen...

Xo‘jandiy mazkur baytlarida Sulton Mahmudni har xil mubolag‘ali tisvirlar bilan ko‘klarga ko‘taradi. Sulton Mahmudni tengi yo‘q bahodir, insoniy fazilatlarini cheksiz, Yusufmisol husnga ega, nihoyatda nozikfahm qilib tasvirlaydi. Tabiiyki, unga bo‘lgan hurmati, ayni paytda Sulton Mahmud ham Xo‘jandiyni e‘tiborda tutgani, unga ehtirom ko‘rsatgani sabab bo‘lgan edi.

Asarda Xo‘jandiy taxallusi olti o‘rinda uchraydi. Asarda Xo‘jandiy haqiqiy ishqni majoziy ishqdan ustun qo‘ysa ham, hayot go‘zalligini, ma‘shuqaga bo‘lgan samimiy sevgini kuylashni inkor etmaydi. Uning bu maqsadi “Latofatnoma”ning aksariyat baytlaridan anglashilib tura-di. Bu mavzu yorning jafokashligiyu oshiqning dardi orqali ko‘rsatiladi. Yorning jamolini ko‘rgan gul uyalganidan g‘unchaga aylanadi, qish fas-lida yor kulganda, yoz bo‘ladi, uning karashmasi jonu dilni g‘orat qila-di, ko‘zlari yag‘moyu chigilni talon-taroj qiladi. Hayotdan zavqlanishni, dunyo go‘zalligidan huzur topishni ilohiy ishq aslo inkor etmaganini yana nomadagi aksariyat baytlarda ko‘rish mumkin.

Ma‘shuqaning quyidagi ta‘rif-tavsifi orqali shoir ana shunday dun-yoviy sevgini ulug‘laydi, dunyoviy sevgidan qudratliroq kuch yo‘qligiga ishora qiladi:

Ayo sardaftari xuboni olam,  
Qamug‘ mulki jahon sizga musallam.  
Parilar shohisan, husnung ziyoda,  
Ruhung ko‘rsa shohlar bo‘lur piyoda.  
Qaro zulfung ajab hinduyi tasvir,  
Erur fatton ko‘zung joduyi Kashmir.  
Yuzung kunduz bikin, zulfung shabi tor,  
Soching chininda pinhon mushki totor.  
Labing la‘li Badaxshon, tishlaring dur,  
Sadaf og‘zin qurutqon tishlaringdur.

Yorning an‘anaviy ta‘rif-tavsifi bilan birga, Xo‘jandiyga xos tasvir uchraydiki, bu baytlar “Latofatnoma”ning boshqa nomalar bilan bellas-ha oladigan asar ekanini ta‘minlagan. Shoirning

Xo‘jandiy so‘zlarin Xorazmiy miskin,  
Eshitsa yo‘lli deb qilg‘aydi tahsin

deb aytgan so‘zlari haqiqat ekanini mazkur baytlar ham tasdiqlab turibdi. Zotan, Xo‘jandiy Xorazmiyning tahsiniga loyiq noma janrida asar yarata oldi.

“Latofatnoma”da har bir nomaning oxiridagi bir bayt soqiyga muro-jaatdir. Bu baytlar soqiynoma janriga mansub:

Kel ey soqiy, bu kun majlis quroli,  
Zamoni aysh etib, xush o'lturoli.

“Muhabbatnoma”da ham Xorazmiy har bir nomadan so‘ng soqiyga murojaat etib. 3-4 baytdan iborat masnaviy keltirgan. Xo‘jandiy ham Xorazmiyga ergashib, har bir nomaning so‘ngida soqiyga qilgan murojaatini yuqoridagiday bir baytda keltiradi. Jumladan, ikkinchi baytdan so‘ng

Kel, ey soqiy, sharobi nob keltur,  
Faqirilar ko‘nglini dar‘yob\* keltur (\**daryob – daryo suvi*)

deya murojaat qilsa, uchinchi nomadan so‘ng

Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,  
Kechar dunyo, g‘animat tut bu damni

baytini keltiradi va shu tariqa har bir nomadan so‘ng turli shaklda soqiyga murojaat takrorlanaveradi.

**Xo‘jandiyni badiiy mahorati.** “Latofatnoma”da muallif e‘tibor qaratgan yana bir jihat o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanganidir. Tajnisli qofiya Xo‘jandiyni xalq tilidan mahorat bilan foydalaniganiga muhim dalildir:

Isirg‘ang donasi *chin Mushtariydur*,  
Soching nofayi *Chin mushtariydur*.

Qaro zulfung ichinda *chin ko‘rarmen*,  
Xato yo‘qdur bu so‘zda, *chin ko‘rarmen*.

Yoki quyidagi baytlarda ham tajnisli qofiya bor:

Yuzungni Haq jahon *gulzori* qildi,  
Yuzungni ko‘rdiyu *gul zori* qildi.

Ne bo‘ldikim, qulungdin *yuz evurdung*,  
Bir ayg‘on so‘zni, shohim, *yuz evurdung*.

**Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma” asari.** Asarni 846 (1435-36) yili Sayyid Ahmad yozgan. Sayyid Ahmad – Amir Temurning na-



birasi, Mironshohning o'g'lidir. Navoiy "Majolis un-nafois" asarining VII majlisida Sayyid Ahmad to'g'risida quyidagicha ma'lumot beradi: "Sayyid Ahmad – salim ta'b va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g'azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g'azal tavrida devoni bor. Va masnaviy tavrida "Latofatnoma" aningdur. Bu turkcha matla' yaxshi voqye' bo'lubturkim:

Sayd etti firoqing meni murg'i sahariydek,  
Qil odamiylik, qilma yuzni nihon pariydek.

Bu forsiy matla' ham aningdurkim:

Maham gar pesh az in pinhon bimonad,  
Ajab, gar bedilonro jon bimonad".

(Agar oy yuzligim bundan keyin ham pinhon qoladigan bo'lsa, bedillarning omon qolishi ajablanarlidir).

Navoiy Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma" masnaviysi haqida emas, uning "Latofatnoma" masnaviysi haqida so'z yurityapti. Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma"dan boshqa "Latofatnoma" nomli asari ham bor va bu noma Navoiyga yaxshi tanish bo'lgan. Navoiy "Taashshuqnoma"dan bexabar ekanini ham shu o'rinda aytish o'rinlidir.

**"Taashshuqnoma"ning tuzilishi.** Sayyid Ahmad asarining boshida ham "Taashshuqnoma" degan nomni ishlatadi. Asarning so'ngida – "Iltimosin aydur" qismida bu asarini yetti kunda tugatgani to'g'risida aytadi:

"Taashshuqnoma"ni himmat bo'lib yor,  
Tugattim yetti kunda bemadadkor.

"Taashshuqnoma" Tangriga hamd, "Munojot", "Madhi nabi alay-hissalom", "Kitob sababi", "Podshohi islom madhi" va o'nta nomadan iborat. O'ninchi nomadan keyin kitobning xotimasi va shoirning iltimosi o'rin olgan.

Tangriga hamd, adabiyot tarixidagi hamma asarlardagi singari, Tangrining tanholigi, jamiki borliqning Yaratuvchisi ekani bilan boshlanadi. So'ngra Tangri Odam atoga ma'rifat sirlarini bergani, Idris payg'ambarning tole'ini baland qilgani to'g'risida hikoya qiladi.

Shu o‘rinda Sayyid Ahmad baytda “Bahrom” so‘zini ishlatib, talmeh san‘atini qo‘llagan holda uzoq tarixga ishora qiladi.

Beshinchi manzilin Bahroma berdi,  
Aning tasxirini Bahroma berdi.

Birinchi misradagi Bahrom – Mars sayyorasini bildiradi; ikkinchi misradagi Bahrom esa o‘tmishdagi hukmdorlardan birining ismi. Bu baytda, Tangri beshinchi sayyorani yaratib, Bahrom ismini berdi, bu sayyorani itoat ettirish layoqatini Bahromga berdi, degan mazmun bor. Bizningcha, sayyorani itoat ettirish layoqatiga ega bo‘lgan Bahrom ismli shoh Sosoniylar sulolasi hukmdori Xurmuzdning o‘g‘li Bahromdir. U taqvodor va mehnatkash, adolatli podshoh bo‘lgan edi.

“Munojot”da shoir Tangriga iltijo qilib, o‘zining bir gunohkor banda, Tangridan boshqa himoyachisi yo‘q, najot beradigan faqat U ekanini so‘raydi.

“Na’t” bobida Muhammad payg‘ambar jamiki payg‘ambarlarning sarvari, javonmardlarning shohi ekanini, Odam ato, Nuh, Ibrohim, Muso, Sulaymon, Dovud, Masih kabi hamma payg‘ambarlar undan nur topganini aytadi.

“Kitob sababi” qismini quyidagi bayt bilan boshlaydi:

Tushumda bir necha ko‘rdum sahargoh  
Ki, Majnun birla bo‘ldum yo‘lda hamroh.

Majnun –oshiqlik timsoli. Sayyid Ahmadni oshiqlik yo‘liga Majnun da‘vat qiladi. Majnun oshiqlar maqomini quyidagicha ta‘riflaydi:

Ki oshiqlar maqomi Karbalodur,  
Kishikim bo‘ldi oshiq mubtalodur.

Majnun Sayyid Ahmadni oshiqlik maqomi to‘g‘risida hikoyat yozishga da‘vat etadi.

“Podshohi islom madhi” bobida Mirzo Ulug‘bekning Faridun, Jams‘hid, Sulaymon, Kayhusrav, Iskandar, No‘shiravon kabi podshohlarning jamiki fazilatlarini o‘zida mujassam etgan hukmdor ekanini madh qiladi.

**Asar qo‘lyozmasining o‘rganilishi.** Asarning yagona qo‘lyozma

nusxasi XVI asrnig 1 yarmiga mansub bo‘lib, Britaniya muzeyida saqlanadi. “Taashshuqnoma”ni nashrga tayyorlagan A.M.Shcherbakning xabar berishicha, asar Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Lutfiyning devoni, “Gul va Navro‘z”, Mir Haydar-Majzubning “Maxzan ul-asror”i, Yaqiniy, Ahmadiy va Amiriylarning munozarasi, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”si bilan bir muqovadadir. “Taashshuqnoma”dan bitta nomani 1927-yili A.N.Samoylovich ilk bor chop ettirgan edi. U yana “Taashshuqnoma” bilan “Muhabbatnoma”ning til xususiyatlarini qiyoslab, bir maqola ham e‘lon qilgan. Ingliz turkologi Ch. Ryo ham Said Ahmadning “Latofatnoma” asarini o‘z katalogiga kiritgan (Ch. Rieu. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum, p. 288). Ammo u Navoiyning “Majolis un-nafois”idagi ma‘lumotlarni inobatga olganmi yoki haqiqatan Sayyid Ahmadning “Latofatnoma”sidan xabardor bo‘lganmi – bunisi ma‘lum emas.

Sayyid Ahmad o‘zbek va fors tillarida g‘azallar yozgan bo‘lib, ikkita devon tuzgani ham Navoiyning ma‘lumotlaridan anglashiladi.

“Majolis un-nafois”da Sayyid Ahmadning “Latofatnoma”sidan keltirilgan bayt “Taashshuqnoma”da yo‘q.

“Taashshuqnoma” o‘nta nomadan tashkil topgan bo‘lib, jami 319 baytdan iborat. “Taashshuqnoma”ning o‘ziga xos tomoni shunda ko‘rinadiki, har bir noma uch qismdan – noma, g‘azal, “So‘zning xulosasi”dan iborat qilib tuzilgan. Sayyid Ahmad bu asarini biron shoir asari ta‘sirida yaratilganini qayd etmasa ham, asarning g‘oyaviy yo‘nalishi, tuzilishi, tasviriy vositalarga qaraganda, aytish mumkinki, bu asarga “Muhabbatnoma” va “Latofatnoma”ning ta‘siri kuchli bo‘lgan. “Taashshuqnoma”ning o‘nta nomadan iborat ekani shunday xulosaga olib keladi. Ammo “Taashshuqnoma”ning o‘ziga xosligini ta‘minlovchi omil – uning tuzilishidir.

**“Taashshuqnoma”da hayotga muhabbat ifodasi.** Hayotga muhabbatni oshiqning ma‘shuqaga bo‘lgan muhabbati orqali aks ettirish “Taashshuqnoma”dagi o‘ziga xos usullardan biridir. Bu asar badiiy vositalardan istifoda etishda o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Sayyid Ahmad o‘zbek tiliga bo‘lgan muhabbati nihoyatda yuksak bo‘lgani o‘z nomasidan ayoln bo‘lib turadi. U o‘zbek tilining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, ikkinchi nomani boshdan oxirigacha tajnisli qofiyada yozgan.

Nigoro, oldi ko'nglum yuzung oli (*qizil*),  
Qiladur qasdi jon ham ko'zung oli (*hiylagar*).

Otib g'amza o'qin payvasta qoshing (*tutashgan qosh*),  
Yurokim qon qilur payvasta qoshing (*tinimsiz qaramoq*).

Jamoling sham'inikim yondurursen (*yondirmoq*),  
Qamuq olamni o'tqa yondurursen (*qaytarmoq*).

Egningda menglaring mushki Xatodur (*Xitoying hush hidli modda-*  
*si*),

Qaro zulfung sari bormoq xatodur (*yanglish, xato*).

Quyoshdur orazing yo Mushtariydur (*Yupiter sayyorasi*)  
Ki, jon birla jahoni mushtariydur (*sotib oluvchi*).

Visoling zavqin istab, ey dilorom (*sevgili*),  
Tan ichra topmadi miskin dil orom (*dil orom olmoq*).

Ko'ngul qushini ishqing qildi shunqor (*qush*),  
Bu g'amdin muddaiylar\* bo'ldi shunqor (*pahlavon*). (\**muddaiy* –  
*da'vogar. raqib*)

Karashma qilmoq ichra qil yarorsen (*mahoratni ishga solmoq*),  
Nekim jonimg'a qilsang qil, yarorsen (*qo'lidan kelmoq*).

Aningkim ol enginda xoli bo'lg'ay (*yuzdagi xol*),  
Qachon fitna qilurdin xoli bo'lg'ay (*bas qilmoq*).

Ayitsalar senga, g'amzangdin o'q ot (*noz bilan qaramoq*),  
Oni o'zga otma, bizga o'q ot (*faqat bizga ot*).

Turubturmen o'qungnung qarshusina (*ro'parasida*),  
Otar bo'lsang tutarmen qarshu sina (*ko'krakni qarshi tutmoq*).

Chu tortarmen hamisha hajr borin (*yuk*),  
Senga aytay ko'ngulda har ne borin (*hammasi*).

Bilursenkim, qulungdurmen kamina (*men*),  
Karam qil, boqmag‘il qulnung kamina (*nuqson*).

To‘kar har dam firoqing diyda qoni (*qon*),  
Meningtek bir dog‘i g‘amdiyda, qoni (*qani*).

Ko‘ngulda garchi hajring dog‘i bordur (*qayg‘u, dard bor*),  
Valekin vasl umidi dog‘i bordur (*yana bor*).

Nechakim g‘amdamen, ey qaddi shamshod (*tik, adl*),  
Bo‘lurman har qachon ko‘rsam seni shod (*xursand, mamnun*).

Tarahhum bu gadog‘a qilg‘in oxir (*axir*),  
Yo‘q ersa qayg‘udin bo‘lg‘usi oxir (*tugamoq, o‘lmoq*).

O‘lodur Saydi Ahmad, qil yarog‘in (*iloj*),  
Aning bori bir ishig‘a yarog‘in (*yaramoq yordam bermoq*).

Eshitkil bu g‘azalni chun iroqi (*yiroq*),  
Ajam sozin tuzub aytar Iroqi (*musiqqa nomi*).

Avval ko‘rib o‘tilgan ikki noma – “Muhabbatnoma” va “Latofatnoma” bilan “Taashshuqnoma” tuzilishidagi umumiy xususiyat shuki, hammasida soqiynoma janri bor. “Taashshuqnoma”da ham har bir nomadan so‘ng soqiynoma berilgan. Sayyid Ahmadning soqiynomalari 3-5 baytdan iborat bo‘lib, hammasida “So‘zning xulosasi” degan sarlavha ostida beriladi. Mana, ikkinchi nomada berilgan soqiynoma:

### **So‘zning xulosasi**

Kel, ey soqiy, keturgil bodau jom,  
Icholi may ba yodi Ahmadi jom.

Mayikim ruh andin mast bo‘lg‘ay,  
Muhabbat kuyida sarmast bo‘lg‘ay.

Xumorimizni ul maydin yozoli,  
Mudom ichmaganni ne deb yozoli.

Bilursenkim jahonning yo‘q bahosi,  
Bahosi yo‘q jahong‘a ne baqosi.

Tahammul yaxshi ishdur pesha qilmoq,  
Tahayyul birla ham andesha qilmoq.

“Taashshuqnoma”ning har bir nomasida va nomalardan keyin keltirilgan g‘azallarda dunyoviy ishqning go‘zal tasvirini ko‘ramiz. Misol tariqasida uchinchi nomani olib ko‘raylik. Ma‘shuqaning hajrida firoq chekayotgan oshiq har bir baytda yorning go‘zalligini turli iboralar orqali ta‘riflaydi: *sochi vallayu yuzi vazzuho* (sochlari tunga o‘xshash qora va yuzlar go‘zal), *rahmsiz dilbari nomehribon, yuzi ruhi musavvar* (zehnda tasvirlangan, ko‘z o‘ngida muhrlanib qolgan), *dudog‘i mushki anbar, yuzi xurshidi ofoq* (yuzi olam quyoshi), *parivashlar ichinda barchadin toq, malohat mulkida shoh, latofat ichra zebo* kabi.

Bu singari tashbehlarning yangi-yangi ko‘rinishlari qolgan nomalarda ham davom etadi. Yoki quyidagi bayt ham yorning go‘zalligi tasvirida original tashbehga misol bo‘la oladi:

Jamoling chun jahonoroy bo‘ldi,  
Yuzung olinda moh garroy bo‘ldi.

Sayyid Ahmadning ta‘biricha, yorning go‘zalligi butun olamni bezadi, uning yuzi oldida oy sartarosh, ya‘ni xizmatkor bo‘lib qoldi.

“Taashshuqnoma” asari XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyotida diqqatga sazovor asar sifatida ahamiyatlidir. Bu noma o‘z davri xalq tilining boyligini ko‘rsatadigan manba sifatida ham o‘rganishga loyiq.

**Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asari.** Yusuf Amiriyning devoni, “Dahnoma” va “Bang va chog‘ir” munozarasi bizga yetib kelgan. Uning “Dahnoma” asari hijriy 833 (milodiy 1429-30) yili yozilgan. Bu shoir to‘g‘risida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida quyidagi ma‘lumotlar bor: “Mavlono Amiriy – turk erdi va turkcha she‘ri yaxshi voqye’ bo‘lubtur, ammo shuhrat tutmabtur. Va bu bayt aning “Dahnoma”sidindur:

Na yemakdin, na uyqudin solib so‘z,  
Yemakdin to‘yub, uyqudin yumub ko‘z.

Va forsiyda shayx Kamol tatabbu'i qilibtur. Bu matla aningdurkim:

Ro'zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,  
G'ayri zohid k-o' riyozatho kashidu xushk mond.

[Qismat kuni (nasiba taqsim etiladigan kun) zohiddan boshqa har kim o'ziga baxshida qilingan ayshni oldi. U esa ne chog'liq mashaqqat chekmasin, quruq qoldi.]

Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur" (*Navoiy. MAT. 13-tom, 23-24-b.*).

Amiriy to'g'risida Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida shunday eslaydi: "Mavlono Yusuf Amiriy sulton Shohruh Mirzo zamonida katta shuhratga erishgan shoirlardan biridir. U oddiy hayot kechirgan, aytishlaricha, amirlar va mashhur amaldorlar unga g'amxo'rlik ko'rsatganlar. Buyuk hoqon Shohruh sulton va uning ulug' avlodlari, amaldorlari sharafiga Amiriy ko'p qasidalar bitgan. Sulton Boysung'ur Mirzo sharafiga bitilgan quyidagi qasida ham unikidir:

Delam bedard giriftor gasht dar hame u,  
Magar kunad shohi olam belutf dar monash..."

Navoiyning Yusuf Amiriy to'g'risida bergan ma'lumotidan ma'lum bo'ladiki, u yashagan davr Navoiyning yoshlik paytlariga to'g'ri keladi. Atoqli adabiyotshunos Abduqodir Haytmetovning aytishicha, Navoiy Yusuf Amiriy bilan ko'rishmagan. Qolaversa, Navoiy Yusuf Amiriyning devonidan yaxshi xabardor bo'lgan. Navoiy yana "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham, Gadoiy, Haydar Xorazmiy va boshqa bir neccha shoirlar qatori, Yusuf Amiriyning o'z davrining ulug' shoiri sifatida ta'riflaydi.

"Dahnoma"dan ma'lum bo'lishicha, Yusuf Amiriy Sharq tarixi va mifologiyasidan, diniy va dunyoviy bilimlardan yaxshi xabardor bo'lgan edi.

**"Dahnoma"ning tuzilishi.** Amiriyning "Dahnoma" asari nomachilik an'analari rioya qilingan holda yozilgan. Bu noma ham Tangriga hamd, Payg'ambarga na't, Boysung'ur Mirzoga qasida, so'ngra bir she'riy hikoyat, kitobning yozilish sababi, yo'lda bir sahibajolga ro'baro' bo'lgani, munosabatning boshlanishi va mahubning noma yozgani va nihoyat, oshiq va ma'shuqaning o'nta nomasidan iborat.

Tangriga hamd bobida Tangri insonni tuproqdan yaratib, olti kunda olamni yaratgani, Nahid (Zuhro) yulduzini – cholg‘uchi, Bahrom (Mars) sayyorasini – botir qilganini, Mushtariy (Yupiter) sayyorasini – ilm ishiga yuborganini, Tir (Merkuriy) sayyorasini – kotib qilganini aytadi.

Payg‘ambarga na‘t bobida esa Muhammad a.s.ni elchilik taxtining egasi, mamlakatlarning to‘lin oyi, Haq taolo uni ulug‘lik martabasi uchun yaratganini va boshqa ko‘p sifatlarini aytadi. Bu bobda diqqatni jalb qiladigan yana bir hodisa – xolasi Umuxonning bashoratiga ko‘ra, oti Buroqqa minib, to‘qqiz qavat osmondan oshib o‘tadi va farishtalar bilan uchrashadi, Aqso masjidiga yuz buradi, to‘qqiz qavat osmondan oshib. Tangrining ovozi eshitadi va h.

**Asarda Boysung‘ur Mirzo madhi.** Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlangan qasidada uning himmatli, xuddi yulduzlar o‘rdani hosil qilganu Boysung‘ur Mirzo esa ularning o‘rtasidagi oy, Zuhro yulduzi – cholg‘uchi; Boysung‘ur Mirzo esa majlisni qizituvchi, ko‘p fanlarni biluvchi olim ekanini madh qiladi.

Yusuf Amiriy Boysung‘ur Mirzo himoyasida yashaganligini ta‘kidlaydi. Ayni paytda Boysung‘ur Mirzo odamlarga nisbatan himmatli hukmdor bo‘lganini, insonlarni g‘oyat qadrlaganini ham “Dahnoma”da aytib o‘tadi:

G‘iyosulhaqi vaddin Boysung‘ur,  
Ki so‘ziga quloq tutguvchidur dur...  
Yetib el dardina ortuq biligi,  
Yopib faqr egnini ochuq aligi.  
Ulusni qutqarib mehnat kunidin,  
O‘lukni uyg‘otib yarmoq unidin.

Boysung‘ur Mirzo Shohruh Mirzoning uchinchi o‘g‘li bo‘lib, ilm-fanni, ijodni qadrlaydigan odam edi. U otasi Shohruh Mirzoga vazir lavozimida xizmatda bo‘lgan yillari Xirotda kutubxona tashkil qildi. O‘sha zamon tarixchilarining guvohlik berishicha, kutubxona qoshida o‘z davrining mashhur xattotlari, naqqoshlari, musavvirlari, sahhof va zarkorlarining qirq nafari to‘planib, ilmiy va ijodiy ish olib borganlar. 1425-1426-yillari mazkur kutubxona qoshidagi kotiblar Boysung‘ur Mirzoning nazorati ostida Firdavsiyning “Shohnoma” asarining qirqqa yaqin qo‘lyozmalarini solishtirib, asarning mukammal matnini tuzgan-



lar. Boysung‘ur Mirzo aql-zakovati, ma‘rifatparvarligi, hunarparvarligi va ayniqsa adabiyotga bo‘lgan muhabbati bilan xalq o‘rtasida shuhrat qozondi. “Dahmoma” yozilgan yillari Shohruh mirzo o‘g‘li Boysung‘ur mirzoni Eron Ozarbayjoniga hokim qilib tayinlagan edi. 1431-yili esa Astrobod hokimi bo‘ldi.<sup>126</sup>

Yusuf Amiriy Boysung‘ur mirzoning barcha faoliyatidan juda yaxshi xabardor bo‘lgani uchun ham ilm homiysi sifatida unga yuqori baho beradi. U bu asarida Boysung‘ur mirzoni ilm-fan va ulamolarni homiysi sifatida ta‘riflaydi, turli fanlar rivojida uning xizmatlari katta ekanini aytadi:

Kechib ollida yuz turluk daqoyiq (nozik ma‘nolar, nozik nuqtalar, chigalliklar),

Maorif birla anvoyi haqoyiq.

Bir hay‘at riyozisidin terib gul,

Biri hikmat shifosidin berib mul (may, sharob).

Biri Uqlidis ashkolin hal etib,

Biri ko‘k jadvalinda madhal (kirish, kiradigan joy) etib,

Biri faqr ichida asrab maqomin (faqirlik yo‘lini tutib dunyodan kechib)

Biri mantiq sori eltib kalomin...

**“Dahnomada hikoyat.”** Amiriy Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlagan qasidasi nihoyasida, dengiz ichida xashak ko‘rinmagani singari, mening bu so‘zlarim (Boysung‘ur Mirzoni madhi qilgan so‘zlari) ham falak majlisi orasidagi bir ko‘knori urug‘iga o‘xshaydi (bu maqtovlarimdan ham bir necha barobar ortiq hamdu sanolarga loyiq demoqchi), deya hikoyatini bayon qiladi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha:

Bir arab cho‘lda bir ko‘lmakka duch kelib qolibdi. U, bu suv zam-zam suvidan ham afzal, deb, xayol qilib: “Buni endi nima qilsam ekan, kimga olib borsam ekan”, deb, Horunga olib borishga qaror qilibdi. U ko‘zadagi suvni ko‘targanicha, shaharga yo‘l olibdi. Arab go‘yo o‘z xayolida, meni xuddi Xizr kabi kutib oladilar, axir, qo‘limdagi suv oddiy suv emas, hayot suvi-ku, degan o‘y bilan ketaveribdi. U Horunning huzuriga yetib kelib, qo‘lidagi suv to‘la ko‘zani beribdi. “Ey shohim, men bir arabman, sahroda yovvoyi eshaklaru kiyiklardan boshqa hamrohim

<sup>126</sup> Fayziev T. Temuriylar shajarasi. — Toshkent. “Yozuvchi” nashriyoti, 1995, 328-b.

yo‘q. Oyu yillar ko‘z yoshlarimni daryo-daryo qilib to‘kib, Tangridan tilay-tilay mana shu yomg‘ir suvini topdim. Bu suvning shirin ta‘mi ta‘ma og‘zini yopadi. Shuni o‘zim ichmay, siz – janobi oliylariga keltirdim. Axir, siz sultonlarning sultonisiz. Endi menga bu suv tufayli obro‘ ortirib bersangiz”. Horun uning gapini eshitib bo‘lgach, tabassum qilibdi va hurmatini joyiga qo‘yib bir zumda boy qilibdi. Horun xizmatkorlaridan biriga:”Bu odamni olib boringlar, idishini to‘ldirib, pul beringlar”, deb amr qilibdi. O‘sha arab bilsaki, o‘sha yerdan Dajla daryosi oqib o‘tarkan. Agarda Horun unga himmat qilmaganda obro‘yi to‘kilgan bo‘lardi.

Agar Xorun ar-Rashid arabga, ana, yonginamizda Dajla suvi bor, deb aytganda edi, arabning mulzam bo‘lishi aniq edi. Ammo Horun nihoyatda oliyjanoblik bilan o‘sha arabning “menga obi ru qiling” degan iltimosini bajo qildi. Bu hikoyat tasodifan emas, balki Boysung‘ur ta‘rifidan so‘ng uni Xorun ar-Rashid singari saxiy, insonparvar hukmdor sifatida ko‘rsatish uchun Yusuf Amiriy ataylab bergan.

Boshqa nomalarda hikoyat berilmaganini, faqat “Dahnoma”da borligini hamda bu nomaning o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan dalillardan biri ekanini shu o‘rinda eslatib o‘tish kerak.

**“Dahnoma”da ilohiy ishq tavsifi.** Shu hikoyatdan keyin kitobning yozilish sababi bayon qilinadi. Shoir bu bobni, bir do‘stim meni uyiga taklif qildi va may ichib, vaqtni xush o‘tkazamiz, degan baytlar bilan boshlaydi. Shoir va‘daga ko‘ra uning uyiga borganda, bir talay Iso nafas ulfatlar to‘planganini hikoya qiladi: surohiy (may idishi)dan ko‘ngillari shod bo‘lgan, bir-birlariga gap bermay, hikoyalar so‘zlaydi. Shoir ham

Ayog‘ ichib, o‘pub otlandim ondin,  
Bag‘oyat xurramu forig‘ jahondin.

Boshimdin eltibon may nash‘asi xush,  
Berib yuz she‘r bahri tundu\* purjush\*. (\*tund – achchiq, g‘azabli;  
asov, sarkash, sho‘x; \*purjush – maj. zavqli, shod, hayajonli.)

Mubarro\* bo‘lubon dinu dunyo g‘amidin, (\*mubarro – xoli, ozod,  
biron narsaga yo‘liqmagan)

Chiqib ya‘ni takalluf\* olamidin. (\*takalluf – qiynalish, kulfatga  
vo‘liqish: hashamat, bezak)

Ko'ngulda jilva berib xo'blarni,  
Sog'inib ertagi mahbublarni.

Demak, may (ilohiy fayz)dan sarxushlik, paymona (ishq)ga in — tiqlik kitobning yozilishiga sabab bo'lgan.

Yo'lda bir sohibajolga ro'baro' bo'lgani bobida bir mahbubaga yo'liqib, uning go'zalligiga mahliyo bo'lgani, u bilan qilgan mubohasalari hikoya qilingan.

Munosabatning boshlanishi va mahbubaning noma yozgani bobida mahbubaning ishqida goh xud, goh bexud bo'lgani, ba'zan o'zi bilan o'zi so'zlashadigan bo'lib qolgani, uning firoqidan o'ziga o'zi shikoyat qilgani, oxiri, mahbubaning ishqida kuyib-yongan oshiq saboga: “Men — oshiqning tilidan noma yetkazsang, o'sha oyning manzilidan meni xabardor qilsang”, deb iltimos qiladi. Sabo uning iltimosiga bajonidil rozi bo'ladi. Shundan keyin oshiqning sabo orqali ma'shuqaga yozgan birinchi maktubi keladi.

Asar o'nta nomadan iborat bo'lib, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”siga hamohang usulda yaratilgan. Ammo asarning o'ziga xosligini ko'rsatadigan dalillar borki, bular “Dahnoma”ning o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rmini belgilaydi. Jumladan, “Muhabbatnoma”da asarning oxirida fard berilgani holda, “Dahnoma”dagi har bir nomada oshiq yoki ma'shuqaning nomasidan so'ng g'azal, so'ngra fard berilgan. Birinchi nomadan keyin keltirilgan g'azal va fardga e'tibor beraylik:

### *G'azal*

Xayoling xayli\*, ey jonim charog'i, (\*xayl — guruh; to'da; ot-ulov jami)

Turur ko'zumda u ko'nglumda dog'i.

Yuzung ko'rar ko'zumdur, gar raqibing  
Ko'ra olmas oni chiqtek qarog'ing.

Qachon zulfung ko'ngul birlan tuzalgay,  
Kim egridur oning boshtin ayog'i.

Fig'onimni rubob ollig'a, ey do'st,  
Ne aytoyin, chu eshitmas qulog'i.

Ko'zung ko'nglungda ekmas mehr tuxmin,  
Ajab yo'q tushmadi ekin yarog'i.

Yuzung gulzoridin yo'qtur mango rang,  
Ochilg'il gah-gahye, ey husn bog'i.

Amiriy, ollidin to o'tti ul zulf,  
Nasimidin mushavvashdur\* dumog'i. (\**mushavvash – tashvishli, besaranjomlik, ko'ngli parishon.*)

### *Fard*

Dumog'ingning ilojin qilg'il, ey oy,  
Ki Majnuntek bo'lubtur besaru poy.

“Dahnoma”ning har bir nomasida oshiqning maktubidan so'ng, ma'shuqaning maktubi keltiriladi. Bunday usul har bir nomani mustaqil asar sifatida talqin qilishga imkon beradi. Qolaversa, muallif ham shu maqsadni ko'zlagan bo'lishi mumkin. Shu tariqa “Dahnoma”ning tuzilishida o'ziga xoslik yuzaga kelgan.

“Dahnoma”ning o'ziga xosligi faqat shu bilan belgilanmaydi. Birinchi noma sabo mahbubaga yetkazgan noma voqealariga bog'langan va qolgan nomalar ham o'zaro bog'liq, voqealar rivojidadagi uzluksizlik “Dahnoma”ni, xuddi doston singari, yaxlit tasavvur qilishga imkon beradi. Shu bois bu nomada epik syujet bor deb aytish mumkin.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Latofatnoma” haqida qaysi shoir o'z g'azalida so'z yuritadi?
2. “Latofatnoma”ning “Muhabbatnoma”dan tuzilish jihatidan farqi nimada?
3. Xo'jandiy asarining hamd bobida nima haqda so'z yuritadi?
4. “Latofatnoma”da qofiyaning qanday turi bor? Misol keltiring.
5. Navoiy Sayyid Ahmad haqida qaysi asarida qay tarzda ma'lumot beradi?
6. “Taashshuqnoma”ning tuzilishi haqida ayting.
7. Sayyid Ahmad “Taashshuqnoma”da *Bahrom* so'zi orqali talmeh san'atini hosil qilgan. Bu ismning har ikkalasini sharhlar bering.

8. Asarda oshiqqlar maqomini Majnun qanday tasvirlaydi?
9. Alisher Navoiy qaysi asarida Yusuf Amiriy to'g'risida qanday ma'lumot beradi?
10. "Dahnoma"ning tuzilishi haqida so'zlang.
11. "Dahnoma"da epik syujetga asos bo'lgan omillar nimalardan iborat?

### **Munozara haqida ma'lumot**

Munozara janri haqida so'z ketganda, albatta, bu janrning ildizlariga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Munozara dunyo xalqlarining aksariyatida azaldan mavjud bo'lib, ma'lum bir xalqning inonch-e'tiqodlari zaminida shakllangan. Munozaraning so'z bilan ifodalanish (verbal) xususiyati ana shu inonch-e'tiqodlar, qolaversa, marosimlar, udumlar zaminida shakllangan.

Yevropa xalqlari o'tmishida "O'limni haydash" va "Yozni chaqirish" marosimi borligi haqida mashhur ingliz etnografi J.Frezzer ko'p ma'lumotlarni keltirgan. Uning keltirgan ma'lumotlari XVI-XVIII asrlarga tegishli. "O'limni haydash" marosimi yozni, bahorni, umuman, hayotni qaytarishga da'vat qiladi. "Yozni chaqirish" marosimi ham, xuddi "O'limni haydash" marosimi singari, sahna ko'rinishlaridan iborat.<sup>127</sup> Umuman, bu marosimlarning maqsadi –har doim yoz, ya'ni sog'lom hayot insoniyatga hamroh bo'lish istagini uyg'otishdan iboratdir.

J.Frezzer "O'limni haydash" va "Yozni chaqirish" marosimidan so'ng, Yoz va Qish o'rtasidagi kurash sahnasini yoritadi. U ayrim g'arb mamlakatlarida, xususan, Shvetsiyada Yoz va Qish o'rtasidagi kurashga bag'ishlangan xalq o'yinlarini keltiradi. Bu o'yinda albatta Yoz g'olib keladi.<sup>128</sup>

Yoz va Qish munozarasi Germaniya, Angliya va Skandinaviya mamlakatlarida XIV-XVI asrlardan buyon bor. Munozara janri bu mamlakatlar xalqi orasida marosimlar bilan bog'liq bo'lib, bahor paytidagi turli sanalarga to'g'rilangan. G'arbiy Germaniyada munozara yaqin vaqtlargacha bahorgi marosim o'yinlari sifatida saqlangan edi.

Qish va Yoz olmon xalq marosim o'yinlarida olomon o'rtasida o'tkazilgan. Ikkalasi bir-biriga qarama-qarshi kuchlar sifatida maydonga chiqadi. Yoz o'z mulozimlari bilan quyosh chiqadigan Sharqdan kelgan.

<sup>127</sup> Дж. Фрезер. Золотая ветвь. – выпуск III, Атенст, 1928, 22-30-б.

<sup>128</sup> Dj.Frezzer. Yuqoridagi asar, 30-31-b.

U Qishga “Bu yerdan jo‘nab qol”, deb buyuradi. Qish qo‘pol dehqon timsolida bo‘lib, boshiga telpak kiygan, u tog‘dan kelgan, o‘zi bilan birga shamol, sovuqni, qorni olib kelgan. Ammo u daf bo‘lishni aslo istamaydi. Qish oppoq qorli dalalari bilan, Yoz esa yam-yashil vodiylari bilan maqtanadi. Yozda o‘t-o‘lanlar ko‘karadi. Qish ham turli-tuman ichimliklar kashf qilgan. Yoz yem-xashak, sharob, g‘alla yetishtiradi, bularning hammasi qishda yo‘q bo‘ladi. Tabiiyki, bular Yoz va Qish o‘rtasida savol-javob tarzida o‘tadi, ikkovining orqasida esa xor bo‘lib qo‘shiq aytganlaricha mulozimlari turadi. Oxiri Yoz g‘alaba qiladi. Qish o‘zini Yozning xizmatkori deb ataydi va “Ikkovimiz boshqa mamlakatlarga boraylik, menga yordam bergin”, deb iltimos qiladi. Shundan keyin Yoz “Jang tamom bo‘ldi, xayrli tun”, deya e‘lon qiladi. Munozaraning bunday ko‘rinishlaridan VIII-IX asrga oid “Bahor va Qish” nomli lotincha she‘r ham yetib kelgan.<sup>129</sup> Yoz va Qish munozarasining marosimga aylangan ko‘rinishi yoqut xalqida ham saqlangan. Ularning marosimi bahor va kuzga oid bo‘lib, bahorning ilk kunlarida oliyjanob Tangriga qurbonlik qilish bilan boshlangan.<sup>130</sup>

Bu marosimlarni keltirishdan maqsad shuki, bahs yoki olishuv munozaraning ilk ko‘rinishlaridir. Munozara janr sifatida xalq og‘zaki ijodiga kirib kelishida bu marosimlar asosiy omil bo‘lgan.

Munozara janri o‘zbek adabiyotida uzoq tarixga ega. Dastlab bu janrning ildizlarini turkiy xalqlar miflarida ko‘ramiz. Turkiy qavmlarining paydo bo‘lishiga oid mifda aytilishicha, Yoz qizi bilan Qish qizi o‘rtasida, kim qudratli degan bahs bo‘lib, ikkovi bellashadi. Musobaqada Yoz qizi g‘alaba qiladi.

Munozara janrining asosiy belgilaridan biri – bahsga kirishgan tomonlardan biri g‘olib, biri esa albatta mag‘lub bo‘ladi. Yuqoridagi mifda boshlangan munozaraning ana shu xususiyati Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida Yoz va Qish o‘rtasidagi munozarada aniq ko‘rinadi. Har ikki timsol o‘rtasidagi munozara ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Turkiy xalqlarning qadimgi yozma va og‘zaki adabiyotini o‘zida mujassam etgan “Devonu lug‘atit-turk” asaridagi 23 to‘rtlik asosida Abdurauf Fitrat Yoz va Qish munozarasini tikladi.<sup>131</sup> Ungacha ham turk

<sup>129</sup> Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Л.: Наука, 1979, 52-53-б.

<sup>130</sup> Жирмунский В.М. Yuqoridagi asar, 53-б.

<sup>131</sup> Qarang: Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunai. Nashrga tayyorlovchi Orzigul Hamroeva, Toshkent, “Muntoz so‘z”, 2008, 20-31-б.

olimlari Fuod Ko'purilizoda, Ziyo Ko'k Alp Yoz va Qish munozarasi-  
ni tiklashga harakat qilganlar. Ammo bu olimlarning "Devonu lug'atit-  
turk"dagi mazkur janrni tashkil etgan to'rtliklarga munosabatlari turlic-  
hadir.

Rossiyalik turkolog I.V.Stebleva "Devonu lug'atit –  
turk"dagi she'riy shakllar haqida fikr yuritib, bu asardagi mu-  
nozara o'z munosabatini bildirgan va bu janrni tiklagan edi.  
U "Devonu lug'atit – turk"ning to'rtta nashri – turk olimlari  
Ahmad Rif'at va Basim Atalay tarjimalari hamda nashrlariga,  
o'zbek olimi S.Mutallibov tarjimasi va nashriga, nemis turko-  
log olimi K. Brokkelmanning nashriga tayanib, tanqidiy matn  
tayyorlab, munozara janrini tiklaydi va yigirma uchta to'rtlikni  
munozara janri sifatida beradi. I.V.Stebleva keltirgan "Devonu  
lug'atit – turk"dagi munozara quyidagicha:

Qish yay bila to'qushti,  
Qing'ir ko'zin baqishti,  
Tutushqali yaqishti,  
Utg'alimat o'g'rashur (I.VA 170, T. I 181-182)<sup>132</sup>

Yay qish bila qarishti,  
Ardam yasin qurishti,  
Cherig tutib kurashsti,  
O'qtag'ali utrushur (II. BA 97, T. II 104)

Qish yayg'aqi suvlanur,  
Ar at manin yavrayur,  
Iglar yama savriyur,  
At yin taqi bakrishur (III. BA 278, T III 294)

O'l qar qamug' qishin inar,  
Ashliq tarig' anin o'nar,  
Yavlaq yag'i manda tunar,  
San kalibon tabrashur (II BA 204, T. II 237)

---

<sup>132</sup> I.BA 170, T 181-182 – 11 raqami – "Devonu lug'atit-turk"ning jildini, BA – Basim Atalayni,  
keyingi raqam – jildning sahifasini, T – Toshkentni, keyingi raqam – Toshkent nusxasining sahifasini  
anglatadi.

Canda qo'par chayanlar,  
Quzg'u singak yılanlar,  
Duk ming quyu tumanlar,  
Quzruq tikib yugrushur (III. BA 367, T. III 378)

Tumlug' kelib qapsadi,  
Qutlug' yayig' tepsadi,  
Qarlab ajun yapsadi,  
Et yin ushub emrishur (I BA 463, T. I 430).

Balchiq baliq yug'rulur,  
Chig'ay yavuz yig`rilur,  
Eringaklari o'g`rilur,  
O'zg'uch bila evrishur (I. BA 248, T. I 249)

Kaldi esin esnayu,  
Qazqa tugal usnayu,  
Kirdi budun kusnayu,  
Qara bulit ko'krashur (II. BA 223, T. II 259-260, BA 147, )

Ordi bulit ingrashu,  
Aqti aqin mungrashu,  
Qaldi budun tanglashu,  
Ko'krar taqi mangrashur (III BA 398, T.III 407)

Quydi bulut yag'murin,  
Kerib tutar aq to`rin,  
Qirqa qo'zti o'l qarın,  
Aqin aqar angrashur (III BA 39, T.III 46)

Qar buz qamug' erushdi,  
Tag'lar suvi aqishdi,  
Ko'kshin bulit orushdi,  
Qayg'uq bo'lub egrishur (I BA 186, T.I 195)

Qaqlar qamug' kulardi,  
Tag'lar bashi ilardi,



Ajun tani yilirdi,  
Tutu chechak cherkashur (I BA 179, T.I 189)

Ay qo'pub evlanib,  
Aq bulit o'rlanib,  
Bir bir uza o'klunub,  
Sachlub suvi engrashur (III BA 398, T. I 258)

Tuman chechak tizildi,  
Bukundan o'l yazildi,  
O'gush yatib uzaldi,  
Yerda qo'ba azrishur (I BA 233-234, T.I 236-237)

Tegma chechak ukuldi,  
Bukuklanib bukulti,  
Tugsin tugun tuguldi,  
Yarg'ilamat yurkashur<sup>133</sup> (I BA 437, T.I 409-410; II BA 285, T II  
329)

Yamg'ur yag'ib sachildi,  
Turlug chachak suchuldi,  
Yinju qabi achildi,  
Chindan yipar yug'rushur (II BA 122, T.II 139)

Qizil, sarig' arqashib,  
Yepkin, yashil yuzkashib,  
Bir-bir keru yurkashib,  
Yalinguq ani tanglashur (I BA 395, T.I 375)

Yashin atib yashnadi,  
Tuman turub tushnadi,  
Ayg'ir, qisir kishnadi,  
O'gur alib o'qrashur (I BA, 235-236 T.I 238)

Alin tubu yashardi,  
Urut o'tin yashurdi,

---

<sup>133</sup> DLT II jildda oxirgi misra "yazlib yana yurkashur (taralib, ko'pligidan yana yig'iladi)".

Ko'lining suvin kushardi,  
Sig'ir buqa mungrashur (II BA, 79 T. II 83)

Qulan tugal qumutti,  
Arqar so'qaq yumutti,  
Yaylag' taba emitti,  
Tizgiq to'rub sekrashur (I BA, 214, T. I 221)

Qo'chingar teka sevildi,  
Sag'liq surug qo'shuldi,  
Sutlar qamug' yushuldi,  
O'g'laq qo'zi yamrashur (III BA, 102, T. III 113)

Yilqi yazun atlanur,  
O'tlab aning etlanur,  
Beglar semiz atlanur,  
Sevnuv o'gur isirishur (I BA, 285, T. I 282)

Sanda qachar sundilach,  
Menda tinar qarg'ilach,  
Tatlig' o'tar sanduvach,  
Erkak tishi uchrashur (I BA, 529, T. I 481, III BA 178, T. III 193)

Yay baruban erkuzi,  
Aqti aqin munduzi,  
Tug'di yarug' yulduzi,  
Tingla so'zum kulgusuz (I BA, 96, T. I 121)

Ag'di bulit ko'krayu,  
Yag'mur to'li sekrayu,  
Qaliq ani ugriyu,  
Qancha barir belgusiz (I BA, 354, T. I 336)

Turlug chechak yarildi,  
Barchin yazim kerildi,  
Uchmaq yeri ko'ruldi,  
Tumlug' yana kelgusuz (I BA 119, T. I 141)

Qush, qurt qamug‘ tirildi,  
Erkak tili terildi,  
Ugur alip tarildi,  
Yinqa yana kirgusuz (III BA 5-6, T. III 11-12)

Yay, ko‘rkinga inanma,  
Suvlar uza tayanma,  
Esizligig anunma,  
Tilda chiqar ezgu so‘z (III BA 160-161, T. III 176)<sup>134</sup>

Ayrim hollarda munozarada kichikroq hajmdagi hamd qismi ham mavjud bo‘ladi. Hamd – shu munozarani yozishga undagan shaxsga qaratiladi. Ba’zi tadqiqotchilar munozara janrini o‘rganib, bu janr Sharq mumtoz adabiyotidagi qasida janrining bir ko‘rinishidir, degan fikrni ham bildirganlar Bunday xulosaga kelishda ular munozaraning hamd qismiga tayanadilar.<sup>135</sup> Ammo bu fikr unchalik o‘zini oqlamaydi. Munozarada hamd bo‘lishi shart emas. Masalan, “Devonu lug‘atit-turk”dagi munozarada ham, “Qutadg‘u bilig”dagi O‘zg‘urmish va O‘gdulmish munozarasida aslo ham qismi yo‘q. Shuning uchun qasida bilan munozara o‘rtasidagi aloqadorlik to‘g‘risida gapirish o‘rinli emas.

Munozara fors va turkiy xalqlar adabiyotida eng ko‘hna janrlardan. O‘rta asr fors adabiyotidan bizgacha bu janrning e‘tiborli bir namunasi yetib kelgan. Bu munozara “Daraxt va xurmo” deb nomlanib, asarning pahlaviycha matni, transkripsiyasi, tojik va rus tillariga tarjimasini I.S.Braginskiyning “Iz istorii tadjikskey narodnoy poezii” (Moskva, 1956, 223-226-b.) asarida keltirilgan. Asarda hikoya qilinishicha, xurmo bilan cchki bahsga kirishib, qaysi biri insonga ko‘proq foyda keltirishini isbotlashga harakat qiladilar.

XI asrda bu janrga mashhur fors-tojik shoiri Asadi Tusiy e‘tibor qaratdi. Uning beshta munozarasi bizga ma‘lum. 1. “Tun va kun munozarasi” (Munozarai shab va ruz). 2. “Nayza va yoy munozarasi” (Munozarai rameh va qavs). 3. “Osmon va yer munozarasi” (Munozarai osmon va zamin). 4. “Otashparast va musulmon munozarasi” (Munozarai gabr va musulmon). 5. “Arab va fors munozarasi” (Munozarai arab va ajam).

<sup>134</sup> Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – Наука.Москва, 1971. 195-207-б

<sup>135</sup> Bu haqda qarang: Чайкин К.И. Асади старший и Асади младший. – сб.: “Фердовей”, JL: 1934, 133-6.

Mazkur munozaralarning dastlabki uchtasini nemis tiliga G.Ete tarjima qilgan. To‘rtinchi munozara Rizo Qulixonning “Majma’ ul-fusaho” (Chiroyli so‘zlovchilar jam’i) tazkirasida bor. Beshinchi munozarani ye.E.Bertels SSSR FA Sharqshunoslik institutining ilmiy to‘plamida (19-jild, 1958-yil) nashr qilgan.

Munozara janri Temuriylar davri adabiyotida ijodkorlarning mavqecini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ida Mavlono Ruhiiy Yoziriyning “Bulbul bila gul”, “Sham’ bila parvona”, Mavlono Orifiyning “Go‘y va Chavgon”, Xoja Mas‘ud Qumiyning “Tig‘ va Qalam” munozaralari borligini alohida ta’kidlaydi (*Navoiy. MAT. 13-jild, 20, 25, 47-b.*).

O‘zbek adabiyoti tarixida munozara XV asrning birinchi yarmida maxsus janr sifatida shakllandi. Albatta, o‘zbek adabiyoti tarixida bu janrning shakllanishiga, bir tomondan, turkiy adabiyotdagi ayrim asarlar tarkibida, mif va udumlar ko‘rinishida yetib kelgan munozara, ikkinchi tomondan, fors-tojik adabiyotidagi munozara ta’sir ko‘rsatdi. Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va Bang”, Ahmadiyning “Sozlar munozarasi”, Yaqiniyning “O‘q va Yoy” munozarasi o‘zbek mumtoz adabiyotidagi munozaraning yorqin namunalaridir.

## Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va Bang” munozarasi

### Reja:

1. Yusuf Amiriy – nasr ustasi.
2. Munozarada yumor.
3. Munozarada kulgi qo‘zg‘atuvchi manzaralar.
4. Bang o‘z nutqi orqali haqiqiy qiyofasini oshkor qilishi.
5. Amiriy soxta donolikni foshi qilishi.
6. Munozaraning xulosasi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *munozara, nasr, lirizm, hamd, na‘t, tazkira, noma, she‘riy parcha, yumor.*

**Yusuf Amiriy – nasr ustasi.** Yusuf Amiriy XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyotida munozara janrida ham katta iz qoldirdi. Yuqorida Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Yusuf Amiriy haqida ma‘lumotlar berib, uni ta‘rif-tavsif qilgan edi.

Yusuf Amiriyning iqtidori va adabiyotda tutgan o‘rmini Navoiy ta‘riflab berdi. Ammo “Chog‘ir va Bang” munozarasi haqida Navoiy biron ma‘lumot bermagan.

“Bang va Chog‘ir” munozarasi nasrda yozilgan. Amiriy nasrdagi ijodda ham o‘z mahoratini va iqtidorini ko‘rsata olgan. Asar boshdan-oxir lirizm bilan sug‘orilgan. Amiriy ham bu asarini, boshqa asarlar singari, hamd va na‘t bilan boshlaydi:

“Siporu soyish\* Tangri taborak va taolig‘a jall jumla\* balovu g‘am to‘lakim marhamati odamg‘a aql chirog‘in berdi, to zalolat\* qorong‘ulig‘idin omin bo‘lg‘ay. Na‘ti nabi: durudu\* sano sayidi koinot va mufaxxari mavjudot, hotami anbiyo Muhammad Mustafog‘akim mahshar kuni ayoq tutg‘uchi, xarobotlarig‘a\* ilik tutquvchidir. Salloloh alayhi va ala alihi va ashhabi ajmain”.

(\**siporu soyish* – mehribonlik ko‘rsatuvchi; \**jall jumla* – jamiki bor narsa, jamiki mavjudot; \**zalolat* – adashishga boshlovchi; \**durud* – hamdu sano, maqtov, salom; \**xarobot* – maj. mayxona, maykada)

Mazkur asar tarkibida uchraydigan she‘riy parchalarga asoslangan holda, uni o‘ziga xos tazkira deb aytish ham mumkin. Bu munozarani yozishga Amiriyga maslahat bergan va da‘vat qilgan ulug‘ zot haqida u

to'xtalar ekan, avvalo, o'sha shaxsning sifatlariga va mo'jizakorligiga oid maqtovlarni keltiradi:

“Og‘ozi suxan: bir kuni manga azizekim, balog‘at Misrida Yusuf misollig‘ erdi va zehni i‘jo‘ci\* izhorinda Muso sifatliq mutoyib bobinda taklif bilan targ‘ib qildikim va nasr uslubi bilan turk alfozini tartib etib, Bang va Chog‘ir orasinda munozara tartib qilg‘ilkim, bu choqqa tegru hech ersa bu tavrning uhdasidan chiqmaydur”. (\*i‘juz – mo‘jiz; ‘rsatish)

Amiriyini bu ishga da'vat qilgan zot Boysunqur mirzo edi. Avval ko‘rib o‘tganimizday, Yusuf Amiriy “Dahnoma”sida Boysung‘ur mirzo himoyasida yashaganligini aytgan va o‘z nomasida uni hurmat-ehтиrom bilan tilga olgan edi.

Amiriyning munozarasi - she‘riy parchalarga, hayotiy detallarga va manzaralarga, xalq donoligining mahsuli bo‘lgan iboralarga, kino-ya va yumorlarga boy asardir. Amiriy o‘sha ulug‘ zotning taklifiga rozi bo‘lganini aytadi. Shundan keyin asosiy voqealar bayoni asar qahramoni muallifning ruhiy holati tasviri bilan boshlanadi:

“...bir kun as‘hob furqatidin va ahbob hasratidin mutafakkir va mutahayyir o‘lturur erdim. Ichim bo‘shiti, boshimda bog‘ havosi tushti, sayr eta chiqdim”. (\*as‘hob – egalar, ahdlar; suhbatdoshlar)

Bu manzara tasviri ko‘rsatib turibdiki, qahramon do‘stlarga, yor-birodarlarga intiq, ularga intiladi. Zotan, u do‘stlar suhbatini orqali yolg‘izlik va xonanishinlikni bartaraf qilishni istaydi:

Bog‘ ichra gasht etib yurur erdim sabo bikin,  
Dedimki: “Uchragay menga bir sarv qomate”.

Bu bayt Yusuf Amiriyniki. Bayt birinchi shaxs tilidan aytilgan. U ayrim o‘rinlarda boshqa shoirlardan olgan baytlarning muallifini aniqlashtirib, bayt kimniki ekanini o‘rnida aytib ketadi.

**Munozarada yumor.** Nogahon u bir go‘shada bir-birlari bilan apoq-chapoq bo‘lib suhbat qurib o‘tirgan hamsuhbatlarni ko‘radi.

Nogah bir necha muvofiqi hamsuhbatni ko‘rdumki, bir go‘shada

o'lturub erdilarkim, alarning orasida muholif rost kelmas erdi. Nazm:

Aroda chang edi egriyu hardam,  
Ani ham egri deb ururlar erdi.

Hamsuhbatlarning ahvolini shoir tasvirlashda davom etib, bir-birlari bilan g'oyat qalin, fikrda yakdil ekanliklaridan quyidagicha manzara hosil qiladi. Yakdillikning sababi shu ediki, hammalari ichkilik bilan mashg'ul, kayflari chog' edi:

Shiru shakartek biri birlan qarini\*, (\**qarin*– *yaqin*, *qalin do'st*)  
Hamsabaqu hamnafasu hamnishin.  
Zavqu tomosha bilan majlis qurub,  
Ichkuga mashg'ul edilar o'lturub.

Yusuf Amiriyning mazkur ta'rifida xalqona yumor va hayotiy kuzatish bor: ichkilik kayfu safosidan davradoshlar bir-birlari bilan juda apoq-chapoq bo'lib ketgan, gaplari bir joydan chiqadi va h. Bu toifaning mazkur vaziyatda bir-birlariga mehribonligi ma'lum – bu vaqtinchalik, manfaat va g'ayritabiiy vositalar ta'sirida yuz bergan ko'ngilxushlikdan boshqa narsa emas. Shu bois ham Yusuf Amiriyni ularning ustidan kulayotganday bo'ladi. Mana, shoirning bu davra haqidagi kuzatuvlari: “*O'zum birla dedim: “Bu jamoatg'akim fay\*z alardin xorijdur, agar o'zumni doxil qilsam taryoq tutqaylar, yovuqroq bordim ersa*”. Haqiqatan, u o'ylaganday bo'ldi. Quyidagi bayt buni tasdiqlaydi: (\**fayz* – *baraka*, *mo'llik*; *lutf*–*karam*, *in'om-ehson*; *quvonch*; \**xorij* – *tashqari*)

“O'tru kelib barcha ayoq tuttilar,  
Bosh qo'yub barcha quloq tuttilar.

Qahramon, ya'ni shoir chog'ir bazmi ishtirokchilariga uzrini aytdi. Ammo ichkilikka mashg'ul bo'lgan davra uzrxohlikni qabul qilish o'rniga, unga ma'jun keltirdilar:

“Uzru qilib darxost\* qildimkim: ”Meni maof tutung, muddati bo'ldiki, chog'irin qo'yubturmen“. Borib bir kesak ma'jun\* kelturdilar.

Oldim, tashladim, bir dam o'lturub bularni sinchiladim ersa, nazm:

Ba'zi shukufta\* xotiru xushvaqt gul bikin,  
Ba'zi binafshatek solibon boshlarin quyi,  
Ba'zi qo'l ocha birla ovunib ochuq, yoruq,  
Ba'zi qotib, tomog'i qurub og'zida suyi,  
Dedim: "Subhon Oллоh, ne holdur?"

(\**darxost* – *iltimos*, so'rov, o'tinch; \**ma'jun* – bir qancha dorivorlarni yanchib, asalga qorishtirib yasalgan, kayf beruvchi quyuyq dori; aralashma; \**shukuft(a)* – ochilgan)

Shoir keltirgan parcha tom ma'noda real haqiqat. Parchadan ham ko'rinib turibdiki, shoir yumorga boy, xalqona iboralarning ustasi. Qo-laversa, turli toifadagi odamlarni kuzatgan, ularning holatini chizishga mohir. Faqat shu munozarada emas, balki Yaqiniyning "O'q va Yoy" va Ahmadiyning "Sozlar munozarasi"da ham yumor yorqin ko'zga tashlanadi. Ichkilikdan sarxush bo'lgan odamning o'zini tutishi, qiyofasi, holatini shoir nihoyatda mahorat bilan, tabiiy yo'sinda tasvirlagan. Ularning qaysi biri ochilgan gulday xushvaqt, qaysi biri xuddi binafshaday boshlarini quyi solgan, ba'zilari sarxushlikdan uxlab, og'zidan so'laklari oqqan. Bu manzara tasviridan Yusuf Amiriy ichkilikni qoralashning tamomila ta'sirchan usulini o'ylab topgan – ichkilikka ruju qo'ygan odamlarning kulgili qiyofasini yaratgan va bu usul orqali kitobxonda ichkilikka nafrat hissini tasvirlashga erishgan. Shundan kelib chiqqan holda, u ichkilik yomon, ichsalarangiz, ana shu ahvolga tushasizlar, degan quruq nasihatbozlik o'rniga kitobxonga quyidagi xulosani taqdim qiladi:

Bu kayfiyatni emdi so'rsa bo'lmas,

Taammul\* ko'zi birla ko'rsa bo'lmas. (\**taammul* – chuqur o'ylash, diqqat bilan fikrlash)

Bu manzaradan xulosa chiqarish uchun chuqur o'ylash kerak emas, katta aql ham kerak emas, faqat davradoshlarning holatiga bir nazar tashlash va ularning o'rniga o'zni qo'yib ko'rish kifoya.

Yusuf Amiriyning asosiy maqsadi, kitobxonga aytmoqchi bo'lgan gapi mana endi boshlanadi. Munozaraning bundan keyingi qahramonlari ham o'sha davra ishtirokchilaridir. O'zaro bahs asnosida ularning nuqtai nazari ikki qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurashni eslatadi. Shoir bu o'rinda qahramonlarni – Bang bilan Chog'irni shaxslashtirish usulini qo'llaydi. Bu usul orqali asarda yumor hissi yanada kuchayadi.



(O‘quvchiga to‘liq tushunarli bo‘lishi uchun mazkur munozara matnini to‘liq berdik va lug‘atlar bilan ta‘minladik.)

Nogoh bir yaxshi xirqali so‘fi va bir gulgun to‘nluq yigit munozara va mubohasaga mashg‘ul bo‘ldilar. Majlis ichinda ikkalasi yashil, qizil qavsi quzax\* bikin bir-biriga otilib erdilar. Ul so‘fi suvol qildi yigittin-kim: “Sen ne nimasen va oting nedur va xosiyating ne?”

Yigit javob berdikim: “Men uzum naslidurmen. Uzumning faxri mening bilandur, manga sarmastlar may ot qo‘yubturlar. Har qachon otimni evursam, yam bo‘lurmen“. (\*qavsi guzah- o‘q-yoy, kamalak (bahor chog‘larida osmonda rang-barang bo‘lib, o‘q-yoy shaklida ko‘rinadigan quyon shu‘lasi).)

Yusuf Amiriyning yumorga moyilligini *may* va *yam* so‘zlarini qo‘llashida ham ko‘rish mumkin. Arab yozuvida *may* so‘zi teskari o‘qilsa va yozilsa, *yam* bo‘ladi; *yam* “dengiz”, “daryo” ma‘nosini ifodalaydi. Bu usul *musahhaf san‘ati* deyiladi. Mazkur san‘at orqali Yusuf Amiriy so‘z o‘yini hosil qilgan va yigitning, ya‘ni Chog‘irning dengiz suvi singari mo‘lligidan odamlar o‘zidan ketar darajada mast bo‘ladi, demoqchi. Shu o‘rinda Amiriy Chog‘ir tilidan yana quyidagi baytni keltiradi va Chog‘ir o‘zini oqlayotganday bo‘ladi.

Boda daryou el andin kecha olmas kematek,  
Ayb qilmasmenki, yo‘qtur elga daryodin guzor.

**Munozarada kulgi qo‘zg‘atuvchi manzaralar.** Chog‘ir o‘zining tashqi ko‘rinishi – qizil rangi va hidi bilan ham hammaga ma‘qul ekanini o‘z tilidan bayon qilganda, ulug‘ shoirlar – Salmoni Porsi singari mutasavvurlarning may timsoli haqidagi madhlarini Chog‘ir o‘z foydasiga, o‘z manfaati uchun xizmat qildiradi. Amiriy faqat Chog‘irning dunyoqarashi va manfaatiga mos misralarning o‘zinigina “yulib” olib tatqin qiladi. Shu asnoda Chog‘ir o‘zining haqiqiy qiyofasini va samarasini namoyon qiladi – chog‘irxo‘rlikning oqibatida xarobotiylar bir-birlaridan qonlar oqizadilar, hatto bir-birlarini o‘ldiradilar. Yoki chog‘irxo‘rlik oqibatida birining boshi boshqasining oyog‘ida, birining oyog‘i ikkinchisining boshida paydo bo‘lib qoladi. Bu tasvirlar ham Amiriyning yumorga moyilligidan dalolatdir:

Va ba‘zi munkirlar\* meni muttaham qilurlarkim, aql javharin zoyil\*

qilur hol ulkim, qaziya\* akstur va Salmoni Porsida bu vaqtni ko‘rub, mamduh\* sifatida aytibtur.

Misra’:

Dil pok tu durri aql ro‘yonad zi qalbi yam

(Sening sof musaffo diling dengiz qalbida aql durrini o‘stiradi).

Dunyo so‘z javharining sarroflari va lafz aqiqining yomon va yaxshisin tanig‘uvchilari mening vasfimda aytibturlar.

Bayt:

Kabo la’lu, kamar la’lu gulu la’l,

Labash ham la’lu, bini la’lu bo‘ la’l.

(Kiyimi la’l (qizil rangda), kamari la’l, burni la’l, (go‘zal tanidan taralgan hid ham) la’l).

Va rindlar mazhabida men ul mahbubedurmenkim, mening uchun chindin qonlar oqibtur va chindin jonlar chiqibtur. Mening majlisimda goh ayoq boshqa qo‘yo(r)lar va goh bosh ayoqqa. Nazm:

Turubturlar ayoqim o‘pmak uchun,

Surohitek\* bori bo‘yini uzotib.

Va meni har ko‘ydakim tilasalar, tobarlar va oshiqlar bu mahalda aytibturlar: Nazm:

Ey valvalayi ishqı tu bor sari ko‘e,

Rindoni sari ko‘yi tu mast az tu ba bo‘e

(Ey ishqing hamma yerga ovoza bo‘lgan, qo‘yningda yurgan rindlar faqat sendan kelgan hidning o‘zidan mast bo‘lmish). (\* *munkir - inkor etuvchi, tonuvchi, rad etuvchi; \* zoyil\ zoil – yo‘q qiladigan, o‘chiradigan; \* qaziya – hukm, davo, masala, gap-so‘z; \* mamduh – maqtalgan, madh qilingan; \* surohiy – uzun bo‘yinli suv va may idishi, shishasi*)

Kinoya va yumorni Yusuf Amiriy shunchalik mahorat bilan qorishtiradiki, kitobxonda, shubhasiz, kulgu uyg‘otadi. Chog‘ir maqtanib, hatto pahlavon bahodirlardan ham yuz chandon kuchli ekanini aytadi. Chog‘ir o‘zini oqlab, sariq yuzlarni qizartiradigan vosita ekanini gupurib aytar ekan, bu maqtanchoqlik ostida u fojialarga ham sabab bo‘lishini ko‘rsatadi – “qizil suv”, ya’ni may har qanday pahlavonlarni ham yiqitish qudratiga ega ekanini oshkor qiladi. Paymonasi to‘lganlargina Chog‘irni “gulgun” deb u bilan oshno tutinadi:

Va zehni yuguruk va shirin so‘zluqlar manga gulgun ot qo‘yubturlar.

Har kimning paymonasi to‘lubtur mening bilan o‘chashur. O‘chashgach, shaksiz choparmen. Tangri manga bu durda\* oncha kuch va tahavvur\* beribturkim, agar bahodirlar bir-biriga chiqsalar, men yuzga chiqarman va jigardori eranlar o‘sh kuni mening haqimda o‘qubturlar.

Bayt:

Yuraksizni yurakliklarga qotg‘on,

Sariq yuzni qizil qilg‘on chog‘irdur.

Va bilmon tag‘i mening zo‘rumni ko‘rub aytibtur. Nazm:

Zi obi surxi may uftodaast Zoli xirad,

Chi joyi Zol, ki Rustam biyoftad az surx ob.

(Mayning qizil suvi al-Zolini yiqitmish, Zolning xoli ne bo‘lg‘ayki, qizil suv Rustamni ham yiqitadi).

(\*durd – suyuq narsa (masalan, may)ning quyqasi, sirqindi; \* tahavvur – g‘azab va shiddat bilan hujum etish, masalaga tushunmay turib, birdaniga qizishib, hovullab ketish, hovliqish)

Qur‘oni Karimu Aflotun va Jolinus kabi buyuk mutafakkirlarning Chog‘ir haqida aytganlari ham yuqoridagiday kinoya va mazax usuli bilan bayon qilinadi. Quyida Chog‘irning o‘z qiyofasini ro‘yi rost oshkor qilgani bois bu o‘rinda yana sharhlash ortiqcha:

Va manfaat olaminda ul xizmatkoridurmen to jonim bor, elga kuch berurmen va Haq taolo Qur‘onda zikr qilibturkim, naf bobinda oyatedurmen va har nechukkim, zikr qilibtur ul hurmat menga yetar. Bayt:

Hayhotki nomai ba zaboni tu baroyad,

Yo hamchu te tuero chu mane dar nazar oyad.

(Sen qayerdayu meni tilga olishing qayerda, yoki “Sen kimu men kim”)

Va mening xosiyatimni ul kishi bilurkim, o‘zini hikmat qonunida bu alo\* tutar. Aning uchunkim, muddatlar kub\* ichinda Aflotun bikin riyozat tortibturmen va hakim muni ko‘rub aytibtur. Nazm:

Ey davoyi naxvatu nomusi mo,

Ey tu Aflotunu Jolinusi mo

(Ey bizning vijdonimiz, nomusimiz davo! Ey bizning Aflotunimiz, Jolisunimiz!)

Va men avbosh islohi\* bilan ul alloma durmenkim, xarobotilar\* mening qoshimda tajrid\* sharhin uqurlar”.

(\* alo - ...ustiga, ...ga, ...dan; \* kub – kuv; may quyiladigan idish, xum\* isloh–tuzatish, yaxshi holga keltirish; \*xarobot – vayrona joy; maj. mayxona, maykadi; tajrid – yakkalash. ajratish. yolg‘iz qoldirish)

Chog‘ir tilidan aytilgan goh gupirishlaru goh kulgili manzalar (oyoq boshga, bosh oyoqqa), goh hayotiy haqiqatga o‘xshab ko‘rinadigan qiyofalar (sariq yuzni qizil qilishi), goh maqtanchoqlik (o‘zini Aflotunga o‘xshatishi) kabi detallar bu munozarani xalqona ruhda yaratishga asos bo‘lgani aniq ko‘rinib turibdi. Shuningdek, mutasavvurlarning may timsoliga bo‘lgan munosabatlarini Chog‘ir o‘zicha, nihoyatda go‘llik va jo‘nlik bilan tasvirlaydi.

Bu munozara, qolaversa, mazkur janrga oid boshqa asarlar ham, xalq og‘zaki ijodining mahsulidir. Asarning tuzilishi xalq og‘zaki ijodidagi satirik ertaklarni eslatadi. Qahramonlarning muloqotida va o‘zlariga o‘zlari baho berishda turli vositalarning – mubolag‘a, o‘xshatish kabi qator san‘atlarning qo‘llangani ham bunga bir dalildir. Yoki ertaklardagi “endi so‘zni falonchidan eshiting” singari voqealar bayoni usuli mazkur munozarada ham ma‘lum darajada o‘z aksini topgan. Chog‘ir o‘zi haqida gapirib bo‘lgach, endi ikkinchi qahramon Bang – so‘fi obrazining faoliyati boshlanadi va bu usul aynan ertaklarni hikoya qilish usulini eslatadi.

**Bang o‘z nutqi orqali haqiqiy qiyofasini oshkor qilishi.** Chog‘irdan so‘ng so‘fi timsolidagi Bangning nutqi ham diqqatga sazovor. Bang ham Chog‘irning “Qani, sen ham ahvolingni bir oz bayon qilgin-chi” degan taklifiga javoban u bilan bo‘lgan suhbatda o‘z qiyofasini namoyon qiladi. Bangning makoni – darveshlar takyasi, Bangni dardmandlar – nashavandlar dori deb bilsalar, sog‘ odamlar nasha deb biladilar, undan hazar qiladilar. Shoir bu o‘rinda Bang tilidan “dardmand” va “bedard” so‘zlarini qo‘llashida katta ma‘no bor. Illat va sog‘lomlik nashaga bo‘lgan munosabat orqali o‘lchanadi. Bang o‘zini dori sifatida odamlar iste‘mol qilsinlar deb, har turli sabablarni ro‘kach qiladi, so‘z o‘yinlarini o‘ylab topadi: “kanab” foydali o‘simlik bo‘lgani bois, “bang” o‘zini “kanab” orqali oqlamoqchi bo‘ladi. “Kanab” so‘zi arab yozuvida teskarisiga o‘qilganda, “bang” hosil bo‘ladi. Bu o‘rinda ham yuqoridagiday *musahhaf san‘ati* qo‘llangan.

Chun muhbas bu yerga yetti, yigit ham so‘rdi so‘fidinkim: “Sen tag‘i kayfiyatingdin shammae\* bayon qilg‘il va asroringni orog‘a kel-

tur". So'fi tedi: "Mening turur yerim darveshlar takyasidur. Vale hirqa ul piri sabzpo'shkim\*, xiyovon\* ko'chasida o'lturur, aning ilgindin kiyib-turmen va meni dardmandlar doru derlar va bedardlar bang. Va mening haqimda aytibturlar. Nazm:

Sabzeki shifoyi mardumi diltangast,  
Z-o' ma'naviyonro adabu farhangast.  
Harchand nazar hame kunam dar korash,  
Aybash ba juz in nestki nomash bangast

(Diltang kishilar dardig'a shifo yashil o'tdirki, undan ma'ni ahllari adab va ilm o'rganadi. Qanchalik uning qilmishini ko'zdan kechirmayin, "Bang" deb atalishidan boshqa uning hech qanday aybi yo'q.)

Ajab holatturkim, badnomdurmen, bovujudi ulki, bang nek\* tas'hifidur. Yana mening asli otim "kanab"turkim, el ani evrubturlar, "bang" bo'lubturmen. Ba'zi oriflar asror derlar, ul sababtinkim, har kimni tutsam berk tutarman. Mardona kishi kerakkim, mening birlan turushqay. Misra:

Masaldur el aro "turdiyu mardi"  
(El aro sher ham mard).

Ne mubosharat bobinda tekma kishi mening yoimni torta olmaskim, qattiq tortqichidurmen va mahkam urg'uchi va suhbat maydoninda ul qadar andozdurmenkim\*, badnafslar mening sifatimda aytibturlar. Nazm:

Har nechakim, bo'lsa uzuk aysh aro,  
Tushmas aning hech gaz o'qi xato.

Va mashhurdirkim, Ubayd Zokoni<sup>136</sup> aytibtur: "Har xotun va otunkim, clik o'g'ul va qiz onasi bo'lub yuz yashab, dunyodin naql qilsa, agar Bangi suhbatig'a musharraf bo'lmaydur, tahqiq bilingkim, dunyodin bekor boribtur. Lo'tudek\* bolon urushtirmoqliqda xud ne dersan? Tasbih toshlog'ondin so'ngra, agar qovundin tog'-tog' bo'lsa va uzumdin bog'-bog'kim, yuz evurmon, andoqkim, bangilar aytibturlar. Nazm:

---

<sup>136</sup> *Ubayd Zokoni* – asl ismi Xoja Nizomiddin Ubaydullo, fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyandalaridan. 1370-yili vafot etgan. «Axloq ul-ashrof» (Aslzodalar axloqi), «Dah fasl» (O'n bob), «Risoli dilkusho» (Ko'ngilti ochuvchi risola), «Ushshoqnoma» (Oshiqlar haqida kitob), «Mushk va turba» (Sichqon va mushuk) kabi asarlari va dostonlari bilan mashhurdir. Hazilmutoyiba va hajviyotlari risolalarda uchraydi. Ayniqsa, *Salmon Sovajiy bilan birinchi maria* uchrashuvda bu ulug' shoirga nisbat berib aytgan bayti mashhurdir. Ana shu hajviy baytdan keyin ikkala shoir tanishadi va Ubayd Zokoni Salmon Sovajiyning marhamatiga sazovor bo'ladi. Bu to'g'rida Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» (Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 121-b.) asarida shu bayt bilan bog'liq hikoyat keltiradi. Davlatshoh Samarqandiy Ubayd Zokoni<sup>136</sup>ning o'z davrida katta hurmat-ehtiromga sazovor shoir bo'lganini ko'rsatadi.

“Mo ko‘hi kulicharo palangem,  
Mo bahri muhicharo nahangem”

(Biz kulchalar tog‘ini ham yeb yuboradigan qoplonlarmiz,  
Biz dengizdagi baliqlarni yeb bitiradigan nahangmiz).

Va mening xosiyatim ko‘pdur. Ba‘zi xud meni sang, tarjih\* qilibturlar andoq kim, aytibturlar:

Aqlе ki, ey kavnayı fuzun meoyad,  
Dar dasti mayi nob zabun meoyad.  
Ham bang ki, rangi zindagoni dorad,  
Kal rangi sharob bo‘yi xun meoyad”

(Ikki dunyoda ziyoda bo‘lgan aql uzumdan qilingan may oldida hech narsaga arzimay qoladi. Agar bangda tiriklik rangi bo‘lsa, sharob rangidan qon hidi keladi).

(\*shamma – bir oz, bir qadar; \*sabzpo‘sh – yashil kiygan, yashilga burkangan; \*xiyobon\xiyovon – bog‘, gulzorlar orasiga solingan yo‘lak; \*nek – yaxshi; \*qadar andoz – kuch-qudrat soluvchi; \*Lo‘tu – lo‘li; \*tarjih – bir narsani ikkinchi narsadan ortiq ko‘rish.)

**Amiriy soxta donolikni fosh qilishi.** XIV asrda yashagan fors-tojik adabiyotining yirik namoyandasi Ubayd Zokoniyy (vafoti 1370-yil) dan Yusuf Amiriy keltirgan gap diqqatni tortadi. Ubayd Zokoniyy, ellik o‘g‘ul-qizning onasi bo‘lgani holda, Bangning suhbatiga musharraf bo‘lmagan ayol bu dunyodan bekor ketibdi, deb aytadi. Nima uchun Ubayd Zokoniyy shunday deb aytgan? Tabiiyki, shuncha farzand dunyoga keltirib, tarbiyalagan ayol ko‘p hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, ko‘p narsani biladi. Xayolparast Bangi esa o‘zini hammadan dono hisoblaydi.

Bang o‘zini ko‘klarga ko‘tarib maqtab, har narsa – qoplon, nahang baliq bilan tenglashtiradi, tog‘- tog‘ uyulgan nonlarniyu dengizdagi baliqlarni ham yeb yuboradi. Bangilar kayf qilganda, ochofatlarga aylanadi. Bu tabiiy hodisa. Amiriy bu hayotiy voqealarni juda sinchiklab o‘rgangan. bangilar va mayxo‘rlarning tabiatidan, o‘zlarini tutishidan, ichki va tashqi dunyosidan yaxshi xabardor.

Keyingi voqealar davomida Bang Chog‘irdan o‘zini ustun qo‘yadi. Insonlarning aqli ham may – Chog‘ir oldida hech narsa, Chog‘ir inson aqlini yo‘ldan uradi. Bangning rangi yashil bo‘lgani uchun, u tiriklik ramzi. Bangning tili bilan aytganda, Chog‘ir insoniyat uchun halokat, undan qon hidi keladi.

Chog'ir eshitgach, achchiq ustindin tedikim: "Senga tegarmukim, bu so'zni og'iz to'la mening yuzumg'a aytqoyse'n? Men seni saxt\* sog'inur erdim. Emdi bu xomxayolni boshingdin chiqorg'il. Yo'q ersa, oncha yanchayin senikim, duding boshingdin chiqsun".

Bang eshitgach, kalla xushlu bunyod qildi – tedi: "Ne bo'lubtur sanga, meni yamlab, yutqali turursen? Bu oxsumlukni\* o'zga yerga eltkim, agar bukundin so'ngra o'z izzatingni asramay, haddin oshursang, oncha tepturayin senikim, shirang ostungda qolsun. Sening orta-tosha ortuqliging yo'q turur, har qaydakim, sening zikring qilsalar. mening fikrimni qilurlar va har qachonkim sening hikoyatingni qilsalar, mening rivoyatimni qilurlar, bo'vujudi ulki, Hofiz Sheroziy sening maddohingdur, mening ri'oyatimni\* qilibtur. Nazm:

Boshad ey dilki, dari maykadaho bikushoyand,  
Girehi kori furubastayi mo bikushoyat  
(Ey ko'ngil, kosunki mayxonalar eshigini ochsalar edi, yurishmay qolgan ishimiz tugunini mayxonalarda yechsalar edi).

Xusrav Dehlaviy xud sarikh\* qilibtur:  
Be lalu zumurrad notavon xurram bud,  
Chun la'l naboshad, ba zumurrad, sozem  
(La'lsiz, zumradsiz xursand bo'lish mumkin emas. Agar la'l bo'lmasa, zumrad bilan ko'ngil ochaylik).

Muqarrardur va mahfil ulki seni la'l atasalar, meni zumrad o'qurlar va har yerdaki seni suv desalar, men o't derlar va har majlisdaki seni Ilyosg'a nisbat qilsalar, meni Xizrg'a tashbih qilurlar va har maqomdakim, oshiqqlar sening shaklingni ma'shuq labiga mengzaturlar, mening rangimni mahbub xattig'a o'xshaturlar, sening mendin orlanmog'ing bag'oyat bema'nidur. Men seni agarchi yaxshi bilmon, vale yaxshi bilurmen – andoqkim aytibturular. Nazm:

Ey duxtari roz, tu porsoyi mafurush!  
Kas nist ba olam ki, turo nanihodast  
(Ey uzum qizi, sen xudojo'ylik to'g'risida safsata sotma. Olamda hech bir inson yo'qki, seni ko'rmagan bo'lsa).

Albatta to sening ayog'ingni ko'tarmaguncha, yoronlar lazzat qilmaslar".

Chog'ir eshitgach, qoni qaynab infioldin qizorib dedi: "Bu ne dandonzanlikdur\*? Po'st-po'shlar qo'ynida ulg'ayg'on, ko'p zanax\*

urma va tek turkim, jur'adondin\* chiqincha seni abnon qilurmen. Sen bir o'tsenki, majmu' el sening ilgingdin kuyubturlar. Har kimki sanga o'grandi – o'rtandi. Bu fanda sehr qilursenki, odamiyni bir damda eshak etarsen. Fahmning og'ir qilg'uchisi va vahmning zohir qilg'uchisi. Misra':

Kimki ko'brak yer seni, bo'lur eshak.

Andoqki aytibturlar. Nazm:

Har kaski alafvar xo'rad xar gardad

(Kimki o't yesa, u eshak bo'ladi)

Va shaklning tag'i eshak tezakiga o'xshar borchadin nozukroq bukim, bukun va bardam bila tilarsenkim, bayt:

Tezak yanglig' quyushqong'a qisilib,

|| Qush otlig'lar bila yo'l teng yurusang.

Va sen bag'oyat shum giyohdursen. Nazm:

Kishikim bir sening yuzungni ko'rdi,

Ul o'zga yaxshilik yuzini ko'rmas.

Ey lavandlar\* sarmoyasi\* va ey tanandlar\* piroyasi\*, ey bad shakl tegdoni va ey badbaxt otashdoni, chustu cholok\* yigitlarni kohil\* va tanbal qilg'on sen. Chandin odami va odamizodlarni qaro yerga yog'durg'on sen.

Misra':

Ilohiki tuxmun qurig'ay sening.

Bang eshitgach tedi. Misra':

Jono, zi jamoli xesh ogoh nayi

(Jono, o'z jamolingdin ogoh etmassan).

Qolibon ul bir necha baytni eshitmaytursenki, sening haqingda aytibturlar.

|| Qit'a:

Sarmoyayi fasodu kalidi dari sitam,

Behi daraxti fitnau tuxmi niholi g'am.

Bunyodi har palidiyu qonuni har badi,

Anjomi har shaqovatu og'ozu har nadam.

Asli fasodu arbadvu xasmi mulku mol,

Nuqsoni aqlu dinu baloyi zaru diram.



Dar zar'i shar' otashu dar chashmi aql xos,  
Bodi dimog'i naxvatu obi ruhi sitam.

Xamri palid donki, buvad oxirash fasod,  
Jome azu chu xurdi, agar xast jomi Jam

(Fasod sarmoyasi, sitam eshigining kaliti, fitna daraxtining ildizi, g'am niholining urug'i. Har qanday palidning bunyodi, har qanday yomonlikning qonuni, har qanday baxtsizlikni zohir qiluvchi, har qanday afsuslanishlarni boshlab beruvchi. Asli fasod, urush va janjallarni uyushtiruvchi, molu mulk xasmi. Aql va din nuqsoni, pul va oltin balosi shariat oldida otash. Aql ko'zi oldida xok, g'ururlik dimog'ining yeli, sitam ruhining achchiq so'zi. May bir paliddurki, oxiri fasoddur. Ichsang hamki sen bir piyola hatto Jamshid jomidan).

Meni ta'riz bilan tashni qilursenkim, elni eshak etarsen. Elni bilmon, bore seni eshak eta bilurmen. Aning uchunkim, seni xamr derlar, haminki o'rtang yorib, zamini mimini ichingdin chiqorsam, "xar" bo'lursen va mundin ortuqroq qoyurushsam, "tar" bo'lursen.

Chog'ir eshitgach jo'sh va xurush etib, tedi: "Ey ko'ki kesilgur, sen yozilarda o'z boshing bilan o'lg'oyg'onsen. Ko'p ko'rmagan va ham odame sening sarvaqtingga\* tushmaydurkim, seni xabardor qilsa, bu shoxi noshikastaligingdindurki, har kim tepar seni chidagincha yanchar va sening uchun aytibturlar. Bayt:

Eng bangi fururu ba xudat fikre kun,  
Bo harki rasnu kalla xushki nanamoyi".

(Ey yuzsiz bang, o'zing bir o'ylab ko'r, axir, sen kimga yaqinlashmagin, uni aqldan ozdirasan).

Bang eshitgach, bu so'zga ko'nglinda tug'ulub, o'zidan to'ngulub, dedi: "Sen odim mening mazammating'a\* mashg'ulsen va mazallating'a\* mash'uf\* jamoatiki seni halol derlar – xarom. Agar diyonatdin alarg'a buyi bo'lg'ay va toifaeki, seni muboh derlar. Ajab, agar amonatdin alarg'a range bo'lg'ay. Seni ichgau mudom balo va dom ostida va muhtasib dastida. Meni yegon kishiga hech nima yo'q, hazl varaqni ochib, qarni to'q, kula-kula, sening bobingda o'qur. Misra':

Ki kas mabod zikirdori nosavob xijil  
(Kishi nosavob qilmishidan xijolat bo'lmasin).

Hol bu turur, sen o'zungni mendin ortuq tutarsen. Nazm:

Sen emdi rozi bo'lg'il sar basarg'a,  
Tarozitek bosh endur tek turarg'a.  
To'lin oykim kamolin qilsa izhor,  
Bo'lur nuqson iligiga giriftor”.

Chog'ir eshitgach, mutag'ayyir bo'lib dedi: “Agarchi zohirda hay'atimiz muxoliftur. Ammo botinda holatimiz muvofiqtur.” Vale sen qaydau men qayda?! Mening xosiyatim yuzni qizartmoqturu sening odati sarg'aytmoq. Nazm:

Kimiyo xonand onon kaz xirad begonaand,  
Rost mego'yand ore, chehrahoshon chun zarast”

(Aqldan begonalar kimyo deb ataydilar. Rost aytmishlar albattaki, ularning yuzlari zardur (sariqdur).

Bang eshitgach, mutafakkir\* bo'lib, dedi: “Sen mening xosiyatimdin g'ofilsen va mohiyatimdin qosir; ne qilib tonig'aysen va ne bilib tonig'aysen. She'r:

Ro'yi zardam raqib nashinosad,  
Har chi, donand ki, za'faron chi buvad”

(Sarg'aygan yuzimni raqib bilmaydi, za'faronning nima ekanligini eshak qanday bilsin?!)

Bu holatda Bol Chog'irni so'r keldiki, hammashrab edi va hamdamli davosin qilur erdi. Nazm:

Chog'ir tedi: meni sen so'rma, cy Bol  
Ki, el og'zida tushtum Bang elindin.  
Menga bu Bang doim til tegurur,  
O'lubturmen maholu nang elindin.

Bolg'a kayfiyat malum bo'ldi, shirinkorlig' bilan orag'a kirib, alarni bir-biridin ayirdi. Chog'ir xush bo'lib, duo qildikim: “Ey Bol, Tangri senga uchmoq ro'zi qilsun va hurni bequsur uchmoqkim, meni bu xamri ilkidin qutqarding”. Chun so'z bu yerga yetti, barchalari suhbat bisotin buzub, har tarafg'a silotin qurub tarqaldilar. Nazm:

Ul yori parvin bikin jam erdilar bir go'shada,  
Oxir naboat ul naqshtek bir-bir parishon bo'ldilar“.

Ilohye majmui zalolat\* parishonlig'idin va jaholat vayronlig'idin asrag'aysen. Omin yo Rab ul-olamin!

(\*saxt – qattiq, mustahkam; \* oxsumluk – mast, badmast; pushaymonlik; kek saqlash; hamla; quultum. \*ri'oyat – hurmatlamoq; e'tiborga o'lmoq; \* sarif – ochiq, aniq, ravshan, oydin; \* infiol – xijolat, uyalish;

\* *dandonzaliq* – og‘ir so‘z aytmoq, so‘zni ochiq so‘zlamaslik; \* *zanax* – behuda gaplar gapirmoq, laqillamoq; *maj. lofurmoq*;

\* *jur‘adon* – may ichiladigan qadahchaning g‘ilofi (*qini*); *yonda olib yuriladigan suv idish*; \* *lavand* – bo‘sh, alqov, bekorchi; *bevosh kishi*, \**sarmoya* – manba, asos; \**tanani* – yalqov, tanbal; \**piroya* – bezak, ziynat; \**chustu cholok* – chaqqon, ildam; \**kohil* – sust, yalqov, tanbal; \**ta‘riz* – kinoya bilan so‘zlash; *etiroz bildirish*; \**tashni* – malomat qilish, ayblash; \**xurush* – qichqirish, hayqirish. *faryod chekish*; \**sarvaqt* – yo‘qlov, yo‘qlab kelish; \**mazimmat* – yomonlik, yomonlash, tubanlik, xo‘rlash; \**mazallat* – xo‘rlik, xorlik, pakstlik; \**mash‘uf* – aqldan ozar darajada sevgan, berilgan; \**mutafakkir* – fikrlovchi, fikrga cho‘mguvchi, uzoq o‘ylovchi; \**zalolat* – adashish, gumrohlik)

**Munozaraning xulosasi.** Xullas, mazkur munozara Bang bilan Chog‘irning behuda bahslari natijasida bir-birining illatlarini fosh qilishdan iborat. Munozara mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Yusuf Amiriy bu asarida ramziy obrazlar orqali faqat ichkilikni va giyohvandlikni qoralab qolmaydi, balki buning ostida katta ijtimoiy ma‘no ham bor. Bang ham, Chog‘ir ham insoniyatning illatigina emas, davrning ham illati ekanini asarning tag zaminida yotadi.

Asarda Hofiz Sheroziy, Xisrav Dehlaviy, Ubayd Zokoni kabi ulug‘ shoirlarning asarlaridan keltirilgan baytlarning mazmun-mohiyatini Yusuf Amiriy o‘z asari voqealariga bog‘lar ekan, u Sharq adabiyotining katta bilimdoni sifatida ham taassurot qoldiradi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Munozara janrining ilk ildizlari qaysi adabiy yodgorlikda uchraydi?
2. Yevropa adabiyotidagi munozara janriga qisqacha tarif bering.
3. Fors adabiyotidagi munozara janri haqida qisqacha ma‘lumot bering.
4. O‘zbek adabiyotidagi munozara janri haqida ma‘lumot bering.
5. Bu munozaradan kulgi qo‘zg‘atuvchi manzaralarga misol keltiring
6. Bangning haqiqiy qiyofasi qaysi usullar orqali ochiladi?
7. Amiriy soxta donolikni qay yo‘sinda fosh qiladi?

## Yaqiniyning “O‘q va Yoy” munozarasi

### Reja:

1. Yaqiniyning tarjimai holiga oid kuzatuvlar.
2. “O‘q va Yoy” munozarasining tuzilishi. Munozaraga boshqa asarlarning ta’siri.
3. “O‘q va Yoy” munozarasi va uning O‘g‘uz xon haqidagi voqealarga aloqadorligi.
4. Yaqiniy – ulkan ijodkor.
5. “O‘q va Yoy” munozarasining mazmuni va maqsadi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *munozara, forscha she’r, ingliz sharqshunos olimi, baytlar, qissa, ramziy alomat, ilohiy tushuncha.*

**Yaqiniyning tarjimai holiga oid kuzatuvlar.** O‘zbek adabiyoti tarixida munozara janrida katta iz qoldirgan ijodkorlardan biri Yaqiniydir. Yaqiniy to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumot Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida bor. Shuningdek, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida XV asrning birinchi yarmidagi mashhur va istedadli shoirlar qatorida Yaqiniyni ham eslatib o‘tadi.

Yaqiniyning tarjimai holiga oid ma’lumotlarga aniqlik kiritish uchun yana “Majolis un-nafois”dagi yondosh ma’lumotlarga va “O‘q va Yoy” munozarasidagi dalillarga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. “O‘q va Yoy”da Yaqiniy “hazrati sayyid ul-ahror” Qosim Anvorga hurmatini izhor qilish bilan birga, uning ikki misra forscha she’ridan keltiradi va “qaddasa Allohu sirrahu” deya uning vafot etganiga ishora qilib ketadi. Navoiy ham “Majolis un-nafois” asarida Qosim Anvor to‘g‘risida so‘z yuritganda, u olamdan o‘tganini eslatadi. Qosim Anvor 835\1431–32 yillarda vafot etgan. Yaqiniy Qosim Anvor to‘g‘risida so‘z yuritib, uning she’ridan keltirgan ma’lumotdan shuni anglash mumkinki, “O‘q va Yoy” munozarasi Qosim Anvor vafotidan keyin; 1435-1450-yillar oralig‘ida yozilgan. Agar bu munozara XV asrning ikkinchi yarmida, ya’ni Navoiy hayotligida yozilganda edi, Yaqiniy Navoiyni eslamasligi mumkin emas edi. E. Rustamov Navoiy “Majolis un-nafois”da Yaqiniy taxallusli ikki shoir to‘g‘risida to‘xtalgani haqida “XV asrning birinchi yarmida o‘zbek she’riyati” (*Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka.*) nomli kitobida yozadi. Ulardan biri, Navoiyning e’tirof etishicha,

yaxshi shoir edi. U Sulton Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan, harbiy yurishlardan birida yarador bo'lib, olamdan o'tgan. Ikkinchi bir Yaqiniy to'g'risida Navoiy shunday yozadi: "Mavlono Yaqiniy – tundroq mashrabli kishi erdi. Turkiy va forsiy she'r aytur erdi. Turkchasidan bu matla'ni ko'p mubohotlar bila o'qur erdikim:

Ohkim jonimg'a yettim yori nodon ilgidin,  
Dodu faryod ul jafochi ofati jon ilgidin.

Ammo forsiysidan bu matla'i yomon voqye bo'lmaydurkim:

Subhyeki, dam ba mehr nazad yak nafas tun,  
Naxleki, bor naxo'rad az u hech kas tui.

(Bir nafas bo'lsa ham quyoshga dam urmagan tong sensan, mevasi-dan hech kim yeya olmaydigan daraxt sensan).

Oxir damida beadabona so'zlaridan tavba qilib, ahli saloh tariyiqi bila kechti. Umedkim, ma'fu bo'lmish bo'lg'ay. Qabri Darayi Dubarodarondadur" (*Navoiy. MAT. 13-jild, 62-b.*).

Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" da Temur Ko'ragon zamonidan Shohruh Sulton zamonigacha turkiy tilda ijod qilgan shoirlar yetishib chiqqani haqida to'xtalar ekan, bir qancha shoirlar qatorida Yaqiniyni ham eslaydi: "Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab' salotine zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar" (*Navoiy. MAT. 16-jild, 36-b.*).

Navoiyning mazkur ma'lumotlari Yaqiniyning saroyga yaqinligi to'g'risida xabar bermaydi. Ingliz sharqshunos olimi Charlz Ryo "O'q va Yoy" munozarasining muallifi ikkinchi Yaqiniy (ya'ni Navoiy yuqorida ta'riflagan Yaqiniy)dir, degan fikrni ilgari suradi. E. Rustamov esa, munozara harbiy hayotdan va saroy muhitidan olinganini nazarda tutib, birinchidan, "O'q va Yoy" munozarasining muallifi birinchi Yaqiniy, ikkinchidan, "Muhokamat ul-lug'atayn" da Navoiy aytgan Yaqiniy ham shu shaxsdir, degan to'xtamga keladi<sup>137</sup>. Lekin dalillar va kuzatuvlar birinchi Yaqiniyning haqiqatan XV asrning birinchi yarmida yashaganini ko'rsata olmaydi. Kuzatuvlarimizga ko'ra, shartli ravishda "ikkinchi

<sup>137</sup> Rustamov Э. Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.: Изд. Восточной литературы, 1963, 206-б.

Yaqiniy” deb atalgan shoir “Majolis un-nafois”da uchramaydi. Shu bois Navoiy “Majolis un-nafois”da va “Muhokamat ul-lug‘atayn”da ta’rif bergan shoir Yaqiniy mazkur “O‘q va Yoy” munozarasining muallifidir, deb ayta olamiz. Qolaversa, Navoiy “Majolis un-nafois”da Yaqiniyga ta’rif berib, “tund mashrabliq” (o‘jar fe‘l-atvorli) deydi. “O‘q va Yoy” munozarasida O‘q timsolida va bu asarning xulosasida Yaqiniyning o‘jar fe‘l-atvori aniq ifodalanib turadi: “O‘qning og‘zi to‘la qon bo‘lub, torundek tuban qaro yerg‘a kirdi va bu munozaradin maqsad ulkim, bu davrnung kaj tablarining\* qoshinda har kim Yo(y)dek egri bo‘lsa. Yonlaridin qoshinda har kim Yo(y)dek egri bo‘lsa, yonlaridin yiroq bo‘lmas va har kim O‘qtek rost bo‘lub, tuz yurusa, Yaqiniytek yiroq tushar...” Mana shu parcha ham “Majolis un-nafois”da ta’riflangan Yaqiniy “O‘q va Yoy” munozarasining muallifi ekanini yana bir tasdiqlaydi.

Yaqiniyning munozarasi o‘zbek adabiyotida, Amiriy va Ahmadiyning munozarasi kabi, ifodaning soddaligi, tilining ta’sirchanligi bilan alohida ajralib turadi. Yaqiniyning munozarasi o‘zbek adabiyotida ilk bor O‘q va Yoy ramziy obrazini ifoda etgan asar sifatida shuhrat topdi.

**“O‘q va Yoy” munozarasining tuzilishi. Munozaraga boshqa asarlarning ta’siri.** Navoiy bergan ma’lumotlardan Yaqiniyning e’tiborga molik she’rlari ham borligi ma’lum bo‘ladi. Chamasi, “O‘q va Yoy” munozarasida keltirilgan o‘zbekcha va forsha baytlarning Yaqiniyga aloqadorligi bor. Muallifi ma’lum baytlar munozara matnida mavjud. Muallifi keltirilmagan baytlar esa Yaqiniyga tegishli bo‘lishi mumkin.

“O‘q va Yoy” munozarasining ibtidosiga e’tibor beraylik. Bu usul Ibn Sinoning “Hayy bin Yaqzon” qissasi ibtidosini eslatadi. Mana, “O‘q va Yoy” munozarasining ibtidosi:

“Bir kuni bir necha sohib tariyq\* ahli qabza\*, otimchi\* bahodir yigitlar yo(y)dek majlis asbobin qurub va o‘qtek mahfilin\* tuzib, bir go’shada gashtga chiqib erdilar. Nogoh Turkiston tarafindin bir egni bukilgan qari birlan bir sarv bo‘yluq yigit yetishtilar. Qarig‘a izzat yo‘lindin o‘ng qo‘l sori, yigitga so‘l qo‘l sori yurt berdilar”.

(\* kaj tab – qing‘ir fe‘l-atvorli; \*tariyq – yo‘l, iz; usul qoida; so‘fiylikda: ma’lum maslakka ega kishi; \* ahli qabza – hukmron toifa; \*otimchi – mergan; \*mahfil – bazm, majlis)

Ibn Sinoning “Hayy bin Yaqzon” qissasi muqaddimasi ham sarguzasht mazmunidagi voqeani hikoya qilish bilan boshlanadi:

“Bir kuni bir necha do‘stlar o‘zlari yashayotgan yurtning bir chetiga sayru sayohat qiladilar. Ular o‘sha muzofot chetida istarasi issiq bir qariyani uchratadilar”.

“O‘q va Yoy” munozarasi o‘ziga xos tuzilishga ega. Yaqiniy o‘z asarini shartli ravishda ikki qismga – muqaddima va “Munozaraning ibtidosi” qismlariga bo‘ladi. Muqaddimada Yaqiniyning asosiy aytmoqchi bo‘lgan gapi shu ediki, turkiy tilda hanuzgacha munozara janrida asar yozilmagan, Yaqiniy esa bu ishni amalga oshirishga kirishgan. Yaqiniy bu haqda so‘z yuritishdan avval qariya bilan yigitning dahanaki olishuvini keltiradi. Ikkalasing bahsidan so‘ng, Yoy va O‘q timsoli uning xayolidan ketmay qoladi. “Bu kunga degur hech kimarsa turki tilining javharin va forsi alfozining gavharin tarkib qilib, O‘q Yo(y)ning orasinda munozara tartib” qilmaganini xayolidan kechiradi va bu munozarani yaratishga bel bog‘laydi. Muqaddima, xuddi ertak va doston voqealari singari, qahramonning sarguzasht olamiga kirib borayotganiga oid voqealar tasviri bilan yakunlanadi.

Asosiy voqealar “Munozaraning ibtidosi”da hikoya qilinadi. Yaqiniy “sohib tariyq”lardan so‘z boshlaydi. Bu toifa hamda hukmron tabaqalar va harbiy ishiga aloqador shaxslarning muloqoti tasviridan shuni anglash mumkin, shoir faqat “O‘g‘uznoma”dagi harbiy ishiga oid terminlardan emas, balki mumtoz adabiyotdagi an’anaviy Yoy va O‘q obrazlaridan foydalangan. Muqaddimada Yaqiniy “fors alfozining gavhari” iborasida bu janrning fors-tojik adabiyotidagi ildizlariga ishora qilgani anglashilib turadi.

Yaqiniy turkiy tilda munozara janrida asar yozilmaganini ta’kidlagani bejiz emas. U fors adabiyotidagi O‘q va Yoy munozarasi-dan, O‘q va Yoy timsollari asosiy o‘rin egallagan she’rlardan yaxshi xabardor edi. Fors adabiyotidagi bu janr Yaqiniyga yaxshi tanish ekanligi muqaddimadan ma’lum bo‘lib turibdi.

**“O‘q va Yoy” munozarasi va uning O‘g‘uz xon haqidagi voqealarga aloqadorligi.** O‘q va Yoy obrazi Sharq adabiyotida qadimiy ildizga ega. Qolaversa, adabiyotdagi bu ikki obrazning ramziy ma’nosi Yaqiniyning ramziy obrazlaridan keskin farq qilmaydi. O‘q va Yoy

obrazi “O‘g‘uznoma” kitobiy eposida ham bor. Bu eposda O‘q va Yoy ramziy obrazi ko‘chma ma‘nodan uzoq bo‘lib, Yaqiniyning “O‘q va Yoy” munozarasidagi singari poetik obraz darajasiga ko‘tarilmagan. “O‘g‘uznoma”dagi O‘q va Yoy – mifologik mazmun ifodalagan kult xususiyatini to‘liq saqlagan holda yetib kelgan.

Shuningdek, O‘q va Yoy to‘g‘risidagi afsona Mirxondning “Ravzat us-safo” va Xondamirning “Habib us-siyar” asarlarida uchraydi. Mirxond ham, Xondamir ham Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome‘ut-tavorix” asarida berilgan O‘g‘uz xoqon dostonidagi o‘q va yoy detalini takrorlaydilar. Darvoqe, “Jome‘ut-tavorix”da O‘q va Yoy tarixi quyidagicha: “...o‘g‘illar ovga chiqqanlarida, bitta oltin yoyni va uchta oltin o‘qni topib oldilar. O‘g‘illar bu narsalarni otasiga olib keldilar va undan: “Bularni qanday qilib bo‘lishib olsak bo‘ladi?” deb so‘radilar. Ota yoyni uchala to‘ng‘ich o‘g‘liga (Kun, Oy va Yulduzga – N.R.), uchta o‘qni esa kichik o‘g‘illariga (Ko‘k, Tog‘, Dcngizga – N.R.) berdi. Keyin ularga shunday deb uqtirdi: “Yoyni olgan o‘g‘illarimdan paydo bo‘lgan qabilalar buzuqlar deb atalsin; buzuqning ma‘nosi *sindirmoq, qismlarga bo‘lmoqdir*”. O‘g‘uz bu so‘zni ularning laqabi qilib shuning uchun berdiki, yoy lozim bo‘lganda sindirilsin va qo‘shinning o‘ng qanoti uchala o‘g‘limga va uning nasllariga berilsin, deb vasiyat qildi.

O‘g‘uz uchta o‘qni bergan o‘g‘illaridan paydo bo‘ladigan qabilalarni *uchuqlar* deb atadi; bu so‘z “uch o‘q” deganidir. Keyin O‘g‘uz shunday buyruq berdi: “Bu uchala o‘g‘lim va uning avlodlari qo‘shinning chap qanotiga boshchilik qilsin...Yoyni olgan o‘g‘illarim podshohga tengdir; o‘qlarni olgan o‘g‘illarim elchi darajasidadir”<sup>138</sup>.

Yaqiniyning “O‘q va Yoy” munozarasidagi qariya bilan navqiron yigitga berilgan yurt shu nuqtai nazardan sharhlanadigan bo‘lsa, masala bir qadar oydinlashadi. Qariyaga izzat-hurmat yuzasidan o‘ng qo‘l tomonni – borong‘orni, yigitga so‘l qo‘l tomonni – javong‘orni berdilar. O‘g‘uz xon afsonalaridagi harbiy terminlarning maqsad-mohiyati va ma‘nosi sharqona odob tushunchasini ifodalovchi so‘zlar bilan almas-hadi.

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kitobidagi O‘q va Yoy bilan bog‘liq voqealar “Jome‘ut-tavorix”dagi voqcalarning aynan o‘zidir. Bu kitobda ham o‘q – elchi, kamon – podshohdir<sup>139</sup>. Mirxond yozadi:

<sup>138</sup> Рашид-ал-дин. Сборник летописей. –Том 1, М.:–Л.: 1952, 86-б.

<sup>139</sup> Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. T.: «Cho‘lpon» nashriyoti, 1994, 53-bet.



“Turklarda buzuqlarning darajasi uchuqlarnikiga qaraganda yuqoridir. Chunki ularda o‘q – elchini, yoy – shohni gavdalantiradi”. Xondamir ham o‘q bilan yoyni Mirxond singari talqin qiladi. Yana Xondamir bilan Mirxondning yozishlaricha, O‘g‘uzxon buzuqlarga qo‘shinning o‘ng qanotini (ya‘ni borong‘orni), uchuqlarga chap qanotni (ya‘ni javong‘orni) boshqarishni topshirgan.

“Shajarayi turk”da O‘q va Yoy talqini zaminida ilohiy tushuncha yotadi. Abulg‘ozining yozishicha, O‘q bilan Yoy Tangrining amri bilan osmondan O‘g‘uz va uning nasliga ramziy alomat sifatida yuborilgan, ya‘ni O‘q va Yoy osmondan yuborilgan.

O‘q va Yoy timsoli Firdavsiyning “Shohnoma”sida, Yusuf Amiriyning “Dahnoma”sida, Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”sida bor. XV asrda Yaqiniydan keyin “O‘q va Yoy” munozarasini fors-tojik adabiyotida Badriddin Hiloliy davom ettirdi. Hiloliy “Shohu darvesh” (1499-1508-yillar oralig‘ida yozilgan) dostonining XV- XVII boblarida Yoy va O‘q tavsifiga e‘tibor qaratib, har ikkalasining munozarasini tasvirlaydi. Kuzatishlardan ma‘lum bo‘lishicha, Hiloliyning munozarasiga Yaqiniyning ijodi kuchli ta‘sir etgan<sup>140</sup>.

**Yaqiniy – ulkan ijodkor.** Navoiy “Majolis un-nafois”da bergan ma‘lumotdan Yaqiniyning turkiy va forsiyda yaxshi she‘rlari bor ekani ma‘lum bo‘ladi. Yuqorida aytganimizday, “O‘q va Yoy”da muallifi keltirilmagan turkiycha va forscha she‘rlar Yaqiniynikidir.

Munozaraning boshlanishi quyidagicha:

Nogoh xo‘blar cherkasidin ot chiqorg‘on bir yaxshi otliq yigit javlon qilib, ilkina o‘q olib, egniga yo(y) solib, qabaq\* otqoli maydon boshig‘a azm qildi. Nazm:

Bo‘z otliq yigitki, jahonning safosidur,

Oshiq kishining otlig‘u chovulig‘\* balosidur.

(\*qabaq – yoy bilan nishonga olib mashq qilish uchun uzun xodaning uchiga o‘rnatilgan nishona qovog‘i; \* chov – ovoza.)

Bu tasvir xuddi ertak va doston qahramonlarining jangga yoki safga otlanishini eslatadi. Qolaversa, munozara boshlanmasidan ma‘lum bo‘ladiki, Yaqiniy ot tasviriga alohida e‘tibor qaratib, bo‘z ot bilan “safo”, ya‘ni poklik o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Bo‘z ot va

<sup>140</sup> Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. –М.: изд Восточной литературы. 1963, 238-бет.

poklik yigit kishining ichki va tashqi olami mutanosibligiga ishora qiladi. Voqealarning davomi xalq og‘zaki ijodiga xos mubolag‘ali tasvirdan iborat bo‘lib, aql bovar qilmas hodisa yuz berganiga ishora qiladi. Bu aql bovar qilmas hodisa – quyoshning kuz oylarida zohir bo‘lgani va yulduzlar, falakning o‘qi singari, osmonu falakka yetib borgan – g‘ayritabiyy hodisadir. Yaqiniy hamma voqealarni va detallarni albatta biron maqsad bilan qo‘llaydi va o‘z maqsadiga bo‘sundiradi:

Banda shafaqtek qon yig‘lab dedikim: “Oyo! Bu ne xurshedurki, qavs burjunda\* tulu\* qilibtur va yo ne kavkabturkim, charxning o‘qidek poyasi ko‘kka yetibtur”. Otining yurushiga boqtim ersa, dedikim: “Agar bu ot mungintek haddin osha cholig\* bo‘lmasa, yer-ko‘kta muning ham-tosi yo‘q erdi”. Bu so‘zni jilavdore eshitib, chilburilik paydo qildi. Aytimki: “Bu maydonda bore sanga ne quyushqong‘a g‘azab qilib, chovushi\* chaynarsen!” Oxir so‘zunga javob top olmay dami tutuldi.

(\* *qavs* – yoy; *qavs burji* – to‘qqizinchi oy – noyabr oyiga to‘g‘ri keladi; \* *tulu* – chiqish, ko‘rinish; \* *cholig* – yugurik; o‘tkir; \* *chovush* – eshik og‘asi; *elchi* )

O‘q va Yoy o‘rtasidagi munozaradan avval muallif va yigit o‘rtasida bahs kechadi, bahs natijasida yigit mag‘lub bo‘ladi. Ana shu voqeadan keyin Yaqiniyning xayoliga turkiy tilda munozara yo‘qligi, forsiydan foydalanib, turkiy tilda bu janrda bir asar yaratish istagi paydo bo‘lganini izhor qiladi. Shu bilan muqaddima qismi yakuniga yetadi.

Alqissa bu xayolda mutafakkir va bu ahvolda mutahayyir erdim, chun ul yigitning yosining so‘zi tilimda va o‘qining xayoli boshimda ekan, ko‘nglumda kechtikim: “Bu kunga degur hech kimarsa turki(y) tilning javharin va forsi(y) alfozining gavharin tarkib qilib, o‘q (va) yoyning orasinda munozara tartib qilmaydurkim, bu vajhdin olamda andin nishona qolgay deb”. Chun ushbu so‘z marg‘ub va bu bois mahbub ko‘rundi, bu munozara tasnifina shuru\* qildim va umid ulkim, xush tab‘lar tobug‘ida\* maqbul matbu\* bo‘lg‘ay...

(\* *shuru* – kirishis; \* *tabug* – huzur-halovat; \* *matbu* – ta‘bga muvofiq, loyiq keladigan)

**“O‘q va Yoy” munozarasining mazmuni va maqsadi.** Munozaraning asosiy voqealari, yuqorida aytganimizday, sarguzasht mazmuni-

dagi voqealar bayoni bilan boshlanadi. Yigit – O‘q timsoli, qariya – Yoy timsoli ekani voqealar bayonida ma‘lum bo‘ladi. Obrazlarning maqsadi esa, yuqorida aytganimizday, egrilik va to‘g‘rilikning ramzi bo‘lib, katta ijtimoiy ma‘no ifoda etadi. Voqea davomida ularning o‘rni almashib qoladi – qariya chiqib ketib, o‘ziga berilgan borong‘ordan chapga (ya‘ni javong‘orga) tushib qolgani hamda yigit aksincha – javong‘ordan borong‘orga tushib qolgani hikoya qilinadi. Ikkalasining o‘rtasidagi bahs jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, qariya – maqtanchoq, kuchi yetmaydigan va qo‘lidan kelmaydigan ishlarni qilishga chiranadi. O‘zini oqlab, qudratini ko‘rsatish uchun, hatto yigitlar ham mening ipimni torta olmay, ko‘pchilik oldida xijolat bo‘ladilar, deb maqtanadi.

#### Munozaraning ibtidosi

Bir kun bir necha sohib tariyq\*, ahli qabza\*, otimchi\* bahodir yigitlar yodek majlis asbobin qurub va o‘qtek maxfilin tutub, bir go‘shada gashnga chiqib erdilar. Nogoh Turkiston tarafidir, bir egni to‘kilgan qari birlan bir sara bo‘ylik yigit yetishtilar. Qarig‘a izzat yo‘lindin o‘ng qo‘l sori, yigitga so‘l qo‘l sori yura berdilar.

(\**tariyq* – yo‘l, iz; *usul*. *qoida*; *so‘fiylikda*: *ma‘lumm maslakka ega kishi*; \**qabza* – changal; *bir tutam*; *bu o‘rinda*: *oddiy*, \**faqir*; *otimchi* – *mergan*)

Yigit tuz yo‘lidin kelib, sadoq birla borong‘org‘a chiqti va qari chap tushub, so‘l qo‘ldin javong‘org‘a tushti va qari nomusin sog‘inib, taarruz\* bila yigittin savol qildikim: “Sen ne jihat(t)in qarini izzat tutmay, o‘ng qo‘lg‘a chiqting?”

Yigit javob berdikim: “Men Chingizxon chog‘ida sadoqqa cherka tuzub, yog‘iyg‘a tegishkali ilgari yurugan uchun sevirg‘ab borong‘org‘a chiqordi va qari paskashlik qilib, keyin tortilg‘on uchun ani yozg‘urub javong‘org‘a yubordi va Yo(y)ning qarig‘an chog‘inda bir so‘zlar qulog‘iga yetgach, og‘zi yelimtek yilmoshib, o‘ziga singura olmay aytikim: “Sen meni qari ko‘rub, kuchsuz sog‘inib, yigitlikingg‘a mag‘rur bo‘lib, yuz ko‘rmay, munungtek yuzsiz so‘z aytting va o‘zung bilmas-musenkim, bu davrda hech kimarsa mening g‘ashimni\* torta olmas va agar gijakim qotsa yigitlarni marakada bo‘ynin yumshatib infiol\* berurman. Yana taxammul\* bobinda aningtekturmenkim, yoychilar qarnlar\* singirimni\* tortadilar – ichimda asrab kishiga dardi dil qilmadim”.

(\* *taarruz* – *qarshilik*; \**g‘ash* – *bu o‘rinda*: *kamon ipi*; \* *infiol* – *xijolat*: *biron narsadan asarlanish*; \* *tahammul* – *sabr, chidam*; \**qarn* – *uzoq muddat, asr*; \**singir* – *pay* (*yoy uchiga bog‘lanadi*).

Yoy, ya'ni qariya maqtanishni davom ettirib, o'zining manbai va manshai Qur'oni Karimda ekanini dalillamoqchi bo'ladi va "himmatli-lar otasi" Qosim Anvorning she'rida ham o'zi haqida bayon qilinganini eslatadi. Bu buyuk shoirning baytida yorning kiprik o'qidan yaralanib, zavqu shavqqa to'lganini iftixor bilan so'zlaydi.

Base, men ul sohibi sarmenkim, Tengri taborak va Taolo jalla jal-lalahu va habibi orasinda – alayhissalom – mendin o'zga kishi mahram ermas erdi. Andoqki, "qoba va qavsayn"\* oyati Qur'onda mendin xabar berur va hazrati sayyid ul – ahror\* amir Qosim Anvor qaddasa allohu sirrahu – meni sendin muqaddam\* tutub, qobil toliblarga ko'rguzub ay-tur. Nazm:

Kamon abru batiram zad zi zavqi tiri mijgonash,

Ba sar g'altidamu guftam fidoyat bod jonam rah!

(Qoshi kamon menga o'q otdi, uning kiprik o'qi zavqidan boshim bilan yiqildimu "jonim yo'lingga fido bo'lsin", dedim).

(\*qoba va qavsayn – ikki yoy oralig'icha; \*sayyidul-ahror – him-matlilar boshlig'i; \*muqaddam – birinchi o'ringa qo'yilgan, ilgari)

Yaqiniy o'z e'tiqodi va maslagini shunchaki aytib qolmaydi, bal-ki o'tmishdoshlaridan Muhammad Mag'ribiy Yoy vasfini qilganini va u ahli Haqqa tavhid sirini xadislar va tavhid yoyiga qo'yib, otganini va shu tariqa yaqinlashtirganini ko'chma ma'noli so'zlar, so'z o'yinlari vo-sitasida bayon qiladi. O'zining kimligini qochirim so'zlar vositasida ifo-dalamoqchi bo'lib, *musahhaf san'ati* vositasida ko'rsatadi. Bu san'atga ko'ra, arab yozuvida "yoy" so'zi teskari yozilganda, "oy" so'zi hosil bo'ladi. "Yoy"ni (ya'ni o'zini) sevikli yorning qoshiga o'xshatib, "oy" deb ta'rif qiladi. Yoy o'z qiyofasini – maqtanchoqligini yana bir karra oshkor qiladi.

Yana mavlono Muhammad Mag'ribiykim, ma'rifat mashriqin qu-yoshtek yorutti, mening vasfimda "Jomi jahonnomoy\*" otli doira tartib qildi va tavhid sirini ahli tahqiq uchun ishorat o'qi birla ahodis va vohi-diyat qavsida kezlay va nomahramlardin bularni mening otimg'a otib, yaqin qildi. Yana ibodat tariqinda maloyikadek avvali umrumdin oxirg'a degru ruku'dadurmen\* va taqvo tavrada aksari avqot chilladurmen. Yana niyozmandliqta\* yaxshi-yamong'a quloq tutarman, har necha manga qu-loq tutmaslar va har qachon izzati bilan xitob qilsalar yo(y) derlar va agar zarofat birla otimni ayursalar, mahub qoshig'a mengzatib oy der-

lar. (\**Jomi jahonnomoy – jahonni ko‘rsatuvchi to‘plam, guruh; \*ruku’ – boshni egish; ikki bukilishi; \*niyozmandliq – muhtojlik, yolvorish.*)

Bayt:

Yangi oy o‘xshar nigorim qoshina,  
Balki ul ham kam ko‘runur qoshina.

Yana bahodurluq maydonida har kimning qurumsog‘ida bo‘lsam, o‘zumni qurbon qilayin derman. Base, har kim mening birla saharxezlik varzish\* qilsa, din va dunyoda barxudor\* bo‘lur. Yana Pahlavon Mahmud Sabzavoriydek qadar andozdurmen\* Senga tegarmukim, o‘zungni ilgaru tashlab o‘ng yonni talashursen”.

(\**varzish – odat, mashq; \*barxudor – foydalanuvchi, bahramand; \*qadar andoz – kuch-qudrat soluvchi.*)

Yoyning bu qadar maqtanib, o‘zini har doim qurbon qilishga tayyor, hammaga kuch-qudrat bilan vahima solishga shayligini aytish bilan birga, O‘qqa, sen o‘zingga munosib bo‘lmagan joyga – o‘ng tomonga, ya‘ni borong‘orga munosib emassan, deb ta‘na qiladi. Bu o‘rinda borong‘or – shohga yoki yuksak lavozimdagi amaldorlarga yaqin o‘rin, joy. O‘q esa Yoyning bu so‘zlarini eshitib, uni ikkyuzlamachi deb ayblaydi. Yoyga, cening egri shakling nuqtai nazaring, qarashlaring bilan birdir, degan ma‘noda so‘zlab, uning boshi, shu bilan birga, yuzi ham ikkita ekani (ya‘ni kamoning ikki uchi) egri tasavvurni keltirib chiqarishini ta‘kidlaydi.

O‘q bu so‘zlarni eshitgach, gaz-gaz sakira boshladi va achchiqtin ayt(t)ikim: “Sening ikki boshing bordurkim, mening yuzumda munungdek da‘volar qilursen. Andoqkim, mavlono Yusuf Amiriy aytur:

Chu abruyi tu kamon xeshro agar dorad,  
Zihi tasavvuri kaji u magar du sar dorad

(Kamon o‘zini sening qoshingga teng tutar ekan, uning boshi ikkita-miki bunday egri tasavvurda bo‘ldi?!)

Yaqiniy hayotiy detallar, xalqona o‘xshatishlar bilan O‘q tilidan Yoyning ojiz va zaif tomonlarini fosh qiladi, O‘q Yoyga, jang paytida sen mening oldimda o‘zingni ojiz sezasan, qo‘rquvdan o‘zingni pana joyga, daraxtlar ortiga olasan, deb uning qo‘rqoqligini fosh qiladi. Bu

bahsda O‘q o‘z qudratini namoyish qilib, qanchalar jasoratli, dushman-  
ni talvasaga solib qo‘yadigan kudratga egaligini namoyish qiladi, u oshiqlarning ko‘nglini ovlaydigan, raqiblarni quvlaydigan qush. U nafaqat qush, balki dushmanning yuragidagi qora dog‘larni parchalab tashlaydigan o‘tkir tig‘ hamdir.

Va har qachon Yazdonbaxshi\* changina tushsang, egriligingni ko‘rub udtek\* o‘tqa tutub, rubobdek qulog‘ingni tulg‘ar va agar g‘urur jomindin esrub boshing bir yon borsa, gushagir qulog‘ingga urub, bo‘g‘achi birla bo‘g‘zungni bo‘g‘ar va agar xato qilsang, o‘ldurur kishilartek bo‘ynungga chirish solurlar. Uyo olmay bahodurluq taloshursen. Base ul emasmusenkim, g‘azo kuni sanchishqali bahodirlar olinda manglay chiqsam, sen qo‘rqunchtin sarg‘arib to‘s\* orasinda yoshunursen va men har qayda yetsam, qolg‘onning al qonin oqizib, yuziga o‘ta chiqarmen. Yana har kimning savob nazari bo‘lsa, xatosiz bulurkim, men qil yorarmen. Yana men ul qushturmenkim, oshiqlarning ko‘nglin ovlab, raqiblarni quvlarman va mening tilimdin muallif aytur. Nazm:

Sar dar payi har kas, ki niham, to baqiyomat,  
Bigurizadu yak chashm zadan nazarad az pas\*

(Men kimning oyog‘iga bosh qo‘ysam, qiyomatgacha mendan qochadiyu bir ko‘z ochib yumguncha ham qayrilib boqmaydi).

Base, otim kayburdur\*, andoqki shoir aytur.

Nazm:

Dog‘yeki, hast bar dili dushman kunad du nim,  
On tiri tez parri tukash nom kayburast

(Kaybur ataluvchi u o‘tkir o‘q dushman dilidagi qora dog‘ni ikkiga bo‘lib tashlaydi).

(*Yazdonbaxsh– Xudo gunohni kechiruvchi; \*ud – olovga solganda xush is beradigan yog‘och; \*to‘s – qayin daraxti; \*kaybur – kamon o‘qining eni enlik turi*)

Munozarada O‘q haybatli qiyofa bilan o‘zini majoziy ma’noda “qanotini qoqib uchib borayotgan qush” sifatida tasvirlar ekan, hammani vahimaga soladigan kuch ekanini uqtiradi. Shu bilan bir qatorda, O‘q uchib borib oshiqlarning qalbiga kirganda, ularning joni chiqmaydi, ularga aslo zarar yetmaydi. Zotan, O‘q – oshiqlar muntazir bo‘lib kutadigan qush.

Qush timsoli – o‘zbek adabiyoti tarixida ilohiy ma’noda ko‘p uchraydi. Munozaradagi “ko‘ngil qushi”, “jon qushi”, “yurak qushi” kabi timsollar aynan ilohiy ma’noda. Yaqiniyning e’tiqodi va maslagi mana shu timsolda ham ochiqroq namoyon bo‘ladi. U tasavvuf axloqi va maslagiga e’tiqod qilgan shoir sifatida O‘q bilan qushni doim yonma-yon qo‘yadi. Ko‘ngil qushi – samoviy Ishq ramzi. Yaqiniy O‘qni “qush” timsoliga mengzaganda, oshiqlar bu “qush”ni havodan – samodan topadilar. Shoir o‘z nuqtai nazarini “muallif”, ya’ni o‘zining baytlari orqali ifodalaydi.

Base, har qayda sevirtek qanotimni yoysam, mening sahmimdin\* qocharning arvohi uchar va agar tug‘doriga\* tuzlarda yo‘luqsam, mening vahmimdin yozilarni bulg‘ar va agar tog‘lar orasida jayron ko‘zluk mo‘g‘ulchinu xitoylarning novakidek irg‘olining qo‘lig‘a tikilsam qonig‘a kirarman. Andoqki, muallif aytur. Bayt:

Novaking kirsra kiyikning qonig‘a,  
Hech hayi(q)mas etibon guna yozuq.

Base, goho inoyattin aliftek oshiqlarning joni orasig‘a kirarmen va goho o‘q bila naydek har kimga qadalsam, mening zahrимdin jon eltmas. Yana men ul qushturmenkim, oshiqlar meni havodin tutarlar. Andoqki, muallif aytur.

Bayt:  
Havo qilsa o‘qung jon saydi uchun,  
Ani ko‘nglum qushi tutqay havodin.

Gar havo qilsa yuraktin o‘tgali novaklaring,  
Jon bila ko‘nglum qushi tutqay havodin, ey begim.

(\*sahm – qqo‘rquv, xavf; \* tug‘dori – tuvadoq nomli yirik qush.)

Yaqiniy jon qushini oshiqlarning umumlashma obrazi sifatida yaratadi. Oshiqlar o‘zlikdan voz kechib, jon qushining qanoti bilan uchadilar, hatto jon qushining bir dona patini topganlarida, bu qanotdir, deb o‘zlarida yo‘q shod bo‘ladilar.

Yana jarosundek yigitlar maydonda mening qanotim birla ucharlar. Yana men ul xumoyi avji\* izzatturmenkim, agar parvoz qilsam forig‘bol\* ozodalar\* mening yungumni jon qushining qanoti deb quvonurlar. Andoqki, Xojagi Atoyi aytur:

Bayt:

Ul shahsuvor tirkashining o‘qining yungi,  
Jon qushining tiriklata yulg‘on qanotidur.

Yana agar karvonlarga badraqa\* bo‘lmasa, yo‘lni oziqular va men badraqasiz yo‘lni tuz borurmen. Base, har qayda tarozu bo‘lsam, meni tortay degan kishilar jon tortarlar. Andoqki, Xoja Xisrav Dehlaviy mahbub engindin jong‘a tegib, aytur:

Dar dilam tirat tarozu meshavad,

K-az daruni sina jonro bar kashad

(Dilimda o‘qing tarozu bo‘lib, ko‘ksimdagi jonni tortadi).

Yana nayshakarkim, imon halovatining totli so‘zidindur, mening birla bir yerda butub ulg‘ayibtur. Ey uyotsiz Yo(y), sen meni ko‘rgach, qo‘rquv sahmimdin\* o‘zungga to‘ldurursen”.

(\*xumoyi avji – yuqoridagi xumo qushi; \*forig‘bol – xotirjam; \*ozodalar – to‘g‘ri, aybsiz; g‘amsiz; \*badra – rahbar, yo‘llovchi; \*sahm – yoy o‘qi; hissa, ulush)

Yoy endi O‘qning ustidan kuladi, O‘qqa malomat qilib, sen o‘qchilar bilan hamsuhbat bo‘lganing uchun ustingdagi barglaringni yulib olib, ichingni yordilar, deb uni masxaralaydi. Yoy ojiz kimsalarning qiyofasini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalan tiradi, chunki u ojiz, ishq dardidan tamomila begona, O‘q singari o‘z qudratini, e‘tiqod va maslagini zohir qila olmaydi. Yoy har doim tavoze‘ bilan egilib turgani bois, O‘qda mavjud bo‘lgan ishq dardini u his qilishdan mahrum. Bunday kimsalarning dardi, Yaqiniyning nazarida, faqat amalga erishish, tomoq tashvishi. O‘qning “xokiyi xoksor”ligini Yoy o‘z dunyoqarashi bo‘yicha o‘lchaydi.

Yoy bu yo‘lo‘ki so‘zlarni eshitgach, bag‘ri qotg‘uncha kuldi. Ammo bir zarra yumshamadi. Qattiq so‘z boshlab ayitti: “Andoqkim, jununiy shoir aytibtur. Bayt:

Man on nayamki, zi tiri malomat andesham,

G‘ulomi ro‘yi kamon abro‘voni badkesham

(Men malomat o‘qidan qo‘rqadiganlardan emasman, lekin fe‘li yomon kamon qoshli yuzlarning quliman).

Yana seni o‘qchilar band-band qilib, o‘rtangdin yormog‘uncha mening birla qovusha olmading. Base, o‘g‘rilar birlan hamsuhbatliq



qilg'on(ing) uchun bargi nay to'nungni so'yub, ichingni yordilar.

Ey xokiya xoksor, necha o'zungni ranj tutarsen, ey g'ayratsiz, bir boshqoq uchun har butaning tubinda xo'shachinlartek\* tufroqqa botib, xirmoningni yelga berursen. Base, pahlavonlar qoshida mening evimdin qochib, yoziyobonda boshingga tufroq sovurursen. Emdi sanga bu jur'at qaydin paydo bo'ldikim, mening olimda tuz turub, o'q uchidin so'zlashursen va meni payvasta sohib husnlar qoshina mengzatib ayturlar. Nazm:

On du abro'yi muqavvas du kamonand baland,  
Ki ba sad qarn chunin turfa kamon notavon soxt

(U egma qoshlar ikki yuksak kamondir. Bu xildagi ajoyib kamonni yuz asrda ham yasab bo'lmaydi)

Yana oshiqqlar ma'shuqa qoshina payvasta tashbih uchun o'qurlar.

Bayt:

Har kujo murg'i dile bol kushoyad, filhol,

Ba kamon gushai abru z havosh andozad

(Yurak qushi har qayerda qanot qoqsa ham, darhol qoshning kamon go'shasiga kelib yiqiladi).

(\*xo'shachin – boshqochi, mashoq teruvchi.)

Yoyning ta'na-dashnomlarini, haqoratomuz gaplarini eshitgan O'q uni nodonlikda ayblaydi. Shu o'rinda Yoyning yuqoridagi nutqi bilan O'qning quyidagi nutqini solishtirish ham har ikkalasining aql-farosatini, didini ko'rsatib turadi. Yaqiniy Yoyning ham, O'qning ham da'volarini keltirar ekan, har ikkalasining dalil-isbotlarini kitobxon sharhlashiga o'rin qoldirmaydi. Har ikkalasining nutqidan ularning qiyofasini chizib beradi. Yuqorida Yoy tilidan keltirilgan baytlarda shu ma'no anglashiladiki, u o'z manfaatini o'ta jo'nlik bilan himoya qiladi, yorning kamon qoshlarini Yoy oldi-qochdi so'zlar bilan tenglashtiradi. O'q o'z qarashlarini buyuk shoirlar Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Xoja Salmon Sovajiy, Sakkokiy, Lutfiy va Yaqiniy kabi qator shoirlarning baytlari orqali dalillaydi. Bu shoirlar baytlarida O'q timsoli goh yorning sarv qomatini, goh ma'naviy qiyofasini, goh yorning o'tli, g'amzali nigohini, goh oshiqni o'tli azoblarga solgan ma'shuqaning kiborligini ta'rifu tavsif qiladi.

Base, O'q bu so'zlarni eshitgach, ayittikim: "Zihi\*, nodonki, sensen! Magar qarigan jihattin harif\* bo'lubsenki, o'zungni tiya tutmay-

sen!” Base, shayxi fasohatki\* gulistonda bulbultek hazor dostoni bordur, meni guluzor qomatina tashbih qilib aytur. Nazm:

Birabud dilam dar chamane sarvi ravone,

Zarrin kamare, tir qade mo‘r miyone

(Dilini chamanda bir sarvi ravon, zarrin kamar, o‘qday tik qadli, xipcha bel maftun qildi).

Base, Xoja Hofiz Shercziy meni mustajobu\* da‘vatlarning duosi deb aytur. Nazm:

Az har garona tiri duo kardaam ravon,

Boshad kazon miyona yake korgar shavad

(Har chekkadan duo o‘qini yo‘lladim, shoyadki ulardan birortasi asir qilib olsa)

Base, Xoja Kamolki, latofat va zarofat bobiinda sohib kamol erdi, meni norvan\* qomatli, siym\* andomlar\* qaddina tashbih qilib aytur.

Nazm:

Harki, bar tiri kadashe chashme nameduzad, Kamol,

Rostiro rost boyad duxtai chashmash ba tir

(Ey Kamol, har kim uning o‘qdek (to‘g‘ri) qaddiga ko‘z tikolmaydi.

Chunki to‘g‘ri narsaga to‘g‘ri ko‘z bilan qarash, uning (makkor) ko‘zini esa o‘q bilan tikish kerak)

Yana Xoja Salmon shamshoddek rostfigimni ko‘rub, meni dilshod g‘amzasina mengzatib aytur. Bayt:

Tiri xadangi az joni mo guzasht,

Bar mo zi g‘amzayi tu chi go‘yam, chiho guzasht?

(G‘amzaning qattiq o‘qi jonimizdan o‘tdi, dildan yuz oh o‘qini tor-taman).

Yana Sakkokiykim, turk shoirlarining mujtahididir, mening munosib holimg‘a aytur. Nazm:

Jonim fido bo‘lsun sening g‘amzang o‘qina nechakim,

Har necha qoshing egmasi o‘qtek bo‘yumni yo qilur.

Yana Mavlono Lutfiyki, lutfi tab birla zurafo orasinda mashhur erur. Meni jafochi bevafo mahbublarning g‘amzasi deb aytur.

Xadangi g‘amzasini ko‘rgach ayttim:

“Maning jonimg‘a o‘t solg‘on sen-o‘q sen!”

Yana muallifki, ushshoq\* aro muhabbat o‘qina nishona bo‘ldi, meni ohga nisbat qilib aytur. Bayt:

Zi dil bar mekasham sad novaki oh

Ki, az jon biguzarad tiri tu nogoh

(Sening o‘qing nogoh jondan o‘tsa, dildan yuz oh o‘qini tortaman)

Yana sen ziyoda sarliq qilib o‘zungni xo‘blar qoshina mengzatqon(ing) uchun, muvofiqi holing‘a biaynihi\* muallif aytur.  
Nazm:

Ba abruyi tu ki, dar ayni dilbari toqast,

Gumoni (kaj)ki, kamonrost az piyoda sarast

(Ayni dilbarlikda toq bo‘lgan qoshing to‘g‘risida kamoning egri gumonda bo‘lishi uning mag‘rurligidan boshini yuqori ko‘targanidandur).

(*\*zihi – ofarin, yaxshi; \*harif – qarshi, o‘rtoq, ulfat; \*fasohat – so‘zning ochiq, ravshan, yoqimli bo‘lishi; \*ushubning chiroyliligi; \*mustajob – talabi, qabul etilgan; \*norvan – xushqomat, va serbarg bir daraxt; \*siym – kumush, aqcha, tanga: maj. o‘q; \*andom – jism, gavda, tanosib, o‘xshov; \*ushshoq – oshiqlar; \*biaynih – xuddi o‘zi, yaqin.*)

O‘q Yoyning egriligini va o‘zining to‘g‘riligini aytgach, O‘q oldida mot bo‘lgan Yoy Girishga – Yoy ipiga murojaat qiladi va undan himoya istaydi. Yoy, mening egriligim O‘q tufaylidir, men O‘q uchun ikki bukilganman, deb Girishdan, endi o‘zing bizning o‘rtamizda hakamlik qilgin, deb iltimos qiladi. Girish esa Yoyni himoya qilish maqsadida Zihgirga, O‘q Yoyga zo‘ravonlik qilayпти, deb adolatsizlik bilan hukm chiqaradi.

Yana ayttingkim, maning evimdin qochib, tuz taloshursen deb. Bu so‘zni xud rost ayitting. Agarchi egri senu men rost. Ammo bizning oramizda hech nav’ jinsiyat yo‘qturki, mudom va asliyat bo‘lg‘ay” deb bu ruboiyni o‘qudi:

Bo bad manishinu ham narav xonayi u,

Dar dom biyofiti chu xo‘ri donayi u.

Tir az sari rosti kamonro kaj did,

Didi ki, chi guna jast az xonayi u

(Yomon bilan o‘tirma, ham borma uning uyiga,

Agar uning donidan yesang, tuzoqqa tushasan,

O‘q rostlik orqasidan egri qalb kamoning

Uyidan qanday jo‘nab qolganini ko‘rdingmi?!)

Base, Yoy O‘qning o‘tkun so‘zlarin eshitib, tahammul ila bilmay, himoyat uchun o‘zin Girishga bog‘ladi va kechgan munozara va mubo-

hasani taqir\* qilib ayttikim: “O‘q sahmidin munungtek ikki bukulub-turmen va yillardurkim, Zihgir (ila) birga bosh qo‘shub, seni barlos deb xizmatingg‘a turubturbiz.

Emdi Tengri uchun bizning oramizda hakam bo‘lub hakamlardek bu bahsni ayri qil”.

Girish bu so‘zni eshitgach, xomlig‘idin pechu tob\* urub, suman bo‘ylar sunbulidek o‘ziga to‘lg‘onib tob keltura olmay, Zihgirga ayttiki: “Agar men barlos bo‘lsam, sen tarxondursen. Ravo bo‘lg‘aykim, Yo(y) kuch qilmay, O‘q Yo(y)g‘a kuch qilg‘oy. Emdi maslahat uldurkim, ani andoq iroq tashladikim Yo(y)ning to‘rini to‘tiyo qilib topmag‘ay”.

(*\*taqir – qaror berish. maqsadni og‘gaki anglatish; \*pechu tob – iztirob; maj.: siqilish, qiynalish.*)

)

Yaqiniy Zihgirning hukmi orqali o‘z davridagi ijtimoiy adolatsizliklarni fosh qiladi.

Yaqiniy asari nihoyasida o‘z munozarasining asosiy maqsadini ochiq bayon qiladi. U harbiy hayotdan yoki saroy hayotidan ko‘ra, ko‘proq insonlar bilan yuqori tabaqa o‘rtasidagi munosabatlarga, insoniy axloqqa asosiy e‘tiborni qaratadi. Hayotdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni oydinlashtirish uchun Yaqiniy asarni quyidagicha xulosalaydi: odamlar zamonning qing‘ir fe‘lli hukmdorlar oldida Yoy singari egri bo‘lib, har doim ikki bukilib ta‘zim qilib turganlarida, o‘sha a‘yonlarning yonidan joy oladi. Kimki O‘q singari adl bo‘lib, to‘g‘ri yursa, ulardan yiroq ketadi. Yaqiniy o‘zini O‘q timsoliga o‘xshatadi va qarashlarini shoir Asiyning qit‘asi orqali yakunlaydi:

Zihgir eshitgach: “Xush bo‘lg‘ay!” deb yatimona giru bast ko‘rsatib barmog‘ ko‘ziga qo‘ydi. Girish birla ittifoq qilib, O‘qni o‘ziga yaqin torttilar. O‘q alarni o‘zidek rost sog‘inib ilgari borg‘och, Girish og‘zig‘a andoq taptikim, O‘qnung og‘zi to‘la qon bo‘lub, torundek tuban qaro yerg‘a kirdi va bu munozaradin maqsad ulkim, bu davrnung kaj tablari-ning\* qoshinda har kim Yo(y)dek egra bo‘lsa. Yonlaridin qoshinda har kim Yo(y)dek egri bo‘lsa, yonlaridin yiroq bo‘lmas va har kim O‘qtek rost bo‘lub, tuz yurusa, Yaqiniytek yiroq tushar andoqki, Asiy shoirning qit‘asi bu so‘zning rostlig‘iga go‘yodur:

Har ki shud rost andarin maydon,

Har kujo raft behuzur uftod.

Az kaji shud kamon ba pahluyi shoh,  
Tir az rosti ba dur uftod  
(Kimiki bu maydonda rost bo'lsa,  
Qayerga borsa ham behalovat bo'lib tushadi.  
Kamon egriligi tufayli shoh yonidan joy oldi,  
O'q esa rostlikdan uzoqlarga borib tushdi)  
Agarchi bu so'zning sohati\* vasi'\* erdi, shani\*' ko'rungay, deb  
so'z iqtisori\* bo'ldi. Umid ulkim, rost tabiat, mustaqim\* zehnlarning ma-  
hakida\* bu naqd tamom iyor\* bo'lg'ay va bu sahmani mutolia qilib, bu  
nomaning silasi\* o'rni'ga azizlardan tavaquq\*' ulkim. Nazm:

Yaqiniyning ravoni shod qilg'ay,

Duoyi xayr birlan yod qilg'ay.

Tugandi O'q –Yoyning munozarasi. Vallohu a'lam.

(\*kaj tab – qing 'ir fe'l-atvorli; \*sohat – maydon, keng joy; \*vasi' – keng; \*shani' – yomon, xunuk, yaramas; \*iqtisori – qisqartirish, chegaralash; \*mustaqim – to'g'ri, halol, bir joyda turuvchi; \*mahak – kumush, oltinlarga surtilib, ularning sifatida ajratadigan tosh; \*iyor – oltin, kumush kabi ashyolarning boshqa moddalardan ajratib saralangan; o'lchov; \*sila – in'om, baxshish, evaz; \*tavaquq' – biron ishning voqye' bo'lishiga ko'z tutish; umid bilan qarash)

Girish barlos urug'ini ifoda etib, Zihgir turkiy urug'lardan tarxon urug'iga ishora qiladi. O'q ustidan adolatsiz hukm chiqargan yolg'onchi Zihgir timsoli orqali esa hukmron tabaqaning har qanday adolat va haqiqatni oyoq osti qila olish qudratiga ega ekanini namoyish qiladi.

Jamiyatning illatlari, turli tabaqalar o'rtasidagi manfaatparastlik va yolg'onchilik, munofiqlikni ko'ra-bila turib himoya qilish va boshqa yaramas xulq-atvorlar Yaqiniyini iztirobga soladi. U har bir so'zni, har bir jumlaning hayotiy haqiqatni ro'y-rost ko'rsatish uchun xizmat qildiradi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Yaqiniyning "O'q va Yoy munozarasi" qaysi manbalarga asoslangan?
2. Munozaradagi qaysi obrazlar Yaqiniyning fe'l-atvoriga mos keladi?
3. Munozaraning shakllanishiga qaysi asarlar ta'sir etgan?
4. Asarning debochasi kimning qaysi asarini eslatadi?

5. “O‘q va Yoy munozarasi”ning O‘g‘uzxon haqidagi dostonga qanday bog‘liqlik tomonlari bor?

6. O‘q va Yoy o‘rtasidagi farq nimada ko‘rinadi?

7. Yaqiniyning she‘riy parchalaridan ulkan ijodkor ekanini tasdiqlovchi namunalar keltiring.

8. Yaqiniy O‘q va Yoy obrazlari orqali insonlardagi qaysi fazilatlarini ulug‘laydi, qaysi illatlarni qoralaydi?

## Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asari

### Reja:

1. “Sozlar munozarasi” asarining tuzilishi.
2. Asarning muqaddimasida qo‘yilgan maqsad.
3. Ahmadiy – tasavvuf ilmining bilimdoni.
4. Piri xarobotiy obrazi va sozlar timsoli o‘rtasidagi munosabat.
5. Sozlar o‘rtasidagi bahslarning mazmuni.
6. Udning o‘ziga bergan ta’rifi.
7. Qo‘buzning o‘ziga bergan ta’rifi.
8. Yotug‘onning o‘ziga bergan ta’rifi.
9. Rubobning o‘ziga bergan ta’rifi.
10. G‘ijjakning o‘ziga bergan ta’rifi.
11. Kunguraning o‘ziga bergan ta’rifi.
12. “Sozlar munozarasi”da Ahmadiyning e’tiqodi va maslagi namoyon bo‘lishi.

**“Sozlar munozarasi” asarining tuzilishi.** Ahmadiy haqida biron manbada ma’lumot saqlanib qolmagan. Uning “Sozlar munozarasi” asarining Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmasi o‘tgan asrning 60-yillarida chop etildi.

Asar hamd va na’t bilan boshlanadi, so‘ngra quyidagi qisqa nasriy parcha keltiriladi. Bu parcha asarning yozilish sababi haqida xabar beradi:

Bu bir necha avroqi ahhob iltimosindin rud jomaning arosinda munozara va mubohasa tasnif qilindi va har sozni o‘zga avsof birla oliy qadr xol ta’rif qilindi to ahli tabiatlar andin andak talazzuzi kasb qilsun deb. Valekin bu fanning sohibrozi va bu qissaning suxanpardozi va bu munozaraning murshidi alduoyi almuslimin Ahmadiy ahsan Alloh xotima”.

Bu nasriy parchadan keyin she’riy yo‘l bilan muqaddima boshlanadi. “Sozlar munozarasi” asari masnaviyda *ramali musaddasi maxzuf (foilotun foilotun foilun)* vaznida yozilgan.

**Asarning muqaddimasida qo‘yilgan maqsad.** Ahmadiy muqaddimada o‘zining ichki kechinmalarini, ruhiy dardu azoblarini, xursandchilik o‘rniga zamonning g‘am-tashvishlarini tasvirlaydi. Shoir xoru zorlikda yashayotgani, uning nolalariga faqat xayollarigina hamdard

bo'layotganini ichki bir ruhiy azob bilan qalamga oladi:

Nuql\* g'amu boda yurak qonidin, (\**nuql – may ichganda yeyiladigan shirinlik, meva va yemak.*)

Ul xijil nolishim afg'onidin.

Hardam oqib ko'z yoshidin seli xun,

Jonda alam, boshta havoyi junun.

Shoir dardu g'amlarni bir oz bo'lsa-da unutish uchun tashqariga chiqadi. Shu o'rinda shoir tunni o'zining ichki kechinmalariga monand tarzda tasvirlaydi:

Yulduzu oy ko'kda padidor\* yo'q, (\**padidor – paydo bo'lgan, ko'ringan.*)

Tundin uza partavi anvor\* yo'q. (\**partavi anvor – nur shu'lasi, yorug'ligi.*)

Baytda tasvirlanganiday, shoir g'amgin, ko'ngli vayron holatda ekan, uning bu holatidan o'zining aqlu idroki va xushi hayron. Mana shu o'rinda shoirning asar muqaddimasidan maqsadi oydinlashadi: u ko'ngli vayron holatda xarobotga – mayxonaga keladi:

Keldim o'shal holda jondin batang,

Chig'di xarobotta g'avg'oyi jang.

Xarobotga hech kim xush kayfiyat, xursandlik bilan kirmaydi, balki ko'ngli vayron holda kiradi, u yerda ko'ngliga taskin izlaydi. Xarobot – ruhiy kayfiyat, g'am-anduh ifodasi. Ahmadiyning bu so'fiyona misralari kitobxonni “Piri xarobot” huzuriga olib keladi. “Piri xarobot” – mazkur munozaraning asosiy qahramoni. Munozarada yuz beradigan voqealar – musiqiy asboblarning hammasi ana shu “Piri xarobotiy”ga kelib bog'lanadi. Ahmadiy aytadi: “Men xarobot suviga tezroq yetishgani os-hiqdim. Xarobotga kirib borganimda, esa Piri xarobotiy mast ahvolda yotar, u jomu qadahlarini uloqtirgan, u zotning yonida har tomonda sochilib yotardi”.

**Ahmadiy – tasavvuf ilmining bilimdoni.** Mana shu manzaradan keyin Ahmadiyning so'fiyona talqini, tasavvuf ilmining katta bilimdoni ekani ma'lum bo'ladi. U “xarobot suvi”ga (ya'ni mayxona sharobiga)



oshiqadi, bu degani – u muhabbat shavqidan tatib ko‘rish ishtiyoqida, xuddi Piri xarobotiy singari, muhabbat shavqidan bahramand bo‘lib, mast bo‘lish niyatida oshiqadi deganidir. Shoir, o‘sha Piri xarobot xuddi o‘lik kabi tuproqqa belanib yotar ekan, tanasida pok ruhi bor edi, deya kitobxonni xabardor qiladi. Bugungi kitobxonga Piri xarobotiyning ahvoli g‘ayritabiiy, g‘ayriodatiy bo‘lib tuyulishi mumkin. Pok ruh – qadrli va arzirli narsaga tayanadi, Piri xarobotiydagi ilohiy ruh ham, shoirning nazarida, pok ruhning samarasidir. Ahmadiy so‘fiylik ilmini puxta egalagani ana shu o‘rinlarda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Ahmadiy Piri xarobotiyning holatini tasvirlab bo‘lgach, asar voqeasiga zamin bo‘lgan sozlar tasviriga o‘tadi. Sozlar va Piri xarobotiyning bir-biriga bog‘liq timsollar ekanini Ahmadiy hech qanday ishoralarsiz, talqinlarsiz va tahlillarsiz ko‘rsatib beradi. Zotan, Piri xarobotiy bosh bo‘lgan majlisda hamma sozlar jam’ bo‘lgan. Ular go‘yo bitta pardada chalishga tayyor, hammalari yakdil. Ammo Piri xarobotiy muhabbat shavqidan mast bo‘lgani bois, hamma sozlar maqtanib, o‘zlari chaladigan kuylarni namoyish qilish bilan band edilar.

**Piri xarobotiy obrazi va sozlar timsoli o‘rtasidagi munosabat.** Piri xarobotiy va sozlardan chiqadigan kuylar o‘rtasida xuddi g‘ayritabiiylik borday. Aslida esa Ahmadiy tasavvuf ilmidagi shoir qalbi bilan so‘fiy qalbining bir-biriga hamrohligini ko‘rsatmoqchi, har ikkala toifaning qalbida va hayotida she‘r hamda musiqaning o‘zaro bog‘liqligini aytmoqchi. Tasavvuf badiiy ijod bilan uyg‘unlashgani – tabiiy jarayon. “Tasavvuf o‘z musiqasini, tasviriy san‘atini, raqs san‘atini ham yaratdi va hatto so‘fiyona teatrlar paydo bo‘ldi. Birgina samo‘ning o‘zida ham she‘riyat, ham raqs, ham qo‘shiq, musiqa ishtirok etadi...So‘fiylarning (bu munozaradagi Piri xarobotiy – N.R.) tabiati, botiniy dunyosi she‘ru nag‘ma, musiqaga tashna” bo‘lgan edi (*Komilov N. Tasavvuf.., 141, 142-b.*). Piri xarobotiyning sarxushligi ana shundan.

**Sozlar o‘rtasidagi bahslarning mazmuni.** “Sozlar munozarasi” muqaddimasidan keyin “Mubhas ibtidosi. Avval tanbura so‘zi” hikoyasi bayon qilinadi. Tanbura o‘zaro paydo bo‘lgan bahsu janjalga barham bermoqchi bo‘lib, hammalariga – Ud, Chang, Qo‘buz, Yotug‘on, Rubob, G‘ijjak, Kungura kabi musiqa asboblari navbatma-navbat tanbeh beradi. Tanbura hamma musiqa aboblaridan ustun ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘lib, har biri bilan bahslashadi.

Munozara boshida Tanbura hammadan ustun ekaniga da'vo qilar ekan, mendan chiqadigan kuy toshni ham eritadi, sayroqi qushnikiga o'xshagan ovoz mendan chiqadi, turli usuldagi kuylarning sohibi menman, deb o'ziga ta'rif beradi va hamma musiqa asboblariga javob berishga tayyorligini e'lon qiladi.

**Udning o'ziga bergan ta'rifi.** Birinchi bo'lib Ud o'ziga ta'rif berib, Tanburaga kinoya bilan javob beradi. Ud Tanburaga, men hamman-gizning ustingizdan shohman, hamma maqomlarni bilaman, mendan chiqadigan kuy nihoyatda dardli, hamma sozlar orasida mening nomim ulug', hamma mening sifatlarimni maqtaydi, shu bois xalq orasida otim mashhur bo'ldi, shohlardagi xosiyatlar menda bor, deb nokamtarlik bilan o'zini madh qiladi. Tanbura o'z navbatida Udni bo'yni uzun, aqli qisqalikda, boshdan-oyoq egri bo'lgani uchun usuli yo'q musiqa asbobi ekanlikda ayblab, uning nuqsonlarini yuziga soladi.

**Qo'buzning o'ziga bergan ta'rifi.** Ikkinchi bo'lib Qo'buz o'zini ta'rif qilib, Tanburani masxara qiladi. Qo'buz, ishq gulistonidagi bulbul menman, bironta sayroqi qushning ovozi mening ovozimga yetolmaydi, jamiki kuy usullari mendadir, hamma ertayu kech meni eshitishga mushtiq, xushta'b odamlar meni chetlab o'tolmaydi, deya o'ziga baho beradi. Tanbura esa Qo'buzni behayolikda ayblab, uning qomatini tobutga o'xshatadi.

**Yotug'onning o'ziga bergan ta'rifi.** Uchinchi bo'lib Yotug'on o'ziga hamdu sano o'qiydi va Tanburaning ustidan kuladi. U, mening martabam hammanikidan ortiq, men singari hunar egasi dunyoda yo'q, deydi. Tanbur esa uning maqtanchoqligiga javoban, senda aslo uyat yo'q, xarraging bo'lmagani uchun sen doim yotasan, deb bir qancha nuqsonlarini uning yuziga soladi.

**Rubobning o'ziga bergan ta'rifi.** To'rtinchi bo'lib Rubob o'zini ta'riflaydi va Tanburaga ta'nayu dashnomlar beradi. Rubob, men oliy-janobligim bilan ajralib turaman, ozodalikda tanhoman, hunar bobida iste'dodliman, deydi va Tanbura aslo odamlarga hamroh bo'la olmagani, u hiylakor, iblisning onasi ekanini arzi hol qiladi. Tanbura esa Rubobga, sen bir lalaygan bandasan, takabbursan, deya uning bir qator ayblarini yuziga soladi.

**G'ijjakning o'ziga bergan ta'rifi.** Beshinchi bo'lib G'ijjak o'ziga ta'rif berib, Tanburaning kamchiliklarini, nuqsonlarini yuziga soladi. G'ijjak o'zi haqida, men sozlar orasida kamondor botirman, mening

nolalarim odamlarning yurak-bag‘rini ezib yuboradi, degan ta‘riflar bilan o‘zini madh qilar ekan, Tanburani, sen nokassan, rasvosan, har xil bo‘lmag‘ur savdolarni boshlab yurasan, deya tanqid qiladi. Tanbura o‘z navbatida G‘ijjakning xasisligini, devu parilar G‘ijjakning ovozig a yig‘ilib kelishlarini, u rasvo G‘ijjakning ovozin faqirlar eshitganlarida, hammalari o‘rtanishlarini bayon qiladi.

**Kunguraning o‘ziga bergan ta‘rifi.** Oltinchi bo‘lib Kungura maqtanib, men ham oxirzamonning g‘avg‘olaridanman, sozlar orasida nuqsonlisi, o‘jari bo‘lsam ham, Tanburaga o‘xshaganlar bilan qarindoshman, uning gaplari bema‘nilikdir, deb javob beradi. Tanbura esa Kunguraga, sening boshing bilan oyog‘ing ikkita qovoq, xolos, senga o‘xshagan rasvolar menga qarindosh emas, dushmandir, seni bu olamdan nomingni o‘chirib yuboraman, axir, sening hamma shayxlaringni men murid qilib oldim-ku, deb undan ustunligini namoyish qiladi.

Shunday qilib, Tanbura bilan olti musiqa asbobi o‘rtasidagi bahs va dahanaki jang tugaydi. Ammo “Sozlar munozarasi” shu bilan nihoyasiga yetmaydi. Bu musiqa asboblarining o‘zaro bahslari orqali Ahmadiyning aytmoqchi bo‘lgan boshqa gapi va ilgari surmoqchi bo‘lgan boshqa g‘oyalari bor. U barcha sozlar timsoli orqali insoniyat jamiyatidagi axloqiy munosabatlarni, inson kundalik hayotda amal qilishi lozim bo‘lgan yaxshi so‘z, yaxshi xulq, yaxshi fe‘l-atvorni o‘rtaga chiqaradi. Kamtarlik, odamiylik, o‘zaro hurmat, halimlik kabi fazilatlar inson axloqining asosiy bezaklaridir. Shu bilan birga, Ahmadiy Rubob tilidan aytgan quyidagi baytlar diqqatni jalb qiladi:

:

Garchi shariatta chu begonamen,  
Ahli tariqat bila hamxonamen.

Balki haqiqat(din) ayurman xabar,  
Ahli dil topsamu sohib nazar.

**“Sozlar munozarasi”da Ahmadiyning e‘tiqodi va maslagi namoyon bo‘lishi.** Yuqorida biz Ahmadiyning e‘tiqodi va maslagi haqida qisqa so‘z yuritgan edik. Shoirning e‘tiqodi va maslagi Tanbura bilan boshqa musiqa asboblari, ayniqsa, Rubob, G‘ijjak bilan bo‘lib o‘tgan bahsda va “Kitob xotimasi”da aniq ochiladi. Bu baytlarda tasavvuf maslagiga mansub shariat, tariqat va haqiqat ahlilari to‘g‘risida so‘z ketyapti.

Bu har uchalasi bir-biriga bog‘liq. Ammo baytlardan anglashilishicha, Rubob shariatni bosib o‘tmasdan o‘zini tariqatga mansub deb qaraydi. Aslida tariqat ahli shariat ahlini aslo inkor etgan emas. Shariat tasavvufning muhim va zaruriy qismi deb qaralgan. Har uchalasi ham ma’naviy tarbiyaning bosqichlari. Suluk yo‘liga kirgan odam har uchalasini bosib o‘tishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, shariat – qat’iy intizom, avomga ham, xosga ham birday tegishli. Tariqat shariatni ham o‘z ichiga oladi. Ammo u shariatdan oldinga ketadi. Buyuk mutasavvufning hammalari buni e’tirof etganlar. Ahmad Yassaviyning nuqtai nazari bo‘yicha ham shunday: biri ikkinchisiz bo‘la olmaydi:

Har kim qilsa tariqatni da’vosini

Avval qadam shariatga qo‘ymoq kerak.

Shariatning ishlarini ado qilib,

Andin so‘ngra bu da’voni qilmoq kerak.

Yoki Yassaviyning quyidagi to‘rtligi ular o‘rtasidagi zich bog‘liqlikni yanada aniqroq ifoda etadi:

Shariatdan murod – yo‘lga kirmoq,

Tariqatdan murod – nafsdan kechmoq.

Haqiqatdan murod – jondin kechmoq,

Jondin kechmay ishq sharobin ichsa bo‘lmas.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, tariqat va haqiqat botiniy rivojlanishning zaruriy ehtiyoji, shariat darajasi qoniqtirmaydigan, jondan kechib ishq sharobini ichishga tayyor turgan alohida shaxslarning tanlagan yo‘lidir (*Komilov N. Tasavvuf... 75-b.*). Ana shu qarashlardan kelib chiqqan holda aytish kerakki, Rubobning xulq-atvori bularning tamomila aksi, u hali bu yo‘lga kirishga tayyor emas. U birini bosib o‘tmasdan ikkinchisiga kirmoq niyatida. Shu boisdan ham Rubobning shariat, tariqat va haqiqat haqidagi qarashlaridan uning bu yo‘l va bosqichlardan bexabarligi ayon bo‘ladi. Qolaversa, Rubobning va boshqa soz asboblarining bir-biriga bo‘lgan qo‘pol, odobsizlarcha munozaralaridan ma’lum bo‘ladiki, ular tasavvuf yo‘lini tanlashga va Piri xarobotiyini o‘zlarining piri deb e’tirof etishga tayyor emas. “Kitob xotimasi”da aynan ana shu yo‘lga kirishning shartlari Piri xarobotiy tomonidan sozlarga uqtiriladi. Munozaradagi sozlar timsoli bilan Piri xarobot obrazi bir-biriga zid qo‘yilgan. Piri xarobot – komil inson timsoli, haqiqat va e’tiqod pokligini o‘zida mujasam etgan obraz. Sozlar esa Piri xarobotiyning tamomila aksi.

Sarxush bo‘lib uxlab yotgan Piri xarobotiy sozlarning g‘avg‘osidan uyg‘onib ketadi. Tanbura ham Piri xarobotiy oldida kiborligidan xijolat bo‘lib, gunohkor faqat uning o‘zigina emas, balki boshqa sozlarda ham ayb borligini unga arz qiladi. Quyidagi baytda hamma sozlar hali Piri xarobotiyini pir deb uning etagidan tutishga erta ekani, unga shogird tushish uchun ular xulq-atvorlarini o‘zgartirishi kerakligi anglashiladi:

Ushbu jamoat bari qovoqbiz,  
Ma’nisi yo‘q botilu bebokbiz.

Shunda Piri xarobot Tanburaga ta’na qilib, sening ham boshqalarining aslo ortiq joying yo‘q, shu bois boshqa sozlarning ko‘nglini ol, deya o‘git beradi. Tanbura kechirim so‘rab, hali **yo‘lsiz** ekanini, boshqa hamma sozlarga xizmatkor bo‘lishga tayyorligini izhor etadi. Shunday qilib, pok ko‘ngillilik ularning orasida hukmron bo‘ldi va bir-birlariga bo‘lgan adovat barham topdi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Sozlar munozarasi”ning tuzilishi haqida ma’lumot bering.
2. Piri xarobotiy qaysi toifaning obrazi?
3. Sozlarning o‘zaro maqtanchoqliklari nimadan dalolat beradi?
4. Yassaviyning hikmatlari bilan bu munozaradagi bog‘liqlik qaysi obrazda va qaysi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi? Tushuntirib bering.

## “Yusuf va Zulayho“ dostoni va shu turkumdagi dostonlar

### Reja:

1. “Qissayi Yusuf” hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlarining paydo bo‘lishi.
2. Bu turkumdagi ilk badiiy asarlar.
3. Qul Ali ijodi.
4. “Qissayi Yusuf”ning mazmuni.
5. “Qissayi Yusuf”da haqiqiy ishq tasviri.
6. “Qissayi Yusuf”ning badiiy xususiyatlari.
7. “Yusuf va Zulayho” dostonining yaratilishi, dostonda davr voqealari.
8. Dostonning qisqacha mazmuni.
9. “Qissayi Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” dostonlaridagi o‘ziga xosliklar.
10. Dostonda tush va kurash motivlari.
- 11 Salim Sulaymonning “Yusuf va Zulayho” dostoni. Dostonning folklor variantlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *qissa, doston, madaniy muhit, xalq og‘zaki ijodi, syujet, g‘oyaviy yo‘nalishi, syujet-kompozitsiya qurilishi, to‘rtlik, ohang, hijolar tengligi, g‘oyaviy o‘xshashlik, ruboiy, majoziy ishq, haqiqiy ishq.*

**“Qissayi Yusuf” hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlarining paydo bo‘lishi.** Shunday asarlar borki, bu asarlarning nomi ayrim xalqlarning adabiyoti tajassumini o‘zida ifoda etadi. “Qissayi Yusuf” yoki “Yusuf” qissalari hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari shunday asarlar jumlasiga kiradi. Bu turkumdagi asarlar Sharq xalqlarida ko‘p tarqalgan. Shu bilan birga, bu dostonlarning variantlari ko‘p.

“Yusuf” qissasi ilk bor Musoning “Ibtido” kitobida uchraydi. Bu kitob miloddan oldingi II ming yillikning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Garchi “Ibtido”da bu asar “Yusuf qissasi” yoki “Yusuf va Zulayho” nomi ostida berilmagan bo‘lsa ham, 37-bobdan Yusuf bilan bog‘liq voqea boshlanadi va Yoqub avlodlari Misrga ko‘chib borib, u yerda o‘rnashganlari, Yusufning vafot etishi bilan “Ibtido” kitobi yakunlanadi. “Ibtido”dagi bu qissa

bora-bora Sharq xalqlari adabiyotiga keng tarqaldi, madaniy-adabiy muhitiga kuchli ta'sir etdi.

Avval aytib o'tganimizdek, Ibn Sinoning "Yusuf" qissasi O'rta Osiyo adabiyotida bu turkumdagi dastlabki asarlardan biridir. Ibn Sinoning bu asariga Qur'oni Karim syujetlari asos bo'lgan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Yusuf voqeasiga oid syujetlarga aka-ukalar o'rtasidagi ziddiyatlar hamda begunohlik va gunoh bilan bog'liq voqealar ta'sir etgan. Bularning ildizi yana "Ibtido" kitobiga va Sharq xalqlari og'zaki ijodiga borib taqaladi.

"Ibtido" kitobida dehqon Qobil chorvador ukasi Hobilga hasad qilib, uni o'ldiradi. Esov bilan Yoqub onalarining qornidayoq bir-birlari bilan kurash boshlaydilar va egizaklar tug'ilib ulg'aygach, Esov o'z to'ng'ichlik huquqini yasmiq shavla evaziga ukasi Yoqubga sotadi. Buning oqibatida ziddiyat kuchayib, Yoqub Esovdan qochib, onasi tug'ilgan yurtga ketishga majbur bo'ladi. Yoqubning hasadgo'y o'g'illari ukalari Yusufni sotib yuboradilar va h.

Begunoh yigit va yomon xotin haqidagi syujetlarning ildizi miloddan oldin XIII asrda hukmronlik qilgan Misr fir'avni Ramzes II davrida Misr adabiyotida shakllangan. Bu davrda yaratilgan syujet ertak bo'lib, asosiy e'tibor adolatning g'alaba qilishiga qaratilgan. Yusuf qissalariga Zulayho obrazi aynan ana shu ertakdan tarqalgan.

Hozirda Sharq adabiyotida yuzdan ortiq Yusuf haqidagi qissalar va "Yusuf va Zulayho" dostonlari mavjudligi aytiladi. Fors adabiyoti ta'sirida gruzin adabiyotida "Yusuf va Zulayho" dostonining paydo bo'lgani noyob adabiy hodisadir<sup>141</sup>.

"Yusuf" turkumidagi qissalar "Yusuf va Zulayho" dostonlariga qaraganda avval paydo bo'lgan. "Yusuf" turkumidagi ilk nasriy va she'riy asarlar O'rta Osiyo adabiy muhitida milodiy IV-VI asrlardayoq paydo bo'lgan edi. Vahob ibn Munabbih, Ibn Abdulla o'zlarining "Qisasul-anbiyo" asarlarida Yusuf bilan bog'liq voqealarga ko'p o'rin berganlar. Tabariy ko'p jildli "Tafsir"ida ham Yusuf syujetiga maxsus to'xtalgan. Abu Nosir (mil.1082) Balx shahrida Qur'oni Karimdagi "Ahsan ul-qasas"ni (ya'ni Yusuf surasini) adabiy jihatdan qayta ishlab, "Anas ul-muridin" asarini yaratgan. Bu asarning turkiycha tarjimasi ham bor.

<sup>141</sup> Руденко М.Б. Литературная и фольклорные версии курдской поэмы «Юсуф и Зелиха». -М.: Главная редакция восточной литературы. 1986. 38-б.

**Bu turkumdagi ilk badiiy asarlar.** Yusuf voqeasiga bag'ishlab yozilgan birinchi badiiy asar Abulqosim Firdavsiyning (934-1020) "Yusuf va Zulayho" dostonidir. Keyingisi Abdurahmon Jomiyning (1314-1492) shu nomdagi asaridir.

Turkiy adabiyotda ilk bor Yusuf syujeti asosida yaratilgan badiiy asar XIII asrda yashagan Qul Alining "Qissayi Yusuf" dostonidir. Shoirning "Qissayi Yusuf" dostoni bugungi kunda tatar adabiyotiga nisbat berilayotgan bo'lsa-da, asar yozilgan davrda hali turkiy qamlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni oxiriga yetmagani uchun, bu asarni umum-turkiy yodgorlik sifatida qarash maqsadga muvofiq. Yana XIII asrning ikkinchi yarmida Kichik Osiyo saljuqiylaridan Sayyod Hamza ham "Yusuf va Zulayho" dostonini yaratgan. 1409-yili Durbek degan shoirga nisbat berib kelinayotgan "Yusuf va Zulayho" dostoni ham o'zbek tilidagi bu an'anaviy dostonning yorqin, mukammal namunalaridandir.

Sharq adabiyotida "Yusuf qissasi" va "Yusuf va Zulayho" dostonlari ko'p uchragani bilan birga, qator variantlarga ega bo'lsa-da, voqealar aynan bir-birini takrorlamaydi. Bu syujet turli xalqlarda qayta ishlandi, har bir xalqning yozma va og'zaki adabiyoti bu syujetga ta'sir etdi, natijada o'ziga xos, mazmunan bir-biridan farq qiladigan mustaqil asarlar paydo bo'ldi. Shu bois Sharq xalqlarida bu turkumdagi dostonlarning g'oyaviy yo'nalishiga va syujet-kompozitsiya qurilishiga ko'ra *to'rt guruhga* ajratish mumkin.

**Birinchi guruhga** Firdavsiyning "Yusuf va Zulayho" dostoni mansub. Bu dostonda asosiy mavzuni Yusuf bilan Zulayhoning bir-biriga bo'lgan qizg'in muhabbati va ularning kechinmalari emas, balki uzoq yillar davomida suyukli o'g'lidan ayriliqda yashagan Yoqubning boshidan kechirgan fojia tashkil qiladi.

**Ikkinchi guruhga** Ibn Sinoning "Yusuf qissasi", Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi "Yusuf alayhissalom qissasi" mansub. Bu qissalar diniy-falsafiy mavzuda – ilohiy ishq mavzusida yozilgan.

**Uchinchi guruhga** Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho"si singari dostonlar mansub. Bu dostonlarda asosiy mavzuni Zulayhoning Yusufga bo'lgan otashin muhabbati, shuningdek, bu muhabbat zamini-dagi "men" va ilohiy ishq tashkil qiladi. Qul Alining "Qissayi Yusuf" asari ham ana shu guruhga mansub.

**To'rtinchi guruhga** kurd shoiri Salim Sulaymonning (XVI) "Yusuf va Zulayho" dostoni mansub. Zulayhoning Yusufga bo'lgan muhab-



batini va Yoqubning farzand dogʻida kuyib-yonganini shoir deyarli bir syujet chizigʻida tasvirlaydi. Shuningdek, oʻzbek adabiyoti tarixida shoir Durbekka nisbat berilayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni ham shu guruhga kiradi.

Barcha “Yusuf” qissalari hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari orasida keng tarqalgan dostonlarni ana shu tarzda guruhlash mumkin. Sharq adabiyotida “poetik oʻzlashtirish” natijasi boʻlgan boshqa “Yusuf” qissalari va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining hammasini mazkur guruhlashga jalb qilish imkoni yoʻq.

Albatta, bunday guruhlanish shartli boʻlib, “Yusuf va Zulayho” dostonlarida majoziy ishqdan koʻra, haqiqiy (ilohiy) ishq ustunlik qiladigan lavhalar koʻp oʻrin egallagan.

XIV-XV asrlar adabiyotida “Yusuf va Zulayho” dostonlari shoirlar ijodining adabiyotdagi oʻrnini va mavqecini belgilaydigan omillardan biri boʻlib qoldi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida keltirgan ayrim maʼlumotlar shundan dalolat beradi. Navoiy Xoja Masʼud Qumiy degan shoir haqida maʼlumot berar ekan, uning masnaviysi puxta, gʻazallari ravon ekanligi haqida toʻxtalib, “Tigʻ va Qalam” munozarasi, “Shams va Qamar” dostoni bilan bir qatorda, “Yusuf va Zulayho” dostoni borligi haqida ham aytib oʻtadi (*Navoiy. MAT. 13-jild. 47-b.*). Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Yusuf qissasini bayon qilar ekan, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Masʼud Iroqiy va boshqa bir qator azizlarning “Yusuf va Zulayho” qissalari hamda boshqa bir qator shoirlarning bu nomdagi asarlari haqida eslatadi. Shuningdek, Navoiy “Inshaalloh umr omon bersa, turk tili bila oʻq” Yusuf haqida doston yozish niyati borligini bayon qiladi (*Navoiy. MAT. 16-jild, 122-b.*).

**Qul Ali ijodi.** Oltin Oʻrda va Temuriylar saltanati davrida oʻzaro madaniy aloqalarning maʼlum izga tushgani adabiy jarayonda ham keskin oʻzgarishlarni paydo qildi. Bu hodisa aynan “Yusuf” qissalari va “Yusuf va Zulayho” dostonlariga ham tegishli. Jumladan, Qul Ali ijodida Ahmad Yassaviyning hikmatlari taʼsiri aniq sezilib turadi. Bu holat esa Qul Ali Yassaviy hikmatlaridan taʼsirlanganini, yassaviylik tariqati yoʻlidan ketganini dalillaydi. Qiyoslash uchun Yassaviyning va Qul Ali ning hikmatlaridan keltiramiz:

Yassaviyda:

Kel cy xayif, bu ishlardin xabar olgʻil,  
Tavba qilib doyim Olloh sari borgʻil.

Qul Xoja Ahmad, dunyolikdin o'tib yong'il,  
Shoyad qilg'ay piru mug'on nazar emdi (*Yassaviy. Hikmatlar. 1990, 187-b.*).

Qul Alida:

Men zaifi hikmat taba sen yondirg'il,  
Pand va hikmat ayitmag'a sen qondirg'il,  
Sadrim ichra madad shamin sen yondirg'il,  
Xatarimni sen munavvar qilg'il emdi (*Tatar adabiyoti tarixi, 1986, 124-b.*).

Har ikkala to'rtlikdagi ohang, hijolar tengligi, g'oyaviy o'xshashlikdan shuni anglash mumkinki, Qul Ali Yassaviyning izdoshi bo'lgani aniq.

Qul Alining tarjimai holi, ijodi haqida biron manbada ma'lumot saqlanib qolmagan. Qul Ali "Qissayi Yusuf" oxirida quyidagi misralarni bitadi:

Buni tuzan zaif banda adi Ali,  
Yigirma to'rt raqam ichra soldi yo'li.

Bu bayt asarning yozilgan yilidan darak beradi. Asar milodiy 1212-yili, ya'ni mo'g'ullar istilosigacha yozilgani bir qancha munozaralar natijasida to'g'ri deb topilgan.

Qul Alining "Qissayi Yusuf" asari yozilgan joy haqida ko'pchilik olimlar to'xtalganlar. Ular, Qul Ali "Qissayi Yusuf" asarini O'rta Osiyoda yaratgan, degan fikrni aytadilar. Jumladan, turkolog A. Krimskiy XX asr boshlarida "Qissayi Yusuf"ning vatani Buxoro yoki O'rta Osiyoning biron o'lkasi bo'lgani ehtimoldan xoli emas, degan fikrni ilgari surgan edi. Tatar olimlari G. Rahim va G.Gaziz bu asarning vatani Movarounnahrda boshqa biron turkiy tilli mamlakat degan fikrda bo'lganlar. Turk olimi M.F. Ko'purilizoda "Qissayi Yusuf"ning vatani "dindor va zohid Xorazm" deb hisoblaydi. A.K.Borovkov ham bu asar O'rta Osiyoda yaratilganini ta'kidlaydi.

Umuman, yuqoridagi olimlarning fikr-qarashlarini va "Qissayi Yusuf"ning til xususiyatlarini inobatga olgan holda (o'g'uz dialekti kuchli ta'sir etgan, *so'ylaylum, delayalum, o'ylayalum* kabi fe'l shakllari va *t* o'rniga *d* tovushining ko'p qo'llangani shuningdek, *-sarsan, -sarsaman* grammatik shakllarining uchrashi), bu asar ko'hna Turkiston zaminida yaratilgan deb aytish mumkin. Qolaversa, Yassaviy hikmatlari

bilan Qul Alining “Qissayi Yusuf”idan keltirilgan parchalarning mavzu, g‘oya, timsollar o‘xshashligi ham bu fikrlarimizga qo‘shimcha dalildir.

Qul Ali “Qissayi Yusuf” asarini ruboiy janrida yozgan. Bu haqda shoir quyidagicha ma’lumot beradi:

Yo darig‘o, tekma kimsa do‘zumadi,  
Fahmi eksuk kimisalar yazumadi.  
Bu zaifing ushbu nazmi azumadi,  
Ruboiyg‘a vazn ichra dutsun emdi.

Qul Ali o‘z hikmatlarida “Yusuf savchi”, “Yusuf nabi” kabi ismlarni bir necha marta qo‘llaydi. Bu bilan “Qissayi Yusuf” dostoni uning ijodida muhim o‘rin tutganiga ishora qiladi.

**“Qissayi Yusuf”ning mazmuni.** Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostoni mazmuni quyidagicha:

Yoqubning o‘n ikki farzandidan o‘n birinchisi Yusuf tush ko‘radi. Tushida quyosh, oy va o‘n bir yulduz unga sajda qilib, bosh egib turgan ekanlar. Yoqub kelajakda bu o‘g‘li akalariga bosh bo‘lishidan alomat ekanini biladi. Yoqubning qizi bu tush voqeasini akalariga yetkazadi. Mojarolar shundan boshlanadi. Yoqub Yusufni boshqa o‘g‘illariga qaraganda ko‘p erkalar, bu ham akalarini g‘aazablantirardi. Akalari Yusufni o‘ldirish niyatida sahroga olib chiqadilar. Yahudo ukalariga qarshi chiqib, uni o‘ldirmaylik, deya ukalarini ko‘ndiradi. Yusufni quduqqa tashlaydilar. Akalar uyga – Yoqubning oldiga kelib, Yusufni bo‘ri yedi, mana alomati, deb Yusufning echki qoniga bo‘yalgan kiyimini ko‘rsatadilar.

Savdo safaridan qaytayotgan karvon boshlig‘i Malik Tojir Yusufni quduqdan chiqarib, uni Misrga olib ketadi. U Yusufni Misrda qul qilib sotadi. Yusuf ko‘p mashaqqatlar chekadi, ammo sabr qiladi, aqli, farosati orqali Misr mamlakati boshliqlaridan biri bo‘ladi. Bu – dostonning bir syujet chizig‘i. Ikkinchi syujet chizig‘i Zulayho bilan bog‘liq voqealardir.

Zulayho – Mag‘rib (Afrika) podshosi Taymusning qizi. Zulayho tush ko‘rib, tushida Yusufga oshiq bo‘lib qoladi. Yusuf ham tushida uni yaxshi ko‘rganini bildiraroq, o‘zining Misr azizi bo‘lishini ayon qiladi va Zulayhoning taklifini qabul qilarkan, bir oz sabr qilib turishini so‘raydi. Taymus shoh Misr aziziga yakkayu yagona qizini berishga rozi bo‘ladi.

Misrdan qudalar kelgach, Taymus shoh qizi Zulayhoni ko‘p mol-mulk bilan Misr aziziga uzatadi. Zulayho podshoh saroyiga kirganda, tushida ko‘rgan go‘zal Yusufni emas, balki Misr azizi o‘rnida bir qari cholni ko‘radi. Zulayho juda qayg‘uradi. Hamroh bo‘lib kelganlar unga, sabr qilgin, deb tasalli beradilar.

Malik Tojir Yusufni bozorga olib chiqadi. Zulayho o‘sha yerda Yusufning go‘zalligini ko‘rib, xushidan ketadi. Misr azizi Yusufni ko‘p oltin evaziga sotib oladi va Zulayhoning tarbiyasiga topishiradi.

Zulayho Yusufga har kuni shoyi va ipak kiyimlar kiydiradi, uning uzun sochlarini tarab, xushbo‘y moddalar surtadi. Nihoyat, sevgi alangasi yuzaga chiqadi. Zulayhoning enagasi maxsus saroy soldirib, Zulayho o‘ylaganday bezatadi va Yusufga bo‘lgan sevgisini u bilan maslahat qiladi. Yusuf Zulayhoning xonasidan qochib chiqayotganda, uning ortidan Zulayho tashlanadi. Buni aziz ko‘rib qoladi. Zulayho Yusufni ayblaydi, aziz esa Yusufni himoya qiladi. Yusufning o‘zi ham gunohsizligini aytadi. Ammo Zulayho Yusufni zindonga tashlatadi.

Yusuf zindonda yotgan paytda, Zulayhodagi sevgi o‘ti so‘nmasdan, tobora alanglanadi. Misr azizi endi bu olamdan o‘tgan, Zulayho tul qolgan, yuzlarini ajin bosgan, ko‘zlari ham ko‘rmay qolgan. Hamon Yusufga bo‘lgan muhabbati bilan yashayotgan edi.

Mamlakat boshqaruvi Malik Rayyonga qoladi. Bir payt u ham tush ko‘radi va ko‘rgan tushidan qattiq bezovta bo‘ladi.

Yusuf Malik Rayyonga tushini ta’birlab beradi: yetti yil to‘qchilikdan keyin yetti yil ocharchilik bo‘lishini, xazinada don g‘amlash kerakligini aytadi. Yusufning aqlliligini ko‘rib Malik Rayyon mamlakatni idora etishni Yusufga topshiradi. Endi Yusuf Zulayhoga uylanadi.

Kan‘onda ham ocharchilik boshlangach, Yoqub o‘g‘illarini don olib kelish uchun Misrga yuboradi. Akalari ikkinchi marta kelishiga Yusuf saroy qurdirib qo‘yadi va boshidan o‘tgan voqealarni devorlarga surat qilib ishlatadi. Akalari bu suratlarni ko‘rib, Yusufni taniydilar. Yusuf otasini ham Misrga oldirib keladi.

Qul Alining “Qissayi Yusuf” asarining qisqa mazmuni ana shundan iborat. Yusuf bilan bog‘liq an’anaviy syujet bu qissaning zaminida yotgani aniq sezilib turadi.

**“Qissayi Yusuf”da haqiqiy ishq tasviri.** Yusufning Zulayhoga, Zulayhoning Yusufga bo‘lgan sevgisi ilohiy ishq timsolidan dalolat-

dir. Qul Ali Zulayhoning Yusufga bo‘lgan muhabbatini tasvirlar ekan, hamma narsadan, hammaning har qanday so‘zidan faqat “Yusuf!” degan sado keladi. Ishqning, Haq ishqining mukammal timsolini Qul Ali quyidagicha ta’riflaydi:

Mushkul holg‘a dushdi ul anda keyin,  
Bir soatqa ko‘rmasa Yusuf yuzin,  
Sabri qolmaz, anglamaz kimsa so‘zin,  
Ne so‘zlasa, “Yusuf!” deyu so‘zlar emdi.

Ba’d azin tanangdan qon oldirsa,  
Hajjom aning tomirina nishtar urasa,  
Kela el xol qoni oqib yera tomsa,  
Yer uza “Yusuf!” deyu yozilir emdi.

Zulayho majoziy ishq jarayonida sinovdan o‘tadi, haqiqiy ishqqa yetishish uchun uning tani xuddi xas singari yonadi. Zulayhoning majoziy ishq uchun Yusuf asosiy vositadir. Yusufning cheksiz husni Zulayhoni xasta qilgan, u to Yusufga yetishgunga qadar chekkan ixtiroblari, dardlari – hajr qiynog‘i. Yuqoridagi ikki ruboiydagi hijron Zulayhoni aqli-hushidan ayirgan, uning uchun hamma narsa, butun borliq Yusuf bo‘lib jilvalanadi. Hatto tabib uni jismonan xasta deb qon oladigan bo‘lsa, yerga oqqan qon ham “Yusuf!” degan ismni tuproqqa yozadi.

Qul Ali Ishqning bu timsolini yana bir o‘rinda shunday tasvirlaydi: Zulayho va ayollar o‘tirgan uyga Yusuf kirib kelganda, sabzi to‘g‘rayotgan ayollar Yusufning husnini ko‘rib, unga shunchalik mahliyo bo‘lib qoladilarki, hatto sabzi o‘rniga barmoqlarini to‘g‘raganlarini sezmaydilar. Umuman, Zulayho – ilohiy Ishq timsolini o‘zida mujassam etgan. Shu bilan bir qatorda, Zulayho qul bozorida Yusufni ko‘rganda, hushdan ketib qolgan edi. chunki Zulayhoda ilohiy qudrat bor bo‘yi bilan namoyon bo‘lgan, u ilohiy oshiqlikning timsoli bo‘lib yuzaga chiqqan edi.

“Qissayi Yusuf”ning vatani “dindor va zohid Xorazm” deb fikr bildirgan F.Ko‘purilizodaning qarashi haqiqatga yaqin ekani haqiqiy ishq timsolida ham yana bir bor o‘z isbotini topadi.

**“Qissayi Yusuf”ning badiiy xususiyatlari.** Yuqorida “Qissayi Yusuf”dan keltirilgan parchalar shuni ko‘rsatadiki, asarning tili sodda. Qul Ali xalq tilini, xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan, xalq og‘zaki ijodidagi badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalangan. Masalan, xalq jonli

so‘zlashuv tilida azaldan qo‘llanib kelgan *to‘lin oy, sabo* (tonggi shaboda), *bolshakar erin* kabi poetik so‘zlar, *inju tosh* kabi an’anaviy obrazlar mumtoz adabiyotda keyingi davrlarda ham qo‘llanib kelgan. Jumladan, *to‘lin oy* iborasi yorning yuziga nisbatan ilk bor “Devonu lug‘atit-turk”da qo‘llangan. Shuningdek, *bag‘ri yonib, ko‘zga surma tortib, ko‘zga ilmay, quloq tutib tinglab* kabi metaforalar va iboralar Qul Alining xalq tilini yaxshi bilganidan, so‘z tanlashda didli shoir ekanidan dalolatdir.

O‘zbek tilida *non-tuz hurmati, non-tuzini yemoq* kabi iboralar bor va bu ibora odamlarning bir-biriga o‘zaro hurmatini, bir-biriga bo‘lgan samimiyatini bildiradi. Bu so‘z Qoraxoniylar davri adabiyotida mavjud. Hozirgi o‘zbek tilidagi *non* so‘zi “Qissayi Yusuf”da *etmak* tarzida qo‘llanadi. Yusuf akalariga qarata “*Siz tuz-etmak bilmadingiz*” deb ta’na qiladi. *Etmak* so‘zi o‘g‘uz tillariga oid turkiy tillarda, jumladan, hozirgi turk tilida *ekmak* tarzida saqlanganini aytib o‘tishimiz o‘rinlidir.

Go‘zallikni, asosan, ma‘shuqaning go‘zalligini tasvirlash uchun “Qissayi Yusuf”da ko‘plab o‘xshatishlar qo‘llanadi. Quyidagi misralarga e’tibor beraylik:

*Yosh olmadin* latifroq iyaklaring...

Yangi bitmish *dal chibiqday* barmaqlaring...

Kitobxon ko‘z o‘ngida yorning qiyofasi, nozikligi, jismining barcha a‘zolari mutanosibligi gavdalanadi. Mazkur misralardagi *yosh olmay, dal chibiqday* kabi xalqona o‘xshatishlar ham mazkur dostonning muhim badiiy xususiyatlarini ifoda etadi.

**“Yusuf va Zulayho” dostonining yaratilishi, dostonda davr voqealari.** Endi o‘zbek adabiyotida Durbekka nisbat berilayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni haqida ayrim ma’lumotlarga to‘xtalamiz. Avvalo, mazkur “Yusuf va Zulayho” dostonining muallifi haqida. Uzoq yillardan beri “Yusuf va Zulayho” dostonining muallifini ba’zi olimlar Durbek emas, Ulug‘bek deb aytadilar. Ba’zilar esa Homidiy Balxiy degan fikrdadirlar<sup>142</sup>. O‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan bilimdon olimlari ye.E.Bertels, H.Zarifov, Oybek, P.Shamsiev, O.Sharafuddinov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallayev kabilar “Yusuf va Zulayho” dostonining muallifi Durbek deb ta’kidlaydilar va doston Durbek muallifligida bir necha marta chop etilgan.

<sup>142</sup> Bu haqda qarang: O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 1-tom. T.: “Fan” nashriyoti, 1977, 278-279-b.

Durbekning hayoti, ijodi, shuningdek, mazkur doston haqida faqatgina “Yusuf va Zulayho” dostonidan ma’lumot topish mumkin. Dostonning yozilishi haqida shoir quyidagicha ma’lumot beradi:

“Zod” cdi ta’rix taqi “hye”yu “dol”,  
Muddati hijratdin o’tub mohu sol.

Arab harflari bilan ifodalangan abjad hisobiga ko‘ra, “zod” harfi – 800, “hye” – 8, “dol” – 4 ga teng keladi. Har uchala sonning yig‘indisi 812 bo‘ladi. Hijriy hisobidagi bu yil raqami milodiy 1409-yilga to‘g‘ri keladi.

Dostonning Balx shahrida yozilganini asarning debochasida shoir keltirgan ma’lumotlar tasdiqlaydi:

Balx erur dahrda ummul bulod,  
Mazhari islomu taqi adlu dod...

Qal’ai Balx o’ldi chu darvozaband,  
Poyai zulm o’ldi bag’oyat baland.

Bu misralardan keyin shoir Balx qamali paytida shahar ichkarisi va tashqarisidagi ahvolni tasvirlaydi. Shahar ichkarisi xuddi “do‘zax kabi zindon”ga aylangan, odamlarning ohu fig‘onlari bilan to‘lib ketgan, xalq ko‘z oldiga faqat nonni keltiradi, ko‘z yoshlari obi ravonday oqadi va h.. Shahar tashqarisida esa farvonlik, xuddi jannatga o‘xshaydi, hamma yoq ko‘kalamzor, odamlar bir-biri bilan gulzorlarda suhbat qurgan, betashvish hayot hukm suradi.

Shoir, doston debochasida yozishicha, shahar ichidagi xalq bilan birga qamalda uch oy yashaydi, yuz bergan voqealarni, odamlarning ahvolini, kayfiyatini kuzatadi. Shoir asarda tasvirlagan voqealar milodiy 1409-yili yuz bergan. Shohruh Hirotdan Balxga tomon 1409-yilning iyyulida jo‘nagan va 10 sentyabrda Balxdan chiqib, Amudaryo orqali kechib o‘tgan. Mana shu muddat oralig‘ida Shohruh Mirzo Balx shahrini qamal qilib turgan. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asarida hikoya qilishicha, Amir Temur Xuroson saltanatini tuzib, Balx, Qunduz, Badaxshon, Hisor kabi bir qancha shaharlarni uchinchi o‘g‘li Mironshohga suyurg‘ol qilib bergan edi. Shohruh kurashib,

bu o'lkalarni tortib oldi. Ana o'sha voqealarning oqibatini muallif doston debochasida qisqagina hikoya qilgan.

**Dostonning qisqacha mazmuni.** Dostonning boshlanishida Yoqubning o'n ikkita o'g'li va Yusufning alohida ta'rifi, akalari Yusufni yomon ko'rib qolganlari va buning sababi, Yusufning ko'rgan tushi va tushni Yoqubga hamda akalariga aytgani, Yusufni akalari cho'lga olib ketganlari va uni chohga tashlaganlari, Yusufning chohda qilgan inonot-joti kabi voqealar hikoya qilinadi. Bu voqealar Qul Alining "Qissayi Yusuf" dostoniga hamohang. Shuning uchun voqealar har ikkala dostonda farq qiladigan o'rindan boshlaymiz.

Misrda Maliki Tojir degan bir butparast savdogar Yusufni tushida ko'radi va uni izlab Kan'onga – akalari Yusufni tashlagan chohga keladi. Yusufni u chohda ko'radi. Yusufni akalari yigirma diramga sotadilar. Malik Yusufni bandi qilib olib ketadi. Yusuf onasi qabri oldiga kelganda tuyadan o'zini tashlab tushib qoladi va onasining qabrini quchib, nola bilan shunday deydi:

Dedi: "Ayo mushfiq zabo onam!

Kuydi bu band ichida miskin tanam!

Qul bila zanjir erur hamdamim,

Yegay eding bu dunyoda bo'lsang g'amim...

Malik Yusufni yo'qotganini bilib qolgandan keyin, bir qulni yuborib toptirib keladi. Yusuf yig'lab, Haqqa sig'inadi, shunda yomg'ir yog'ib to'fon ko'tariladi. Qul Yusufni Malik oldiga olib kelib, uning iltijosi bilan yomg'ir yog'ib to'fon ko'tarilganini aytgandan keyin, Malik Yusufning oyog'iga bosh urib, bu falokatlarini to'xtatishni so'raydi. Yusuf Haqqa iltijo qilgandan keyin, to'fon to'xtaydi. Shundan so'ng Yusuf o'zga dinga mansub bo'lgan xalqlar mamlakatiga boradi. U bu o'lka hokimi bilan suhbat quradi. Yusufning husniga o'lka hokimi ham, barcha xalqlar ham mahliyo bo'lib qoladilar. Yusuf o'z husni ta'siri hamda aqlzakovat qudrati bilan ularni maftun qiladi. U o'lka hukmdorini adolatli, xalqni hamjihat bo'lishga da'vat etib, nasihatlar qiladi va yana yo'lga ravona bo'ladi. U Nil daryosi bo'yiga keladi. Maliki Tojir Yusufni Misrga olib kelib, sotmoqchi bo'ladi. Mag'rib podshohining qizi Zulayho Yusufni tushida ko'rib, sevib qoladi. Mag'rib shohi Taymus shoh Misr shohi Azizga elchi yuborib, menga pushti panoh bo'lsangiz, deb iltimos



qiladi. Azizi Misr elchilarni yaxshi qabul qiladi va Taymus shoh Zulayhoni Misrga ko'chiradi.

Azizi Misr Yusuf to'g'risida eshitib, uni Maliki Tojirdan sotib oladi. Ko'shk ustida o'tirgan Zulayho Yusufni ko'rib qoladi. Zulayhoning enagasi Yusufga borib, sakkiz yildan beri Zulayho sening ishqingda kuyadi, deydi. Yusuf ham Zulayhoni tushida ko'rganini enagaga aytadi. Enaga Yusufning so'zlarini Zulayhoga yetkazadi. Zulayho Yusufning ishqida kuyib-yonadi. Barcha beklarning xotinalari kelib, Zulayhoga nasihat qiladilar. Zulayho yashirincha enagasini yuborib, Yusufni haramga chaqirtirib keladi. Zulayho Yusufga ishqiy aloqa qilishni taklif etadi. Ammo Yusuf Zulayhoning tkklifini rad qiladi va tashqariga qochib chiqib ketadi. Zulayho Yusufdan g'azablanib, Yusufni bandi qildiradi va zindonga soldiradi. Ammo Zulayho, hech bo'lmasa, Yusufning ovozi eshitib qolarman, deb chorbog'ga sayr qilgani chiqadi. Shu orada Misr shohi tush ko'radi. Podshoh soqiysi bilan xobboz (novvoy)ini zindonga tashlatgan edi. Xullas, Yusuf zindondan chiqadi. Misr shohi Yusufni o'z o'rniga o'tirg'izib, podshoh qilib ko'taradi. Avval to'qchilikchilik, yetti yil o'tib esa qahatchilik boshlanadi.

Zulayho hamon Yusufning ishqida o'rtanayotgan edi. Nihoyat, ular bir-biriga yetishadilar. Zulayho Yusufdan Mishom, Farohim degan o'g'illarini, Rohima ismli qizini ko'radi.

Qahatchilik Kan'on yurtiga ham o'tganda, Yusufning akalari oshlig' izlab Misrga Yusufning oldiga keladilar. Yusuf akalarini ko'rib taniydi. Yusuf Ibn Yaminni ham oldirib keladi. Yusufning akalari Misrliklar bilan jangga shaylanadilar. Yusuf o'g'li Meshomni akalari bilan yakkama-yakka olishuvga maydonga chiqaradi. Meshom Yahudo bilan Sham'unni mag'lub qiladi. Xullas, Yusufning akalari Misrda ko'p savdolari boshlaridan kechiradilar. Yoqub ham Misrga keladi. Yoqubning duosi bilan Yusuf akalarining gunohidan o'tadi.

Har ikkala doston mazmunidan ko'rinadiki, Qul Ali ham, "Yusuf va Zulayho" muallifi ham dostonga o'ziga xos yondashadilar. Har ikkala dostonda ma'lum darajada farqlar borligi ko'rinib turibdi. O'zbekcha "Yusuf va Zulayho" dostoni muallifi Yusuf bilan bog'liq voqealarga murojaat qilganda, Yusufning hayotiga oid eng qadimgi voqealarni – butparast xalqlarni musulmonlashtirish voqealarini dostonga olib kiradi. X111-X14 asr o'zbek adabiyotida bu mavzu ancha dolzarb bo'lgan edi.

Bu jihatdan mazkur dostondagi ayni shu voqealar bilan Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va boshqa “Qisas ul-anbiyo” asarlaridagi “Qissayi Yunus yalavoch alayhissalom” qissasiga mazmunan o‘xshashlik borligini aytib o‘tishimiz kerak (*Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. 2-kitob, 1990, 59-60-b.*). Zotan, doston debochasida muallif Balx shahri qamali haqida hikoya qilib, qamal paytida o‘z ahvolini quyidagicha tasvirlagan edi:

Goh edim jon bila mashg‘uli fikr,  
Gohi edim g‘arqai anduhu fikr.

Goh o‘qur erdim zi kalomi Iloh,  
Goh kutub ichra qilur erdim nigoh.

Goh boqar erdim zi kitobi Qisas,  
Goh ichar erdim zi sharobi g‘usas.

Lek Qisas ichra vale mayli jon,  
Qissayi Yusuf ta edim ul zamon.

Bu baytlardan ma‘lum bo‘ladiki, muallif Qur‘oni Karimni va Qisasni o‘qib, o‘ziga tasalli va taskin izlagan. Uchinchi va to‘rtinchi baytdagi Qisas “Qisasi Rabg‘uziy” yoki boshqa “Qisas ul-anbiyo”larga ishora qiladi. Qolaversa, baytdagi “Qissayi Yusuf” – Rabg‘uziyning shu asari tarkibidagi “Qissayi Yusuf siddiq alayhissalom” yoki “Qisas ul-anbiyo”lar ekanini anglatadi. Bu ishoralar mazkur doston muallifining “Yusuf va Zulayho” dostonini yozish uchun ko‘p izlanganini, ko‘p manbalarni o‘qiganini ko‘rsatadi.

Muallif fors tilida nasrda “Qissayi Yusuf” bor ekani va bu asarni bajonidil o‘qib chiqqanini, shu bilan birga, turkiy tilda bu mazmundagi doston yozish istagi azaldan borligini bayon etar ekan, bir qancha “sohib nazar” hamfikir do‘stlari turkiy tilda bu mavzudagi dostonni nazmda yozishga ilhomlantiradilar.

**“Qissayi Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” dostonlaridagi o‘ziga xosliklar.** “Qissayi Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” dostonlaridan ma‘lum bo‘ladiki, Musoning “Ibtido” kitobidan boshlab asosiy syujet biridan ikkinchisiga o‘tib kelavergan. Ayni paytda doston ijodkorlari mavzuga ijodiy yondoshib, takrorlanmas lavhalarini yaratdilar. Jumladan, Qul Alining “Qissayi Yusuf”ida Zulayho va ayollar o‘tirgan uyga Yusuf kirib

kelganda, sabzi to'g'rayotgan ayollar Yusufning husnini ko'rib, unga shunchalik mahliyo bo'lib qoladilarki, hatto sabzi o'rniga barmoqlarini to'g'rganlarini sezmaydilar. Shu syujet Abdurahmon Jomiyning fors tilidagi dostonida bor va Ogahiy bu dostonni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

O'zbekcha "Yusuf va Zulayho"da shu lavha yo'q.

O'zbekcha dostonida akalari Yusufning kiyimini echki qoniga bo'yab, otalari Yoqubga, ukamizni bo'ri yedi, deb yolg'on xabar yetkazganlarida, bo'ri tilga kiradi va "Yusufni men yemadim, faqat manovi osiy o'g'illaring ushlab, og'zimga qon surtdilar va menga tuhmat qildilar", deb Yoqubga bor voqeani aytadi. Bo'ri mana shu o'lkaga inisini asir qilib olib kelganlarini, inisini qidirib yurganini hikoya qilib beradi.

Kurd shoiri Salim Sulaymonning "Yusuf va Zulayho"dostonida bu lavha bir oz kengroq, ayni paytda ta'sirchan bo'yoqlarda berilgan: Yoqubga o'g'illari shunday deb xabar keltiradilar: "Biz tog'da sayr qilib yurганиmizda, Yusuf bizga quloq solmadi, biz uni nazorat qila olmay qoldik. Oqibatda uni bo'rilar yeb ketdi". Yoqub o'g'illariga: "Yolg'on gapirmanglar, qanday qilib bunaqa hodisa yuz berishi mumkin?! Qani, menga isbotlab, tushuntirib beringlar-chi!" deb o'g'illariga faryod qilganda, o'g'illari xoli joyga borib, qo'yni bo'g'izlaydilar va uning qoniga Yusufning ko'ylagini bo'yab, otasiga olib keladilar. Yoqub ko'rsaki, Yusufning ko'ylaklari qon. Uning ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib, dahshatdan qotib qoladi. Uning faryodi butun Kan'on yurtiga eshutiladi. Shundan keyin Yoqub bitta bo'riga: "Nimaga mening Yusufimni tilkapor qilding?" deb so'raganda, bo'ri tilga kirib, Yoqubga aytadi: "Faryod qilaverma! Meni qo'yib yubor. Men borib hamma bo'rilarni yig'ib kelaman, Yusufni biz yemanimizga ular guvoh bo'ladilar". Bo'ri nolayu fig'on bilan uvillaydi, hamma bo'rilar yig'ilishib keladi va Yusufni biz yemadik, deb Yoqubga guvohlik beradilar.

Mana shu lavha Qul Alining dostonida yo'q.

O'zbek tilidagi "Yusuf va Zulayho" dostonining badiiyati yuksak, shoir o'z davrining yetuk ijodkori ekanini ko'rsatadigan dalillar ko'p. Har bir obrazga oid ta'rif-tavsiflar kitobxonning diqqatini alohida jalb qiladi. Jumladan, Yoqubning o'nta o'g'li Yusufni Kan'on tashqarisiga sayrga olib chiqmoqchi bo'lib Yoqubdan ijozat so'raydilar. Yoqub Yusufni "dunyoda ko'rar ko'zim, u yo'qolib qolsa, men nima qilaman" deya, ijozat bermaydi. Oxiri, o'g'illari otalarini ko'ndirgach, Yoqub Yu-

sufni o'g'illariga topshiradi. O'g'illari ham Yusufdan doim ko'z-quloq bo'lib, biron xavf-xatarda qoldirmaymiz, degan ma'noda "Yusuf erur borchag'a ko'z uzra ko'z" iborasini ishlatadi.

Dostondagi "dunyoda ko'rar ko'zum" iborasi – muallifning qadimgi turkiy tildan an'anaviy ravishda o'tib kelgan iborani aynan saqlab qolganini ko'rsatadi. Turk xoqoni Bilga xoqon inisi Kul tigingga nisbatan "ko'rar ko'zum" iborasini ishlatgan edi. Doston muallifi o'sha iborani qo'llab, Yusufning Yoqub uchun tengi yo'q qadrli ekaniga ishora qilgan. "Ko'z uzra ko'z" iborasi ham o'zbek tilidagi "ko'z-quloq bo'lib turmoq" ma'nosidagi iboraga o'xshash, shu iboraning ekvivalenti. Shoir "ko'z uzra ko'z" iborasini qo'llash orqali Yusufning, bir tomondan, tengsiz go'zal ekanini, ikkinchi tomondan, o'g'illar Yoqubga bergan va'dalariga sodiq ekanliklarini ko'rsatmoqchi bo'lgan.

Shoir bu an'anaviy syujet asosida shunchaki ma'lum voqealarni bayon qilishdan qochadi. Kitobxon ko'z o'ngida manzaralar paydo qilishga usta, go'yo voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, voqealarning ishtirokchisi bo'lganday. Akalarning Yusufga nisbatan yovuzliklarini shoir qalamga olar ekan, akalarning yovuzligini o'zlarining tilidan fosh qiladi. Yusufning ilojisiz, nochor ahvolda qolgani haqidagi misralarni kitobxon o'qiganda, beixtiyor o'zi ham Yusufning ahvoliga tushib qolganday his qiladi:

Har biri zanbur kibi urdi nish,  
Bo'ldi oning gul badani jumla resh.

Har biri tashlodi anga mushtu lagad,  
Ya'inki Ya'qub seni der valad.

Har biriga sig'inib eltur panoh,  
Yo'q edi Yusufqa kishi uzrxoh.

Bo'ldi aning gul tanidin xun ravon,  
Nolau zori qilur erdi fig'on.

Yo'q edi faryodina faryodras,  
Kuydi aning nolasidin xoru xas...

**Dostonda tush va kurash motivlari.** "Qissayi Yusuf" va "Yusuf va Zulayho" dostonlarida ham voqealar Yusufga bog'lanadi, u dostonning

bosh qahramoni, dostonning barcha qahramonlari ham Yusuf obraziga bogʻlangan. Shunday boʻlsa-da, obrazlar tizimida alohida oʻziga xosliklar bor. Doston obrazlari yo anʼanaviy tarzda voqealar davomida Yusuf obraziga kelib tutashadi yoki muallif oʻsha qahramonni ataylab oldindan tayyorlaydi. Jumladan, har ikkala dostonidagi Maliki Tojir obrazida ayni ana shu oʻziga xoslikni kuzatish mumkin. Qul Ali dostonida Maliki Tojir Musoning “Ibtido” kitobidagi voqealar bilan oʻxshash, yaʼni Qul Ali anʼanaviy syujetga tayanadi. “Ibtido”da Maliki Tojir oʻrnida ismoiliy savdogarlari bor. Oʻzbek tilidagi “Yusuf va Zulayho” dostonida esa muallif Yusufning kelajagini oldindan belgilaydi va dostonga tush motivini olib kiradi. Bu motiv dostonda muhim vazifa bajarib, asosiy maqsadni – bosh qahramon Yusufning kelajak taqdirini belgilashga xizmat qiladi. Muallif dostonga eng qulay va kitobxonga tanish boʻlgan usulni – xalq ogʻzaki ijodi detalini olib kirgan. Shuningdek, Yusuf bilan Zulayho bir-birlarini tushlarida koʻrib sevib qolganlari (Qul Alida faqat Zulayho Yusufni tushida koʻradi)da ham bu motivning vazifasi yanada oydinlashadi. Tush motivi doston syujetida hal qiluvchi vosita sifatida faoliyat koʻrsatib, epik motivga asos boʻladi va dostonning dunyoviy ishq mavzusida yaratilishiga xizmat qiladi.

Doston soʻngida kurash motivi bor. Yusufning oʻgʻli Meshom Yahudo, Shamʼun va boshqa aka-ukalar bilan yakkama-yakka olishadi. Xalq ogʻzaki ijodidagi anʼanaviy motivlardan “Yusuf va Zulayho” muallifi unumli foydalanibgina qolmay, muallif syujetning tarmoqlanishi va kengayishi uchun asosiy omil sifatida bir necha motivni dostonga olib kirgan. Zotan, motivlar majmui syujetni hosil qilgan<sup>143</sup>. Barcha motivlar “Yusuf va Zulayho” dostoni muallifining pozitsiyasini belgilaydi. Muallif dostonni dunyoviy ishq mavzusida yaratishni maqsad qilib qoʻygan. Yuqoridagi motivlar dostonga qahramonlik motivlari kirib kelishiga ham zamin boʻlgan. Shu motivlar tufayli doston dunyoviy sevgini kuylovchi asar sifatida oʻzbek adabiyoti tarixidan alohida oʻrin oldi.

Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostoni syujetining nihoyasi esa tamomila oʻzgacha: voqea romantik tasvir bilan yakunlanadi, bunday tasvir Yusufning tabiatidan kelib chiqqan holda yaratilgan. Yusuf Qul Alining dostonida hamma oʻrinda itoatkor, u qul, qullarning tabiatiga xos itoatkorlik dostonga qahramonlik yoki kurash motivlarini olib kirishga yoʻl qoʻymaydi. Yusufda akalariga nisbatan dushmanlik kayfiyati yoʻq. Qis-

<sup>143</sup> Qarang: Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: 1989. 301-6.

sa so'ngidagi saroy devoridagi san'at asarlari tasviri ana shu kayfiyatga barham bergan.

“Qissayi Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” dostoni voqealaridagi yuqoridagiday ayrim farqlar, shubhasiz, geografik sharoit, adabiy muhitning ma'lum darajada izga tushgani va adabiy aloqalar, ijodkorlarning o'z davri jamiyatidagi ijtimoiy voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatiga ham bog'liq.

**Salim Sulaymonning “Yusuf va Zulayho” dostoni. Dostonning folklor variantlari.** Umuman olganda, dunyo xalqlarida tarqalgan “Qissayi Yusuf” hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari, garchi bir syujetga asoslangan bo'lsa ham, bir qolipda yaratilgan emas. Ijodkorlar bu mavzuga murojaat etar ekanlar, xalq og'zaki ijodi motivlarini olib kirib, kitobxon didiga yaqinlashtirishga harakat qilganlar. Hatto ayrim xalqlarda doston syujeti shunchalik ommalashganki, yozma adabiyotdagi “Yusuf va Zulayho” dostonlari asosida xalq og'zaki ijodi variantlari ham paydo bo'ldi. Jumladan, kurd xalqida “Yusuf va Zulayho” dostonlarining folklor variantlari buning bir namunasidir.

XVI asrda yashagan kurd shoiri Salim Sulaymonning “Yusuf va Zulayho” dostonini qisqartirish (hamd va na'tni, qahramonlarning tashqi qiyofasi va ichki kechinmalari tasvirini tushirib qoldirish) orqali bu dostonning o'n ikkita folklor varianti yaratilgan<sup>144</sup>. Har bir varianti taxminan bir ertak hajmiga teng keladi. Ammo asosiy syujet liniyalari – akalarning Yusufga hasadi va Yusufni o'ldirish niyati, Yusufning quduqqa tashlanishi va h. voqealar deyarli hamma folklor variantlarida bor.

“Yusuf va Zulayho” dostonining folklor variantidan, qolaversa, o'zbek tilidagi “Yusuf va Zulayho”ni muallif xalq tilida yaratganidan va folklor motivlaridan unumli foydalanganidan ma'lum bo'ladiki, keng xalq ommasi uchun bu doston tom ma'nodagi ishq dostoni bo'lgan.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. “Qissayi Yusuf” va “Yusuf va Zulayho” dostonlarining ildizi qayerga borib taqaladi?
2. Qul Alining “Qissayi Yusuf” dostoni qachon va qayerda yaratilgan?
3. Bu asarning paydo bo'lishiga qaysi mutasavvufning hikmatlari ta'sir ko'rsatgan? Misollar bilan tushuntirib bering.

<sup>144</sup> Rudenko M.B Yuqoridagi asar, 54-b.

4. “Qissayi Yusuf”ning mazmunini aytib bering.
5. Durbekka nisbat berilayotgan “Yusuf va Zulayho” dostoni qaysi davr voqealarini aks ettirish bilan boshlanadi?
6. Dostonning qisqacha mazmunini so‘zlab bering.
7. Qul Alining “Qissayi Yusuf”i bilan “Yusuf va Zulayho” dostoni o‘rtasida qanday farqlar bor?
8. Dostonning qisqacha mazmunini so‘zlab bering.
9. Kurd shoiri Salim Sulaymonning “Yusuf va Zulayho” dostoni va kurd xalq og‘zaki ijodida “Yusuf va Zulayho” dostonining folklor variantlari haqida qisqacha ma’lumot bering.

## Haydar Xorazmiy ijodi

### Reja:

1. Shoir haqida turli manbalardagi ma'lumotlar.
2. Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni va uning tuzilishi haqida.
3. "No'shiravon va uning vaziri hikoyati" mazmuni.
4. Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tuzilishi.
5. Dostonda so'z va unga yuklangan vazifalar.
6. Sulton Iskandar madhi.
7. "Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati".
8. "Hotam Toy hikoyati".
9. "Mahmud G'aznaviy haqida hikoyat" mazmuni va unda ko'tarilgan masalalar.
10. "Gul va Navro'z" dostoni haqida.
11. "Gul va Navro'z" dostonining qisqacha mazmuni.

**Tayanch so'z va iboralar:** *shuaro, «Maxzanul-asror» asari, doston, hamd, navt, hikoyat, maqolat, bayt, rivoyat, oqillar va oriflar.*

**Shoir haqida turli manbalardagi ma'lumotlar.** Haydar Xorazmiy XIV asrning oxiri – XV asr boshlarida yashab ijod etgan. Navoiyning «Muhokamat-ul-lug'atayn»ida bu shoir haqida quyidagilarni o'qiyimiz: «Shohruh sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab' salotina zuhurg'a keldi; shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar...»( Navoiy. MAT. 16-jild, 36-b.). Davlatshoh Samarqandiy (XVI asr) "Tazkirat-ush-shuaro" asarida Haydar Xorazmiy to'g'risida quyidagilarni zikr etadi: "Sulton Iskandar hukmronligida fozil kishilardan Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydarlar bor ekan. Mavlono Haydarning turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she'rlari bor va u Nizomiyning «Maxzanul-asror»iga o'zbek tilida javob yozib, uni shahzoda Iskandar otiga bag'ishladi". Demak, haqiqat, Haydar Xorazmiyning «Maxzanul-asror» asari Nizomiyning "Maxzanul-asror" asaridan ilhomlanib yozilgan. Xorazmiy o'z asarining nazm etilish sababi to'g'risida xabar berganda, Nizomiydan ilhomlanganini yozadi:



Ulfat ila begi ulandi alif,  
Vuqusidin qofiya topti radif.  
«Mahzani asror» - bu ramz erdi, bil,  
Notiq bu ko'zgudin o'grandi til.

Haydar Xorazmiy Amir Temurning nabirasi Iskandar Mirzo (Umarshayxning o'g'li) hukmronligi davrida (XIV asrning boshlari) yashab ijod etdi. Navoiy "Majolis un-nafois" asarining VII majlisida Amir Temurning she'riyatga aloqador avlodlari haqida ma'lumot berib o'tar ekan, Sulton Iskandar Sheroziy Amir Temurga nabira ekanini, yetti yo sakkiz yil hukronlik qilganini bayon qilib, Haydar Xorazmiyni ham tilga olib o'tadi: "Mavlton Haydar turkigo'y aning (Iskandar Mirzoning – N.R.) modihi ekandur. Bu aning masnaviysidindurkim:

Himmat ilidur – yadi bayzo degan, (*yadi bayzo – 1. Porloq qo'l, porlagan qo'l.*)

Er nafasidur – dami Iso degan".

Shundan keyin Navoiy Sulton Iskandarni tab'i nazm bor ekanini aytib, uning bir tuyug'ini keltirib, turkona ekanini ta'kidlaydi:

To'lun oyg'a nisbat ettim yorumi,

Ul xijolatdin kam o'ldi yorumi.

Tori mo'yungning zakotin men beray

Yo Misrni yo Halabni yo Rumi (*Navoiy. MAT, 13-tom, 115-b.*).

Bu tuyuqdan va Navoiyning Iskandar Mirzoga bergan ta'rifidan ma'lum bo'ladi, Haydar Xorazmiy Iskandar Mirzoni "himmatli", "porloq", "Iso nafasli" deb ta'rif berar ekan, faqat uning himoyasida yashagani uchungina emas, balki Iskandar Mirzo iste'dodli shoir bo'lgani uchun ham uni madh qiladi.

**Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni va uning tuzilishi haqida.** Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror" dostonini Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga javob tarzida yozgan. Shu bois Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish maqsadga muvofiq. Nizomiyning mazkur dostoni falsafiy-didaktik doston bo'lib, milodiy 1170-yili yozilgan. Bu doston Nizomiy "Xamsa"sining birinchi kitobidir.

Dostonning kirish qismida hamd – Ollohning yagonaligi va unga munojot, na't – payg'ambarning ta'rifi va uning me'roji, undan so'ng yana to'rtta na't, Dovud o'g'li Malik Faxriddin Bahrom shohning ta'rifi va unga ta'zim, bu kitobning tuzilishi, so'z fazilati haqida, nazmning nasrdan ustunligi haqida, ko'ngil va uning parvarishi haqida birinchi xilvat, birinchi xilvatning samarasi, ikkinchi xilvat va ikkinchi xilvatning samarasi kabi 18 bobdan iborat. Dostonning O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol qilgan tarjimasi 2264 baytni tashkil qiladi.

**“No'shiravon va uning vaziri hikoyati” mazmuni.** “Maxzan ul-asror”ning asosi 20 maqolotda o'z ifodasini topgan. Muallif har bir maqolotda ma'lum bir ijtimoiy yoki siyosiy, axloqiy yoki ta'limiy yo falsafiy masalani qo'yadi. Nizomiy maqolotlarda ilgari surmoqchi bo'lgan muammoni hikoya qilishdan avval mavzuga oid baytlar keltiradi. Bu baytlarda maqolotda hikoya qilishni rejalashtirgan voqeaning mavzusini bayon qiladi. Shoirning bu baytlari keng ommaga qaratilgan o'gitlardir. Baytlardan so'ng Nizomiy tarixdan, xalq rivoyatlaridan, hayotdan olingan kichik hajmdagi hikoyatlarni keltirib, ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyani yanada oydinlashtiradi. Misol uchun, uning “No'shiravon va uning vaziri hikoyati”ga e'tibor beraylik. Bu hikoyat ikkinchi maqolat tarkibi kiradi.

Nizomiy hikoyatni keltirishdan avval 43 baytdan iborat “Insof, adolat himoyasida shohga pandu nasihat” nomli parchani keltiradi. Bu pandda adolat shoh uchun mayoq, shohlikning tayanchi, adolat tufayli shohning davlati barqarorligi haqida shohga nasihat qiladi. Shohga, hammaning oldida xuddi tuproqday xokisor, xuddi yel singari qo'lida hech vaqosi yo'q bir banda bo'lg'in, deya o'git beradi. Keyin hikoyatni keltiradi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha:

Bir kuni No'shiravon vaziri bilan birga ovga chiqibdi. Ular bir xarob qishloqqa borib qolibdilar. Shu paytda ikki qush daraxt ustida tinimsiz sayrayotgan ekan. Qushlarning sayrashi podshohga yoqmabdi. Shoh vaziridan so'rabdi: “Bu qushlar nimaga shovqin-suron qilyapti? Ular nimalar deyapti?” Vazir shohga shunday davob beribdi: “Ey shahanshoh! Bu sirni sizga aytay. Ular sayramayapti, balki behudaga bir-biri bilan tortishyapti. Ikkovi to'yning mojarosini qilyapti. Biri ikkinchisiga qizini beryapti ekan, shunga sut pulini tezda ber, deb talab qilyapti: “Mana shu vayronalarni shu tundayoq berasan. Qolganini qachon berasan?” deb birinchisi so'rayapti. Ikkinchisi esa shunday javob beryapti: “Aslo

g'am yema, agar shohimiz ana shu odam bo'lib tursa, qalin ko'p bo'ladi. Uning zulmidan hamma yoq vayron bo'lib ketgan, men senga yuz minglab vayronalarni beraman".

Shoh bu gaplarni eshitib, ko'ngli vayron bo'libdi, nolayu fig'on qilibdi. U boshiga mushtlabdi. Xalqqa qilgan sitamining oxiri mana shunday oqibatlariga olib kelganidan qattiq o'kinibdi. Hatto qushlar ham uning jabridan azob chekayotganidan, mamlakatni boyqushlar makoniga aylantirib qo'yibman-da, deya ko'p afsuslar qilibdi. "Oqibatini o'ylamay. odamlarning molini zo'rlik bilan tortib oldim. Ammo bir kunmas-bir kun bu zo'ravonligimning oqibati boshimga yetishi mumkin-ku! Xudo menga mulk berdi, men esa xalqqa shunchalik jafo qilibman-a! Xalq orasida nomim qora bo'lgan ekan. Ey Xudoyim, menga sharmu hayo bergin! Axir, qiyomatda men so'roq-savollarda nima deb javob beraman?! Shuncha ganjni qabrimga olib ketolmayman-ku! Som, Faridun qancha boyligini olib ketdi ekan?!"

Shu voqeadan keyin No'shiravon tavba qilib, adolat yo'lini mahkam tutibdi, u adolatli shoh degan nomga munosib bo'libdi, uning ezgu nomi butun dunyo bo'ylab yoyilibdi<sup>145</sup>

Shu hikoyatdan keyin Nizomiy yana adolatli bo'lish, Haq so'ziga amal qilish to'g'risida o'git beradi va ikkinchi maqolot nihoyasiga yetadi.

Nizomiy o'z davrining buyuk mutafakkiri ekani keyingi hikoyatlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir adolat, zolim podshohlardan shikoyat, mehnatning foydasi, odamlarga yaxshilik qilish, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, rashk va hasadning zarari, saxovatning foydasi va baxillikning oqibati kabi hayotiy masalalarga alohida urg'u qaratadi, hikoyatlarida davrning muhim ijtimoiy masalalarini ko'taradi.

Nizomiyning mazkur dostoni Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoniga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Nizomiyning dostoniga esa XI asrning oxiri – XII asrning boshlarida yashab ijod etgan fors shoiri Abdulmajid Majdud ibn Odam Sanoyining "Hadiqat ul-haqoyiq" dostoni ta'siri bor (*O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik.1977, 115-b.*).

**Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tuzilishi.** Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostoni o'zbek tilidagi axloqiy-falsafiy

<sup>145</sup> Shayx Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror (Sirlar xazinası). Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjiması. 2016, 110-b.

dostonchilikning yirik namunasidir. Asar taxminan 1409-1414-yillar oralig'ida yozilgan.

Haydar Xorazmiy bu dostoni bilan o'zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyotiga katta ulush qo'shdi. Jumladan, Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asarlaridagi she'riy va nasriy hikoyat janrini Xorazmiyning hikoyatlari mavzu va g'oya jihatidan boyitdi. Zotan, Xorazmiy hikoyatlarining hammasi, xuddi Nizomiy hikoyatlari kabi, didaktik mazmundadir. U hikoyatlardagi didaktik mazmuni yanada takomillashtirdi. Didaktik janrni o'z davrining ijtimoiy hayoti bilan bog'ladi.

Nizomiyning "Maxzun ul-asror" dostonida ko'tarilgan masalalar mazmunan Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" asarida davom etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Xorazmiy har bir hikoyatga mustaqil, takrorlanmas asar sifatida g'oya yuklaydi. Xorazmiy o'z asarida Nizomiy Ganjaviyni hurmat bilan tilga oladi, unga so'z ganjining podshohi sifatida yuksak ta'rif beradi. Haydar Xorazmiyning "Maxzun ul-asror"i Nizomiyning asaridan hajman ancha kichik bo'lib, 639 baytdan iborat masnaviydir.

**Dostonda so'z va unga yuklangan vazifalar.** "So'z ta'rifining bayoni" bobida muallif inson tili so'zni yozishga asos bo'lgani, ya'ni so'zning insoniyat singari qadimiy ekaniga, so'z gavharini bilguvchi zot hammadan ustun ekanini madh qilib, *muharraf san'atini* qo'llaydi:

Nuqta bilan nuqta topib intizoj,  
Qo'ydi alif farqina shohona toj.

Tushgach alif qomatining soyasi,  
Topti ham ul soyani ham soyasi.

Toj zilli, nuqta alif zillini,  
Ismi alif, na'ti alif lomini.

Shoir so'zning qudratiga baho berib, oqillar va oriflarning so'zdan foydalanish maqsadiga to'xtaladi: oqillar – so'zlarni tizib, ma'nili ma'no, ifoda paydo qiladi. Oriflar esa so'zlaganda o'sha so'zlarda o'zlarini namoyon qiladilar, so'zda ifodalangan tub mohiyatga e'tibor beradilar. Ma'no va mohiyat birgalikda qudratga ega bo'ladi.

Xorazmiy oqillar va oriflarning soʻzga munosabatini, har ikkala toifaning soʻz qiymatini baholashda qaysi nuqtai nazardan qarashini alohida taʼkidlaydi. Shoir oqillarga nisbatan “ahli nazar”, oriflarga nisbatan “nuri basar” iboralarini qoʻllar ekan, ular zohiriy va botiniy ilmga erishgan, bu ilmlarni oʻzlarida namoyon etgan zotlar ekanligiga ishora qiladi:

Ahli nazar shevasini soʻz bila,  
Nuri basar mevasini koʻz bila.

Soʻz koʻzidur ulki koʻrar holni,  
Oʻz soʻzidur ulki soʻrar qolni.

Soʻzda koʻzu soʻzlaguchida nazar,  
Yoʻq esa soʻz kizlaguchida xabar.

Zohiru botin xabari soʻzdadur,  
Oʻzgada yoʻq, har neki bor oʻzdadur.

Bu oʻrinda “hol”, “qol” soʻzlari ostidagi tushunchalar yuqoridagi “ahli nazar” va “nuri basar” iboralarini toʻldirib keladi. Zotan, “hol” ahli – nuri basarlardir, ularning tasavvurlari ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, ular tili bilan emas, dili bilan soʻzlay boshlaydi (*Komilov N. Yuqoridagi asar, 30-b.*). Ayni paytda “qol” ahli - ahli nazarlardir. Ular zohiriy ilmlar, jumladan, shariat ilmi sohiblaridir. Zohir ham, botin ham soʻzda ifoda topishiga Xorazmiy alohida urgʻu berishni maqsad qilib qoʻygan.

Xorazmiy, qimmatli umr oʻtib ketadi, soʻz – durdir, soʻz dunyoda zurriyot kabi qoladi, deb bu bobni tugatar ekan, oʻz asarining mazmun-mohiyatini alohida taʼkidlayotganday boʻladi.

“Musannifning vasfi xoli” bobida shoir oldingi bobdagi mahzun kayfiyatni davom ettiradi. Xorazmiyning mahzun kayfiyatiga sabab – gʻam bilan oshno boʻlganida, ulfati va hamsuhbati gʻam ekanligida. Shu bois uning koʻz yoshidan – boda, bagʻridan – kabob, yurak dardidan – nuql (gazak), figʻonidan – rubob kuyi yaralgan va keyingi baytlarda ham shu ruh davom etgan.

Ammo Xorazmiy shu kayfiyat bilan cheklanib qolmaydi. Uning oʻgit va nasihatlarini mahzun kayfiyatiga hamohang emas. Bu kayfiyatdan maqsad – “moʻjizatek soʻz” yoki “anglagutek koʻz” orqali ilohiy sirlarni

anglashga da'vat qilishdir. Quyidagi bayt bu maqsadni yanada ochiqroq ifoda etadi:

So'zda kerak ma'niyu ma'nida zavq,  
So'zlaguvchida so'z uchun dardu shavq.

So'zdagi ma'ni – ishqning mohiyati, ma'nidagi zavq – ilohiy muhabbatdan zavqu sururga to'lishdir, dardu shavq - ishqning alanganishi va oshiqning riyozatidir. Bularning manbai esa so'zdir.

**Sulton Iskandar madhi.** Shu bobning oxirida Sulton Iskandar She-roziy madh qilinadi – uning Iskandaru Doroday buyuk shoh, sohib ka-ram, uning adolatidan dunyo ham, dinu diyonat ham faxrlanadi, ilmda haqiqat, shariat va tariqat ruknlarini chuqur egallagan, siyrati va suvrati birday go'zal, xuddi Rustami Dostonday qilich tortadi va h. Bu par-cha qasida janriga mansub bo'lib, alohida bob sifatida berilmagan bo'lsa ham, janr nuqtai nazaridan bobning oldingi qismidan tamomila farq qi-ladi.

“Kitob yozilishining bayoni” bobida Xorazmiy bu dostonini yozish-ga boshlagani va Iskandar Mirzoning ko'p himmat va saxovat ko'rsatgani, Nizomiydan bahra olib bu asarini yozgani haqida so'z yuritadi.

**“Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati”.** “Mav'iza” (o'git, nasihat) bobida xalq hikmatlari, maqollaridan, hayotiy detallardan foy-dalangan holda Yu o'quvchiga hayotda to'g'ri bo'lish, to'g'ri va halol yashash, Tangri berganiga rozi bo'lish, boylarga hasad qilmaslik, bosh-qalarga yomonlikni ravo ko'rmaslik, birning ustiga o'nni qo'yib sotmas-lik va boshqa bir qator misollarni keltiradi.

Bu mav'iza orqali Xorazmiy “Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati”ga zamin yasaydi, hikoyaning asosiy g'oyasiga, aytmoqchi bo'lgan voqeaga ishora qiladi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha:

Kufa shahrida ilohiy ilmlarni egallagan bir shayx bozorga bordi. U yurib borib, bir bazzozning do'koni qarshisida o'tirdi. Bazzozning do'koni asl mollar bilan to'la ekanini ko'rdi. Bazzozning butun umri savdo bilan o'tgan edi. Shu payt bazzozning oldiga bir qari, arang na-fas olayotgan, so'zlashga ham madori yo'q, ko'zlarida hayot uchquni so'ngan kampir oyog'ini sudrab kelib qoldi. Kamir qo'ynidan bir parcha bo'zni chiqarib bazzozga uzatarkan: “Manovini olginu bahosini aytgin”,

dedi. Bazzoz boʻzni qoʻliga olib, kampirga bir talay yolgʻonni soʻzlay ketdi: “Boʻzingizning momigʻi past, iplari ham dagʻal ekan. Toʻn qilishga ham yaramaydi, yuvsa ishdan chiqadi. Bu matongizdan koʻylak ham tikib boʻlmaydi, tuzukroq narxga arzimaydi”. Shundan keyin kampir doʻkondor bazzozga dardini toʻkib soldi: “Ey sohib karam xojam, boshing omon boʻlsin, bu dunyoda aslo gʻam koʻrmagin. Men bir bechora tul ayolman, ojiz, bechoraman. Jonimni jabborga berib, ikki hafta shu boʻzni toʻqidim. Bir nechta farzandim yoʻlimga termilib oʻtiribdilar. Mayli, nima desang deyaver, Xudoga soldim. Qancha baholasang, boʻpti, pulini bergin”. Bazzoz oʻlchagich gazini olib, matoning boʻyi-sonidan ham urib qoldi va kampirga bir-ikki dirham berdi. Kampir oyogʻini arang sudrab bosganicha, uyiga yoʻl oldi. Shu payt boʻz sotib olgani bir odam kelib, doʻkondorga dedi: “Ey xojam, menga shunday boʻz kerakki, bu dunyoda undan yaxshisi boʻlmasin. Mayin, tekis toʻqilgan boʻlsin, ipida aslo nuqsoni boʻlmasin”. Doʻkondor bazzoz qaysi boʻzni koʻrsatsa, xaridor aybini topaverdi. Shunda doʻkondor: “Shoshmay turing, hozir sizga shunday boʻz berayinki, ilgari bunaqasini koʻrmagansiz. Momigʻi pillaning tolasidan ham mayin, iplari nihoyatda nozik”. Xaridor boʻzni koʻrgandan keyin, lol boʻlib qoldi va bahosini soʻradi. Bazzoz boʻzni ancha qimnat bahoga sotib olib, oʻz yoʻliga ketdi. Shunda Haq yoʻlini tutgan pir bazzozning oldiga kelib dedi: “Ey birodar, ijozat bersang, doʻkoningga kiray. Agar menga oʻxshaganini istasang, yer yuzini qidirib topolmaysan. Mening aʼmolim zohiriy va botiniy ilmlardir, oʻzim bir moʻminman. Bu olamni qancha kezdim, ammo sen singari komil avliyoni koʻrmagan edim. Oʻsha boʻz matoning momigʻi, seningcha, ravshan emas, ipi nursiz, mato xuddi boʻyraga oʻxshaydi. Sen boʻz matoga bir nazar solding-u eng nafis matodan ham aʼlo boʻz ekanini bilgan eding. Boʻzning momigʻi bilan ipi bir xilda nafis, mayin, bir tekisda toʻqilgan edi”. Parning bu gaplaridan bazzoz qattiq xijolat boʻldi, muammoni bir yoqli qilishga jazm etdi va bu qilgʻini tark etdi.

Bu hikoyatdan keyingi mavʼiza har qanday odamzodni insofga chorlaydi. Xorazmiy Haq yoʻliga kirgan parning bazzozga bergan nisihatini davom ettirib, xoja singari ortigʻini istagan odamning puli tezlik bilan qoʻlidan chiqib ketadi, savdoda foydani ziyon bilan baravar tutgin, deya nasihat qiladi. Ayniqsa, quyidagi baytlari mazkur mavʼizaning eng diqqatga sazovor baytlaridir:

Xayr etagina uzun tut qo'lung,  
Mo'ru malaxdin ayama sarquting.

Jomda sharbat nechakim bo'lsa kam,  
Yerga to'kar jur'ani sohib karam.

**“Hotam Toy hikoyati”.** “Hotam Toy hikoyati” yuqoridagi hikoyatning aksi bo'lib, saxiylikni ulug'laydi, inson eng ulug' mavjudot ekanini ko'rsatadi. Hikoyatda aytilishicha, arab mamlakatidan kelayotgan karvon, yo'lda oziq-ovqatdan qiynalib qolmaylik, deb o'ylab, Hotam Toy xonadoniga tushdilar. Karvon orasida bir tentak odam ham bor edi. U: “Ey Hotam, noming karaming tufayli olamga mashhur bo'ldi, biz ham bugun senga mehmonmiz”, dedi. U gapini tugatmagan ham ediki, karvonning semiz tuyalaridan biri xastalanib qoldi. Odamlar haligi tentakka, sen mehmonsan, tilingni tiysang, yaxshi bo'lardi, deb tanbeh berdilar. Xullas, Hotam tuyani so'yib, karvonni mehmon qildi. Erta tongda karvon yana yo'lga otlandi. Shu payt uzoqdan ot choptirib kelayotgan odamlar ko'rindi, ular bir tuyani ham olib kelayotgan edilar. Bu tuya kechagi tuyaning aynan o'zi edi. Karvon bu ahvolni ko'rib, otiqlardan so'radilar. Otiqlar shunday javob berdilar: “Kechasi Hotam tushimizga kiribdi, ko'zlari yoshlangan. U bizga aytdiki, bugun mehmonlar kelgan edi, men ulardan bir tuya qarz olib so'yib, ularni mehmon qildim dedi va tuyaning belgilarini so'zladi. Hotam bizga, tezroq bo'linglar, karvon tong otishi bilan ketadi, aynan ularning tuyasiga o'xshaganini olib kelib, karvonga yetkazinglar, deya bizni shoshirdi. Kechagi so'yib yegan tuyasidan ularga og'irlik kelmasin, menga esa halol bo'lsin, dedi”.

Hikoyat qisqa bo'lsa-da, bitta detal – Hotam Toyning saxovatpesahligidan bir qirrasini hikoya qilish orqali katta ma'noni chiqargan. Hikoyatdan keyin keltirgan birinchi ma'vizada insonni dirham emas, saxovat va karam boy qilishi, odamning dushmani – jig'ildoni ekani, odamni tomoq tashvishi xor qilishi, ortiqcha yegan odam qusishi va uning qusig'idan itlar bahramand bo'lib, to'yishi va b.qator axloqiy-ta'limiy masalalarni ilgari suradi. Hikoyatda aytilmagan, ammo inson tabiatida mavjud ko'z ochligi bilan Xotamning saxiyligi bir-biriga zid qo'yilgan.

Ikkinchi ma'vizada Xorazmiy fasafiy masalalarni ilgari suradi. Molu davlat yig'ishga hamma talabgor, ammo boylukni sarf qilish ular uchun nihoyatda o'limdan ham og'ir; bu dunyoda ko'p kulib, vaqtini



xush o'tkazgan odam oxirida yuz ming marta yig'laydi; aqlning huzurida jaholatga o'rin yo'q bo'lganiday, mol-dunyoga ruju' qo'ygan inson manzili yo'q yo'lda yurganga o'xshaydi, bu bilan esa inson o'zini o'zi aldagan bo'ladi va h. Shu singari bir-biriga bog'liq, biri ikkinchisini yetaklab keladigan illatlar Xorazmiyning falsafiy qarashlari shakllanishiga asos bo'lgan. Inson o'zini nazorat qila olgandagina, yuqoridagiday falsafiy muammolarning sirlarini anglay bilgandagina, o'zini o'zi mol-mulkka ruhan tobelikdan ozod qiladi.

**“Mahmud G‘aznaviy haqida hikoyat” mazmuni va unda ko‘tarilgan masalalar.** “Maxzan ul-asror”da Mahmud G‘aznaviy haqida ham hikoyat bor. Xorazmiy bu hikoyatda shoh Mahmuddan ko‘ra miskin pir ma‘naviy jihatdan ancha boy va yuksak ekanini ko‘rsatgan.

Mahmud G‘aznaviy a‘yonlari bilan qish kunida ovga chiqdi. Ular bir xaroba kulba qarshisidan chiqib qoldilar. Mahmud G‘aznaviy xarobaga kirib, sochlari to‘zib ketgan, nihoyatda badbashara bir piri ko‘rdi. U Mahmudga e‘tibor bermadi, “kel,o‘tir” yoki “ket” deb aytmadi. Pir ibodatini tugatgandan keyin, Mahmuddan: “Oting kim? Nima uchun bu yerga kelding? Bu yerga hech kim kelmas edi”, deb so‘radi. Mahmud o‘zini tanishtirdi. U pirga, bunday sovuq kunda bu yerda yashashingiz umringizga zomin bo‘ladi, sizga shahardan biron go‘sha topib berayin, deb aytdi. Shunda pir:

Bilki, bu yo‘l ustida o‘tguchimiz,

Ayla kelduk, yana ketguchibiz, -

deya javob berib, shohga ta‘nalar qildi: “Yaratgan meni hech narsaga muhtoj qilmadi. Sen esa muhtojlikda yashaysan, men faqru fano davlatida boyman, agar sendan biron narsa ta‘ma qilsam, sendan battar bo‘laman, undan ko‘ra, rizq ilinjida darbadar kezganim yaxshi. Qani aytchi, mabodo ajal kelib qolsa, davlatingni qaytara olasanmi yoki ajalni-mi?” Shoh piring bu gapidan qattiq xafa bo‘lib, unga, agar sening boshingga ajal kelib qolsa-chi, sen nima qilasan, deb savol berganda

Pir tabassum qilibon urdi jo‘sh,

To‘tisi uchtiyu qafas qoldi bo‘sh.

Bu hikoyatdan keyin keltirilgan ma‘vizada piring zohiriy olami emas, balki botiniy olami boy ekanini ko‘rsatishni maqsad qilib, “surati vayronayu ma‘nisi ganj” deya ta‘riflaydi. Pir singari ishqqa doimiy ham-

roh bo'lgan zotlarning hamdamiyu hamnafasi ham, otasiyu onasi va yori ham ishq ekanini ta'kidlaydi.

Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror" asarini yozishda xalq tili boyliklaridan, xalq og'zaki ijodidan unumli foydalandi. Go'zal o'xshatishlar topdi. Masalan, "Musannifning vasfi holi" bobida shoir o'z yuragini yonib turgan sha'mga, turli o'y-xayollarini sham' tutuniga, xayolga cho'mib qimiramay o'tirgan holatini shamdon ostiga qo'yilgan laganga o'xshatadi. Bu holat esa shoirning xayoloti boy ekaniga bir dalildir. Shu bilan birga, sha'm va tutun timsollari orqali o'zining axloqiy va falsafiy qarashlarining samarasiga ishora qiladi.

Obrazlar tizimining tazod asosiga qurilgani ham Haydar Xorazmiy hikoyatlarining muhim qirralaridan biridir. Har bir hikoyatda tazod san'ati bor. Yuqoridagi hikoyatlarda bazzoz bilan kampir, befarosat odam bilan Xotam Toy, Mahmud G'aznaviy bilan pir kabi obrazlar tazodning bir namunasidir.

"Maxzan ul-asror" dostoni aruzning sari' bahrida "musaddasi matviyi makshuf" vaznida (muftailun muftailun foilun) yozilgan.

Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror" asarini yaratish bilan o'zbek adabiyotida she'riy hikoyatning rivojiga munosib hissa qo'shdi. "Maxzan ul-asror"dagi hikoyatlarda u falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-talimiy masalalarni ilgari surgan. Uning mazkur hikoyatlari komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Umuman, Haydar Xorazmiy bu asari bilan uzoq tarixga ega bo'lgan falsafiy-didaktik dostonchilikning yangi davrini boshlab berdi.

**"Gul va Navro'z" dostoni haqida.** O'zbek mumtoz adabiyotida "Gul va Navro'z" dostoni Lutfiyniki degan qarashlar uzoq yillar davomida hukmron bo'lib kelgan edi. Keyingi yillarda topilgan manbalar va tadqiqotlar natijasida bu doston Haydar Xorazmiy asari ekani ma'lum bo'ldi.

Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida bir necha bor "Mavlono Haydar" taxallusini keltiradi. U bir o'rinda tashbeh (at-tashbeh-ul-kinoyat) san'atiga Mavlono Haydardan quyidagi parchani keltiradi:

Kumush inju qilib gul yaprog'ini resh,  
Asal ustinda ari chayqadi nesh.

Tong otquncha ayoq tutmoq, bosh urmoq,  
Yuzuk o‘ynamoqu barmoq yoshurmoq.

Baliq bo‘g‘zidin oqti durri marjon,  
Sadaf qursog‘idin sachradi marjon...

Bu baytlar Lutfiyga nisbat berib kelinayotgan “Gul va Navro‘z” dostonida aynan shu shaklda berilgan (Lutfiy. Devon. Gul va Navro‘z. Doston. Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti. 1965, 435-b.). Faqat nashrlarda *marjon* so‘zi o‘rniga *har yon* so‘zi qo‘llangan.

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi” asarida Haydari Turkiyning “Gul va Navro‘z” dostoni borligini aytadi va undan misol keltiradi. Mavlono Haydar, Haydari Turkiy – bitta shaxs, ya’ni Haydar Xorazmiydir

“Gul va Navro‘z” dostoni romantik dostonlar turkumiga kiradi. Doston hamd, na‘t, madh, “Sababi nazmi kitob” va 120 bobdan iborat. Doston Iskandar Mirzoga bag‘ishlangan, deb aytiladi. “Gul va Navro‘z” dostonining oxirida ko‘rsatilishicha, u 814/ 1411-12 yillarda yozilgan.

**“Gul va Navro‘z” dostonining qisqacha mazmuni.** Navshod mamlakatining shohi Farrux befarzand edi. Nihoyat, xotini yukli bo‘lib, navro‘z kuni o‘g‘il tug‘di. Bola navro‘z kuni tug‘ilgani uchun uning ismini Navro‘z qo‘yadilar. Navro‘z aqlli, ko‘p hunar egasi, bilimli bo‘lib o‘sadi. Kunlarning birida Navro‘z do‘stlari bilan dunyo go‘zallari haqida suhbatlashib o‘tirgan edi, qadahidagi mayga qarab, o‘zining aksini ko‘rib, o‘z go‘zalligiga mahliyo bo‘lib qoladi. Navro‘z oyna so‘raydi. Uning qo‘liga oyna beradilar, Navro‘z oynadagi o‘z aksiga qarab, hushidan ketib yiqiladi. Shundan keyin Navro‘z tushida Farxor mamlakatining malikasi Gulni ko‘radi. Navro‘z Gulni qidirib topadi. Ammo bu paytda Gul Chin xoqoniga uzatilayotgan edi. Navro‘z Gul bilan qochib ketadi. Ular kemada ketayotganlarida dengizda bo‘ron ko‘tarilib, kema halokatga uchraydi. Dengiz to‘lqini Navro‘zni Yaman mamlakatiga olib ketadi. Gulni esa to‘lqinlar Adan mamlakati tomonga oqizib ketadi. Gul to‘fondan sog‘-omon sohilga qutulib chiqadi.

Gul dengizdan qutulib chiqqandan keyin Adan mamlakati chegarasiga borib qoladi. Uni odamlar, Adan mamlakatiga boradigan yo‘llar xatarli, deb ogohlantiradilar. U yo‘lda arslonlar uya kurgan yerdan chiqib

qoladi va yirtqich arslonlarni yengadi.

Adan va Yaman mamlakatlari bir-biriga azaldan dushman edilar. Gul nihoyatda tadbirli, jasur qiz bo'lgani uchun, Adan g'avvoslarini vahshiy hayvonlar hujumidan qutqarib qoladi. Gulning ko'rsatgan jasoratlariga Adan shohi Badi' qoyil kolib, uni o'z qo'shiniga bosh qilib tayinlaydi va Yaman davlatiga qarshi urushda foydalanmoqchi bo'ladi. Yaman shohi Rafi' ham Navro'zni qo'shiniga lashkarboshi qilib tayinlaydi va Yaman davlati qo'shinlariga qarshi jangga otlantiradi. Ikki davlat o'rtasida jang boshlanadi. Gul jang oldidan Yaman tomonga choparlar yuboradi. Yaman shohining Bahrom degan lashkarboshisi bor edi. Uning «qonxo'r» laqabi bor edi. U Navro'zga hasad qilib yurardi. Shuning uchun birinchi bo'lib jang maydoniga chiqadi. Jang paytida Bahromni Gul qilich bilan chopib tashlaydi. Shu payt Navro'z na'ra tortib maydonga otiladi. Ikki sarkarda yakkama-yakka olishuvga tayyorlanadilar. Olishuv avjiga chiqqan paytda Gul Navro'zni ovozidan tanib qoladi va hushidan ketib yiqiladi. Niqobdagi lashkarboshi Gul ekanini Navro'z sezib qoladi va qilichini uloqtirib, o'zini yerga otadi.

Bu voqeadan keyin Yaman va Adan podshohlari urushni to'xtatadilar. Har ikkala mamlakat shohlari Gul bilan Navro'zga qattiq bog'lanib, ularga suyanib qoladilar. Shu orada farzandlarini yurtma-yurt izlab yurgan Navro'z bilan Gulning otalari kelib qoladilar. Har ikkala sevishgan yoshlar qayerda yashashlari kerakligi to'g'risida hammalari uzoq bahslashadilar. Shunda Navro'zning otasi Farrux bahslashayotgan shohlarga mamlakatlarni birlashtirib, hamjihat bo'lib yashashni taklif qiladi. Hukmdorlar Farruxning maslahatini qabul qiladilar. Farxor, Adan, Yaman va Navshod davlatlari birlashadi va Navro'z shoh bo'ladi.

Doston mazmunidan ko'rinib turibdiki, xalq dostonlaridagi motivlar – farzandsizlik, tush va safar motivlari mazkur dostonning asosiy syujetini tashkil qiladi.

XVII asrdan keyin yaratilgan romantik dostonlarning deyarli hammasida “Gul va Navro'z” dostonidagi motivlar bor. Jumladan, Nishotiyning “Husnu Dil” dostonidagi safar motivi bilan “Sanobar” xalq kitobidagi va ko'plab xalq dostonlaridagi safar motivi yoki “Gul va Navro'z”, Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonidagi farzandsizlik motivi bilan “Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonidagi farzandsizlik motivi uyg'unligini misol qilib keltirish mumkin. Dalil sifatida sharq xalqla-

ri dostonlarining ko'pida uchraydigan farzandsizlik motiviga e'tibor qarataylik: "Qissai Sayfulmuluk"da shoh Osim farzand ko'rmay, oxiri Xudodan farzand so'rab o'g'il ko'radi, o'g'lining ismini Sayfulmuluk qo'yadi; "Bahrom va Gulandom" dostonida Rum mamlakati podshohi farzand ko'rmay, oxiri Xudoning marhamati bilan farzandli bo'ladi va o'g'lining ismini Bahrom qo'yadi. Bu voqealar har ikkala dostonning boshida beriladi, har ikkala dostonida safar motiviga zamin tayyorlanadi, Shuningdek, mazkur dostonlar "Gul va Navro'z" dostoniga bu jihatdan hamohang. Sayfulmuluk otasi hadya qilgan to'nda qizning suratini ko'rib, oshiq bo'lib qoladi. Bahrom ham Gulandomning suratini ko'rib oshiq bo'ladi va h (*Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari...*, 99-b.). Shubhasiz, bunday uyg'unliklar romantik dostonlarning xalq dostonlari zaminida shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Sharq adabiyotida, jumladan, turkiy xalqlar dostonlarida bu motivlar asosida shakllangan dostonlar bir-biridan oziqlangan va bir tizimni hosil qilgan. O'zbek adabiyoti tarixida bu tizim aynan "Gul va Navro'z" dostonidan boshlanganini ham e'tirof etish kerak.

"Gul va Navro'z" dostoni 595 baytdan iborat bo'lib, Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostoni vaznida – aruzning hazaji musaddasi mahbun bahrida (*mafiylun mafoiylun faulun*) yozilgan.

O'zbek tilidagi "Gul va Navro'z" dostoni yozilgunga qadar fors adabiyotida shu nomda ikkita doston yozilgan: birining muallifi Xoja Kirmoniy bo'lib, u Kirmon shahrida Muzaffariylar sulolasining asoschisi hukmdor Muboriziddin Muhammad saroyida (713/1313- 760/ 1359) yashab ijod qilgan; ikkinchi dostonning muallifi Jaloliddin Ahmaddir ( u mohir shoir bo'lish bilan birga, tabib ham bo'lgan, shuning uchun Jalol Tabib deb ham aytiladi).

"Gul va Navro'z" dostonining hozircha ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalari o'n bitta bo'lib, ular Budapeshtda, Parijda, Venada, Istambulda, Londonda, Qozonda saqlanadi. Bu dostonlarning tanqidiy matnini tayyorlash o'zbek adabiyotshunoslari oldida turgan kelgusidagi vazifalardandir. Ana shunda doston yuzasidan bo'layotgan munozaralar, bahslar nihoyasiga yetadi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Haydar Xorazmiy haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar bor? Sharhlab bering.

2. Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoni tuzilishini aytib bering.
3. Nizomiy dostonidagi “No‘shiravon va uning vaziri hikoyati” mazmunini so‘zlang.
4. Haydar Horazmiyning “Maxzun ul-asror”ida qanday masalalar ko‘tarilgan?
5. Xorazmiy oqillar va oriflarga nisbatan qanday iboralarni ishlata-di? O‘sha iboralarni sharhlang.
6. “Bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz hikoyati” mzmunini so‘zlab bering.
7. “Hotam Toy hikoyati” mazmunini so‘zlab bering.
8. “Mahmud G‘aznaviy haqida hikoyat”da qanday masalalar ko‘tarilgan?

## Lutfiy (1366-1465)

### Reja:

1. Lutfiyning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni
2. Lutfiy ijodining janrlar tasnifi, g‘azallari mazmuni.
3. Lutfiyning ruboiy va tuyuqlari.
4. Lutfiy ijodida fard va xalq og‘zaki ijodi janrlari.
5. Lutfiy – mutasavvuf
6. Lutfiy temuriy shahzodalar homiyligida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *malik ul-kalom, tarixiy va ilmiy manbalar, she‘r, devon, matla‘a, masnaviy, suhuk, tatabbu, qasida, g‘azal.*

**Lutfiyning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni.** Lutfiy XIV asrning oxiri – XV asrning o‘rtalarida yashab ijod qildi. Mavlono Lutfiy o‘z zamondoshlari orasida “malik ul-kalom” (Alisher Navoiy ta‘rifi), “so‘z lutfida yagonai davron” (Xondamir ta‘rifi) shoir sifatida shuhrat qozondi. Uning bizgacha yetib kelgan asarlari tarixiy va ilmiy manbalarda Lutfiy taxallusi bilan berilgan. Mavlono Lutfiy turkiy va fors tillarida ijod qildi.

Alisher Navoiy Mavlono Lutfiy haqida bir necha asarida to‘xtaladi. Bu, shubhasiz, Lutfiy ijodining jahonshumul mavqei va sermahsulligi sababidandir.

Shoirning ijodi juda erta boshlanib, umrining so‘nggi kunlarigacha ham ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan. Manbalarda xabar berilishicha, shoir “uftad” radifli g‘azalini 99 yoshida – vafot etgan yili yoza boshlagan. Navoiyning aytishicha, Lutfiy bu g‘azalini tugata olmagan uchun, uni davom ettirib tugatishni Abdurahmon Jomiya vasiyat qilgan. Jumladan, Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Lutfiy to‘g‘risida ma‘lumot berganda, yuqoridagi she‘r haqida ham to‘xtaladi: “Mavlono Lutfiy (alayhir-rahma) – o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzir ul-javob matla‘alari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo‘q tori gisuyi,  
O‘z haddini bilib, beli din o‘lturur quy.

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,  
Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochdin.

Va Mavlononing “Zafarnoma” tarjimasida o‘n ming baytdin ortuq-roq masnaviysi bor, bayozg‘a yozmog‘on uchun shuhrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago‘y ustodlardin ko‘pining mushkul she‘rlariga javob aytibtur va yaxshi aytibtur. To‘qson to‘qqiz yashadi va oxir umrida radifi “oftob” she‘ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu‘ qildilar, hech qaysisi matla‘ni oncha ayta olmadilar va ul matla‘ budurkim:

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,  
Shomi zulfatro ba jon moh dar bar oftob.  
(Tunga o‘xshash zulfingdan quyosh (yuzing) soyaparvardir,  
Tun kabi zulfingda oy o‘rniga quyosh chiqqandir).

Va o‘tar vaqtinda bu g‘azal matlainkim, tuganmaydur erdi, vasiyat qildikim, hazrati maxdumi Nuran tugatib, o‘z devonlarida bitisunlar va ul matla‘ budurkim:

Gar kori dili oshiq bo kofiri Chin aftad,  
Beh z–onki, ba badxo‘i bemehri chunin aftad.  
(Agar oshiqlar dilining ishi chin kofirga tushsa, shu singari bemehr,  
badfe‘lga tushgandan ko‘ra yaxshidir.)

Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni takmil qilg‘ondin so‘ngra, Mavlono Shahobiddin Xiyoboniy (alayhirrahma) qoshida sufiya tariyqi-da ham suluk qilg‘ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi.

Bu faqir borasida ko‘p fotihalar o‘qubtur. Umed ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba‘zi mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Mavlononing qabri shahr navohisida Dehi Kanordakim, o‘z masnani erdi, andadurur” (*Alisher Navoiy. MAT, 13–tom., 61–62–b.*). Navoiyning bu e‘tirofidan Lutfiyning butun ijodi, shaxsiyati, obro‘-e‘tibori, tarjimonlik mahorati, e‘tiqodi va boshqa qirralari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

Shu o‘rinda aytish kerakki, Lutfiyning ”oftob” radifli g‘azaliga zamonasining eng kuchli shoirlari tatabbu bog‘lab, birontasi ham Lutfiy



darajasida ayta olmagan ekanlar, Navoiy ham uning bu radifli gʻazaliga tatabbu yozganmi degan savol tugʻilishi mumkin. Garchi Navoiy tatabbu yozgani haqida biron tarixiy maʼlumot saqlanmagan boʻlsa ham, Navoiyning ”quyosh” radifli gʻazali Lutfiyning ”oftob” radifli gʻazaliga tatabbu deb eʼtirof etiladi. Navoiyning ”quyosh” radifli gʻazali, xuddi Lutfiyning yuqorida keltirilgan ”oftob” radifli gʻazalining matlaʼi singari aruzning *ramali musammani maqsur* (foilotun foilotun foilotun foilon) vaznida yozilgan. Navoiyning bu gʻazali 9 baytdan iborat. Namuna sifatida gʻazalning matlaʼini keltiramiz:

Shom kim tun pardasinda ayladi<sup>146</sup> ixfo quyosh,  
Parda olib yuzdin ul oy ayladi ifsho quyosh.

Lutfiyning ”oftob” radifli gʻazalidan faqat matlaʼsi borligi uchun, sheʼrning mazmun-mohiyati haqida toʻliq xulosa chiqarish imkoni yoʻq. Ammo oʻsha ikki bayt matlaʼning oʻzidanoq Lutfiyning tashbehlari - zulfning tunga oʻxshatilishi va yor yuzining oftobga, yaʼni quyoshga oʻxshatilishi takrorlanmas timsol ekani ayon boʻlib turibdi. Ammo quyosh yorning qora zulfi soyasida kolib ketgan. Qolaversa, tunda quyosh emas, oy chiqishi tabiiy hol, ammo yorning qora zulfi – tun orasida oy emas, quyosh – yorning yuzi charaqlab turibdi. Yorning quyoshmisol yuzi oy oʻrniga tunni yoritib, har tomonga nur sohib turibdi. Lutfiyning bayti mazmuni shunaqa.

Endi Navoiyning ”quyosh” radifli gʻazalining matlaʼi mazmuniga eʼtibor beraylik. Baytning mazmuni quyidagicha: shom (yaʼni yorning qora sochi rangi) tun pardasi (qora soch) ortiga quyoshni (yorning yuzini) yashirdi, oy yuzli dilbar yuzidan pardasini olib quyoshni fosh qildi, quyosh yorning yuzi oldida nursiz edi.

Har ikkala baytning mazmunan bir-biriga yaqinligidan anglash mumkinki, Navoiy ham Lutfiy gʻazalidan ilhomlangan boʻlishi tabiiy hol.

Lutfiyning jahonshumul shoir ekani doimo Navoiyning diqqat-mar-kazida boʻlgan. Navoiy «Badoyiʼ ul-bidoya» devonining debochasida Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy singari ulugʻ shoirlar qatorida Sakkokiy va Lutfiyning shuhratiga alohida baho beradi. Navoiyning taʼrificha, Sakkokiyning shirin baytlari Turkistonda shuhrat topganini, Lutfiyning sheʼrlari Iroq va Xurosonda tarqalganini

<sup>146</sup> E.Rustamovning kitobida ayladi; MATda (2-tom. 215-b.) istadi.

bayon etadi (*Alisher Navoiy. MAT. T.:1987, 14-b.*). Zotan, Lutfiyning she'rlari barcha turkiyzabon o'lkalarga yoyilganini va e'tirof etilganini quyidagi bayt ham tasdiqlaydi:

Yolg'uz Hirida yo'q kim aning zulfi vasfida,  
She'ring sha'ri, Lutfiy, Xitou Xo'tanda.

Lutfiy o'z davrida ham, keyingi davrlarda ham zamonaning mashhur ijodkorlari tomonidan Navoiydan keyingi o'rinda turadigan shoir sifatida e'tirof etilgan. Navoiy Lutfiy g'azaliga bog'lab yaratgan uchta muxammasini mazkur devoniga kiritgan.

Pahlavon Muhammad Kushtigir Navoiy bilan bo'lgan suhbatida Lutfiy va uning zamondoshlari Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy kabi shoirlar haqida to'xtalib, "Ulardan qaysi biri yaxshi yozadi?" deb so'raganda, Navoiy "Borcha yaxshi aytibdurlar", deya javob beradi. Pahlavon Muhammad takroran shu savolni berganda, Navoiy "Lutfiy" deb javob bergan ekan (*E.Rustamov. Ko'rsatilgan asar, 100-b.*).

**Lutfiy ijodining janrlar tasnifi, g'azallari mazmuni.** Bugungi kunda mavjud ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, Lutfiyning ijodiy merosi janrlar bo'yicha quyidagi miqdorni tashkil etadi: g'azallar – 372 ta bo'lib, 4712 misra; qasidalar – 3 ta bo'lib, 214 misra; to'rtlik (tuyuqlar) – 115 ta bo'lib, 460 misra; fardlar 60 ta bo'lib, 120 misra; ayrim baytlar 22 ta bo'lib, 44 misra.

Ma'shuqaning tashqi go'zalligiyu ichki olami, vafosiyu jafosi butun boshli bir g'azalning boshidan-oxirigacha davom etadi. Bu tarifu tavsiflar orqali shoir ma'shuqani go'zallikning mukammal timsoli qilib yaratadi. Shuning uchun ma'shuqaning visoli – rohat, hajri –balo, ammo yor hajr azobida oshiqqa keltirgan baloning evazi bor. Bu evaz – sevikli yorning dudog'i, hajrdan to'kilgan qonlar evaziga oshiq yorning dudog'idan xun bahosini olsa, bas. Shu istak bilan qilgan duolari oxiri ijobat bo'ldi yor tashrif buyurdi:

Bihamdillohki keldi dilraboyim,  
Azizon, ko'zi cho'lpon, to'lun oyim.

Sevar jonim, pari paykar, habibim.  
Visoli – rohatim. hajri – baloyim.

Yuzi gul, sochi sunbul, bag'ri toshim,  
Muhiblarni unutmang bevafoyim.

Murodim davlati, baxtim latifi,  
So'zi shirin nigori jonfizoyim.

Yana tan sori borgon ruh yondi,  
Buyon kelgach safardin mahliqoyim.

Qonimni hajr ila to'kti yozuqsiz,  
Dudog'ingdin tilarman xun bahoyim.

Farah qil, Lutfiykim, dildor keldi,  
Ijobat bo'ldi hazratta duoyim.

Bu qadar maftunkor, jozibali, ayni paytda jafokor yor tasviri dunyoviy muhabbatga bo'lgan tashnalikdan paydo bo'lgan. Yorning g'azalda keltirilgan hamma sifatлари, tashqi go'zalligi *tansiq us sifot san'atini* hosil qilgan.

Ayrim hollarda yorning jafosidan, noz-karashmalaridan azob chekkan qahramon umidsiz kayfiyatga tushganday bo'lib tuyuladi. Aslida baytlarning ma'nosi umidsizlikni emas, balki hijronning avj cho'qqisini ifoda etadi. Quyidagi baytlarga e'tibor beraylik:

Janozamning kovurgokina bog'lang nomai shavqim  
Kim, ul nomehribon topqay xabar bu joni zorimdin.

Ayur Lutfiy aning uzrin ne deb, mahsharda bo'lg'aymen,  
Jafo birla agar qonim to'kub o'tsa mazorimdin.

Oshiqning ma'shuqaga yetkazmoqchi bo'lgan oxirgi orzusi bor: oshiq janozasi kuni ma'shuqaga aytolmagan dardlarini nog'ora sadolari orqali yetkazishni vasiyat qilmoqda, toki rahmsiz yor marhum oshiqning ohu zorlaridan xabar topsin.

Bu baytda oshiqning o'kinchi yoki zolim yoridan yuz o'girish kayfiyati yo'q, aksincha, qabrda yotganda ham yorning jatolarini qabul qiladi, chunki oshiqning muhabbati abadiy. Chinakam muhabbatning samimiy ifodasi, oshiqlik qismatini bo'yniga olish ana shudir.

Lutfiy g'azallarida oshiqlikning qismati faqat his-tuyg'ularning oshkora ifodasiga bog'liq bo'lib qolmay, balki hijron azoblaridan zavqlanish, mahzunlik orqali ichki dardni yuzaga chiqarishda ham namoyon bo'ladi. Oshiqlik qismatining haqiqiy suratini Lutfiy quyidagicha chizib beradi:

Firoqingg'a meni soldi qaroqing,  
Na hojat qiynasa emdi firoqing...

Na deb hajr ilkidin sendin tilay dod,  
Ki hijron birla birdur ittifoqing.

G'amu hasrat bila boshim oqardi,  
Chu bir dam ko'rmadim siymtek saqoqing.

Ham ul dam kuydi Lutfiy sham' yangliq,  
Ki ko'rdi nogihon nortek yangoqing.

Oshiqni qiynayotgan dardning bir o'zi emas, balki dard bilan birga firoq, hijron, g'am-hasrat kabi kayfiyatlar ham oshiqni iztirobga soladi, uning iztiroblari kuchayib boradi. Oxirgi ikki baytda yorning oppoq bag'bag'alarini ko'ra olmaganidan hasrat chekib sochi oqargan bo'lsa, qizil yanoqlarini ko'rganda shamga o'xshab kuydi. Ikki detal, bir-biriga zid ikki holat. Ammo bu zidlikning natijasi ma'shuqaning yagona maqsadini amalga oshiradi – oshiqning dardini zo'raytiradi, xolos. Dardning teran ildizini, dardning qiyofasini bu qadar mahorat bilan chizish faqat Lutfiyga xos.

Lutfiyning fors tilida yozgan she'rilaridan ayrim-ayrim baytlar, shuningdek, uning Abdurahmon Jomiy davom ettirib tugatgan "aftad" radifli g'azali to'liq holda yetib kelgan.

**Lutfiyning ruboiy va tuyuqlari.** Lutfiyning ruboiylari ham, g'azallari singari, yuksak saviyada yozilgan. Uning g'azallarida asosiy o'rin egallagan yor ishq, hijron azoblari va oshiqning dardlari ruboiylarida ham asosiy mavzudir:

Furqatingni chekkali jon qaydadur,  
Sabr etarga sensiz imkon qaydadur!

Bizni bir yo‘li fvrromush aylading,  
Ul burunqi ahdu paymon qaydadur!

Shoirning tuyuqlari ham o‘zbek adabiyoti tarixida mazkur janrlarni boyitdi, u o‘zbek tilining boyliklaridan foydalanib qolmadi, balki o‘zbek tilini boyitishga katta hissa qo‘shdi.

Tuz, begim, bu damda suhbat ko‘kini,  
Tut ayoq, kes dardu g‘amning ko‘kini.  
Ilikingdin chiqsa boshqa bir ayoq,  
Ko‘zga ilmon dunyining yer-ko‘kini.

Tuyuqning mazmuni quyidagicha: 1. Ey begim, kel, suhbatga *ko‘rk* bag‘ishlagin; 2. Qadah tut menga, dardu g‘amlarimning *ildizini* kes; 3. Agar qo‘llaring bilan menga yana bir marta qadah uzatsang, 4. dunyoning yeru *osmonini* ham nazar-pisand qilmaydigan bo‘laman.

**Lutfiy ijodida fard va xalq og‘zaki ijodi janrlari.** Ma‘lumki, fard janri uzoq tarixga ega. Turkiy adabiyotda “Devonu lug‘atit-turk”da qadim xalq og‘zaki ijodidan davom etib kelgan, tojik adabiyotida esa Rudakiy ijodidan boshlangan fardlarni kuzatish mumkin. Lutfiyning fardlari sharqona didaktik mazmunning chuqurligi va falsafiy mushohadaning kengligi bilan alohida diqqatga sazovordir. Lutfiyning fardlari, bir tomondan, so‘z o‘yinlari asosiga qurilgani, ikkinchi tomondan, g‘azallari va ruboiylarida madh etilgan hijron va dardning yangi qirralarini o‘zida mujassamlantirgani bilan ahamiyatli.

Bermagil derlar vafosizga ko‘ngul,  
Kim aning no‘shindin ortuq neshi bor.  
Uzmagaymen la‘lidin o‘lsam umid,  
Jon mening jonim, kishining neshi bor.

Lutfiyning fardlari o‘z davridayoq salaflarining e‘tiborini tortdi. Jumladan, Yaqiniy “O‘q va Yoy” munozarasida Lutfiyning nomini mashhur fors shoirlari Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Xoja Salmon Sovajiy kabi xushta‘b zotlar singari mashhurligini ta‘kidlaydi va uning quyidagi baytini keltiradi:

Xadangi g‘amzasini ko‘rgach ayttim:  
“Maning jonimg‘a o‘t solg‘on sen-o‘q sen!”

Yaqiniy o‘z munozarasida O‘qni ta‘riflar ekan, uni noz-ishvalari bilan oshiqalarga jaf o yetkazadigan bevafo ma‘shuqalarga o‘xshatadi va buning dalili sifatida Lutfiyning yuqoridagi fardini keltiradi. Yaqiniyda-gi O‘q obrazi Lutfiyning fardidagi jafochi ma‘shuqaga o‘xshatilganidan mamnun bo‘lib: “Meni jafochi bevafo mahjublarning g‘amzasi deb ay-tur”, deya mag‘rurlik hissini tuyadi.

Yaqiniyning Lutfiyga bergan ta‘rifidan ma‘lum bo‘ladiki, u Lutfiy devoni bilan yaxshi tanish bo‘lgan, malik ul-kalom shoirning o‘rmini xo-lisallioh belgilab bergan.

Qolaversa, Lutfiy she‘riyatida xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida yaratilgan janrlar borki, bu janrlardan u mahorat bilan istifoda etgan. Lutfiy ijodida xalq qo‘shiq-lari vaznida yozilgan *muhabbatnoma* janri baytlari diqqatga sazovor:

Meni og‘zing uchun shaydo qilibsen,  
Menga yo‘q qayg‘uni paydo qilibsen.  
*Mafoiylun mafoiylun mafoiyl*

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida muhabbatnoma janri ha-qida to‘xtalib, Lutfiyning ana shu baytini keltiradi va “ul hazaji musad-dasi maqsur bahridadur” deb aytadi.

Shoirning quyidagi bayt *aruzvoriy* degan xalq qo‘shig‘i vaznida yo-zilgan:

Davlati vasl iltimosi ne hikoyattur mango,  
Ulki yoding birla jon bersam kifoyattur mango.  
*Foilotun foilotun foilotun foilun*

Navoiy yana yuqoridagi asarida Lutfiyning shu baytini keltirib, “ra-mali musammani mahzuf” vaznida ekanini aytadi (*Navoiy. MAT. 13-tom, 93-b.*).

**Lutfiy – mutasavvuf.** Lutfiydan boshqa shu taxallus bilan ijod qilgan shoirlar adabiyot tarixida bor. Shu taxallusli shoirlarning biri to‘g‘risida Navoiy “Majolis un-nafois”da ma‘lumot beradi. Mavlono Lutfiydan boshqalari ozarbayjon, usmonli turk, fors-tojik tillarida ijod

qilganlar. “Lutfiy” taxallusli shoirlarning birontasi ham Mavlono Lutfiy darajasida she’r bitolmagan. Alisher Navoiy, Xondamir, Abdulla Kobuliylar Lutfiy merosining asosiy qismini uning turkiy devoni tashkil etishini aytganlar. Shoir devonining bizgacha yetib kelgan qo’lyozma nusxalari haqida turli manbalarda ma’lumotlar berilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar bir-biridan farqlidir.

Navoiy Mavlono Lutfiyini faqat o‘z davrining malik ul-kalomi sifatidagina emas, tasavvufning tariqat sulukiga mansub ulug‘ zot sifatida ham yuksak baholaydi. Jumladan, “Nasoyim ul-muhabbat”da Lutfiy haqida quyidagi ma’lumotlar bor: “Mavlono Lutfiy r.t. – tahsil ayyomida Mavlono Shahobuddin Xiyoboniy xizmatig‘a yetar erkandur va odo-bi tariqat sulukini andin kasb qilur erkandur. Agarchi shoirliq tariqida ma’ruf va mashhur bo‘ldi, ammo darveshlik tariqatini taqi ilkidin bermadi. Bu faqir borasig‘a ko‘p iltifoti bor erdi va fotihalar o‘qur erdi va doim volida mulozamatig‘a (xizmat qilishga) va rizoe xotirig‘a targ‘ib qilur erdi. To‘qson yoshidin tajovuz qilg‘onda, Hazrat Maxdumi n.m.n. otig‘a radifi “suxan” saj’ qasidae aytib erdiki, zamon xushgo‘ylari barcha xo‘bluqqa musallam (ma’qul) tuttilar va ul hazrat dog‘i insof berdilar va oning matlai budurkim,

bayt:

[Xusho, labingdin chiqqan so‘zlar – ruh ozig‘i,  
so‘zning jonidir,

Yuzing guli – so‘z bo‘stoni chamanlarini bezovchidir].

Hazrat shukrguzorlik yuzidin ma‘zarat (uzr) izhori qilib dedilarkim, bu she’rning silasi (in’omi) uhdasidin biz chiqqolmasbizki, magar muqobalada ham qasidae sizning otingizg‘a aytqaybiz. Mavlono dedilarki, ani sizga oson qilurbiz. Sizning kiygan oson to‘nungizni gadoylik qilurbizki, hulla (ipakdan tikilgan kiyim) bo‘lg‘ay. Ul hazrat uzrxohliqlar bilan kisvat (kiyim)ni Mavlono g‘a kiydurdilar. Mavlono bag‘oyat so‘xta kishi erdi... Bu matla’idin bu toifa mashrabi (tabiati, odati)ning choshnisi (tabiati) zohirdur:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg‘ali,

Ko‘z gudek qildi seni o‘zini paydo qilg‘ali.

(Alisher Navoiy. MAT. 17-tom, T.:2001 476-477-b.).

Navoiy keltirgan bu ma'lumotdan Lutfiyning, birinchi navbatda, darveshlik axloqida ham mashhur bo'lganini, tariqat odobi sulukiga mansubligini bilib olamiz. Darveshlar yo'li, Navoiy «Mahbub ul- qulub»da aytganiday, botini zohiri bilan barobar, odamlarning malomatlarini xushnudlik bilan qabul qiladigan, adab va tavoze'ni o'zlariga odat qilib olgan, do'stu dushmanga baravar yaxshilik istaydigan toifaning yo'lidir. Gadoylar ham darveshlarning bir toifasi edi. Tariqat odobi bo'yicha esa, tariqat ahli orasida faqirona kiyimlar kiyib yurish odati ham bo'lgan.

**Lutfiy temuriy shahzodalar homiyligida.** Boysung'ur Mirzo kabi sultonlar Lutfiyning buyuk shoir sifatida g'oyat e'tirof etganlar, uni o'z huzurlariga taklif qilib turganlar. Lutfiy Boysung'urning hayot davri va uning o'g'li Alouddavlaning yoshlik, navqiron yigitlik paytiga bag'ishlangan qasidasining so'nggi ikki baytida o'zi bilan shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar manzarasini chizib beradi:

Yetti boshim ko'kka, shohokim, tiladingiz g'azal,  
Ul sharaftin topti devonim qabuli shayxu shob.  
Lutfiy qulning she'ri birla xuddi ehtiyoj,  
Iltifotingdin, begim, men shuhrat ettim iqtisob.

[Mening g'azallarimni istaganingizda boshim ko'kka yetdi, shundan devonim sharaf topib, keksayu yosh tomonidan qabul qilindi. Qulingiz Lutfiyning she'rini o'qishga siz ehtiyoj sezdingiz, ey bek, sizning iltifotingizdan men shuhrat topdim.]

Ko'rinadiki, Alouddavlaga ham Lutfiy g'azallari ma'qul bo'lgan. Chamasi, Alouddavla Lutfiy g'azallarini so'rab olib o'qib turgan. Baytlar mazmunidan yana shu narsa anglashiladiki, yuqoridagi qasida yozilgan davrda – taxminan 1430-yillarda Lutfiy devon tuzgan, degan xulosaga kelish mumkin. Lutfiy devonni bir marta emas, balki bir necha marta tuzgan. Devon qo'lyozmasining Parij va Gota nusxalari shunday fikrga kelishga undaydi. Zotan, bu nusxalarda devon yangi she'rlar bilan to'ldirib borilgan. Devonda she'rlarning o'rnini almashtirilgan, she'rlar tarkibidagi ayrim baytlar tushirilib, yangilari bilan almashtirilgan, baytlar mazmunan qayta tahrir qilingan. Demak, Lutfiy o'z ijodiga har doim jiddiy yondashgan.



Mavlon Lutfiy, birinchi navbatda, Navoiy tarif berganiday, soʻz podshohi. Bu unvonga sazovor bilish uchun Mavlono Lutfiy soʻzga munosabat va soʻz tanlash, oʻz sheʼrlarini butun bir davr sheʼriyatining mezoni sifatida yaratish masʼuliyatini zimmasida olib yurishi lozim edi. Mavlono Lutfiy, haqiqatan, sheʼrlarini ana shu masʼuliyatni his qilib, munosib tarzda yaratdi.

Mavlono Lutfiydan boy adabiy meros qolgan. Manbalarda shoirning 20 dan ortiq asar yozgani aytiladi. Lekin bu asarlarning ayrimlari hali topilmagan. Lutfiy Sharafiddin Ali Yazdiyning fors tilidagi “Zafarnoma” (1437) asarini ham Shohruh Mirzoning taklifi bilan ona tiliga sheʼriy tarjima qilgani Navoiy tomonidan aytilgan. Ammo Navoiy bu tarjimaning oqqa koʻchirilgan nusxasi yoʻqligi uchun shuhrat tutmaganini aytgan edi.

Keyinchalik yaratilgan adabiy-tarixiy manbalarda Navoiy asarlarida berilgan maʼlumotlar takrorlansa-da, bu maʼlumotlar aynan qaytariq boʻlmay, Lutfiy hayoti va ijodining biron qirrasini ochishga xizmat qiladi. Kamoliddin Binoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Bobur, Poshshoxoja kabi qator shoiru muarrixlar Lutfiy ijodi, xususan, sheʼriyatiga yuksak baho berdilar. Lutfiy asarlari XIX asrning oxirlarigacha ham ijod ahliga kuchli taʼsir koʻrsatganini qori Rahmatulloh Vozch (1817-1894) ning “Majmuai mansur va manzumi Vozeh” tazkirasidan ham bilib olish mumkin.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Lutfiy ijodiga Navoiy bir nechcha marta toʻxtalishiga sabab nima?
  2. Lutfiy “uftad” radifli gʻazalini kim davom ettirishini vasiyat qilgan?
  3. Lutfiy qaysi tarixiy asarni sheʼriy yoʻl bilan tarjima qilgan?
  4. Navoiyning qaysi radifli gʻazali Lutfiyning “oftob” radifli gʻazaliga hamohang?
  5. Lutfiyning gʻazallaridan tansiq us-sifot sanʼati qoʻllangan gʻazalni tahlil qiling.
  6. Lutfiyning oshiqlik qismati ifodalangan gʻazalidan oxirgi ikki baytni sharhlang.
  7. Lutfiy ijodida xalq ogʻzaki ijodidan qaysi janrlar qoʻllangan?
  8. Yaqiniy Lutfiyning fardini qay maqsadda keltirgan?
- Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Lutfiy haqida qanday maʼlumot bergan?

## Gadoiy

### Reja:

1. Navoiy Gadoiy haqida.
2. Gadoiy ijodi yevropa olimlari nigohida.
3. Gadoiyning devoni qo‘lyozmasi va g‘azallarining mavzu ko‘lami.
4. Gadoiy g‘azallarida badiiy san‘atlarning o‘ziga xosligi.
5. Gadoiy g‘azallarining qofiyalanish tizimi haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *adabiy harakatchilik, o‘zbek adabiyoti-ning taraqqiyoti, tazkira, matla’, turkigo‘y shoirlar, g‘azal maqta’i, devon, g‘azal, dunyoviy ishq, qofiyalanish tizimi.*

**Navoiy Gadoiy haqida.** Shoir Gadoiy ijodi XV asrda temuriylarning adabiyot va san‘atga alohida e‘tibori bois Movarounnahr va Xurosonda adabiyot gullab-yashnagan davrga to‘g‘ri keladi. V.V. Bartold ta‘biri bilan aytganda, Gadoiy har ikki o‘lka turkiy tildagi adabiy harakatchilikning markaziga aylangan davrda ijod qilgan edi. Bu davrda o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy bilan bir qatorda, Gadoiy ham katta hissa qo‘shdi.

Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida Gadoiy haqida ma‘lumot bor. Navoiy Gadoiy to‘g‘risida shunday yozadi: “Mavlono Gadoiy turkigo‘ydir, balki mashohirdindir. Bobur Mirzo (Abdulqosim Bobur – N.R.) zamonida she‘ri shuhrat tutti. Bir nav‘i aytur va aning mashhur matla‘laridan biri buldurkim:

Ohkim, devona ko‘nglum muftalo bo‘ldi yana,  
Bu ko‘ngulning ilkidin jong‘a balo bo‘ldi yana.

Mavlononing yoshi to‘qsondan o‘tubdur. Bu matla aningdurkim:

Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloi jon emish  
Kim, aning dardi qoshida yuz o‘lum hayron emish”.  
(*Alisher Navoiy. MAT. 13-tom, 105-b.*)

“Majolis un-nafois” yozilayotgan paytda Gadoiy to‘qson yoshda bo‘lgani e‘tiborga olinsa, u 806 (1403-1404) yilda tug‘ilgan deb aytish mumkin.

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da iste‘dodli turkigo‘y shoirlar Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Yaqiniy, Yusuf Amiriy, Lutfiy kabilar to‘g‘risida so‘z yuritganda, Gadoiyni ham zikr etadi (*Alis-her Navoiy. MAT.16-tom, 35-36-b*).

Gadoiy butun umri davomida Hirotda yashagani uning she‘rlaridan sezilib turadi. U naqshbandiya tariqatiga mansub bo‘lgani uchun ham “Gado” taxallusini qo‘llagan. U bir g‘azali maqta‘ida yozadi:

Agar sen husn elining xonidursen,  
Jahonda dog‘i mendek bir Gado yo‘q.

Gadoiy g‘azallarining aksariyati 5 va 7 baytdan iborat.

**Gadoiy ijodi yevropa olimlari nigohida.** Gadoiy ijodi to‘g‘risida dastlab Muhammad Fuod Ko‘purilizoda ma‘lumot bergan. U 1914-yili XV-XVI asrlardagi turkigo‘y shoirlar ijodiga bag‘ishlangan “IX va X asrlardagi chig‘atoy shoirlari” (bu o‘rinda asrlar hijriy yil hisobi bilan berilgan) nomli maqolasida Gadoiyni ham yo‘l-yo‘lakay tilga olib o‘tadi. Ko‘purilizoda ham Navoiyning “Majolis un-nafois” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlaridagi ma‘lumotlarga tayangan holda so‘z yuritgan. Fransuz sharqshunosi E. Bloshe 1932-yili Parijda nashr etilgan turk qo‘lyozmalari katalogida Gadoiy devoni qo‘lyozmasining XVI asr boshlariga oid noma‘lum kotib tomonidan ko‘chirilgan yagona nusxasi to‘g‘risida xabar bergan edi. Vengriyalik turkolog olim Ya. Ekmann ham Gadoiyning shu katalogdagi qo‘lyozmasi to‘g‘risida ma‘lumot bergan (“Turk tili va adabiyoti jurnali” jurnali, 1960, 10—son). Ya. Ekmann mazkur devondan 48 g‘azal, 1 qasida va 1 mustazodni tanlab olib nashr ettiradi. O‘zbekistonda Gadoiy ijodi yuzasidan birinchilardan bo‘lib E. Rustamov tadqiqot ishlari olib bordi. Filologiya fanlari nomzodi E.Ahmadxo‘jaev tadqiqot olib borish bilan bir qatorda, shoirning devonini ham 1975-yili nashr qildi.

**Gadoiyning devoni qo‘lyozmasi va g‘azallarining mavzu ko‘lami.** Gadoiyning devoni qo‘lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Qo‘lyozma hajmi 66 varaq bo‘lib, shoirning 230 g‘azali, 1 qasidasi, 1 mustazodi va 5 to‘rtlikdan iborat. Devondagi Gadoiy merosi-

ning umumiy hajmi 2974 misradir. Devon taxminan XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida ko‘chirilgan. Gadoiy devoni Lutfiy devoni bilan bir muqovadadir.

Gadoiy g‘azallari asosan turkigo‘y shoirlar ko‘p ijod qilgan, o‘sha davrda keng tarqalgan “turkiy” deb ataluvchi surud vazni (ramali musammani maqsur – *foilotun foilotun foilotun foilon*)da bitilgan.

Gadoiy ijodining katta qismini g‘azallar tashkil qiladi. Devonda keng tarqalgan g‘azallar mavzuini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Gadoiyning g‘azallari markazida *inson va uning muhabbati* turadi. Uningcha, muhabbatsiz hayot – hayot emas, muhabbat insonning eng olijanob fazilati va ma’naviy go‘zalligi nishonasidir.

Har kishingkim, seningdek bir sevar jononi yo‘q,  
Filmasal, bir suratedurkim, taninda joni yo‘q.

2. Gadoiy uchun dunyoviy *ishq* hamma narsadan yuksak. Garchi ko‘pchilik mol-mulkini, mansabini, boyligini va amalini ustun qo‘ysada, shoir uchun sevgi hamma narsadan ustun, o‘zi ham shu aqidaga amal qilganidan mamnun:

Ishqingizdin(dur) jahon ichra mubohotim, begim,  
O‘zgalar faxri gar o‘lsa mulku johu mol ila.

3. Qahramon ma’shuqaning *jafosidan* minnatdor, u go‘zallar hukmdori (ya’ni xusravi xo‘bon). Qahramon uning jabru jafolarini xushnudlik bilan qabul qiladi:

Bu bandag‘a har javru jafoyiki qilursen,  
Qilg‘in, vale ul xisravi xo‘bondin ayirma.

4. Ma’shuqaning o‘zi emas, uning *g‘amzayu ishvalari* qotil, muttasil ravishda oshiqning qonini to‘kadi. Garchi ma’shuqa “kofiri qattol”, ya’ni rahmsiz qotil bo‘lsa ham, oshiq undan yuz o‘girmaydi, balki uning qon to‘kishini qo‘msayveradi:

G‘amzasi rahm etmayin har dam Gado qonin to‘kar,  
Ey musulmonlar, netay ul kofiri qattol ila.

Gadoiy “sanga” radifli gʻazalida oshiqning nihoyatda saxiyligining bitta qirrasini kashf qiladi. Oshiq maʼshuqaga yetishish umidida, uning hamma jafolariga rozi, hatto maʼshuqaning sitamlariga sazovor boʻlish uchun “bir hovuch qonim senga halol boʻlsin, ichaver” deya oʻzini butunlay maʼshuqaning ixtiyoriga topshiradi. Oshiq maʼshuqasiga shunchalik bogʻlanib qolganki, maʼshuqa islomu iymondan bexabar boʻlsa ham, mayli (Voqif ermas zarrayi islomu iymondir magar), oshiq rozi.

Gadoiy gʻazallarining mavzu koʻlami keng, timsollar olam boy. Jumladan, maʼshuqaning birgina sochi timsoli taʼrifi va tasviri shunchalik rang-barangki, u sochlar goh oshiqni maftun qiladi, goh oshiq oʻsha sochlarni yana koʻrishni orzu qiladi, goh maʼshuqaning sochlari oshiqni va butun jon lashkarini qirib yuborishga tayyor qotil kabi qasd qiladi va h.

Muʼjizoti husn ila har dam Kalimullohdek,  
Jon cherikin qirar ul zulfi suʼbon shoʻx-shoʻx.

Gadoiy sheʼriyatining oʻziga xos bir xususiyati bor. Bu – yorga murojaatning turli shakllarda koʻrinishidir. U sheʼrlarida bu usulni qoʻllash bilan maʼshuqaga boʻlgan muhabbatini yanada teranroq, samimiy ifodalashga erishgan, maʼshuqaning koʻngliga yoʻl topish uchun unga turli sifatlar, nomlar bilan murojaat qiladi. Takror murojaatlar va sifatlar maʼshuqani bezdiradi, qolaversa, maʼshuqaga boʻlgan muhabbatning samimiyligiga putur yetadi. Shu bois Gadoiy maʼshuqaning diqqatini tortish va muhabbati samimiyligini koʻrsatish uchun eng samarali usul maʼshuqaga turli nomlar va sifatlar bilan murojaat etishdir deb biladi. Quyidagi besh baytdan iborat gʻazalning har bir baytida yorga turli soʻzlar vositasida murojaat etarkan, yorning goʻzalligi yanada yorqinroq namoyon boʻladi, diqqatni jalb qiladi. Gadoiy bu gʻazalida *nido sanʼatining* mukammal namunasi namoyish qilgan. Zotan, hamma shoir gʻazallarida ham har bir baytda nido uchrayvermaydi:

Multafit boʻlmas bu koʻnglum sendin, *ey jon*, oʻzgaga,  
*Ey habibim*, sen borinda bori ne son oʻzgaga.

Sen bikin, ruhi mujassam bor egach, *ey koʻrkka boy*,  
Lofi husn urmoqlik erur asru tovon oʻzgaga.

*Yo ilohiy, sendin ayru chiqsun ush diydalarim,  
Gar nazarni solsam, ey sultoni xo'bon, o'zgaga.*

*Hech ravo ermas bu, ey kofir, musulmonlar aro  
Kim, sen o'lturgaysenu anvoi bo'hton o'zgaga.*

*G'oyati sahv u qusuri tab'din bo'lg'ay, begim,  
Sen borinda bu Gado gar bo'lsa qurbon o'zgaga.*

Ayni paytda Gadoiy bu g'azalida o'zbek tilining boyligini ham namoyon qilgan.

**Gadoiy g'azallarida badiiy san'atlarning o'ziga xosligi.** Yoki shoirning “bizni unutm”, “ayirma”, “sanga”, “unutm” radifli g'azallarida har bir baytda nido san'ati bor: *buti siynbarim, dudoqi shakarim, ayo mohpaykarim, ko'zi g'oratgarim, sevar jonim begim, jonim umidim, azizim, dilbarim, qaroqi kofarim, yo Rab, ul ko'zlari nargis, ayo kavkabi tole', ey charxi sitamgar, begim, sultonim, ey ko'zi cho'lponim, darxonim* kabi. Ana shu san'at qo'llangan g'azalarda oshiqning yorga bo'lgan sevgisi yanada jo'shqin, tabiiy tarzda namoyon bo'ladi. Zotan, tasviriylik va ta'rif-tavsifdan ko'ra, ichki tug'yonlarni va hayajonlarni beixtiyor tashga chiqarishda bu san'atning alohida vazifasi bor.

Gadoiy g'azallarida *muqobala* (qarshi kelish, zidlantirish) *san'atida* ham mahoratga erishganini alohida ta'kidlash darkor:

*Oq evindin qo'yimas erding chiqqali, ey shum raqib,  
Shukrlillah, borikim, yuzung qaro bo'ldi yana.*

Yoki:

*Oq evingdin chiqqan uchun bo'ldi oshufta raqib,  
Ne qizardi munchag'a yolg'onchi ul yuzi qaro.*

Quyidagi g'azalnig matla'ida ham muqobala san'ati bor:

*Umr sen ore balekim, umrdin kelmas vafo,  
Xush ko'runmaydur dag'i bir yo'li anvoi jaf o.*

Gadoiyning “ko'ngul” radifli uchta g'azali bor. Gap bitta radifning uchta g'azalda ishlatilganida emas, balki har uchala g'azalning mavzu ji-

hatidan bir-biriga bog‘liqligida, bir g‘azaldagi mavzuni ikkinchi g‘azalda davom ettirganida. Birinchi g‘azal quyidagicha matla’ bilan boshlanadi:

Ey mening haqqimda yuz turluk jafò qilg‘on ko‘ngul,  
Xasta jonimni giriftori balo qilg‘on ko‘ngul.

G‘azalning keyingi baytlari mazmuni quyidagicha: ma’shuqa bevafo, ammo oshiqning ko‘ngli baribir o‘sha jafochiga muhtalo bo‘lgan; ko‘ngul oshiqni dardu g‘amga oshno qilgan; ko‘ngli uni hijron o‘tida kuydirib, ayshu ishratdan mahrum qilgan va h.

Endi ikkinchi g‘azalning matla’iga e’tibor beraylik:

Ey meni mundoq jahonda xoksor etgan ko‘ngul,  
Yor zulfitek parishon ro‘zgor etgan ko‘ngul.

Bu g‘azalning matla’i mazmuni keyingi baytlarda davom etadi: ayshu ishrat ichida uning ko‘ngli dardu balolarni ixtiyor etgan; yillar davomida yiqqan javohirlarini – obro‘-e’tiborini ko‘ngli oyoq osti qilib tashladi; bir paytlar elning nazarida e’tiborli odam bo‘lgan edi, ammo ko‘ngli endi uni it kabi bee’tibor qildi.

Uchinchi g‘azalning matla’i quyidagicha:

Ey soching zanjirining majnuni bu shaydo ko‘ngul,  
Necha yonsun furqatingning o‘tina imdo ko‘ngul.

Endi oshiq ma’shuqaning jafò va zulmlarini emas, balki ko‘ngilni ma’shuqaga bog‘lovchi omillar – sochiga shaydo bo‘lgani, firoq o‘tida yonganda ko‘ngil madad bergani va ma’shuqa tufayli ko‘p balolar ko‘rganini hikoya qilayotganday bo‘ladi. Avvalgi ikki g‘azalning xulosasi shu g‘azalda jamlanadi. Oshiq ma’shuqaning hamma jafolarini boshdan kechirib bo‘ldi, endi taqdirga tan berdi, hammasiga ko‘ngul sababchi bo‘ldi.

Shoir dardlarini bitta g‘azal doirasiga sig‘dira olmagan. Shoir oshiqning ahvolini tadrijiy ravishda rivojlantirib borgan. Ko‘ngul jafoni kuchaytirib, zulmni orttirib boraverdi, oshiq esa ko‘ngli oqibatida kelgan jafolarni va zulmni qabul qilaverdi. Shunday qilib, uchinchi g‘azal ko‘ngulning ishlariga yakun yasadi.

**Gadoiy g‘azallarining qofiyalanish tizimi haqida.** Ba‘zi g‘azallarida Gadoiy qofiyalanish tizimidan va qoidalaridan tashqari chiqadi. Sababi shuki, shoir xalq qo‘shiqlarining vazni va qofiyasiga berilib ketib, xalq qo‘shiqlari qofiyalanishini tatbiq qiladi. Agar bu qofiyalanish tizimi noo‘rin bo‘lganda edi, Navoiy “Majolis un-nafois” da Atoyining qofiyada yo‘l qo‘ygan xatosi to‘g‘risida to‘xtalgani kabi, Gadoiy g‘azallarida qofiyalanishdagi saktaliklar to‘g‘risida ham so‘z yuritgan bo‘lardi. Ammo Navoiy Gadoiyning qofiyalari to‘g‘risida yoki she‘riyatidagi biron kamchilik to‘g‘risida hech gap aytmaydi. Gadoiy qofiya sifatida bir xil so‘zlardan yoki qofiya hisoblanmaydigan so‘zlardan ham foydalanadi. Qofiya o‘rnida foydalaniladigan so‘zlar, xalq qo‘shiqlaridagi kabi she‘rning ohangini buzmaydi:

Ul jafochi bizga bir kun muftalo bo‘lg‘aymu, oh,  
Vaslidin bu qayg‘uluq jon shodmon bo‘lg‘aymu, oh.

Baytdagi *muftalo* – *shodmon* qofiya o‘rnida kelgan.

Gar qabuliyatqa qobil tushsa jon jonim senga,  
Jonima minnat, fido bo‘lsun, begim, jonim senga.

Bu baytdagi *jon* – *begim* so‘zlari qofiya o‘rnida kelgan.

Gadoiyning bitta mustazodi bor. Mustazod shoirning she‘riyatdagi iqtidoriga mezon bo‘lib xizmat qila oladi.

Gadoiyning 13 baytdan iborat qasidasi ham bor. Bu qasida Shohruhning nabirasi Xalil Sultonga bag‘ishlangan. Gadoiyning Xalil Sultonga e‘tiqodi ancha balandligi quyidagi baytda ko‘rinadi:

Lisonul g‘aybdin keldi qulog‘img‘a xitobikim,  
Shahanshohzodalarning sarvari Sulton Xalilulloh.

Bu baytdan anglashilishicha, Abulqosim Boburdan keyin Xalil Sulton taxtga chiqishini Gadoiy orzu qilgan.

Umuman, Gadoiy o‘z davrining ulug‘ shoiri va xalq she‘riyatining chin ma‘nodagi muxlisi bo‘lgan edi.



### ***Savol va topshiriqlar***

1. Gadoiy haqida Navoiyning ta'rifi va ma'lumotlarini sharhlang.
2. Gadoiy haqida tadqiqot olib borgan yevropa olimlarining ishlarini sharhlab bering.
3. Gadoiyning lirik janrlari haqida so'zlab bering.
4. Gadoiy g'azallarining mavzu ob'ektlarini izohlang.
5. Gadoiy g'azallarida yorga murojaatning shakllarini izohlang.
6. Gadoiy ijodida qaysi badiiy san'atlar asosiy o'rin tutadi? Misollar bilan tushuntiring.
7. Gadoiy g'azallarida qofiyalanish tizimining o'ziga xosligiga sabab nima?

## Sakkokiy

### Reja:

1. Sakkokiy haqida Navoiy.
2. Sakkokiyning adabiy merosi.
4. “Badoyi’ ul-bidoya”da Sakkokiyga Navoiy bergan ta’rif.
4. Sakkokiy g’azallari mazmuni.
5. Sakkokiy qasidalari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *tarjimai hol, taxallus, turkiyshunos olim, “Badoyi’ ul-bidoya” devoni, obrazlar tizimi, debocha, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari, turk shoirlarining mujtahidi, ijod ahli, g‘azal, qasida, munojot, na’l.*

**Sakkokiy haqida Navoiy.** Sakkokiy XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan. Uning tarjimai holi haqida yetarli ma’lumot yo‘q. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida bunday yozadi: “Mavloni Sakkokiy – Movarounnahrdindur. Samarqand ahli anga ko‘p mu’taqid (e’tiqod qiluvchi)durlar va bag‘oyat ta’rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda muarriflaridin (ta’rif qiluvchi) har necha tafahhus (surishtiruv) qildimkim, aning natoiji ta’bidin biror nima anglayin, ta’rif qilg‘onlaricha nima zohir bo‘lmadi. Barchadin qolsalar so‘zlari budurkim, Mavloni Lutfiyning barcha yaxshi she’rlari aningdurkim, zo‘rlab o‘z otig‘a qilibtur. Ul yerlarda bu nav o‘xshashi yo‘q, mazasiz muqobaralar (qarshi chiqish) gohi voqye’ bo‘lur. Bori ba’zisi ta’rif qilibkim o‘qurlar, bu matla’ni anga isnod (nisbat berish) qilurkim:

Ne nozu bu, ne shevadur, ey jodu ko‘zluk, sho‘xshang,  
Kabki dariy tovusda yo‘q albatta bu raftoru rang.  
Qabri ham ul sari -o‘qdur” (*Alisher Navoiy. MAT. 13-tom. 64-b.*).

Navoiy bergan bu ma’lumot Sakkokiyning tarjimai holiga ma’lum darajada aniqlik kiritadi: Sakkokiy asli Mavoraunnahrdan, Samarqandda shuhrat topgan, Samarqand ahlining katta hurmatini qozongan. Navoiy Samarqandda bo‘lgan paytda Sakkokiyning o‘zi va she’rlari to‘g‘risida biron ma’lumotga ega bo‘la olmagan, Lutfiyning yaxshi she’rlarini Sakkokiy o‘ziniki qilib olgan, degan ba’zi mish-mishlaru bo‘htonlar asossiz va h.

“Sakkokiy” shoirning taxallusi bo‘lib, tug‘ilgan yeri, yili ham noma‘lum. Venger turkiyshunos olimi Yanos Ekmanning qayd etishicha, Sakkokiy XI V asrning ikkinchi yarmida tug‘ilgan va XV asrning birinchi yarmida vafot etgan. U ilk she‘rlarini Amir Temur davrida yoza boshlagan bo‘lsa, ijodiy kamoloti Ulug‘bek saltanati yillariga to‘g‘ri keladi.

**Sakkokiyning adabiy merosi.** Sakkokiy devonining ikki nusxasi bor. Ammo ikkala nusxa ham nomukammal, g‘azallar qismi to‘liq emas. Bu nusxalarning biri Britaniya muzeyidagi 2079 raqamli nusxa bo‘lib, unda 13 qasida va 57 g‘azal jamlangan. Ikkinchisi Toshkent qo‘lyozmasi bo‘lib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 7685 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxada 13 qasida va 52 g‘azal bor.

Ma‘lumki, Navoiy Samarqandda ikki marta bo‘lgan. Ammo Sakkokiyni ko‘ra olmaganidan (1467-1469) shunday fikrga kelish mumkin-ki, Sakkokiy oldinroq vafot etgan. Shuni ham aytish kerakki, Sakkokiy yashagan joy haqida ikki xil ma‘lumot bor: ba‘zilar Ulug‘bek saroyida yashab ijod qilgan deb aysalar, ayrimlar Sakkokiy Sabron shahrida Mirzo Ulug‘bekning noibi Arslon Xoja himoyasida yashagan deb taxmin qiladilar.

**Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya”da Sakkokiya bergan ta’rif.** Yana Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining debochasida Lutfiy va Sakkokiya quyidagicha ta’rif berib, har ikkalasining bir-biridan qolishmaydigan mashhur shoirligini e’tirof etadi: “Va uyg‘ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag‘osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahumollohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag‘oyat va birining latif g‘azaliyoti intishori Iroqu Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo‘lg‘ay” (*Alisher Navoiy. MAT. 1-tom, T.: 1987, 14-b.*). Mazkur ta’rifdan ko‘rinadiki, Sakkokiy Lutfiy bilan bir qatorga qo‘yishga loyiq shoir bo‘lgan. O‘sha uch g‘azal ayni bir vazn va qofiya bilan nazira holida Lutfiy devonida bor. Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko‘chirilgan uyg‘ur va arab xatidagi o‘sha uchta g‘azal Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasidagi 4757 raqamli bayozda uchraydi. Bu g‘azallarni turkiyalik olim Usmon Fikri Sartqoya chop ettirgan. Kamol Erosan “Mavlono Sakkokiy” (Anqara, 1999) kitobiga kiritgan. Mana, o‘sha uchala g‘azal:

*(Rajaz: musta'filun musta'filun musta'filun musta'filun)*

Ey zulfi zanjirim, biror devonalarni yod qil,  
Bashosh yuzni ko'rsatib, g'amgin ko'ngulni shod qil.

Ko'nglum nedin tushti sening yo'lingda ul bir qayg'ug'a,  
Ul nun qoshing haqqi uchun bu qayg'udin ozod qil.

Har dam kelib xon mulkiga ishqing shohining elchisi,  
Jonimg'a aytur ki ravon chiqmoqqa iste'dod qil.

Kofur ko'zung yuz ming balo gar meni o'ldurmasa,  
Qon to'kkuchi g'amzangni sen har dam manga jallod qil.

Har necha hukmungdur ravon, ey shoh, oshiqlar uza,  
Har ishni chun so'ru'g'usi albatta adlu dod qil.

Chun gul yuzung, bulbul begi, jonimni qildi beqaror,  
Asig'siz ushbu so'z manga aytur: "sen oz faryod qil".

Kirpikungnung olmosi gar Sakkokiy bag'rin tilmasa,  
Ey sho'h, sen g'amzang o'qi paykonini po'lod qil.

\*\*\*

*(Ramal: foilotun foilotun foilotun foilun)*

Ey mening ko'nglumni zulfi tek parishon aylagan,  
Nor yangoqing o'tidur bag'rimni biron aylagan.

Dur mengizlig tishlaring har dam ko'zumni bahr etar,  
La'ling ul qontek mening bag'rim uchun qon aylagan.

Yuz uza zulfing erur ganch ustida yotqon yilon,  
Oh, o'shal ganch orzsidur bizni vayron aylagan.

Sha'y qil ko'nglum evi ham asru vayron bo'lmasun,  
Sen erursen kim anga ko'p lufu ehson aylagan.

Rahm qilg' il bandag'a, ey shoh, bir Tangri uchun,  
Ul erur meni gado va seni sulton aylagan.

Bilmamish bo'lma bilib Sakkokiyning jon holini,  
Ey jahondin aql olib o'zini nodon aylagan.

\*\*\*

*(Rajaz: musta'filun musta'filun musta'filun musta'filun)*

Ey orazi bargi gulu voy qomati sarvi chaman,  
Ravshan yuzung yanglig' yana hech ko'rmadi sham' anjuman.

Ul yuz uza zulfing solib bo'stonda yurunsang biror,  
Sunbul mengizlig to'lg'anur o'z o'zina vardu somon.

Erning kim ul xotam erur angushtarintek og'zina,  
Aning uchun yaxshi aqiq umrida ko'rmadi Yaman.

Ko'nglum tilar jon naqdini sarf etsa yuzung vajhina,  
Bu vaj "min kullil-vujuh" ko'rdu erur vajhu hasan.

So'rdu labingdin, yuz balo jonimg'a kelgan kim deyu,  
Egirdi o'lingda qoshing ya'ni ul ish qilg'uchi man.

G'amza bila aytur ko'zung, hyey, egri o'ltur, so'zla rost,  
Mendin adin kimdur o'shal bilgay bu san'at yo bu fan.

Sakkokiy ko'ngli orzular zulfung chevorinda o'run,  
Har necha kim kufr elidur imonidin hubbul-vatan.

Mazkur g'azallar, shubhasiz, Sakkokiyning boshqa g'azallari ob-razlar tizimini to'ldiradi. Ma'shuqaning turli sifatleri - *ishq shohining elchisi, kaffor ko'z, qon to'kkuchi g'amza, bulbul begi* singari o'xshatish asosidagi timsollar va yorning yuzi ustida yoyilgan sochini xazina ustida yotgan ilonga, dunyodagi jamiki aqllarga ega bo'lgani holda o'zini nodonlikka solishi Sakkokiyning o'ziga xos o'xshatishlaridir.

Avval ko‘rib o‘tganimizdek, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida Sakkokiyni Shohruh davrida yashagan mashhur turkiyzabon shoirlar qatorida eslaydi.

Yaqiniy ham Sakkokiyning shoirlik iste‘dodiga yuqori baho bergan, uni shoirlarning mujtahidi (ya‘ni g‘ayratlisi) deb ta‘riflab, bir baytini keltiradi: “Yana Sakkokiyykim, turk shoirlarining mujtahididir, mening munosibi holimg‘a aytur. Nazm:

Jonim fido bo‘lsun sening g‘amzang o‘qina necha kim,  
Har necha qoshing egmasi o‘qdek bo‘yimni yo qilur”.

**Sakkokiy g‘azallari mazmuni.** Sakkokiyning ijodiy merosi hajm tomondan kichik bo‘lsa ham, ammo mohiyati jihatidan buyukdir. U o‘z salaflarining, qolaversa, Navoiyning ta‘rifiga sazovor bo‘lganidan ham uning ijod ahli o‘rtasidagi yuksak mavqei baholash mumkin. Albatta, Sakkokiyning shu qadar e‘tiborga sazovor va mashhur shoir bo‘lib kamol topishida davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyati, temuriylarning badiiy ijodga, ilm-fanga bo‘lgan e‘tibori omil bo‘ldi.

Sakkokiy she‘rlari o‘z davridagi ijod ahli g‘azallaridan shunisi bilan alohida ajralib turadiki, uning ma‘shuqasi dunyoda tengsiz, unga monand biron ta‘zot yo‘q. Buning tasdig‘i sifatida *Bo‘yungdek butmadi bo‘ston aro sarvi ravon, ey jon* misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalini olib ko‘raylik.

G‘azalning birinchi baytidanoq bunday sarvqomat go‘zal nafaqat odamzod nasli orasida, hatto tabiatda ham yaratilmagan, uning yuzi singari go‘zallik gullar orasida ham hali bu olamga kelmagan:

Bo‘yungdek butmadi bo‘ston aro sarvi ravon, ey jon,  
Yuzungtek ham ochilmadi chamanda guliston, ey jon.

Oshiq ma‘shuqaga yetishish uchun har qanday jabru jafolarga, hatto ma‘shuqaning “o‘qi”ga – kipriklariga mushtoq, o‘q inson tanasiga zarar yetkazganiday, ma‘shuqaning kiprik qoqishi oshiqning qalbini o‘qning yarasidan ham og‘ir ahvolga soladi. Oshiq, yorim qachon menga o‘qini otarkin deya ko‘zi to‘rt bo‘lib kutadi:

O‘qunguzning bashoqinga ko‘ngul mushtoqu ko‘z oshiq,  
Bular taloshmoqin bo‘ldi ul ikki ora qon, ey jon.

Ma'shuqaning tashqi qiyofasi tasvirida Sakkokiy go'zal mubolag'a yaratadi – yorning sochlari nafaqat oshiqqa, balki butun Rum ahliga xuddi Habash lashkarining kuch-qudrati barobarida g'orat yetkazishi mumkin. Agar shunday hodisa sodir bo'lsa, "ko'ngul mulkida" – oshiqning qalbida aslo omonlik bo'lmaydi, uning qalbi vayron bo'ladi:

Agar Rum ahlina zulfung Habashning lashkarin solsa,  
Ko'ngul mulkida ul soat topilmas hech amon, ey jon.

Sakkoiy ma'shuqaning qoshu ko'zlari, kipriklarini, ayni paytda nozkarashmalarini tasvirlar ekan, oshiq uchun nihoyatda totli azob damlari keladi. Ma'shuqadan jabr tortish oshiq uchun lazozatli damlardir. Shuning uchun shoir:

Mening bu xasta jonimga sening darding erur marham,  
Qiyomatqa teki hargiz bu darding'a davo qilma, -  
deya iltijo qiladi. Zotan, ishq oshiq uchun tuganmas dard, ammo oshiq bu dardning tuganmasligini istaydi. Darvoqe, agar ishq dardi tugansa, oshiq ruhsiz, o'lik bir narsa bo'lib qoladi.

Sakkokiy temuriy hukmdorlardan Xalil Sulton (1405-1409), Mirzo Ulug'bek, amir Xoja Arslon Tarxonga qasidalar bitgan. Yuqorida aytilganiday, Sakkokiy yashagan joy haqida ikki xil ma'lumot bor: ba'zilar Ulug'bek saroyida yashab ijod qilgan deb aytsalar, ayrimlar Sakkokiy Sabron shahrida Arslon Xoja himoyasida yashagan deb taxmin qiladilar. Navoiy Samarqandda Sakkokiyni surishtirib topa olmaganidan Sabron shahrida yashagani to'g'risidagi taxminlar haqiqatga yaqin bo'lib chiqadi. Sakkokiy Arslon Xoja yoki Ulug'bekning himoyasida yashaganidan shuni anglash mumkinki, u she'riyatni juda yaxshi tushunadigan, qadrlaydigan hukmdorlar homiyligida yashagan ekan, u xalq orasida mashhur, iqtidorli shoir bo'lganiga bu ham bir dalildir.

**Sakkokiy qasidalari.** Sakkokiyning 13 qasidasi 407 baytdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

1. *Munajat* 22 baytdan iborat bo'lib, Ollohning yagonaligi. Uning sifatlari madha qilinadi va Sakkokiy o'z gunohlari uchun tavba-tazarru qiladi.

Osiy qul Sakkokiyning isyonig'a had yo'q hisob,  
Sen karam birla kechurgil, ey Karimi kirdgor.

Ramal: *foilotun foilotun foilotun foilun*

1. *Na't* 24 baytdan iborat bo'lib, Muhammad s.a.v. ga bag'ishlangan bir madhdir. Shoir bu qasidasida riyosiz sevgi haqida bayon qilib, uning shifoatidan umid qiladi. Bu *na't* Lutfiy devonining ba'zi nusxalaridan ayrim farqlar bilan o'rin olgan. Lutfiyda bu *na't* 21 baytdan iborat. Oxirgi baytda har ikkisinin nomi qayd etilgan. Qaysi shoirga tegishli ekani noma'lum (Gunay Kavagach. Edebiyat Fakultesi Doktora Tezi, Lutfi Divani (Girish, Metin, Dizin, Tipki Basim), Ankara, 1997, TDK yayinlaridan).

Lutfiy va Sakkokiy devonlaridagi mazkur qasidaning birinchi 1 va 2-baytlari quyidagicha:

Osiy ummatning panohi yo Shafe' al-muznibin,  
Jahl johidin chiqarg'a sunnating hablul- matin.

Yo'lg'a kirganlarg'a xulqungdur yaqin sarmoyasi,  
Yo'l yangilg'anlarg'a she'ring shohrohidur mubin...  
Ramal: *foilotun foilotun foilotun foilun*

Oxirgi baytda ayrim o'zgarishlar bor. Sakkokiyda:

Rahm qil *mahshar kuni Sakkokiy* osiy jonig'a,  
Yo Shafe' al-muznibin, yo rahmatan lil-olamin.

Lutfiyda:

Rahm qil *mehnat kuninda* Lutfiy osiy jonig'a,  
Yo Shafe' al-muznibinu rahmatan lil-olamin.

Bu farqlar Navoiy Samarqandda bo'lgan davrda ham ma'lum ekan, shekilli, ayrim odamlarning. Sakkokiy Lutfiy g'azallarini o'zlashtirib olgan, degan mish-mishlarning qanchalik haqiqat ekanini o'zi tekshirib, bilmoqchi bo'lgan. Navoiy Sakkokiy g'azallarini Lutfiyniki bilan qiyoslab ko'rmoqchi bo'lgan, ammo uning g'azallarini qidirib topolmagan.

2. *Dar madhi Xoja Muhammad Porso*, *navvarollohu marqadu* qasidasi xijriy VIII asrda yashagan buxorolik mutasavvuf Muhammad Porsoga bag'ishlab yozilgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da yozi-



shicha, u shunchalik mashhur va e'tiborli mutasavvuf bo'lganki, hijriy 822-yili Buxorodan Hirotga ziyorat qilgani yo'lga chiqqanda, Nasaf, Chag'oniyon, Termiz, Balx aholisi katta izzat-hurmat bilan uni kutib olgan. Muhammad Porso Jom viloyatidan o'tayotganda, Abdurahmon Jomiy ham yosh paytida otasi bilan birga uni ziyorat qilgani chiqqan ekan. Qasida 21 baytdan iborat bo'lib, Sakkokiy Xoja Muhammad Porsoga chuqur muhabbat bog'laganini, uni ma'naviy piri sifatida qabul qilganini yozadi. Qasidaning o'n to'qqizinchi bayti shunday:

Mundoq tirig bo'lub yuruguncha e(y) koshki,  
Sakkokiy bo'lsa erdi ul eshikta xoki po.

*Muzori: maf'ulu foilotu mafoilu faulun*

3. *Dar madhi Ulug'bek Mirzo, navvarollohu marqadu* qasidasi Samarqand taxtida o'tirgan Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan bo'lib, 34 baytdan iborat. Qasidada Ulug'bekning alolatparvarligi, jasorati va boshqa fazilatları madh qilinadi:

Raiyyat qo'y erur, sulton anga cho'pon, yag'i bo'ri,  
Bo'ri o'lgayu qo'y tingay, chu Musoteg sho'bon keldi.

*Hazaj: mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun*

4. *Dar madhi Xalil Sulton qasidasi 30 baytdan iborat bo'lib, 1405–1409-yillari Samarqand taxtida hukmronlik qilgan Xalil Sultonning fazilatları kuylanadi:*

5.

Gul chehralarning javridin qat-qat bu bag'rim qon erur,  
Dur tishlarining nozidin iki ko'zum ummon erur.

*Rajaz: mustafi'lun mustafi'lun mustafi'lun mustafi'lun*

Qasidaning boshidan o'rin olgan to'rt bayt Lutfiyning quyidagi g'azali bilan o'xshashdir:

Qonimni so'rdi erningu so'rmadi andin hech kishi,  
Da'vo qilur bo'lsam, manga ayturki, eski qon erur.

Boshta qilur erdi qoshing ko'nglum haqida egrilik,  
Ko'z haqqin o'zin anglasun kim navbati ehson erur.

Zulfung uzatur erdi ko‘p zulm iligin, ey yig‘mading,  
Xolo uyalmaqtin boshin ostin solib paymon erur.

Bir kun jamoling ko‘rmayin hasratta qoldi go‘yiyo,  
Bechora miskin Lutfiyg‘a ro‘zi bori hijron erur.  
Rajaz: *mustafi‘lun mustafi‘lun mustafi‘lun mustafi‘lun*

6. *Dar madhi Ulug‘bek Mirzo, navvarollohu marqadu* qasidasi 26 bayt bo‘lib, Ulug‘bekning adolatli va shijoatli ekani madh qilinadi. Dastlabki olti bayt oshiq va ma‘shuqa munosabatlarini aks ettiradi. Quyidagi yettinchi bayt gurizgohdir:

7.  
Sanamlar zulfidin o‘zga aning ahdida yo‘q zolim,  
Ularning ko‘zlari qilg‘ay magar turk elidin yag‘mo.  
Hazaj: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

8. Bu qasidaning boshlanishi yo‘q. To‘rtinchi baytdan qasidaning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangani anglashiladi:

Adlu dodikim bu kun Sulton Ulug‘bek yuritur,  
Ko‘rmadi Nushinravon umrida andog‘ adlu dod.  
Ramal: *foilotun foilotun foilotun foilun*

Avvalgi qasidalardagi Ulug‘bekka xos sifatlar va fazilatlar bu qasidada davom ettiriladi.

9. Qasidaning boshlanishi yo‘q, qirq uch baytdan iborat. Dastlabki o‘n yetti bayti “Bahoriya”, o‘n sakkizinchi bayti gurizgohdir. Qasida Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan:

Shijoat ichra Ali yanglig‘ Arslon Xoja,  
Qilichi chiqsa qinidin, qilur aduni odam.  
Mustass: *mafo‘ilun foilotun mafo‘ilun fa‘ulun*

Arslon Xoja Tarxon Mirzo Ulug‘bekning amiri bo‘lib, Turkiston (Yassi)ga qarashli Sabron shahrida hukmdor bo‘lgan. Yuqoridagi baytda keltirilganiday, Arslonxoja harbiy ishda nihoyatda mohir, ayni paytda shoir ham bo‘lgan. Sakkokiy Sabron shahrida Arslon Xoja himoyasida

yashagan degan taxminlar borligini yuqoriga aytdik. Arslon Xoja Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarini 1444-yili Samarqandda uyg‘ur xatida ko‘chirtirgan. Bu kitobning debochasida Yugnakiy va uning asari haqida 11 baytdan iborat Arslonxojaning she‘ri keltirilgan.

10. Qasida qirq baytdan iborat bo‘lib, o‘n to‘rtinchi baytdan Ulug‘bekka bag‘ishlangani anglashiladi. Qasidaning gurizgoh bayti quyidagicha:

Muiniddin Ulug‘bek xon shahizoda davrinda,  
Kiyik arslonu qo‘y, bo‘ri bu kun bir yerda xush o‘tlar.  
Hazaj: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

Dastlabki o‘n uch bayt nasib qismi bo‘lib, go‘zallarning vasfi, zulmi, oshiqning iztiroblaridan bahs etadi. Ulug‘bekning yuqoridagi qasidalarda vasf qilingan sifatleri aytiladi.

Sakkokiyning bu qasidasiga Mavlono Haydar Telba bilan Abdurazzoq baxshi nazira yozgan. Har ikki naziraning boshlanishi yo‘qligi uchun, Ulug‘bekning nomi ham anglashilmaydi. Haydar Telbaning nazirasi o‘ttiz bayt, Abdurazzoq baxshiniki o‘n yetti baytdir. Har ikkovining qasidasi Kamol Eroslanning yuqoridagi kitobida berilgan (33–37–b.).

11. *Dar madhi Ulug‘bek Mirzo, navvarollohu marqadu* qasidasi 54 baytdan iborat bo‘lib, dastlabki 27 bayti “Bahoriya” bo‘lgan nasib qismini tashkil etadi. 28-bayt gurizgohdir:

Erur ul shoh Ulug‘bekkim, hamisha tig‘u adlindin  
Qilur din ishini ravshan, behishti shoni dunyoni.  
Hazaj: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

12. *Dar madhi Arslon Xoja, navvarallohu marqadu* qasidasi 43 bayt bo‘lib, dastlabki 19 bayti “Bahoriya” bilan boshlanadi. 20-bayt gurizgohdir:

Buzurgi mutlaq erur Tarxon Arslon Xoja,  
Sharaftin ul ayoqini falakta qo‘ysa ravo.  
Mustass: *mafo‘ilun foilotun mafo‘ilun fa‘ulun*

13. “Va lahu ayzan” iborasi bilan boshlangan bu qasida ham Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan:

Tarxon Arslon Xojakim, gardun nazirin ko‘rmadi,  
Haq qilibtur zotig‘a majmui fandin fathi bob  
Ramal: *foilotun foilotun foilotun foilun*

14. “Va lahu ayzan” iborasi bilan boshlangan bu oxirgi qasida 12 baytdan iborat bo‘lib, tugallanmagan. Qasidaning 12-bayti gurizgohdir:

Odil Arslon Xoja Tarxon dinu dunyo lazzati,  
Sha‘ru din jismi erur, ul jism ichra bu hayot.  
Ramal: *foilotun foilotun foilotun foilun*

Xullas, shoirning 13 qasidasidan 5 tasi Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan. Sakkokiy qasidalarining hajmi 12 baytdan 54 baytgacha yetadi. Nasibdan keyin gurizgoh (o‘tish) keladi. Gurizgohlar ba‘zan 4-5 va undan ortiq baytlardan tashkil topgan. Sakkokiy qasidalarining nasib qismlari biroz cho‘zilgan bo‘lishiga qaramasdan, yuksak did bilan yo‘zilgan.

Sakkokiy qasidaları ba‘zan nasibsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri madh bilan ham boshlanadi. Bunday qasidalar odatda, “qasidayi mujarrada”, ya’ni “yalang‘och qasida” deyiladi.

Sakkokiyning g‘azal va qasidaları XV asr o‘zbek adabiyotida alohida iz qoldirdi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Sakkokiy haqida qanday ma’lumotlarni bergan?

2. Sakkokiyning adabiy merosi qayerlarda saqlanadi va qancha hajmda?

3. Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonida Sakkokiy ijodiga qanday ta’rif beradi?

4. Sakkokiyning Usmon Fikri Sartqoya chop ettirgan birinchi g‘azali mazmunini so‘zlab bering.

5. Sakkokiy g‘azallarining obrazlar tizimiga qisqa ta’rif bering.

6. Sakkokiy Mirzo Ulug‘bekka nechta qasida bitgan? Bironta qasidasining mazmunini so‘zlang.

7. Sakkokiy Xoja Arslon Tarxonga nechta qasida bitgan? Bironta qasidasining mazmunini so‘zlang.

## Atoyi

### Reja:

1. Navoiy Atoyi haqida.
2. Atoyi ijodini o'rgangan olimlar.
3. Atoyi she'rlarida qo'llangan she'riy san'atlar.
4. Hofiz Xorazmiy.

**Tayanch so'z va iboralar:** *yirik so'z san'atkori, "Majolis un-nafois" tazkirasi, devon, taxallus, o'xshatmalar, poetik obrazlilik, qoftiya ehtiyoji, badiiy san'atlar, tarkibband, tarje'band, muxammas, marsiya, g'azallar, mustazod, qit'a, ruboiy.*

Atoyi XV asrning o'rtalarida yashab ijod etgan yirik so'z san'atkorlaridandir.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Atoyi Balx shahrida yashagan, Ismoil ota farzandlaridan bo'lib, xushtabiat, sodda, darveshvash va xushxulq kishi bo'lgan. Turkigo'y shoir edi. Uning she'rlari turkiy xalqlar orasida ko'p shuhrat tutgan, qabri ham Balxda. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida yozishicha, Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o'g'lidir. Demak, Atoyi, nasab jihatidan Ahmad Yassaviyga juda yaqin. Shoir devonining muqovasida va qo'lyozmaning oxirida "Devoni shayxzoda Atoyi" deb qayd qilinishi ham uni shayxlar oilasidan kelib chiqqan, deyishga asos beradi. U shayxlar – otalar avlodiga mansub bo'lgani uchun ham Atoyi taxallusini olgan, asli ismi noma'lum.

Mirzo Ulug'bek o'z saroyiga bir qator olim va shoirlarni jalb qilganda, Otoyini ham o'sha shoirlar qatorida bo'lgan.

Otoyining bir devoni ma'lum bo'lib, bu devonda shoirning 260 g'azali jamlangan.

Otoyi g'azallarining vazni haqida filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Sayfulloh (Rafiddinov) batafsil ma'lumot bergan. Uning ko'rsatishicha, Atoyining 260 g'azalidan 109 tasi ramali musammani maqsur – *foilotun foilotun foilotun foilotun* (*S. Sayfulloh. Mavloni Atoyi. "Devoni shayxzoda Atoyi" kitobida, T.: "Fan" nashriyoti, 2008, 6-b.*). Ma'lumki, bu vazn XV asr Xuroson va Movarounnahr aholisi orasida ko'p tarqalgan va "turki" deb atalgan xalq qo'shiqlari vaznidan olingan

hamda aruzga kiritilgan. Bu haqda Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da qimmatli ma’lumotlarni bergan.

Shuningdek, Sayfiddin Sayfulloh Atoyi devonini to’liq va mukammal holda nashrga tayyorlagan.

Atoy ijodini o’rganish bo’yicha A.Samoylovich, H.Zarif, E.Rustamov, S. Sayfulloh, I. Haqqul kabi zabardast olimlar ko’p mehnat qilganlar. Chunonchi, A.Samoylovich ilk bor (1926-yili) Atoy devonini topib, bir necha g’azalining faksimile nusxasini nashr qilgan. E.Rustamov Atoy g’azallarini tahlil qilib, uning XV asr birinchi yarmi o’zbek adabiyotidagi o’rnini ko’rsatib bergan. S. Sayfulloh Atoy ijodidagi majoziy va ilohiy ishqni chuqur tahlil etdi, I.Haqqul Atoy g’azalnavislikda Lutfiyga ergashganini va Atoyining bu shoirdan ilhomlanib, o’xshatmalar bitganini tadqiq qildi.

Navoiy “Majolis un-nafois”da Atoy haqida so’zlab, uning

Ul sanamki su yaqosinda paritek o’lturur,  
G’oyati nozikligidin suv bila yutsa bo’lur, -

matla’ini keltiradi va “qofiyasida aybg’inasi bor” deb ko’rsatadi. Atoy “o’lturur”ga “bo’lur”ni qofiya qilgan edi. Navoiy shoirning “turkona” she’r yozganligi, uning g’azallari turkiy aholi orasida ko’proq shuhrat tutgani, lekin qofiya ehtiyojiga rioya qilmaganini izohlaydi.

Atoyining diniy-tasavvufiy mavzulardagi g’azallari bor. Ilohiy marhamat - Haq oshiqlariga beriladigan in’om, komil insonlar Haq yo’liga kirganlardir – Atoyining aytmoqchi bo’lgan gapi shudir. Quyidagi baytlar buning bir namunasidir:

Haqiqatta libosi zohiriyg’a e’tibor o’lsa,  
Nega Muxtori Akramning libosin eski shol aylar?

Muhabbat sharbati gar no’sh birla sozvor ersa,  
Husayni Karbalog’a ne uchun qonin zilol aylar?...

Atoy, sen kimu tavhidi Haq, haddingni bil, hayhot  
Kim, oning hamdu shukri aqli kulni gungu lol aylar.

Atoy dunyoviy muhabbat kuychisi ekani aksariyat g’azallarida ma’lum bo’lib turadi. Shuningdek, uning g’azallarining obrazlari

an'anaviy, ayni paytda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Lutfiy, Gadoiy, Sakkokiy g'azallaridagi yorning ta'rifiga monand tashbehlarga qo'shimcha ravishda Atoyining tashbehlari diqqatni tortadi. Quyidagi baytga e'tibor beraylik:

Chunki topti dardi ishqing lazzatin g'amgin ko'ngul,  
Xotirimni ba'd azin qilg'umdur g'am birla shod.

Baytning mazmuni quyidagicha: yorning ishq dardidan oshiqning g'amgin ko'ngli lazzat tuydi, oshiq esa shundan keyin bu lazzatni xotirlab, g'amdan shodlik hislarini his qilib yuradi.

Qiziq, g'amdan shodlik hislarini tuyish aslida mantiqsizlikday tuyuladi. Ammo chin oshiq ishq dardini bot-bot xotirlasa, ko'ngli shod bo'ladi, ma'shuqaga bo'lgan muhabbati aslo so'nmaydi, aksincha, xotirlaganda alanganaveradi.

O'xshatish mumtoz adabiyotda poetik obrazlilikni ifodalovchi eng muhim omil. Aristotel "Poetika" asarida "She'riyat – o'xshatish san'atidir" deb ta'rif berganda, faqat badiiy san'atlardan biri bo'lgan o'xshatish san'atini nazarda tutmagan, balki narsalarning, jumladan, ma'shuqaning yoki yorning sochi, yuzi, tishlari, qoshlari va h. tashqi go'zallik asosi bo'lgan ob'ektlar ham o'xshatish asosida obrazlilik kasb etishi tushuniladi, bu ob'ektlar g'azalda obrazlilik hosil qiladi. Atoyi g'azallaridagi obrazlilik hosil qiluvchi o'xshatishlar quyidagi baytlarda aniq o'z ifodasini topgan:

Ey begim, ushbu yuz degul, shams bila qamarmudur?  
Ey begim, ushbu so'z degul, shahd bila shakarmudur?

Ko'z uchidin qiyo-qiyo sheva bila boqishlaring,  
Jon tamurin qiyor uchun tig'mu yo nazarmudur?

Bu baytda Atoyi *tajohuli orif* san'atini qo'llagan. *Tajohuli orif*ning ma'nosi "bilib bilmaslikka olish" deganidir. Shoir baytda bir necha so'zlarni keltirsa-yu ammo o'sha narsalarning qaysi biri ishonchli ekan, deya o'zini ikkilanganday qilib ko'rsatsa, obrazli tafakkurning o'ziga xos mahsuli paydo bo'ladi. Tavsirlanayotgan detallarga alohida urg'u berish, bo'rttirish, o'quvchining diqqatini tortishda bu san'at alohida ahamiyatga ega.

Atoyi g'azallaridagi takrorlanmas tashbehlarni tamsil san'atiga asoslangan quyidagi bayt yana bir bor tasdiqlaydi:

Yig'lab yuzungizdin olayin zulf niqobin,  
Gul yaxshi ochilmas kechalar yog'masa yomg'ur.

Birinchi misrada oshiqning tashqi qiyofasiga oid tasvir va detallar ikkinchi misradagi tasvirga va detallarga qiyoslanyapti. Birinchi misrada yuzning niqobi, ya'ni soch ikkinchi misradagi gulga, *yig'lamoq* harakati esa gulning ochilishiga solishtirilyapti.

Atoyi xalq she'riyatiga qorishiq holda ijod qilgan. Uning ko'p g'azallari xalq qo'shiqlari ohangida yozilgan. Uning devonidan o'rin olgan "birla", "bo'lubtur" radifli g'azallarida, "Yuzung to pardadin zohir bo'lubtur, Sanamlar husn da'vosin qo'yubtur" matla'i bilan boshlanadigan bir qator g'azallar xalq qo'shiqlari ohangida yozilgan. Bu usul shoir g'azallarining xalq ommasi tomonidan yengil qabul qilinishida asosiy omillardan bo'lgan. Shu boisdan Atoyi she'riyati xalq iboralari, ta'birlari, maqollariga boyligi bilan ham ajralib turadi.

Atoyi xalq rivoyatlarini yaxshi bilgani, ayniqsa, Sharq adabiyoti tarixida muhabbat timsoli bo'lgan "Yusuf va Zulayho" dostonidan, "Vomiq va Uzro" afsonasidan, imom Hasan va imom Husayn haqidagi rivoyatlardan va boshqa ko'plab adabiy, tarixiy va diniy-falsafiy manbalardan ilhomlangani g'azallaridan ma'lum bo'lib turadi. Jumladan:

Ey jamoli husn, Yusufdin jamoling yodgor,  
Bo'ldi hajringdin biaynih ko'zlarim Ya'qubvor...

Men Atoyimen Husayniy, husn ichinda sen Hasan,  
Karbalo'dur ravzai bog'i jinon sizsiz manga...

**Hofiz Xorazmiy.** Xofiz Xorazmiyning hayoti to'g'risida ma'lumotlar deyarli yo'q. Shoir yashagan davr, uning zamondoshlari va o'z hayoti haqidagi ma'lumotlarni uning qasidalari, g'azallari, qit'a va ruboiylarigina bera oladi. Shoirning asl ismi Abdurahim. Uning yetti-ta forscha g'azalida Rahim, Abdurahim ismi taxallus sifatida keltiriladi. Navoiyga qadar XIV asr oxiri XV asr boshlarida mukammal devon tartib etgan shoir Hofiz Xorazmiydir.



Hofiz Xorazmiy Shohruhning kichik o'g'li, Fors o'lkasining hukmdori Ibrohim Sulton vafotiga bag'ishlangan marsiya yozgan. Ibrohim Sulton 1435-yili Sherozda vafot etgan. Demak, bu davrda Hofiz Xorazmiy hayot bo'lgan va Sherozda yashagan.

Hofiz Xorazmiyning butun merosi 37 ming misradan ortiq. Shoirning ijodi XV asrning birinchi yarmidagi o'zbek adabiyotining takomili to'g'risida aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Hofiz Xorazmiyning XV asr birinchi yarmidagi shoirlar ijodidan farqli jihati shuki, arab-fors so'zlari kam. xalq tiliga yaqin so'zlardan ko'proq foydalangan, Xorazm shevasiga xos so'zlar ko'p uchraydi.

Hofiz Xorazmiy devonining tarkibi quyidagicha: qasidalar – 9 ta, tarkibband – 1ta, tarje'band – 3 ta, muxammas – 1ta, marsiya – 1 ta, g'azallar – 1052 ta, mustazod – 2 ta, qit'a – 31 ta, ruboiy – 12ta.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Atoyining tarjimai holi va shaxsiga oid Navoiy bergan *ma'lumotlarni sharhlab bering.*
2. Atoy ijdodini o'rganish bo'yicha qaysi olimlar ish olib borganlar?
3. Navoiyning dunyoviy muhabbat kuychisi ekani qaysi she'rlarida ko'rinadi?
4. Atoyining she'riy san'atlar (*tajohuli orif, tamsil san'atlari*) asosidagi o'xshatishlarini sharhlab bering.
5. Hofiz Xorazmiyning kimga bag'ishlangan marsiyasi bor?
6. Hofiz Xorazmiyning ijodi qaysi janrlardan iborat?

## Sayyid Qosimiy ijodi

### Reja:

1. Sayyid Qosimiyning ijodi haqida umumiy ma'lumot.
2. Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" dostoni haqida.
3. "Gulshani roz" va "Haqiqatnoma" dostonlari xususida.
4. "Ilohiynoma" dostonining mazmuni.
5. "Ilohiynoma"lardagi farqlar.
6. Husayn Boyqaro (Husayniy) ijodi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *ilmiy jamoatchilik, "Gulshani roz", "Masnaviylar majmuasi", "Majma' ul-axbor", "Maxzan ul-asror", doston, "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma".*

**Sayyid Qosimiyning ijodi haqida umumiy ma'lumot.** Shoirning tarjimai holi to'g'risida batafsil ma'lumot yo'q. Uning to'rtta dostoni – "Majma' ul-axbor", "Gulshani roz", "Haqiqatnoma" va "Sadoqatnoma" dostonlari bizga ma'lum. Bu asarlar ustidan ilmiy jamoatchilikni tanishtirishda va ularni nashr qilishda filologiya fanlari nomzodi Boboxon Qosimxonovning xizmatlari katta. U "Sayyid Qosimiyning adabiy-ditaktik dostonlari" monografiyasini (T.: "Fan" nashriyoti, 1987) yozib, shoirning "Masnaviylar majmuasi"ni (T.: "Fan" nashriyoti, 1992) nashrga tayyorlab, chop ettirgan.

**"Majma' ul-axbor" dostoni haqida.** Sayyid Qosimiyning birinchi dostoni "Majma' ul-axbor" (Xabarlar to'plami) dostoni hamd, na't, "Dar sababi nazmi kitob va sharhi ahvoli xud", so'ngra "Fi madhi Sulton A'zam Sulton Abu Sa'id"ga, ya'ni Sulton Abu Said Mirzoga (1451-1469-yillarda hukmronlik qilgan) qasida bilan boshlanadi. Shoir bu dostonini Nizomiyning "Maxzan ul-asror" va Haydar Xorazmiyning shu nomdagi dostonlariga javob tariqasida yozganini bayon qiladi:

Haydar agar berdisa soʻz dodini,  
Jumla jahon aylar oning yodini.

"Mahzani asror" a ayitdi javob,  
Sochti maoniy durini chun sahib.

Manda dag‘i bor edi ushbu havas,  
Shukr Xudo, toptim anga dastras...

Shayx Nizomiy damini yod etib,  
Xatmi duo birla ruhin shod etib.  
(*Masnaviylar majmuasi, 15-16-b.*)

Sayyid Qosimiy garchi Nizomiy va Haydar Xorazmiyga nazira yozgan bo‘lsa ham, doston tarkibidagi hikoyatlari originalligi bilan ajralib turadi. Nizomiy va Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostoni tarkibidagi hikoyatlar bilan bir nomda bo‘lgani holda, voqealar syujeti, bayon uslubi jihatidan katta farqlar bor. Masalan, Nizomiyda “Iso alayhissalom hikoyati” bor, shuningdek, Sayyid Qosimiyning mazkur dostonida ham Isoga oid hikoyat bor. Ammo Sayyid Qosimiy bir sharobxo‘r fosiqning jannat umidida Xudodan ta‘ma qilishi haqida hikoya qiladi. Bu doston asosan hikoyatlardan iborat bo‘lib, Ibrohim alayhissalom, shayx Junayd Bag‘dodiy kabi buyuk mutasavvufar va boshqa ko‘plab didaktik hikoyatlardan iborat. Har bir hikoyatdan oldin berilgan “Sarsuxan”, xuddi Haydar Xorazmiyning “ma‘viza”lari kabi, pand-nasihatlardan iborat.

**“Gulshani roz” va “Haqiqatnoma” dostonlari xususida.** “Gulshani roz” (Sirlar gulshani) dostoni ham, yuqoridagi doston singari, hamd, na‘t, “Dar sababi nazmi kitob” va Abu Said Mirzo tasarrufidagi bir shaharning hokimi Jaloliddin Sayyid Mazidga bag‘ishlangan qasidadan iborat. So‘ngra bir necha boblarda va g‘azallarda Sayyid Qosimiy ilohiy ishqni tarannum etadi.

“Haqiqatnoma” dostonining tuzilishi ham yuqoridagi har ikki dostonniki singari bo‘lib, kimga bag‘ishlangani noma‘lum, ya‘ni qasida yo‘q. Faqat munojot qo‘shilgan. Munojotning diqqatga sazovor tomoni shundaki, Sayyid Qosimiy “Muhabbatnoma”ni tilga olib o‘tadi:

...Ki turkiy birla nazm etsam kitobe,  
Aning har harfi bo‘lsa fathi bobo.

“Haqiqatnoma” qo‘ysam oning otin,  
Bayon qilsam burunqilar sifotin.

Ma'oniy durrini olamg'a yoysam,  
"Muhabbatnoma"ning bahrida aytsam.

(*Masnaviylar majmuasi*, 130-b.)

«Muhabbatnoma» hazaji musaddasi maqsur – *mafoilun mafoilun mafoil* vaznida yozilgan. Sayyid Qosimiy ham shu bahrda ijod qilgan.

Bu bob ham asosan Hasan Basriy, Ibrohim Adham, Xofiy Basriy va boshqa afsonaviy va tarixiy shaxslarga bag'ishlangan hikoyatlardan tashkil topgan.

"Haqiqatnoma" dostonining xotimasida Sayyid Qosimiy asarni yozib tugatgan yilini (hijriy 863 – milodiy 1458-1459-yillar) qayd etganini e'tiborga olsak, u XV asrda Movarounnahr yoki Xurosonda yashab, ijod etgan deb taxmin qilish mumkin.

Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida yoki boshqa mavjud tazki-ralarda Sayyid Qosimiy to'g'risida ma'lumot yo'q.

"Ilohiynoma"ning xotima qismidagi va "Majma' ul-axbor"dagi ma'lumotlardan Qosimiy ilgari shoh va amaldorlar xizmatida bo'lganligi anglashiladi. Keyinchalik noma'lum sabablarga ko'ra, saroydan chet-lashtiriladi. Oqibatda shoirning turmushi og'irlashgan. Bu to'g'rida Abu Said Mirzoga bag'ishlangan madhiyasida yozgan. Sayyid Qosimiy har to'rt dostonini yaratish bilan turkiy adabiyotda XI-XV asrlarda rivoj top-gan didaktik dostonchilik an'analari mahorat bilan davom ettirdi.

**"Ilohiynoma" dostonining mazmuni.** Sayyid Qosimiy dostonlari orasida "Ilohiynoma" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning maz-kur asari pok, vafodor ayol timsolini madh etadi. "Ilohiynoma"ni Sayyid Qosimiy ayolning ta'rif-tavsifi bilan boshlaydi:

Bor erdi vaqte bir sohibjamole,  
Nigore, nozanine, bemisole.

Malohat kishvarida podshohye,  
Ko'zi lashkarkashu husni sipohye...

Ko'zi sarfitnayi ofoq erdi,  
Jahonda juft qoshi toq erdi...

Aminu muttaqiy erdi haloli,  
Yomon-yaxshi bila yo'q qilu qoli.

Bundan keyingi voqealarda dramatik holatlar ancha kuchli. Ayolning eri Ka'ba ziyoratiga o'tlanadi. Safar oldidan ukasiga, xotinimdan sen xabar olib turasan, u istaganini muhayyo qil, kelganimdan so'ng o'n barobar qilib qaytaraman, deb va'da beradi. Yigit har ikki kunda kelib, akasi xotini-ning yumushlarini bajarib ketar, odobni o'z o'rniga qo'yar edi.

Ki, xotun erdi olam porsosi,  
Muzayyan erdi andin zuhd asosi.

[Ya'ni: ayol olamdagi eng xudojo'y ayol edi, toat-ibodat bilan shug'ullanish uning ziynati edi] Shunday fazilatlarga ega bo'lgan ayol doimo yuzini pinhon tutar, yigit uning jamolini ko'rmagan edi. Nogahon bir kuni kutilmaganda yigit ayolning parda ortidagi go'zal yuziga ko'zi tushib qoladi va *"asiru oshiqu devona bo'ldi, jamoli sham'ina parvona bo'ldi"*. Yigitning niyati buzildi, uning taklifini ayol qat'iyana rad qilgach, unga tuhmat uyushtirdi. Qoziga borib, ayolni zinokorlikda aybladi. Qozi ayolni toshbo'ron qilib o'ldirishga fatvo berdi. Olomon ayolni toshbo'ron qilib, o'ldi deb gumon qilib kimsasiz joyga olib keldilar. Hammaga ibrat bo'lsin, deb o'sha ovloq joyda qoldirib ketdilar. Lekin ayolning hali tanasida joni bor edi.

Shundan so'ng ayolning taqdirida ko'p qora kunlar yuz beradi: a'robiiy (badaviy)ning bu ayolga nisbatan qilmoqchi bo'lgan noma'qul xatti-harakati, uning "siyahro', la'in" qulining ayolga qilgan tuhmatlari, keyin a'robiiyning ayolga qilgan himmati va saxovatpeshaligi hikoya qilinadi. Xiroj to'lay olmagan bir yigitni shoh dorga osishga buyurganda, a'robiiy i'nom qilgan uch yuz dinorni yigitning xiroji uchun berib, uni o'limdan qutqarib qoladi. Bu yigit bir savdogarni uni yuz dinorga sotib yuboradi, ayolga savdogar va kema-dagi xaloyiq ko'p xiralik qilavergach, u Tangriga iltijo qilgan eli, ularga Tangri balo-ofat yubordi. Ayol yigit libosini kiyib olib, katta bir mamlakatga keladi va o'sha mamlakat podshohidan kema-dagi jamiki mol-mulk evaziga bir ibodatxona qurib berishni so'raydi. Zotan, uning maqsadi va a'moli - toat-ibodat, bu dunyodan u bezgan, unga molu davlat, boylik kcrak emas, faqat egnidagi hirqasi bo'lsa, kifoya:

Ki, qilsam kecha-kunduz anda toat  
Ki, budur lazzati faqru qanoat.

Bu dunyodan manim bordur malolim,  
Kerak uqboda yaxshi bo'lsa holim.

Ikki dunyosida bir hirqa basdur  
Angakim, yodi birla hamnafasdur.

Shoh uning iltimosini qondiradi. Shoh vafotidan oldin o'sha "yigit"ni o'zining o'rniga podshoh qilib ko'tarishlarini xalqqa vasiyat qiladi. Xullas, u bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechiradi. U o'zining karomati bilan odamlarga shifo beradi, tilsizlarga til ato qiladi, ko'zi ojizlarning ko'zlarini ochadi, katta kichikning e'tiborini qozonadi, mamlakat podshohi bo'ladi. Ka'ba ziyoratidan qaytib kelgan eri kelib ko'rsaki,

Evu eli bori vayron bo'lmish,  
Saroyi yer bilan yakson bo'lmish.

Inining na ayoqi, nae ali bor,  
Ikki ko'zi dog'i yo'q, bir tili bor...

Inisidin savol etdi og'asi,  
Uyim, elim qaniyu kadxudosi?

Inisi akaga yuz bergan voqealarni aytib beradi, uning zinokorligini, qo'ni-qo'shnilar guvoh bo'lganini va qozining fatvosi bilan toshbo'ron qilib o'ldirilganini birma-bir so'zlab beradi. Aka hasrat chekadi. Ko'zi ojiz inisini "shaharda Iso nafasliq" biri bor ekanini aytadi va uning huzuriga olib boradi. Ayol shifo topishga kelgan odamlar orasidan erini tanidi. Ayol ulardan tashrif maqsadini so'raydi. Ular shifo topish umidida kelganlarini eshitgach:

Ayitdi: - Ul erur behad gunohkor,  
Shifo topmasdur oncha qilmay gunohkor

deya javob beradi. O'sha fitnachi yigit yuz bergan voqealarning hammasini birma-bir aytib beradi: xotinning begunohligini, uni tuhmat bilan toshbo'ron qildirganini, nafs dun uchun uni abgor qilganini, endi o'z qilmishlaridan o'zi sharmanda bo'lib turganini aytadi. Ayol uning

gunohini kechirib, duo qiladi. Yigit o'sha zohoti shifo topadi. Shifo topish umidida kelgan a'robiyning quli, qari kampirning o'g'li ham o'z gunohlarini ochiq aytadilar va ayolning duosi bilan shifo topadilar. Shundan so'ng ayol erini boshlab xilvatga kiradi va yuzidagi niqobini oladi. Xojasi uning gul jamolini ko'rib hushidan ketadi. Ayol uni o'ziga keltirib, hushidan ketish sababini so'raydi. Xoja:

Ayitdi: - Bor edi vaqte halolim  
Kim, erdi munisu daf'i malolim.

Bo'luptur ul bu dam rahmatg'a vosil,  
Gar o'ltursam o'zumni na hosil.

Sani man ul sog'indim, ey pariro'y  
Ki, yo'qtur orangizda farq bir mo'y.

Ayol xojasiga o'zini tanitadi va mamlakatda hammani boy qilish bilan birga, o'zi qanoatni burch deb bildi.

Doston so'ngida Sayyid Qosimiy quyidagi baytni keltiradi:

“Ilohiynoma”yi Attor bu dur,  
Davayi siynai afgor bu dur.

[Attorning “Ilohiynoma”si shudir, yaralangan qalblarga davo budir]. Bundan tashqari, Sayyid Qosimiy bu dostonini yozishda «shayx ruhidin talabgor» bo'lganini alohida ta'kidladi va bu «mushkil asror» (Attorning e'tiqodi va maslagi)ni u hal qildi. Shu o'rinda Sayyid Qosimiy o'z asarining yozilish maqsadi haqida quyidagicha xabar beradi:

Oni turki birla Qosimiy aydi,  
Ma'oniy guharin elga yoydi.

Demak, Sayyid Qosimiy Farididin Attorning “Ilohiynoma”sini erkin tarjima qilmagan, balki shu mavzuni u o'zbek tilida yoritishni maqsad qilib qo'ygan, degan fikr paydo bo'ladi. Qutb, Haydar Xorazmiydagi sharqona odob, ustozlarga hurmat Sayyid Qosimiyda ham bo'rtib ko'rinishi va o'z ijodiga kamtarona baho berishi uning katta ijodkor ekanidan

dalolatdir. Fariddin Attorning O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasida (“Musiqqa” nashriyoti, 2007-yil. 52-b.)dagi “Ilohiynoma”sidan o‘rin olgan “Pokiza ayol sadoqati” hikoyati Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma” dostoniga mazmunan mos keladi. Ammo har ikkala asarning hajmida farq bor: Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma”si 411 baytni, Attorning “Ilohiynoma”sida “Pokiza ayol sadoqati” hikoyati esa Jamol Kamol tarjimasida 305 baytni tashkil qiladi. Har ikkalasi ham dostonida bir mavzuni – ayolning boshdan o‘tkazgan sarguzashtlari va bu orqali har ikki muallif vafo, sadoqat, zuhdu taqvoni bosh o‘ringa chiqaradi.

**“Ilohiynomalar”dagi farqlar.** Dostonlardagi ayrim farqlar quyidagilar:

Attorning “Ilohiynoma”sida: eri ukasini xotiniga xizmat qilishni topshiradi.

Sayyid Qosimiy “Ilohiynoma”sida: er Ka‘ba ziyoratiga ketayotganda xotinidan xabar olib, uning xizmatida bo‘lishni ukasiga tayinlaydi.

Attorda: ayol bir xiroj to‘lashga qurbi yetmasdan dorga osilishga farmon bo‘lgan yigitni dor tagidan qutqarib oladi, yigit ayolni kemandagi savdogarga sotayotib, uning bir kamchiligi bor, bu ayol qaysar, deb uni kamsitadi va yuz dinorga sotadi.

Sayyid Qosimiyda: bu ayol telba, deb uni kasitadi va uch yuz dinorga sotadi va h.

Har ikkala asarda farq katta emas. Faqat ayrim voqealar tasvirida tafsilotlar Sayyid Qosimiyda ko‘proq uchraydi.

Har ikkala “Ilohiynoma”ning maqsadi va mohiyati deyarli biridir. Sayyid Qosimiy o‘z “Ilohiynoma”sini turkiyda yozganini alohida ta’kidlaydi. Ayni paytda Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma”si Attorga tayangan ekan, Attorning “Ilohiynoma”si bir manbaga – sharq adabiyotidagi rivoyatlarga tayangani anglashiladi. Zotan, asarning nihoyasi xuddi sharq ertaklari va rivoyatlaridagi singari tugallanma bilan yakunlanadi.

**Husayn Boyqaro (Husayniy) ijodi.** Husayn Boyqaro Amir Temur Ko‘ragon naslidan bo‘lib, Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaroning o‘g‘lidir. Husayn 1438-yili Hirot shahrida tug‘ilgan. 1469-yili Hirot taxtini egallab, 1406-yilgacha Xurosonning hukmdori bo‘ladi.

Husayn Boyqaro, Navoiyning ta‘biri bilan aytganda, forsiy va turkiy tilda she‘r yaratish iqtidoriga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, asosan turkigo‘y shoirlarni o‘z ona tillarida ijod qilishga chorlab, maxsus farmonlar ber-



gan. Bu haqda Naoviy quyidagilarni yozadi: “Va iltifot va ehtimom yuzidin ba’zi ma’nilar topib, nazm qilurg’a hukmlar ham joriy bo’ldi va so’z uslubig’a ta’yinlar va adosig’a ta’limlar ham izhori bo’ldi”.<sup>147</sup> Bu voqea turkiy adabiyot tarixida katta siyosiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga molik bo’ldi.

Navoiy Husayn Boyqaroni yetuk shoir sifatida ko’rsatishdan avval, uning shaxsiyati haqida, iste’dodini vujudga keltirgan omillar haqida “Majolis un-nafois”da so’z yuritadi. Jumladan, Husayn Boyqaroning shajarasi haqida “Nasabnoma” bitilgan, ammo Navoiy bu “Nasabnoma”ni kim bitganligi haqida tazkirada aytmagan. Uning ta’riflashiga ko’ra, Husayn Boyqaro “Nasabnoma”sining har sahifasi shunchalik go’zal qilib bezalganki, Moniyning suratlari o’sha bezaklar qarshisida xijolatda qoladi. Boyqaroning obro’-e’tibori, dong’i sharhida “Nasabnoma”dagi voqealar bitilgan har bir sahifa Chin suratxonalarini uyaltiradi. Shuningdek, Husayn Boyqaroning shonu shavkati, tafakkur olami haqida Navoiy so’z yuritib, Jamshid va Iskandarning bilganlari ham, qilganlari ham uning oldida hechdir va h.

Husayn Boyqaro biz uchun ulug’ shoir sifatida qadrli. Navoiy uning devoni haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Ul hazratning (ya’ni Husayn Boyqaroning – N.R.) xub ash’ori va marg’ub abyoti bag’oyat ko’pdur va devon ham murattab bo’lubdur. Devon ibtidosidan bunyod qilildi va har g’azaldin bir matla’ yozildi”. Shundan so’ng Husayn Boyqaro devonidagi har bir g’azalning matla’ini keltiradi. Navoiy “Majolis un-nafois”da Husayn Boyqaro huzurida o’tkaziladigan anjumanlarni “olij majlis” deb yuritilgani va bunday majlisda eng yetuk asarlar o’qilgani va muhokama boisi bo’lgan to’g’risida ma’lumot beradi.

Navoiy “Majolis un-nafois”ning VIII bobini Husayn Boyqaroga bag’ishlagan va uning devonidan 164 g’azalning matla’ini keltirgan. Shoir Husayniy qo’llagan poetik obrazlar, vositalar, shoirning she’riyatdagi ixtirolari yuzasidan fikr yuritgan. Misol sifatida “Majolis un-nafois”da Husayn Boyqaroning devonidan “alif” harfiga keltirilgan matla’ni olib ko’raylik. Navoiy baytni keltirishdan oldin bayt mazmunini sharh qilib, mahbubning haddan ortiq iltifotidan behol bo’lgach, hushsizlarcha o’sha iltifotni izhor qilish ma’nosida quyidagi matla’ ajoyib ifodalanganini aytadi:

---

<sup>147</sup> O’zbek adabiyoti tarixi. 2- tom. Toshkent, Fan. 1977, 426-b.

Evrulub gul boshig‘a bulbul visol o‘lgay anga,  
Gul aning boshig‘a evrulsa, ne hol o‘lg‘ay anga.

(Bulbul gulning boshida aylanib, unga erishmoqchi bo‘ladi;  
Agar gul bulbulning boshida aylansa, uning holi qanday bo‘larkin.)

Mana shu baytning o‘ziyoq Husayn Boyqaroning turkiy she‘riyat homiysigina emas, balki amalda nihoyatda nozik didli shoir ekanini ko‘rsatib turadi.

Husayn Boyqaroning mahorati, iqtidori shu qadar baland bo‘lganki, boshqa turkigo‘y shoirlar amalda istifoda eta olmagan g‘azalga mahorat bilan yondashadi. Masalan, uning devonidagi “se” harfiga bitilgan baytni keltirishdan oldin Navoiy quyidagi sharhni beradi: “Bu harfda turk shu- arosining malik ul-kalomlari she‘r aytmaydurlar, balki ayta olmaydurlar, to anga ne yetgayki, bu muqobalada kishi oni keturgay yo nisbat bergay. Bu matla’ tarifida muncha basdur:

Yor ko‘yidin o‘tarda ko‘rguzur bu zor maks,

So‘z desa dog‘i javobida qilur bisyor maks

(Bechora oshiq mahbubasining ko‘chasidan o‘tganda, bu bechora to‘xtab qoladi;

Mahbuba bir so‘z aytsa, javob berolmay, yana ko‘proq to‘xtab qo- ladi)”.

Oshiqning ma’shuqa oldida ojizu notavon holatini shoir ana shun- day tavsif etadi.

Navoiy Husayniyning yetuk she‘rlariga yuksak baho beradi, ayniqsa uning she‘rlari turkiy tilda yozilganligini alohida ta’kidlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham “Boburnoma”da Husayn Boy- qaroning faoliyatiga yuksak baho beradi. “Sulton Husayn Mirzoning za- moni ajab zamona erdi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxisis Hiriy shahri mamlu erdi. Har kishingikim, bir ishga mashg‘ullug‘i bor erdi, qimmat va g‘arazi ul erdikim, ul ishni kamolg‘a yetkurgay”. (*Boburno- ma, Toshkent, 1960, 239-240-b.*)

Husayn Boyqaro Navoiyga bag‘ishlab “Risola” ham yozgan. “Ri- sola” “Munojot” ruhida yozilgan. “Risola”da ham shoh, ham shoir bu olam saodati va cheksiz ne‘matlariga yetkazgani, Jomiy va Navoiy kabi

allomalar bilan zamondosh, hamnafas qilgani uchun Xudoyi Taologa shukrona aytadi.

***Savol va topshirqlar***

1. Sayyid Qosimiyning qaysi dostonlari bizga yetib kelgan?
2. “Majma’ ul-axbor”ning tuzilishini ayting.
3. “Haqiqatnoma” dostonining tuzilishini aytib bering.
4. “Haqiqatnoma” dostonining tuzilishi haqida so‘zlab bering.
5. “Ilohiynoma” dostoni kimning asari ta’sirida yozilgan?
6. Attor bilan Qosimiy “Ilohiynoma”laridagi farqlarni ayting.
7. Husayn Boyqaro ijodining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

## XULOSA

Biz o‘zbek mumtoz adabiyotining eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan tarixini sizlarning e‘tiboringizga havola qildik. Mazkur qo‘llanmada ilk marta islomgacha bo‘lgan davr turkiy, ya‘ni o‘zbek adabiyotining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti tamomila yangicha qarash va tahlil usullari orqali o‘rganildi va talabalar, ilm ahli, qolaversa, keng jamoatchilik e‘tiboriga havola qilindi. Biz asosan, davrning yoki badiiy asarda ilg‘anmaydigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga emas, balki badiiy matnga asosiy e‘tiborni qaratdik. Talabada ham, oddiy kitobxonda ham badiiy didni tarbiyalash hamma davrdagi badiiy asarning birinchi vazifasidir. Agar adabiyot shu vazifasini bajarmasa, o‘z-o‘zidan e‘tibordan chetda qoladi va adabiyot maydonidan chiqib ketaveradi. Shuningdek, “Qisasi Rabg‘uziy”, “Nahj ul-farodis”, “O‘g‘uznoma”, “Jome‘ut-tavorix”, “To‘rt ulus tarixi” kabi bir qator e‘tibordan chetda qolib kelgan badiiy, tarixiy-adabiy asarlar, Abu Rayhon Beruniy kabi qomusiy olimlarning adabiyotshunoslik faoliyati, Ibn Sinoning “Hayy bin Yaqzon” kabi falsafiy asarlari va b. ko‘plab ijodkorlarning siyosiy nuqtai nazardan badiiy asar sifatida inkor qilingan yoki qoralangan asarlari oliy o‘quv yurtlari dasturiga kiritildi va mazkur qo‘llanmadan ham joy oldi.

Badiiy asar tushunchasi kengdir. Har bir davr adabiyotining o‘z badiiy mezonlari, qoidalari bor bo‘lib, albatta, keyingi davr adabiyoti uchun zamin bo‘lgani shubhasiz. Biz o‘zbek adabiyoti tarixini Sho‘ro davridagidan tamomila farqli ravishda ilgari o‘zimiz ishlab chiqqan tamoyillar asosida davrlashtirdik. Biz o‘zbek adabiyotini davrlashtirish tamoyillari haqida alohida monografiya ham yaratdik. Albatta, hali mazkur qo‘llanmada jiddiy o‘rganilishi, yoritilishi zarur bo‘lgan masalalar bor. Kelgusida bu masalalar takomillashtirib boriladi.

Biz mazkur qo‘llanma yuzasidan takliflarni va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz. Bizning elektron manzilimiz:

nasimhon\_r@mail.ru

## O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI VA AYRIM JANRLAR TAKOMILI

O'zbek adabiyoti tarixiga nazar solganda, shubhasiz, uning jahondagi ko'pgina xalqlar adabiyoti kabi boy adabiy merosga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu adabiyotning ildizi uzoq davrlarga borib taqaladi. Uning shakllanishi va taraqqiyoti bevosita qadimgi turkiy adabiyot bilan mustahkam bog'liq. Chunki o'zbek adabiyoti qadimgi turkiy adabiyot negizida rivoj topgan. «Qadimgi turkiylar davridagi adabiy an'ana izsiz yo'q bo'lib ketmadi, balki o'zida murakkab estetik-adabiy tizimni gavdalantiradigan mumtoz turkiy she'riyatga kirib keldi»<sup>148</sup>. Qadimgi turkiy moniylik she'rlari, turkiy buddaviylik adabiyoti, Urxun-Enasoy obidalari, «Devonu lug'otit turk»da saqlanib qolgan badiiy ijod namunalarning shakliy-poetik xususiyatlari ilk klassik davrdagi turkiy adabiyotda davom etganligi turkiy adabiyotning uzluksiz ravishda taraqqiyotda bo'lganligini ko'rsatadi.

Turkiy adabiyotda she'r qadimdan mavjud. She'rning shakllanishi turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan. Bu xususiyat uning janrlar tizimida yaqqol ko'rinadi. Qadimgi turkiy adabiyotdagi ayrim janrlar to'g'risida «... so'z yuritilganda, hozirgi janrlar haqidagi tasavvurlardan bir oz chekinishga to'g'ri keladi. Aks holda, qadimgi turkiy adabiyotdagi janrlarning paydo bo'lishi va o'ziga xosligini, ilk klassik davrdagi adabiy janrlardan farqlarini ko'rsatish imkoni bo'lmaydi»<sup>149</sup>. Har qanday janrning har bir xalq adabiyotida o'ziga xos shakllanish va taraqqiyot yo'li mavjud. Janrlar qotib qolgan narsa emas, ular ham ma'lum bir davrda tug'iladi, shakllanadi va boshqa janrlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. «Har bir janr avvalo aralash (sinkretik) tarzda yashaydi, tabaqalanish shundan keyin boshlanadi. Shuning uchun ham janr shakllangan narsa, bungacha u silliqatlanadi, tarashlanadi, tekislanadi, unga jilo va pardoz beriladi. Barqarorlikkina emas, balki tarixiy shakllangan bo'lish ham janrlarning muhim belgisidir. Bundan doimo yangi janrlar tug'ilib turishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi»<sup>150</sup>

<sup>148</sup> Стеблева И.В. Семантика газелей Бабура. Москва, Наука, 1982. С. 5.

<sup>149</sup> Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002. B. 55.

<sup>150</sup> Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik, 2-jild. Toshkent, Fan, 1992. B. 132.

Janrlarning takomilida ijodkorlarning ham alohida xizmatlari bor. Chunki har bir shoir qaysi bir janrda qalam tebratmasin, birinchi navbatda, o'z qobiliyat va iqtidorini namoyish etadi. Ikkinchidan, ular o'sha janrlarning takomiliga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Demak, ijodkorning individual mahorati orqali janrlardagi o'ziga xoslik ham namoyon bo'la boradi. Shoir uchun faqat bitta emas, bir nechta janrda asar yaratish imkoniyati mavjud. Bu bevosita uning iste'dodi bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi. Badiiy adabiyotning taraqqiyoti birgina shoirda bir necha janrlarda ijod qilishga sharoit yaratadi. Bizgacha yetib kelgan qadimgi turkiy adabiyot namunalarini o'rganish, yakka ijodkorlarning asosan sanoqli bitta yoki ikkita janrlarda asarlar yaratganligidan dalolat bersa, ilk klassik davrdan boshlab, shoirlarning janrlardan foydalanishida o'ziga xos keng qamrovlilik kuzatila boshlaydi. Masalan, katta hajmdagi asar muallifi bo'lgan Yusuf Xos Hojib doston janri rivojiga munosib hissa qo'shgan bo'lsa-da, biroq u "Qutadg'u bilig" tarkibida bir necha janrlardan mahorat bilan foydalangan. Dostondagi masnaviy, to'rtlik, qasida elementlari shundan dalolat beradi. Bu an'ana Adib Ahmad ijodida ham davom etadi. "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham to'rtlik, masnaviy bilan birgalikda g'azalga xos belgilar mavjud. Nasriy asarlar tarkibida kichik lirik janrlarning uchrashi va, shuningdek, nomalar asosida yaratilgan badiiy ijod namunalarida ham bir necha janrlardan samarali foydalanish yozma adabiyotning o'sha davrlardagi ichki qonuniyatlari bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan hodisa sanaladi. Umuman, bunday xususiyat qadimgi turkiy adabiyot uchun begona emas. Xususan, bitiktoshlar matnida ham shunday holat kuzatiladi. Qolaversa, bunday an'ana og'zaki adabiyotda ham bor.

Bir shoirning bir necha janrga murojaat etishi va ularda alohida-alohida mustaqil she'r yozishi keyingi asrlardan boshlab, tabiiy jarayonga aylana bordi. Bu hodisani yakka individual ijodkorda Sayfi Saroyidan boshlab kuzatish mumkin. Undan bizgacha yetib kelgan adabiy meros ko'lami unchalik ham ko'p bo'lmasa-da, biroq borlarining o'zi ham shoirning anchagina sermahsul ijodkor bo'lganligidan darak beradi. Jumladan, Sayfi Saroyi g'azal, masnaviy, ruboiy, chiston, qasida kabi kichik lirik janrlar bilan bir qatorda doston janrida ham o'zini sinab ko'radi. Hattoki, tarjima bilan shug'ullanadi. Bunday keng qamrovlilik keyingi davrlarda yashagan Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiy kabi barcha shoirlarda ham bor. Ular bir necha janrlarda ijod qilish

uchungina emas, balki janrlarning imkoniyatini kengaytirish, ularning takomili va mashhur bo'lishini ta'minlash, ularda she'r yozish badiiy ijod olamida o'ziga xos an'anaga aylanishi uchun ham xizmat qildilar. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu davrlardan boshlab, ayrim janrlarning yetakchiligi ko'zga tashlana bordi. Xususan, g'azal haqida shunday fikr aytish mumkin. Umuman, janrlarning taraqqiyoti badiiy adabiyotning rivoji bilan bir qatorda shoirlarning individual mahoratiga ham bog'liq ravishda amalga oshishini unutmash lozim.

## TO'RTLİK

To'rtliklar qadimdan turkiy xalqlar she'riyatida keng qo'llanilib keladi. Hozirgi mavjud manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, bizgacha to'rtliklarning turkiy yozma adabiyotdagi eng qadimgi namunalari Moniy va Budda muhitida yaratilgan she'rlar orqali yetib kelgan. Mazkur she'rlar buddaviylik va moniylik dini g'oyalari bilan sug'orilganligi sababli g'oyaviy jihatdan keyingi davr she'rlaridan farqlanadi. Har ikkala diniy oqimdagi mavjud she'rlarni shakliy-poetik tomondan kuzatish ularda to'rtliklarning yetakchi mavqega ega ekanligini tasdiqlaydi. Bizgacha yetib kelgan moniylik<sup>151</sup> ta'siridagi ijod namunalari mazmunan madhiyalardan, diniy-axloqiy she'rlardan iborat. Mazkur she'rlarning yozilish vaqti Turk xoqonligi tugab, uning o'miga turkiylarning eng katta qavmlaridan biri uyg'urlarning hokimiyatni egallagan davri – VIII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Darhaqiqat, dastlab Eronda shakllangan moniylik oqimi turkiy urug' va qabilalar orasidan uyg'ur xoqonligida rasmiy davlat dini darajasiga ko'tarildi. Uyg'urlar moniylikni «... qabul etib, o'z madaniyat va hayotlarini bir qadar o'zgartirdilar. Urxun alifbosi o'miga so'g'dcha asosida shakllangan yozuvni (uyg'ur yozuvini) oldilar va qayd etish kerakki, ularning jangovarligi ancha susaydi»<sup>152</sup>.

---

<sup>151</sup> Qarang: Arat R.R. Eski türk şiiri. Ankara, 1991; Tugusheva L.Yu. Poeticheskie pamyatniki drevnix uygurov // Tyurkologicheskij sbornik, 1972, Moskva, Nauka, 1973. S.238-242; Bombachi A. Tyurkskie literatury...// Zarubejnaya tyurkologiya. Moskva, Nauka, 1986. S.196-200; Gaben A.f. Drevnetyurkskaya literatura // Zarubejnaya tyurkologiya. Moskva, Nauka, 1986. S.322-326; Rahmon N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993; Qayumov A. va boshq. Qadimgi yozma yodgorliklar. Toshkent, Yozuvchi, 2000; Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002; Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006; Stebleva I.V. Jizn i literatura doislamskix tyurkov. Moskva, Vostochnaya literatura, 2007; Gumilev L.N. Qadimgi turklar. Toshkent, Fan, 2007; Stebleva I.V. Tyurkskaya poetika. Moskva, Vostochnaya literatura, 2012; Alimuxamedov R.A. Qadimgi turk-moniy adabiyoti manbalari. Fil. fan. dok. ... diss. avtoreferati. Toshkent, 2016.

<sup>152</sup> Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi (Tarjimon: Ulug'bek Abdulvahob). Toshkent, Cho'lpon, 1995. B.67.

Mazkur dinning qonun-qoidalariga ko'ra, odamlarga ozor berish va ularni o'ldirish, hattoki, hayvonlarning go'shtini yeyish taqiqlangan. Shu sababli «... ilgari go'sht bilan ovqatlanadigan xalq endi guruch bilan oziqlanadigan bo'ldi. Ilgari qotillik ko'p bo'lgan mamlakatda endi faqat ezgulik hukm suradi. Ko'rinadiki, moniylik ta'limoti qabilalar, qolaversa, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro ichki nizolarning oldini olishga, xalqlarni tinch-totuv yashashga undovchi bir chaqiriq edi»<sup>153</sup>.

Moniylik she'rlarida o'sha davrlarda yashagan turkiylarning dunyoqarashi, urf-odatlari, olamning tuzilishi to'g'risidagi tasavvurlari, diniy-axloqiy qarashlari o'z aksini topgan. Bu tushuncha va tasavvurlar Moniy asos solgan dinning qonun-qoidalari, mezonlariga tayanadi. Ayniqsa, Tong tangrisiga bag'ishlangan madhiyada shunday xususiyat ko'zga tashlanadi:

Tang tengri kelti, Tong tangrisi keldi,  
Tang tengri o'zi kelti. Tong tangrisi o'zi keldi.  
Tang tengri kelti, Tong tangrisi keldi.  
Tang tengri o'zi kelti. Tong tangrisi o'zi keldi.

Turunglar, qamag' begler, qadashlar,  
Tang tengrig o'gelim.

Turinglar barcha beklar, qardoshlar,  
Tong tangrisini madh etaylik.

Ko'rugme kun tengri, Ko'ringan kun tangri,  
Siz bizni kuzeding Siz bizni qo'riqlang.  
Ko'runugme ay tengri, Ko'ringan oy tangri,  
Siz bizni qurtg'aring. Siz bizni qutqaring.

Tang tengri! Tong tangrisi!  
Yidlig', yiparlig' Go'zal hidli, mushk hidli  
Yaruqlug', yashuqlug' Yaltiragan, nur sohib turgan  
Tang tengri! Tong tangrisi!  
Tang tengri! Tong tangrisi!

---

<sup>153</sup> Rahmon N. Turk xoqonligi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. B. 104.



Tang tengri! Tong tangrisi!  
Yidlig‘, yiparlig‘ Go‘zal hidli, mushk hidli  
Yaruqlug‘, yashuqlug‘ Yaltiragan, nur sochib turgan  
Tang tengri! Tong tangrisi!  
Tang tengri!<sup>154</sup> Tong tangrisi!

She‘r 20 misradan tashkil topgan bo‘lib, uning tuzilishida so‘z va misralar takrori asosiy rol o‘ynaydi. Beshinchi va oltinchi misralar xuddi naqorat vazifasini bajarib, aytilayotgan fikrga e‘tiborni kuchaytirishga xizmat qilyapti. She‘rdagi bo‘g‘inlar tarkibiga e‘tibor qiladigan bo‘lsak, ular o‘rtasida ham farqning mavjudligi ko‘zga tashlanadi va ularning miqdori 3 bo‘g‘indan 10 bo‘g‘ingachani tashkil etadi. Shuningdek, to‘rtlik va beshlik shakllari she‘r bandlarini tashkil etgan hamda bir she‘r tarkibida bandlarning xilma-xilligini hosil qilgan. Bunday hol boshqa ayrim moniylik she‘rlarida ham uchraydi. Buning sababini, bizningcha, xalq og‘zaki ijodining ta‘siri bilan izohlash lozim. Yozma adabiyotda esa «... she‘r qanday band bilan boshlansa, shunday band bilan tugaydi, ya‘ni qat‘iy qonunlashgan sistemaga rioya qilinadi»<sup>155</sup>. Xalq og‘zaki ijodida bir she‘r doirasida turli bandlardan foydalanish kuzatiladi. «Masalan, dostonlardagi bir she‘riy bo‘lakda yoki monolog, dialoglarda ham ikkilik, ham uchlik, ham to‘rtlik yoki bir necha misrani o‘z ichiga olgan bandlarni qo‘llash mumkin, zero, bunday erkinlik xalq epik she‘riyatining asosiy xususiyatidir»<sup>156</sup>

Moniylik she‘rlaridan ikkitasining muallifi ma‘lum bo‘lib, ular - shoir Aprinchur tigin tomonidan yozilgan. Aprinchur tiginning shaxsiyati va ijodi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud emas. Shoir qalamiga mansub she‘rlardan biri to‘rtlik, biri esa uchliklar shaklida yaratilgan. To‘rtliklar tarzida yozilgan she‘r madhiya bo‘lib, unda Tangrining sifatlari ulug‘lanadi.

Darvoqe, nima uchun uchlik shakli ham, xuddi to‘rtliklar qatori, qadimgi turk she‘riyatida yetakchi? Bu - erkin she‘rga xos xususiyat qadimgi turkiy she‘riyatda boshlanganidan dalolatdir.

<sup>154</sup> Arat R.R. Eski türk şiiri. Ankara, 1991. S. 8. (Bundan keyingi misollar ham mazkur kitobdan olinib, sahifasi qavsda ko‘rsatiladi).

<sup>155</sup> Rayhonov F. She‘r qanotidagi yulduzlar. Toshkent, G‘afar G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986. B. 39.

<sup>156</sup> Rayhonov F. O‘sha kitob. B. 39.

Moniylik muhitining mahsuli bo'lgan she'rlardan yana biri «O'lim tasviri» deb nomlanadi. She'r 7 banddan tarkib topgan bo'lib, oxirgi bandining so'nggi misralari nuqsonli. Bu she'rda ham bo'g'inlar miqdori orasida tenglik mavjud emas. Uning 6 misrasi 11 bo'g'inli, 13 misrasi 10 bo'g'inli, 4 misrasi esa 9 bo'g'inli bo'lsa, 7,8,13 bo'g'inlilari bir misradan iborat. Misralardagi bo'g'inlar sonining xilma-xilligi uni yuqoridagi she'rlarga yaqinlashtiradi. Tong tangrisiga bag'ishlangan madhiya hamda Aprinchur tigin madhiyalarida asosan so'z va misralar takrori ohangdoshlikni yuzaga keltirgan bo'lsa, mazkur she'rda qofiyalarning o'zni muhimdir:

Tuzun bilge kishiler tirilelim,  
Tengrining bitigin biz ishidelim,  
To`rt ilig tengrilerke tapinalim,  
To`rt ulug` emgekde qurtulalim.  
(yeTŞ, 24-bet)  
Asil, bilimli kishilar to`planaylik,  
Tangrining kalomini tinglaylik.  
To`rt hokim tangriga sig`inaylik,  
To`rt og`ir azobdan qutulaylik.

O'zni kelganda shuni ta'kidlash lozimki, moniylik she'rlaridagi qofiyalanuvchi so'zlarning ko'pchiligida raviylar o'zaro to'liq mos kelmaydi. Qofiyalanishdagi bunday erkin uslub moniylik she'rlarini xalq og'zaki ijodiga yaqinlashtiradi. Chunki folklorida qofiya unsurlari qoidalariga qat'iy rioya qilish talab etilmaydi. Bu xususiyat, ya'ni raviylarning nomuvofiqligi moniylik she'rlari qofiya tizimi va xalq og'zaki ijodi namunalaridagi qofiyalarda o'xshash tomonlar mavjudligini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy moniylik she'rlari orasida hajm jihatidan eng kattasi bo'lgan madhiya - Moniyni ulug'lashga bag'ishlangan. Uning 123 to'rtlikdan iborat bo'lgan 492 misrasi saqlanib qolgan. Mavjud misralarning ko'p qismida o'chib ketgan so'zlar anchagina uchraydi. Biroq to'liq yetib kelgan to'rtliklarning o'zi ham she'rning tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari to'g'risida ma'lum bir tasavvur uyg'ota oladi.

Yuqoridagi madhiyalarda asosan so'zlarning takrorlanib qo'llanishi ohangdoshlikni yuzaga keltirishini ko'rib o'tgan edik. Ulardan farqli ravishda, mazkur she'rdagi ohangdoshlik tovushlar takrori asosiga

qurilgan. Sheʼrning har bir toʻrtligida vertikal holdagi tovushlar takrori (alliteratsiya) mavjud. Jumladan, dastlabki toʻrtlik «a» tovushi asosidagi ohangdoshlikdan tarkib topgan boʻlsa, bunday xususiyat keyingi toʻrtlikda ham davom etadi, yaʼni uning misralari ham «a» tovushli soʻzlar bilan boshlangan:

Anuntumuz sizinge,  
Asra koʻngul in yukungeli.  
Aling amti umugʻ inagʻ,  
Alqunung barcha yukunchin.

(yeTŞ, 36-bet)

Olchoq koʻngul ila topinaylik deb  
soʻng koʻngildan egilgani.

Har kishining butun bu taʼzimlarini  
endi qabul cting, ey umid, ishonchimiz

Sheʼr davomida toʻrtliklarning oʻzaro qofiyalangan oʻrinlari ham koʻzga tashlanadi, lekin ularning qofiyalanish tizimi birday shaklga ega emas.

Nima uchun qadimgi turkiy moniylik sheʼrlarining qofiyalanishida maʼlum bir qoida yoʻq, degan savol tugʻiladi. Moniylik sheʼrlari qofiyalanish tizimining birday shaklga ega emasligi, bizningcha, ularda alliteratsiyaning yetakchilik qilishi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, alliteratsiya moniylik sheʼrlarining asosiy xususiyatidir. Zero, boʻgʻinlar miqdorining erkinligi, misralarning birday tovushlar bilan boshlanishi, tovushlar takrorining sheʼr ritmini hosil qilishdagi yetakchiligi kabilar ayni alliteratsion sheʼrning belgilari hisoblanadi. Alliteratsion sheʼrga xos boʻlgan bu kabi xususiyatlar turkiy sheʼriyat taraqqiyotining keyingi davrlarida ham davom etgan. Garchi «Hibat ul-haqoyiq»dagi toʻrtliklarning asosiy sheʼr unsuri qofiya hisoblansa-da, biroq ulardagi ohangdoshlikni hosil qilishda alliteratsiyaning ham oʻz oʻrni bor<sup>157</sup>:

Biliklik bilikni adragan boʻlur,  
Bilik tatgʻin, ey doʻst, biliklik bilur.

---

<sup>157</sup> Bu haqda qarang: Xoʻjanova G. «Hibat ul-haqoyiq» haqiqatlari. Toshkent. Adabiyot va sanʼat, 2001. B. 78-80..

Bilik bildurur erga bilik qadrini,  
Bilikni biliksiz udun ne qilur<sup>158</sup>.

Xulosa tariqasida yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, moniylik she'rlariga xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) 1) tovush, so'z va misralar takrori yetakchi;
- 1) 2) bo'g'inlar miqdori xilma-xil;
- 3) bir she'r tarkibida turli she'riy shakllar mavjud;
- 2) 4) bir she'r doirasida har xil qofiya ko'rinishlari uchraydi.

Moniylik she'rlarining shakliy-poetik xususiyatlari uzluksiz ravishda ilk klassik davrda, xususan «Devonu lug'otit turk»da ham davom etgan. Qadimgi turkiy she'riyat yuzasidan fikr bildirgan ba'zi Ovrupo olimlarining qarashlari turli-tumandir. Jumladan, P.Peloning fikricha, qadimgi turkiy she'rlar (moniylik she'rlari nazarda tutiladi – M.M.) qofiyalangan emas, balki she'r misralari boshidagi alliteratsiyaga asoslangan. «Devon»dagi she'rlar esa fors she'riyatining ta'siridan guvohlik beradi<sup>159</sup>.

To'rtliklarning qadimgi turkiy adabiyotdagi namunalarini Buddaga topingan turkiylarning she'riyatida ham kuzatish mumkin. «Budda dini YI-YIII asrlar davomida O'rta Osiyoda tarqala boshlagan edi. Biroq Ko'k-turk hukmdori Bilge Xon va uning vaziri To'nyuquq bu dinni yumsuhoqlik va miskinlikni targ'ib etgani, jangu jadalni va hayvon so'yishni man qilgani, xullas, turklarning hayot tarzlariga nouyg'un kelgani uchun rad etdilar. Chunki Budda dini millatning harb qudratini buzib, Chin xavfiga yo'l ochishi mumkin edi»<sup>160</sup>. Professor Nasimxon Rahmonovning ta'kidlashicha, buddizmning qabul qilinishiga bo'lgan qarshilik Turk xoqonligining sharqiy qismiga aloqador. Shu sababli Urxun va Enasoy yodnomalarida buddizmning ta'siri sezilmaydi<sup>161</sup>. Shomonlik xoqonlikdagi asosiy din bo'lsa-da, bu davrlarda turkiylarning muqim bir dinga sig'inganliklari kuzatilmaydi. Chunki turli turkiy urug' va qabilalar shomonlik bilan birga, moniylik va buddizmga aralash holda e'tiqod qo'yganlar. Har bir din vakillari o'z dinining g'oyalarini yoyish hamda targ'ib etishda adabiyotning kishilarga bo'ladigan ta'siridan unumli

<sup>158</sup> Yugnakiy A. Hibat ul-haqoyiq (Nashrga tayyorlovchi: Q.Mahmudov). Toshkent, Badiiy adabiyot, 1971. B. 43.

<sup>159</sup> Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм XI века. Москва, Наука, 1971. С.7.

<sup>160</sup> Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. Toshkent, Cho'lpon, 1995. B. 13.

<sup>161</sup> Rahmon N. Turk xoqonligi. Toshkent. Xalq merosi, 1993. B. 103.

foydalanishga harakat qildilar va natijada mazkur dinlar ta'siridagi badiiy ijod shakllana boshladi. Shu tariqa qadimgi turkiy budda she'riyatida maydonga keldi. L.Yu.Tugushevaning qayd etishicha, budda muhitida yaratilgan turkiycha she'rlar 1500 misradan ortadi<sup>162</sup>

. Mazkur she'rlarning hajmi turlicha bo'lib, ular dinning qonun-qoidalari, shuningdek, buddaviylik g'oyalarining targ'ibiga bag'ishlangan. She'rlardan ayrimlarining muallifi ma'lum. Umuman, buddizmning ta'sirida yashagan va ijod qilgan hamda nomlari bizgacha yetib kelgan shoirlar anchagina uchraydi. Ki-ki, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Kul Tarqon, Chisuya Tutung, Qalim Keysi, Singku Seli Tutung kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

«Sergaplik rangi» she'ri 60 misradan tarkib topgan to'rtliklar tizimidagi 15 banddan iborat bo'lib, quyidagi misralar bilan boshlanadi:

O'ng boshlap adqang'ularqa biligler qachar,  
O'kush qara ayig' yo'llug' urug'ug' sachar.  
O'glug kishi istim tutchi yasmaqsiz bachar,  
O'seliksiz yig nirvanning qapig'in achar.  
(yeTŞ, 120-bet)

Band misralari «qachar», «sachar», «bachar» va «achar» so'zlari orqali o'zaro uyg'unlashgan holda qofiya tarkibidagi undosh hamda unli tovushlar takrori she'rdagi jarangdorlikni yuzaga keltirib, «a-a-a-a» ko'rinishdagi qofiya shaklini hosil qilgan. Har bir misradagi bo'g'inlar soni 13 ga teng. Barcha misralar qadimgi turkiy she'riyatga xos xususiyat – bir xil tovushli so'zlar bilan boshlanayapti. She'ring qolgan bandlaridan 7 tasi (2,3,6,8,12,14,15-bandlar) ham xuddi «a-a-a-a» tarzida qofiyalangan bo'lsa-da, lekin ayrim to'rtlik misralaridagi bo'g'inlar miqdori xilma-xildir. Xususan, 3,8,14-bandlar misralari xuddi birinchi banddagidek 13 bo'g'inli bo'lsa, 6-band misralari 14 bo'g'indan tuzilgan. Qolgan 2,12,15-to'rtliklar misralaridagi bo'g'inlar miqdori ham bir xil emas: 13 yoki 15 bo'g'inlidir.

She'rdagi ikkinchi qofiya ko'rinishi «a-b-a-b» shaklga ega bo'lib, u to'rtlikning toq va juft misralarida vujudga kelgan:

Aqashtaqi ay tengrini atqanmish bo'lup,

---

<sup>162</sup> Тугушева Л.Ю. Поэтические памятники древних уйгуров // Тюркологический сборник, 1972. М/А Наука, 1973. С. 243.

Ayataqi erdinini ichg'inip salma.  
Alqi o'dte tashtin singlar tilemish bo'lup,  
Anuq buzni suv timetin arsiqip qalma.  
(yeTŞ, 120-bet)

To'rtlikning to'rtala misrasi ham 13 bo'g'indan tuzilgan va «a» tovushli so'zlar bilan boshlangan. Bandga xos bo'lgan jihatlardan yana biri unda radifning ishtirok etishidir. Biroq u barcha misralarda ham mavjud bo'lmay, balki faqat birinchi va uchinchi misralardagina qo'llangan, xolos. Ikkinchi va to'rtinchi misralar esa qofiyaga ega bo'lgan holda radifsizdir. Bo'g'inlar miqdorining teng emasligini hisobga olmaganda, bunday xususiyat she'rning keyingi beshinchi bandiga ham xosdir.

Uchinchi guruh to'rtliklari yanada o'zgacha bo'lib, «b-a-v-a» shaklda qofiyalanganligi bilan ajralib turadi. Ularda toq misralar ochiq qolgan va juft misralarning oxiridagi so'zlar ohangdoshlik kasb etgan. Mazkur guruhga oid uch to'rtlikdan ikkitasida (o'ninchi va o'n birinchi bandlarda) alohida xususiyat kuzatiladi, ya'ni ularning birinchi va uchinchi misralarida to'liq qofiya mavjud bo'lmay, faqat radif qo'llangandir. Ikkinchi va to'rtinchi misralar esa o'zaro qofiyalanib kelgan:

Yarup yashup qatchig'larta bo'ldachi erip,  
Yaba yirtinchug bir yintem ider tuymayur.  
Yasimuqcha bo'di intin anta yo'q erip,  
Yamaracha ko'rugin busdachi erur.  
(yeTŞ, 122-bet)

Dastlabki misradagi «erip» so'zi uchinchi misrada yana qaytarilib, qofiya vazifasini bajarib kelyapti. Radifning qofiya o'rnida qo'llanishi - qofiyasiz misralar oxiridagi takror so'nggi guruhga kiruvchi to'rtlikning asosiy belgisi hisoblanadi. Chunki uning har bir misrasida ohangdosh so'zlar o'rniga bir so'z takrorlanib qo'llanadi:

Yayqi suvni qishqi o'dte buz tiyurler.  
Yana yayin qishqi buzni suv tip tiyurler.  
Yangilduqta chin burqanni ko'ngul tiyurler.  
Yangilmaduqta ko'ngulni o'k burqan tiyurler.  
(yeTŞ, 120-bet)

Takror so'zning qofiya vazifasini bajarishi islom muhitining mahsu-

li bo‘lgan «Hibat ul-haqoyiq» dostonida ham uchraydi:

Bu ochun rabot ul tushub ko‘chguluk,  
Rabotqa tushukli tushar ko‘chguluk.  
O‘ng arqish uzadi qo‘pup yo‘l tutub,  
O‘ngi qo‘pmish arqish necha ko‘chguluk<sup>163</sup>.

Bu yerda «ko‘chguluk» so‘zi to‘rtlik misralarini bir-biriga bog‘layapti va ohangdoshlik hosil qilib, qofiya vazifasini bajarib kelyapti. Mazkur usul adabiyotshunoslikda epifora deyiladi. Epifora «... muayyan tushuncha yo jumla ma’nosini ta’kidlaydi; ohangdoshlik va musiqiylikni rag‘batlantiradi, misralarni bayt yo bandlarga uyushtiradi, bunda u qofiya vazifasini o‘rindoshlik asosida bajaradi»<sup>164</sup>.

Demak, epifora – radifning qofiya o‘rnida qo‘llanishi islomdan oldingi turkiy she’riyatda shakllangan hodisadir. Buning Adib Ahmad ijodida uchrashi qadimgi turkiy adabiyotdagi an’ananing keyingi davrlarda ham davom etganligidan dalolat beradi.

Buddaviylik she’rlari orasida «Inonch» nomli she’r ham shakliy tuzilishiga ko‘ra alohida xususiyatga ega. U besh band - 20 misradan tashkil topgan. She’rning dastlabki bandlariga e’tibor qilaylik:

Alqu qamag‘ uch o‘dki burqanlarqa,  
Arish arig‘ nirvan to‘zlug iduq nomqa.  
Ayag‘ulug‘ arya sangga quvrag‘larqa,  
Ayap kulep alqu o‘dte inanurmen.

Burqanlarning ulushining pramanusi,  
Bo‘lsar neche ancha sanlig‘ ulush sayu  
Bo‘dlar o‘ze alqu o‘dte burqanlarqa,  
Bulidlayu tapig‘ o‘ze tapinurmen.  
(yeTŞ, 150-bet)

Ko‘rinadiki, birinchi to‘rtlikning uch misrasi o‘zaro ketma-ket qofiya asosiga qurilib, to‘rtinchi misra ochiq qolyapti. Ikkinchi to‘rtlik misralari orasida esa qofiyalanish holati mavjud emas. Faqat to‘rtinchi

<sup>163</sup> Yugnakiy A. *Hibat ul-haqoyiq*. Toshkent, Badiiy adabiyot, 1971. B. 53..

<sup>164</sup> Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 2-tom. Toshkent, Fan, 1978. B. 392.

misradagi «tapinurmen» soʻzi avvalgi bandning oxirgi misrasidagi «inanurmen» soʻzi bilan ohangdoshlik hosil qilib, bandlararo qofiyalanishni yuzaga keltiryapti. Bu - bandlararo qofiyadoshlik butun sheʼr oxirigacha davom etadi va uni amalga oshirishda keyingi bandlarda «oʻkunurmen», «oʻgirurmen», «ildinurmen» soʻzlari xizmat qiladi. Shu jihati bilan sheʼr xalq ogʻzaki ijodi sheʼrlariga yaqinlashadi. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi qofiya tizimini maxsus oʻrgangan Farmon Rayhonov bunday tadrjili qofiyalanish usulini folklor xususiyatlaridan kelib chiqqan holda voqeband qofiya deb atash lozimligini qayd etadi<sup>165</sup>. Demak, buddaviylik sheʼrlarining yaratilishida mualliflar qadimgi turkiy ogʻzaki ijod namunalarini yutuqlariga tayanganlar hamda folklor anʼanalarini sheʼriyatga singdirishga harakat qilganlar. Bundan qadimgi turkiy adabiyotda janrlarning folklor adabiy tizimi mavjud boʻlgani singari shakliy-poetik xususiyatlari ham ogʻzaki ijod asosida shakllangan, degan fikrga kelish mumkin. Chunki bandlararo qofiyadoshlik «Oʻn turli niyoz usuli», «Jonlilarga foydali boʻlmoq», «Itifar», «Yaxshi tilak» kabi sheʼrlarda ham uchraydi.

Buddaviylik taʼsirida yaratilgan turkiy sheʼrlarni oʻrganish ularga xos boʻlgan quyidagi xususiyatlarning mavjudligini koʻrsatadi:

- 1) misra, bayt va bandlarda alliteratsiyaning yetakchiligi;
- 2) takror soʻzning qofiya vazifasini bajarishi;
- 3) bandlararo qofiyalanishning mavjudligi.

Toʻrtliklar Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» asarida ham mavjud boʻlib, mazkur toʻrtliklarning koʻpchiligi xalq ogʻzaki ijodi namunalarini hisoblanadi va ular asosan turkiy xalqlar folklorida ming yillardan beri yetakchi mavqega ega boʻlib kelgan barmoq vaznida yaratilgan. «Devonu lugʻotit turk» orqali yetib kelgan badiiy ijod namunalarining vazni xususida olimlarning fikrlari turlichadir. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar ularni barmoqda yaratilganligini eʼtirof etishsa, baʼzilar esa aruz vazniga mansub deb hisoblashadi<sup>166</sup>.

«Devonu lugʻotit turk»dagi sheʼriy parchalarning yaratilish il-dizi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. «Devon» bilan maxsus shugʻullangan olim Solih Mutallibovning fikricha, asarda keltirilgan adabiy, sheʼriy parchalar, umuman, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini faqat XI asr adabiyotininggina namunasi boʻlmay, balki ayni paytda ularning

<sup>165</sup> Rayhonov F. Sheʼr qanoti.dagi yulduzlar. Toshkent, Adabiyot va sanʼat, 1986. B. 47.

<sup>166</sup> Bu haqda qarang: Toʻxliov B. «Qutadgʻu bilig»ning poetikasi masalalari // Oʻlmas obidalar. Toshkent, Fan, 1989. B. 339-340.



katta bir qismi juda uzoq davrlar mahsulidir<sup>167</sup>. Darhaqiqat, «Devon»dagi qo‘shiqlar, she‘riy parchalarni maxsus o‘rganish, tahlil qilish yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

To‘rtliklarning islomdan keyingi turkiy xalqlar yozma adabiyotida aruz vaznida yaratilgan ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida uchraydi. «Qutadg‘u bilig»dagi mavjud «... to‘rtliklar butun ildizi bilan turkiy xalqlar she‘riyatiga borib taqaladi. Yusuf Xos Hojib bu asarini garchi arab va fors adabiyoti an‘analaridan bahramand bo‘lib yozgan bo‘lsa-da, unda turkiy xalqlar nazmi bilan mustahkam ichki muvofiqlik bor»<sup>168</sup>. Darhaqiqat, doston to‘rtliklari bilan xalq og‘zaki ijodi to‘rtliklari o‘rtasida bir qator umumiy xususiyatlar mavjudki, bu masalalar, ya‘ni «Qutadg‘u bilig» to‘rtliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ruboiy janri va xalq to‘rtliklari bilan munosabati kabilar o‘zbek adabiyotshunosligida maxsus o‘rganilgan<sup>169</sup>

To‘rtliklar Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asarida ham uchraydi. «Devoni hikmat» - Yassaviyning so‘fiylik qarashlari asosida vujudga kelgan she‘rlarni o‘z ichiga olgan adabiy manbadir. Undagi she‘rlarni shakliy-poetik tomondan kuzatish muallifning to‘rtliklarning imkoniyatidan unumli foydalanganligini ko‘rsatadi. «Devoni hikmat»dagi to‘rtliklar turkiy-islomiy yozma adabiyotda barmoq vaznida yozilgan dastlabki namunalar ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Hikmatlar asosan murabba‘ shaklidagi to‘rtliklardan tashkil topgan. Ularning qofiyalanishini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) b-a-b-a, v-v-v-a... ko‘rinishdagi qofiyaga ega bo‘lgan she‘rlar;
- 2) b-b-b-a, v-v-v-a... shaklda qofiyalangan she‘rlar;
- 3) b-a-v-a, g-g-g-a... qofiya tizimidagi she‘rlar.

Ko‘rinib turibdiki, har bir guruhdagi she‘rlarning dastlabki bandlari, ya‘ni boshlanishi qofiyalanishi jihatdan farqlanadi, keyingilari esa birinchi bandning oxirgi misrasi bilan qofiyadosh bo‘lib keladi. Shuningdek, to‘rtliklar orasida «a-a-b-a» shakldagi qofiyalanganlari ham borki, ular vaznini hisobga olmaganda «Qutadg‘u bilig» va «Hibat ul-haqoyiq»dagi to‘rtliklarni esga soladi. Hikmatlarning vujudga kelishida

<sup>167</sup> Mutallibov S. So‘z boshi // Devoni lug‘otit turk. 1-tom. Toshkent, Fan, 1960. B. 34.

<sup>168</sup> Haqqulov I. O‘zbek adabiyotida ruboiy. Toshkent, Fan, 1981. B. 35.

<sup>169</sup> Bu haqda qarang: To‘xlijev B. «Qutadg‘u bilig»ning poetikasi masalalari // O‘lmas obidalar. Toshkent, Fan, 1989. B. 331-348.

misralar takrori ham alohida rol o'ynaydi. Bu xususiyat ayrim she'rlarda ko'zga tashlanadi. Masalan, she'rning birinchi bandidagi oxirgi misra butun she'r davomida mavjud to'rtliklarning so'nggi misralarida aynan takrorlanadi. Misralar takrorining ikkinchi ko'rinishida esa she'rning dastlabki to'rtligi o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Chunki to'rtlikning ikkinchi misrasi to'rtinchi misrada to'liq qaytariladi.

Hikmatlarning qofiya tizimini o'rganish jarayonida ayrim to'rtliklarning qofiyalanishi e'tiborni o'ziga tortadi. Xususan, ularda - bir to'rtlikda ikki xil qofiyalanish usuli kuzatiladi:

Chin oshiqlar kechkan ermish jonin tashlab,  
Adham sifat barham urub molin tashlab,  
Hu-hu teyu haq zikrini aytib xushlab,  
Imon tasdiq qilib bag'rin kabob etdi<sup>170</sup>.

Ko'rinadiki, to'rtlikning birinchi bayti qofiyaga ham, radifga ham ega. Uchinchi misra esa dastlabki misralar radifi bilan ohangdoshlik hosil qilgani holda radifsizdir.

Takror so'zning qofiya vazifasini bajarib, yoqimli ohangdorlik va she'riy ritm hosil qilishi Yassaviy to'rtliklariga ham xos xususiyat bo'lib, ularga ajib xalqona ruh baxsh etgan:

Qodir Egam qudrat bila sulh aylasa,  
Jannat ichra kirar oshiq amr aylasa,  
Na'ra tortib faryod etib, vird aylasa,  
May no'sh etib samo' qilib yurar bo'lg'ay<sup>171</sup>.

Qadimgi turkiy she'riyatga xos bo'lgan an'ananing «Hibat ul-haqoyiq»dagi kabi «Devoni hikmat»da ham davom etishi to'rtliklarning turkiy adabiyotdagi uzluksiz tadrijiy taraqqiyotidan guvohlik beradi.

Yassaviy hikmatlari asosan mustaqil to'rtliklardan iborat bo'lsa-da, mazmun va ohang jihatidan yagona maqsadga xizmat qiladi. Mantiqiy izchillik ularning asosiy xususiyatidir. Bu jihati bilan ular xalq og'zaki ijodi qo'shiqlariga yaqinlashadi.

Adib Ahmadning «Hibat ul-haqoyiq» asarida 103 ta to'rtlik mavjud.

<sup>170</sup> Yassaviy A. Hikmatlar (Nashrga tayyorlovchi: I.Ishaqulov). Toshkent, Adabiyot va san'at, 1990. B. 185.

<sup>171</sup> Yassaviy A. O'sha kitob. B. 181.

Ushbu to'rtliklarni kompozitsion-semantik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

I. Biliklik keraklik so'zin so'zlayur,  
Keraksiz so'zini ko'mub kizlayur.  
Biliksiz ne aysa ayur uqmatin,  
Aning o'z tili o'z boshini yeyur<sup>172</sup>

Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi, keraksiz so'zni ko'mib yashiradi.

Ilmsiz kishi nima gapirsa, nodonligi sababli so'zlaydi, shuning uchun uning tili o'z boshini yeydi.

Mazkur to'rtlik tuzilishi jihatdan o'rganilsa, uni ikki qismga ajratish mumkin. To'rtlikning birinchi qismida bilimli kishiga xos bo'lgan ijobiy xususiyat tasvirlansa, ikkinchi qismida muallifning ilmsiz, johil kishiga nisbatan salbiy fikri ifodalangan. Demak, kompozitsion qismlar o'zaro mazmuniy ziddiyatga asoslangan. Baytlarning o'zaro qiyosi orqali to'rtlikda oldinga surilgan poetik fikr - ilmi kishining ilmsiz kishidan afzalligi kitobxonga yanada oydinlashadi, bu esa to'rtlikning emotsional tomonini kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim omildir.

II. Ko'ni bo'l, ko'ni qil, otin ko'ni,  
Ko'ni teyu bilsun xaloyiq seni.  
Ko'nilik to'nin kiy, qo'yub egrilik,  
Kedim to'n to'lusi ko'nilik to'ni.  
(HH, 51-bct)

To'g'ri bo'l, to'g'ri ish qil. To'g'ri deb nom chiqar. Xaloyiq seni to'g'ri deb bilsin.

To'g'rilik to'nini kiy, egrilik to'nini yech. Kiyadigan to'nning yaxshisi to'g'rilik to'nidir.

Ushbu to'rtlik ham kompozitsion jihatidan ikki qismga bo'lingan. Bu bo'linish yuqoridagi to'rtlik kabi ma'no jihatdan ziddiyat asosiga qurilmay, balki kompozitsion qismlar o'rtasida ma'naviy parallellikni yuzaga keltirgan. Mazkur turning o'ziga xos xususiyati shundaki, birinc-

<sup>172</sup> Yugnakiy A. Hibat ul-haqoyiq. Toshkent, 1971. B. 44-45. (Bundan keyingi misollar ham mazkur kitobdan olinib, sahifasi qavsda ko'rsatiladi).

hi misrada ilgari surilgan fikr, ikkinchi misrada o'zining poetik rivojiga erishadi. Ikkinchi misra birinchi misradagi fikrni to'ldirishga, chuqurlashtirishga, mustahkamlashga xizmat qiladi. To'rtlikning keyingi baytida ham dastlabki baytdagi kabi qoidalarga amal qilinadi va natijada baytlararo ma'naviy parallellik yuzaga keladi. Bu usul to'rtlikning poetik mazmunini ochishga xizmat qilgani holda, uning jonli, yorqin ifodalinishiga olib kelgan.

III. Bilik bilti bo'lti eran belguluk,

Biliksiz tirikla yituk ko'rguluk.

Biliklik er o'lti oti o'lmatu,

Biliksiz esan erkan oti o'luk.

(HH, 41-42 betlar)

Ilmli kishilarning nomi mashhur bo'ladi, bilimsiz kishilar esa tiriklayin o'ldi hisob va bu unga ko'rgulikdir.

Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham oti o'likdir.

Ko'rinadiki, bu to'rtlikning kompozitsion qismlari ham ma'no jihatdan qarama-qarshilikka asoslangan, lekin bu ziddiyat baytlararo emas, balki misralararodir. Kitobxonga to'rtlikdagi poetik fikr - ilmli kishining ilmsiz kishidan ustun ekanligi birinchi bayt misralarining o'zaro qarama-qarshiligi orqali uqtiriladi. Mazkur poetik g'oya so'nggi misralarda rivojlantiriladi hamda misralarning ziddiyati natijasida yanada ravshanlashadi. «Bu yerda toq misralar ma'lum poetik fikrni o'rtaga qo'yadi. Juft misralar esa uning ziddi uchun keltiriladi. Mana shu usul orqali shoir o'z fikrini oydinroq bayon etadi»<sup>173</sup>

IY. Kudazgil tilingni kel oz qil so'zung,

Kudazilsa bu til kudazlur o'zung.

Rasul erni o'tqa yuzin otquchi,

Til o'l tedi yig' til yul o'ttin o'zing.

(HH, 49-bet)

Tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o'zing ham saqlanasan.

Rasul kishini o'tga tashlovchi tildir, deb aytdi, shuning uchun tilingni tiy, o'zingni o'tdan tort.

Bunday tur to'rtliklarning o'ziga xos xususiyati sifatida shuni

<sup>173</sup> To'xtiev B. «Qutadg'u bilig»ning poetikasi masalalari // O'lmas obidalar. Toshkent, Fan, 1989. B. 335.

ko'rsatish mumkinki, ularning birinchi va ikkinchi misralarida ma'lum bir poetik g'oya ifodalanadi, keyingi misralarda esa mana shu fikrning tasdig'i, dalili, ta'kidi sifatida maqol, hadis, hikmatli so'zlarga murojaat qilinadi. Yuqoridagi to'rtlik fikrimizga dalil bo'la oladi: uning birinchi baytiga «tilni tiyish, o'ylab so'zlash» kerakligi to'g'risidagi fikr singdirilgan bo'lsa, keyingi baytda bu fikr payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarini orqali tasdiqlanyapti. Mazkur usul ham to'rtlikning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Y. Haris to'yimas ochun nengini terip,  
Harislik qarimas idisi qarip,  
Harislikni qo'yur haris er qachon,  
O'lub yitsa tuproq ichiga kirip.  
(HH, 71-bet)

Mazkur to'rtlikka singdirilgan poetik g'oyani Adib Ahmad zanjirli ravishda rivojlantirgan, ya'ni birinchi misrada ma'lum bir fikr boshlanib, rivojlantirilgan. Chunonchi: haris (ochko'z) kishi qarisa ham harisligi qarimaydi - ikkinchi misrada keltirilgan mazkur fikr alohida olinganda ham tugal bir hikmat mazmuniga ega. Haris kishi qachon harisligini qo'yishi mumkin? Faqat o'lib, tuproqqa kirgachgina qo'yadi.

Xuddi shu yo'l orqali poetik g'oya o'zining tugal ifodasiga erishgan. Shuningdek, to'rtlikdagi misralarning kompozitsion jihatdan nisbatan mustaqilligi, har bir misraning o'zicha tugallangan mustaqil mazmuniga egaligi, uchinchi - qofiyasiz misraning kitobxonning diqqatini o'ziga kuchliroq jalb etib, so'nggi misrada kelayotgan to'rtlikning yechimiga ishora qilishi kabi xususiyatlar alohida ahamiyatga ega. Chunki bu belgilar to'rtlikni ruboiy janriga yaqinlashtiradi. Ma'lumki, «ruboiy fikr, ifodada ixchamlik va teranlikni talab etadigan janr»<sup>174</sup>

. Shu jihatdan yuqoridagi to'rtlik mazmun e'tibori bilan ham ruboiyga yaqin turadi, chunki unda juda ham teran hayotiy bir fikr ilgari surilgan.

«Hibat ul-haqoyiq» to'rtliklarini ruboiy deyish mumkinmi, degan o'rinli savol tug'iladi. Albatta, mazkur to'rtliklar shakliiy xususiyatlariga ko'ra ruboiyga o'xshasa-da, lekin vazn nuqtai nazaridan qaraganda ulardan farq qiladi. Chunki ruboiylar mumtoz she'riyat qoidalariga

<sup>174</sup> Haqqulov I. O'zbek adabiyotida ruboiy. Toshkent, Fan, 1981. B. 9.

ko'ra aruzning hazaj bahrida yaratilib kelgan. «Hibat ul-haqoyiq»dagi to'rtliklar esa muta'qorib bahrida yozilgan. Shu sababli ularni ruboiy deb atash qiyin. Shunga qaramay, mazkur to'rtliklar turkiy adabiyotda ruboiy janrining shakllanishida sezilarli ta'sir ko'rsatganligi tabiiydir.

YI. Bu budun to'lusi axi er turur,  
Axilik sharaf, joh, jamol ortturur,  
Sevulmak tilasang kishilar aro,  
Axi bo'l axiliq seni sevdurur.  
(HH, 64-bet)

Mazkur to'rtlikning dastlabki misralarida Adib Ahmadning saxiylik to'g'risidagi fikrlari ifodalangan bo'lib, ular quyidagicha mazmunni ifodalaydi: xalqning yetugi saxiy kishidir, saxiylik sharaf, martaba va go'zallikni orttiradi. Muallif uchinchi misrada o'quvchini mushohada yuritishga, o'ylab ko'rishga da'vat etgani holda, so'nggi misrada to'rtlikda ko'tarilayotgan poetik fikr - saxiylik, saxovatlikni har bir kishi, albatta, o'ziga singdirishi kerakligini alohida uqtiradi: Kishilarning muhabbatini o'zingga jalb qilmoqchi bo'lsang, saxiy bo'l, saxovat seni sevikli qiladi.

Demak, bunday turga mansub to'rtliklarda asarning didaktik ruhi alohida sezilib turadi, ya'ni to'rtlikda ilgari surilayotgan poetik fikr oxirgi misrada o'ziga xos tarzda targ'ib qilinadi. Dostonda bunday usulda yaratilgan to'rtliklar ko'plab uchraydi. Biroq ayrim to'rtliklarda shoir o'z fikrlarini yuqorida keltirilgan misollardagi kabi faqat so'nggi bayt yoki misralarda pand-nasihat tarzida uqtirib qolmasdan, balki to'rtlikning har bir misrasida she'rda ko'tarilayotgan poetik fikrga o'quvchining amal qilishi lozimligini ta'kidlab o'tadi:

Ulug'lug'qa tegsang yengilma o'zung,  
Qoli kiysang atlas unutma bo'zung.  
Ulug' bo'ldug'ungcha tuzunrak bo'lub,  
Ulug'qa kichikka siliq tut so'zung.  
(HH, 78-bet)

Ulug'likka yetishsang yanglishma. atlas kiyganingda bo'zingni unutma.

Ulug'likka erishguningcha yaxshiroq bo'lib, katta va kichikka so'zingni silliq, muloyim qil.

«Hibat ul-haqoyiq» asarida, undagi to'rtliklarda qadimgi tur-

kiy adabiyotga xos an'analarining ta'siri sezilib turadi. Dostondagi to'rtliklarning tuzilishi, mazmun va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular qadimgi turkiy xalqlar yozma adabiyoti va og'zaki ijodi to'rtliklari, xususan, «Devonu lug'otit turk»dagi to'rtliklar bilan bir o'rinda turadi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi «... to'rtliklarning tematikasi ancha boy. Ularda qabila bahodirlarining mardonavor kurash tuyg'ulari, jasorati, mehnat va muhabbat hislari o'z aksini topgan. «Devon»dagi to'rtlik va lirik parchalar... ning aksariyati 7-11 hijodan tashkil topgan. 7-11 hijoli a-a-a-b yoki a-a-b-a shaklida qofiyalanuvchi she'rlar turkiy xalqlar poeziyasida qadim zamonlarda paydo bo'lganligi va nihoyatda keng tarqalganligi ilmda allaqachonlar isbotlangan»<sup>175</sup>. Bu haqda, ya'ni to'rtliklarning turkiy xalqlar she'riyatida qadimdan keng qo'llanilib kelgan yetakchi shakllardan biri ekanligi to'g'risida ye.E.Bertels quyidagilarni qayd etadi: «Qasida va g'azallardagi yagona qofiyalilik albatta, arablardan. Biroq juft qofiya arablarga mutlaqo ma'lum emas edi. Ularga ruboiy ham noma'lum bo'lgan. Ammo ruboiy juda qadim zamonlardanoq O'rta va Markaziy Osiyodagi turli turkiy xalqlar folklorida eng yoqimli shakllardan biri bo'lgan. Shuningdek, arab termini bilan ataladigan murabba', ya'ni har bir misrasi a-a-a-b, v-v-v-b, g-g-g-b ko'rinishida qofiyalanuvchi to'rtliklardan boshqa narsa emasligini tan olmaslik mumkin emas»<sup>176</sup>.

Darhaqiqat, «Hibat ul-haqoyiq» va «Devonu lug'otit turk»dagi adabiy parchalarni muqoyasa qilish natijasida mazmunan va g'oyaviy yaqin bo'lgan misralarga ham duch kelish mumkin:

O'g'ulum senga kuzurmen ardam o'gut xumaru,  
Bilga erig bo'lub sen baqqil aning tabaru.

O'g'lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. A g a r  
ilmi, aqli odamlarga yo'liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan<sup>177</sup>.

Mazkur fikr «Hibat ul-haqoyiq»ning quyidagi misralari uchun ham g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilishi fikrimizga dalil bo'la oladi:

#### Biliktin ayurmon so'zumga ula,

<sup>175</sup> Хаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. Тошкент, Фан, 1981. Б. 30.

<sup>176</sup> Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. Москва, 1960. С. 88.

<sup>177</sup> Кошгарий М. Девону луготит турк. 1-том. Тошкент, Фан, 1960. Б. 412.

Biliklikka, yo do‘st, o‘zungni ula.

Bilik birla bilinur saodat yo‘li,

Bilik bil saodat yo‘lini bula.

(HH, 40-bet)

Bilim haqida so‘zlayman, so‘zimga quloq sol, ey do‘st, ilmli kishiga o‘zingni yaqin tut.

Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, (shunga ko‘ra) ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla.

«Hibat ul-haqoyiq» dostonini ko‘zdan kechirar ekanmiz, shoirning o‘zidan oldin yashab o‘tgan ijodkorlarning, xususan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostoni bilan yaqindan tanishganligi, uning yutuqlaridan ijodiy foydalanganligi, har ikkala asarning mazmun hamda g‘oyaviy jihatdan bir-biriga o‘xshash tomonlari mavjud ekanligining guvohi bo‘lamiz:

Qara bash yag‘isi qizil til turur,

Necha bash yedi bu taqi ma yeyur.

Bashingni tilasa tilingni ko‘daz,

Tiling tekma kunda bashingni yeyur<sup>178</sup>

Qora boshning yovi qizil tildir, u qanchadan-qancha boshlarni yedi, yana ham yeydi.

Boshim omon bo‘lsin desang, tilingni ehtiyot qil, tiling istagan bir kunda boshingni yeydi.

Yusuf Xos Hojibning bu fikrlariga Adib Ahmadning quyida keltirilayotgan misralardagi qarashlari o‘zaro hamohangligi bilan ajralib turadi:

Sonip so‘zlagan er so‘zi so‘z sog‘i,

O‘kush yangshag‘on til ay olmas yog‘i.

So‘zung bushlug‘ esma yig‘a tut tiling,

Yetar boshqa bir kun bu til bushlig‘i.

(HH, 47-bet)

O‘ylab so‘zlagan kishining so‘zi to‘g‘ridir, o‘rinsiz ko‘p vaysagan til ayamaydigan yovdir.

So‘zing achchiq, ezma tilingni tiyib tut, achchiq (erk berilgan) til bir

<sup>178</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Тошкент, Фан, 1971. Б. 196.



kuni boshingga yetadi.

«Hibat ul-haqoyiq» va «Qutadgʻu bilig» toʻrtliklarini solishtirish orqali ular oʻrtasidagi bir qator oʻxshashliklarni kuzatish mumkin:

1. «Qutadgʻu bilig»dagi toʻrtliklar ham, «Hibat ul-haqoyiq»dagi toʻrtliklar ham mavzu jihatdan didaktik xarakterdadir.

2. Har ikkala asardagi toʻrtliklar aruz vaznining mutaqorib bahrida yaratilgan.

3. Oʻzaro uygʻunlik Yusuf Xos Hojib va Adib Ahmad toʻrtliklarining kompozitsion xususiyatlarida ham mavjud.

Xullas, toʻrtliklarning turkiy adabiyotda oʻziga xos taraqqiyot tarixi mavjud. Ular yozma adabiyotda qadimgi turkiy moniylik va budaviylik sheʼrlaridan boshlab kuzatiladi. Islomdan avvalgi sheʼriyatda alliteratsiyaning oʻrni beqiyosdir. Chunki sheʼrdagi ohangdoshlikning yuzaga kelishi asosan alliteratsiyaga bogʻliq boʻlgan. Shuning uchun ham ularda qofiya hali islom davri adabiyotidagi kabi sheʼrning yetakchi unsuri darajasiga koʻtarilgan emas. Bu - qadimgi turkiy sheʼriyatda qofiya boʻlmagan, degan xulosaga olib kelmaydi. Balki uning shakllanish jarayonida ekanligini bildiradi. Shu bois toʻrtliklarning yaratilishi ham asosan alliteratsiyaga tayanadi.

Bizning kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, alliteratsion sheʼr, garchi qadimgi skandinaviya sheʼrlari uchun xos boʻlsa-da, u qadimgi turkiy adabiyotda ham yetakchilik qilgan. Bu xususiyat turkiy sheʼr rivoji ham dunyo xalqlari sheʼriyati bilan umumiy jarayonga ega ekanligini koʻrsatadi. Badiiy tafakkurning ilk bosqichdagi umumiy holati sheʼriyatda, xususan, janrlardagi umumiylikni belgilaydi.

Qadimgi turkiy sheʼriyatdagi qofiya tizimi haqida gap ketar ekan, moniylik sheʼrlariga qaraganda, buddaviylik sheʼrlarida qofiyaning ancha shakllanib qolganligini kuzatish mumkin. Bundan keyingi davrlar sheʼriyatida qofiyaning ohangdoshlik hosil qilishdagi vazifasi orta borganligi koʻrinadi.

Turkiylar islomni qabul qilgach, yozma adabiyotda aruzning mavqei koʻtarila bordi va u turkiy sheʼriyatning asosiy vazni boʻlib qoldi. Toʻrtliklar ham aruz vazniga moslashdi, qofiya ularning yaratilishida yetakchi unsurga aylandi va alliteratsiyaning roli moniylik hamda budaviylik muhitiga nisbatan ancha pasaydi. Bu hodisa sheʼriyatning shu davrdagi ehtiyoji bilan baholanadi. Albatta, islom davri toʻrtliklarining vujudga kelishida qadimgi turkiy adabiyotdagi tajriba va anʼanalar mu-

him ahamiyat kasb etdi.

Shunday qilib, to'rtliklar qadimgi turkiy she'riyatdan islom davri adabiyotigacha uzluksiz rivojlanish jarayonini bosib o'tdi va har bir davrdagi (moniylik, buddaviylik, islom) adabiy an'analar asosida mukammallashib bordi.

## MARSIYA

Har qanday odamning o'limi uni biladigan kishilarni, ayniqsa, yaqinlarini chuqur iztirobga soladi. Inson ruhiyatidagi ana shu dardli kechinmalar, qayg'u va alamli she'rlarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur she'rlar xalq og'zaki ijodida yig'i atamasi orqali nomlanadi. Yozma adabiyotda esa ular marsiya deb ataladi.

Marsiya janrining taraqqiyotini o'rganish uning turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida shakllanganligini ko'rsatadi. U dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan va keyinchalik yozma adabiyotga o'tgan. Mazkur fikrlarni chuqurroq tadqiq etish maqsadida «Devonu lug'otit turk»<sup>179</sup> asariga murojaat etamiz. Garchi «Devonu lug'otit turk» tilshunoslikka oid qimmatli asar bo'lsa-da, unda berilgan badiiy ijod namunalari ma'lum darajada qadimgi turkiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini tasavvur qilishga yordam bera oladi. Masalan, «Devon»da qadimgi turkiylar davlatining hukmdori Alp Er To'nganing mardligi, olijanoblighi, shon-shuhratini madh etuvchi, shu bilan birga, uning vafoti munosabati bilan paydo bo'lgan bir qator to'rtliklar uchraydiki, ularning yaratilishi, shubhasiz, eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Mazkur to'rtliklarni marsiya janri namunalari, deb atash mumkin. Ulardagi chuqur dard, alam, iztirob, achinish, umuman, hazin ruh shunday deyish uchun asos bo'la oladi.

Ma'lumki, Alp Er To'nga miloddan avvalgi VII asrda yashagan turkiy xoqon edi. U turkiy qabilalarni birlashtirib, qudratli davlat tuzishga erishadi va bu davlatning shon-shuhrati tez orada uzoq o'lkalarga ham

<sup>179</sup> Караш: Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Тошкент, Мумтоз сўз, 2008. Карюмов А. Қадимият обидалари. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1972; Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм XI века. Москва, Наука, 1971; Хайитматов А. Қадимги туркий шеърят хақида // Хаётбахш чашма. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1974. Б.138-149; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, Ўқитувчи, 1976. Б.55-66, 103-108; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 1-том. Тошкент, Фан, 1978. Б.88-92; Махмуд Кошғарийнинг «Девону луготит турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тугтан ўрни. Халқаро конференция материаллари. Самарқанд, 2002.

yoyiladi. Yusuf Xos Hojib ana shunday davlatning buyuk hukmdori – Alp Er To‘ngani bilimli, zakovatli, dono inson bo‘lganligi, tojiklar uni Afrosiyob deb atashganliklarini qayd etadi<sup>180</sup>. Mahmud Koshg‘ariy esa uni Koshg‘arda yashaganligini ta’kidlab, «yo‘lbars kabi kuchli bahodir odam»<sup>181</sup>

ekanligi to‘g‘risida xabar beradi.

Ulug‘ hukmdorning fojiali o‘limi turkiylarni chuqur qayg‘uga soladi. Xalqning qayg‘u-alamlari marsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy urug‘lar yashaydigan hududlarni kezib chiqar ekan, Alp Er To‘nga haqidagi marsiya parchalarini yozib oladi va «Devonu lug‘otit turk»ka kiritadi.

Marsiya asar tarkibida tarqoq ko‘rinishda uchrasa-da, olimlar orasida uni yaxlit tugal holda tiklashga harakatlar bo‘lgan. Bunday ishni dastlab Fitrat amalga oshiradi va 10 ta to‘rtlikni jamlab, «Eng eski turk adabiyoti namunalari» (1927) kitobiga kiritadi.

Marsiyada tasvirlanishicha, Alp Er To‘nganing o‘limi turkiylarning kuchsizlanishi, bilim ahlining e’tibordan chetda qolishi, ezgu ishlarning kamayishi va yovuzlikning kuchayishiga olib keladi. Hatto beklar ham qayg‘uga botadilar:

Beglar atin arg‘urub,  
Qazg‘u ani turg‘urub,  
Mengzi yuzi sarg‘arib,

Ko‘rkum anga to‘rtulur.

Mazmuni: amirlar otlarini charchatib keldilar. Qayg‘u beklarni ozdirdi, yuzlari za‘faron surgandek juda sarg‘aydi.

Marsiya bandlaridan biridagi barchaning bo‘ridek ulub, yoqa yirtib yig‘lashi - qattiq qayg‘uga botishi Alp Er To‘nganing mard, jasur, olijanob kishi ekanligi va xalqning unga hurmati yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi:

Ulushib eran bo‘rlayu,  
Yirtin yaqa urlayu,  
Siqrib uni yurlayu,

<sup>180</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу биллиг. Тошкент, Фан, 1971. Б. 102.

<sup>181</sup> Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3-том. Тошкент, Фан, 1963. Б. 379.

Sig‘tab ko‘zi o‘rtulur.

Mazmuni: Alp Er To‘nga o‘limiga achinib odamlar bo‘ridek uvlashdilar, yoqa yirtishib baqirishdilar. Ba‘zan cholg‘uchilar chalg‘usining chinqirig‘i kabi baqirishadilar. (Ular shuncha yig‘lashdilarki, ko‘z yoshlari) ko‘zlarini qopladi.

«Dunyo begi» vafot etsa-da, barcha uni yodida tutadi, ezgu sifatlar bilan eslaydi, fojiali musibatdan qayg‘uradi. Butun tushkunlikning, ko‘ngil cho‘kishining sababi – uning bevaqt dunyoni tark etishi. Umu-man, Alp Er To‘ngani doimiy qo‘msash ruhi butun marsiya bo‘ylab hukmronlik qiladi:

Ko‘nglum ichun o‘rtadi,  
Yetmish yashig‘ qartadi.  
Kechmish uzuk irtadi,  
Tun-kun kechib irtalur.

Mazmuni: tushgan musibat bilan ko‘nglim o‘rtandi, bitgan yaramni tirnab, yangilatdi, o‘tgan kunlarimni istatdi, kecha-kunduz izlatdi.

Marsiya barmoq vaznida yaratilgan bo‘lib, murabba’ shaklidagi bandlararo a-a-a-b, v-v-v-b qofiyalanish tartibiga ega. To‘rtliklarning har bir misrasi yetti bo‘g‘indan tashkil topgan.

Qadimgi turkiy she‘riyatning yirik bilimdonlaridan biri I.V.Stebleva Alp Er To‘nga haqidagi marsiyadan tashqari, yana 4 ta to‘rtlikni bir-lashtiradi va unga «Noma‘lum qahramon haqida marsiya» deb nom qo‘yadi<sup>182</sup>. To‘rtliklarda qahramon jangchining o‘limidan afsuslanish ruhi yetakchidir. Demak, ularni bermalol marsiya janri namunalari de-yish mumkin. Muallifning noma‘lum qahramon deb atashi bejiz emas. Chunki uning kimligi haqiqatan ham noma‘lum. To‘rtliklarning uchta-sida uning vatanparvarligi, mardligi, bahodirligi, dushmanga nisbatan beayovligi to‘g‘risida gap boradi:

Yag‘i o‘tin o‘churgan,  
To‘ydin ani ko‘churgan,  
Ishlar uzub kechurgan,

---

<sup>182</sup> Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм XI века. Москва, Наука, 1971. С. 159-161.

Tegdi o'qi o'ldirur.

Mazmuni: u urush olovini o'chiruvchi, ularni (dushmanlarni) askar safidan haydab chiqaruvchi, shu bilan birga, qiyin ishlarni bajaruvchi edi. Unga halok qiluvchi zamon o'qi tegdi.

Marsiyaning ikkinchi bandida qahramonning sifatлари ulug'lanadi. Olijanoblik, doimo ezgu ishlarning boshida turish, ijobiy fazilatlar bilan boshqalarga namuna bo'lish uning o'ziga xos xususiyatlari ekanligi eslanadi va ana shunday odamning o'limiga afsus va nadomat chekiladi:

Turg'an ulug' ishlaqa,  
Tirki urub ashlaqa,  
Tumlug' qadir qishlaqa,  
Qo'zti erig umduru.

Mazmuni: U odam ulug' ishlarga chidam bilan turish beradigan edi. Dasturxonni qattiq qishlarda ochiq edi, odamlarni o'zining yaxshiliklaridan umidvor qilib tashlab ketdi.

Marsiyaning vazni, qofiyalanishi, bo'g'inlar tizimi Alp Er To'nga marsiyasiga mos keladi. Har ikkala marsiyadagi lirik qahramonning iztirobi bayoni Enasoy bitiglarini yodga soladi. Chunki Enasoy yodnomalarida ham kishining iztirobi bayoni tasviri asosiy o'rin tutadi va bu ularning yig'i janri asosida yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Enasoy yodnomalari vafot etgan kishining tarjimai holi bilan bog'langan bo'lib, unda marhumga xos bo'lgan xususiyatlar tasviri yetakchidir<sup>183</sup>: «Avlodlarim, sizlardan ayrildim. Oh, uydagi xonzodalarimdan ayrildim. Sakkiz o'g'limdan ayrildim-ey. Xoqonim, elim xizmatida bo'ldim, dono hukmdorimga xizmat qildim, do'stlarimga xizmat qildim. Bu men uchun sharaftdir. Xoqonim uchun, Bilga Chiqshan xoqoniga xizmat qildim, ey xalqim, yigitlik sharafiga uchun davlatimga xizmat qildim. Tangriga xizmat qildim. Endi ajoyib do'stlarimdan ayrildim. Bu mangu toshimdir. Men alamli Chiksinman»<sup>184</sup>.

«Chako'l yodnomasi» mazmunidan ko'rinib turibdiki, u marhum hayotiga aloqador ma'lumotlar bayonidan iborat bo'lib, I shaxs tilidan hikoya qilinyapti. Enasoy yodnomalarining I shaxs, ya'ni marhum tilidan

<sup>183</sup> Раҳмонов Н. Руҳиялдаги нур муроди. Тошкент, Халқ мероси, 2002. Ё. 58.

<sup>184</sup> Қадимий ҳикматлар (Тузувчи: Насимхон Раҳмонов). Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1987. Ё. 42-43.

hikoya qilinishi, ular bilan Urxun yodnomalari o'rtasidagi uyg'unlikni keltirib chiqaradi: «Turk bo'dun qanin bo'lmayin Tabg'achda adrilti, qanlanti. Qanin qo'dub Tabg'achqa yana ichikdi. Tangri ancha temish arinch: qan bartim, qaningni qo'dub ichikding, ichikduk uchun tengri o'l temish, arinch. Turk bo'dun o'lti, alqinti, yo'q bo'lti. Turk sir bo'dun erinta bo'd qalmadi»<sup>185</sup>. **Mazmuni:** Turk xalqi o'zining xoni bilan bo'lmay, Tabg'ach xoqonligiga qo'shildi, xonlik bo'ldi. O'z xonini qo'yib, yana Tabg'ach xoqonligiga qo'shildi. Tangri shunday degan ekan: Xon berdim. Xoningni qo'yib, taslim bo'lding. Tabg'achga taslim bo'lgani uchun Tangri o'l, degan shekilli. Turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk sir xalqi yerida birorta ham urug' qolmadi.

Kul tigin bitigidagi tasvir To'nyuquq bitigidan farqli o'laroq, Bilga xoqon tilidan olib boriladi. Bu esa tasvirning I shaxs tilidan hikoya qilinishi hodisasi barcha Urxun yodnomalariga ham xos emasligini ko'rsatadi: «O'gim qatun ulayu o'glarim, akalarim, kalingunim, qunchuyalarim buncha yama tirigi kung bo'ltachi arti, o'lugi yurtida yo'lta yatu qaltachi artigiz! Kul tigin yo'q arsar, qo'p o'ltachi artigiz! Inim Kul tigin kargak bo'lti, o'zim saqintim; ko'rur ko'zim ko'rmaztag, bilir biligim bilmaztag bo'lti, o'zim saqintim. O'd tangri yasar, kisi o'g'li ko'p o'lgali to'pimis. Ancha saqintim ko'zda yash kalsar, atida ko'ngulta sig'it kalsar, yanturu saqintim, qatig' di saqintim: aki shad ulayu iniyu gunim o'g'lanim beglarim budunim ko'zi qashi yablaq bo'ltachi tip, saqintim»<sup>186</sup>. **Mazmuni:** Onam xotun, keyingi onalarim, opalarim, kelinlarim, xonzodalarim, tiringingiz cho'ri bo'lar edi, o'lingingiz cho'lu biyobonda, yo'lda yotib qolar edingiz! Kul tigin bo'lmasa, butunlay o'lar edingiz. Inim Kul tigin vafot etdi, vujudim alam chekdi. Ko'rur ko'zim ko'rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo'ldi (es-hushimdan ajraldim), jonim azobda qoldi. Dunyoni tangri yasaydi, inson bolalari hammasi o'ladigan qilib yaratilgan. Shunchalik alam tortdimki, ko'zga yosh kelganda, ko'ngilga yig'i kelganda, qayta g'am chekdim, qayta qayg'urdim. Ikki shad, keyingi ini-jiyanim, o'g'illarim, beklarimning ko'zi, qoshi yomon bo'ladi, deb qayg'urdim.

Mazkur parchani o'rganar ekan, professor N.Rahmonov undagi Kul tigin tasviriga e'tiborni qaratadi va qahramonning g'ayri tabiiy faoliya-

---

<sup>185</sup> Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Москва – Ленинград, Наука, 1951. С. 61.

<sup>186</sup> Малов С.Е. Уша китоб. Б. 33.

tini xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyat sifatida baholaydi<sup>187</sup>. Darhaqiqat, obrazlardagi mubolag‘ali tasvirning boshqa Urxun yodnomalarida ham uchrashi bitiktoshlarning yozma adabiyot sifatida shakllanishida folklorning ta‘siri borligidan dalolat beradi.

Urxun bitiglaridagi yig‘i yodnomalar tarkibida uchraydi va ular to‘liq mazkur janr asosiga qurilmagan, balki tarixiy qahramonlik dostonlaridir. Enasoy yodnomalarining asosini esa yig‘i janri tashkil etadi. Bu jihatdan ular o‘zaro farqlanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, marsiya Enasoy yodnomalarida I shaxs - marhum tilidan aytiladi. Bu usul marsiyaning alohida shakli hisoblanadi. U qadimgi shomonlikcha inonch tasavvurlarning mahsuli bo‘lib, marhumning ruhi tirikdir, degan qarash asosida shakllangan.

Yig‘i janri namunalari turkiylarning tarjima adabiyotida ham mavjud. Mazkur fikrning tasdig‘ini xitoychadan o‘g‘irilgan «Oltun yorug‘» dostonida ko‘rish mumkin. «Oltun yorug‘»dagi «Shahzoda va bars» afsonasida kichik shahzoda - Mag‘astvining o‘zini qurbon qilishi ushbu janrni yuzaga chiqaradi: “Na ada arti adayim, ko‘rklakaya o‘gukum. O‘lmak amgak nachukin, o‘ngra kalip arturti. Sintida o‘ngra o‘lmakig bulayin ay kunkayam. Ko‘rmayin arti munitag ulug‘ achig‘ amgakig...”<sup>188</sup>

. Mazmuni: Qanday kulfat bo‘ldi-ya, qo‘zichog‘im, jonimdan aziz erkatoyim! O‘lmoq azobi nima uchun (senga) barvaqt kelib olib ketdi. Sendan oldin o‘limni (men) topsam (bo‘lmasmidi), ey quyoshim! (Shunda) ko‘rmas edim bunday og‘ir, achchiq azobni!

Ko‘rinadiki, parchadagi onaning iztirobi bayoni tasviri uni yuqorida keltirilgan namunalarga yaqinlashtiradi va yig‘i janrining turkiy adabiyotda o‘ziga xos shakllanish yo‘liga ega ekanligini bildiradi.

Yig‘i janrining taraqqiyoti masalalarini tadqiq etish qadimgi turkiy adabiyotda yig‘i tasvirining ikki yo‘nalishda amalga oshirilganligini ko‘rsatadi:

1. Yig‘i marhum tilidan bayon qilingan (Enasoy yodnomalari).
2. Yig‘i o‘zga kishilar, asosan, marhumning yaqinlari tomonidan bayon qilingan (Kul tigin bitigi, «Oltun yorug‘» dostonidagi yig‘i, Alp Er To‘nga marsiyasi).

<sup>187</sup> Рахмонов И. Урхун-Енисей ёдномалари ва туркий эпослар. ФФД илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 1991. Б. 127.

<sup>188</sup> Олгун ёру: (Нашрга тайёрловчи: Н.Рахмон). 2-китоб. Тошкент, Мумтоз сўз. 2013. Б.

Lekin har ikkala holatda ham yig‘i janrini epiklashtirish bolati kuzatiladi. Bu jarayon qadimgi turkiy adabiyotda janrlar tizimining odat va marosimlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Janrning keyingi vaqtlardagi takomili davrida asta-sekin yig‘ining marhum tilidan aytilishi hodisasi yo‘qola borgan va uning o‘rniga boshqa hayotiy shaxslar tomonidan ijro etilishi janr mezonlaridan biriga aylangan.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, yozma adabiyotda yig‘i sof janr sifatida Enasoy yodnomalari orqali yuzaga chiqdi. Urxun yodgorliklarida esa boshqa janrlar bilan aralash holda yashadi. Keyingi rivojlanish bosqichlarida shakllanib, o‘ziga xos qoidalarga ega bo‘ldi va marsiya degan atama orqali nomlandi. Janrning arabcha nomlanishi islomdan avvalgi davrlarda adabiyotshunoslik ilmining taraqqiy etmaganligi bilan izohlanadi.

## QASIDA

Qasida lirik tur janrlaridan biri bo‘lib, bu so‘z arabchadan o‘zbekchaga o‘girilganda maqsad, niyat kabi ma‘nolarni anglatadi. Uning namunalari Sharq adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri sifatida arab, fors, turkiy tilda qalam tebratgan shoirlar ijodida ham uchratish mumkin. Manbalarda qasida haqida gap ketganda, u biror tarixiy shaxs, mashhur arbob yoki qahramon, muhim voqea kabilarga bag‘ishlab yozilgan tantanali uslubdagi asar ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, tabiat, cholg‘u asboblari, ijtimoiy-falsafiy mavzulardagi qasidalar ham mavjudligi alohida ta‘kidlanadi. Qasida g‘azalga o‘xshab qofiyalanadi. Hajm jihatidan kattaligi bilan g‘azallardan farqlanadi. Qasidalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: qasidai toin va qasidai mujarrad (qasidai mahdud yoki qasidai muqtazab). Qasidai tom, ya‘ni to‘liq qasida tarkibida nasib (kirish qismi), gurizgoh (asosiy qismga tayyorlovchi bo‘lim), madh (tasvirlanayotgan shaxs, voqea yoki narsa maqtovi) va qasd (muallifning maqsadi bayoni) qismlari mavjud bo‘ladi. Qasidai mujarrad – to‘liq bo‘lmagan qasidada esa yuqoridagi qismlardan ayrimlari (madhdan tashqari) bo‘lmasligi mumkin.

Har qanday janrning har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos shakllanish tarixi mavjud. Qasida ham turkiy adabiyotga o‘z-o‘zidan kirib kelgani yo‘q. Uning ildizlari avvalo turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari aso-



sida paydo bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida "qo'shug'" atamasini "she'r", "qasida", "qo'shiq" sifatida ishlatganligi ma'lum:

Turkan qatun qutunga,  
Tegur mendin qo'shug',  
Ayg'il sizing tabug'chi,  
O'tnur yangi tabug'.

Malika (shoh) xotinga mendan maqto'v, qasida (qo'shiq) yetkur va xodimingiz yangi xizmatlaringizga tayyor, deb ayt<sup>189</sup>.

Bu atama "Qutadg'u bilig" dostonida ham mavjud ekanligiga o'z vaqtida mutaxassislar e'tibor qaratishgan<sup>190</sup>.

Qasidalarining asosiy qismi mohiyatida mashhur kishilarni madh etish yotadi. Madh qadimgi turkiy adabiyotda ham mavjud bo'lib, uni Urxun yodgorliklari matnida kuzatish mumkin. "Qadimgi turkiy yodnomalardagi madh shaxslarning axloqiy sifatlarini, xizmatlarini madh qilishdan va ideallashtirishdan iborat"<sup>191</sup> bo'lgan vazifani bajaradi. Masalan, Kul tigin bitigida madh quyidagi ko'rinishda uchraydi: "... **Tangri yarlyqazu, qutym bar uchun ulugim bar uchun oltachi bodunyg' turguru igittim, yalang bodunyg' tonlyg', chyg'any bodunyg' bay qyltim, az bodunyg' okush qiltym, yg'ar alligda (yg'ar qag'anlig'da yag qyltim, tort bulungdaqi) bodunyg' qop baz qyltim, yag'ysyz qyltim, qop manga korti.** Mazmuni: ... Tangri yorlaqasin, baxtim bor uchun, nasibam bor uchun o'layotgan xalqni tiriltirib tarbiyat qildim, yalang'och xalqni kiyimlik qildim, kambag'al xalqni boy qildim, oz xalqni ko'p qildim. Panohtalab davlatlida, xoqonlikda yaxshilik qildim. To'rt jihatdagi xalqni butunlay el qildim, bir-biriga do'st qildim, (hammasi) butunlay menga qaradi"<sup>192</sup>.

Ko'rinib turibdiki, mazkur parchada xoqonning ideal tavsifi berilgan bo'lib, tasvir usuliga ko'ra islom muhitidagi madhning tasviriga ha-

<sup>189</sup> Кошарий М. Девону луғотит турк. 1 жилд. Тошкент, Мумтоз сўз, 2016. Б. 252.

<sup>190</sup> Рахмонов Н. Урхун-Елисей ёдномалари ва туркий эпослар. ФФД илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 1991. Б. 116. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибниш "Қутаду билиғи" ва айрим жанрлар тақомили (маснавий, тўртлик, қасида). Тошкент, 2004. Б. 39.

<sup>191</sup> Рахмонов Н. Рухиятдаги нур муроиди. Тошкент, Халқ мероси, 2002. Б. 56.

<sup>192</sup> Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари (Тузувчи: Н.Рахмонов). 1-жилд. Тошкент, Фан, 2003. Б. 53-54.

mohangdir. Ammo qadimgi turkiy yodgorliklarda madhning ifodalanishi turkiy-islomiy adabiyot namunalaridan tuzilishi jihatdan farq qiladi. Biroq shaxslar tasviridagi o'xshashlik har ikkala muhitdagi yodgorliklarni bir-biriga bog'lab turadi. Madh Urxun yodnomalaridan asta-sekin islomiy adabiyotga o'tib, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ldi va taraqqiy etib borib, qasida, g'azal kabi janrlarning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Madhning keyingi davrdagi taraqqiyot bosqichida tashqi – boshqa xalqlar adabiyoti ta'siri mavjudligini ham e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Bu xususiyat, ayniqsa, “Qutadg'u bilig” dostonida yaqqol namoyon bo'lgan. Ma'lumki, Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarini yozib tugatgandan so'ng uni o'z davri hukmdori Tabg'och Bug'raxonga sovg'a qiladi va dostonning kirish qismidagi boblardan birini Bug'raxon maqtovigiga bag'ishlaydi. Dostonning mazkur Bug'raxon madhiga doir qismini qasida deb atash mumkin, chunki unda mazkur janr qoidalariga to'liq rioya etiladi, hatto bobda qasidaning barcha kompozitsion qismlari mavjud<sup>193</sup>. U faqat masnaviyda qofiyalanganligi bilangina an'anaviy qasidalardan farqlanadi, xolos.

“Qutadg'u bilig”da, shuningdek, yana ikkita qasida bor. Ular qasidai mujarrad namunalari hisoblanadi. Ikkala qasida ham bu janrning turkiy adabiyotda o'ziga xos taraqqiyot yo'liga kirib, mavzu jihatdan kengaya borganligiga dalil bo'la oladi. Ulardan biri “Yigitlikka achinib, qarilik haqida aytadi” qasidasidir. U tarjimai hollik xususiyatiga ega bo'lib, falsafiy yo'nalishda yaratilganligi bilan ajralib turadi. Qasidada yigitlikning o'tib ketganligiga achinish, qarilikdan shikoyat yetakchilik qilsada, unga ijtimoiy mazmundagi fikrlar ham singdirib yuborilganligi kuzatiladi. Bu xususiyat, ayniqsa, shoirning navbatdagi “Zamona buzuqligini, do'stlar jafosini aytadi” nomli qasidasida yanada yaqqolroq yuzaga chiqqan. Unda hayotning bevafoqligi, haqiqiy insonlarni topish naqadar qiyinligi haqidagi qarashlar ifodalangan bo'lib, qasida ham mazmunan, ham badiiy jihatdan muallifning bu janrni yaratishdagi o'ziga xos mahoratidan dalolat beradi. Yusuf Xos Hojib “... arab-fors adabiyotida qonunlashgan qasida janrining turkiy modelini yaratdi”<sup>194</sup>. Bu esa qasidaning keyingi davrlardagi taraqqiyotida muhim omil sifatida xizmat qilganligi shubhasiz.

<sup>193</sup> Тўхлиев Б. “Қутадғу билиг”нинг поэтикаси масалалари // Ўлмас обидалар. Тошкент, Фан, 1989. Б. 358-359.

<sup>194</sup> Тўхлиев Б. Ўша китоб. Б. 365.

Qasidachilikning rivojida Sayfi Saroyi, Gadoiy kabilarning o‘z o‘rni bor, albatta. Sayfi Saroyining 24 baytli qasidasi Iskandariya podshosiga bag‘ishlangan. Qasida tabiat tasviri haqidagi go‘zal obrazli ifodalar bilan boshlanadiki, bu uning nasibga ham ega ekanligini bildiradi. Hukmdorning ideallashtirilishi esa madhning janr talablari asosida yozilganligidan dalolat beradi. Bizgacha, Gadoiyning bitta to‘liq bo‘lmagan qasidasi yetib kelgan bo‘lib, unda yosh shahzoda Xalil Sulton madh etiladi. Shoir shahzodani kelajak hukmdori sifatida davlatni boshqarishini istaydi va xalqning orzulari uning rahbarligida amalga oshishiga umid qiladi.

Qasidaning an‘anaviy janr talablariga javob bera oladigan namunalari Hofiz Xorazmiy va Sakkokiylar ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devonidan 9 ta qasida o‘rin olganligi, shoirning mazkur janrda barakali ijod qilganligini bildiradi. Shubhasiz, o‘zbek adabiyotining Navoiygacha bo‘lgan davrida qasida janrining mohir ustasi sifatida Sakkokiy tilga olinadi. Bu bejiz emas. Chunki shoirning bizgacha 10 ta qasidasi yetib kelgan bo‘lib, ular bu janrning adabiyotimiz tarixidagi eng go‘zal va mukammal namunalaridan hisoblanadi. Sakkokiy qasidalar orasida Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlanganlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu qasidalarning madh qismi tasviri Ulug‘bek obrazini adabiy qahramon darajasigacha olib chiqadi. Chuqur mazmun, yuksak badiiyat ularni janr talablarining yetuk namunalariga aylantiradi. Qasidalaridan birida ulug‘ hukmdorga nisbatan qo‘llangan “Sulaymoni zamon”, “No‘shiravon”, “Musotek shubon” tarzidagi talmehga qorishgan o‘xshatishlar, “xurshidi zamon”, “Ulus haqqida ming turli atodin mehribon” kabi ifodalar obrazning ideal tasvirini yaratishga xizmat qiladi:

Bu kundin so‘ngra ko‘p ting‘oy raiyatlar rioyatdin,  
Ulus haqqida ming turli atodin mehribon keldi.  
Ko‘ngullar bo‘ldi xush ravshan ko‘rub qolmadi bir zarra,  
Qorong‘ulik ketib, holi chu xurshidi zamon keldi<sup>195</sup>

Mirzo Ulug‘bekdek ma‘rifatparvar va xalqparvar podsho siymosi, bu go‘zal siymoni ifodalovchi ibratli fazilatlar maqtovi tasviri qasida markazida turadi. Bunday xususiyat shoirning Xalil Sulton, Arslon Xo‘ja Tarxon, Xoja Muhammad Porsolarga bag‘ishlangan qasidalarida ham ko‘zga tashlanadi. Sakkokiy qasidalarining hammasida ham nasib

<sup>195</sup> Саккокий. Ҳазаллар // Ҳаёт ва сифи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 283.

qismining uchramasligi, ularning ayrimlari qasidai mujarrad namunalari ekanligini ko'rsatadi.

Lutfiy o'zbek qasidachiligi taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shgan shoirlardan biri hisoblanadi. Uning qasidalaridan biri sohib-qiron Amir Temurning nabirasi, Shohruh mirzoning o'g'li Boysung'ur mirzoga bag'ishlangan. Qasida nasihat tarzida yozilganligi bilan ajralib turadi:

Nasihat aslini Lutfiy sanga etti vale,  
Ani qabul qilurg'a ko'ngul kerak qobil.

Masal tururkim ayitti burung'i bilgular,  
Mahalli qobilu onki nasihati qoyil...

Shoirning keyingi qasidasi hajman birinchisiga qaraganda anchagina katta bo'lib, unda Boysung'ur mirzo va uning o'g'li sulton Aloudavla ulug'lanadi. Qasidaning dastlabki qismida "homiyi islomu din", "mulku millat ravnaqi", "shahzodalarning sarvari" kabi fazilatlar egasi sifatida maqtalgan Boysung'ur mirzo yana, shuningdek, tasvir davomida Hotam, No'shiravon, Faridun, Afrosiyob kabilar darajasiga ko'tariladi. Qasidaning 28-baytidan to so'ngigacha "yetti kishvar podshohining sevar farzandi" bo'lgan sulton Alouddavla madh etiladi.

Qasida islomdan oldingi adabiyotda madh ko'rinishida boshqa janrlar tarkibida yashadi. Janrning Urxun yodgorliklari matnlaridagi sodda, turkiy adabiyotning o'zigagina xos bo'lgan namunalari shu davr adabiyotining ichki qonuniyatlari asosida shakllana boshlaganligidan darak beradi. Uning "Qutadg'u bilig" dostonida mustaqil janr sifatida ajralib chiqishida turkiy adabiyotdagi mavjud an'analar bilan bir qatorda tashqi ta'sirlarning ham roli katta bo'ldi. Islom davri qasidalarida arab, ayniqsa, fors qasidachiligi bilan o'xshash bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi adabiyotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojini belgilaydi. Keyingi davrlardagi taraqqiyot davomida qasidalarning mavzu jihatdan kengaya borganligi, yuksak badiiyatning janr mezonlaridan biriga aylanganligi ularning yozma adabiyotda o'ziga xos muqim o'ringa ega bo'la borganligini ko'rsatadi. Hatto Husayn Boyqaro zamonasida ham qasida eng yetakchi shohona janr ekanligi Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida aniq bilinib turadi.

O'zbek mumtoz adabiyotini boshqa Sharq xalqlari adabiyoti kabi g'azal janrisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki bu janr XX asrgacha bo'lgan adabiyotimizda yetakchi mavqelardan birini egallab keldi. Qaysi bir davr yoki zamonda yashaganligidan qat'iy nazar, o'tmish shoirlarining ijod namunalari, devonlari ko'zdan kechirilsa, albatta, ularning asosini g'azallar tashkil etishi tabiiy bir hol. "G'azal yozishdan maqsad, - deb yozadi Shamsiddin Muhammad Qays ar-Roziy, - jonga rohat va dilga halovat keltirishdir". Darhaqiqat, g'azal ijtimoiy-siyosiy hayotga doir teran fikrlarni, go'zal, jozibali insoniy tuyg'u va kechinmalarni, inson qalbining barcha murakkabliklarini ifodalay olishi, shuningdek, turli mavzularda falsafiy mulohazalar yurita olish imkoniyatlariga egaligi kabi xususiyatlari bilan qanchadan-qancha insonlarning ko'nglini zabt eta oldi. Xalq hayotiga shu qadar singib ketdiki, musiqaga solinib kuylana boshladi. Qachon yaratilganidan qat'iy nazar, qo'shiq qilib aytiluvchi g'azallar hamon kishilarni o'ziga maftun etib, ularga estetik zavq, quvonch baxsh etib kelishda davom etmoqda.

G'azal janri dastlab arab she'riyatida paydo bo'lgan va keyinchalik boshqa ajam xalqlari adabiyotida ham keng tarqalgan. Manbalarda g'azalning lug'aviy ma'nosi haqida fikr yuritilganda, eng avvalo, uning ayollarga oshiqona munosabatda bo'lmoq, ularga do'st tutinmoq kabi ma'nolarni ifodalishi, adabiy istiloh sifatida esa ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlar tushunilishi bayon etiladi. Demak, dastlabki paytlarda faqat muhabbat mavzusidagi yaratilgan she'rlargina g'azal deb atalgan. Keyinchalik yillar o'tishi mobaynida g'azal janri sayqallanib, takomillasha borib, g'oyaviy yo'nalishi, mavzu va mazmun doiralari kengayib, Sharq lirikasining eng sevimli she'riy janrlaridan biriga aylangan.

Bu janrni o'rganish, uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish, o'tmish adabiyotshunoslari va shoirlarining ham e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Jumladan, Rashididdin Vatvotning (XII asr) "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" ("Sehr bog'lari va she'r nozikliklari haqida"), Shamsiddin Muhammad Qays ar-Roziyning "Al mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-Ajam" ("Ajam she'rlari o'Ichovida harakat belgilari"), Qabul Muhammadning "Haft qulzum" ("yetti dengiz") kabi asarlarida g'azal va uning xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Sharqda adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidchilik haqidagi fikrlar ba-

diyy matn “bag‘rida” yashab kelganidek, o‘zbek adabiyotida ham g‘azal janri borasidagi nazariy-ilmii qarashlar badiiy asarlar matni sirasida aytib kelingan. Hazrat Navoiy va Mirzo Boburlar g‘azal janrining hali ochilmagan qirralari, ya’ni tarhi (kompozitsiyasi) haqida eng mukammal fikrlarni bayon qilganlar.

O‘zbek adabiyotshunosligida nasr va nazmning o‘ziga xos xususiyatlarini (bundan g‘azal janri mustasno emas – M.M.) Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” ilmiy asarida asoslab berdi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida ham bu janrga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqotlar yaratildi<sup>196</sup>.

G‘azal janrining har bir xalq adabiyotida o‘ziga xos shakllanish yo‘li va taraqqiyot tarixi mavjud. Mutaxassislarining fikricha, fors-tojik adabiyotida g‘azal janrining dastlabki namunalari Rudakiy ijodida ko‘rina boshlagan. Ammo ularni g‘azal deb atash qiyin, chunki ular mazkur janr talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Rudakiyning bunday she‘rlari ko‘proq “... qasidaning nasib (muqaddima) qismidan olingan she‘rlarga o‘xshaydilar”<sup>197</sup>. Shu sababli ularni shakllanish bosqichidagi g‘azallar deb atash mumkin. Demak, X asrda o‘zining ilk unsurlariga ega bo‘lgan “g‘azal Rudakiy va uning payravlari vujudga keltirgan zamin asosida fors-tojik adabiyotida XII asrda shakllandi va takomillashdi”<sup>198</sup>.

Ma’lumki, o‘zbek g‘azaliyotining ilk namunalari Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari tarkibida uchraydi. Bu asarlar orqali yetib kelgan g‘azallar g‘azal janri talablariga to‘la javob bera oladi. G‘azalshunos olimlarning fikricha, “Qisasi Rabg‘uziy” va “Muhabbatnoma” asarlari orqali yetib kelgan g‘azallarning badiiy saviyasi Rabg‘uziy va Xorazmiylargacha bo‘lgan davrlarda o‘zbek g‘azalnavisligida katta tajriba to‘planganligidan guvohlik beradi<sup>199</sup>. Tadqiqotchilar tomonidan ilmiy manbalarda bu davr-

<sup>196</sup> Каранг: Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1972; Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммаат. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1976; Малласев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожиди Навоийнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1961, 3-сон; Шайхзода М. Ғазал мулкнинг султони. Асарлар. 6 томлик, 4-том. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1972; Пирназаров М. Поэтик жанрлар типологияси. Тошкент, Фан, 1989.

<sup>197</sup> Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик, 4-том. Тошкент, Фан, 1972. Б. 357.

<sup>198</sup> Малласев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожиди Навоийнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1961, 3-сон. Б. 3.

<sup>199</sup> Малласев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожиди Навоийнинг роли // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1961, 3-сон. Б. 8; Искоқов Ё. Навоий поэтикаси. Тошкент, Фан, 1983. Б. 20; Жумаев Н. Ғазал композицияси ҳақида // Адабий мерос. 1989, 3-сон. Б. 64.

gacha, ya'ni Rabg'uziy va Xorazmiylargacha yaratilgan g'azallarning bir qismi hali topilgan emas, bir qismi mo'g'ullar istilosi davrida yo'q bo'lib ketgan degan fikr va taxminlar bildiriladi.

Xo'sh, g'azal janri turkiy xalqlar adabiyoti, xususan, o'zbek adabiyotiga qaysi davrda kirib keldi, qaysi davr ijodkorlarida uning ilk kurtaklari ko'rina boshladi? Bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida "Hibat ul-haqoyiq" asariga murojaat qilamiz.

"Hibat ul-haqoyiq" Sharq xalqlari adabiyotiga xos an'analar Allohga hamd, payg'ambar va chahoryorlarga na't bilan boshlanadi. So'ngra doston bag'ishlangan shaxs – Dod Sipohsolorbek madhi va kitobning yozilish sababi haqidagi boblar beriladi. Professorlar N.Mallayev va Q.Mahmudovlarning e'tirof etishlaricha, dostonning muqaddima qismi, ya'ni hamd, na't, Dod Sipohsolorbek maqtovi hamda asarning yozilish sababi xususidagi boblari g'azal shaklida yozilgan<sup>200</sup>. Fitrat esa muqaddimaning so'nggi bobini g'azal deb ataydi<sup>201</sup>. Darhaqiqat, dostonning muqaddima boblari shakliy-poetik xususiyatlariga ko'ra, g'azal janriga yaqin ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu boblarni tom ma'nodagi g'azal deb atash qiyin, chunki ular g'azal janri talablariga to'liq javob bera olmaydi. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, ularda g'azal janriga xos bo'lgan ba'zi unsurlar mavjud. Fikrimizni dalillash maqsadida doston muqaddimasining so'nggi "Bu kitobning yozilishi sababi va zarurati haqida" bobini ko'zdan kechiraylik:

Dod Sipohsolorbek uchun bu kitob,  
Chiqartim ochunda oti qolsu teb.

Kitobimni ko'rgan, eshitgan kishi,  
Shohimg'a duo birla yod qilsu teb.

Kedingi keligli kishilar aro,  
Aning zikri tongsuq ediz qolsu teb.

Aning vuddi birla ko'ngullar to'lub,  
Aning yodi birla ochun to'lsu teb.

---

<sup>200</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, Ўқитувчи, 1976. Б. 146; Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 1-том. Тошкент. Фан, 1978. Б. 139.

<sup>201</sup> Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент, Маънавият, 2000. Б. 50.

Bezadim kitobi mavoiz masal,  
Boqig‘li, o‘qug‘li osig‘ olsu teb.

Belak ettim ani shohimg‘a men-o‘q,  
Havodorlig‘imni tugal bilsu teb.

Mazmuni:

Dunyoda nomi qolsin deb, Dod Sipohsolorbek uchun bu kitobni yozdim.

Kitobimni o‘qigan, ko‘rgan, eshitgan kishi shohimga duo o‘qib, uni yod qilsin deb (yozdim).

Kelgusi avlodlar orasida uning xotirasi yuksak va mashhur bo‘lsin deb yozdim.

Uning muhabbati bilan ko‘ngillar to‘lib, yodi bilan dunyo to‘lsin deb yozdim.

O‘qimishli, savodli kishilar manfaat topsin deb, nodir so‘zlar bilan bezadim.

Muhabbatimni tugal bilsin deb, men uni shohimga sovg‘a qilib yubordim.

Mazkur bob qofiyalanishiga ko‘ra oddiy g‘azallarga mosdir, ya‘ni birinchidan, matla’ misralari o‘zaro qofiyalangan, ikkinchidan, keyingi baytlarning juft misralari matla’ bilan qofiyadosh bo‘lib kelgan. Bu esa uning shaklan g‘azallarga xos bo‘lgan elementlaridan biri hisoblanadi. Demak, g‘azal qofiyalanishiga xos bo‘lgan - juft misralarning matla’ bilan qofiyalanib kelish hodisasi turkiy-islomiy adabiyotda Adib Ahmad ijodidan boshlangan.

“Hibat ul-haqoyiq” muqaddimasining so‘nggi bobi kompozitsion jihatdan tekshirilganda, unda yakpora g‘azallarga xos belgilarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, matlada Dod Sipohsolorbek uchun bu kitobning yozilganligi haqida fikr bildirilsa, keyingi baytlarda bu mavzu izchil rivojlantiriladi, ya‘ni kitobni o‘qigan, ko‘rgan har bir kishi shohni duo bilan yod qilsin deb yozilganligi, kelajak avlodlar orasida uning nomi mashhur bo‘lsin deb ijod qilinganligi, savodli kishilar manfaat topsin deb, nodir so‘zlar bilan bezalغانligi hamda uni hukmdorga sovg‘a qilinganligi qayd etiladi.



Bu qismni yakpora gʻazalning dastlabki namunasi degan fikrdan yiroqmiz, albatta. Ammo baytlarning yaxlit bir mavzuni yoritishga xizmat qilishi, oʻzaro bir-biriga mantiqan bogʻlanib, mazmunni davom ettirishi kabi xususiyatlar gʻazallarning yakpora turiga xos boʻlgan ilk elementlar ekanligiga toʻla ishonch hosil qilish mumkin.

Dostonning hamd, Muhammad alayhissalom va toʻrt xalifa madhi hamda Dod Sipohsolorbek maqtoviga bagʻishlangan boblari ham qofiya shakli, kompozitsion xususiyatlari jihatidan oʻrganilsa, ularda ham gʻazal janrining dastlabki unsurlari mavjud ekanligi koʻzga tashlanadi.

“Hibat ul-haqoyiq”ning dastlabki boblarida gʻazal janri unsurlarining mavjudligini hisobga olib, turkiy adabiyotda mazkur janrning shakllanish ildizlari Adib Ahmad yashagan davrga borib taqaladi, deyish mumkin. Albatta, ushbu boblarni tom maʼnodagi gʻazallar sifatida qabul qilish qiyin, lekin ularning tuzilishidagi gʻazallarga xos boʻlgan baʼzi belgilar gʻazal janri turkiy adabiyotda XII asrlarda vujudga kela boshlaganligidan dalolat beradi. Adib Ahmaddan soʻng oʻtgan avlodlarda esa bu unsurlar mukammallashib, alohida janr sifatida shakllana boshladi.

Oʻzining janr talablariga javob bera oladigan mukammal shakliga ega boʻlgan gʻazal turkiy adabiyotda XIY asrdan boshlab, gurkirab rivojlanish bosqichiga kirdi. Uning taraqqiyotida shu asrda yashagan bir qancha shoirlarning munosib hissasi bor. Xususan, Rabgʻuziy, Xorazmiy, Sayyid Ahmad va Yusuf Amiriyalar ijodida gʻazal katta asarlar tarkibida uchrasa, Sayfi Saroyi lirikasida u alohida bir taraqqiyot bosqichiga koʻtarildi. Gʻazalning yetakchi mavqega ega boʻlib ommalashishida Mavlono Qozi Muhsin, Ahmadxoja as-Saroyi, Mavlono Isʼhoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Tugʻlixoja kabi shoirlarning ham xizmatlari beqiyos. Bizgacha yetib kelgan Sayfi Saroyi va ular oʻrtasidagi mushoira namunalari shu davr adabiyotida gʻazalning alohida bir oʻziga xos mavqegini belgilaydi. Mushoirada aytilgan gʻazallar janr talablariga toʻliq javob bera olishi bilan xarakterlanadi. Gʻazal Hofiz Xorazmiy ijodida toʻla toʻkis shakllanib boʻlganligi kuzatiladi. Balki shuning uchun ham u men turkiy sheʼriyat paygʻambariman deb daʼvo qilgandir:

Turk jinsinda payambar boʻlmoqi boʻlsa ravo,  
Boʻlgʻay erdim man payambar, sheʼrlarim - moʻjizot<sup>202</sup>.  
Yoki:

<sup>202</sup> Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2-китоб. Тошкент, 1981. Б. 289.

Hofizni ko‘ring ushbu zamon turk tilinda,  
Gar kechdi esa forsda ul Hofizi Sheroz<sup>203</sup>.

G‘azalda asosan oshiqning ichki kechinmalari tasviri yetakchi o‘rin tutadi. Uning qahramoni oshiq va ma‘shuqa hisoblanadi. Ayrimg‘azallarda raqib obrazi ham uchrab turadi. G‘azallarda ma‘shuqa obraziga asosiy e‘tibor qaratilib, unga xos bo‘lgan xususiyatlar bayoni oshiqning o‘y-fikrlari, mushohadalari va dil izhorlari tarzida aks ettiriladi. Oshiq uchun ma‘shuqa visoliga yetish – oson ish emas. Bu yo‘lda u qanchadan qancha sinov jarayonidan o‘tishi kerak. Sinov davrida haqiqiy oshiq ruhan toblanib, ma‘nan yetuklasha boradi. Oshiqlik lirik qahramonni o‘ziga xos ruhiy iztiroblar girdobiga tashlaydi va bu holat natijasida paydo bo‘lgan qiyinchiliklar azobida ma‘shuqa unga faqat salbiy jihatlar bilangina namoyon bo‘ladi. Go‘yoki, oshiqning tasavvuricha, ma‘shuqaning ishi faqat jabr ko‘rsatish va jaf o qilishdan iborat:

Gar bo‘lsa sanga javru jaf o xo‘ vazifae,  
Bo‘ldi manga ham mehru vaf o peshau odat<sup>204</sup>.

Haqiqiy oshiq – mehru vaf o timsoli. U ma‘shuqa dardida ko‘p mas-haqqat chekishiga qaramasdan uning visoliga tashna, o‘z ishqiga sodiq, sabru toqat – uning asosiy shiori, vazifasi esa o‘z maqsadidan aslo chekinmaslik:

Manga vasling qachon yetsun, bilurmen,  
Vaf e oshiq ishi sa‘yu talabdur<sup>205</sup>.

Oshiq qayg‘u alamlarining ortishida raqibning ham o‘ziga xos “hissa”si bor, albatta. Ilk o‘zbek g‘azaliyotida bu obrazning it yoki tikanga qiyoslanishi bejiz emas. Chunki raqib oshiq va ma‘shuqa orasidagi uchinchi bir kishi, ya‘ni to‘g‘anoq sifatida vazifa ham bajaradiki, bu esa uning iztirobga soluvchi, jabr-sitam ko‘rsatuvchi sifatida namoyon bo‘lishidan dalolat beradi. Haqiqiy oshiqlik esa har qanday raqibni ham yig‘latishi mumkinligi manbalarda uchraydi:

<sup>203</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. Тошкент, 1981. Б. 7.

<sup>204</sup> Атоий. Ғазаллар // Ҳаёт ва сифи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 306.

<sup>205</sup> Атоий. Уша китоб. Б. 353.

Yig'ladi hatto raqibning rahmi kelgandin manga,  
Bori ul qattiq ko'ngulluk chinmu yolg'on yig'ladi<sup>206</sup>.

Oshiqning Farhod, Majnun, Vomiq kabilarga o'xshatilishi, ma'shuqaning esa Shirin, Layli, Uzro, go'zallikda Yusuf payg'ambarga qiyoslanishi ham shu davr g'azaliyotining taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda shakllanganligini ko'rsatadi. Bu esa keyingi davrlarda o'ziga xos bir an'ana sifatida davom ettirildi.

Ilk o'zbek g'azaliyoti namunalarini o'rganish, oshiqona g'azallarning yetakchiligini inkor etmagan holda, ular bilan bir qatorda boshqa mavzularda ham g'azallar shakllana boshlaganligidan dalolat beradi. Xususan, peyzaj g'azallarining dastlabki avlodi ham XIY asr adabiyoti namunalari uchrase fikrimizni tasdiqlaydi. Rabg'uziyning mashhur

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,  
Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori buzi<sup>207</sup>

matla'li g'azalida bahor fasli, uning go'zallik olami va tarovati ifodalangan bo'lib, u tabiat mavzusida yaratilgan. Shuningdek, bu davr adabiyotida ijtimoiy yo'nalishdagi maxsus g'azallar yaratilmagan bo'lsa-da, biroq ijtimoiy mazmundagi misra yoki baytlarning an'anaviy g'azallar tarkibiga singdirib yuborilganligi kuzatiladi. Axloqiy-talimiy yo'nalishdagi misra va baytlar haqida ham shunday fikrga kelish mumkin.

G'azaliyotda dunyoviy yo'nalishning yetakchiligi ko'rinib tursa-da, ayrim g'azallarda tasavvuf talimotining ham kuchli ta'siri seziladi. Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy kabi shoirlar ijodida majoziy va haqiqiy ishning uyg'unlashgan ko'rinishdagi tasviri tasavvufning bu davr adabiyotidagi o'ziga xos mavqei va taraqqiyotini belgilaydi.

Ilk o'zbek g'azaliyotining rivojida xalq og'zaki ijodi ham muhim manba sifatida xizmat qildi. Shoirlar og'zaki adabiyotning ilg'or va boy tajribasidan unumli foydalandilar. Ayniqsa, til, sodda va ravon uslub, maqol va hikmatli so'zlar, og'zaki ijodga xos syujet va obrazlarga murojaat qilishda bu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi.

<sup>206</sup> Саккокий. Ғазаллар // Ҳаёт васфи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 255.

<sup>207</sup> Рабғузий Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. Тошкент, Ёзувчи, 1990. Б. 103.

Bu davrda yaratilgan gʻazallar yuksak badiiyatga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Badiiy tasvir vositalarining oʻz oʻrnida qoʻllanilishi shoirlarning ularning imkoniyatidan unumli foydalanganligidan dalolat beradi:

Ul sanamning yuzikim gulzor erur,  
Yuzining gulzorina gul zor erur<sup>208</sup>.

Hofiz qalamiga mansub ushbu baytda oʻxshatish, takrir kabi badiiy vositalar mavjud. Baytning taʼsirchanligini taʼminlashda tajnisning ham alohida oʻrni bor. Xususan, birinchi misradagi gulzor soʻzining ikkinchi misrada gul zor tarzida alohida kelishi mazmunga oʻzgacha bir joziba bagʻishlagan. Bu esa tajnisning murakkab tajnis turiga misol boʻla oladi.

Soʻzning turli maʼno anglatish xususiyatlari sheʼriyatga oʻzgacha bir ruh baxshida etadi. Soʻzlarning maʼno tovlanishlarini his qilish va misra yoki baytlar zamiriga singdirish har qanday shoirga ham nasib eta-  
vermagan. Iyhom sanʼati ijodkorga shunday imkoniyat yarata oladi. XY asrgacha boʻlgan gʻazaliyotda bu badiiy tasvir vositasining ajoyib namu-  
nalarini uchratish mumkin:

Kun tushta koʻrgali seni tushti zavolgʻa,  
Oy tonggʻa qoldi kecha boqib ul jamolgʻa<sup>209</sup>.

Dastlabki misradagi tush soʻzi ikki maʼnoda (tush payti va uyqudagi tush) qoʻllanilgan. Bu usul misrani ikki xil mazmunda tushunish imko-  
niyatini beradi: kun maʼshuqaning goʻzalligi sabab tush paytida pastga tusha boshladi – bu misradan anglashilayotgan birinchi maʼno. Misra-  
ning keyingi maʼnosi esa quyidagicha: quyosh tushida maʼshuqaning goʻzalligini koʻrib, quyilasha boshladi. Bunday xususiyat baytning ik-  
kinchi misrasiga ham taalluqli boʻlib, undagi tong soʻzi ikki xil maʼnoni (tong payti va hayron qolmoq) anglatadi. Demak, bu misrani “Oy maʼshuqaning jamoliga boqib, tonggacha qolib ketdi” tarzida ham, “Oy maʼshuqaning goʻzalligini koʻrib, hayron boʻlib qoldi” mazmunida ham tushunish mumkin. Mavlono Lutfiy ijodida iyhomning bu kabi goʻzal namunalarining koʻplab uchrashi, shoirning bu badiiy tasvir vositasi im-  
koniyatidan mohirona foydalanganligini bildiradi.

<sup>208</sup> Хофиз Хоразмий. Газаллар // Хаёт ваёфи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 67.

<sup>209</sup> Лутфий. Лутфий шеърятдан. Тошкент, 1985. Б. 55.

She'r ta'sirchanligini oshirishda mubolag'aning ham o'z o'rni bor, albatta. G'azaliyotda oshiqning ichki kechinmalari, iztiroblari, umuman, ruhiy holati tasvirida bu badiiy usul keng qo'llanilganligi bilan ajralib turadi:

G'ofil o'lma ko'zlarimning yoshidinkim, nogahon  
Mavj urubon, yetmasun nogah bu to'fonim sanga<sup>210</sup>.

Ko'rinadiki, oshiqning tinimsiz oqqan ko'z yoshlarining mavj urib, to'fon hosil qilishi va bu to'fonning sevgilisigacha yetib borishi uning ma'shuqa dardidagi azoblarini kuchaytirishga xizmat qilyapti. Bu bo'rttirish mubolag'aning g'uluvv nomli turiga mansub bo'lib, unda tasvirlanayotgan hodisaga aql ham ishonishi qiyin, u hayotda ham yuz berishi amri mahol. Biroq tasvir jarayonidagi uning vazifasidan kechish mumkin emas, chunki u baytga alohida bir estetik zavq bag'ishlab kelmoqda.

Xullas, g'azalning dastlabki kurtaklari turkiy adabiyotda XII asrda vujudga kela boshladi. Adib Ahmad ijodi buning yorqin dalilidir. Adibdan so'ng o'tgan avlodlarda bu unsurlar mukammallashib, alohida janr sifatida shakllana boshladi. Rabg'uziy va Xorazmiylar ijodiyotida g'azal o'zining janr talablariga javob bera oladigan ilk namunalariga ega bo'lgan bo'lsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy kabi shoirlar lirikasida takomillashdi, hazrat Navoiy esa uni har tomonlama kamolot cho'qqisiga yuksaltirdi.

## MASNAVIY

Masnaviy arabcha so'z bo'lib, ikkilik degan ma'noni anglatadi. Badiiy ijodning alohida bir shakli sifatida esa har bandi o'zaro ikki misradan qofiyalanadigan (a-a, b-b, v-v...) she'r tizimi tushuniladi. Masnaviy Sharqda syujetli, ya'ni voqeyiy she'riy asarlarning asosiy shakli hisoblanadi. Chunki "hech bir she'r turi hayotni, voqea va hodisalarni, inson xarakterini masnaviydagidek keng va chuqur yoritib bera olmaydi"<sup>211</sup>. Hazrat Navoiy nazm haqida so'z yuritar ekan, masnaviyni she'riyatning eng afzali sifatida baholaydi va uning tasvirdagi imkoniyatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi:

<sup>210</sup> Гадоий. Ғазаллар // Ҳаёт ва сифи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 473.

<sup>211</sup> Ҳайитматов А. Адабий меросимиз уфклари. Тошкент, Ўқитувчи, 1997. Б. 206.

Bo‘yla nazm ichra ham erur necha shiq,  
Fahm etar ul kishiki, bo‘lsa mudiq.

Lekin ul barchadin dag‘i xubi,  
Bor durur masnaviyning uslubi.

O‘zgalarni gar etmadim mazkur,  
Bok emas, chun bori erur mashhur.

Masnaviykim burun dedim oni,  
So‘zda keldi vasi’ maydoni.

Vus‘atida yuz o‘lsa marakagir,  
Ko‘rguzur san‘atin bori bir-bir<sup>212</sup>.

Bunday fikrlar shoirning “Saddi Iskandariy” dostonida ham uchraydi. Xususan, unda Abdurahmon Jomiy ijodiga baho berilar ekan, u yaratgan ma‘naviy xazina misolida masnaviyning she‘riyatda o‘zga bir olam ekanligi alohida ta’kidlanadi:

Agar nazmdin borcha uslub anga,  
Bori bir-biridin erur xub anga.

Vale masnaviy o‘zga olamdurur,  
Ki tab‘ig‘a holo musallamdurur<sup>213</sup>.

Shu sababli o‘tmishda ijod qilingan epik va liro-epik asarlarda mazkur she‘riy shakl keng qo‘llanilgan. Bu holni turkiy-islomiy yozma adabiyotning bizgacha yetib kelgan ilk namunasi hisoblanmish “Qutadg‘u bilig” asarida ham ko‘rish mumkin. “Qutadg‘u bilig”da sxematik tarzda bo‘lsa-da epiklik, ya‘ni voqealar bayoni mavjud. Dostonda “... voqealarning epik bayoni qo‘yilgan masalalarning bir-biridan ajrab qolmasligi, ularni o‘zaro bog‘lab turish uchungina keltiriladi, xolos”<sup>214</sup>. Biroq bu

<sup>212</sup> Навоий А. Сабъаи сайёр. Тошкент, Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. Б. 35.

<sup>213</sup> Навоий А. Садди Искандарий. Тошкент, Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. Б. 48.

<sup>214</sup> Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”и ва айрим жанрлар тақомили (мас-

masnaviyning imkoniyatlarini cheklamaydi. Masnaviy tarkibida boshqa janrlarning qoʻllanilish hodisasi ham aynan “Qutadgʻu bilig”da boshlanadi. Dostondagi toʻrtlik va qasida shunday xususiyatga ega. Masalan, asardagi toʻrtliklar masnaviydagi fikrlarning tasdigʻi vazifasini bajaradi. Masnaviy tarkibida boshqa janrlardan foydalanish noma janriga mansub asarlarda ham uchraydi. Gʻazal, qitʻa, fard kabi janrlarning noma asosida yaratilgan dostonlar tarkibida qoʻllanilishi Yusuf Xos Hojib tajribasining keyingi davrlarda oʻziga xos tarzda davom etganligidan dalolat beradi.

Masnaviy imkoniyatlaridan munozara janrida ijod qilgan shoirlar ham samarali foydalanishgan. Xususan, nazmda yaratilgan munozaralar fikrimizga dalil boʻla oladi. Ahmadiyning “Sozlar munozarasi”, Nishotiyning “Boz va bulbul”, “Daf va gul”, “Qushlar munozarasi” kabi asarlarida masnaviyning sheʼriy shakl sifatida yakka oʻzi qoʻllanilishi uning oʻzbek adabiyotidagi taraqqiyotini koʻrsatadi.

Masnaviy ishqiyoʻnalishdagi dostonlarning yaratilishida ham muhim rol oʻynadi. “Suhayl va Guldursun” dostoni bilan boshlangan bu mavzu keyinchalik “Gul va Navroʻz”, “Xusrav va Shirin”, “Yusuf va Zulayxo” kabi asarlarda muvaffaqiyatli davom ettirildi. Masnaviy yirik, voqeband asarlardan tashqari kichik hajmli sheʼrlarda qoʻllanilishi ham mumkin. Sayfi Saroyi ijodi bunga misol boʻla oladi. Shoirning “Vasf ul-shuaro” nomli sheʼri yetti baytdan iborat. U masnaviy shaklida yaratilgan:

Jahon shoirlari, ey gulshani bogʻ,  
Kimi bulbuldurur soʻzda, kimi zogʻ.

Kimi toʻti bikin chaynar shakarni,  
Kimi lafzi bilan oʻrtar durarni<sup>215</sup>...

Koʻrinadiki, sheʼrda shoirning adabiy-estetik fikrlari aks etgan boʻlib, uni oʻz davrining nazariy qarashlari sifatida baholash mumkin. Sheʼrdagi bulbul, zogʻ, toʻti obrazlari turli toifadagi shoirlar guruhini anglatsa, keyingi misralardagi fikrlar esa ularning har biriga xos xususiyatlarni ochiq bayon qilishga qaratilgan. Sayfi Saroyi soʻzni yuksak qadrlaydi. Umuman, badiiy ijod “mavzuni shirin” va “loyiqi taʼrifu tah-

---

navий, тўртлик, қасида). Тошкент, 2004. Б. 18.

<sup>215</sup> Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистон. Тошкент, Бадний адабиёт, 1968. Б. 33.

sin” bo‘lishi uchun kurashadi. Demak, bu she’rda masnaviy shoirning poetik maqsadini to‘liq yuzaga chiqara olganligi bilan e’tiborni o‘ziga tortadi.

Masnaviy deganda she’riy shakldan tashqari dostonlarning tushunilishi – yirik hajmli voqeaband asarlarda masnaviy shaklining qo‘llanilishi bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelgan. Biroq masnaviy faqat voqeaband asarlarda qo‘llaniladi, deyish to‘g‘ri emas. U voqeabandlik tasviridan tashqari botiniy his-tuyg‘ularni mukammal bera olish imkoniyatiga ham ega. Masalan, noma turkumidagi asarlarning masnaviyda yozilganligi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Chunki ularda voqealar bayoni mavjud emas:

Ayo xurshidtek olam charog‘i,  
Munavvar chehrangiz firdavs bog‘i.

Qamuq ko‘rkluklar uzra podshosen,  
Masih anfosliq Yusuffiqosen<sup>216</sup>...

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” dostoni uchinchi nomasidan olingan mazkur misralarda ma’shuqaning go‘zalligi haqida gap boradi. Unda oshiqning ichki kechinmalari tasviri yetakchi o‘ringa ega.

Demak, masnaviy XY asrgacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos shakllanish yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlab, didaktik yo‘nalishdagi asarlarda qo‘llanilgan bu shakldan keyinchalik boshqa, xususan, falsafiy, ishqiy mavzulardagi dostonlarning yaratilishida ham keng foydalanildi. Uning takomilida Yusuf Xos Hojib, Xorazmiy, Xo‘jandiy, Sayyid Ahmad, Sayyid Qosimiy, Qutb, Haydar Xorazmiy, Nishotiy kabi ijodkorlarning munosib hissasi bor.

## TUYUQ

Turkiy adabiyotning ichki imkoniyatlari asosida shakllangan janrlardan biri tuyuq hisoblanadi. Tuyuq so‘zining o‘zagidagi tuy so‘zi omonimlik xususiyatiga ega bo‘lib, tuy, his qil, bog‘la kabi ma’nomlarni anglatadi. Adabiy termin sifatida esa to‘rt misradan iborat o‘ziga xos

---

<sup>216</sup> Хоразмий. Муҳаббатнома // Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари (Тузувчи: Насимхон Раҳмонов). 2-жилд. Тошкент. Фан, 2007. Б. 108.



qonun-qoidalarga ega bo‘lgan she‘r tushuniladi. Mutaxassislarning fikricha, tuyuqning paydo bo‘lish ildizlari xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Tuyuqni kitobxon uchun boshqa to‘rt misrali she‘rlardan ajratib turadigan asosiy xususiyat – unda so‘z o‘yinlaridan mohirona foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. So‘zning o‘ziga xos sehri, ma‘no tovlanishlari aks etgan misralar xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, shakldosh so‘zlarning turli ma‘no anglatish xususiyati xalq dostonlari uchun ham bir bezak bo‘lib kelgan:

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,  
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.  
Nasihatim yod qilib ol, yolg‘izim,  
Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas, yaxshi ot<sup>217</sup>.

To‘rtlik pand-nasihat ruhiga ega. “Ot” so‘zining turli ma‘nolar ifodalashi unga o‘zgacha joziba bag‘ishlagan. Bu hodisa mumtoz poetikada tajnis deb ataladi. Tajnis, ya‘ni omonim so‘zlardan foydalanish tuyuqning asosiy janriy belgilaridan biri hisoblanadi.

Tajnisdan mohirona foydalanish ilk turkiy-islomiy yozma adabiyot namunalarida ham kuzatiladi. “Qutadg‘u bilig” bilan maxsus shug‘ullangan olim Boqijon To‘xliiev dastlabki tuyuq namunalaridan biri sifatida dostonidan bir to‘rtlik keltiradi:

Qayu erda bo‘lsa uqush birla o‘g  
Ani er atag‘il necha o‘gsa o‘g.  
O‘qush, o‘g, bilig kimda bo‘lsa tugal  
Yavuz ersa kaz te, kichik ersa o‘g<sup>218</sup>.

Qaysi bir kishida zakovat va aql bo‘lsa,  
Uni (haqiqiy) kishi deb atagin, qancha maqtasang maqta.  
Yomon bo‘lsa (ham) yaxshi de, kichik bo‘lsa  
(ham) katta deb bil (ya‘ni ulug‘la).

<sup>217</sup> Эрган Жуманбулбуи ўғли. 2-жилдирик, 1-жилд. Равшан достони. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1971. Б. 73.

<sup>218</sup> Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибинини “Қутадғу билиг”и ва айрим жанрлар тақомили (маснавий, тўртлик, қасида). Тошкент, 2004. Б. 34.

To'rtlik misralari so'nggidagi "o'g" so'zi tajnis ko'rsatkichi hisoblanadi. U birinchi misrada "aql", ikkinchisida "maqta", to'rtinchi qatorda esa "katta yoshli kishi" ma'nolarini ifodalagan. Biroq to'rtlik mutaqorib bahrida yaratilgan. Aslida tuyuq ramal bahrida yozilishi kerak.

Har bir janr shakllanish jarayonida o'ziga xos o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Taraqqiyot tarixi davomida janrga xos bo'lgan mezonlar paydo bo'ladi va ma'lum bir qolipga keladi. "Aruzning o'zlashtirilgan vazn ekanligini nazarda tutsak, tuyuqning dastlabki vazni aruz bo'lmaganligi, ramali musaddasi maqsur esa janr qonuniyatlarining standartlashgan, ma'lum mezoniga kirgan shakli ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunga ko'ra, yuqoridagi to'rtlikni turkiy yozma adabiyotda yaratilgan dastlabki tuyuqlardan biri deb dadil aytish mumkin"<sup>219</sup>.

O'tmish adabiyotshunosligida tuyuq to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, hazrat Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida bu janr haqida quyidagilarni qayd etadi: "Yana turk ulusi, bataxis chig'atoy xalqi aro shoe' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda ayturlar. Birisi "tuyug'"durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur..."<sup>220</sup>. Demak, to'rt misradan iborat ramali musaddasi maqsur vaznida yozilgan va, albatta, tajnis qo'llangan she'r tizimi tuyuq deb atalishi lozim.

Tuyuqning janr talablariga javob bera oladigan mukammal namunalari XIY asr adabiyotida uchraydi. Yusuf Amiriy ijodi fikrimizga dalil bo'la oladi:

Gar desam dog'i visoling nori bor,  
Olma deb achchig'lab aytur: nori bor.  
Ishq naxli ko'z yoshimdin suv ichib,  
Bargu borini shararlig' nori bor<sup>221</sup>.

Tuyuq ishqiy mazmunda yaratilgan bo'lib, undagi tajnis "nori" so'zining turli ma'nolariga asoslangan. Dastlabki misrada tajnis qilingan so'z majozan "azob, qiynchilik" ma'nolarida ishlatilgan bo'lsa,

<sup>219</sup> Тухлиев Б. Ўша асар. Б. 35.

<sup>220</sup> Навоий А. Мезон ул-авзон. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 16-том. Тошкент, Фан, 2000. Б. 91.

<sup>221</sup> Ҳомидий Х., ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари лугати. Тошкент, Ўқитувчи, 1970. Б. 230.

ikkinchisidan “nariga ketgin” mazmuni anglashiladi. Demak, “oshiq visol g‘aminging azoblari haqida so‘zlar ekan, ma’shuqaning achchiqlanib aytgan so‘zlari birdek: nari bor”. Keyingi baytga shoir “nori” so‘zining “o‘t, olov” ma’nosini ustalik bilan singdirgan: “Ishq atalmish bir daraxt oshiqning ko‘zlaridan tinimsiz oqqan suvlarni ichsa-da, natija, ya’ni, uning hosili – yanada battarroq kuyduruvchi olov”. She’r oshiq dardi izhorining bayonidan iborat, deyish mumkin.

Tuyuq janri haqida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida keltirilgan ma’lumotlar ham e’tiborga molik. Taroziy tuyuqni ruboiyning bir turi deb hisoblaydi va Muhammad Temur Bug‘o degan shoir ijodidan bir she’r keltiradi, u o‘z davri adabiyotidagi tuyuqning go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi:

Gar havoyi vasli dilbar dori der,  
Yo‘lda tikmishlar muhabbat dori der.  
Sen agar chun oshiqi sodiq esang,  
Bu muhabbat dorini bir dori der<sup>222</sup>.

Bobur mirzo ham aruz risolasida tuyuq haqida to‘xtaladi. Shoirning kuzatishicha, ikki, uch, to‘rt misrasi tajnisli qofiyalangan hamda radifi tajnis bo‘lgan tuyuqlar uchraydi. Bobur tuyuqning navlari haqida qayd etar ekan, ikki tajnisli tuyuq turiga alohida e’tibor qaratadi: “Yana biri ulkim qit’adek burung‘i baytning avvalg‘i misra’ida qofiya ri’oyat qilmay baytlarning qofiyasida tajnis keltirurlar nechukkim:

Berma derlar ul vafosizg‘a ko‘ngul,  
Kim aning no‘shidin ortuq neshi bor.  
Men tama’ uzmasmen o‘lsam la’lidin,  
Jon mening jonimdur elning neshi bor”<sup>223</sup>.

Qiziq tomoni shundaki, Lutfiy qalamiga mansub mazkur she’rdan Taroziy ham “Funun ul-balog‘a” asarida misol tariqasida foydalanadi. Biroq she’r asarda qit’a namunasi sifatida keltirilgan. Bundan tashqari Bobur Hoji Aqcha Kandiy ismli shoirdan keltirgan tuyuq ham Taroziyda aynan qit’a deyiladi<sup>224</sup>. Ahamiyatlisi bu she’rning ikkinchi va to‘rtinchi

<sup>222</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балого. Тошкент. Хазина, 1996. Б. 42.

<sup>223</sup> Бобур. Мухтасар. Тошкент, Фап, 1971. Б. 163.

<sup>224</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Ўша асар. Б. 40.

misralarida tajnis qo‘llangan. Umuman, Taroziyda qit‘a nomi ostida berilgan to‘rtta o‘zbekcha she‘rning barchasi so‘z o‘yinlariga asoslangan.

Bobur qayd etgan tuyuq turlari orasida uch tajnisli tuyuqlar yetakchi bo‘lsa-da, biroq ikki tajnisli janr namunalari ham duch kelish mumkin. Xususan, Gadoiy tuyuqlari shunday xususiyatga ega. Shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash lozimki, Gadoiy qalamiga mansub to‘rt misradan iborat bo‘lgan mustaqil she‘rlar turli manbalarda qit‘a, to‘rtlik sifatida baholanib keladi. Aslida ulardan ayrimlarini sof tuyuq namunasi deb atash mumkin. Chunki ular, birinchidan, Bobur keltirgan ikki tajnisli tuyuq talablariga javob bersa, ikkinchidan, ramal bahrida yaratilgan. Uchinchidan, she‘rning ishqiy mavzuda ekanligi ham tuyuqning tabiatiga mos keladi:

Xisravo, usruk ko‘zungnung shavqidin,  
Xush sujud aylar damo-dam qo‘shquloq,  
Joyi uldurkim, sanga xurshidu moh,  
Qulluq etgaylar tutubon qo‘sh quloq<sup>225</sup>.

Qo‘shquloq – ikki quloqli idish. Undan foydalanish jarayoni shoirga zavq bag‘ishlamoqda. Idishdan har safar may quyilishi – uning egilishi obrazlilik kasb etmoqda. Go‘yo, u ma‘shuqaning go‘zal suziluvchi ko‘zi orzusida doimo sajda bilan mashg‘ul. So‘nggi misradagi qo‘sh quloq esa juft quloq ma‘nosini bildiradi. Bu yerda insonning ikki qulog‘ini ushlab sajda qilish holati quyosh va oyga ko‘chiriladi, ya‘ni ma‘shuqaning go‘zalligi oldida ular ham ta‘zimda.

Tuyuq mavlono Lutfiy ijodida ham alohida o‘rin tutadi. Shoir tuyuqlari badiiy barkamolligi, mazmunan teranligi bilan ajralib turadi:

Garchi qurutmas ko‘zumning yoshini,  
Haq uzun qilsun ul oyning yoshini.  
Yig‘lama ko‘p, bu vujuding ishq o‘ti,  
Ne qurug‘in qo‘yg‘usi, ne yoshini<sup>226</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, tuyuq “yoshini” so‘zining turli ma‘nolariga asoslangan. Birinchi baytda ma‘shuqaning jabru sitamlaridan ezilgan oshiq-

<sup>225</sup> Гадий. Газаллар // Хаёт васфи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 681.

<sup>226</sup> Лутфий. Сенсап севарим. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1987. Б. 350.

ning qarashlari aks etgan. U ma'shuqa hajrida shunchalik qiynalsa-da, biroq baribir uni duo qilaveradi: "Garchi yig'idan to'xtamayotgan ko'z yoshlarimning sababi u bo'lsa-da, Yaratgan go'zal mahbubamning umrini uzun qilsin". Bu yerda tajnis qilingan so'z "ko'z yoshi" va "inson umri" ma'nolarida qo'llangan. Keyingi baytda oshiq go'yoki o'z-o'ziga tasalli beradi: "O'rmonga o't ketsa ho'lu quruq barobar yonganidek, ishq o'ti butun vujudni kuydiradi, buning uchun ko'p yig'lash shart emas".

Tuyuq Navoiygacha bo'lgan davr adabiyotining asosiy janrlaridan biriga aylandi. Bu janrda ijod qilish yuksak iste'dodni ham talab qiladi. Ayniqsa, qofiyada tajnis so'zning berilishi janrning o'ziga xos imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Tuyuqning qofiyalanishi ruboiyga o'xshaydi. Janrning a-a-b-a tarzida qofiyalanadigan ko'rinishi yetakchi bo'lsa-da, biroq badiiy ijod olamida a-b-v-b shaklida qit'a singari qofiyalanadigan tuyuqlar ham uchrab turadi.

## QIT'A

Qit'a lirik tur janrlaridan biri hisoblanadi. Asosan, unda falsafiy qarashlar, axloq-odob haqidagi fikr va mulohazalar ifodalanadi. Bu jihatdan u ko'proq didaktik xarakter kasb etadi. Mazkur janr to'g'risida fikr yuritgan o'tmish adabiyotshunoslari, shu jumladan, keyingi davr tadqiqotchilari ham unda matla'ning bo'lmasligi, ya'ni dastlabki baytning o'zaro qofiyalanmasligi xususida ma'lumotlar berishgan. Shunday fikrlarni Fitrat ham qayd etadi: "g'azalning birinchi bayti bo'lmasa, qolgani qit'a bo'ladi. Boshqacha aytganda, qofiyasi har baytning oxirida bo'lib, birinchi misra'i qofiyasiz bo'lgan tizmalarga qit'a deyiladi"<sup>227</sup>. Demak, qit'aning qofiyalanish sistemasi b-a, v-a, g-a... shakliga ega bo'lib, dastlabki bayt o'zaro qofiyalanmasligi bilan g'azaldan farq qiladi. Ammo manbalarda qit'aning ba'zan masnaviyga o'xshab, a-a, b-b, v-v... ko'rinishida qofiyalanishi haqida ham ma'lumotlar uchraydi<sup>228</sup>.

Qit'alarning turli mavzularda yozilishi, hajm jihatidan chegaralanmasligi janrga keng imkoniyatlar yaratadi. Uning namunalari o'zbek adabiyotida XIY asrdan boshlab kuzatiladi. Xorazmiyning "Muhab-

<sup>227</sup> Fitrat. Adabiyot qoidalari. Toshkent, Ukituvchi, 1995. B. 5.

<sup>228</sup> Orzibekov P. Lirikada kichik janrlar. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1976. B. 20. U'zbek lirik poeziyasida gazal va musammat. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1976. B. 34. Pirnazarov M. Poetik janrlar tipologiyasi. Toshkent, Fan, 1989. B. 90. Nosirov O. va boshq. U'zbek klassik she'riyati janrlari. Toshkent, Ukituvchi, 1979. B. 150.

batnoma” dostoni tarkibidagi qit’a 10 misradan iborat bo‘lib, asarning so‘nggi nomasidan keyingi yakuniy qismida uchraydi. Mazkur qita hasbi hollik xususiyatiga ega:

Tama’ dominda qolur qush emas men,  
Telim ayvon uza uchqon Humomen.  
Qilichtek til bila tuttum jahonni,  
Qanoat mulki ichra podshomen...<sup>229</sup>

“Chog‘ir va Bang” munozarasi nasriy yo‘lda yozilgan bo‘lsa-da, unda o‘zbek tilidagi qit’alarga ham duch kelish mumkin. Asarda Yusuf Amiriy qit’alarni munozaraga kirishgan obrazlarning fikrlari tasdig‘i sifatida ishlatadi. Bu esa munozara tarkibida qit’aning o‘ziga xos yakunlovchilik vazifasidan darak beradi.

Gadoiy devoni tarkibida ikki baytdan iborat bo‘lgan qit’a janri namunalari yetib kelgan:

Garchi, shoho, durri serob o‘zini  
Qildi nisbat so‘zunga bilmay yaroq.  
O‘z kamoling birla jurmini kechur,  
Tobug‘ing-da chunki tutti qo‘shquloq<sup>230</sup>.

Qit’a muhabbat mavzusida yaratilgan bo‘lib, unda ma’shuqaning shirin so‘zligi haqida gap boradi. Dastlabki baytdagi mazmun quyidagicha: “Qimmatbaho dur o‘zini ma’shuqaning so‘zlariga qiyoslab, gunoh qildi”. She’r davomida ma’shuqaga murojaat qilinib, “durri serob”ning aybini kechirish so‘ralmoqda: “Sen o‘z kamoling bilan uning gunohidan o‘tgin, chunki u huzuringga kelib bosh egib turibdi”.

Aslida janr qoidalariga ko‘ra, qit’alarda taxallus qo‘yilishi shart emas. Biroq ayrim qit’alarda shoirlar o‘z taxalluslarini qo‘llab kelishgan. Bu hodisa Gadoiy uchun ham begona emas. Shoir qit’alaridan birida taxallusning qo‘llanilishi bu an’ananing o‘zbek adabiyotida XY asrdan boshlanganligini bildiradi. Hofiz Xorazmiyning ayrim qit’alarida ham taxallusning berilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Shoir qit’a janrida ancha sermahsul ijod qilgan bo‘lib, uning 31 qit’asi devoniga kiritilgan. Ho-

<sup>229</sup> Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари (Тузувчи: Насимхон Раҳмонов). 2-жилд. Тошкент, Фан, 2007. Б. 128.

<sup>230</sup> Гадоий. Ғазаллар // Ҳаёт васфи. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1988. Б. 681.

fiz qit'alarining ko'pchiligi 3, 5 baytlik hajmda yaratilgan. Ular orasida 7, 9 baytli qit'alarni ham uchratish mumkin. Janr imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish Hofiz lirikasini yuqori saviyaga olib chiqadi. Buni biz, birinchidan, qit'alarining turli mavzularda yozilganligida, ikkinchidan, g'oyaviy mukammallikda, uchinchidan, badiiy yetuklik va shakliy jihatdan janr talablari darajasida ekanligida ko'ramiz:

Do'stliq qilma ul kishi bilakim,  
Bo'ldi dushmanga mahrami asror.  
Do'stkim, bo'ldi do'st dushmanga,  
Mehribon bo'lmog'i erur dushvor.  
Qo'zini qayda saqlasun itkim,  
Bo'ldi yozida bo'ri birla yor<sup>231</sup>.

Ko'rinadiki, qit'a 3 baytdan iborat bo'lib, b-a, v-a, g-a qofiyalanish tizimiga ega. She'ning nasihat tarzida yozilganligi axloqiy-ta'limiy yo'nalishdagi fikrlarning qit'a janrida qay darajada ifodalanishini baholash imkoniyatini yaratadi. Unda qanday odam bilan do'stlashmaslik lozimligi haqida fikr yuritiladi. Mazmunning mukammalligiga uning kompozitsion qurilishi ham yordam bergan. She'ni tuzilishiga ko'ra ikki qismga ajratish mumkin. Dastlabki qism, ya'ni 4 misrada dushman bilan sirlashadigan kishining haqiqiy do'st bo'lishi qiyinligi haqidagi qarashlar ifodalangan bo'lsa, so'nggi baytdagi fikrlar qit'ada ko'tarilgan poetik g'oyaning hayotiy dalili vazifasini o'tagan: dushmanga do'st tutingan kishiga ishonish - cho'lu biyobonda bo'ri bilan oshno bo'lgan itga qo'zini ishonib topshirishday gap.

Qit'aning g'oyaviy-badiiy jihatdan yangi va yuqori bosqichga ko'tarilishida mavlono Lutfiyning ham xizmatlari beqiyos. Shoir qit'a janri imkoniyatlaridan unumli foydalanib, bu janrda ham barakali ijod qilgan:

Aqlu jonning ofati, din g'orati,  
Har ne bor ul ko'zi birla qoshdadur.  
Ketmadi savdosi hargiz boshtin,  
Rost ayturlar, ki "Davlat boshdadur"<sup>232</sup>.

<sup>231</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2-китоб. Тошкент, 1981. Б. 293.

<sup>232</sup> Лутфий. Сенсап севарим. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1987. Б. 351.

Qit'a to'rt misradan iborat bo'lib, qofiyalanishi ham (b-a-v-a) janr mezonlariga to'g'ri keladi. U ishq-muhabbat mavzusida yozilgan. She'rdagi ma'shuqaning go'zalligi vasfi o'ziga xos obrazli tasvir orqali ifodalangan. Oshiq uchun go'yoki dinning oyog'osti bo'lishi ham, aqlni o'g'irlyadigan ham, jonga balo keltiradigan ham – nimaiki yomonlik bo'lsa, uning sababchisi – maftun qiluvchi shu ko'z va qoshlar. Bu go'zallik oldida u barcha narsani unutadi va hamma narsa qilishga tayyor. Uchinchi misrada oshiq ishq savdosiga yo'liqqanidan afsuslangandek taassurot uyg'otadi. So'nggi misra esa o'ziga xos yakunlovchilik xususiyatiga ega. Undan anglashilishicha, lirik qahramon o'z-o'ziga tasalli bergandek.

Qit'a o'zbek adabiyotida o'ziga xos shakllanish jarayonini bosib o'tdi. Qit'aning ilk namunalari noma va munozara janridagi asarlar tarkibida uchrasa-da, biroq u Gadoiy, Lutfiy kabi shoirlar ijodida alohida mustaqil janr sifatidagi ko'rinishlarga ega bo'ldi. Ayniqsa, qit'aning g'oyaviy-badiiy, shakliy miqyosdagi takomili Hofiz Xorazmiy lirikasida yuqori bosqichga ko'tarildi.

## FARD

O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega bo'lgan lirik janrlardan biri fard hisoblanadi. Fard arabcha so'z bo'lib, yakka, yolg'iz degan ma'nolarni anglatadi. Janr atamasining lug'aviy ma'nosi uning tuzilishi jihatdan ixchamligi, ya'ni aynan mustaqil bir baytdangina iborat ekanligiga ham ishora qiladi. Fardning har ikkala misrasi o'zaro qofiyalanadi. Biroq o'tmish adabiyotimizda qofiyalanmagan fard janri namunalari ham uchraydi.

Fardning vazni to'g'risida shuni aytish mumkinki, u anchagina erkin janr hisoblanadi. Chunki uning ilk namunalari asosan barmoq vaznida yaratilgan bo'lsa, yozma adabiyotning keyingi taraqqiyot davrlarida aruz fardning asosiy vazniga aylandi. Aruzning fardni yuzaga keltirishda doimo qo'llanadigan maxsus bahri yo'q. U vaznning turli bahrlarida yozilishi mumkin.

Fardlarga xos bo'lgan qisqa, lo'nda va ixchamlilik uni maqol janriga yaqinlashtiradi. Eng asosiysi, fardlarda ham xalq maqollaridagi kabi ibratli fikr mavjud. Bu esa didaktik xarakter fardning ilk shakllanish bosqichlaridayoq janr mezonlaridan biriga aylanganligidan dalolat beradi. Bu xususiyat ayrim fardlarning aforizm darajasiga ko'tarilishiga ham xizmat qiladi.



Fardning adabiyotimiz tarixidagi ilk namunalari haqida gap ketganda, mutaxassislar tomonidan “Devonu lug‘otit turk” asari tilga olinadi. Darhaqiqat, “Devon”da ikkiliklar shaklidagi anchagina she‘r namunalari ham uchraydi. Ular asardagi turkiy so‘zlarning izohi sifatida keltirilgan, ki, bundan ikkilik tarzidagi she‘rlar turkiy adabiyotda qadimdan mavjud ekanligini sezish qiyin emas.

Fardning keyingi namunalari noma janri asosida yaratilgan asarlar tarkibida uchraydi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida garchi yolg‘iz bitta fardni uchratish mumkin bo‘lsa-da, biroq Yusuf Amiriy bu janrda anchagina samarali ijod qilganligi ko‘rinadi:

Vafosin sog‘inib jurmin unutqin,  
Inoyat ko‘zin oning sori tutqin<sup>233</sup>.

“Dahnoma” asaridan olingan mazkur misralar ishqiy mazmunga ega. Shuningdek, unda didaktik ruh ham mavjud. Baytning o‘zaro qofiyalanish usuli ham fardlarga xos.

Fard janrining taraqqiyotida nasriy asarlar ham muhim rol o‘ynadi. Xususan, bu borada munozara janridagi asarlari bilan mashhur bo‘lgan Yaqiniy va Yusuf Amiriyning nomlarini alohida ta’kidlash lozim. “O‘q va yoy” hamda “Chog‘ir va bang” munozaralarida “bayt”, “nazm” nomlari ostida keltirilgan ikki misradan iborat bo‘lgan she‘rlarda ko‘proq iqtibos fardlarga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Fardning mustaqil ijod qilinishi va alohida janr sifatida devon tarkibida maxsus uchrashi mavlono Lutfiy lirikasi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shoir qalamiga mansub bo‘lgan fardlar janrning shakliy va g‘oyaviy-badiiy imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqara olgan. Lutfiy fardlari garchi mavzu jihatdan rang-baranglik kasb etmasa-da, biroq ular janrning keyingi davrlardagi rivoji uchun muhim tajriba maktabi vazifasini o‘taganligi sir emas:

Man shikasta agar joduliqni bilsam edi,  
O‘zumni noma qilib xidmatingg‘a borgay edim<sup>234</sup>.

<sup>233</sup> Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари (Тузувчи: Насимхон Раҳмонов). 2-жилд. Тошкент, Фан, 2007. Б. 242.

<sup>234</sup> Лутфий. Сепсан севарим. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1987. Б. 343.

Ko‘rinadiki, mazkur misralar an‘anaviy mavzuda yozilgan. Unda oshiq botiniy olamiga xos xususiyatlar namoyon. O‘zini bechorahol, ko‘ngli qattiq ozor chekkan kishi sifatida ko‘rish - mumtoz adabiyotdagi oshiq obraziga xos belgilardan biri sanaladi. Bu borada Lutfiy ishq tasvirining an‘anaviy jihatlariga sodiq qolgan. Biroq shoirning novatorligi shundaki, u oshiqning orzusi tasvirida o‘ziga xos yangilik yaratadi. Lirik qahramon sehrigar bo‘lishni orzu qilmoqda. Sehrigarlilik unga qanday yordam berishi mumkin? Bu – ma‘shuqa visoliga intilishning bir yo‘li: ya‘ni, agar men “joduliqni” bilganimda edi, o‘zimni maktubga aylantirib xizmatingga borgan bo‘lardim.

Lutfiy so‘z o‘yinlaridan foydalanish imkoniyatini fard janrida ham sinab ko‘radi. Buning natijasi o‘laroq ijod olamida tajnisli fardlar yuzaga keladi. Janrning keyingi rivojlanish bosqichlarida tajnisli fardlar yozish boshqa ijodkorlar tomonidan ham muvaffaqiyatli davom ettiriladi, Lutfiy o‘zbek adabiyotida mazkur go‘zal bir an‘ananing ilk boshlovchisiga aylanadi. Haqiqatan ham tajnis fardlarga o‘zgacha bir joziba bag‘ishlaydi:

Ko‘nglum qarori qolmadi, bir oqcha yuz tilar,  
Ul oqcha yuzki men tilaram, oqcha yuz tilar<sup>235</sup>.

Lutfiy fardlariga xos bo‘lgan yana bir xususiyat uning maqol va hikmatli so‘zlardan unumli foydalanishida ham ko‘rinadi. Shoir ayrim fardlarning ikkinchi misrasida xalq donishmandligi namunalari murojaat etadi. Bu bilan misralarda ilgari surilayotgan fikrlarni tasdiqlashga harakat qiladi:

Sham‘i majlisga berur nur ul safoliq orazing,  
Bul masal ravshandurur, oreki, yog‘ yog‘qa tomar<sup>236</sup>.

Xullas, maxsus yozilgan kichik lirik asar sifatida mashhur bo‘lgan fard adabiyotimiz tarixida alohida taraqqiyot bosqichiga ega. Janrga xos bo‘lgan ayrim belgilar og‘zaki adabiyot mahsuli bo‘lgan xalq maqollari-da uchrasa-da, biroq uning yozma adabiyotdagi namunalari XY asrgacha noma va nasriy asarlar tarkibida yashab keldi. Fardning alohida janr sifatida maxsus yaratilishida mavlono Lutfiyning xizmatlari beqiyosdir.

<sup>235</sup> Лутфий. Ўша китоб. Б. 340.

<sup>236</sup> Лутфий. Ўша китоб. Б. 342.

## MUNDARIJA

Soʻz boshi .....	3
------------------	---

### ISLOMGACHA BOʻLGAN DAVRDAGI QADIMGI TURKIY ADABIYOT

Qadimgi mif va afsonalar .....	11
Avesto .....	19
Urxun-Yenisey yozuvi yodgorliklari.....	38
Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.....	64
Buddaviylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot.....	82
Maytri smit (Moytoʻra bilan uchrashuv).....	104
“Oʻgʻuznoma” dostoni.....	114

### GʻAZNAVIYLAR DAVRI ADABIYOTI

Ilk uygʻonish davridagi ijtimoiy hayot va madaniy muhit .....	124
Abu Rayhon Beruniy va uning ilmiy, adabiy faoliyati.....	151

### QORAXONIYLAR DAVRI ADABIYOTI

Qoraxoniylar davri adabiyoti.....	162
Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asari.....	165
Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit-turk” asari .....	185
Ahmad Yugnakiy va uning “Hibat ul-haqoyiq” asari.....	199
Ahmad Yassaviy .....	209

### OLTIN OʻRDA OʻZBEK ADABIYOTI

Oltin Oʻrda oʻzbek adabiyoti .....	222
Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziy va uning “Qisasi Rabgʻuziy” asari.....	231
Mahmud ibn Ali as-Saroyi (XIV asr). “Nahju-l-farodis” (“Jannatlarning ochiq eshiklari”) asari.....	254
Sayfi Saroyining hayoti va ijodi.....	270
Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy va uning “Jomeʻ ut-tavorix” asari.....	290
Qutb va uning “Xusrav va Shirin” dostoni .....	303
Oltin Oʻrda adabiy muhitida noma janrining yuzaga kelishi.....	321
Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari .....	321

## TEMURIYLAR DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI

Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti.....	332
Mirzo Ulug‘bekning ”To‘rt ulus tarixi” asari.....	338
Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asari.....	345
Temuriylar davri o‘zbek adabiyotida noma janri taraqqiyoti.....	354
Munozara haqida ma‘lumot.....	372
Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va Bang” munozarasi.....	380
Yaqiniyning “O‘q va Yoy” munozarasi.....	395
Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asari.....	414
“Yusuf va Zulayho“ dostoni va shu turkumdagi dostonlar.....	421
Haydar Xorazmiy ijodi.....	439
Lutfiy.....	454
Gadoiy.....	465
Sakkokiy.....	473
Atoyi.....	484
Sayyid Qosimiy ijodi.....	489
<b>XULOSA</b> .....	499
<b>ILOVA</b> .....	500

Nasimxon RAHMONOV

# O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

*(Eng qadimgi davrlardan XV asrning  
birinchi yarmigacha)*

*Muharrir:* A. Tilavov  
*Texnik muharir:* Yu.O‘rinov  
*Musahhiha:* I. Zohidova  
*Sahifalovchi dizayner:* N. Muhamedova

Nash.lits. № AI 245, 02.10.2013.

Terishga 20.10.2017 yilda topshirildi.

Bosishga 01.12.2017 yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16.

Ofset bosma. “Times New Roman” garniturasida. Shartli b.t. 32.32

Nashr b.t. 34.75 Adadi 2000 nusxa. Buyurtma 156.

Bahosi shartnoma asosida

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. E-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Telefon: (0 371) 228-07-96, faks: (0 371) 228-07-95



"Sano-standart"  
нашриёти

ISBN 978-9943-4418-2-8



9 789943 441828